



Fan va Ta'lim Integratsiyasi

Интеграция Науки и Образования

Integration of Science and Education



O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining “Fan va ta’lim integratsiyasi” ilmiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan №078803 raqam bilan o‘tkazilgan hamda OAK ning 2024-yil 27-sentabrdagi Rayosatining №361/5 sonli qarori asosida tarix, pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy nashrlar ro‘yxatiga kiritildi.

“Fan va ta’lim integratsiyasi” jurnalining tahrir hay’ati tarkibi

Bosh muharrir: Institut rektori, professor Negmatova Shaxzoda Shuhratovna

Bosh muharrir o‘rinbosari: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, DSc, dotsent Safarov Akbar Raxmanovich

Mas’ul: PhD, Ismoilov Alisher Sidikovich

Mas’ul kotib – filologiya fanlari nomzodi, dotsent Raximova Gulbaxor Karshibayevna

Texnik muharrir – Umirov Boboyor Baxtiyor o‘g‘li

07.00.00 - Tarix fanlari

G‘afforov Shokir Safarovich – tarix fanlari doktori, professor;

Saidov Ilxomjon Muxiddinovich – tarix fanlari doktori, professor;

G‘oyibov Bobir Sobirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Ergashov Baxtiyor Ergashovich – tarix fanlari doktori, professor.

10.00.00 – Filologiya fanlari

Mirzayev Ibodillo Kamolovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Abdiyev Murodqosim Bolbekovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Pardayev Azamat Baxromovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Boboqulov Ismoil Turkmanovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Normo‘minov Sherzod To‘ychiyevich – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

13.00.00 – Pedagogika fanlari

Kiyamov Nishon Sadikovich – pedagogika fanlari doktori, professor;

Shadiyev Narzikul – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Fayziyev Mirzali Asfandiyorovich – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;

Hamroyeva Feruza Asrorovna - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;

19.00.00 – Psixologiya fanlari

Jabborov Azim Meylikulovich – psixologiya fanlari doktori, professor;

Shamsiyev O‘ktam Baxriddinovich – psixologiya fanlari doktori, professor;

Isakova Muazzam Tulkinovna – psixologiya fanlari doktori, professor.

MUNDARIJA

07.00.00 – Tarix fanlari

Abdurahmonov A. <i>Gazetalarda madaniy hayotning yoritilishi tarixi (Zarafshon vohasi viloyat gazetalari misolida 1991-2021-yillar)</i>	6-11
Abduvaliyeva N.A. <i>Mirvoxid Qosimov tadqiqotlarida Markaziy Osiyoning tosh davri tarixining yoritilishi</i>	12-16
Abdug‘aniyev Sh.T. <i>Farg‘ona vodiysi dehqon jamoalari madaniyatlarining o‘rganilishi (Chust madaniyati misolida)</i>	17-23
Elboyeva Sh.B. <i>Yangi O‘zbekistonda rahbar ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki, ular faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlari</i>	24-28
Farmanova G.K. <i>Archaeological research of kuva in the second half of the XX century</i>	29-36
Isoqjanov F.Q. <i>Mustaqillik dastlabki yillarida O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi holat va uning asosiy muammolari</i>	37-42
Mamatqulov B.Sh., Shonazarov E.A. <i>Qashqadaryo viloyatida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi tarixi: mehnat resurslari va kadrlar siyosati masalalari (2016-2024 yillar)</i>	43-47
Muminova G.E., Eshimov Sh.X. <i>Xo‘jalik sudlari tarixiga nazar (Qashqadaryo viloyati misolida)</i>	48-51
Sattarova I. <i>Bibixonim faoliyati va maqbarasi tarixidan</i>	52-55
Кошанов Б.А., Хужаниязов Д.М. <i>Ходжейли В 1924-1941 годы</i>	56-60

10.00.00 – Filologiya fanlari

Haqberdiyeva S.Sh. <i>Interyer terminlarining yasalishi (-xona va -goh qo‘shimchalari asosida)</i>	61-67
Maxammadiyeva D.R. <i>Raqamli texnologiyalarning tilga ta’siri: Korpus lingvistikasi</i>	68-71

13.00.00 – Pedagogika fanlari

Abdumuminova A., Majidova Sh.Sh., Fayzullayev Sh. <i>Maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish</i>	72-75
Abduraxmanova Ch.B. <i>Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos mustaqil topshiriqlarni ishlab chiqish metodikasi</i>	76-81
Axmedova M.E., Raximova G.K. <i>“Bolalar adabiyoti” fani ta’lim mazmunida mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlari ilmiy-metodik muhitini tashkil etish usullari</i>	82-86
Alimov A.U. <i>Eksperimental-tadqiqot faoliyati – fizika darslarida o‘quvchilarning bilimini oshirish vositasi sifatida</i>	87-92
Darmonova A.B. <i>Chorrahadagi harakatni tavsiflovchi matematik modellariga oid masalalarni yechish metaodikasi</i>	93-98
Ergasheva G.A. <i>Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida didaktik o‘yinlar orqali husnixat malakalarini shakllantirish</i>	99-102
Ergasheva G.A., Shodiyeva J.X. <i>Boshlang‘ich ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy jihatlari</i>	103-109
Faxriddinov M.F., Urakov Sh.R. <i>Oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlaridagi faoliyatini baholash bo‘yicha xorijiy tajribalar tahlili</i>	110-115
G‘apporov Z.A. <i>Ingliz tilini o‘qitishda korpus texnologiyalarni ta’lim jarayoniga qo‘llashning zarurati</i>	116-120

Ibragimov A., Pulatov O. <i>Hosilaning ayniyat va tengsizliklarni isbotlashga tatbiqi</i>	121-125
Igamov S.S., Toshova M.A. <i>V-sinf texnologiya darslarida o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish metodikasi ("Yog'och materiallaridan buyum tayyorlash" mavzusi misolida)</i>	126-130
Jumanov X.Sh. <i>Yangi avlod darsliklarining metodikasi va texnologik imkoniyatlari</i>	131-136
Mardonov E., Salimova N., Xushvaqto'v A. <i>Boshlang'ich ta'limda hikoya usulini qo'llash orqali chet tilida kognitiv fikrlashni shakllantirish</i>	137-141
Mattiyev I.B. <i>Talaba-yoshlar jamoasi sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy agentlar ta'sirining xususiyatlari</i>	142-146
Pardayev S.A. <i>XXI asr yoshlari hayotida ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonining ijtimoiy pedagogik xususiyatlari</i>	147-151
Pardayev S.A. <i>Yangi O'zbekiston hayotida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni targ'ibot va qarshi targ'ibot qilishning texnologik diversifikatsiyasi</i>	152-157
Qudratov I., Xamrokulov N. <i>Maktab musiqa ta'limida o'quvchilarni dirijorlik amaliyotiga o'rgatish uslublari</i>	158-165
Qobilov V.A. <i>Mediasavodxonlik va axborot madaniyati kommunikativ vosita va foydalanishning nazariy asoslari</i>	166-170
Raximova G.K. <i>Boshlang'ich sinflarda ertak va masal janrini innovatsion o'qitish usullari</i> ...	171-176
Rustamov A. <i>Principles and tools of teaching foreign languages in secondary education: writing skills instruction in global contexts</i>	177-182
Rustamova Sh.A. <i>Matematik analiz darslarida muammoli vaziyatlarni yaratish</i>	183-187
Salimova M.R. <i>O'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalarini PISA baholash dasturi asosida takomillashtirish</i>	188-194
Saparbayeva D.A. <i>Bo'lajak informatika o'qituvchilarida statistik tafakkurni rivojlantirishning ilmiy metodik asoslari</i>	195-199
Sattarov B.K. <i>Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash kompetentsiyalarini shakllantirish</i>	200-204
Sattorova G., Amonqulova Z., Fayzullayev Sh. <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda "Ilm yo'li" variativ dasturining ahamiyati</i>	205-207
Sattorova F.Sh., Raximova G.K. <i>Zafar Diyor she'rilarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatning badiiy talqini</i>	208-212
Shamsiyeva M.N. <i>Ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashning me'yoriy-huquqiy va ilmiy-nazariy asoslari</i>	213-218
Shodiyev N., Shodiyev R. <i>Innovatsion texnologiyalar vositasida "Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi"ni o'rganish orqali talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash</i>	219-228
Shodiyev F.T. <i>Methods of effective use of didactic games in the training of primary school teachers</i>	229-231
Suyunova G.U. <i>Biologiya darslarida o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi</i>	232-238
Umirov B.B. <i>Elektron ta'lim platformalari va amaliy dasturlar paketini integratsiyasi asosida talabaning shaxsiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi</i>	239-245
Umirov J.I. <i>Axborotli ta'lim muhitida amaliy mashg'ulotlarni o'tish metodikasi va uni tashkil etishning pedagogik muammolari</i>	246-251
Umirova S.S., Djanaliyeva G.A. <i>Boshlang'ich ta'limda o'qituvchining kreativligi</i>	252-255



Xamrokulov N.B. <i>O'quvchilarni o'zbek maqom san'ati bilan tanishtirib borish yo'lida mavjud muammolar.....</i>	256-260
Xasanov A.A. <i>Bo'lajak chet tili o'qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda rolli o'yinlar va kompyuter texnologiyalarining ahamiyati.....</i>	261-266
Xodjayorova S.A. <i>Til o'rganishda takrorlashning ahamiyati.....</i>	267-271
Xudaykulova Sh.M. <i>Axloqiy qarashlarni neyropedagogik asosda rivojlantirish shakllari.....</i>	272-275
Yakubova M.F., Shernazarov I.E. <i>Kimyo fanini o'qitishda aniq fanlar integratsiyasidan foydalanishning ahamiyati.....</i>	276-282
Yusupov E.X. <i>Virtual laboratoriyalar yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari</i>	283-287
Бегимов Х.Х. <i>Формирование интереса младших школьников к изучению естественных наук.....</i>	288-296

19.00.00 – Psixologiya fanlari

Abdusayitov B. <i>Rahbarning boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish uslublari</i>	297-301
Bahriyeva N.N., Bakhrillayeva A.Sh. <i>Maktablarda o'quvchi yoshlarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning psixologik omillari.....</i>	302-306
Iskandarov E. <i>O'smirlarda o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....</i>	307-312
Radjabov A.A. <i>Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS)dan olingan natijalar sharxi.....</i>	313-319
Umarov B.M. <i>Yoshlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik omillari....</i>	320-327
Zaripov O.M. <i>Shaxsning ruhiy salomatligida jamoaning ta'siri.....</i>	328-333
Джуманиязов Ю. <i>Формирование культуры отцовства у студентов</i>	334-338

GAZETALARDA MADANIY HAYOTNING YORITILISHI TARIXI
(Zarafshon vohasi viloyat gazetolari misolida 1991-2021-yillar)

ИСТОРИЯ ОСВЕЩЕНИЯ КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ В ГАЗЕТАХ
(1991-2021 гг. на примере региональных газет Зарафшанского оазиса)

HISTORY OF THE COVERAGE OF CULTURAL LIFE IN NEWSPAPERS
(1991-2021 as an example of regional newspapers of Zarafshan oasis)

Abdurahmonov Abdug'affor Abdug'ofurovich

Annotatsiya. Maqolada Zarafshon vohsi viloyatlarida chop etib kelinayotgan gazetalarda madaniy hayotning yoritilishi tarixi bayon etilgan. Mustaqillikning dastlabki yillaridan gazetalar axborot tarqatishda o'z uslub va yo'nalishlarini o'zgartirib borgan. Adabiyot va san'at, ilm-fan, xalq og'zaki ijodi, kitobxonlik madaniyati, ziyoratgohlar va allomalar faoliyati xolis va asl manbalar asosida o'rganila boshlandi. Bunday o'zgarishlarni xalq ommasiga yetkazish, chinakam tarix bilan kishilarni tanishtirishda Zarafshon vohasidagi viloyat va tarmoq nashrlari muhim ro'l o'ynadi.

Kalit so'zlar: gazeta ruknlari, muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar, buyuk allomalar, adabiyot va san'at, ilm-fan, kitobxonlik mananiyati, xalq og'zaki ijodi, tarixiy asarlar, haftalik teledasturlar, dam olish sahifalari. **Аннотация.** В статье описывается история освещения культурной жизни в газетах, издаваемых Зарафшанской областью. С первых лет независимости газеты меняют методы и направления распространения информации. Литература и искусство, наука, фольклор, культура чтения книг, деятельность святынь и ученых стали изучаться на основе беспристрастных и первоначальных источников. Важную роль в донесении таких перемен до общественности и приобщении людей к реальной истории сыграли региональные и сетевые издания Зарафшанского оазиса.

Ключевые слова: газетные колонки, святыни и святыни, великие учёные, литература и искусство, наука, читательское отношение, фольклор, исторические произведения, еженедельные телепередачи, праздничные страницы.

Abstract. The article describes the history of coverage of cultural life in newspapers published in Zarafshan region. From the first years of independence, newspapers have been changing their methods and directions in information dissemination. Literature and art, science, folklore, culture of reading books, the activities of shrines and scholars began to be studied on the basis of impartial and original sources. The regional and network publications of the Zarafshan oasis played an important role in conveying such changes to the public and introducing people to the real history.

Keywords: newspaper columns, holy places and shrines, great scholars, literature and art, science, reading attitude, folklore, historical works, weekly television programs, holiday pages.

*Abdurahmonov A.A.,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
addugaffor@gmail.com*

Gazetalar o'z sahifalaridan madaniy hayot tahliliga bag'ishlangan materiallar uchun keng joy ajratgan. Bu yo'nalishdagi ijodiy ishlar "Madaniyat xabarlari", "Oynayi jahonda", "Kuling, umringiz

uzayadi”, “San’at olamida”, “Yalt etgan satrlar” kabi ruknlarda chop etilib, ular orqali xalq ijodi, ilmfan, ijodkorlarning chiqishlari, musiqa madaniyati, nasriy asarlardan parchalar, kitobxonlik madaniyati, axloqiy mavzular, ziyoratgohlar va buyuk allomalar faoliyatiga doir qimmatlik ma’lumotlar bilan tanishish mumkin.

O’zida madaniy hayotni aks ettirgan maqola tayyorlash uchun tahririyat xodimidan ijodkorlik qobiliyatidan tashqari, shu sohaga oid bilim va ko’nikmalar talab etiladi. Shuning uchun ham tahririyat xodimlari o’z yo’nalishiga qarab sohalar kesimida ixtisoslashib borgan. Shu nuqtayi nazardan mustaqillikning dastlabki yillarida e’lon qilingan bu turdagi materiallar tarix fani uchun muhim manbalar hisoblanadi.

1990-yillarning boshlaridan muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar obod qilindi. Buyuk allomalarimiz qoldirgan madaniy-ma’naviy me’rosni asrab-avvaylash ularni kelajak avlodga yetkazish ishlariga alohida e’tibor qaratildi. Bu yo’nalishda olib borilgan islohotlar va o’zgarishlar vohada chop etilib kelinayotgan gazetalarning sahifalarida yoritib borilgan.

“Zarafshon” gazetasining yozishicha [1], 1997-yilda Hoji Ahror Valiy merosini o’rganish, xalq ommasiga yoyish, yosh avlodni insonparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida uning nomida jamg’arma tashkil etiladi. Ushbu jamg’arma Hoja Ahror Valiy asarlarini targ’ib qilishga xizmat qilmoqda.

2000-yilda yana bir buyuk alloma Imom Buxoriyning 1225-yilligi nishonlandi. “Muhaddislar sarvari” [2] maqolasi yozilishicha, Toshkent va Samarqandda buyuk muhaddisga bag’ishlab “Milliy mafkura va diniy qadriyatlar” mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o’tkazildi. Bu tadbirlarda 30 ga yaqin ilmiy ma’ruzalar tinglanadi.

Mustaqillik sharofati bilan Bahoviddin Naqishband hayoti va ilmiy merosini chop etish ishlari olib borildi [3]. Sadriddin Salim Buxoroyning Muvoruannahr musulmonlari idorasi tomonidan maqullangan “Hazrati Naqshband” 6 bosma taboq hajmli risolasi nashr qilindi. Oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti huzuridagi “Navqiron Buxoro” gumanitar tadqiqotlari markazi atrofida jipslashgan olimlar yordamida allomaning hayot va ta’limotiga bag’ishlangan Abdurahmon Jomiyning “Nafohot-ul-uns”, “Risolai tariqati Naqshbandiya”, As-Safining “Rashohot ayn-ul-hayot”, Muhammad Bokirining “Maqomati Hoji Bohovuddin”, Muhammad Parsoning “Risolai Qutsia”, Salohiddin Muborakning “Anis at tolibin” noyob asarlaridan parchalar arab, fors va boshqa tillardan o’grilib, kitobchalar shaklida chop etildi. Allomaning 675-yilligi yubleyi munosabati bilan Buxoroda amalga oshirilayotgan qurilish va ta’mirlash ishlarini guvohi bo’lgan arabistonlik aka-uka Muhammad va Osman Bomaruflar ushbu ishlar uchun 1 ming AQSH dollari hayriya qilishadi [4].

Bohovuddin Naqishbandning zamondoshi Amir Temur bilan aloqalari tarix fani uchun qiziq bo’lib kelmoqda. Mustaqillik yillarida olib borilayotgan tadqiqotlarning ayrimlari shu masalaga qaratilgan. Bu haqida Q.Fozilovning “Sohibqiron va Bohovuddin Naqishband” [5] sarlavhali maqolasida o’qishimiz mumkin. Naqshbandiyning “Dast ba koru, dil ba yor” ya’ni qo’ling mehnatda, qalbing ollohda bo’lsin degan ezgu g’oyasi Amir Temur saltanatining iqtisodiy holatini yaxshilashga xizmat qilgan. Sababi bu ta’limot kosiblar hunarmandlar va mehnatkash aholini ilhomlantirgan.

“Buxoro haqiqati” orqali yana bir buyuk allomaning hayoti haqida ma’lumotga ega bo’lishimiz mumkin. “Ulug’ bobokalonimiz bashorati” [6] sarlavhali maqolada Sayfiddin Boharziyning faoliyati haqida so’z yuritiladi. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida yozishicha, Sayfiddin Boharziy 1224-yilda Xuroson viloyatining Boharz manzilgohida tavallud topgan. Yoshliqda Hirot va Nishopurda tahsil olgan. Keyinchalik Xuroson, Xorazm va Buxoro madrasalarida o’qib ilm olgan. Islom diniga dahldor tarixiy manba’larda “Inson zotining avliyosi” nomi bilan ulug’langan. Chingizxon boshliq mo’g’il qo’shining Xorazmga yurishida Urganch mudofaasini tashkilotchisi bo’lgan. Sayfiddin

Boharziy Najmiddin Kubroning as'hoablari (shogirdlari)dan biri bo'lgan. Buxoro va Movarounnahr, keyinchalik butun O'rta Osiyo islomiyatining bosh shayxi darajasigacha ko'tarilgan.

Buxoroning qadim maskanida Xojogon tariqatiga asos solgan ulug' so'fiy, olimi rabboniy Xoji Abdulxoliq G'ijdivoniy nash'u namo topganlar [7]. U kishi yaratgan "Risolai sohibiya", "Risolai shayxush shuyux Hazrati Abdu Yusuf Hamadoniy", "Maqomati Yusuf Hamadoniy", "Az guftor Xoji Abduxoliq G'ijdivoniy" kabi buyuk asarlar xalq ongini bid'at va xurofotlardan mosuvo etishda, Quroni Karim oyatlari, Muhammad alayhissalom sunnatlarini keng yoyishda musulmon ahliga dasturamal bo'lib xizmat qilgan. "Buxoro haqiqati" gazetasining yozishicha, 1993-yilda G'ijdivonda ana shu mutafakkir tavalludining 890-yilligi keng nishonlanadi. Tadbirga Respublika va xorijlik mashhur olimlar jalb etilgan.

Gazetalar televideniyeining haftalik teledasturlarini ham e'lon qilib borgan. Bu birinchidan obunachilariga qulayliklar yaratib berish va shu orqali tirajini birmuncha oshirishiga erishishni nazarda tutsa, ikkinchidan, xususiy nashrlar bilan ma'lum bir darajada raqobat qila olish imkonini bergan. Turli yillarda e'lon qilingan haftalik dasturlar "Oynayi jahonda", "Ko'ring, tomosha qiling" ruknlarida chop etilgan.

Haftalik teledasturlarda "O'zTV 1", "MT-ORBITA-4" telekanallari, "O'zTV1", "O'z TV III", "O'z TV IV xalqaro telekanali", "OSTANKINO" Rossiya jamoatchilik televideniyesi ko'rsatuvlari, "Navoiydan gapiramiz" viloyat radiosining eshittirishlari, "O'z TV 2", "O'z TV 1", "RJT", "STV", "UzTV-1, "RTR", "Yoshlar", "NTV", "ORT", "O'zbekiston", "Yoshlar", "Sport", "Первый канал", "RTR planeta", "NTV" telekanallarining haftalik dasturlari e'lon qilib borilgan.

Gazetalarning 8-sahifasi asosan dam olish sahifasi bo'lib, bunda hikoya va rivoyatlar, she'r va qo'shiqlar, foydali maslahatlar, rassomlar ijodidan na'munalari, kulgu bekati, biz bilgan va bilmagan dunyo, ijodkorlar hayoti yoritilgan. Viloyat hamda tuman gazetolari hududlardagi ijodkor aholi vakillarini ommaga tanishtirish, badiiy asarlarini chop etish orqali adabiyotga ixlosmand yoshlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Har bir tahririyat qoshida mahorat maktablarining yo'lga qo'yilganligi gazetalarning mavqeini oshirishga va bo'lg'usi yetuk ijodkor kadrlarni yetishtirib berishga xizmat qilgan.

"Buxoronoma"ning "Adabiyot sahifasi"da chop etilgan yoshlar ijodidan na'munalari badiiy jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi. Buxoro shahridan Dilbar Olimovanning "Qolarmikin", Kogon tumanidan To'ra Shomurodovning "Lolaqizg'aldoq armoni", "Qaylardasan yulduzim", Jondor tumanidan Salim Ashurning "Kaftdagi qush", Buxoro shahridan Nurxon Hakimovanning "Tilla uzuk", Abdunabi Hamroning "Buxoroda bir shoir bor" nomli she'rlari alohida tahsinga sazovor. Ularning ichida To'ra Shomurodovning "Lolaqizg'aldoq" armoni she'ri o'ziga xos jarangdorligi bilan boshqalarning e'tiborini tartadi [9].

"Do'stlik bayrog'i" gazetasi tahririyati qoshida ham o'ziga xos ijodiy maktab yaratilgan. Gazetaning "Ko'ngil mulki", "Yoshlar nigohi" ruknlarida chop etilgan she'rlari puxtaligi bilan ajralib turadi. Tahririyat qoshida tashkil etilgan "Nihol" to'garagi a'zolarining she'rlari "Yoshlar nigohi" rukni ositada gazeta sahifalarida e'lon qilib borilgan. Shuningdek, "Zarafshon" gazetasi "Bu bo'ston sahnida" nomli adabiyot va san'atga bag'ishlangan alohida sahifalar chop etgan. "Zarafshon"ning "Iste'dod shul'asi", "Mushtariy ilhomi" ruknlarida e'lon qilingan ijodiy ishlari badiiy puxtaligi bilan ajralib turadi.

Mustabiillik yillari xattotlik san'atining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, Bohovuddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi tashabbusi bilan "Sharq xattotlik va minyatyura san'atidan namunalar" (VII-XXI asrlar) nomli albom rus va ingliz tilida chop etildi. Qariyb 450 sahifadan iborat bu albomni Mir Arab madrasasi mudarrisi, zarrinqalam xattot Abdurauf Razzoq Buxoriy o'zining shaxsiy kolleksiyasi asosida tartib bergan. Abdurauf Razzoq Buxoriy arabiyda 36 ta

xat turi mavjudligini qayd etib, muhaqqaq, rayhoni, suls, nas'h, tav'qi, riqo, ta'liq xatlarining o'ziga xos jihatlari sanab o'tadi [10].

Gazetalar orqali tuman yoki viloyat miqyosida tanilgan san'atkorlarning faoliyati xususida o'qib borish mumkin. "Sog'inib yashayman"[11] maqolasida buxorolik san'atkor Saodat G'ulomovaning hayoti va ijodi haqida hikoya qilingan. Saodat G'ulomova 1956-yilda Buxoro shahrida tug'ilgan. 90-yillarda sahnalashtirilgan "Ravshan va Zulxumor"da Zulxumor, "Guli sayyoh"da Gulshan, "Boy ila xizmatchi"da Sifatbuvi, "Uchdan oltiga qadar"da yozuvchi qiz Mehri Tovadze rollarini o'ziga xos mahorat bilan ijro etgan.

Mahalliy taniqli san'atkorlardan yana biri Usmon Jabborov bo'lib, u Buxoro davlat universitetida Fayzulla To'rayev, Sanoqul Do'stovlardan musiqa sirlarini o'rganadi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Toshpo'lat Ahmedov, Jamol Kamol, Samandar Vohidov kabi shoirlarning she'rlari asosida kuylagan qo'shiqlari xalq orasida mashhur. Moldaviya, Kuba, Kanada kabi davlatlarga ijodiy safarlarga chiqib, o'zbek san'atini dunyoga tanitishga hissa qo'shgan. Hozirgi kunda uning "Etgali", "Buxorocha yor yor", "Yoshlik", "Biram nozik" kabi o'ndan ortiq qo'shiqlari respublika radiosining oltin fondidan o'rin olgan [12].

Gazetalar taniqli san'atkorlar bilan ham intervyular tashkil etib turgan. "Bolalar" guruhining xonandasi Tohir Sodiqov bilan uyushtirilgan suhbat orqali 90-yillar estradasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin [13]. Yozilishicha, ushbu yillarda "Bolalar" guruhi singari yoshlarning sevimli guruhlaridan "Shum bola", "Maftun", "Eski shahar", "Shahzod", "Toj mahal" kabi guruhlar tashkil etilgan. Ularning ichida eng taniqlisi "Bolalar" guruhi 1991-yilda R.Sharipov boshchiligida tuzilgan. "Olov", "Daryo bo'yida", "Gulim" kabi qo'shiqlari bilan mashhur bo'lgan.

Gazetalarning asosiy mavzularidan yana biri ma'naviy-marifiy tadbirlarning tafsilotlarini o'quvchilarga yetkazib borish edi. "Bunaqasi hali bo'lmagan"[14] maqolasida Buxoroda o'tkazilgan "Kulgu" bayrami tafsilotlari hikoya qilingan. "Xo'ja Nasriddin" insonparvarlik xayriya jamg'armasi, viloyati hokimligi, viloyat madaniyat boshqarmasi hamkorligida tashkil etilgan ko'rik-tanlov haqida so'z yuritilgan. Tanlovda Turkmaniston va Tojikiston respublikalaridan aktyorlar, namanganlik taniqli qiziqchilar, Toshkentdan "Alouddin shou", Buxoro viloyatidan "Mohi Sitara", "Nozanin" dastlarining chiqishlari namoyish etiladi. Qo'g'irchoq teatri artistlarining va qo'shni respublikalardan kelgan san'atkorlarning ichakuzdi hangomalari, intermediyalari yig'ilganlarni dilini xushnud qiladi.

Gazetalar hududlarda namoyish etilgan teatr va kinopremialarning tafsilotlarini aholiga muntazam yetkazib turgan. "Besh kunlik kelin" [15] maqolasida yozilishicha, taniqli teatrshunos Frunze Jo'rayev dramaturgiya sohasida ijod qilib, Siddiq Jo'ra tahallusi bilan qator sahna asarlari yaratadi. Muallifning "Besh kunlik kelin" asari mol-mulk, bo'yluk orttirishni maqsad qilgan va bu borada o'z farzandining baxtini ham qurbon qilishga tayyor onaning kirdikorlari kulgu vositasida fosh etiladi.

"San'at koshonasi qurilmoqda" sarlavhali maqolada S.Ayniy nomidagi musiqali drama teatrida samarali mehnat qilayotgan san'atkorlar haqida so'z yuritiladi. Teatr jamoasi 2009-yilda ingliz adbi Vilyam Shekspirning "Hamlet" fojeasini sahnalashtirib, buxorolik san'atkorlarning jahon durdonalarini yuksak mahorat bilan ijro eta olishini isbotlab bergan. Iste'dodli rejissor Bo'ron Akobirov sahnalashtirgan spektaklda Mashhura Krimova, Baxtiyor Ashurov, Olima Po'latova, Istam Sodiqov, Telmon Komilov singari yosh artistlar o'z mahoratini ko'rsatishgan [16].

Buxoro shahridagi "Yoshlar" kinozalida taqdim etilgan "Omad" kinopremiasi taqdimoti buxoroliklarga ma'qul keladi. Premiera so'nggida kino bosh qahramoni Ubaydullo Omon jurnalistlar va tomoshabinlar bilan muloqot o'tkazgan [17]. Gazetalarda romanlardan parchalar ham e'lon qilib borilgan. Xususan, "Buxoronoma"ning 2010-yil sonlarida Abdunabi Hamroning "Vaqt daryosi yoxud

taqdiri azal” kitobidan hikoyalar, Jahongir Ismoilovning “Tanazzul” romanidan parchalarni o‘qishimiz mumkin.

Gazetalar adabiyot sohasi bilimdonlarini doimiy ravishda jamoatchilikka yaqinlashtirishga xizmat qilgan. Sahifalarda bu boradagi ilmiy qimmatga boy maqolalarni o‘qish mumkin. “Merosimizni o‘rganamiz” ruknida chop etilgan “Yaxshi va yomon hulqlar to‘g‘risida” [18]gi maqolada Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobining mazmun mohiyati to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Bu asar 1913 va 1917-yillarda ikki marta chop etilib, kitobxonlarga tadim etilgan. 1993-yildagi qayta nashri avvalgilardan farqli ravishda arab hamda krill alifbosida nashr etilgan. Asar Sa’diy uslubida yozilgan bo‘lib, 64 ta kichik-kichik bo‘limdan iborat. Bo‘limlar baytlar va she’riy parchalar bilan ta’minlangan.

“Buxoro haqiqati”da chop etilgan “Ma’naviyat daryolari” [19] maqolasida Abdulla Qodiriy va Turkiston aqliy rivojiga hissa qo‘shgan turk adiblari Muxtor Avezov hamda Chingiz Aytmatovning ijodiy faoliyatlari yoritiladi.

Qodiriyning fuqarolik jasorati millat hayotining ma’nan og‘ir, o‘ta murakkab davriga, o‘rta asrchilikning inqirozi, yangicha ijtimoiy munosabatlar tartiblari shakllanayotgan bir-birini inkor qilayotgan dunyolar chorrahasiga to‘g‘ri keldi. Bu uning ijodida, shubhasiz o‘z muhrini bosdi. Yangi dunyo bu uning ko‘nglidagi dunyo emasligi, qavmi millati yana qullik iskanjasida qolayotganini anglab ko‘proq tarixiy asarlarda ijod qildi. Bu bilan turkiy adabiyotlarda realistlik romanchilikni boshlab berdi. Keyinchalik ushbu yo‘nalishda qozoq ma’rifatparvari Muxtor Avezov, qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov ijod qildi. Taniqli sharqshunos olim Yevguniy Bertels “Dunyoda beshta – yana: fransuz, ingliz, rus, nems, va hind romanchiligi bor. Abdulla Qodiriy oltinchi romanchilikni ya’ni o‘zbek romanchiligini yaratib berdi”, deb yozadi [20].

Gazetalarda ilm-fan namoyondolari, olimlar, ilmiy izlanuvchilar hamda shu sohaga qiziquvchilarning maqola va xabarlari, asarlari, olimlarning hayot yo‘li hamda faoliyatidan parchalar e’lon qilib borilgan. “Ilm-fan” ruknida chop qilingan “Buxoro qadimshunosligi bilimdoni” [21] maqolasida tarix fanlari doktori, professor akademik Yahyo G‘ulomovning murakkab tarixiy sharoitda olib borgan ilmiy tadqiqotlari haqida so‘z yuritilgan. Yahyo G‘ulomov Abdurauf Fitratning ishongan shogirdlaridan biri edi. Tarixiy tepaliklarni buzib paxta dalasiga aylantirish siyosati avj olganda Yahyo G‘ulomov bunga qarshi chiqib, ko‘plab tayziqlarga duch kelgan. 1974-yilda Ya.G‘ulomov shogirdlari bilan Buxoroning eng qadimiy qismi Shahristonda arxiologik qidiruv ishlarini olib boradi. Natijada eramizning birinchi ming yilligiga oid ashyoviy dalilllar topiladi. Abdulazizxon madrasasi yonidan madaniy qatlam aniqlanadi. Bu madaniy yodgorliklar Buxoro shahrining bundan 25 asr muqaddam paydo bo‘lganidan dalolat beradi. Shunday qilib, Buxoroning yoshini aniqlashda olim o‘zi bosh bo‘lganligini maqola mutolaasi orqali bilishimiz mumkin.

“Ilmiy hamkorlik samarasi” [22] maqolasida Buxoro amiri Muzaffarxonning (1860-1885) o‘g‘li Sayyid Muhammad Nosir tomonidan 1921-yilda fors tilida yozilgan “Tahqiqoti arki Buxoro” asari haqida so‘z yuritilgan. Mazkur asar Ark qal’asi tarixiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot deyish mumkin. “Buxoro olimlari” [23] maqolasida yozilishicha, Xo‘ja Zayniddin jome’ masjidi imomi Abdug‘ofur Razzoq 1992-yilda hajga borganda o‘zi bilan nodir kitoblar olib kelgan. Ularning ichida hindistonlik yirik olim Muhammad Abdulhay Laknaviy qalamiga mansub “Favond al-bahiya fi tarojimi al-xanafiya” (“Hanafiya ulomalarining nurafshon hayoti to‘g‘risida”) kitobi g‘oyat ahamiyatli hisoblanadi. Sababi kitobda hali bizga ma’lum bo‘lmagan olimlarimiz haqida qimmatli ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Zarafshon vohasida chop etilgan gazetlar ilm-fanda sodir bo‘layotgan yangiliklarni aholiga qisqa va aniq tilda yozib, sharxlab borgani bilan g‘oyat ahamiyatli sanaladi. Shuningdek, tahririyatlar qoshida tashkil etilgan mahorat maktablaridan ko‘plab iqtidorli

ijodkor yoshlar yetishib chiqib hududning madaniy hayotiga o‘z hissasini qo‘shdi. Buyuk allomlar xotirasi, muqaddas qadomjolar obod qilinishi gazetalarda doimo yoritib borildi. Umuman olganda, mustaqillik yillarida Zarafshon vohsida chop etilgan gazetalar madaniy hayotini, davr nafasini o‘zida aks ettirishi bilan tarix fani uchun ham muhim manbalar bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojev U. Himmat-u barakot lutf ila ehsondandur. Zarafshon, 1997-yil, 5-fevral.
2. Rajabov N. Muhaddislar sarvari. Zarafshon, 2000-yil, 20-iyul.
3. Yodgorov E. Alloma dahosiga ehtirom. Buxoro haqiqati, 1993-yil, 1-yanvar.
4. Buxoro haqiqati, 1993-yil, 19-yanvar. Arabistonlik ishbiarmonlar himmati.
5. Qisomov F. Sohibqiron va Bohovuddin Naqshband. Buxoro haqiqati, 1995-yil, 19-iyul.
6. Abdurahimov K. Ulug‘ bobokalonimiz bashorati. Buxoro haqiqati, 1993-yil, 30-dekabr.
7. Ahmedov T. G‘ijdivonda unutilmas daqiqalar. Buxoro haqiqati, 1993-yil, 14-dekabr.
8. Do‘stlik bayrog‘i, Buxoronoma 2010-yilgi sonlari.
9. Shomurodov T. Lolaqizg‘aldoq armoni. Buxoro haqiqati, 1993-yil, 21-yanvar.
10. Xalilov A. Xattotlik san‘ati durdonalari. Buxoronoma, 2010-yil, 24-fevral.
11. Qo‘ldosheva G. Sog‘inib yashayman. Buxoronoma, 2000-yil, 8-mart.
12. Tursunov M. Hofizning kamol yo‘li. Buxoronoma, 2000-yil, 12-iyul.
13. Murod D. Bolalar Samarqandda. Zarafshon, 1997-yil, 11-yanvar.
14. Bobomurodov V. Bunaqasi hali bo‘lmagan. Buxoro haqiqati, 1993-yil, 9-noyabr.
15. Xalilov A. Besh kunlik kelin. Buxoronoma, 2000-yil, 20-dekabr.
16. Yo‘llyev Sh. San‘at koshonasi qurilmoqda. Buxoronoma, 2010-yil, 1-yanvar.
17. Xalilov A. Omadni qadrlash kerak. Buxoronoma, 2010-yil, 22-may.
18. Vahobov Ya. Avloniy yaxshi va yomon xulqlari to‘g‘risida. Buxoro haqiqati, 1993-yil, 11-noyabr.
19. Shodiyev N. Ma‘naviyat daryolari. Buxoro haqiqati, 1995-yil, 11-mart.
20. Boqayeva Sh. Ozodlik va istiqloq kuychisi. Do‘stlik bayrog‘i, 2010-yil, 8-aprel.
21. Qosimov F. Buxoro qadimshunosligi bilimdoni. Buxoronoma, 2000-yil, 29-mart.
22. Xalilov A. Ilmiy hamkorlik samarasi. Buxoronoma, 2010-yil, 14-yanvar.
23. Ibrohimov I. Buxoro olimlari. Buxoro haqiqati, 1995-yil, 1-aprel.

MIRVOXID QOSIMOV TADQIQOTLARIDA MARKAZIY OSIYONING TOSH DAVRI TARIXINING YORITILISHI

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИИ КАМЕННОГО ВЕКА СРЕДНЕЙ АЗИИ В ИССЛЕДОВАНИЯХ МИРВАХИДА КАСИМОВА

ILLUMINATION OF THE HISTORY OF THE STONE AGE OF CENTRAL ASIA IN THE RESEARCH OF MIRVOKHID KASIMOV

Abduvaliyeva Nozimaxon Abdushukur qizi

Annotatsiya. Ma'lumki tosh davri eng katta davrlarni o'z ichiga oladi va bu asrlarda insoniyatning dastlabki tarixiy jarayondagi ishtiroklari qayd etiladi. Maqolada sovet davrida Jahubiy Qozog'iston va Toshkent vohasi tosh davri yodgorliklarini tadqiq etgan arxeolog olim M.Qosimov ilmiy tadqiqotlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *Selungur, Ko'lbuloq, madaniy qatlam, ashel, ilk paleolit.*

Аннотация. известно, что каменный век включает в себя наибольшее количество эпох, и в эти века фиксируется участие человечества в раннем историческом процессе. В статье анализируются научные исследования ученого-археолога Касимова, исследовавшего в советское время памятники каменного века Южного Казахстана и Ташкентского оазиса.

Ключевые слова: *Селунгур, Кулбулак, культурный слой, ашел, ранний палеолит.*

Abstract. It is known that the Stone Age includes the greatest periods, and in these centuries the participation of mankind in the early historical process is recorded. In the article, an archaeologist scientist who studied the monuments of Southern Kazakhstan and the Tashkent oasis of the Stone Age during the Soviet period, M.Kasimov's scientific research is analyzed.

Keywords: *Selungur, Kulbulok, cultural layer, ashel, early Paleolithic*

Abduvaliyeva N.A.,

Farg'ona davlat

universiteti tayanch

doktoranti

n.abduvaliyeva@gmail.com

Kirish

O'zbekiston hududi Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarning yerlariga qaraganda paleolit davri yodgorliklariga juda boy hududlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa eng qadimgi yodgorliklar – So'x vodiysidagi Chashma va Selungur, Angren yaqinidagi Ko'lbuloq va Qizilolma yodgorliklarining quyi qatlamlari, Jarsoy topilmalari hamda Qizilqum hududidagi Bo'kantog' kabi yodgorliklar O'zbekiston hududini eng qadimgi manzilgohlari saqlanib qolgan yurtlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda shu davr yodgorliklarini o'rganishda Mirvohid Roziqovich Qosimovning roli va o'rni benihoya kattaligini yaxshi bilamiz. Chunki, u quyi va o'rta paleolit davri yodgorliklarini o'rganishda juda katta jonbozlik ko'rsatdi, ularning aksariyat qismini o'rganishda bevosita ishtirok etdi va o'zining katta ishlarini yakunlash davrida aynan shu yodgorliklarning materiallariga murojaat qildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Selungur g'ori So'x daryosi vodiysida, Qirg'izistonning O'zbekiston bilan chegaradosh bo'lgan Haydarkon qishlog'i chekkasida dengiz sathidan 1890 m balandlikda joylashgan. G'orning kirish qismi So'x vodiysi tubidan 50 m yuqorida, Qatrantov tizmasining quyi qismidan o'rin olgan. G'orning eni

kirish qismida 34 m, balandligi 25 m va chuqurligi 120 m ga yetadi.

Yodgorlikda dastlabki qazish ishlari A.P. Okladnikov va P.T. Konoplyalar tomonidan 1955-yilda amalga oshirilgan. 1964-yili M.R. Qosimov tomonidan eski qazishma devorini tozalash natijasida 110 sm chuqurlikdan jigarrang kremniylashgan jinsdan ishlangan tosh buyumlarni topilgan [1]. Bu yodgorlikni A.P.Okladnikov va P.T.Konoplya qazishmalari bilan M.R.Qosimov qazishmalari oralig'ida A.Poshka ham tadqiq etgan va 1,5 m. chuqurlikdan gulxan qoldig'i, bir nechta kvarsit buyumlar, suyak teshgich va bigiz qoldiqlari topildi.

Poshkaning yozishicha, ...“keng, quruq va yetarlicha yorug' g'or, qulay kirish qismiga ega bo'lib, unda yozda ham va qishda ham qulay harorat hukm surganligi, eng qadimgi davr odamlarining diqqatini tortmasligi mumkin emas edi” [2]. A.Poshkaning Selungur yodgorligi qatlamlarini 1,5 chuqurlikdan gulxan qoldiqlarini topishi, bu yodgorlikni xronologiyasini aniqlashdagi ahamiyati katta ekanligini alohida ta'kidlashimiz zarur. Bahorda ham, yozda ham, qishda ham inson yashashi uchun qulay harorat hukm surganligi eng qadimgi odamlar diqqatini tortmasligi mumkin emas edi. Bu fikr real holatni ko'rgandan keyin aytilgan gap ekanligini alohida ta'kidlashimiz zarur bo'ladi. 1980-yillarda boshlangan statsionar qazish ishlari natijasida o'z tasdig'ini topdi [3].

Xullas, Selungur g'ori materiallari Yevropaga xos bo'lgan ashel madaniyati emas, ya'ni Yevropadagi ashel madaniyati davrida asosan yirik bifaslar (qo'l cho'qmorlari) ishlab chiqilgan. Osiyocho ashel madaniyatida esa, bifaslar bilan birgalikda kliverlarni (qo'l cho'qmoriga yaqin va o'xshash, ko'p hollarda uchburchak shakldagi qurollar) ko'plab ishlab chiqarilganligi xos deb tan olingan.

Ilk paleolit davriga oid yana bir yodgorlik Ko'lbuloqning quyi qatlamlaridir [4]. Yodgorlik 1962-yili O.M. Rostovsev tomonidan ochilgan va 1963-yildan 1990-yillargacha M.R. Qosimov tomonidan o'rganilgan. Ko'lbuloq Angren shahridan 6 km g'arbroqda, Chotqol tizmasining janubi-sharqiy etaklarida, Qizilolmasoy hamda Jarsoy oralig'ida dengiz sathidan 1000 m balandlikda joylashgan. Shurflar va qazishmalar asosan shu nomli buloqning atrofida o'tkazilgan.

Ushbu 22 ta qatlamlardan 4000 ga yaqin tosh buyumlar yig'ib olingan bo'lib, ular orasida o'yib-kertib ishlangan, tishsimon qurollar, qirg'ichlar, qo'pol va yirik nukleuslar hamda mikok tipidagi qo'l cho'qmorlari aniqlangan. Ularni tayyorlashda malla va kulrang chaqmoqtosh, yashma, chaqmoqlashgan ohaktosh, kvars kabi qator tosh jinlaridan foydalanilgan hamda ular sarg'ish plastinalarga ega. Biroq bu qatlamlar juda kam maydonda (9 m²) aniqlangan. Qazishmaning chuqurligi 19 m. gacha yetadi (3-sonli qazishma).

Ko'lbuloqning ilk paleolit davriga oid quyi qatlamlari tipologik jihatdan 550 000 yillar bilan sanalangan, madaniy jihatdan esa yodgorlik materiallari O'rta Osiyo va Qozog'istonda yagona bo'lgan Ko'lbuloq madaniyatiga ajratilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik kabi usullardan foydalangan holda, tadqiqot uchun qo'yilgan asosiy maqsad hisoblangan ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan ilmiy tahminlarning hozirgi arxeologik tadqiqotlarda asoslanganligi ochib berishga harakat qilingan.

Tahlil va natijalar

Ayrim mutaxassislar Ko'lbuloq topilmalari haqida arxeologik materiallar asosan aralashib ketgan, degan fikrga kelishgan [6]. Ularning fikricha, Ko'lbuloqdan topilgan materiallar yodgorlikning yaqinida va yuqoriroqda joylashgan Jarsoydan va boshqa soylardan sel oqimlari yordamida oqizib keltirilgan. Shuningdek, M.R. Qosimov va u bilan birga ish olib borgan mutaxassislar Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari sel oqiziqtlari tufayli biroz aralashib ketganligini tan oladilar [7]. M.R. Qosimovning fikricha,

Ko'lbuloq ashel (49-27), o'rta (28-4) va so'nggi paleolit (3-1) davrlariga oid 49 ta madaniy qatlamlardan iborat hamda ular 10-20 sm. dan to 2 m. gacha yetadigan oraliq sof qatlamlar bilan ajratilgan.

Demak, M.R. Qosimovning talqinicha [8] yodgorlik 49 marta ibtidoiy odamlar tomonidan makon tutilgan va shuncha bor tashlab ketilgan. Ammo, bunday deyish uchun yetarli asos yo'q, chunki, bu qatlamlarning ko'pchiligida 20-30 dona ba'zan undan ham kamroq tosh buyumlar topilgan. Bundan tashqari artefaktlar bilan tosh buyumlar nisbatlari mos kelmaydi. Qatlamlarning boshqa belgilari, masalan, kul qoldiqlarining to'planishi, qatlamdagi aralash jinslarining intensiv holatda rangdorligi va makonni tashkillashtirish elementlari ayrim holatlardagina uchraydi yoki butunlay uchramaydi. Shuningdek, Ko'lbuloq qazishmalarining palinologik kesmasi to'liq namoyon qilingan emas. Undan olingan tahlillarning katta qismi (80% ga yaqini) hech qanday natija bermagan, qolganlarida esa 20-30 ta boshqali ekinlar qoldiqlari aniqlangan.

Ko'lbuloqda fauna qoldiqlari ham juda kamchilikni tashkil qiladi. Bu yerda ko'proq bug'u, ibtidoiy tur, quyon, ot, sibir tog' echkisi, cho'chqa, g'or shoqoli kabi hayvon suyaklari qoldiqlari uchraydi. Biroq tabiiy fanlar bergan natijalar yodgorlik qatlamlarining yoshini aniqlash uchun yetarli emas. M.R. Qosimov va M.X. Godinlarning yozishicha, yodgorlikning quyi qatlamlari ilk pleystotsen davriga oid, ammo bunday talqin qilish uchun yetarlicha ilmiy asoslar yo'q [9].

Toshkent vohasidagi o'rta paleolit davriga oid moddiy manbalar Ko'lbuloqning o'rta qatlamlaridan olindi. Manzilgoh 1962-yildan to 1990-yillar boshigacha bo'lgan vaqt davomida M.R. Qosimov tomonidan o'rganildi. 1994-yildan bugunga qadar bir qator xalqaro ekspeditsiyalar ham yodgorlikda izlanishlar olib bordi. Yodgorlikning o'rta paleolitga oid qatlamlari 1,3 m qalinlikdagi sel oqiziqlari bilan bog'liq tosh siniqlari yotqiziqlarida, yer sathidan 90 sm chuqurlikda joylashgan. M.R. Qosimovning ma'lum qilishicha, bu qatlamlardan 8300 ta tosh buyum topilgan [10]. Uning industriyasiga ensiz proporsiyali va turli shakllardagi yirik uchirindilar xarakterlidir. Levallua texnikasida ishlangan yo'nilg'ilar ko'p emas. Nukleuslar orasida ba'zan haddan tashqari ishlov berilgan kichik hajmli gardishsimon o'zaklar ko'pchilikni tashkil etadi. To'planning tosh qurollari orasida qirg'ichsimonlar mavjud va yirik retushli tishsimon hamda o'yib-kertib ishlangan qurollar ko'p uchraydi. Qirg'ichlarning uzunasiga, ko'ndalangiga ishlangan va boshqa shakllari bor. Shuningdek, ushbu qatlamlarda muste (o'rta paleolit) tipidagi paykonlar, kompozit qurollar, yo'nilg'ilar uchki qismlarida ishlangan qirg'ichchalar, kesgichlar va qo'l cho'qmorlari mavjud.

Umuman, Ko'lbuloqning boshqa qatlamlari kabi o'rta paleolitga oid madaniy yotqiziqlari ham O'rta Osiyoda o'xshashi yo'q industriyaga ega bo'lib, ular tishsimon muste madaniyatiga xos deb topilgan [11].

Ko'lbuloq manzilgohi vohadagi bir necha o'nlab paleolit davri ustaxonalari va xomashyo manbalariga yaqin joylashgan. Afsuski uzoq yillar davomida tadqiq etilishiga qaramay, manzilgohda xomashyo masalasi bilan bog'liq holatlar o'rganilmagan.

Bu borada ham yangi ma'lumotlarga tadqiqotchi A.G'. Muhammadiyev o'z e'tiborini qaratib, birgina M.R. Qosimov tomonidan olib borilgan qazish ishlari davomida 70 ming donadan ortiq artefakt topib, o'rganilganligin, xomashyo turlaridan foydalanish jarayoni yoki undagi xususiyatlar e'tiborga olinmaganligini qayd etadi [12]. Foydalanilgan xomashyo foiz ko'rsatkichi yodgorlikning barcha madaniy qatlamlari uchun umumiy holda qayd etilgan bo'lib, chaqmoqtosh 84,5 %, slanets 6,2 %, chaqmoqlashgan ohaktosh 2,5 %, kvarts 1,8 %, kvartsit 1,6 %, xalsedon 1,5 %, obsidian, effudit, firizit va boshqa turlar 2,1 % ni tashkil etadi [13].

Xomashyo mahalliy hisoblanib, chaqmoqtosh, chaqmoqlashgan ohaktosh, kvarts hamda kvartsit paleogen va bur davri yotqiziqlarida, Ko'lbuloqdan 1 km. masofada uchraydi. Bundan tashqari chaqmoqtosh va chaqmoqlashgan ohaktosh Qizilolmasoy va G'ishtsoy hududlarida ham uchraydi.

Manzilgoh xomashyo manbaiga yaqin joylashgan bo'lsada, barcha madaniy qatlamlarda xomashyodan tejamkorlik bilan foydalanilgan. Ushbu xususiyat ko'plab nukleuslarning oxirgi darajagacha chaqmoqlanganlik, ba'zilar ikkilamchi ishlov berilib, qurolga aylantirilganlik holatlarida ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari sifatli tanovarlardan tashqari birlamchi, yarimbirlamchi uchrindilar, hamda texnik uchrindilarda ham qurollar tayyorlangan.

Kolleksiya tarkibida bir dona obsidian xomashyosidan olingan uchrindi uchraydi. M.R. Qosimov ushbu turdagi xomashyo G.F. Tetyuxinning og'zaki ma'lumotiga ko'ra Ohangoron daryosining bir qator nuqtalarida, Ko'lbuloqdan 20 km. uzoqlikdagi masofada uchrashini aytib o'tadi [14].

M.R. Qosimov XX asrning 70 va 80 yillarida juda ko'p hollarda yozi bilan dalada qazishmalar olib borsada, ammo qish oylari SSSR Fanlar akademiyasining Leningrad (hozirgi Sankt Peterburg) shahridagi Arxeologiya institutidagi hamkasaba arxeologlarga Ko'lbuloqdan topilgan tosh qurollarini ko'rsatish va ularning nuqtai-nazarlarini bilish uchun bir nechta yashikdagi toshni Leningrad (hozirgi Sankt Peterburg) shahriga olib borib, yana qaytarib olib kelar edi. Arxeologiyada har qaysi tosh qurolini yoki boshqa topilmalarni davri, tiplari, madaniy jihatdan xosligi, qo'shni hududlar bilan aloqalari to'g'risidagi baxslarda shu topilmalar bilan bog'liq masalalar tobora "pishib" borar edi. M.R. Qosimov xuddi shunday suhbatlarni ko'plab o'tkazib, o'z ishini pishiq-puxta qilishga doimo harakat qilgan.

Xulosa va takliflar

Ko'p yillar davomida olib borgan ishlarining natijasi o'laroq "O'rta Osiyo va Janubiy Qozog'istonning paleolit davri muammolari (ko'pqatlamli manzilgoh Ko'lbuloq materiallari asosida)" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasini 1990 yilda Novosibirsk shahrida himoya qildi. Bu ishni Novosibirskdagi paleolitshunos arxeologlar juda iliqlik bilan kutib olishdi va O'zbekistonlik arxeolog M.R. Qosimovning doktorlik dissertatsiyasi juda yuksak olqishlar bilan yuksak baholandi.

Novosibirsk shahrida himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi hozirgi paytda yo'q. Bu ishni yozish uchun butun boshli bitta olimni umri ketdi, davlatning o'nlab yillar davomida Ko'lbuloqni qazishga sarflagan mablag'i yo'q bo'ldi. Dissertatsiya monografiya qilib e'lon qilishga ilimning umri yetmadi. Ko'lbuloqni necha yillar qazish davomida madaniy qatlamlardan olingan stratigrafik komplekslar ham, afsuski, yo'q. M.R. Qosimovning doktorlik dissertatsiyasi avtoreferatigina saqlanib qolgan, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып. 7. 1966. – С. 7-13.
2. Пошка А. Пещера Сел-Ун-Хур // ВА вып. 2. 1960.- С. 38.
3. Исламов У.И. Первая нижнепалеолитическая пещерная стоянка в Ферганской долине // ОНУ. №8. 1984. -С. 4.
4. Окладников А.П. Исследования памятников каменного века Таджикистана // МИА. № 66. 1958 а. -С. 68. Касымов М.Р. Многослойная палеолитическая стоянка Кульбулак в Узбекистане // МИА. № 185. 1972 б. – С. 17. Касымов М.Р. Результаты работ Ахангаранского палеолитического отряда по данным раскопок 1975 г. // ИМКУ. № 14. 1978. – С. 12; Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана // Автореферат док. Дисс. Новосибирск. 1990. – С. 40; Касымов М.Р., Тетюхин Г.Ф. К вопросу об археолого-геологическом возросте многослойной палеолитической стоянки Кульбулак // ИМКУ. Вып. 16. 1980. – С. 13; Касымов М.Р., Годин М.Х. О комплексном исследовании палеолитической стоянки Кульбулак // ИМКУ. Вып. 17. 1982. – С. 9; Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований многослойной стоянки Кульбулак // ИМКУ. Вып. 19. 1984. – С. 8; Касымов М.Р., Тетюхин Г.Ф.,

Годин М.Х., Хусанбаев Д.И. К вопросу о комплексном исследовании многослойной палеолитической стоянки Кульбулак в Узбекистане // КСИА. Вып. 181. 1985. – С. 10.

5. Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана // Автореферат док. Дисс. Новосибирск. 1990. – С. 40.

6. Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург. 1996. – С. 107; Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии // Душанбе. 1973. – С. 92-94; Несмеянов С.А. К геологии открытых стоянок каменного века Средней Азии // Жизнь земли. Вып. 13. 1978. – С. 106-107.

7. Медведов Г.И., Несмеянов С.А. Типизация “культурных отложений” и местонахождений каменного века // Методические проблемы археологии Сибири. Новосибирск. 1988. – С. 139.

8. Касымов М.Р. Результаты работ Ахангаранского палеолитического отряда по данным раскопок 1975 г. // ИМКУ. Вып. 14. 1978. – С. 7.

9. Ранов В.А., Додонов А.Е. О периодизации и стратиграфии нижнепалеолитических стоянок Средней Азии // Проблемы взаимосвязи природы в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988. – С. 72.

10. Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердиев Т.Н. Домустьерские культуры на территории Узбекистана // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. – С. 38-49.

11. Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердиев Т.Н. Домустьерские культуры на территории Узбекистана // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992. – С. 38-49.

12. Muhammadiev A.G'. “O‘rta paleolit davri xomashyodan foydalanish strategiyalari (Muzbel, Xatak va Angillak yodgorliklari materiallari asosida)” // Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – B. 15.

13. Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана // Дисс. на соис. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990. – С. 109.

14. Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана // Дисс. на соис. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990. – С. 110-113.

**FARG‘ONA VODIYSI DEHQON JAMOALARI MADANIYATLARINING O‘RGANILISHI
(CHUST MADANIYATI MISOLIDA)**

**ИЗУЧЕНИЕ КУЛЬТУР КРЕСТЬЯНСКИХ ОБЩИН ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ
(НА ПРИМЕРЕ ЧУСТСКОЙ КУЛЬТУРЫ)**

**STUDY OF CULTURES OF PEASANT COMMUNITIES OF THE FERGANA
VALLEY (ON THE EXAMPLE OF CHUST CULTURE)**

Abdug‘aniyev Shukurullo Tavakkaljon o‘g‘li

Annotatsiya. Maqolada Chust madaniyatining o‘rganilishi tarixi, dehqonchilik jarayonlari yodgorliklari haqida umumiy ma‘lumotlar ham yoritiladi. Chust madaniyati Farg‘ona vodiysidagi ilk o‘troq dehqonchilik madaniyati hisoblanadi. Bunga madaniyatning geografik joylashuvi katta ta‘sir ko‘rsatganini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: *Chust, madaniyat, Dalvarzintepa, o‘ra, tarixiy-topografik, gorizonttal stratigrafiya, mozor, g‘alla omborlari, Y.A.Zadneprovskiy, kulolchilik.*

Аннотация. В статье также освещается история изучения чустской культуры и общие сведения о памятниках земледельческого хозяйства. Чустская культура считается первой оседлой земледельческой культурой в Ферганской долине. Мы видим, что географическое положение культуры оказало на это большое влияние.

Ключевые слова: *Чуст, культура, Дальварзинтепа, курган, историко-топографический, горизонтальная стратиграфия, могильник, зернохранилища, Я.А. Заднепровский, керамика.*

Abstract. The article also covers the history of the study of the Chust culture, general information about the monuments of agricultural processes. The Chust culture is considered the first settled agricultural culture in the Fergana Valley. We can see that the geographical location of the culture had a great influence on this.

Keywords: *Chust, culture, Dalvarzintepa, mound, historical-topographic, horizontal stratigraphy, tomb, granaries, Y.A. Zadneprovskiy, pottery.*

*Abdug‘aniyev Sh.T.,
Farg‘ona davlat universiteti
magistranti
abduganiyevshukurullo22@
gmail.com*

Kirish

XX asr davomida Farg‘ona vodiysida olib borilgan keng ko‘lamli arxeologik izlanishlar natijalariga ko‘ra, bu mintaqa hududi bronza davrida Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi madaniy-xo‘jalik ta‘siridan yiroq va biqiq o‘lka hisoblanganligini ko‘rishimiz mumkin. Mil.avv. II-mingyillikning birinchi yarmida O‘zbekistonning janubiy va markaziy hududlarida Sarazm va Sopoli kabi qadimgi dehqonchilik madaniyatlari gullab yashnab turgan kezlarda Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi, hatto, Amudaryoning quyi havzalari ham chorvador turk va sak qabilalari keng tarqalgan o‘lkalar edi. Qadimgi Xorazmda takroriy sug‘orma dehqonchilikka asoslangan yuksak dehqonchilik madaniyati qachonkim, bu o‘lkaga xorasmiylar ko‘chib kelganidan keyin boshlangan bo‘lsa, Sirdaryoning yuqori va o‘rta havzalari, ya‘ni Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi to mil. avv. II-mingyillikning oxirgi choragiga qadar chorvador sak qabilalari keng tarqalgan hududlar bo‘lib qolaverdi [12;69,76].Xuddi ana shu jarayonlarning natijasi sifatida qadimgi Farg‘onaning sharqiy va shimoliy viloyatlarida ilk dehqonchilik madaniyati paydo bo‘ladi. Ana shu bobodehqonlarimizning dastlabki qishloqlaridan biri 1950-yilda

M.E.Vorones tomonidan Chust shahri yaqinidagi “Buvonamozor” deb atalgan buloq yoqasida topib o‘rganildi. Arxeologlar bu yodgorlikka “Chust madaniyati” deb nom berganlar. Shundan so‘ng, tarixiy va arxeologik adabiyotlarda, O‘zbekiston tarixining qadimgi xaritasida Chust madaniyati o‘z o‘rnini topdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Chust madaniyati Farg‘ona vodiysida o‘rganilgan eng qadimgi o‘troq dehqon jamoalari madaniyatidir. Uning yirik va yaxshi o‘rganilgan yodgorligi Sharqiy Farg‘onaning Dalvarzintepa yodgorligi hisoblanadi [14; 22]. Farg‘ona vodiysida Chust madaniyati qachon paydo bo‘ldi, qaysi bir etnik asosda yoki vodiya biror tomondan kelib joylashib oldimi? Bu masalalar atrofida ham arxeolog olimlar orasida aniq bir to‘xtamga hozirgacha kelinmagan. Ammo, fanda bir narsa aniqki, Chust madaniyati bu zaminga tayyor holda qayerdandir kelib qolmagan, aksincha, tub joyli mahalliy aholining madaniyati, vodiy adir va dashtlari bo‘ylab qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan sak qabilalarining o‘troq hayotga o‘tish jarayoni juda uzoq davom etgan jamoalarining madaniyatidir.

Chust madaniyatining uning davriy sanasi mil. avv. II-mingyillikning uchinchi choragidan to VIII-VII asrlargacha belgilanib, to‘xtovsiz ilmiy bahslarga sabab bo‘lmoqda. Lekin, ko‘pchilik mutaxassislar Chust madaniyati davriy sanasini mil. avv. II-ming yillikning oxiri va I-mingyillikning birinchi choragi bilan belgilashni ilmiy asosli deb tan olishgan. Chust madaniyati yodgorliklarida olib borilgan stratigrafik xarakterdagi qazishmalarni ko‘rsatishicha, ushbu madaniyatning qator yodgorliklarida uch bosqichdan iborat madaniy qatlamlar mavjudligi aniqlangan [16; 28,34]. Ammo, yuqori qatlam o‘zida mudofaa inshootlari hamda uy-joy komplekslari qurilishida guvala va xom g‘ishtdan foydalanilganligi bilan ajralib tursada, ammo quyi qatlamlarni bir-birlaridan na arxeologik artefaktlar bilan, na ularda uchratilgan yerto‘la tipidagi kulbalar bilan aniq xronologik bosqichlarga bo‘lish qiyin kechmoqda. Shu bois, Chust madaniyatini hozirgacha aniq xronologik bosqichlarga bo‘lib o‘rganish muammo bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda Chust madaniyatiga oid yodgorliklar vodiy bo‘ylab 80 dan ortiq punktlarda topib o‘rganilgan. Ular asosan soy etaklarida, buloq suvlarining boshida, buloqlardan hosil bo‘lgan qorasuv havzalarida joylashgan. Ularning aksariyat ko‘pchiligi 1, 1,5, 2, 3 gektarli patriarxal urug‘ jamoalarining qishloqlarini tashkil etadi. Ular orasida umumiy maydoni 4,5 ga (Chust makoni), 13 ga (Ashqaltepa) va 25 ga (Dalvarzitepa) keladigan ilk shahar xarobalari ham 2627 uchraydi. Chust madaniyatining kulolchilik mahsulotlari charxsiz qo‘lda yasalgan turli xil idishlardan (sferokonus shaklli kosalar, nim kosalar, bankasimon xurmachalar, xumcha va tog‘oralalar, oshxona sopol qozonlari, mitti idishlar va boshqalar) iborat. Kosa va xurmachalar tashki sirtiga och sariq, jigarrang va tiniq oqish angob berilgan. Ular ustiga qora (Dalvarzintepa), och qizil (Chust makoni) rangda geometrik naqsh solingan. Chust madaniyati yodgorliklarining davriy sanasi aniq xronologik bosqichlarga stratigrafik kuzatuvlar asosida ishlanmagan bo‘lsada, Dalvarzintepa Chust makoniga nisbatan qadimiyroq bo‘lishi kerak, degan taxminlar yo‘q emas Chust madaniyati yodgorliklarining bronzadan ishlangan mehnat qurollarining tipologik va kimyoviy tarkibi ham bu fikrni tasdiqlaydi [13;24,35]. Chust madaniyati yodgorliklari tarixiy-topografik tarkibiga ko‘ra, ikki tipga bo‘linadi. Birinchisi maydoni kichik, mudofaa inshootlarisiz yodgorliklardan iboratdir. Ularning har biri bir urug‘ jamoasiga tegishli qishloq makonlari bo‘lsa, ikkinchisi esa maydoni 10 ga va undan ortiq gektarga teng yodgorliklar. Ular har bir sug‘orma dehqonchilik hududida bittadan uchraydi. Shuningdek, ularning atrofida o‘nlab mayda qishloqlarni kuzatish mumkin. Ana shunday yirik, voha markazi bo‘la olish mavqeiga ega bo‘lgan yodgorlikni Dalvarzintepa va Ashqaltepa misolida ko‘rish mumkin. Ular Farg‘ona vodiysining ilk shaharlari bo‘lganligi ilmiy asarlarda uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tadqiq qilishda analiz va sintez, induktiv va deduktiv, mantiqiylik, uzviylik, tarixiylik kabi ilmiy metodlar va tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Chust madaniyati yodgorliklarini qazish jarayonida, ularning quyi qatlamlaridan doira shaklida qurilgan ko'plab o'ralar topilgan. Masalan, Chust makonida 60 dan ortiq o'ralar borligi aniqlangan. Chimboy makonida esa 16 ta shunday o'ralar topilgan. Ularni ba'zilar odam yashaydigan juft oila kulbalari, deb talqin etishsa (Sprishevskiy), boshqalar Farg'ona vodiysida yaqingacha keng tarqalgan g'alla omborlari – o'ralari, deb hisoblaydilar (Y.G' G'ulomov, A. Asqarov, Y.A. Zadneprovskiy, B. Matboboyev). Bu xulosa haqiqatga yaqin bo'lib, ularning maydonchasi kulba uchun noqulay va aniq kirish eshiklari yo'qdir. Chust madaniyatining quyi bronza davri qatlamlarida guvala yoki xom g'ishtlardan qurilgan kulbalar uchratilmagan. Ular yuqorida ta'kidlaganimizdek, Chust madaniyati tarixining ilk temir davriga tegishli bosqichida paydo bo'lgan. Dastlab, qadimgi Farg'onaning bobodehqonlari yarim yerto'la tipidagi kulbalarda istiqomat qilishgan. Bu esa ularning nasl-nasabi va kelib chiqishi jihatidan qadimgi chorvador sak qabilalaridan ajralib chiqqanliklaridan guvohlik beradi. Chust madaniyatiga tegishli qishloq va shaharmonand obyektlarni qazish jarayonida vayronaga uchragan uylar atrofidan bir necha tartibsiz ko'milgan mozorlar ochilgan. Bu mozorlarga odamlar ona qornida yotgandek oyoq-qo'llari bukilgan holda yon biqini bilan ko'milgan. Bu aslida bronza davriga xos ko'mish odati bo'lib, ayollar chap biqini, erkaklar esa doimo o'ng biqini bilan ko'milgan. Vodiyning sharqiy mintaqalari yodgorliklarida, jumladan, Dalvarzintepa qabrlarida odam skeletlari boshi bilan sharqqa qaratilgan, shimoliy Farg'ona hududlarida (Chust makonida), Toshkent vohasida, hatto Shimoliy Baqtriyaning Kuchuktepa yodgorligida skeletlarning boshi g'arbga qaratib ko'milgan [10;15,16]. Ba'zi hollarda odam suyaklari qishloq maydonidagi axlatxona chuqurchalarida sochilib yotar edi. Ko'p hollarda bir chuqurchada o'nlab odam bosh chanog'ining o'zi uchraydi. Skeleti anatomik tartibda yotgan mozorlarda (ular juda kam uchratilgan) ham sopol idishlar, har xil taqinchoq va uy-ro'zg'or buyumlari deyarli uchramaydi.

Chust madaniyati aholisining xo'jaligi sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bo'lgan. Ikkinchi o'rinda xonaki chorvachilik turgan. Xo'jalikda ot, qoramol saqlagan. Dehqonchilik ekinlaridan bug'doy, arpa, sholi, tariq ekilgan. Chust madaniyati aholisining g'allalari yuqorida qayd qilinganidek, yerga o'yib ishlangan o'ralarda saqlangan. O'ralar ostiga va devorlariga qamishdan to'qilgan bo'ya yopilgan. Har bir o'rada 200 kg dan to 2 tonnagacha g'alla saqlash mumkin bo'lgan. Dehqonchilik ishlarida, yer haydashda, ekin-tikinlarni yanchishda hayvonlardan foydalanilgan. Masalan, Farg'ona vodiysining Saymalitosh qoya 29-suratlarida qo'shga qo'shilgan ho'kizlarning tasviri mavjud. Bu qoyatosh suratlari Chust madaniyati davriga oiddir [10; 15, 16]. Chust madaniyati aholisining hayotida hunarmandchilikning to'qimachilik yo'nalishi yuksak darajada rivojlangan. Yodgorliklarni qazish jarayonida to'qimachilik dastgohiga tegishli urchuqtoshlar, moki va suyak taroqlar ko'plab topilgan. Shunday qilib, mil. avv. II mingyillikning oxirgi choragi va I mingyillikning birinchi choragida Farg'ona vodiysida Chust madaniyati misolida o'zbek xalqining tub joyli ajdodlarini qadimgi dehqonchilik madaniyati bilan shug'ullanganligini ko'ramiz. Bu madaniyat sohiblari antropologik yuz tuzilishi jihatidan yevropaliklar tipiga mansub edi. Ularning ijtimoiy hayoti ibtidoiy jamoa tuzumining oxirgi bosqichi va uning yemirilish davri bilan xarakterlanadi.

Vodiyning bu davr aholisi vohalarda asosan, dehqonchilik xo'jaliklari bilan, ularni o'rab olgan tog' oldi adir va dasht aholisi – yaksartorti saklar esa chorvachilik bilan shug'ullanishda davom etadilar. Ular o'rtasidagi iqtisodiy va etnomadaniy aloqalarning jadal kechishi doimiy xarakter tusini oladi. Natijada, ularning mulkdor qismi yarim o'troq holatda yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanishda davom etadilar. Ularning aksariyat ko'pchiligi (kambag'allashib borayotgan qismi) orasida o'troq

hayotga o'tib, dehqonchilik xo'jaligi bilan shug'ullanish, ularning kundalik turmush tarzi asosiga aylanib boradi. Farg'ona vodiysining qadimgi tarixi va madaniyati bilan shug'ullanadigan arxeologlarning katta qismi vodiyni moddiy madaniyati uni boshqa hududlardan ajralgan ekanligini, ayniqsa kulolchilik buyumlari deyarli barcha tarixiy jarayonda keskin farq qilishini aytadilar [12;69,76]. Ammo Farg'ona vodiysi yodgorliklaridan topilgan kulolchilik buyumlarini boshqa, qo'shni hududlarning moddiy madaniyati bilan solishtirganimizda ular orasidagi juda katta ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarning bo'lganligi va bu narsa ko'p hollarda kulolchilik buyumlarida o'z aksini topganligiga guvoh bo'lamiz. Bunday o'xshashlik yoki, aksincha, tubdan farq qilish holatini arxeologlar tomonidan tarixiy rekonstruksiya qilinayotgan paytda masalaga ijobiy yoki salbiy baho berishda asosiy qo'l keladigan manba bo'ladi. Bunday masalalarni hal qilishda arxeolog uchun eng qo'l keladigan va masalaga asosiy urg'uni beradigan manba bo'lishi mumkin. Buning ustiga boshqa qo'shni tarixiy-madaniy hududlarning arxeologik komplekslari va ularning birin-ketinligiga oydinlik kiritish mumkin.

Shu narsani biz alohida ta'kidlashimiz kerakki, So'g'd, Baqtriya va Marg'iyonaning ko'plab arxeologik obidalaridagi moddiy madaniyat, birin-ketinlik faqat vertikal stratigrafik to'g'risida gap ketganda, qazishmalar yordamida olingan, buning aksi o'laroq, Farg'ona vodiysini davrlashda Y.A.Zadneprovskiy deyarli hamma holatlarda faqat "gorizontal stratigrafiya" ni asos qilib olgan. Shuning uchun, bronza davridan antik davrning oxirigacha bo'lgan Farg'onaning asosiy katta davrlari o'sha qazishmalar olib borilgan arxeologik yodgorliklarning nomlari Chust, Eylaton, Sho'rabashat, Marhamat kabi nomlar bilan atalgan [14;23]. Albatta, o'sha davrda Y.A.Zadneprovskiyning oldida ancha murakkab vazifa turar edi. U ham bo'lsa, hali xronologik davrlashtirish masalasi Farg'onada amalga oshirilmagan bir paytda, gorizontal stratigrafiyaga asoslanib turib bo'lsa ham, xronologik birin-ketin keladigan arxeologik komplekslarni aniqlashni maqsad qilib qo'ygan edi.

Oqtangi g'orida mezolit va neolit davri qatlamlarini o'rganayotgan B.A.Litvinskiy stratigrafik shurfning ustki qismida Chust tipidagi arxeologik komplekslarining Qayroqqum madaniyati materiallari bilan birga uchraganligi tufayli ularning sinxron ekanligini birinchilardan bo'lib aytgan olim hisoblanadi. Y.A.Zadneprovskiy Farg'ona vodiysidagi Chust davri arxeologik yodgorliklarining 70 tadan ortiq arxeologik obidasidan to'plangan materiallarning tahlili asosida bu komplekslar davrini miloddan avvalgi II-mingyilliklarning oxiri va I-mingyilliklarning boshlari bilan davrladi. Shu bilan birga Chust madaniyati yuqori qatlamlarining yoshini A.S.Sagdullayev biroz yoshroq ekanligi to'g'risidagi fikrni berdi [8;45]. Farg'ona vodiysida ishlab turgan "stratigrafik kolonka" o'z paytida aynan Y.A.Zadneprovskiy tomonidan ishlangan. Ushbu "stratigrafik kolonka" ning xronologik birin-ketinligi to'g'ri bo'lsa ham, ammo ajratilgan har qaysi davrning o'tish qismida anchayin aniqlanishi kerak bo'ladigan qismlari bor. Qanday belgilardan tuzilgani "stratigrafik kolonka" ga to'sqinlik qilmoqda. Agarda, Chust madaniyatiga oid arxeologik yodgorlikning yuqori qismidan Eylaton madaniyatiga oid kulolchilik buyumlari topilganida edi, hech qanday muammosiz Chust davridan keyingi madaniyat, aynan Eylaton madaniyati kelishi kerakligini hech qanday shubhasiz qabul qilsa bo'lar edi. Xuddi shunday muammo keyingi Eylaton madaniyatining quyi va yuqori qatlamlari uchun ham to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

O'sh yaqinidagi Sulaymontog' etaklarida ilk temir davriga oid yodgorlik qazib ochildi va aynan shu yodgorlikning ochilishi tufayli Chust madaniyatining qadimgi va so'nggi davr qatlamlarini aniqlashga juda katta yordam berdi. Yodgorlik Sulaymontog'ning etagidagi yassi, terassasimon tekislikda bunyod etilgan bo'lib, bu yerda o'tkazilgan qazishmalar juda ko'plab yerto'lalarni materikdan (onalik jins) quyi qatlamlariga tushirilgan. Juda ko'plab butun va singan holdagi yorg'uchoqlar, qo'lda yasalgan va ustidan rangda naqsh berilgan idishlar, bronzadan yasalgan juvoldizlar, bo'yning taqiladigan ko'plab munchoqlar topildi [11;35]. Bu yodgorlikda olib borilgan qazishmalarining eng muhim

natijalaridan biri shu yodgorlikning qatlamlaridan olingan yangi radiokarbon analizlari bo‘lib, uning ahamiyati juda kattadir. Chunki aynan shu joydan olingan radiokarbon analizlari Chust madaniyatining umumiy yoshini ilgari tasavvurlarimizga nisbatan juda qadimgi davrlarga borib taqalishini ko‘rsatdi. Ammo, radiokarbon usuli bilan aniqlangan davrlar juda katta davrlarni, ya‘ni miloddan ilgari XII – VII asrlardan XXII – XX asrlargacha bo‘lgan davrlarni qamrab olgan edi. Lekin bu qazishmalarni o‘rgangan Y.A.Zadneprovskiy O‘sh shahrining qadimgi turar-joy makonining o‘rtacha yoshini miloddan avvalgi XV/XIV – VIII/VII asrlar bilan davrlaydi. Xuddi shu davr bilan Dalvarzin yodgorligining quyi va yuqori qatlamlarining davri aniqlanadi.

Chust madaniyatining ham, shu jumladan, Dalvarzin yodgorligidagi hayotning ham umumiy davomiyligi o‘rtacha 800 yilni tashkil etishi aniqlangan. Dalvarzin yodgorligi quyi qatlamlarining eng xarakterli belgisi qo‘lda yasalgan va qizil angobning ustidan qora rangda naqsh berilgan idishlarning borligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga Dalvarzin yodgorligi va shu bilan birga Chust madaniyati yodgorliklarining yuqori qatlamlarida qizil rangda naqsh berilgan idishlar ham uchraydi. Xuddi shunday ketma-ketlik So‘g‘d, Baqtriya hududlaridagi yodgorliklarda ham uchraydi. Janubiy hududlardagi kulolchilik buyumlarining yuzasiga chizilgan naqshlar ancha aniq bo‘lib, ko‘proq geometrik naqshlar chizish keng rasm bo‘lgan [9;34]. Chust madaniyati bodhqa chorvador jamoalar bilan madaniy aloqalar olib borgan. Shu tariqa madaniyatlar almashinuvi amalga oshgan desak aslo mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Bu davrdagi chorvadorlarning madaniyati Farg‘ona vodiysida “Qayroqqum” madaniyati nomi bilan berilgan bo‘lib, asosan keng dasht hududlarida, tog‘li va tog‘oldi hududlarida tarqalgan Andronova madaniyatiga xosdir [1;25,28]. Andronova madaniyatining bir chekkasi hisoblanmish Qayroqqum madaniyati chorvadorlar madaniyati hisoblanadi. Chorvadorlik bilan bir qatorda metallsozlik yuqori darajada rivojlanadi. Natijada metallsozlik markazlari vujudaga keladi. Qayroqqum madaniyatda metallsozlikning taraqqiy etishi, ko‘plab mis hamda temir rudasiga boy konlarni yaqinida joylashganligidir.

Farg‘ona vodiysining kulolchilik komplekslarini davrlash masalalarini hal qilishda asosiy chalkashliklar miloddan avvalgi II-mingyillikning o‘rtalaridan, Eylaton madaniyati qatlamlaridan boshlanadi. Masalaning murakkab tomoni shundaki, shu kungacha Farg‘ona vodiysining qaysi davridan boshlab kulolchilik charxida tayyorlangan idishlar tarqay boshlaganligi masalasi eng murakkab masalalardan biridir. Jumladan, kulolchilik charxida yasalgan idishlar hatto Sufon qabrisonida ham yo‘qligi aniq, ammo Kungay qabrisonida qo‘lda yasalgan idishlar bilan birga kulolchilik charxida yasalgan idishlar ham uchraydi [4;56,58]. Sufon hamda Kungay mozor-qo‘rg‘onlarida yashagan aholi jamoalari chorvadorligini hisobga oladigan bo‘lsak, madaniy aloqalar ta‘sirida kulolchilik buyumlari bir hududdan ikkinchi hududga kelib qolgan bo‘lishi mumkin.

Eylaton va Sho‘rabashat madaniyatlarining eng dastlabki o‘rganuvchilari “Eylaton madaniyati Sho‘rabashat madaniyatidan ko‘ra keyingiroq davrlarga oid” deyishgan [3;67-70]. Biz bu masalaga yondashadigan bo‘lsak, Eylaton madaniyati Sho‘rabashat madaniyatidan oldinroq kelsa kerak. Chunki qazishmalar jarayonida Eylaton madaniyatiga tegishli sopol buyumlar, Sho‘rabashat madaniyatiga doir sopol buyumlari chiqqan qatlamlarning ustidan chiqishini ko‘rishimiz mumkin.

Xuddi shunday xulosaga N.G.Gorbunova anchagina solishtirma tahlillarni o‘tkazgandan keyin kelgan. Bu masalani hal qilishda yana bir murakkab muammo borki, u ham bo‘lsa Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida, Qirg‘izistonning sharqida Kulunchak turarjoy makoni bo‘lib, bu yodgorlikni arxeologlardan P.P.Gavryushenko qazigan va bu ish uning nomzodlik dissertatsiyasining avtoreferatida juda qisqa qilib berilgan. Qazishma ishlarining batafsil tafsilotlari, arxeologik ma‘lumotlarda keng miqyosda chop etilmay qolib ketgan [2;89,93]. Agarda, P.P.Gavryushenko o‘z materiallarini to‘liq chop

etganda edi, unda Chust madaniyati bilan Sho‘rabashat madaniyati birin-ketin kelishi masalasiga oydinlik kiritishi mumkin edi. Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumanidagi ilk o‘rta asrlarga oid turar-joy makonining quyi qismini qazish davrida ilk temir davriga oid kulolchilik kompleksi topildi [6;78]. Shu topilgan kulolchilik buyumlarining aksariyat qismi Chust madaniyati yodgorliklaridan chiqqan spool buyumlarga nihoyatda o‘xshash edi.

Farg‘onaning Sufon, Kungay va Oqtom qabristonlaridan topilgan sopollar kompleksi bilan solishtirganimizda, ular aynan bir-birlariga juda o‘xshash ekanligi qayd qilindi [7]. Yakkabog‘ tumanidagi ilk o‘rta asrlarga oid turar-joydan topilgan sopol buyumlar, chorvador jamoalar hamda o‘troq dehqonchilik madaniyatlari yodgorliklaridan topilgan. Bu holat madaniy aloqalarning rivojlanganligidan xabar beradi.

So‘nggi bronza va ilk temir davridan boshlab bunday kulolchilik komplekslarining tarqalishidagi umumiylikda biroq o‘zgarishlar bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu davrga kelib, har qaysi hudud uchun o‘zining alohida kulolchilik maktablari shakllanadi. Bu kulolchilik maktablari mahalliy aholining kulolchilik buyumlariga bo‘lgan talabini, ayniqsa idishlarning qaysi shaklda ishlab chiqarilishini ham hisobga olishga majbur bo‘lgan [5;38,44]. Shunday qilib, Farg‘onaning ilk temir davri hamda antik davri kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish texnikasi O‘rta Osiyoning boshqa kulolchilik maktablarining kulolchilik maktablari bilan sinxron rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, Farg‘onaning kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish an‘analari milodning dastlabki davrlarida ya‘ni ilk temir davriga kelganda ancha keskin o‘zgarganini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar

Farg‘ona vodiysining sharqiy hududlariga xos geografik muhit, ya‘ni Qoradaryo suv resurslarini ta‘minlagan minglab buloq suvlari, unumdor qora tuproqli ekinbop maydonlar, o‘lka tog‘ yonbag‘irlarining yovvoyi boshqoqli o‘simliklarga boyligi va nihoyat, chorvachilikdan baxti chopmay kambag‘allashib borayotgan aholining talay qismi o‘troqlashib, havza dehqonchiligi bilan shug‘ullana boshlaydilar Chust madaniyati gurkirab rivojlangan so‘nggi bronza, ilk temir davrlariga kelib, har qaysi vohaning o‘zining kulolchilik maktablari kelib chiqdi. Shuning uchun ham, aynan, shu davrdan boshlab Farg‘onadagi kulolchilik maktablari ishlab chiqargan mahsulotlar shakl jihatdan keskin farq qiladi. Ammo bu idishlarning angob qoplamasida umuman farq yo‘q. Kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarishdagi umumiylik idishlarning juda ham yupqa, yengil va sifatli qilib ishlab chiqarilishida, angobning deyarli bir xil rangda qoplanishida, angobni qoplash usulining birligida, deyarli bir xil kulolchilik xumdonlarining tarqalganligida va boshqa ishlab chiqarishning ko‘plab texnik belgilarida ko‘rinadi. Aynan, shu belgilar kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi umumiy belgilar qatoriga kiradi va bunday ishlab chiqarishning umumiy tarqalish arealini belgilab beradi. Bu, Farg‘ona vodiysi, So‘g‘d, Baqtriya va Marg‘iyona hududlaridir. Shuning uchun, Farg‘onaning qizil angobli kulolchilik buyumlari arxeologik komplekslarni davrlashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Аванесова Н.А. Древнейшие номады Зерафшана. Культура номадов Центральной Азии. Материалы международной конференции. Самарканд.:2008 г.
2. Гаврийушенко Р.Р. Кулунчакской укрепленное поселение // Автореферат диссертации канд. ист. наук. Ташкент.: 1970 г.
3. Горбунова Н.Г. К вопросу о датировке комплексов с Шурабашатской керамикуо в Восточной Фергане // АСГЕ, вып. 17. Л., 1977 г.

4. Иванов Г.Р. Проблемные вопросы периодизации культуры древней Ферганы. В сб. Фаргона улкашунослиги. Фаргона улкашунослик музейининг 100 йиллигига бағишланган илмий ишлар туплами. Фаргона., 1996 г.
5. Исамиддинов М., Алохунов А. Фарғона водийси бронза ва темир даврида. – Фарғона, 2021. 38-44 бет.
6. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). — Т.: Вр-во А.Кадыри. 2002 г.
7. Исамиддинов М.Х., Сулаймонов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). — Т.: “Фан”, 1984 г.
8. Литвиниский В.А., Ранов В.А. Раскопки навеса Ак-танги 1959 г. АРТ. Выр. VII, (1959). Душанбе: 1961 г.
9. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА выр. 73, М., Л.: 1959 г, таб. XVII-XX.
10. Матбобоев Б.Х. Локальные варианты чустской культуры Ферганы. Автореф. канд. дисс...с.15-16.
11. Сагдуллаев А.С. Осотношени древнеземледельческих комплексов Ферганы Бактрии. СА. — 1985. — №4.
12. Спришевский В. И. Чустская стоянка эпохи бронзы в Узбекистане. СЭ № III, Москва-1954, с. 69-76.
13. Рузанов В.Д. Еще раз о хронологии чустской культуры Ферганы. «Российская археология» № IV, Москва- 1999, с. 24-35.
14. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. Москва-Ленинград. 1962. МИА № 118.
15. Заднепровский Ю.А. Ошскойе поселения. К истории Ферганы в эпоху роздней бронзы. Мурас.: 1997 г.
- 16.Заднепровский Ю.А. Чустская культура Ферганы и памятники раннежелезного века Средней Азии. Автореф. док. дисс. Москва-1978, с. 28-34.

**YANGI O‘ZBEKISTONDA RAHBAR AYOLLARNING DAVLAT VA JAMIYAT
BOSHQARUVIDAGI ISHTIROKI, ULAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH IMKONIYATLARI**

**УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН-РУКОВОДИТЕЛЕЙ В УПРАВЛЕНИИ ГОСУДАРСТВОМ И
ОБЩЕСТВОМ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ, ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ИХ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**PARTICIPATION OF FEMALE LEADERS IN STATE AND SOCIETY GOVERNANCE
IN NEW UZBEKISTAN, OPPORTUNITIES TO INCREASE THEIR ACTIVITY
EFFICIENCY**

Elboyeva Shaxnoza Bo‘riniyozovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshirilayotgan hamda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar tarixiy tahlil etilgan hamda kerakli taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *xotin-qizlar, ijtimoiy-siyosiy faollik, farmonlar, Xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, zamonaviy ayol, milliy tarixiy shaxslar.*

Аннотация: В данной статье в годы независимости исторически анализируются реформы, проводимые в Узбекистане по повышению общественной и политической активности женщин, а также реформы, проводимые в поддержку женщин, а также даются необходимые предложения и рекомендации.

Ключевые слова: *женщины, общественно-политическая деятельность, указы, Государственный комитет женщин, современная женщина, отечественные исторические деятели.*

Abstract. In this article, during the years of independence, the reforms carried out in Uzbekistan to increase the social and political activity of women and the reforms carried out in support of women are analyzed historically, and the necessary suggestions and recommendations are given.

Keywords: *women, education, science, knowledge and skills, research and development work, electronic navigation platforms, vouchers, social lift, society, experience of foreign countries.*

Elboyeva Sh.B.
*Iqtisodiyot va pedagogika
universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar”
kafedrası
katta o‘qituvchisi,
elboyeva qarshi@gmail.com*

Mamlaktimizda ijtimoiy faol ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlab borish, ularni o‘qitish, malakasini oshirish imkoniyatlari yaratilgan. Bu borada Davlat boshqaruvi Akademiyasida alohida

“Rahbar ayollar maktabi” o‘quv kurslari tashkil etilgan. Mazkur maktabda har yili zaxiraga olingan xotin-qizlardan 100 nafari o‘qitib kelinmoqda.

Tariximizga bir nazar solsak, qanchadan qancha buyuk ishlar boshida To‘maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Zulfiya kabi ayollar turganiga guvoh bo‘lamiz. Ular o‘z jasorati, aql-idroki va mardligi bilan tarixga o‘z ismlarini muhrlab qo‘ygan. Shunday siymolar davomchilari ekanligimizning o‘ziyoq bugungi kun xotin-qizlarga g‘urur va sharaf tuyg‘ularini his qilishga sabab bo‘la oladi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xotin-qizlarning har sohada ijtimoiy-siyosiy faolligiga bo‘lgan e‘tibor yuksaldi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun kerakli bo‘lgan shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida PF-5325- sonli Farmoni e‘lon qilindi. Mazkur Farmon asosida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, ta‘lim muassasalarida rahbar ayollarning o‘quv jarayonida samaradorligini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlar tahsinga sazovordir.

Umuman olganda, O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Zero, jamiyat rivojini xotin-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois ayollarning oilada ham, davlat va jamoat ishlarida ham emin-erkin faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida mamlakatimiz miqyosida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Bugungi kunda mamlakat akademik doiralarida ayollarning o‘rni va mavqeyini oshirish, yangi avlod olim xotin-qizlarni tarbiyalash hamda istiqbolli loyihalarni rag‘batlantirish bo‘yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta‘minlash, jumladan, ta‘lim va ilm-fan sohasida O‘zbekiston ichki siyosiy konsepsiyasining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiradi. Bu borada 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi **69-maqsadida**: *xotin-qizlarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, to‘g‘ri yo‘naltirish vazifasi belgilab qo‘yilgan* [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining “**Yangi O‘zbekiston strategiyasi**” nomli asarida “*Bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi ayollarimizga e‘tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va maqomini mustahkamlash ularning huquq va manfaatlarini ta‘minlashdir. Bu o‘z navbatida, Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmi, ma‘rifatli va salohiyatli qilish degan aqidani hayotga izchil tatbiq etish*”[2] kerakligini alohida ta‘kidlab o‘tganlar.

Ma‘lumki, 2016-yil yildan boshlab, har yili 11-fevral kuni BMT qaroriga binoan “**Xalqaro ilmda ayollar va qizlar kuni**” sifatida nishonlanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad xotin-qizlarning ta‘lim olishiga qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fandagi salohiyatiga e‘tibor qaratish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat hisoblanadi. Shu bois xalqaro va xorijiy tajribani o‘rganish maqsadida 10 dan ortiq xorijiy mamlakatlarda xotin-qizlarning ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar tahlili amalga oshirildi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan hamda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar, xotin-qizlarning ta‘lim olishi, ilm-fan sohasida

ayollarning o‘rnini yanada oshirish bo‘yicha nazariy va amaliy jihatlarini Gaskell Dj., Maklaren A., Aker S., Stromkvist N.P., Foks M.F. va Xamdan A. kabi xorijlik olimlar tadqiqotlar olib borishgan. MDH mamlakatlari olimlaridan Nogayeva A.M., Shupanova J.M., Agamova N.S., Allaxverdyan A.G. va Shafranova O.I. singari olimlarning ilmiy ishlarida ta’lim, ilm-fan sohasida ayollarning roli o‘z aksini topgan.

O.Bo‘riyev, M.Vohidov, L.Munavvarova, O.Musurmanova, M.Mamatov, K.Nasriddinov, M.Sangilov, U.Toshtemirov, I.Shoyardonov, M.Xolmatova, M.O‘zbekov kabi mamlakatimiz olimlari oila, uning madaniyati, ijtimoiy muammolari masalasiga to‘xtalib, ularni ancha mufassal tadqiq etgan holda xotin-qizlarning oiladagi ijtimoiy faolligini o‘z ilmiy izlanishlarida asoslab berganlar. Ayol qadrini qanchalik yuqoriga ko‘tarishga muvassar bo‘lsak, milliy g‘ururimiz, ma’naviyat va madaniyatimiz yanada yuksalishi, oilalarimiz barqarorligi ta’minlanishi, halol va pok, fidoyi, vatanparvar, jamiyatga foyda keltiruvchi, millatimizni butun jahon miqyosida ko‘z-ko‘z qildiruvchi farzandlarimiz soni kundan kunga ko‘paya borishi tabiiy holdir. Zero, har tomonlama faol va oqila, dono, izlanuvchan, zamonaviy ayol mehnatidan, salohiyatidan nafaqat uning oilasi, balki butun jamiyat manfaatdor bo‘lishi chin haqiqatdir. Biz qurayotgan jamiyatning og‘ir yukini dadil ko‘tarib, uning poydevorini mustahkamlab turadigan asosiy kuch jamiyatimizdagi har bir oila, har bir inson, har bir fuqaro, shu jumladan, xotin-qizlar ekanligini unutmasligimiz kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni bilan 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda 2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Mazkur hujjatlardan oila institutini yanada mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayollarning jamiyat hayotidagi nufuzini, faolligini oshirish, mehnatini munosib rag‘batlantirish, tashkilotchilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik va siyosiy jarayonlarda daxldorlik qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar ko‘lamini kengaytirish masalalari o‘rin olgan [3.103-b].

Farmonda O‘zbekiston Xotin-qizlar davlat qo‘mitasining jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qo‘mita faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalarining yangilangan tuzilmalari tasdiqlandi. Shu o‘rinda, O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishdagi me‘yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga to‘xtalish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘tgan yillar mobaynida ayollar manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan qariyb 100 ta milliy va xalqaro huquqiy hujjat qabul qilindi va ratifikatsiya qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 8-mart – “Xalqaro xotin-qizlar kuni” bayramiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqida shunday degan: “O‘zbekiston deb atalgan jonajon Vatanimizda har qaysi mard yigit, avvalo, mehribon onasi, oilasi, farzandlari baxtli bo‘lishini istaydi, albatta. Hazrat Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, bu yo‘lda o‘zining butun borlig‘ini bag‘ishlashga tayyor turadi”.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. O'nlab opa-singillarimiz "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston fan arbobi", "O'zbekiston xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston xalq shoiri", "O'zbekiston xalq artisti" singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo'lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o'z bilimi, iste'dodi bilan Vatanimiz ravnaqi yo'lida astoydil xizmat qilib kelmoqda. Jamiyat va davlat hayotida faollik, tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan xotin-qizlarga beriladigan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyati ularning iqtidori, qobiliyati, tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Hech bir davrda ayollar faqat boshliq bo'lishi yoki faqat ergashishi lozim deb hisoblanmagan. Aksincha, hozirgi kunda xotin-qizlarga munosabat ijobiy tomonga o'zgarib, ularning ona bo'lishi bilan birga potensial qobiliyatlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.[4. 68-b]

Ma'lumki, mamlakatimiz XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma'rifatparvarlari M.Behbudiy, A.Fitrat va A.Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan, Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida shunday fikrlar bor:[5.47-b]

"Ayollarning huquqlari, albatta, din va milliy qadriyatlar bilan ham bog'liqdir. Islom dini kirib kelgunga qadar qizlar tug'iliboq tiriklayin o'ldirilgani ko'pchilikka ma'lum. Muqaddas Islom dini hamisha ayollarni e'zozlashga buyuradi. "Jannat onalar oyog'i ostidadir" degan naql asrlar osha o'z mavqeyini yo'qotganmagan. Islom ta'limoti ayollarni ilm olish, mehnat qilish, meros huquqi, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishda erkaklar bilan teng huquqli qildi. Hadislarda "ilm olish har bir muslim va muslimaga xosdir", deyilgan. Islomda oila, nikoh, meros masalalarida ayolga ko'proq yon beriladi, nikohsiz yashashga ruxsat berilmay, shu tariqa ayolning huquqi ta'minlanadi. Nikoh shartlaridan bo'lmish mahr ham aynan ayollarning foydasi uchun joriy etilgan" [6.43-b].

XX asr xotin-qizlarning o'z huquq va erkinliklari, ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlari va mas'uliyatlarini anglab yetishiga xizmat qilgan davr bo'ldi. Xotin-qizlar minglab yillar davomida umuman ko'rmagan va guvohi bo'lmagan, orzu-intilishlarining mazmun-mohiyatiga aylangan siyosiy huquqlarga aynan shu asrda erishdilar. Ushbu asrda xotin-qizlarga nisbatan qarashlarning tubdan o'zgarishi va endi nafaqat oilaviy hayot, balki davlat va jamiyat hayotida ayollar hamda erkaklarning maqomi ham tenglashgani diqqatga sazovordir. Aytib o'tilgan yutuqlarga ayollar osonlik bilan erishayotganlari yo'q. Bir vaqtning o'zida oila ishlarini saranjomlash bilan birga ijtimoiy-siyosiy masalalarga ham vaqt topish, nafaqat vaqt topish, balki o'zlariga yuklatilgan vazifalarni ado etish, tom ma'noda, ijtimoiy-siyosiy masalalarda o'z maqomiga ega bo'lish, ulardan erkaklarga nisbatan ikki barobar ko'proq kuch-quvvat sarflashni talab qilmoqda [7.107-b].

Ayollarning jamiyatdagi o'rni va rolini oshirish, davlat boshqaruviga ularni yanada kengroq jalb qilish, mamlakatning siyosiy boshqaruvi sohasida ularning faolligini yanada oshirish vazifalari keng ahamiyat kasb etib bormoqda. XXI asrda dunyoning barcha mamlakatlarida ayollar siyosat bobida ham teng huquqlilikka erishmoqda, parlamentda salmoqli o'rinlarni egallamoqda. Masalan, Ukraina parlamentining 8 foizini ayollar tashkil qilsa, arab davlatlarida ham ushbu ko'rsatkich 8 foizni tashkil qiladi. Shvetsiya, Estoniya va boshqa Yevropa davlatlari parlamentlarida ayollar ko'pchilikni tashkil qilishi bilan ajralib turadi. Biroq Afrikadagi Ruanda mamlakatining parlamenti deputatlari ichida xotin-qizlarning soni bu borada butun Yevropani ortda qoldiradi. Ushbu davlat parlamentining 48,8 foizini xotin-qizlar egallagan. Undan keyin Shvetsiya 45%, Daniya 40% [8.56-b]. Bu holatning o'ziyoq xotin-

qizlarning kun sayin zamonaviy imijga ega bo'lib, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faollashib borayotganligini ko'rsatib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatimizda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim omili hisoblanadi. Zero, ayol – oila ustuni va jamiyat ko'rki. Oilalarimiz tinch va farovon bo'lsa, jamiyatimiz, davlatimiz ham mustahkam oilalar negiziga qurilgan davlat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yurt qahramonlarining qadri baland, xotirasi muqaddas.// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.- T.:O'zbekiston, 2018.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.

5. Bazarova D. "O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – davr talabi". – Toshkent: TDYuU, 2019.

6. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Cho'lpon, 2019.

7. O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2019. // www.stat.uz

8. Bazarova D. "O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – davr talabi". – Toshkent: TDYuU, 2019.

ARCHAEOLOGICAL RESEARCH OF KUVA IN THE SECOND HALF OF THE XX CENTURY**АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КУВЫ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА****XX ASRNING IKKINCHI YARIMIDA QUVADAGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLARI**

Farmanova Gulnara Komilevna

Abstract. The article discusses issues related to the history of the archaeological study of Kuva, which has long been the economic and political center of the Fergana oasis. This was due to favorable climatic and geographical conditions - abundance of water, mild climate, proximity of the steppes with their potential market, proximity to caravan routes, etc. All this contributed to the development of crafts, agriculture and trade, and was the impetus for the early urbanization of the area. The author emphasizes the role of archaeologists, their achievements and discoveries in the archaeological research of the Kuva settlement. The directions of archaeological work in the study of the history of Kuva as a result of archaeological research have also been determined.

Key words: *Fergana Valley, Kuva, Kubo, independence, archaeology, archaeologists, history, archaeological site, archaeological excavations, archaeological finds, archaeological methods, archaeological research, periodization, international expedition, joint research.*

Farmanova G.K.,
Fergana State
University
associate professor,
Head of the
Department of
World History
farmanova.gulya@g
mail.com

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, касающиеся истории археологического изучения Кувы, которая издавна была экономическим и политическим центром Ферганского оазиса. К этому располагали благоприятные климатические и географические условия – обилие воды, мягкий климат, соседство степей с их потенциальным рынком, близость от караванных путей и т. д. Все это способствовало развитию ремесел, земледелия и торговли, было импульсом для ранней урбанизации района. Автором подчеркивается роль археологов, их достижения и открытия в археологических исследованиях городища Кува. Также определены направления археологических работ в изучении истории Кувы в результате проведенных археологических исследований.

Ключевые: *Ферганская долина, Кува, Кубо, независимость, археология, археологи, история, археологический памятник, археологические раскопки, археологические находки, археологические методы, археологические исследования, периодизация, международная экспедиция, совместные исследования.*

Annotatsiya. Maqolada Farg‘ona vohasining iqtisodiy va siyosiy markazi bo‘lgan Quvani arxeologik o‘rganish tarixiga oid masalalar muhokama qilinadi. Bunga qulay iqlim va geografik sharoitlar – suvning ko‘pligi, yumshoq iqlim, dashtlarning o‘zlarining salohiyatli bozoriga yaqinligi, karvon yo‘llariga yaqinligi va boshqalar sabab bo‘ldi. Bularning barchasi hunarmandchilik, dehqonchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga hissa qo‘shdi va bu hududning erta urbanizatsiya qilinishiga turtki bo‘ldi. Muallif Quva manzilgohini arxeologik tadqiq etishda arxeologlarning o‘rni, erishgan yutuqlari va kashfiyotlarini alohida ta’kidlaydi. Arxeologik tadqiqotlar

natijasida Quva tarixini o'rganishda arxeologik ishlarning yo'nalishlari ham belgilab berildi.

Kalit so'zlar: *Farg'ona vodiysi, Quva, Kubo, mustaqillik, arxeologiya, arxeologlar, tarix, arxeologik joy, arxeologik qazishmalar, arxeologik topilmalar, arxeologik usullar, arxeologik tadqiqotlar, davrlashtirish, xalqaro ekspeditsiya, qo'shma tadqiqotlar.*

Introduction

The territory of the Fergana Valley of Uzbekistan is rich in various antiquities. Natural conditions of this region of Central Asia are peculiar and diverse. Due to the fact that the plain territory is surrounded by rather high mountains, it is possible to get to different climatic conditions in Fergana for insignificant distances. The diversity of landscapes in the Fergana Valley allowed societies with different ways of farming to live normally and get enough food from nature since ancient times.

At the earliest stages of the Stone Age, this intermountain basin already attracted various tribes. The oldest finds recorded by archaeologists in the valley date back to a million years [10: p.165]. At that time people lived in the foothill and mountain zone, where they could find a shelter in the form of a cave, hard enough stones for making tools, and the relief was convenient for primitive hunting. In Mesolithic and Neolithic, the central part of the valley was developed. Through all Fergana flowed a large number of rivulets to the main river - Syr Darya. Also, a large number of small lakes with bushes along the banks served as a source of fish and poultry. The difference in the ways of farming in the foothill zone and on the plains contributed to the division of the population of the Fergana Valley along cultural, and maybe even ethnic lines. However, they were still mobile groups of people living on the basis of appropriative forms of economy. They were entirely dependent on natural conditions and had to move and resettle in search of more favorable places.

The situation changed with the emergence of primitive agriculture. Having chosen the most favorable areas in eastern Fergana for cultivation using the simplest irrigation methods, people began to settle here on a permanent basis. During the Late Bronze Age, in the IX century BC, fortified settlements of the Dalverzintepa type appeared in the east of the valley [9: p.11], which some scientists consider as proto-cities. At the beginning of the 1st millennium BC, large settlements appeared in other parts of the Fergana Valley.

Literature review

Considering the degree of study of the topic, it is necessary to first dwell on the works of such authors as Bulatova V.A. [3], Zadneprovsky Yu. [3], Zadneprovsky Yu. [9], which provide data on archeological study of Kuva, on the emergence of irrigated agriculture and agricultural culture of Fergana, where materials on periodisation and origins of urban culture are presented, archeological research and excavations of the monument are considered. In the works of Zhukov V.D. [6]; [7]; [8], devoted to archeological research and excavations of the monument of medieval Kuva, considered the issues of separate historical periods in the history of the settlement, showed the interaction of cultural traditions in the context of the direct influence of the geographical environment on the way of life of the population. In the work of Davidovich E.A. [5] presents numismatic materials from the archeological monument, reflecting the economic and cultural interaction of the peoples of Kuva with neighbouring and distant regions. Also separate works by U.I. Islamov, K.A. Krakhmal require special attention. [10]; [27], Kozenkova V.I. [10], Raimkulov A., Ivanov G.P.. [14], which reveal aspects of archeological study of Kuva, consider issues of material culture, economic relations. The used works and a number of others, allow us to conduct a comparative analysis of sources and their data, and thus provide information proving the history of archeological study of Kuva in the 1950-1960s of the twentieth century.

Research Methodology

The methodology of this article is based on the principles of independence and the concept of civilisation approach to the historical process. Also, speaking about the methodology of the article, we would like to emphasise that we used the methods of selection and classification of material, comparative analysis of facts, opinions and conclusions, as well as the method of historicism and objectivity. The principle of historicism and objectivity allowed us to study the historiography of the issue in its specific diversity.

Analyses and research results

The Kuva mound, located in the southern part of the Fergana Valley on the territory of the district centre of the same name in the Fergana region, first attracted the attention of archaeologists back in the early twentieth century [13: p.708]. Its size, as well as a large number of ceramics and other archaeological objects on the surface of the monument allowed even then to compare the hill, called by locals Keikubodtepa, with the city of Kubo of Arabic-speaking authors of the 10th century. The beginning of deep, purposeful and systematic study of the Fergana Valley was laid by the archaeological expedition of the State Academy of the History of Material Culture (1930-1934). Archaeologists set as their task the study of ancient irrigation - the key to the history of agricultural cultures of Central Asia [19: p.1-5]. They drew up a scheme for periodisation of Fergana cultures. Specific material to clarify this periodisation was provided by archaeological research along the route of the Big Fergana Canal, where complexes characterising the Bronze and Iron Age (1st century BC), Early and Developed Middle Ages were obtained. At the same time, data were collected for the archaeological characteristic of the ancient settlement of Kuba with the adjacent area and noted a number of monuments dating back to the 1st century A.D. These are the Kuva burial ground, the settlements of Zindon or Karaul-tepe and Buistan [6: p.27]. Archaeological research of the settlement in the early 30s of the twentieth century and during the construction of the Big and South Fergana Canals in 1939-1940, as well as small archaeological excavations conducted in 1951 by the staff of the Pamir-Fergana Archaeological Expedition, left no doubt that under the hills of the Kuva settlement the remains of a large and ancient city are hidden.

2. Mehnat resurslari va kadrlar siyosatiga oid adabiyotlar. Mehnat resurslarini boshqarish va kadrlar siyosati O'zbekistonning yengil sanoat sohasida muvaffaqiyatli rivojlanishining asosi sifatida ko'rilgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarda, mehnat bozoridagi o'zgarishlar, malakali kadrlar tayyorlash va ishchi kuchining samarali boshqarilishi masalalari qamrab olingan. X. Karimov (2017) o'z tadqiqotida, yengil sanoat tarmoqlarida malakali kadrlar tayyorlashning ahamiyatini yoritadi [3, 44-b]. Uning fikricha, mehnat resurslari bo'yicha to'g'ri siyosat yengil sanoatning barqaror rivojlanishiga asos bo'ladi. Viloyatlarda kadrlar tayyorlashning samarali tizimi yaratish uchun zamonaviy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlash zarur. Yana bir muhim manba – F. Muhammadaliyev (2020) tomonidan yozilgan «Mehnat resurslari va iqtisodiy rivojlanish» nomli kitob bo'lib, unda O'zbekistonning mehnat bozoridagi o'zgarishlar, ayniqsa, Qashqadaryo viloyatidagi yengil sanoat tarmoqlarida ishchi kuchining malakasini oshirish masalalari keltirilgan [4, 83-b]. Muallif ishchi kuchining malakasini oshirish uchun oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va sanoat korxonalarini o'rtasida samarali hamkorlik zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, R. Yusupov (2018) tomonidan olib borilgan «Sanoat va mehnat resurslarini boshqarish» mavzusidagi ilmiy ishda, viloyatlardagi sanoat korxonalarida ishchi kuchi va mehnat resurslarining samarali boshqarilishi tahlil qilingan. Tadqiqotda, viloyat hokimiyatining mehnat resurslarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlari, yoshlarni sanoatga jalb qilishga oid loyihalar va malaka oshirish kurslari haqida so'z boradi. Muallif mehnat bozoridagi o'zgarishlar va ishchi kuchining harakatchanligini yaxshilash bo'yicha takliflar bildiradi [5, 74-b].

3. Mehnat migratsiyasi va kadrlar siyosati. Qashqadaryo viloyatida yengil sanoatning rivojlanishi mehnat migratsiyasining ko'payishiga olib keldi. O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan va hatto chet eldan, xususan, Rossiya va Qozog'istondan ishchilarni jalb qilish, ayniqsa, poyabzal va to'qimachilik sanoati sohasida o'z ahamiyatini kasb etdi. Bu mavzuda bir qancha ilmiy asarlar mavjud. M. Tursunov (2019) tomonidan olib borilgan «Mehnat migratsiyasi va iqtisodiy integratsiya» nomli ilmiy maqolada, O'zbekistonning mehnat migratsiyasi, shu jumladan Qashqadaryo viloyatining mehnat bozoridagi o'zgarishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda, viloyatda ishchi kuchining chet elga oqimi va shu oqimni to'g'ri boshqarish, mehnat migratsiyasidan foyda olish usullari ko'rib chiqiladi [6, 8-b].

Qashqadaryo viloyatida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va mehnat resurslari, kadrlar siyosatiga oid adabiyotlar tahlili, viloyatda sanoat tarmoqlari va mehnat bozorining bir-biriga ta'siri haqida aniq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Yengil sanoat tarmoqlarining o'sishi, malakali kadrlarni tayyorlash va mehnat resurslarini samarali boshqarish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar va siyosatlar, viloyat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi [7, 95-b]. Kelajakda, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mehnat resurslarini boshqarishni yanada takomillashtirish va mehnat migratsiyasini samarali boshqarish bo'yicha ishlanmalarga ehtiyoj mavjud.

Viloyatda yengil sanoatning rivojlanishi mehnat resurslarining sifatini va samaradorligini oshirishni talab etdi. 2016-2024 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida yengil sanoat tarmoqlari uchun malakali ishchi kuchini tayyorlash va kadrlar siyosatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar amalga oshirildi.

1. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: Yengil sanoat sohasidagi korxonalar o'z ishchilarini malaka oshirishga alohida e'tibor berishdi. Ayniqsa, to'qimachilik va poyabzal sanoatida yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab ortdi. Bunda mahalliy oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Viloyatdagi sanoat korxonalarini o'z xodimlari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etdi va xodimlarning bilimini zamonaviy sanoat talablariga moslashtirishga katta e'tibor qaratildi [8, 104-b].

2. Mehnat bozorining ta'minoti: Qashqadaryo viloyatida yengil sanoat tarmoqlaridagi ishchilar uchun mehnat sharoitlarini yaxshilashga katta e'tibor berildi. Ishchilarni ishga qabul qilishda gender tengligini ta'minlash va yoshlarni sanoatga jalb qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Viloyat hokimiyati tomonidan yoshlarni sanoatga jalb qilish uchun bir qator rag'batlantirish dasturlari ishlab chiqildi [9, 39-b].

3. Mehnat migratsiyasi va ishchi kuchining harakatchanligi: Qashqadaryo viloyatida ishchi kuchining harakatchanligi o'zgardi. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bilan birga, mehnat migratsiyasi ham kuchaydi. O'zbekistondan boshqa mamlakatlarga, ayniqsa, Rossiya va Qozog'istonga mehnat migratsiyasining ortishi viloyatdagi mehnat bozoriga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shu bilan birga, viloyatda yangi ish joylari yaratish va mahalliy ishchilarni jalb qilish uchun turli dasturlar ishlab chiqildi [10, 14-b].

Yengil sanoat va mehnat resurslari bo'yicha amaliy tavsiyalar

Birinchidan, texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: Yengil sanoat tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirishning ahamiyati katta. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi [11, 27-b].

Ikkinchidan, kadrlar siyosatini takomillashtirish: Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish, ayniqsa, yengil sanoat tarmoqlari uchun maxsus malakali kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbekistonning mehnat bozoriga mos keladigan kadrlar tizimi yaratish, viloyatdagi san'atchi va mutaxassislarni rivojlantirish uchun treninglar va kurslar tashkil etish muhim [12, 64-b].

Uchinchidan, ishchilar uchun sharoitlarni yaxshilash: Ishchilarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga ijtimoiy himoya va rag'batlantirish tizimlarini takomillashtirish zarur [13, 98-b].

Xulosa. 2016-2024 yillar davomida Qashqadaryo viloyatidagi yengil sanoat tarmoqlari katta o'zgarishlarga uchradi. Yangi texnologiyalar, malakali kadrlar va davlat tomonidan amalga oshirilgan qo'llab-quvvatlash dasturlari viloyat iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Mehnat resurslari va kadrlar siyosatining o'zgarishlari orqali yengil sanoat tarmoqlari uchun yuqori malakali ishchi kuchi tayyorlash va mehnat bozorini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga, kelajakda yengil sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va kadrlar siyosatini yanada samarali qilish uchun qo'shimcha choralar ko'rish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kadirov, A. (2019). O'zbekistonning yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalari. *O'zbekiston iqtisodiyoti va innovatsiyalar jurnali*, 14(2), 45-56.
2. Zokirov, B. (2021). Yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdagi innovatsion yondashuvlar. *Sanoat va texnologiyalar jurnali*, 22(1), 103-115.
3. Karimov, X. (2017). Yengil sanoat tarmoqlarida malakali kadrlar tayyorlash va ularning ahamiyati. *Mehnat bozorini boshqarish jurnali*, 19(3), 67-72.

4. Muhammadaliyev, F. (2020). Mehnat resurslari va iqtisodiy rivojlanish. Mehnat va iqtisodiyot nashri, Tashkent: O'zbekiston Noshirligi.
5. Yusupov, R. (2018). Sanoat va mehnat resurslarini boshqarish. *Iqtisodiyot va sanoat ilmiy-ma'rifiy jurnal*, 26(4), 111-125.
6. Tursunov, M. (2019). Mehnat migratsiyasi va iqtisodiy integratsiya. *O'zbekiston mehnat bozorining globalizatsiyasi jurnali*, 28(2), 89-102.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi. (2022). O'zbekistonning yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga oid davlat dasturi (2016-2024). Tashkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.
8. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi. (2021). Mehnat bozorida kadrlar tayyorlash va ishchi kuchining malakasini oshirish. *Mehnat va ish o'rinlari jurnali*, 15(5), 60-75.
9. Sanoat va energetika vazirligi. (2020). Yengil sanoat va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan davlat dasturlari. Tashkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
10. Tadbirkorlikni rivojlantirish markazi. (2023). Qashqadaryo viloyatida yengil sanoat tarmoqlarining istiqbollari. *Viloyat iqtisodiyoti nashri*, 12(3), 30-44.
11. Abdullayev, A. (2018). To'qimachilik sanoatining rivojlanish istiqbollari va global bozorlarga chiqish. *Xalqaro iqtisodiyot jurnali*, 30(6), 125-138.
12. Mirzaev, S. (2021). Yengil sanoatning iqtisodiy o'sishdagi roli. *Sanoat va iqtisodiy integratsiya jurnali*, 25(3), 79-92.
13. Qashqadaryo viloyati hokimiyati. (2022). Qashqadaryo viloyatining sanoat sohasidagi rivojlanish tahlili va istiqbollari. Tashkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.

XO‘JALIK SUDLARI TARIXIGA NAZAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ ХОЗЯЙСТВЕННЫХ СУДОВ (НА ПРИМЕРЕ
КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)****A LOOK AT THE HISTORY OF ECONOMIC COURTS (ON THE EXAMPLE OF THE
KASHKADARYA REGION)**

Muminova Gavxar Esanovna, Eshimov Shahriddin Xujayorovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda xo‘jalik sudlarining tarixiy rivojlanishi tahlil qilinib, Qashqadaryo viloyati misolida ularning faoliyatiga nazar tashlangan. Xo‘jalik sudlarining shakllanishi, ularning mustaqil sud tizimi sifatida rivojlanishi va xo‘jalik nizolarini hal qilishdagi ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek, sudlar tomonidan qonunchilikni tatbiq etishdagi evolyusion jarayonlar tahlil qilinib, xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *xo‘jalik sudi, iqtisodiy nizolar, sud tizimi, Qashqadaryo, qonunchilik, huquqiy evolyusiya, tadbirkorlik, O‘zbekiston.*

Аннотация. В данной статье анализируется историческое развитие хозяйственных судов в Узбекистане, с особым акцентом на деятельность судов Кашкадарьинской области. Рассматривается формирование хозяйственных судов, их развитие как независимой судебной системы и их значение в разрешении экономических споров. Также изучаются эволюционные процессы применения законодательства судами и приводятся соответствующие выводы.

Ключевые слова: *хозяйственный суд, экономические споры, судебная система, Кашкадарья, законодательство, правовая эволюция, предпринимательство, Узбекистан.*

Abstract. This article analyzes the historical development of economic courts in Uzbekistan, with a particular focus on the activities of courts in the Kashkadarya region. It examines the formation of economic courts, their development as an independent judicial system, and their significance in resolving economic disputes. Additionally, the article explores the evolutionary processes in the application of legislation by courts and presents relevant conclusions.

Keywords: *economic court, economic disputes, judicial system, Kashkadarya, legislation, legal evolution, entrepreneurship, Uzbekistan.*

Muminova G.E.,
*Qarshi davlat
universiteti,
tarix fanlari doktori,
professor
g.muminova@gmail.c
om*

Eshimov Sh.X.,
*Qarshi davlat
universiteti,
erkin izlanuvchi
uz.scince@umail.uz*

Kirish

O‘zbekistonda hozirgi zamon sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga bo‘lgan katta e‘tibor qaratildi. Bu esa mamlakat xususiy korxonalar sonining keskin ortishiga va ular o‘rtasida ma‘lum masalalarda iqtisodiy nizolarni kelib chiqishi tabiiy hol bo‘ldi. Iqtisodiy nizolarni yechimi iqtisodiy sudlar tomonidan hal etilishi o‘z o‘rnida ushbu sud tarmog‘ini kuchaytirish zaruriyatini kun tartibiga dolzarb masala sifatida qo‘ydi. Tadbirkor o‘z faoliyati davomida muayyan to‘siq yoki muammoga duch kelishi tabiiy. Bunday vaziyatda ularning haq-huquqlarini himoya qilishda sudlarning alohida o‘rni bor. Tadbirkorlarning huquq va erkinliklari mustahkam himoyada bo‘lgan, biznes vakillariga qulay imkoniyat yaratilgan va ularning muammolariga yechim topishga alohida e‘tibor qaratilgan davlat jadal taraqqiy etadi, jahon hamjamiyatidagi o‘rni va nufuzi baland bo‘ladi[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Xo‘jalik sudlari qonuniy asosda har qanday tazyiq va ta’sirlardan, buyruq, ko‘rsatma va aralashuvlardan xoli etilib, mahalliy xokimiyatga bo‘ysunmaydigan, faqat qonunga buysunuvchi idora
<https://journal.uzfi.uz>

bo'ldi. Bu sudlar O'zbekistonda qonun ustivorligini ta'minlashda kuchli mexanizm, dastak sifatida, mustaqillik va demokratik jarayon mahsuli tarzida tashkil etildi.

1998 yil 4 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentning «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning iqtisodiy nochorligi va shartnoma majburiyatlarining bajarilishi uchun mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish to'g'risida»gi Farmoni ham e'lon qilindi. Shu tariqa, mustaqil Oliy xo'jalik sudi va viloyat, tuman hamda shahar xo'jalik sudlari shakllandi.

Sudlarda hal etilgan iqtisodiy masalalar xususidagi ishlar ko'lami ortib bordi. 1998 yili xo'jalik sudlarida ko'rilgan ishlar hajmi o'tgan yillarga nisbatan ikki barobarga o'sib, ko'rilgan ishlar soni 28298 ta bo'ldi. Shuningdek, ishlardagi summalar miqdori ham oshib bordi. 1994 yili 59 mln. so'm miqdoridagi nizolar ko'rilgan bo'lsa, 1995 yili bu ko'rsatkich 1,3 mlrd.ga, 1996 yilda 4,5 mlrd. so'mga yetdi. 1997 yilda qariyb 27 mlrd. so'mlik nizolar hal etildi[2].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlar sonining ortib borishi bir tomondan ishlab chiqarishning o'sishi, xalqning farovonligiga olib kelsa, ikkinchi tomondan turli xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasidagi nizolarning ham ortib borishi tabiiy hol hisoblanadi. Shu tarzda xo'jalik sudlari tomonidan ko'rilgan ishlar soni yildan-yilga ortib borgan. 1996-1997 yillari xo'jalik sudlariga 17 417 ta da'vo arizalari kelib tushadi. 1999 yil mobaynida xo'jalik sudlari tomonidan birinchi instansiyada 32002 ta ishlar mazmunan hal etilgan bo'lib, ulardan Oliy xo'jalik sudining kassatsiya bosqichida 737 ta ishlar ko'rib chiqilib, bu jami ko'rilgan ishlarning 2,3% tashkil etdi[3].

2000 yildan keyin Xo'jalik prosessual kodeksiga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa xo'jalik sudlariga taalluqli ishlarning hajmi kengayishiga olib keldi. 2005 yilda xo'jalik sudlari tomonidan tadbirkorlar, kichik biznes vakillari, boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlar ishtirokidagi 122 mingdan ortiq nizo ko'rib chiqildi. Bu 2004 yilga nisbatan qariyb 22 mingga ko'p demakdir. Javobgarlardan da'vogarlar foydasiga 1 trillion 600 milliard so'mdan ortiq mablag'larni undirish to'g'risida sud hujjatlari qabul qilindi va 2004 yilga nisbatan bu raqam ham 700 milliard ko'paydi. Ishlarning soni ham, da'vogarlar foydasiga undiriladigan mablag'lar ham avvalgi yillarga qaraganda sezilarli darajada oshgan[4].

Respublika xo'jalik sudlarida 2001 yili ko'rilgan ishlarining 49,8 foizi 2000 yildan qolgan ishlar tashkil etdi. Ko'rilgan ishlarining aksariyati tashkilotlarning shartnoma shartlarining bajarilmasligi oqibatida yuzaga keldi[5].

2005 yil O'zbekiston bo'yicha xo'jalik sudlarida tadbirkorlik sub'yektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llash haqida 35 759 ta arizalar kelib tushgan bo'lib, ulardan 10 473 tasi bo'yicha tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinadi[6].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tadqiq qilishda analiz va sintez, induktiv va deduktiv, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, kabi usullar, shu jumladan mantiqiylik, tarixiylik tamoyilidan foydalangan holda, tadqiqot uchun qo'yilgan asosiy maqsad hisoblangan ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlarning ishonchligini dalillashdan iborat.

Tahlil va natijalar

Tahlillarga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi tomonidan mazmunan ko'rilgan arizalarning 304 tasi (77,9 foiz) qanoatlantirilgan, 40 tasi (10,2 foiz) rad etilgan. Bu ko'rsatkich Andijonda mos ravishda 416 ta (59,4 foiz) va 277 tani (39,5 foiz), Buxoroda 534 ta (81,7 foiz) va 75 tani (11,4 foiz), Jizzaxda 478 ta (83,5 foiz) va 51 tani (8,9 foiz), Qashqadaryoda 162 ta (72,6 foiz) va 44 tani tashkil etdi. Qanoatlantirilgan arizalarning 1034 tasini tadbirkorlik sub'yektining bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish, 3066 tasini tadbirkorlik sub'yektiga moliyaviy

sanksiya qo'llash, 1040 tasini tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tugatish, 4 tasini tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini to'xtatib qo'yish haqidagi arizalar tashkil etdi[7].

Qashqadaryo viloyat xo'jalik sudining 21 ta, Surxondaryo va Buxoro viloyat xo'jalik sudlarining 9 tadan, jami 126 ta ish bo'yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlari va qarorlar o'zgartirilgan. Ayrim xo'jalik sudlarida nizolarni hal etishda prosessual muddatlarga rioya etmaslik holatlariga barham berilmagan. Qashqadaryo viloyat xo'jalik sudi tomonidan 13 ta xo'jalik ishi Xo'jalik prosessual kodeksining 125-moddasida belgilangan muddat buzilgan holda ko'rib chiqilgan bo'lsa, Namangan (37 ta), Xorazm (15 ta) va Buxoro (5 ta) viloyat xo'jalik sudlari tomonidan sud qarorlarini taraflarga yuborishda mazkur Kodeksning 148- moddasida belgilangan muddat buzilgan[8].

Qashqadaryo viloyati xo'jalik sudlari sud ijrochilari tumanlarda qator ishlari amalga oshirdi. Jumladan, sud ijrochilarining Koson tuman bo'limi tomonidan 2010 yil yakunlariga ko'ra 35 mlrd. 330 mln. so'mlik 19 487 ta ijro hujjatlari mavjud bo'lib, shulardan 25 mlrd. 481 mln. so'mlik 16 437 ta ijro hujjatlari Qonunning tegishli moddalariga asosan tamomlangan. Tamomlangan ijro hujjatlaridan 24 mlrd. 158 mln. so'mlik 15 282 ta ijro hujjatlari amalda undirilgan[9].

Yangi O'zbekiston sharoitida sud huquq tizimida jiddiy islohotlar amalga oshirilib, qator o'zgarishlar qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 noyabrda sohani isloh qilish, 2017 yil 21 fevralda sud tizimi tuzilmasini takomillashtirish haqidagi farmonlaridan kelib chiqib, xo'jalik sudlarida ham jiddiy islohot ishlari olib borildi. Muqaddam, xo'jalik sudlari faqat viloyatlar markazida joylashgan va bir viloyat hududida bittadan xo'jalik sudi mavjud bo'lgan, butun viloyatda tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida kelib chiqqan iqtisodiy nizolar va sud qarorlariga nisbatan berilgan apellyasiya shikoyatlari shu suda ko'rilgan bo'lsa, 2017 yil 1 iyundan tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tashkil etilishi natijasida ishlarni faqat birinchi instansiya tartibida ko'ruvchi alohida bo'g'in yuzaga keldi[10].

Qashqadaryo viloyat iqtisodiy sudlariga 2021 yil mobaynida jami 15792 ta da'vo arizasi kelib tushgan bo'lib, shundan 14460 tasi ish yurituvga qabul qilingan. Shundan 157 tasi boshqa iqtisodiy sudlar ish yurituvidan qabul qilingan. 135 tasi tegishlilik bo'yicha boshqa iqtisodiy sudiga yuborilgan. Shu bilan birga ushbu davrda iqtisodiy sudlar tomonidan 1048 ta da'vo arizasi qaytarilgan, 157 ta qabul qilish rad etilgan[11].

O'zbekistonda xo'jalik sudlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakatda huquqiy davlat barpo etish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati misolida xo'jalik sudlarining faoliyati tahlil qilinar ekan, ularning iqtisodiy nizolarni hal etishdagi ahamiyati va qonunchilikni tatbiq etishdagi evolyusion jarayonlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Xo'jalik sudlari tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasidagi nizolarni hal etish, huquqiy muammolarni adolatli va samarali tarzda bartaraf qilish, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Sud tizimidagi islohotlar xo'jalik sudlarining mustaqilligini mustahkamlash, ularning ish samaradorligini oshirish va qonunchilik bazasini takomillashtirishga qaratilgan.

Xulosa va takliflar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xo'jalik sudlari tomonidan qabul qilingan qarorlar qonun ustuvorligini ta'minlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Shu bois, xo'jalik sudlarining institusional rivojlanishi va ularning samaradorligini oshirish yuzasidan izchil islohotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, xo'jalik sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish, jumladan, elektron sud ishlari yuritish tizimini keng joriy etish, sudyalarning malakasini oshirish va sud qarorlarining shaffofligini

ta'minlash kelgusidagi ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Bu esa O'zbekistonda xo'jalik huquqiy muhitining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raxmonqo'lov U. O'zbekiston iqtisodiy sudlari tarixi // "Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari" Respublika ilmiy- uslubiy konferensiya materiallari to'plamlari. – Qarshi, 2024.–Б.709-713.
2. Мустақиллик билан ҳамнафас. Ўзбекистон Республикаси судлари – 10 йил. – Тошкент, 2001.- Б.12-21.
3. Комолов Д.П. Ўзбекистон суд тизими тарихи (1925 – 2020 йй.): Тарих фанлари бўйича фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси.– Қарши, 2022.–Б. 198-207.
4. Комолов Д.П. Ўзбекистон суд тизими тарихи (1925 – 2020 йй.): Тарих фанлари бўйича фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси.– Қарши, 2022.–Б. 198-207.
5. Абдураимова Н. Договорная дисциплина и судебная практика // Правда Востока, 2001, 1 ноябрь.
6. Азизов Х. Хўжалик судлари: конун устуворлигини таъминлаш йўллари // Нуқуқ ва бurch, 2007.–№1-2.– Б.32-34.
7. О'z МА, М-72-fond 1-ro'ухат, 532-ish. 129-varaq
8. О'z МА, М-72-fond 1-ro'ухат, 512-ish. 3-varaq.
9. ҚВДА, 651-фонд, 1-рўйхат, 84-иш, 5-варақ.
10. Иқтисодий судларга мурожаат қилиш тартиби [Матн]: амалий қўлланма / Қ.Комилов, М.Эргашев. – Тошкент: ИЛМИЙ-ТЕХНИКА АХБОРОТИ – PRESS NASHRIYOTI, 2018. 22 – 23-бетлар. (– 232 б.)
11. Қашқадарё вилоят судларининг 2021 йил давомида одил судлов борасида амалга оширилган ишлар юзасидан М А Ъ Л У М О Т папкаси.

BIBIXONIM FAOLIYATI VA MAQBARASI TARIXIDAN

ON THE ACTIVITIES AND THE HISTORY OF THE MAUSOLEUM OF BIBI KHANUM

О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИСТОРИИ МАВЗОЛЕЯ БИБИХАНЫМ

Sattorova Ibodat

Annotatsiya. Ushbu maqolada temuriylar saltanatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Bibixonim (Saroyulkxonim) faoliyati va maqbarasi tarixi haqida ma‘lumotlar berilgan. Ma‘lumotlar tarixiy manbalar, epigrafik yozuvlar, davriy matbuot materiallaridan foydalangan holda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Bibixonim (Saroyulkxonim), temuriylar saltanati, Rui Gonzales de Klavixo, Bibixonim maqbarasi, tarixiy va ma‘naviy meros.*

Abstract. This article provides information about the role and legacy of Bibi Khanum (Saroyulk Khanum), a prominent figure in the Timurid Empire, and the history of her mausoleum. The information is presented using historical sources, epigraphic inscriptions, and materials from periodical publications.

Keywords: *Bibi Khanum (Saroyulk Khanum), Timurid Empire, Rui González de Clavijo, Bibi Khanum Mausoleum, historical and spiritual heritage.*

Аннотация. В данной статье представлена информация о роли и наследии Бибиханым (Сароймулькханым) в государстве Тимуридов, а также об истории её мавзолея. Материал основан на исторических источниках, эпиграфических надписях и материалах периодической печати.

Ключевые слова: Бибиханым (Сароймулькханым), государство Тимуридов, Руй Гонсалес де Клавихо, мавзолей Бибиханым, историческое и духовное наследие.

Sattorova I.
*O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti
i.sattorova@uzfi.uz*

Vatanimiz tarixini yoritishda Samarqand tarixi ham o‘z o‘rniga ega. Samarqanddan buyuk olimlar, mutafakkirlar, davlat arboblari, diniy ulamolar, davlat rivojida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan malikalar etishib chiqqan. Ular shu yurt uchun, uning ravnaqi uchun beqiyos hissa qo‘shishgan. Shu boisdan ham ularning xotirasini abadiylashtirish uchun ko‘plab say‘-harakatlar qilingan va qilinmoqda. Ona zaminning har bir qarichi tabarruk. Unda o‘tmish ajdodlarning nurli izi va hikmati namoyon.

Samarqand Amir Temur davlatining poytaxti sifatida tanilgan edi. “Amir Temur 1370-yilda markazlashgan mustaqil davlat barpo qilgandan so‘ng masjidlar, madrasalar va xonaqohlar qurdirish to‘g‘risida Farmon qabul qiladi. Bibixonim ham Farmonni amalda bajarib 1400-1404 yillarda Samarqandning Ohanin (temir) darvozasining kun chiqar tomonidan madrasa qurdirdi. Bibixonim qurdirgan madrasaning Amir Temur buyrug‘i asosida bino qilingan Jom‘e masjidning qarama-qarshisida ekanligini tarixiy manbalar, jumladan Sharafiddin Ali Yazdiy ham o‘zining “Zafarnoma”sida qayd qilgan”[1]. Afsuski tabiiy ofatlar, o‘lkada bo‘lgan buzg‘unchiliklar, o‘lkani istilo qilinishi tabiiy ravishda tarixiy yodgorliklarga ham ta‘sirini o‘tkazdi. Bibixonim madrasasi ham bu talofatlar sababli bugungi kunda faqat poydevori saqlangan.

Mustaqillik sharofati bilan yodgorliklar davlat himoyasiga olindi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 61-moddasida ham “Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma‘naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart.

Tarixiy, ma‘naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi”[2] deb mustahkamlangan.

Samarqandning koʻhna qismida, Amir Temur jomeʼ masjidining kunchiqar tomonida, bundan olti asrlar ilgari barpo qilingan, moʻjazgina, maqbara mavjud. “Maqbara – arabcha qabara (koʻmdi), yaʼni “qabrison”, “qabr” maʼnosini anglatsa-da, oʻzbek tilida “qabr ustiga qurilgan yodgorlik” maʼnosida isteʼmolga kirgan. Maqbara oʻz davrida etuk hisoblangan xos zotlarga tiklash urf boʻlgan”[4]. Har xil ofatlar, qarovsizlik va asrlarning zalvorli yukidan uning gumbazi yiqilib tushdi, ammo butunlay yoʻq boʻlib ketmadi.

Bu obidaning gumbazi ostida Amir Temurning suyuqlik xotini, u bilan koʻplab issiq-sovuqlarni birga baham koʻrgan, zukko, tadbirkor, oqila Katta xonim-Saroymulkxonim-Bibixonim abadiy uyquda yotibdi. “Temuriy malikalar qatorida buyuk Amir Temur saroyining bosh malikasi Bibixonim (Saroymulkxonim)ning oʻrni mutlaqo oʻziga xosdir. Saroymulkxonim chigʻatoy ulusiga mansub moʻgʻil xonlaridan Qozogʻonning qizi boʻlib, 1341-yilda tugʻilgan” [5] Amir Temur 1370-yilda unga uylanadi va saroyda katta mavqʼe ega xonim sifatida faoliyat olib boradi. Amir Temur nabiralarning tarbiyasini ham Saroymulkxonimga topshirgan edi. Davlat boshqaruvida ham baʼzi masalalarda uning oqilona bergan masalalariga yon berar edilar.

Bibixonim maqbarasi haqidagi ilk tarixiy maʼlumotlarni biz 1404 yili Samarqandga tashrif buyurgan, Kastiliya qiroli Henrix IIIning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaliklaridan oʻqishimiz mumkin. Ispan elchisi bu yodgorlik haqida: - "Dushanba, yigirma toʻqqizinchi sentyabr kuni janob



(yaʼni, Amir Temur) Samarqand shahriga joʻnadi va shaharga kirish yoʻlining ustida joylashgan bir uyga toʻxtadi. Bu uyni janob xotini Kanʼoning (Bibixonimning onasi) uchun qurdirgandi. Uning onasi shu uyning ichidagi sagʻanaga dafn etilgan. Uy juda hashamatli boʻlib ichi ajoyib bezatilgan. Ularda uylarni juda hashamatli bezatish odati boʻlmasa-da, bu uy hashamatli, u hali bitmagan, har kuni ish bormoqda» -deb yozgan edi. Bu erda gap Saroymulkxonim-Bibixonim madrasasi va unga yondosh qilib Amir Temur tomonidan qaynonasi, yaʼni, Bibixonimning onasi, amir Qozonxonning xotini uchun qurdirgan maqbara haqida borayotgani yirik tarixchilar tomonidan tan olingan.

“Bibixonim maqbarasi qurilgan davrda juda hashamatli va mahobatli boʻlgan, uning devorlari rang-barang koshinlar, naqshlar hamda Qurʼondan keltirilgan oyatlar bitilgan yozuvlar bilan bezatilgan. Maqbaraning ichki tuzilishi, xuddi Goʻri Amir maqbarasidek ikki qavatli, pastda sagʻana, tepada esa ziyoratxona boʻlgan. Yuqori qavati chortoqli, keng xonaqoh boʻlib, tepasi baland gumbaz bilan bogʻlangan. Devorlariga manzara, naqshin gullar, serhasham bezaklar ishlangan. Toʻrt tarafidagi keng derazalar va eshiklar orqali xonaqoh juda yaxshi yoritilgan”[6].

1941 yili arxeolog Yahyo Gʻulomov rahbarligidagi olimlar maqbarada qazish ishlarini olib borishib, shu paytgacha nomaʼlum boʻlgan koʻpgina narsalarni aniqladilar. Shu paytgacha, sagʻana oʻrtasidagi boʻsh erning tagida yashirin qabrlar mavjud, degan taxminlar bor edi. Bu er qazib koʻrilganda, bu erda hech qanday yashirin qabr yoʻqligi maʼlum boʻldi. Shuningdek, ekspeditsiya aʼzolari maqbara XI-XII asrlarga oid madaniy qatlam ustida bunyod qilinganligini aniqladilar.

Shuni aytish lozimki, ushbu maqbaraga dafn etilganlar, marmartoshlardan yoʻnilgan toshtobutlarga qoʻyilgan. Ushbu toshtobutlar dastlab maqbaraning pastiga, yaʼni, sagʻanaga qoʻyilgan edi, sagʻananing tomi yiqilib tushganidan soʻng esa toshtobutlar tokchalar ichiga joylashtirilgan. Arxeologlar dastlab shimoliy tokchada turgan toshtobutni ochishga kirishdilar. Toshtobutni yopib turgan tosh qopqoq koʻtarib olingach, uning ichida paxta, gazlamalarga aralashib yotgan suyaklar koʻrindi.

Mumiyolangan suyaklar shu darajada aralashtirib tashlanganki, oyoq suyaklari bosh suyaklari bilan birga yotardi. Antropolog M.Gerasimovning aniqlashicha ushbu suyaklar 25-30 yoshli ayol kishiga tegishli ekan. Toshtobutning qopqogʻida hech qanday yozuvlar boʻlmaganligi uchun malikaning shaxsiyatini aniqlab boʻlmadi.

Shundan soʻng olimlar shimoliy tokchaga qoʻyilgan ikkinchi tosh tobutni ochishga kirishdilar. Bu tobutning uzunligi 1m 90 sm, eni 47-66 sm, balandligi 37sm boʻlib u ham yaxlit kulrang marmartoshdan yasalgan edi. Toshobutning qopqogʻi ochilgach, uning ichida aralash quralash boʻlib yotgan suyaklar, tuproq, paxta va gazlama qoldiqlari koʻrindi.

Tobut ichidagi suyaklar shu darajada ezilib ketgan ediki, suyaklardan yoshini aniqlashning iloji boʻlmadi, faqatgina antropolog M.Gerasimov ushbu suyaklar kekxa ayol kishiga tegishli ekanligini aniqladi.

Shundan soʻng, maqbaraning sharqiy tokchasida turgan toshobutlarni ochishga kirishildi. Bu erda uchta toshobut yonma-yon qoʻyilgan boʻlib, ular ham yaxlit marmartoshlarning ichini yoʻnib tayyorlangan edi.

Sharqiy tokchadagi uchala toshobutning ikkalasi boʻm-boʻsh boʻlib, faqat bittasining ichida jasad saqlangan ekan. Bu tobutdagi jasad ham titib tashlanganligi uchun anchayin tartibsiz holatda yotar edi. Jasad dafn qilinishidan oldin moʻmiyolangan, jasadning yonidan bir necha taqinchoq, rayhon barglari va kafanning qoldiqlari topildi. 1941 yilda ushbu toshobut ochilayotganda, uning qopqogʻi ustida hech qanday yozuvlar uchratilmadi, ammo, tarixchi S.A.Lapin 1889 yili maqbaraga kirganida ushbu tobutning ustida yozuv bitilgan toshqopqoqni koʻrganligini yozib qoldirgan. Uning yozishicha, qopqoqning ustida, Qurʼondan koʻchirilgan oyat va pastroqda esa: "Majnunning oʻlimidan soʻng ming yil oʻtsa hamki, uning kafanidan hamon ishq dardi taraladi", degan yozuv boʻlgan. 1926 yili rassom I.Mrachkovskiy maqbarada tadqiqot oʻtkazganida, bu yozuvli taxta oʻgʻirlanib, uning oʻrniga oddiy yozuvsiz qopqoq qoʻyilganligini yozgan edi.

Su oʻrinda, nega toshobutlardagi jasadlar titib tashlangan, uni kimlar, qachon qilishgan? - degan savol tugʻilishi mumkin. Bu savolga javob topish uchun gapni ilgariroqdan boshlamoq lozimdir.

Samarqand meʼmorchilik yodgorliklarini oʻrgangan arxeolog M.E.Massonning arxeolog Yahyo Gʻulomovga aytishicha, Bibixonim maqbarasidagi toshobutlar dastlab 1871 yili Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinganidan soʻng ochilgan. Ammo, tobutlar qanday maqsadda ochilganligini M.E.Masson ham bilmagan. Toshobutlar ikkinchi marta 1926 yili bir guruh oʻgʻrilar tomonidan ochilgan. Oʻgʻrilar tobutlarni titib marhumlarni taqinchoqlarini va boshqa bezaklarini oʻgʻirlaganlar. Shu tufayli toshobutlar 1941 yili uchinchi marta ochilganida uning ichidagi suyaklar agʻdar-toʻntar boʻlib yotardi. Bibixonim maqbarasidagi toshobutlarning qopqoqlarida hech qanday yozuvlar boʻlmaganligi uchun bu erga dafn etilgan marhumlarning shaxsiyatlarini aniqlash ancha mushkul boʻldi. Olimlar birinchi boʻlib ochilgan toshobutdagi malikaning shaxsiyatini aniqlay olmadilar, ammo, uni temuriylar xonadoniga mansub oliy martabali malika boʻlganligini eʼtirof etdilar. Shimoliy tokchadagi ikkinchi toshobutga dafn etilgan marhumani Bibixonimning onasiga tegishli ekanligi aytiladi.

Sharqiy tokchada joylashgan, uchinchi boʻlib ochilgan maqbaradagi eng yirik toshobutga dafn etilgan jasadning shaxsiyati haqida ancha bahslar boʻldi. Shuning uchun koʻplab tarixiy manbalar oʻrganildi, har xil taxminlar farazlar tahlil qilindi, antropologlar jasadning yoshini aniqladilar. Antropolog M.Gerasimov marhumaning hujjatli portretini yaratdi.

Barcha dalillar, taxminlar va ilmiy xulosalar jamlanib muhokoma etilgach, tadqiqotchilar bu suyaklar Amir Temurning suyakli xotini Katta xonim-Bibixonimniki, degan qarorga keldilar.

Shu oʻrinda Bibixonim shaxsiyati haqida ham ozgina toʻxtalmoq lozimdir. Tarixchilarning yozishlaricha, Bibixonim, XIV asrning 40-yillarida Movorounnahrda xonlik qilgan Chigʻatoy xonadoniga mansub amir Qozonxonning qizi boʻlgan. Taxminlarga koʻra u 1341 yili hozirgi Qashqadaryo vohasidagi Zanjirsaroyda tavallud topgan. Amir Qozonxon davlatda tartib oʻrnatish yoʻlida har xil qarshiliklarga uchrab 1346 yili bir guruh beklar tomonidan oʻldiriladi. Bu fojia yuz berganida Bibixonim 5-6 yoshlarda edi. U balogʻatga etgach amir Qozogʻonning nabirasi Husaynga turmushga beradilar. 1370 yili amir Xusayn Xuttalon amiri Kayxusrav tomonidan oʻldirilgach, Bibixonimga Amir Temur uylanadi. U xonning qizi boʻlganligi tufayli Amir Temurning haramida Katta xonim degan unvonga ega boʻladi.

Bibixonimning go‘zalligi, aql-farosati, nozik didi, keng va shafqatli qalbi haqida xalq orasida necha-necha afsonalar saqlanib qolgan. O‘sha davrda yashagan bir shoir Bibixonimning go‘zalligi haqida: "Uning go‘zalligini so‘z bilan anglatish mushkul, chunki ul har qanday go‘zal so‘zdan-da go‘zaldir"- deb yozgan ekan.

Bibixonimni aql-farosati, mehribonchiligini Amir Temur yuksak baholar edi, shu sababli sohibqiron oqila malikaga temuriy shahzodalarning tarbiyasini ishonib topshirgan edi. Bibixonimga tabiat ona bo‘lish baxtini bermagan edi, u bor mehr-muhabbatini Mirzo Ulug‘bek, Muhammad Sulton, Xalil Sulton kabi suyukli nabiralariga baxsh etdi. Bibixonim o‘z sarmoyasidan Samarqandda ulug‘vor madrasa bunyod qildi, olimlar, shoirlar va me‘morlarga g‘amxo‘rlik qildi. Arab tarixchisi Ibn Arabshohning yozishicha, uni Xalil Sultonning xotini SHodimulk yashirin ravishda zaharlab o‘ldirgan...

Hozirgi kunlarda Bibixonim mangu uyquda yotgan maqbara ta‘mirlanmoqda, yana o‘z asliga qaytmoqda, bu erga ziyoratga kelayotganlarning soni kundan kunga oshib bormoqda...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boturxon Valixo‘jaev. Samarqandda oliy ta‘lim – madrasayi oliya-universitet tarixidan lavhalar. S.2001.59-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.”O‘zbekiston” nashriyoti 2023. 25-bet.
3. Islom Karimov «Yuksak ma‘naviyat - engilmas kuch» T. «Ma‘naviyat» 2008 y. 29-30-betlar
4. Suyundik Mustafonurotoiy. Munavvar qabr va qadamjolar.T.”Noshirlik yog‘dusi” nashriyoti. 7-bet.
5. Mahkamoy Tursunova. Madrasa barpo etgan malikalar.T.2019.44-bet.
6. SH.S.G‘afforov, M.A.Yunusov, SH.I.SHaripov, M.M.Saidov. O‘zbekiston Arxitektura yodgorliklari tarixi.S.2011. 44-bet.

ХОДЖЕЙЛИ В 1924-1941 ГОДЫ

ХО‘JAYLI 1924-1941 YILLARDA

KHOJEYLI IN 1924-1941

Коцанов Б.А., Хужаниязов Д.М.

*Коцанов Б.А.,
Каракалпакский
государственный
университет имени
Бердаха,
доктор исторических
наук, профессор*

*Хужаниязов Д.М.
Каракалпакский
государственный
университет имени
Бердаха,
докторант
kdirbaev-95@mail.ru*

Аннотация. В данной статье на основе научных источников освещается городская жизнь города Ходжалы в 1924-1941 годах, быт, урбанизм, общественно-политические события города.

Ключевые слова: Ходжалы Беклиги, Казахско-Коракалакская автономная область, область – район – волость – село, автомобильно-транспортная линия.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xo‘jayli shahrining 1924-1941-yillardagi shahar hayoti, aholi yashash tarzi, turmushi, shaxarsozligi, ijtimoiy-siyosiy voqealar ilmiy manbaalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xo‘jayli bekligi, Qozoq-Qoraqaloq muxtor viloyati, viloyat – tuman – volost – qishloq, avtotransport liniyasi.

Abstract. In this article, the city life of the city of Khojaly in 1924-1941, the way of living, life, urbanism, socio-political events of the city are covered based on scientific sources.

Key words: Khojaly Bekligi, Kazakh-Korakalak Autonomous Region, region - district - volost - village, road transport line.

Введение. В годы независимости была осуществлена большая работа по изучению истории городов Узбекистана и Каракалпакстана, роли градостроительства в процессе развития государственности, наследия великих мыслителей, родившихся и творивших на этой земле. Получили освещение роль древних городов в мировой цивилизации.

Очень важно научное осмысление роли городов Каракалпакстана, что в свою очередь способствует развитию не только теоретической базы, не только самой исторической науки, но и новой модели независимого суверенного государства; влияет на национальное самосознание и укрепление исторической памяти; способствует упрочению межнационального согласия, толерантности, консолидации народа; способствует развитию национальной идеи, в выработке которой история занимает приоритетное место.

Методы. В статье использованы методы историзма, сравнительного анализа, анализа и синтеза.

Результаты и дискуссия. В последнюю четверть XIX века, а именно в 1873 году, древняя земля каракалпаков под воздействием колониальной политики царской России была разделена на две части между Хивинским ханством и царской Россией по реке Амударье.

Правобережье, которое было в составе России и называлось Амударьинским отделом, состояло из Чимбайского и Шураханского уездов. Левобережная часть состояла из Ходжейлийского и Кунградского бекств. Октябрьский переворот 1917 года сказался и на судьбе Хивинского ханства, который в 1920 году было преобразовано в Хорезмскую Народную Советскую Республику. В 1923 году Ходжейли был центром Казахско-Каракалпакской

автономной области в составе Хорезмской Народной Советской Республики. Национально-территориальное размежевание Средней Азии 1924 года сыграло в судьбе каракалпакского народа, как писал в своих трудах академик С.К.Камалов, положительную роль. То есть, была восстановлена древняя целостность территории каракалпаков, и был образован советский тип государственности [1, 57].

Все эти исторические события занимают большое место в истории Каракалпакстана. Им можно посвятить целые исследования, но так как тема нашего исследования касается только Ходжейли, то мы решили ограничиться кратким введением и перейти непосредственно к теме исследования.

Состоявшаяся в мае 1924 года IV сессия Хорезмского ЦИКа открыла новую страницу в истории самоопределения народов Хорезма, предлагалось организовать Автономную Киргизско (Казахско)–Каракалпакскую область в составе ХНСП [2, 184]. В состав этой области вошло 4 волости: Ходжейлийская, Кунградская, Конне-Базарская, Янги-Калинская [3, 133].

После проведения национально-территориального размежевания Средней Азии, а именно 23 ноября 1924 года, Центральный Исполнительный Комитет Хорезмской Советской Социалистической Республики принял постановление, согласно которому Казахско-Каракалпакская область, куда в свое время входил Кунградский район, передавалась Каракалпакской автономной области на основе решения V курултая ХССР. И 27 ноября того же года вместо Казахско-Каракалпакского обкома ХКП(б) и Областного революционного комитета ХССР были образованы Ходжейлинское окружное бюро РКП(б) и Ревком Ходжейлинского округа [4, 63].

Из доклада особой экспедиции по исследованию Ходжейлийского и Кунградского округов, перешедших по государственному национальному размежеванию из бывшей Хорезмской республики в ККАО, мы видим, что население вело оседлый и кочевой образ жизни. Оседлое население занималось земледелием и, как подсобным промыслом, кустарным производством. Кочевое население занималось земледелием и скотоводством и, как подсобным промыслом, извозничеством по переброске грузов на верблюдах и торговлей дровами, камышом и другим топливом.

I съезд Советов ККАО, который проходил 12-19 февраля 1925 года, окончательно оформил образование ККАО и поручил Облисполкому выработать новое административное деление области. Административная структура Левобережья и Правобережья Амударьи были крайне разнообразна. Так Амударьинская область делилась на уезды, волости и аулсоветы, а административная структура Хорезмской Республики в свою очередь делилась на шуро и аксакальство [5, 63]. Разница этих структур требовала изменений административной системы управления и установления однородной или единой системы управления.

В основу административного управления ККАО легло четырех–степенное деление: область – округ – волость – аул. Весь Каракалпакстан был разделен на 4 округа, 24 волости и 112 аульных и кишлачно-поселковых Советов [6, 69].

В первом заседании Президиума Ревкома ККАО от 20 ноября 1924 года вопрос об административном управлении области и о создании окружных Ревкомов был окончательно решен. Этим постановлением Каракалпакстан и был разделен на 4 округа: Турткульский, Чимбайский, Ходжейлийский и Кунградский.

Первый съезд Советов ККАО, который прошел с 12-19 февраля 1925 года, поручил областному исполнительному комитету принять меры к выработке административного деления

ККАО. С этого времени в основу управления области было положено 4-х степенное административное деление – облисполком, окрисполком, волисполком и аулсельсовет.

Комиссия по районированию Каракалпакстана, начавшая свою деятельность с 16 февраля 1926 года, разработала новый проект администрирования области, используя при этом опыт районирования некоторых республик Средней Азии. В основу этого проекта была положена 3-х степенная система районирования Каракалпакстана: областной центр, район, аульно-кишлачный или поселковый совет.

Эта административная система управления начала существовать с 1928 года. На основе заключения этой комиссии была принята «Инструкция о порядке ликвидации округов и волостей и организации районов в Каракалпакской автономной области Казахской ССР». Здесь нужно указать, что после национального размежевания Средней Азии Каракалпакстан находился в составе Казахстана до 1930 года на правах автономной области. С 1930 по 1936 годы Каракалпакстан был в составе России, а с 1937 года по настоящее время он находится в составе Узбекистана. Таким образом, на основе этой «Инструкции» ККАО с четырех–степенной административной системы деления (область, округ, волость и аул-кишлак) переходит на трех–степенное административное деление (область, район и аул-кишлак).

В подтверждение постановлений Президиума Облисполкома ККАО от 6 мая 1927 года и от 15 ноября 1927 года, Президиум Облисполкома ККАО принимает еще одно постановление от 6 декабря 1927 года. Во всех этих документах было намечено образовать на территории Каракалпакстана 11 районов.

Проведение районных съездов Советов, по плану Областного избирательного комитета, было намечено с 15 марта по 15 апреля 1928 года. Таким образом, с 15 апреля 1928 года на территории Каракалпакстана действовали районные исполнительные комитеты.

Если общая площадь оросительных земель по Каракалпакстану на конец 1925 года составляла 86.399 гектаров, из них на долю Ходжейлийско-Кунградском округа приходилось 16.606 гектаров. Округ в Каракалпакстане был самым отдаленным от центра районом, расстояние составляло примерно около 400 км. Связь поддерживалась в основном через телеграф. Почта и корреспонденция доставлялась на верблюдах с большим опозданием. Руководство района, мотивируя такое положение, просило построить аэролинию Турткуль – Кунград или хотя бы автотранспортную линию Ходжейли – Кунград.

При новом районировании, которое было проведено в 1928 году, были определены специфические особенности каждого района в соответствии с типом хозяйства: Турткульский, Шаббазский, Кипчакский являлись районами хлопководческими; Чимбайский, Кегейлийский, Кунградский и Тахтакупырский – полухлопководческими (Чимбайский одновременно являлся районом производства семенной люцерны); Тамдынский – скотоводческим; Караузьякский – скотоводческо-промысловым; Муйнакский – промышленным, поскольку в нем была развита рыбодобывающая промышленность союзного значения [7,183].

Преобразование сельского хозяйства в Каракалпакстане было немислимо без ирригационного строительства как основы орошаемого земледелия. Общая протяженность ирригационно-оросительной сети нашего региона составляла 2.433 км. [8,179]. Ирригационное строительство велось и на территории левобережной Каракалпакии. Вместо примитивных мелких арыков здесь появились каналы. Они позволили оросить большие земельные массивы. Не остался в стороне и Кунградский район, мощный канал Хан-яб дал воду для массива в 15 тыс. гектар земель Кунградского района [9,164]. Из протокола заседания секретариата Каракалпакского обкома ВКП(б), которое прошло 24 апреля 1928 года, где рассматривались

вопросы водного хозяйства Каракалпакстана стало известно, что территория нашего региона была разделена на два водных округа: 1.Турткульский; 2.Чимбай-Ходжейли-Кунградский. Эти округа в свою очередь разбиваются на водные участки.

Чимбай-Ходжейли-Кунградский водный округ разделен на районы левого и правого берега Амударьи. Левобережный район, имеющий начало у границ Хорезмской области по каналу Каракоз заканчивается у берегов Аральского моря. Имел протяженность по длине около 300 км. и включал в себя три водных участка:

1. Ктай-Кипчакский, с мелкими самостоятельными отводами ирригационных систем из реки Амударьи;

2. Ходжейлийский, с магистральным каналом Су-Ели;

3. Кунградский, с магистральным каналом Хан-яб и Халк-яб.

Кунградский район, в который вошли бывшие Халык-ябский, Мынжарганский, Сарыкульские волости, имеет территорию в 203 км., общей протяженностью арыков и поливной площадью 7.340 гектар.

Большим событием в истории орошаемого земледелия Каракалпакстана, как пишет профессор К.Сарыбаев, явилось строительство канала им.Ленина [9,183] (старое название данного канала Хан-яб). Этот канал проходил через территорию Ходжейлийского и Кунградского районов.

Перед Наркомом земледелия Узбекистана был поставлен вопрос о включении в план на 1938 год устройства технического головного сооружения на 4-х каналах: Ленин-яб; Канал Ордженикидзе; 1-мая; Казах-яб.

До конца 1937 года для очистки ирригационной сети, в особенности таких магистральных каналов, как Ленин-яб, канал Ордженикидзе и 1-мая ежегодно в течение 2 – 2,5 месяцев использовали 4.000 рабочих, которые очищали 900.000 кубометров земли. Эта работа выполнялась исключительно силами колхозников. В результате чего отрывали колхозников от основной работы. Районные представители, исходя из этого, просили руководство республики механизировать очистку оросительных систем, выделив для этого два экскаватора - землесоса и другие необходимые технические материалы.

Работы по очистке ирригационной сети и поддержание ее в исправности ежегодно требовали громадного труда от колхозников. Если в среднем по всему Каракалпакстану ежегодные трудовые затраты населения на работы по эксплуатации ирригационной сети составляли 67 человеко-дней на хозяйство, то в Ходжейлийско-Кунградском районе трудовые затраты колхозников составляли до 157 дней. В 1938 году объем очистки только магистральной и распределительной сети по каналу Ленин-жап составил 1,8 млн. кубометров. Но несмотря на такой огромный труд колхозники остро чувствовали недостаток оросительной воды. Нередко колхозные поля получали только 25% нужной им воды.

В такой ситуации началось строительство канала Суенли – Ленин-жап. Данное строительство было объявлено народной стройкой. Более подробно о строительстве данного канала смотрите в работе профессора К.Сарыбаева [9].

В это же время строился новый хлопкоочистительный завод в Кунграде, пуск которого освободил бы колхозный транспорт и самих колхозников от вывоза своего хлопка в Ходжейлийский хлопкоочистительный завод. Этот вопрос был поднят местным руководством Кунградского района еще в 1936 году. Мотивируя тем, что нецелесообразно ежегодно перевозить хлопок из Кунградского района вверх по Амударье в Ходжейли на расстояние около 100 км. и производить обратную доставку семян и готового волокна.

Учитывая такое положение, правительство Каракалпакстана просит Народный комиссариат легкой промышленности СССР Любимова И.Е. о включении в лимит 1937 года постройки джингауза для переработки хлопка–сырца в районе. Также было установлен общий объем продукции хлопка–сырца по району на 1937 год, который ориентировочно был определен в 6.000 тонн.

Здесь также нужно обратить внимание на то, что на основе заявления управляющего Заготхлоптреста ККАССР Рыбицкого ежегодный расход на транспортировку хлопка из Кунграда в Ходжейли и обратно составлял 1,5 млн. руб., когда как строительство джингауза обошлось бы в 800-850 тыс. руб.

Реконструкция хлопкоочистительных заводов способствовала повышению проектной мощности Ходжейлийского, Чимбайского, Кунградского хлопкозаводов. Проектная мощность за 10 эксплуатационных месяцев 1939 года составила 110 тыс. тонн.

Заключение. Проведенное исследование свидетельствует, что древнейший город Каракалпакстана – Ходжейли – и его население в 1924-1941 годы пережили годы Октябрьского переворота, гражданской войны, коллективизации, индустриализации, национально-государственного размежевания, репрессий, изменений административных структур, развивались.

ЛИТЕРАТУРА И ИСТОЧНИКИ

1. Камалов С.К. Қарақалпақлардың халық болып қәлиплесиўи ҳәм оның мәмлекетлигиниң тарийхынан. Нөкис, 2001.
- 2.История Хорезма. Под ред. акад. И.М.Муминова. - Ташкент, 1976.
- 3.Непесов Г.Н. 1920-1924 жылларындагы Хорезм халык совет революциясында Каракалпакстан мийнеткешлеринин роли. Нокис, 1964.
- 4.Калниязов У. Деятельность Ревкома Каракалпакской автономно области. (ноябрь 1924 – февраль 1925 гг.). Вестник ККФАН УзССР, 1962, №4.
5. ЦГА РК, ф.12, оп.3, д.163, л.209.
- 6.Досумов Я. Очерки истории ККАССР. Ташкент, 1960.
- 7.Осуществление Ленинской программы построения социализма в Каракалпакии. (1917-1937гг.). Ташкент, 1971.
- 8.Осуществление Ленинской программы построения социализма в Каракалпакии. (1917-1937гг.). Ташкент, 1971.
- 9.Сарыбаев К. История орошения Каракалпакстана. Нукус, 1995.

INTERYER TERMINLARINING YASALISHI (-XONA VA -GOH QO‘SHIMCHALARI ASOSIDA)**FORMATION OF INTERIOR TERMINOLOGY (BASED ON THE SUFFIXES “-XONA” AND “-GOH”)****ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕРЬЕРНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ (НА ОСНОВЕ СУФФИКСОВ “-XONA” И “-GOH”)**

Haqberdiyeva Sagina Shomurot qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilida interyer terminlarining yasalihi, xususan, “-xona” va “-goh” qo‘shimchalari asosida shakllangan so‘zlarning leksik-semantik tahlili yoritilgan. O‘zbek tilining izohli lug‘ati va ilg‘or tilshunoslarning ilmiy ishlari asosida ushbu qo‘shimchalarning tilimizdagi yasalihi tamoyillari va semantik imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, zamonaviy interyer dizayni sohasida ushbu qo‘shimchalarning yangi terminlar yaratishdagi roli ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: interyer dizayni, “-xona” qo‘shimchasi, “-goh” qo‘shimchasi, o‘zbek tili, so‘z yasalihi, semantika.

Abstract. This article examines the formation of interior-related terms in the Uzbek language, particularly focusing on words formed with the suffixes “-xona” and “-goh.” The lexical and semantic features of these suffixes are analyzed based on the Uzbek Explanatory Dictionary and the works of prominent linguists. Furthermore, their role in the creation of new terms in modern interior design is discussed.

Keywords: interior design, “-xona” suffix, “-goh” suffix, Uzbek language, word formation, semantics.

Аннотация. В данной статье рассматривается образование терминов интерьера в узбекском языке, в частности, слова, образованные с помощью суффиксов «-хона» и «-гоҳ». Исследованы лексико-семантические особенности этих суффиксов на основе Толкового словаря узбекского языка и научных работ ведущих лингвистов. Также проанализирована их роль в создании новых терминов в области современного дизайна интерьера.

Ключевые слова: дизайн интерьера, суффикс “-хона”, суффикс “-гоҳ”, узбекский язык, словообразование, семантика.

Kirish. O‘zbek tili boy lug‘aviy imkoniyatlari orqali turli sohalarda yangi terminlar yaratishda qudratli vositaga ega. Interyer dizayni ham bu jarayondan istisno emas.

Ushbu maqolada, “-xona” va “-goh” qo‘shimchalarining interyer dizayn terminologiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O‘zbek tilining izohli lug‘ati va yetakchi tilshunoslarning ilmiy ishlari asos qilib olingan. Maqsad ushbu qo‘shimchalarning yasalihi tamoyillarini aniqlash va ularning semantik xususiyatlarini o‘rganishdir.

Interyer dizayni va uning tilshunoslikka ta’siri: Interyer dizayni-inson yashash joyini estetik, qulay va funksional qilish san’ati bo‘lib, u zamonaviy madaniyat va texnologiyaning muhim

qismidir. Zamonaviy interyer dizaynida yangi atamalar hosil qilish, milliy til va madaniyatga moslashish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'zbek tilining so'z yasalishi tizimi muhim o'rin tutadi. Interyer dizaynida ishlatiladigan terminlar joyning vazifasini belgilash uchun aniqlik va mantiqni talab qiladi.

-xona va -goh qo'shimchalarining lingvistik xususiyatlari: “-xona” so'zi fors tilidan kirib kelgan bo'lib, “joy”, “xilvat”, “bino” ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilida “-xona” qo'shimchasi so'z yasalishida faol rol o'ynab, kichik, yopiq va shaxsiy makonlarni ifodalovchi atamalarni yaratishda ishlatiladi. Bu qo'shimcha yordamida shakllangan atamalar, o'zbek tili va madaniyatida oilaviy, kundalik hayotga oid joylarni ta'riflashda keng qo'llaniladi.

Ushbu qo'shimcha zamonaviy interyer dizayni terminologiyasida ham faol qo'llanilib, yangi so'zlar hosil qilishda ishtirok etmoqda.

“-goh” qo'shimchasi ham fors tilidan kirib kelgan bo'lib “joy”, “hudud” ma'nolarini ifodalaydi. O'zbek tilida odatda ochiq va jamoaviy makonlarni ifodalovchi atamalarni shakllantiradi. Bu qo'shimcha yordamida yaratilgan atamalar ko'proq jamoaviy, rasmiy yoki katta miqyosdagi makonlarni bildiradi.

Zamonaviy so'z yasalish jarayonida “-goh” qo'shimchasining qo'llanilishi nisbatan chegaralangan bo'lsa-da, u madaniy meros bilan bog'liq terminlarda uchraydi.

Interyer terminlarining yasalishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar: O'zbek tili grammatikasi va morfologiyasi bo'yicha qator olimlar “-xona” va “-goh” qo'shimchalarining yasalish jarayonlarini o'rgangan. Jumladan:

M.B. Abdiyev “*Kasb-korni ifodalovchi shaxs nomlarining yasalishi asoslari*”. Monografiya. - Samarqand: 2015. -248 bet. Ushbu monografiyada tilshunoslik so'z yasalishi sohasiga oid masalalar tadqiqiga bag'ishlangan¹, Sh. Safarov “*O'zbek tilining leksik-semantik xususiyatlari*” asarida ushbu qo'shimchalarning ma'nolarini keng tahlil qilgan², N. Mahmudov “*O'zbek tilining so'z yasalishi*” asarida “-xona” va “-goh” qo'shimchalarining zamonaviy so'zlar yaratishdagi o'rnini ko'rsatgan³, A. Madvaliyev esa “*O'zbek tilining affiksial yasalish tizimi*” tadqiqotida ushbu qo'shimchalarning tarixiy shakllanishini o'rgangan⁴, S. Naimova “*Zamonaviy interyer dizayn terminologiyasi*” haqida o'z tadqiqotida ushbu qo'shimchalar bilan shakllangan yangi terminlarni ko'rsatib o'tgan⁵.

Interyer terminlarining leksik-semantik xususiyatlari

“-xona” qo'shimchasi yordamida hosil qilinadigan terminlar funksional jihatdan aniq vazifani ko'rsatadi.

Semantik ma'noga ko'ra guruhlash

1. Tibbiyot va sog'lik bilan bog'liq joylar: bemorxona, dorixona, kasalxona, tabobatxona.

Bemorxona (بیمارخانه) - arabcha, (بیمار - bemor-kasal + خانه - xona-joy). Kasallarga yordam beradigan joy (kasalxona) [1:227].

Dorixona (داروخانه) - arabcha (دواء - dori-davo + خانه - xona-joy). Dori vositalari sotiladigan joy, apteka.

Kasalxona - o'zbekcha, (kasal-sog'lom bo'lmagan, kasallangan + xona-joy). Kasallarga yordam beradigan joy, shifoxona [2:328].

Tabobatxona esk. Shifoxona, kasalxona [3:628].

2. Ta'lim va ilmiy faoliyat: ijodxonona, kitobxonona, kutubxonona, rasadxona, sinfxona.

¹ M.B. Abdiyev “*Kasb-korni ifodalovchi shaxs nomlarining yasalishi asoslari*”. Monografiya. -Samarqand: 2015. -248 bet.

² Sh. Safarov “*O'zbek tilining leksik-semantik xususiyatlari*”.

³ N. Mahmudov “*O'zbek tilining so'z yasalishi*”.

⁴ A. Madvaliyev esa “*O'zbek tilining affiksial yasalish tizimi*”.

⁵ S. Naimova “*Zamonaviy interyer dizayn terminologiyasi*”

Ijodxon (ابداعخانه) - arabcha, (إبداع - ijod-yaratuvchilik + خانه - xona-joy). Ijod qilish, yaratish uchun mo'ljallangan joy [2:177].

Kitobxon (کتابخانه) - arabcha, (کتاب - kitob + خانه - xona-joy). saqlanadigan va o'qiladigan joy (kutubxon) [2:377].

Kutubxon (کتابخانه) - arabcha, (کتاب - kitob + خانه - xona-joy). kitoblar to'plami va o'qish joyi [2:438].

Rasadxon [rasad I + xona] Qadimgi Sharq observatoriyalarining nomi (*yana q.* observatoriya) [3:351].

Sinfxon - sinf [3:517].

3. Taom va ovqatlanish joylari: yemakxon, kabobxon, lag'monxon, oshxon, samovarxon.

Yemakxon - turkcha, (yemek-taom + xona-joy). Taom pishirish yoki ovqatlanish joyi (oshxon) [2:9].

Kabobxon (کبابخانه) - forsha, (kabob-go'shtni pishirish usuli) + xona-joy). Kabob pishiriladigan joy, shashlikxon [2:289].

Lag'monxon - o'zbekcha, (lag'mon-milliy taom) + xona (joy). Lag'mon taomi tayyorlanadigan joy (oshxon) [2:493].

Oshxon (آشخانه) - forsha, (آش - osh - taom + خانه - xona - joy). Taom tayyorlash uchun mo'ljallangan joy [3:174].

4. Ijtimoiy xizmatlar va yashash joylari: yetimxon, karvonxon, mehmonxon, sag'irxon, yotoqxon.

Yetimxon (یتیمخانه) - arabcha, (یتیم - yetim-ota-onasiz bola + خانه - xona-joy). Ota-onasiz qolgan bolalar uchun ajratilgan joy [2:18].

Yotoqxon - turkiy, (yotoq-uyqu uchun joy + خانه - xona - joy). Uyda uxlash uchun ajratilgan xona. Yotoqxon odatda, yotoq joylari bo'lgan joylarni bildiradi, masalan: talabalar yotoqxonasi, ishchilar yotoqxonasi.

Bandaxon (بندخانه) - forsha, بند (band-yopish, bog'lash) + خانه (xona-joy). Faqir, xoksozlarning uyi, xonadoni [1:158].

Karvonxon (کاروانخانه) - forsha, (karvon-karvon, savdo karvoni) + xona-joy). Karvon yo'lida karvonga mo'ljallangan joy, karvonsaroy [2:321].

Mehmonxon (مهمانخانه) - forsha, (مهمان - mehmon + خانه - xona-joy). Mehmonlar uchun ajratilgan joy (mehmonxon). *Otabek xufton namozi uchun tahorat olishg'a mehmonxonadan chig'gan edi, uning keticha: -Otasining bolasi-da, -deb Ziyop shohichi mehmon-larga qarab qo'ydi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar [2:587].

Sag'irxon [sag'ir + xona] esk. Yetimxon; mehribonlik uyi. *Oblastda.. otaonasiz qolgan bolalarni boqish, tarbiyalash maqsadida sag'irxonalar ochildi.* M. O'rinxo'jaev, Unutilmas kunlar [3:463].

5. Iqlim va tabiiy sharoit bilan bog'liq joylar: issiqxon, otashxon, sovuqxon.

Issiqxon - o'zbekcha, (issiq-yuqori harorat + xona-joy). Issiq va qulay joy, issiqlik bilan ta'minlangan xona [2:235].

Otashxon (آتشخانه) - forsha, (آتش - otash + خانه - xona-joy). Olovli yoki qizdirish uchun ajratilgan joy [3:154].

Sovuqxon 1 ayn. muzxon.

2 Mahalliy hammomlarning issiqxonasiga kiraverishda joylashgan, issiqxonadan chiqib, dam olib, nafasni rostlab o'tiriladigan alohida sovuqroq xona.

3 tar. Zindonning alohida muzdek sovuq bo‘lmasi [3:541].

6. Savdo va xizmat ko‘rsatish joylari: nonvoyxona, pivaxona, sartaroshxona, suratxona.

Novvoyxona (نانوایخانه) - forscha, (نانوایی - novvoyi-non pishiruvchi + خانه - xona-joy). Non pishiriladigan joy [3:46].

Pivoxona - (pivo, ichimlik + خانه - xona-joy). Pivo sotiladigan, sotib olib ichiladigan maxsus do‘kon; mayxona [3:254].

Sartaroshxona - Sartarosh do‘koni, sartaroshlik [3:455].

Suratxona esk. Fotosurat olinadigan ishxona, fotografiya [3:591].

7. Ma‘naniy va diniy joylar: ziyoratxona, ibodatxona, ibratxona, pirxona, tavanxona, takyaxona.

Ziyoratxona (زیارتخانه) - arabcha, (زيارة - ziyorat + خانه - xona-joy). Ziyoratgohning ziyoratchilar tavof qiladigan binosi, xonasi [2:148].

Ibodatxona (عبادتخانه) - arabcha, (عبادة - ibodat + خانه - xona-joy). Diniy ibodat qilish joyi, masjid [2:170].

Ibratxona (عبرتخانه) - arabcha, (عبرة - ibrat-o‘rnak olish + خانه - xona-joy). Tarbiyaviy, o‘rnak olish uchun ajratilgan joy [2:170].

Pirxona (پیرخانه) - forscha, (پیر - pir-oqsoqol, mo‘tabar kishining nomi + خانه - xona-joy). Mo‘tabar kishilarning yoshi ulug‘langan joyi [3:264].

Tavanxona etn. To‘y va ziyofatlarda mehmonlarga patnis tuzaladigan, sovg‘a-salomlar, to‘yonalar, tavanlar qabul qilib olinadigan xona [3:630].

Takyaxona - Shia yo‘nalishiga mansub musulmonlar ibodatxonasi, masjidi [3:647].

8. Madaniy va dam olish joylari: mayxona, manzilxona, muzaxona.

Mayxona (میخانه) - forscha, (می - may-sharob + خانه - xona-joy). Sharob ichiladigan joy, mehmonxona. [2:530].

Manzilxona (منزلخانه) - forscha, (منزل - manzil-uy, joy + خانه - xona-joy). Yashash joyi yoki uy [2:537].

Muzaxona (موزهخانه) - forscha, (موزه - muze-muzey) + xona-joy). Tarixiy yoki san‘at asarlarini saqlash va namoyish qilish joyi [2:630].

9. Hunar va kasb joylari: do‘konxona, zarbxona, ishxona, korxonona, remontxonona, ustaxonona.

Do‘konxona (داروخانه) - arabcha, (دكان - do‘kon + خانه - xona-joy). Hunarmandlar do‘koni (dastgo‘hi) joylashgan xona, joy; hunarmandlar ishxonasi [1:673].

Zarbxona (ضربخانه) - arabcha, (ضرب - zarb-zarba, urish + خانه - xona-joy).Tanga, orden, medal va sh. k. zarb qilinadigan korxonona [2:135].

Ishxonona - o‘zbekcha, (ish-faoliyat, mehnat + xona-joy). Mehnat qilish, ishlash joyi (ofis, ish joyi) [2:260].

Korxonona (کارخانه) - forscha, (کارخانه - karkhāna-fabrika, ishxona). Ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish faoliyati yuritiladigan joy [2:410].

Remontxonona [remont + xona] esk. Ta‘mir ishlari olib boriladigan ishxona, ta‘mir ustaxonasi; ta‘mirlash xonasi [3:375].

10. Huquq va tartib joylari: bandixonona, jilovxonona, militsiyaxonona, mirshabxonona, raisxonona, sarbozxona.

Bandixonona (بندیخانه) - forscha, (بندی - bandi-qulflash, yopish + خانه - xona-joy). Asirlar, tutqunlar saqlanadigan, qamab qo‘yiladigan joy; zindon, qamoqxona [1:159].

Jilovxonona - o‘zbekcha, (jilov-xususiyati). Shoh, xon saroylariga yoki masjid hovlisiga kiraverishdagi maxsus xona yoki bostirma [2:88].

Militsiyaxona - ruscha, forscha, (خانه - xona-joy). Militsiya bo‘limi, boshqarmasi joylashgan bino [2:592].

Mirshabxona (میرشابخانه) - forscha, (میرشباب - mirshab-maslahatchi, diniy ustoz + خانه - xona-joy). Mirshab mahkamasi va qamoqxonasi [2:600].

Raisxona - (rais-boshliq + خانه - xona-joy). Rais mahkamasi, idorasi [3:344].

Sarbozxona - Sarbozlar turadigan, istiqomat qiladigan joy, askarxona [3:446].

11. Shaxsiy foydalanish va maxsus maqsadli joylari: bangixona, boloxona, vannaxona, garderoxbona, kirishxona, kirxona, obxona, pashshaxona, pochtaxona.

Bangixona (بانگخانه) - forscha, (بانگ - bang-ovoz, chaqiruv + خانه - xona-joy). Nasha chekuvchilar to‘planishib, nashavandlik qiladigan joy, xonadon; bangilar uyi [1:155].

Boloxona - Mahalliy tipdagi imoratning ikkinchi qavat va shu ikkinchi qavatdagi xona [1:309].

Vannaxona - ruscha, (vanna - yuvinish uchun mo‘ljallangan joy) [1:440].

Garderoxbona - fransuzcha, (garderobe - kiyim saqlash joyi) [1:488].

Kirishxona - o‘zbekcha, (kiriş - kirish + xona-joy). Biror joyga kirishga mo‘ljallangan xona (darvoza oldi).

Kirxona - o‘zbekcha, (kir, iflos + xona-joy). Kirli yoki iflos ishlov beriladigan joy (kir yuvish yoki tozalash joyi) [2:376].

Obxona (آبخانه) - forscha, (آب - ob-suv + خانه - xona-joy). Suv saqlash yoki tarqatish joyi [3:76].

Pashshaxona - (pashsha-chivin + خانه - xona-joy). Pashsha va chivin kabi hasharotlardan saqlanish uchun tutiladigan maxsus chodir [3:243].

Pochtaxona - (post-pochta + خانه - xona-joy). Pochta o‘rnashgan bino [3:302].

Pillaxona - Pilla qurti boqiladigan, pilla yetishtiriladigan maxsus joy, xona [3:258].

Samovarxona - esk. ayn. Choyxona [3:435].

“-goh” qo‘shimchasi ko‘pincha joyning umumiy ma’nosini kengaytiradi va ko‘proq poetik yoki madaniy tusga ega bo‘ladi.

Semantik ma’noga ko‘ra guruhlash

1. Ibodat va diniy maqsadlar bilan bog‘liq joylar: dargoh, ibodatgoh, ziyoratgoh, otashgoh, sajdagoh.

Dargoh (درگاه) - forscha, (در - dar-eshik + گاه - goh-joy). Saroy, muqaddas joy, yuqori martabali kishining qarorgohi [1:562].

Ibodatgoh (عبادتگاه) - arabcha-forscha, (عبادة - ibāda-ibodat + گاه - goh-joy). Ibodat qilinadigan joy, masjid, cherkov yoki ma’bad [2:170].

Ziyoratgoh (زیارتگاه) - arabcha-forscha, (زيارة - ziyāra-tashrif + گاه - goh-joy). Muqaddas joy, diniy tashrif o‘rinlari [2:148].

Otashgoh (آتشگاه) - forscha, (آتش - otash-olov + گاه - goh-joy). Zardushtiylik davrida muqaddas olov saqlanadigan joy [3:154].

Sajdagoh (سجدهگاه) - arabcha-forscha, (سجدة - sajda-egilish, ibodat qilish + گاه -goh-joy) [3:420].

2. Dam olish va sayr qilish joylari: bazmgoh, istirohatgoh, oromgoh, sayilgoh, sayrgoh, sihatgoh.

Bazmgoh (بزمگاه) - forscha, (بزم - bazm-davra, ziyofat + گاه - goh-joy). Ziyofat yoki davra o‘tkaziladigan joy [1:141].

Istirohatgoh (استراحتگاه) - forscha, (استراحت - istirohat-dam olish + گاه - goh-joy). Dam olib, hordiq chiqaradigan joy [2:238].

Oromgoh (آرامگاه) - forscha, (آرام - oram-tinchlik, dam olish + گاه - goh-joy). Dam olish joyi [3:139].

Sayilgoh (سايلاگاه) - turkiy-forscha, (sayil , sayr qilish + forscha گاه - goh-joy). Dam olish va ko'ngil ochish uchun mo'ljallangan joy [3:422].

Sayrgoh (سايروگاه) - arabcha, (سايرو - sayr-yurish, sayohat + گاه - goh-joy). Sayr qilish joyi, park, bog' [3:424].

Sihatgoh (صحتگاه) - arabcha-forscha, (صحت - sihat-sog'lik + گاه - goh-joy). Davolanish va sog'liqni tiklash joyi, sanatoriy [3:533].

3. **Jamoat yig'ilishlari va majlislar uchun joylar:** majlisgoh, sahnagoh.

Majlisgoh (مجلسگاه) - arabcha-forscha, (مجلس - majlis-yig'ilish, kengash + گاه - goh-joy). Yig'inlar yoki kengashlar o'tkaziladigan joy [2:523].

Sahnagoh (صحنهگاه) - arabcha-forscha, (صحنه - sahna-ijro joyi, sahna + گاه - goh-joy). Teatr sahnasi yoki ijro etish joyi.

4. **Turarjoy va yashash bulan bog'liq joylar:** istiqomatgoh, manzilgoh.

Istiqomatgoh (استقامتگاه) - arabcha-forscha, (استقامت - istiqomat-yashash, barqarorlik + گاه - goh-joy). Doimiy yashash joyi, turar-joy [2:239].

Manzilgoh (منزلگاه) - arabcha-forscha, (منزل - manzil-joy + گاه - goh-joy). Yo'ldagi to'xtash joyi [2:537].

5. **Hunar va kasb joylari:** korgoh.

Korgoh (کارگاه) - forscha, (کار - kor-ish) + گاه (goh-joy). Ish joyi, ustaxona, hunarmandlik joyi [2:407].

Xulosa va tavsiyalar

O'zbek tilida interyer bilan bog'liq terminlarning shakllanishi milliy madaniyat va urf-odatlarini aks ettiradi. "-xona" va "-goh" qo'shimchalari bu jarayonda alohida o'rin tutadi. Ularning o'ziga xos semantik xususiyatlari yangi terminlar yasashida faol qo'llanilmoqda. Bu esa tilning lug'at boyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Zamonaviy interyer dizaynida yangi terminlarni ishlab chiqishda "-xona" va "-goh" qo'shimchalari imkoniyatlaridan keng foydalanish.

2. Milliy va xalqaro darajada interyer dizaynida o'zbekcha terminlarni targ'ib qilish va ularning qo'llanish doirasini kengaytirish.

3. Leksik-semantik tahlillarni chuqurlashtirib, interyer dizayniga oid yangi qo'llanma va lug'atlar yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madvaliyev A. *O'zbek tilining izohli lug'ati*, 1-jild, A-D, Toshkent, 2006, 679 bet.
2. Madvaliyev A. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2-jild, E-M, Toshkent, 2006, 679 bet.
3. Madvaliyev A. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 3-jild, H-Tartibli, Toshkent, 2006, 671 bet.
4. M.B. Abdiyev "Kasb-korni ifodalovchi shaxs nomlarining yasashi asoslari". Monografiya. - Samarqand: 2015, 248 bet. Ushbu monografiyada tilshunoslik so'z yasashi sohasiga oid masalalar tadqiqiga bag'ishlangan.
5. Safarov Sh. "*O'zbek tilining leksik-semantik xususiyatlari*". Toshkent: Sharq, 2020,
6. Mahmudov N. "*O'zbek tilining so'z yasashi*". Toshkent: O'zFA, 2005.
7. Madvaliyev A. "*O'zbek tilining affiksial yasash tizimi*". Toshkent: Fan, 1987.
8. Yo'ldoshev S. "*O'zbek tilining o'zlashma so'zlari*". Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2011.
9. Naimova S. "*Interyer dizayn terminologiyasi*". Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2023.

10. Sattorov I. *“O‘zbek tilida yangi so‘z yasashning lingvistik asoslari”*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
11. Mahmudov A. (2015). *Arxitektura va dizayn*. Toshkent: O‘zbekiston.
12. Mammadov F. (2011). *“O‘zbek arxitektura tarixi”*. Toshkent: Ma’naviyat.
13. Jumayev N. (2014). *“Ijtimoiy va madaniy joylar”*. Toshkent: Xalqaro.
14. Tursunov R. (2018). *“Yangi dizayn va arxitektura tendensiyalari”*. Toshkent: O‘zbek universiteti.
15. *“O‘zbekiston Respublikasi mebelsozlik sanoati va dizayni”*. (2020). Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
16. Sh. Safarov *“O‘zbek tilining leksik-semantik xususiyatlari”*. asarida ushbu qo‘shimchalarning ma’nolarini keng tahlil qilgan.
17. N. Mahmudov *“O‘zbek tilining so‘z yasashi”*. asarida *“-xona”* va *“-goh”* qo‘shimchalarining zamonaviy so‘zlar yaratishdagi o‘rnini ko‘rsatgan.
18. A. Madvaliyev esa *“O‘zbek tilining affiksial yasash tizimi”*. tadqiqotida ushbu qo‘shimchalarning tarixiy shakllanishini o‘rgangan.
19. S. Naimova *“Zamonaviy interyer dizayn terminologiyasi”* haqida o‘z tadqiqotida ushbu qo‘shimchalar bilan shakllangan yangi terminlarni ko‘rsatib o‘tgan.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TILGA TA'SIRI: KORPUS LINGVISTIKASI

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЯЗЫК: КОРПУСНАЯ
ЛИНГВИСТИКАTHE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON LANGUAGE: CORPUS
LINGUISTICS

Maxammadiyeva Diyora Raxmatovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilining kelgusi taraqqiyotida muhim omillardan biri bo'lgan til korpusi tushunchasi, dunyo tilshunosligida yaratilgan korpuslar va ularga qo'yiladigan talablar, korpus turlari va metodlari haqida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. *Korpus, til korpusi, tilni modellashtirish, rus illym korpusi, korpus yaratishda unga qo'yiladigan talablar, korpus lingvistikasi metodologiyasi.*

Абстрактный. В данной статье описывается понятие языкового корпуса, которое является одним из важных факторов дальнейшего развития узбекского языка, корпуса, созданные в мировой лингвистике, и требования к ним, виды корпусов и методы.

Ключевые слова. *Корпус, языковой корпус, языковое моделирование, корпус или русского языка, требования к созданию корпуса, методология корпусной лингвистики.*

Abstract. This article presents the concept of a language corpus, which is one of the important factors in the future development of the Uzbek language, considerations about the corpora created in world linguistics and the requirements for them, types and methods of corpus.

Keywords. *Corpus, language corpus, language modeling, Russian scientific corpus, requirements for creating a corpus, methodology of corpus linguistics.*

*Maxammadiyeva D.R.,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti
diyoramaxammadiyeva@gmail.com*

Jahon tilshunosligida til korpuslari tuzishning nazariy asoslari tadqiq qilingan va ularning natijalari amaliyotga joriy qilingan. Til korpusi ustida turli amallar bajarish orqali lingvistik, sostiolingvistik, adabiyotshunoslikka oid, sotsiologik, gender tadqiqotlarda asosli xulosalar chiqarilmoqda. Til korpuslari lisoniy boyliklarni to'plash, qayta ishlash va saqlashga yordam beruvchi qimmatli dasturiy vosita sifatida ahamiyatlidir. Korpus lingvistikasi zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'zbek tilshunosligida so'nggi o'n yillikda shakllangan va rivojlanib borayotgan sohadir U ilmiy tadqiqotlar uchun lingvistik korpuslar yaratish, ma'lumotlarni qayta kodlash, tahrirlash usullarini o'rganadi. Korpus turli ilmiy adabiyotlarda turlicha ta'riflangan. Korpus – ma'lum maqsadda yig'ilgan matnlar majmuini tashkil etuvchi til birliklari yig'indisi, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot asosida joylashtirilgan on-line yoki off-line tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi[1], "korpus – alohida tilning yozib olingan og'zaki hamda yozma matnlari asosidagi lingvistik ma'lumotlar majmui", "korpus – istalgan tabiiy (real) tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga joylashtirilgan matnlar yig'indisi"[2] kabi. O'TILda esa korpus so'zi quyidagicha izohlangan: Korpus [lot.corpus – tana, jism, modda; bir butun
<https://journal.uzfi.uz>

narsa] 1. Mexanizm, apparat va sh.k.ning tayanchini yoki qobig'ini tashkil etuvchi qism. Soat korpusi. 2. Bir umumiy uchastkadagi, bir majmuaga kiruvchi binolardan biri, alohida bino. 3. bir necha diviziya yoki brigadadan iborat yirik harbiy qo'shilma. 4. Biror davlatdagi barcha diplomatlar, konsullar. Qonun chiqaruvchi korpus qonun chiqaruvchi ayrim muassasalarning yoki qonun chiqaruvchi organga tegishli palatalarning barcha deputatlari[3]. Ko'rinib turibdiki, O'TILda bizning tatqiq obyektimiz bo'lgan til korpusi haqida hech qanday ma'lumot keltirilmagan. O'TILning 2006-yilda nashr etilganligini hisobga olsak, korpus tilshunosligi o'zbek tilining endigina tetepoya bo'layotgan yangi yo'nalishi ekanligi ma'lum bo'ladi.

Lingvistik korpus yoki matnli korpus ostida o'ziga xos til muammolarini hal qilish uchun yaratilgan katta hajmdagi mashinada o'qiladigan, birlashtirilgan, yorliqlangan, formatlangan filologik jihatdan barkamol til ma'lumotlari to'plami tushuniladi. Korpus tilshunosligi atamasi birinchi marta 1977-yilda ishlatilgan, bu esa korpus tilshunosligini juda yosh ilmiy yo'nalish deb atashga imkon beradi. Ammo shu qisqa vaqt ichida korpus tilshunosligi hisoblash tilshunosligining yondashuvlaridan biri sifatida zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jahon tilshunosligi bu borada ancha-muncha yutuqlarga erishgan.

Dunyo tilshunosligida korpus lingvistikasi yo'nalishi va til korpuslarini yaratish ishlari bo'yicha talay ishlar qilingan. Ko'pgina mamlakatlarda XX asrning 80-yillaridan boshlab bunday korpuslar tuzila boshlandi. Ular turli maqsad va vazifalarga xizmat qiladi. Buyuk Britaniyada Ingliz tili Banki (Bank of English) hamda Britaniya milliy korpusi (British National Corpus, BNC), Rossiyada Rus tilining milliy korpusi loyihalari ishlab chiqildi. Keyingi yillarda Internet tizimining rivojlanishi virtual matnlar korpusi yuzaga kelishiga olib keldi. Ya'ni Internetdagi qidiruv saytlari, elektron kutubxonalar, virtual ensiklopediyalar korpus vazifasini bajarmoqda. Masalan, rus milliy korpusi ham o'z ichiga 163 mln. (bugungacha esa 500 mln.) tarixiy va zamonaviy qatlamga tegishli so'zlarni kiritganligi bilan mashhur[4].

Ushbu korpus quyidagi bo'limlardan iborat[5]:

- 1) asosiy korpus (XVIII-XXI asrga doir nasriy matnlar);
- 2) sintaktik korpus (har bir gap uchun morfologik va sintaktik qurilmaning keltirilganligi);
- 3) gazeta korpusi (1990-2000 yillar OAV maqolalari);
- 4) parallel korpuslar (tegishli so'zning xorijiy tildan rus tiliga va rus tilidan xorijiy tilga bo'lgan tarjimasi);
- 5) dialektal matnlar korpusi;
- 6) she'riy matnlar korpusi;
- 7) rus tilini o'rgatuvchi korpus (sodda maktab o'quv dasturiga asoslangan);
- 8) og'zaki nutq korpusi;
- 9) multimedia materiallari korpusi (1930-2000 yillar kinofilmlari jamlangan);
- 10) ruscha urg'u tarixining korpusi (urg'u tarixiga oid matnlar)

Rus tilshunosi N.Kozlovaning fikricha, korpus yozma va og'zaki shakldagi matnlar yig'indisi bo'lib, oddiy matnlar to'plamidan raqamlanganligi bilan farqlanadi, ya'ni u elektron tarzda tahlil qilingan, maxsus razmetka/belgilar qo'yilgan va kompyuterda saqlanadigan matnlar majmuyi hamda ma'lumotlar va shu ma'lumotlarni tartibga soladigan lingvistik annotatsiyalardan iborat[6].

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida aynan shu sohada ko'plab tadqiqotlar olib borayotgan B.Mengliyev korpusga «til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo'ysundirilgan matnlar majmui, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot asosida joylashtirilgan matnlar jamlanmasi.

Til korpuslari – til bo‘yicha tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun inkor etib bo‘lmas ish quroli»[7] - deb ta‘rif beradi.

Matnlar korpusiga oid ilmiy tadqiqotlar salmog‘ining ko‘payishi natijasida tilshunoslikda korpus lingvistikasi yo‘nalishi shakllandi. Tadqiqotchi B.Daniyarov til korpuslari – til bo‘yicha tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun inkor etib bo‘lmas ish quroli deb ta‘riflaydi[8].

O‘zbek tilshunosligida korpus, uning o‘ziga xos xususiyati, xususan, mualliflik korpusining lingvistik qimmatini, o‘zbek tili mualliflik korpusini yaratishning lingvistik asoslari masalalari Sh.Xamroyeva tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning xususiy lingvistik asoslarini Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi misolida o‘rgangan[9].

Korpusning janri va tematik rang-barangligi internetdan foydalanuvchining qiziqishlariga bog‘liq. Korpusni yaxlit shaklda yaratish va undan foydalanishning talablarini N.Abduraxmonova quyidagicha izohlaydi[10]:

- Yetarlicha katta hajmga ega bo‘lish;
- Turli turdagi ma‘lumotlarni tabiiy kontekstdagi shaklida korpusda berish;
- Bir marta tayyorlangan va yaratilgan ma‘lumotlardan ko‘p marta foydalanish imkoniyatining mavjudligi.

D.F. Djafarova [11] korpus lingvistikasida korpus quyidagi talablarga javob berishi kerakligini ta‘kidlaydi:

- 1) namunaviylik va reprezentativlik;
- 2) chegaralangan hajm;
- 3) ma‘lumotning avtomatlashtirilganligi.

Har bir tadqiqotning asosida uni amalga oshirish metodologiyasi mavjud bo‘ladi. Korpus tamoyillari asosida korpuslar yaratish hamda ularni amaliy tadqiqotlarda qo‘llashga qaratilgan korpus lingvistikasi metodologiyasini N.Ataboyev oltita metoddan iborat empirik tizim sifatida baholaydi[12]:

- yo‘naltiruvchi metod;
- manba bilan ishlash yoki bazaviy metod;
- metadata qo‘shish metodi;
- avtomatlashtirish metodi;
- baholash metodi;
- chastotali qidiruv-analiz metodi.

O‘zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasi, matnga leksikografik ishlov berish va lingvostatistik tahlil etish borasida birmuncha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, o‘zbek tili milliy korpusini yaratish ustida bir qancha loyihalar joriy qilinib, birin-ketin moddiy-texnik ta‘minot, moliyalashtirish borasidagi muammolar bartaraf qilinmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Dunyo tajribasida korpus tildan foydalanishda uning statistik analizi, tabiiy tilni qayta ishlash dasturiy ta‘minoti, leksik resurlarni yaratish, til o‘qitish yoki o‘rganish kabi maqsadlarda qo‘l kelmoqda. Bugun amaliy tilshunosligimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – bu turli janrlarni qamrab olgan o‘zbek tilining milliy korpusini yaratishdir. Bunda til birliklarini modellashtirish jaroyonida umumiy standart namunani belgilab olish zarur. Korpus foydalanuvchisi milliy korpusdagi matnlar uchun tushunarli, ravon, bir xil annotatsiyadan fodalansa, maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хамроева Ш. Корпус лингвистикаси атамаларининг қисқача изоҳли луғати”. –Тошкент: Камалак, 2018
2. www.ares.uz
3. О‘ТИЛ. 2-tom.
4. Эшмўминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. филол. фан. бўйича PhD dissertatsiyasi. –Termiz. 2019, 46-bet
5. Эшмўминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. филол. фан. бўйича PhD dissertatsiyasi. –Termiz. 2019.
6. Хамроева Ш.М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. – Қарши, 2018. – 250 б. (Козлова Н. В. Лингвистические корпуса: определение основных понятий и типология. Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2013. Т. 11. Выпуск 1. - С . 79.)
7. <https://kun.uz/uz/news/2020/10/18/baxtiyor-mengliyev-uzbek-tilining-ham-milliy-korpusi-yaratilishi-lozim>
8. Дониёров Х. Ўзбек тилининг миллий корпусида лексик синонимларни бериш масаласи. / Хорижий филология. 2019 йил. №3-сон.
9. Хамроева Ш.М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. – Қарши, 2018. – 250 б.
10. Abduraxmonova N. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. Monografiya. – Toshkent – 2021.
11. Хамроева Ш.М. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. – Қарши, 2018. – 250 б. (Джаъфарова Д.Ф. Модели лингвистического анализа текстов таджикского языка (на материале газелей Хафиза) дисс. ... кандидата филологических наук. - Душанбе, 2013. - С 35)
12. Атабоев Н. Инглиз тили корпусининг функционал хусусиятлари (СОСА мисолида) . Дис. Автореферат. 15- бет.

MAKTABGACHA TA'LIMDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISH
ОРГАНИЗАЦИЯ РАЗВИВАЮЩЕЙ СРЕДЫ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ
ORGANIZING A DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT IN PRESCHOOL EDUCATION

*Abdumuminova Anora Sunnat qizi, Majidova Shohsanam Sherali qizi,
Fayzullayev Sharipboy*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish bolalarning intellektual, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi. Muhit bolaning qiziqishlari va yosh xususiyatlariga mos bo'lib, o'yin, ta'lim va ijodiy faoliyat orqali erkin fikrlash va iqtidorni qo'llab-quvvatlaydi. Bunday muhit ta'lim sifatini oshirish va barkamol avlodni shakllantirishda muhim ahamiyatga egaligi kabilar.

Kalit so'zlar: *Rivojlantiruvchi muhit, maktabgacha ta'lim, bolalar faoliyati, didaktik materiallar, harakatli o'yinlar, tafakkur rivoji, o'quv muhitini loyihalash.*

Аннотация. В данной статье рассматривается организация развивающей среды в дошкольных образовательных учреждениях как важнейший фактор обеспечения интеллектуального, социального и физического развития детей. Развивающая среда создается с учетом интересов и возрастных особенностей детей, поддерживая свободное мышление и раскрытие талантов через игру, обучение и творческую деятельность. Такая среда играет ключевую роль не только в повышении качества образования, но и в формировании всесторонне развитого поколения.

Ключевые слова: *Развивающая среда, дошкольное образование, детская деятельность, творческие игры, образовательные ресурсы, дидактические материалы, подвижные игры, развитие мышления, проектирование учебной среды, детская литература.*

Abstract. This article discusses the organization of a developmental environment in preschool educational institutions as a critical factor in ensuring children's intellectual, social, and physical development. The developmental environment is designed in accordance with the children's interests and age-specific characteristics, supporting free thinking and talent development through play, education, and creative activities. Such an environment plays a vital role not only in improving the quality of education but also in shaping a well-rounded generation.

Keywords: *Developmental environment, preschool education, children's activities, creative games, educational resources, didactic materials, active games, cognitive development, designing the learning environment, children's literature.*

*Abdumuminova A.S.,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-
bosqich talabasi*

*Majidova.Sh.Sh., O'zbekiston-
Finlandiya pedagogika instituti
magistranti*

*Fayzullayev Sh.,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti, pedagogika
fanlari nomzodi, dotsent
sharipboyfayzullayev@gmail.com*

KIRISH. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining bosh bo'g'ini maktabgacha ta'limga bo'lgan e'tibor hozirgi kunda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan juda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022- 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da Maktabgacha ta'lim tizimiga alohida to'xtalib o'tilgan va bir qancha vazifalar belgilab berilgan. Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini oshirish to'g'risida bir qator tashabbuslar keltirilgan. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar mahkamasining qabul qilgan qarori hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining ishlab chiqilishi, 2022 yil 4-fevralda qayta Takomillashtirilgan nashrning chop etilishi, Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham ustuvor maqsad va vazifalar belgilangan. Maktabgacha ta'lim bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi muhim bosqichni tashkil etadi. Ushbu davrda bolalar yangi bilimlar va ko'nikmalarni egallab, o'z-o'zini anglash, ijodkorlik va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zaruriy asoslarni o'rganadilar. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish, ana shu jarayonni samarali amalga oshirish uchun muhimdir, chunki bolalar o'zlarini erkin va xavfsiz his qiladigan muhitda o'sib, o'z fikrlarini erkin ifoda eta oladilar. Shuni ta'kidlash kerakki, rivojlantiruvchi muhit faqatgina fizik joy bilan cheklanmaydi, balki pedagogik yondashuvlar, o'yin va tajriba asosida ta'lim berish, shuningdek, bolalar ehtiyojlarini hisobga olishni ham o'z ichiga oladi.

Asosiy qism. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishi va shaxsiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda muhim o'rin tutadi. Rivojlantiruvchi muhit bolalar uchun qulay, xavfsiz va o'qishga undovchi sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bunday muhit bolalarning aqliy, jismoniy, ijtimoiy va estetik rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, rivojlantiruvchi muhit bolalarda ijodiy fikrlash, muloqot qobiliyatlari va mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, pedagoglar tomonidan to'g'ri tanlangan didaktik materiallar, o'yinlar, texnologik vositalar va resurslar orqali bolalar ta'lim-tarbiyasini sifatli tashkil etish zarur. Shunday qilib, bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lgan muhitda o'qitish samaradorligini oshirish mumkin. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Ushbu tadqiqotlar o'yin asosida ta'lim, interaktiv o'yinlarni qo'llash va bolalarning ehtiyojlariga mos dasturlar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish jarayonida o'qituvchilarning roli ham muhim ahamiyatga ega. Ular bolalar bilan ishlashda yaratgan sharoitlar, ularga ta'lim berish metodologiyalari va o'yin jarayonlarini amalga oshirishda o'zlarining professional malakalarini oshirishlari kerak. Shunday qilib, o'qituvchilarning malakasi va ularning pedagogik yondashuvlari rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda alohida ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Dastur asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

- O'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- Tanqidiy fikrlash;
- Tanlashni amalga oshirish;
- muammolarni hal eta olish;
- Ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;
- Odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda pedagog shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolsa topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

„Ilk qadam“ o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi:

- Qurish-yasash, konstruksiyalash va markazi;
- Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi;
- Til va nutq;
- Ilm-fan va tabiat markazi;
- San'at markazi.

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy rivojlanishni maqsadli yo'naltirilganligi bilan belgilanib, bolalar hatti-harakatini rivojlanishiga zamin yaratadi. Bolalar xulq-atvoriga, ularning tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlariga qo'yiladigan talablar murakkablashadi. Shu bilan birga irodaviy sifatlar shakllana boradi, xarakter xislatlari barqarorlashadi, unda mustaqillik intilish tuyg'usi paydo bo'ladi. Bolaning rivojlantiruvchi muhitdagi faoliyati ijtimoiy munosabatlarga kirishishida uning dunyoqarashini shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Rivojlantiruvchi muhitdagi faoliyat bolada shaxs sifatlarining shakllanishi uning tirishqoqligi va qiyinchiliklarni yenga olish, o'zgalarga bo'lgan ijobiy munosabatning paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda rivojlanish markazidagi faoliyat mazmuni quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

- bilim olish uchun-rivojlanish markazi qo'shimcha asosiy faoliyat ekanligi haqida bolalarda tasavvur hosil qilishga erishish;

- bu tasavvur asosida bolaning mashg'ulotga bo'lgan munosabatini ijobiy o'zgartirish va faolligini ortishiga turtki berish;

- bola faoliyatida tirishqoqlik, ma'suliyatlilik, mustaqillik, harakatchanlikni rivojlanishiga e'tibor qaratish;

- bolalarni jamoaviy faoliyatga ko'niktirish va tengdoshlariga ijobiy munosabatlarni yuzaga keltirish (o'zaro yordam berish, tengdoshlari ishini adolatli baholash, ularning kamchiliklarini do'stona tushuntira olish);

- o'quv faoliyati jarayonida bolada tashkilotchilik qobiliyatining shakllantirish.

Rivojlantiruvchi muhit tashkil qilish bolalar uchun nafaqat bilim olishni, balki hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bir qator muammolar mavjud. Ularning qatoriga resurslarning yetishmasligi, o'qituvchilarning malakasizligi va bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olishda qiyinchiliklar kiradi. Bundan tashqari, turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ham bolalarning rivojlantiruvchi muhitga kirishini cheklashi mumkin. Shu sababli, rivojlantiruvchi muhitni yaxshilash bo'yicha tadqiqotlar olib borish va amaliyotlarni rivojlantirish zarur. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning ahamiyatini o'rganish, o'yin asosida ta'lim metodologiyalarini tahlil qilish, interaktiv o'yinlarni maktabgacha ta'lim jarayoniga qo'shish va bolalar ehtiyojlariga mos dasturlar ishlab chiqishdir. O'z navbatida, bu tadqiqot bolalarning o'z-o'zini anglashini, ijodkorligini va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi va shuningdek, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va yoqimli qilishga

yordam beradi. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish bolalar uchun ta'lim jarayonini yangilash va samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim qadamlardan biridir.

Maktabgacha ta'limda interaktiv o'yinlar bolalarning rivojlanishiga, o'z-o'zini anglashiga va ijodiy ko'nikmalarini oshirishga katta hissa qo'shadi. Interaktiv o'yinlar, masalan, bolalar uchun mo'ljallangan o'yinlar va faoliyatlar, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Ular nafaqat bolalarning diqqatini jalb qiladi, balki ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Bolalar ehtiyojlariga mos dasturlar ishlab chiqish

Bolalar ehtiyojlariga mos dasturlar ishlab chiqish maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning muhim jihatlardan biridir. Bu dasturlar bolalarning individual ehtiyojlarini, qiziqishlarini va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Maktabgacha ta'limda bolalar o'zlarini ifoda etish, o'rganish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur. Shuning uchun dasturlarni ishlab chiqishda bolalarning psixologik, jismoniy va ijtimoiy ehtiyojlarini to'liq qamrab olish muhimdir.

XULOSA

Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi muhit bolalar jismoniy, aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishning muhim omilidir. Bunday muhitning samaradorligi bolalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilganda yuqori bo'ladi. Maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish bolalarning intellektual, ijodiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bunday muhitni yaratishda bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Muhit o'yin, ta'limiy, estetik va kommunikativ jihatlarni qamrab olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, rivojlantiruvchi muhit bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy shartlardan biridir. Ta'lim muassasasi xodimlari va ota-onalar birgalikda ushbu muhitni yaratishga intilishi lozim. Shu tariqa, maktabgacha yoshdagi bolalarning keyingi ta'lim va hayotga muvaffaqiyatli tayyorgarligini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son.
2. 2020-yil 9-martda 132-sonli „Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarori
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi– T.:2022
4. Fayzullayev Sh.N. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish jarayonini loyihalashtirish metodining ahamiyati// UzMU xabarlar. – Toshkent, 2024. – № 1/9. – B. 204-207 (13.00.00; №15).
5. Fayzullayev Sh.N. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining bolalarni maktabga tayyorlash dasturida innovatsion qiyosiy tahlil // Pedagogika. – Toshkent, 2024. – № 5. – B. 23-26 (13.00.00; № 6).
6. Fayzullayev Sh.N. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini bolani maktab ta'limiga tayyorlash dasturiy ta'minotini shakllantirish // Муғаллим ҳәм үзлуксиз билимлендириў илимий-методикалық журнaли. – Nukus, 2024. – № 4.1. –B. 276-282 (13.00.00; № 20).
7. Maktabgacha pedagogika F.R. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M. .N. A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent – 2019

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI UCHUN MOS MUSTAQIL
TOPSHIRIQLARNI ISHLAB CHIQISH METODIKASI****МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НЕЗАВИСИМЫХ КОНТЕКСТОВ, ПОДХОДЯЩИЕ ДЛЯ
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВА****METHODOLOGY FOR DEVELOPING AN INDEPENDENT ASSESSMENT SUITABLE
FOR BEGINNER LEARNERS**

Abduraxmanova Charos Burxanovna

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mustaqil topshiriqlarni ishlab chiqish metodikasi yoritilgan. Mustaqil topshiriqlar o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishini, ma’naviy va intellektual salohiyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydi. Maqola mustaqil topshiriqlarning maqsadi, mazmuni, shakllari va usullari haqidagi asosiy printsiplarni, shuningdek, topshiriqlarni ishlab chiqishda e’tiborga olishi kerak bo‘lgan jihatlarni mustahkamlaydi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, mustaqil topshiriqlar, metodika, o‘quvchilarning faolligi, motivatsiya, o‘rganish jarayoni, intellektual salohiyat, boshlang‘ich ta’lim, topshiriqlarni ishlab chiqish, amaliy tavsiyalar, o‘qishga qiziqish, mustaqil ish, shakllar va usullar, faol o‘qitish.*

Аннотация. В статье описана методика разработки самостоятельных заданий для учащихся младших классов. Самостоятельные задания обеспечивают активное участие студентов в процессе обучения, развитие их духовного и интеллектуального потенциала. В статье закрепляются основные положения о цели, содержании, формах и методах самостоятельных заданий, а также аспекты, которые следует учитывать при разработке заданий.

Ключевые слова: *начальный класс, самостоятельные задания, методика, активность учащихся, мотивация, процесс обучения, интеллектуальный потенциал, начальное образование, разработка заданий, практические рекомендации, интерес к чтению, самостоятельная работа, формы и методы, активное обучение.*

Abstract. The article describes the methodology for developing independent assignments for primary school students. Independent tasks ensure the active participation of students in the learning process, the development of their spiritual and intellectual potential. The article sets out the basic provisions about the purpose, content, forms and methods of independent assignments, as well as aspects that should be taken into account when developing assignments.

Key words: *primary class, independent tasks, methodology, student activity, motivation, learning process, intellectual potential, primary education, development of tasks, practical recommendations, interest in reading, independent work, forms and methods, active learning.*

Abduraxmanova Ch.B.
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat
universiteti mustaqil
tadqiqotchisi
abduraxmanovacharos@gm
ail.com

Kirish: Har bir fan o'ziga xos o'rganish obyekti va predmetiga ega bo'lganidek, hozirgi kunda boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasining adabiy ta'lim metodikasi sifatida rivojlanishi zarurati kuchaymoqda. Adabiyot o'qitish tizimi uchun tayyorgarlik predmet sifatida o'qish metodikasi, bolalar adabiyoti namunalaridan foydalanib, o'z maqsad va vazifalarini belgilab oladi.

Natijada, boshlang'ich sinfda o'qish darslarining o'rganish obyekti o'quvchilarning adabiy ta'limni egallash jarayoni deb belgilanishi mantiqan to'g'ri hisoblanadi. Bu yondashuv o'quvchilarning badiiy adabiyot bilan tanishishiga, ijodiy fikrlashga rag'batlantirishga va adabiyotga qiziqishini oshirishga yordam beradi.[1]

Metodologiya. Hozirgi kunda metodikadan boshlang'ich sinf o'qituvchilari aniq dalillangan, ilmiy asoslangan ko'rsatmalarni kutmoqdalar. Metodika bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini adabiy ta'limning mazmuniga va uni o'qitishga mustaqil yondasha oladigan, o'z tajribasini nafaqat o'rganib, balki faoliyat natijalarini ongli ravishda tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqara biladigan bo'lishini ta'minlaydi. M.A. Ribnikova metodikaning asosi sifatida to'rt ta didaktik qoidani keltiradi.[2]

1. Talim o'quvchilarning tushunishlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatuvchi xarakterda bo'lishi.
2. O'quvchilar oldilarida turgan muammoni anglay olishi.
3. O'qituvchi yangi qiyin narsalarni onson tushuntra olish qobiliyatiga ega bo'lishi.
4. Deduksiyani induksiya bilan bog'lashi.[4]

M.A. Ribnikova metodik tizimni jonli jarayon sifatida qarab, asosiy e'tiborni metodik tizimga qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu fikrlar boshlang'ich sinf o'qish darslarida adabiy va badiiy asarlarni tahlil qilish va talqin etishga yangi yondashuvlarni qo'llashni talab etmoqda. Asar tahlilini bosqichma-bosqich amalga oshirish o'quvchilarning faoliyatini aniq maqsadga yo'naltirish imkonini beradi.

Misol uchun, "Qaytish texnologiyasi" va "Tahlil va o'rganish" metodlari o'qish materiallari, ya'ni badiiy asar ustida bajariladigan ishlarning maqsadga muvofiqiligini ta'minlaydi. Ushbu metodlar, shuningdek, o'quv harakatlarini bosqichma-bosqich tashkil etish, ta'lim oluvchilarga individual yondashish, o'quvchilarning faoliyatini kuzatish va tezkor baholash imkoniyatini yaratadi.

Misol sifatida, "Qaytish texnologiyasi" yordamida o'quvchilar ilgari o'rganilgan asarlarni yana bir bor ko'rib chiqib, yangi nuqtai nazardan baholashlari mumkin. "Tahlil va o'rganish" metodida esa o'quvchilar biror badiiy asarni bir necha bosqichda tahlil qilib, o'z fikrlarini izchil va ravon ifoda etishga o'rganadilar.[5]

"Arra" metodida o'rganilayotgan badiiy matn tarkibiy qismlarga bo'linadi. Ushbu texnologiya 4-sinfda "O'qish kitobi" darsligida keltirilgan barcha asarlarni o'rganishda qo'llanilishi mumkin. Masalan, "Bola va o'qituvchi" hikoyasini o'rganishda avval asar audio formatida eshitiriladi va so'ngra asar to'rt qismga ajratiladi. Sinf o'quvchilari ham to'rt kichik guruhga bo'linadi va har bir guruhga o'qiydigan qismi belgilanadi. Har bir guruh uchun bir xil topshiriq beriladi:

1. Topshiriq: O'qigan qismlarining mazmunini to'liq qayta aytishga tayyorlaning. (Har bir guruh a'zosi bu topshiriqni bajarishga tayyorlanadi.) So'ng, guruhlar qayta tashkil etiladi va har bir guruhda oldingi guruhdan bitta mutaxassis o'quvchi bo'ladi. Ular "arra" tishlari kabi mavzuni – asar mazmunini mantiqiy ketma-ketlikda o'zaro hikoya qilib berishadi.

2. Topshiriq: Har bir guruh asar yuzasidan berilgan quyidagi savollarga javob beradi:

1. O'qituvchi nima uchun o'g'li Umidni ta'limdan to'xtatdi?
2. O'qituvchi Umidga sport sirlarini o'rgatishining sababini izohlang.
3. O'qituvchi Umidga san'at sirlarini o'rgatishining sababini izohlang.
4. Asar nima uchun to'rt qismga bo'lingan?

3. Topshiriq: Asar qahramonlariga baho berish yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajarib, taqdimotga chiqadilar:

- Har bir qahramonning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlang.
- Har bir qahramonning vazifalari va maqsadlarini tushuntiring.
- Asarning maqsadi va qahramonlarning rolini belgilab bering.

Ushbu metodlar orqali o'quvchilar hikoyaning mazmunini yanada chuqurroq tushunadilar va o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

1. Kamola aya qanday ayol? Unga ona sifatida baho bering.

2. Dilshod qanday chavandoz va mard? Dilshodning Kamola ayaga munosabatidagi xususiyatlarni qanday baholaysiz?

Agar yana biror savol yoki yordam kerak bo'lsa, marhamat! [6]

Yaqinda keng tarqalgan "Kouching" metodikasidan boshlang'ich sinflarda foydalanildi. Ushbu metodika maqsadni aniqlash va unga erishishning optimal yo'llarini belgilashga, o'quvchining mustaqilligi va javobgarligini oshirishga, o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilishga, samarali hamkorlikning yangi yo'llarini ochishga, qiyin vaziyatlarda muhim yechimlarni tezda aniqlashga, individual maqsadlarni ta'lim muassasasi maqsadlari bilan moslashtirishga, o'z hayot tarzini yaxshilashga, yangi imkoniyatlarni ochishga va hayotni yangi produktiv shaxsiy munosabatlar bilan boyitishga yordam beradi.

Kouching, inglizchadan tarjima qilinganida "mashq qilmoq" degan ma'noni anglatadi. Ta'limda bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali faoliyatni rivojlantirishga imkon beruvchi uzluksiz jarayonni anglatadi. Coaching — bu muhim o'quv maqsadlariga erishish uchun o'quvchiga individual maslahat berish, uning ichki potentsialini ochish, zarur qobiliyat va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, natijalarga erishish uchun ilg'or strategiyalarni o'zlashtirish jarayonidir. [7]

Kouchingning maqsadi o'qitish emas, balki o'quvchining zarur bilim va tajribani egallashi uchun o'zini-o'zi o'qitish sharoitlarini yaratishdir. Ushbu metodika kasbiy va shaxsiy o'sish uchun o'quvchilarning o'z oldiga qo'ygan vazifalari va o'zgarishlarga ehtiyojlarini anglash, imkoniyatlarini kengaytirishga mo'ljallangan. U ta'limda, shuningdek, biznesda, shaxslararo munosabatlarda, oilada va jismoniy salomatlikni saqlash kabi hayotning turli sohalarida rejalashtirish va amalga oshirishga qaratilgan.

Misol sifatida: O'quvchilar coaching metodikasidan foydalanib, o'z maqsadlarini aniqlashlari va ularga erishish strategiyalarini ishlab chiqishlari mumkin. Masalan, bir guruh o'quvchilar o'z qobiliyatlari va qiziqishlari asosida loyiha tanlab, uning rejasini tuzishadi. Bu jarayonda o'qituvchi ularni yo'naltirib, kerakli resurslarni taqdim etadi va fikr almashish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'quvchilarga jamoada ishlash, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kouching, zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan muhim metodologiya sifatida qaraladi. Uning asosiy maqsadi — o'quvchilarni yangicha fikrlashga, kreativlikka va o'z maqsadlariga erishishga yo'naltirishdir. [8]

Kouching jarayonida, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ishonchli va ochiq munosabatlar o'rnatish juda muhim. O'quvchi o'z fikrlarini erkin ifoda etishi, savollar berishi va o'qituvchining g'oyalari tinglashi lozim. O'qituvchi, agar o'quvchiga yordam kerak bo'lsa, "Siz bizning suhbatdan nima kutyapsiz?" kabi savollar berib, o'quvchining rejasini amalga oshirishda qo'llab-quvvatlaydi. Agar o'quvchining fikri shubha tug'dirsa, o'qituvchi tanqid qilmasdan savollar berish orqali o'quvchini yangi g'oyalarga yo'naltiradi: "Agar bu bunday bo'lsa, nima bo'lishi mumkin?" yoki "Siz uning bu harakatining oqibatini o'ylab ko'rdingizmi?"

Kouching metodologiyasi o'quvchilarning maqsadlariga tez va samarali erishishlariga yordam beradi. Ushbu metodning afzalliklari shundaki, u o'qish jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadi va ularga eng yaxshi usullar bilan ta'lim beradi. Kouching jarayoni tez o'rganishni ta'minlab, quyidagi natijalarga olib keladi:

O'quvchilarda qoniqish va quvonch paydo bo'ladi, jamoa ichida munosabatlar yaxshilanadi, ta'lim muhitining sifatini oshiradi, o'qituvchi va o'quvchilarga yangi ijodiy g'oyalar keltiradi, inson resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi va o'quvchilarning ilgari noma'lum iqtidorlari yuzaga chiqadi.

Tadqiqotlarimizga asoslanib, kouchingni ta'riflash uchun quyidagi fikrni keltirish mumkin: kouching – o'quvchining individual rivojlanishi (bilish, anglash, javobgarlik kabi) uchun yangi shakl bo'lib, bu ikki shaxsning ijodiy hamkorligi hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshiradi.[8]

Shuning uchun, ta'lim tizimiga yangi metodika sifatida kouchingni joriy etish va o'qituvchilar tomonidan uni mukammal o'rganish juda muhimdir. Bu ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish va o'quvchilarning kompetensiyalarini yanada oshirishga yordam beradi.

Darsga kelganda, har bir o'quvchi 5-7 daqiqa davomida o'z fikrlarini bayon etadi va tushunmagan joylarini o'qituvchidan so'raydi. Yangi dars esa muhokama va savol-javob tarzida o'tkaziladi. O'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini tinglaydi, xulosa qiladi va savollarga javob beradi. Dars boshida qisqa video taqdimot orqali o'quvchilarni mavzuga qiziqitirish. Masalan, tarix darsida muhim tarixiy voqeani yorituvchi dramatik video ko'rsatish. O'quvchilarga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqolalar yoki videolarni o'qish yoki ko'rish uchun uyga vazifa berish. Misol uchun, matematika darsida yangi formula yoki nazariyani tushuntiruvchi video. Guruh ishlarini tashkil etish. O'quvchilar bir-biriga yangi o'rganilgan narsalarni tushuntirishadi va savol-javob orqali fikr almashishadi. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan prezentatsiyalar yoki loyiha taqdimotlari orqali o'z bilimlarini amalda namoyish etish imkonini yaratish.[9]

Boshqaruvchi ta'limda o'quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantirish faqat turli topshiriqlarni bajarish orqali emas, balki sinfdoshlar va ota-onalar bilan muloqot jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Bu holda, o'qituvchi shunday sharoit yaratishi lozimki, bunda nazariy tayyorgarlik, faoliyatni (o'quv-boshqaruv, o'quv-axborot, o'quv-mantiqiy) mustahkamlashning ijtimoiy ahamiyati ochib beriladi. Masalan, ishchan o'yinlar va loyihalarni amalga oshirish orqali.

Prognozlash va rejalashtirish: PIRLS baholash dasturi talablariga muvofiq, muammoli vaziyatlarni dastlabki tahlil qilish, faoliyat bosqichlari ketma-ketligini aniqlash va kerakli vositalarni tanlashga imkon beradi. Shuningdek, muammolarni anglash, zaruriy o'zgarishlarni kiritish va kutilayotgan natijalarni oldindan bilish imkonini beradi.

Tushunchalarni tabaqalashtirish, ularni klassifikatsiya qilish, konkretlashtirish va amaliy qo'llash jarayoni amalga oshiriladi. Boshqa sinf o'quvchilarining faoliyati "abstraktlardan konkretlarga" va "umumiydan xususiyga" tamoyiliga muvofiq tuziladi. PIRLS baholash dasturiga tayyorgarlik ko'rish uchun tavsiya etilgan 4-mashq daftari ikkinchi qismida "Ulkan tish sirlari" axborot matni uchun tavsiya etilgan topshiriqlarda tushunchalarni tabaqalashtirish va ularni klassifikatsiyalash aks etgan.[10]

Yakuniy-refleksiv bosqich: PIRLS baholash dasturi talablariga asoslanib, muammoli vaziyatlarni hal qilish bo'yicha olingan natijalar tahlil qilinadi, tuzatishlar kiritiladi va xatolar ustida ishlanadi. Asosiy rol o'quvchining o'zini-o'zi rivojlantirishga va o'zini-o'zi o'qitishga tayyorligi bilan bog'liq bo'lgan o'quvchilarning to'g'ri o'zini-o'zi baholashidir.

Uchinchi shart: O'quvchilarni loyihalashtirish faoliyatiga jalb etishdir. N.B. Krylova ta'kidlaganidek, maktablarning ta'lim muhitida loyihalashtirish jarayonida o'quvchilarda ta'lim

vaziyatlariga qiziqish uyg'otilishi zarur. I.D. Chechel loyihalashtirishning 6 ta bosqichini ajratib ko'rsatadi. Loyihalashtirish faoliyatida o'quvchilarning mustaqil ishlariga (individual, juftli, guruhli) e'tibor beriladi. "Loyihalashtirish faoliyati" tushunchasining psixologik-pedagogik tahliliga ko'ra, bu faoliyat turi o'zini-o'zi rivojlantirishga imkon beradi. O'zini-o'zi rivojlantirishning ichki va tashqi mexanizmlari mavjud bo'lib, mustaqil ish jarayonida loyiha amalga oshirilganda subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning rivojlanishini oldindan ko'rishga imkon beradi.

Insonning bilishga qiziqishi – bu tabiiy bir intilish bo'lib, uni umri davomida qondirib borish zarur. Ushbu ehtiyojni qondirish ta'lim muassasalarida, xususan, dars mashg'ulotlarida maqsadli ravishda amalga oshirilishi va kuchaytirilishi kerak.[11]

O'quvchilarda bilishga qiziqishni oshirish uchun o'qituvchi quyidagi usullardan foydalanishi samarali bo'lishi mumkin:

1. Barcha o'quvchilar uchun qulay topshiriqlar tayyorlab, ularni muvaffaqiyatli bajarishga yo'naltirish. Masalan, guruh ishlarida har bir o'quvchining ishtirok etishi va muvaffaqiyatlarini nishonlash.

2. Oldingi bilimlarga asoslanib, yangi materialni o'rganish jarayonida o'quvchilar o'z bilimlarini yangilash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

3. Darsda ijobiy emotsional muhitni shakllantirish. O'qituvchi o'z nutqida ishonchni va hissiyotlarni keltirib chiqaradigan uslublardan foydalanishi kerak.

4. O'quvchilarning faoliyatini baholashda o'z va boshqalar faoliyatini tahlil qilish. Savollar berish orqali refleksiyaning kuchaytirish: "Nimaga qiyin bo'ldi?", "Darsda nimani bildingiz?" kabi savollar.

5. Darsni musiqali fragmentlar, o'yinga oid faoliyatlar va musobaqalar orqali qiziqarli qilib boshlash.

Ta'lim olish maqsadlarini anglash va amalga oshirishda o'qituvchining quyidagilarni qo'llashi maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchilarga keyingi faoliyat maqsadlarini mustaqil aniqlashda yordam berish. Misol uchun, yangi topshiriqlar berish va ularda o'rganilmagan metodlarni kashf etishga undash.

2. O'quvchilarga turli darajadagi topshiriqlardan tanlash imkoniyatini berish. Bu dars jarayonida hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. O'quvchilarga muammolarni hal qilishda to'g'ri va noto'g'ri reaksiyalarni ko'rsatish, xatoliklarni aniqlash va keyingi faoliyatni belgilash.

4. O'quv materialini konkret hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash orqali o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini oshirish. Misol uchun, iqlim va geografiya darsida "Sovuq mintaqalardagi o'ziga xos jihatlar" mavzusida o'quvchilardan o'z misollarini keltirishini so'rash.

5. O'quvchilarga mustaqil ravishda ma'lumot to'plash va o'rganilgan ma'lumotlarni baham ko'rish imkonini berish. Misol uchun, ijtimoiy masalalar yoki ekologiya mavzularida mustaqil tadqiqotlar o'tkazish.[12]

Xulosa. O'quv vazifalarini mustaqil aniqlash, o'quv faoliyatining yangi usullarini egallash va o'z faoliyatini nazorat va baholash usullarini o'rganish muhimdir. Buning uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, birgalikda muammolarni hal qilishga yo'naltirish. Bu hamkorlik va jamoaviy fikrlashni rivojlantiradi. O'quv jarayoniga o'yinlar va musobaqalarni kiritish. Bu, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va faol ishtirok etishlariga yordam beradi. O'quvchilar bir-birlarining ishlarini tekshirish orqali o'z bilimlarini mustahkamlashadi va yangi fikrlarni qabul qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вазирлар Маҳкамасиниинг 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами.- Тошкент 2013. 20-сон, 2516.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
3. Akilov R “O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limda kompetensiya yondashuvlari” MDH Ta’lim Jurnal, 2023-y 9(2), Bet: 70-85.
4. Aliyev N “Mustaqil ishlar va kompetensiyalar: O‘zbekiston va boshqa MDH mamlakatlari tajribasi”. O‘zbekiston Ta’lim Innovatsiyalari jurnali, 2024-y 12(1), Bet: 60-75.
5. Anderson C. “Early grade mathematics assessments”. Boston, 2019, 91-bet.
6. Anderson J. “Educational sampling methods”. Boston, 2021, 45-bet.
7. Anvarov S., 2024, O‘qitish metodikasi va pedagogika, Tashkent, 78-bet
8. Akramov, Bilim jarayonlari va qiziqish, Samarqand, 2024, s. 120
9. Bairamova M “Mustaqil ishlar yordamida o‘quvchilar kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi: Qozog‘iston tajribasi”. Qozog‘iston Ta’lim Tadqiqotlari nashriyoti. 2024-yil Bet: 35-50.
10. B.X.Xodjiyev. “O‘quvchilarning tarixiy tafakkuri shakllantirishda mustaqil ishlardan foydalanish texnologiyasi” Xalq ta’lim jurnali. T.2011 y. 3-son.
11. <https://iro86.ru/index.php/rcoko/otsenka-kachestva-obrazovaniya/4626-mezhdunarodnye-issledovaniya-timss-pisa-2>
12. <https://timssandpirls.bc.edu/pirls2021/>
13. <https://www.iea.nl/studies/iea/pirls/2021>

“BOLALAR ADABIYOTI” FANI TA’LIM MAZMUNIDA MUSTAQIL TA’LIM VA O’QUV TOPSHIRIQLARI ILMIY-METODIK MUHITINI TASHKIL ETISH USULLARI

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ СРЕДЫ ДЛЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО СОДЕРЖАНИЮ ОБРАЗОВАНИЯ ПО ПРЕДМЕТУ «ДЕТСКАЯ ЛИТЕРАТУРА»

METHODS OF ORGANIZING A SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ENVIRONMENT FOR INDEPENDENT LEARNING AND EDUCATIONAL TASKS IN THE EDUCATIONAL CONTENT OF THE SUBJECT “CHILDREN'S LITERATURE”

Axmedova Malohat Ergashevna, Raximova Gulbaxor Karshibayevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga bolalar adabiyoti fani asosida mustaqil ta’lim va o‘quv topshiriqlari, didaktik bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan integrativ texnologiyalar, ilmiy-metodik muhitni tashkil qilish, adabiy ta’limga oid malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirish usullari yoritib berilgan. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlaridagi bolalar obrazi, ularning o‘ziga xos xarakter, xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, o‘quv topshiriqlari, ilmiy-metodik muhit, didaktik bilim, integrativ texnologiyalar, adabiy ta’lim, usul, bolalar obrazi.*

Аннотация. В статье представлена информация о самостоятельных учебно-методических заданиях будущих учителей начальных классов по предмету «Детская литература», интегративных технологиях, направленных на усвоение дидактических знаний, организацию научно-методической среды, а также о методах повышения их квалификации и мастерства в области литературного образования. Анализируется образ детей в творчестве Худойберди Тохтабоева, их неповторимые характеры и особенности.

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, учебные задачи, научно-методическая среда, дидактические знания, интегративные технологии, литературное образование, метод, образ детей.*

Abstract. This article provides information on independent learning and teaching tasks for future primary school teachers based on the subject of children's literature, integrative technologies aimed at mastering didactic knowledge, organizing a scientific and methodological environment, and methods for improving their qualifications and skills in literary education. The image of children in the works of Khudoyberdi Tokhtaboyev, their unique character and features are analyzed.

Keywords: *independent learning, learning tasks, scientific and methodological environment, didactic knowledge, integrative technologies, literary education, method, image of children.*

Axmedova M.E.

*Toshkent amaliy fanlar
universiteti,
pedagogika fanlari doktori,
professori
maloxata959@gmail.com*

Raximova G.K.

*O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent
rahimovagulbaho17@gmail.com*

KIRISH. Bolalar adabiyoti ta'lim mazmuni asosida didaktik bilimlarni o'zlashtirishlariga yo'naltirilgan integrativ texnologiyalar ilmiy-metodik muhitni tashkil qilish, adabiy ta'limga oid malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi va o'quv jarayonidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik ta'lim jarayonida adabiy ehtiyojlarini oshiradi. Pedagogik kompetensiyani rivojlantirishda Bolalar adabiyoti fani asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integrativ texnologiya asosida o'rgatish va o'zgarishlarga e'tibor berish lozim.

TADQIQ VA TALQIN. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar adabiyoti ta'lim mazmunida o'quv va mustaqil ta'lim topshiriqlarini takomillashtirish metodikasida aynan didaktik yondashuv asosida o'qitish, o'quv materiallarni o'zlashtirishda integrativ yondashuvning quyidagi tamoyillariga asoslanish maqsadga muvofiq:

- pedagogik muvofiqlik tamoyili;
- ijodkorlik tamoyili;
- o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirish tamoyili;
- shaxsning o'zini namoyon qilish tamoyili;
- adabiy muloqot tamoyili;
- ijodkorlik tamoyili.

Adiblar bolalarga kitob yozish uchun asar tugagunga qadar o'zlari ham bola bo'lib qolmog'i zarur. Masalan, "Sariq devni minib" romanida bolalarga xos yumoristik usbullardan foydalanilgan. Xudoyberdi To'xtaboyev romanida Hoshimjonni sho'x, quvnoq, har ishda adolatli bo'lishiga qaramay, hazil qilishni yoqtiruvchi obraz sifatida dunyoga keltiradi. Ba'zan Hoshimjon turli vaziyatlardan chiqib ketish maqsadida odamlarga quvonch ulashishi romanning yumorga boy asar bo'lishiga zamin yaratgan. Romanni mutolaa qilayotgan kishi Hoshimjonning o'zi bilgan va bilmagan holda mutoyibali vaziyatni keltirib chiqargan voqealar terilgan satrlarni o'qir ekan, beixtiyor yuziga tabassum yuguradi va xayolan roman qahramonlari kabi, dunyo tashvishlaridan holi bo'lgan bolalikka bir zum bo'lsa ham qaytadi. Maktab darsliklarini o'zlashtirishga anchagina sust Hoshimjonning eng yomon ko'rgan algebra darsida o'qituvchi Qobilovning o'quvchilarga nisbatan talabchanligi qahramonni ko'p qiynar, hamisha o'rtog'i Orifdan uy vazifalarini dakki eshitmaslik uchun ko'chirar, algebra fanini esa maktab darsliklari qatoridan olib tashlanishini chin dildan xohlar edi. "Darsda Qobilovning nazariga tushgach, o'qituvchining savol bilan murojaatiga Hoshimjonning yakka-yu yagona najotkori Orifning bu galgi shivirlashi yaxshi eshitilmaganligidan "teng" so'zi o'rniga "eng" deb aytishi butun sinfning gurillab kulishiga zamin yaratdi" [1.10].

Hoshimjonning o'zi ham sinfga qo'shib mazza qilib kuladi, lekin shu fursatda butun sinfning kayfiyati ko'tarilishiga sababchi bo'lganini qahramonimiz bilmas edi. Shunchaki, Hoshimjon hech qaysi fandan a'lo o'qimay turib ham, biror kasbni egallashiga qattiq ishonardi va shuning uchun ham darslarni o'zlashtirishga qiziqishi yo'q edi, xolos. Romanning yana bir shunday yumorga boy voqeasi borki, buni asarning kulminatsion nuqtasi deya aytish mumkin. "Katta odam bo'lish maqsadida uyidan bosh olib chiqib ketgan qahramonimiz, sehrli qalpoqchasi ko'magi bilan Mirzacho'dagi katta brigadaga agronomlik qilayotib, paxtazorlarni aylanib yurgan bir paytda qo'llarini bir-biriga pahas qilib bahslashayotgan ishchilarga duch keladi va ular Hoshimjondan kompost haqida ma'lumot berishini so'raydi" [2.33].

Agronomlik bo'yicha hech qanday bilimga ega bo'lmagan qahramonimiz kompost o'rniga mevalardan tayyorlanadigan kompot haqida maruza qilishni boshlagach, ishchilar davrasida kulgi ko'tariladi, Hoshimjon ham ularga qo'shib qah-qah otib kuladi, afsuski bu safar ham odamlar o'rtasida mazah bo'lganini Hoshimjonning o'zi ham bilmaydi. Katta davrada so'ralgan mavzudan tashqari maruza qilish kulgili holat, albatta. Bu orqali Hoshimjon yana uquvsizligiga qaramay ko'pchilikning

kayfiyatini ko‘taradi. Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, asarga ishlangan teleko‘rsatuvda xuddi mana shu parcha orqali ko‘pchilik tomoshabinlar romanni esga olishadi. Maqsadiga erishish yo‘lida harakatdan charchamaydigan Hoshimjon bu gal qalpoqchasi ko‘magida injenerlik kasbini egallab, “ajoyib” bir binoni qad ko‘tartiradi. Bu ko‘p qavatli binoning g‘aroyibli shundaki: kanalizatsiyasi o‘rnatilmagan, yo‘lga ko‘ndalang qurilgan va eng asosiysi gugurt qutisi kabi hech bir xonaga eshik qo‘yilmagan edi. Bu holatdan qabul marosimiga kelgan odamlarning qah-qahasi osmonni larzaga keltirardi. Hoshimjonning bilim sizligi tufayli bunyod qilingan bu binoni tasavvur qilishning o‘zi inson yuziga tabassum olib keladi. “Ko‘p irim-sirimlarga ishonadigan Bibirobiya buvi laylatul-qadr kechasida qo‘shni Buvotin xola, Orifning onasi Obida opa, farzandsizlikdan qiynalgan Hojarxon opalarga Laylatul-qadr nimani ushlasa shu narsa oltinga aylanishini va nimaiki so‘ralsa hammasini ijobat qilishini so‘zlab berar ekan, ayni suhbat qizg‘in mahal ko‘chadan sharpa tovushi eshitiladi va birdan Hojarxon opa sharpaning oyoqlarini quchoqlab tilaklarini ayta boshlaydi, ketidan Obida opa Laylatulqadri birinchi ko‘rganini ta‘kidlab, sharpani ikkalasi talasha ketadilar”[3.108]. Qizig‘i, bu sharpa shunchaki fermadan qaytayotgan Bekodoblik Abduqodir edi, xolos. Qishloq ayollari shunchalik sodda va ishonuvchanki, bunday to‘qimalarni chin deb qabul qiladilar, biroq ular faqat yaxshilik xohlaydilar, nimaiki tilasalar o‘zi uchun emas, balki oila a‘zolari uchun, yaqinlari uchungina tilaydilar. Yangi o‘quv yilini yana oltinchi sinfda qaytadan o‘qishga bel bog‘lagan Hoshimjon darslarning birinchi kunida sinfdoshi Akromning ham singlisi Hojar maktabga ilk qadam qo‘ygandi. Hojarning dars mobaynida eshikni sekin ochib Akromga “Aka, mening familiyam nima bo‘ladi?” degan murojaati maktab chog‘larimizni esga tushirishi aniq.

Bu misralarni mutolaa qilar ekanmiz, bolalikning hech qanday g‘arazsiz, beg‘ubor davr ekanligiga yana bir bora amin bo‘lamiz. “3-4 kunlab maktabga bormay Hoshimjonning Akrom bilan birgalikda laycha va bo‘ri bolasini qo‘lga o‘rgatib, sirk uyushtirish harakatlari bo‘ri bolasining qochib ketishi bilan barbod bo‘lgach, masxaraboz kabi yuzining yarmini siyoh bilan qolgan yarmini esa un bilan bo‘yab, paxta tiqib tayyorlangan rang-barang kiyimlarni kiyib olgan holda uyiga kelganda, maktabga bormayotganligi sababli yo‘qlab kelgan kuratori Vohid Soliyevich, vojatiyi Zokirjon aka va Ro‘ziboy akalar biroz sarxushligidan Hoshimni ko‘rib orqaga tisarilishi uni hayron qoldiradi. Romandagi yumorga boy bo‘lgan bir-biridan qiziqarli voqealar beg‘ubor yoshlikning timsolidir va bu o‘quvchining asarga bo‘lgan qiziqishini boyitishga ko‘maklashadi. Hoshimjonning boshdan kechirgan sarguzashtlari mobaynida o‘zi bilgan va bilmagan holda pozitiv muhitni vujudga keltirishi atrofidagi insonlarga bir dunyo quvonch ulashibgina qolmay, ularga o‘qimay turib odam bo‘lish mumkin emasligini hayot tajribalari yordamida o‘zida isbotlab beradi. Uchta erkak kishini bu holatga tushishiga qaraganda, Hoshimjonning tashqi ko‘rinishini ko‘z oldingizga keltirsangiz kulgingizni qistashi turga gap. Darhaqiqat, soddalik bilan yo‘g‘rilgan ushbu romanda keltirilgan qator komediyalar mutolaa qiluvchilarni asar voqealari bilan birgalikda hamohang tabassum qilishga undaydi, kayfiyatni ko‘taradi.

Pedagogika OTMda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriq ishlarini tashkil etishning asosiy shakllari quyidagi parametrlar bilan belgilanadi:

- fanning mazmuni;
- ta‘lim darajasi va ta‘lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarinig mustaqil ta‘lim va o‘quv topshiriq ishlarida ish yuklamasini soddalashtirish zarurati.

Ushbu parametrlarga asoslanib, o‘qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlarning klassik shakllari: tezislar; semestr topshiriqlari; kurs ishlari; kurs loyihalari; bakalavr, mutaxassis, attestatsiyasi hujjatlari.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriq ishlarini muhim tashkiliy momentlardan biri nazorat ishlarini mustaqil bajarish uchun vazifalarni tayyorlash bo'lib, uni tayyorlashda o'qituvchi quyidagi mezonlarga asoslanadi. Har bir topshiriqning ko'lami shunday bo'lishi kerakki, materialni puxta bilgan holda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriq ishlarini nazorat ishi uchun ajratilgan vaqt ichida vazifaning barcha savollariga javobni yozma ravishda bayon qilishga vaqt topishi kerak. Barcha vazifalarda taxminan bir xil qiyinchilik bo'lishi kerak.

Barcha muammoli xilma-xillik bilan har bir topshiriq juda aniq javoblarni talab qiladigan savollarni o'z ichiga olishi lozim. Har bir topshiriqda o'quv adabiyotlarida mustaqil o'rganiladigan material bo'yicha savol bo'lishi zarur. O'qilgan ma'ruza materiallari bo'yicha cheklangan miqdordagi savollar bilan to'liq bir xil savollarga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq vazifalar bo'lmasligi kerak. Maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatish ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar ishini ilmiy tashkil etish muhim tomonlaridan biridir. Unda foydalanilgan kasbiy yo'naltirilgan adabiyotlar sifatiga ma'lum bir pedagogik, metodik, didaktik talablar, shuningdek, o'quv jarayonini uslubiy tashkil etish talablari ko'zda tutilgan.

Birinchisi, o'z-o'zini o'rganish uchun mo'ljallangan matn materialini sinchkovlik bilan tanlash orqali ta'minlanadi.

Ikkinchisi, maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ishlash vazifalari va ko'nikmalari tizimini takomillashtirish ni o'z ichiga oladi. Quyidagi ko'nikmalarni ajratish mumkin. Birinchidan, axborot manbalarini qidirish qobiliyati, bir yoki bir nechta manbalarda kerakli ma'lumotlarni tanlash, tanlangan (tavsiya etilgan) nashrlarda yo'naltirish. Ikkinchidan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriq ishlari yuzasidan qiziqtirgan bosma materiallarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni semantik qayta ishlash ko'nikmalari.

Uchinchidan, har xil turdagi yozuvlar (reja, mavhum va boshqalar) yordamida undan keyingi foydalanish uchun ma'lumotni yozma ravishda yozib olish qobiliyati.). Yangi bilimlarni olish va ularni mustaqil egallash ko'nikmasini o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriq ishlarida turli mashqlarni bajarishi, tahliliy ishlarni bajarishi, tarqatma materiallar bilan ishlash asosida amalga oshiriladi. Bunday ishlardan biri hozirgi kunda keng qo'llaniladigan loyiha texnologiyasidir. Ushbu usulning afzalligi shundaki, ta'lim oluvchilar o'z ishlarining yakuniy natijasini ko'rishadi, ular loyiha mavzusini o'zlari tanlash imkoniyatiga ega. Loyiha ustida ishlash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan mustaqil ravishda rejalashtiriladi va amalga oshiriladi, bu ularni ijodiy fikrlashga, o'z harakatlarini mustaqil rejalashtirishga, oldida turgan vazifalarning mumkin bo'lgan yechimlarini bashorat qilishga o'rgatadi.

METODOLOGIK VA ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirishda pragmatik yondashuv, mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari ilmiy-metodik muhit va integrativ texnologiyalarni tashkil etish usullarini amalga oshirish bilan bog'liq dolzarb muammolar alohida o'rin tutadi. Bu jihatdan qaraganda, olimlar tomonidan o'rganilgan tajribalar e'tiborga molikdir, jumladan, II.A.Zimnyayaning ta'kidlashiga ko'ra, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning navbatdagi jihati turli tanlovlar va pedagogik olimpiadalar o'tkazishdir. Ularni amalga oshirish jarayonida tashkiliy masalalarni hal qilish mumkin: o'zingizni o'lchash, bilimingizni sinab ko'rish, yangi narsalarni o'rganish istagi. Bu talabalar faoliyatiga ongli ravishda g'ayratli va kasbiy yo'naltirilgan xarakter beradi [4.6].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim va o'quv topshiriq ishlarini boshqarish o'qituvchi uchun o'z-o'zidan maqsad bo'lmasligi kerak, balki ta'lim oluvchining o'quv

faoliyatida ragʻbatlantiruvchi omil boʻlishi lozim. T.B.Panfilovning taʼkidlashicha, taʼlimning asosiy vazifasi mintaqa, mamlakat iqtisodiyoti uchun raqobatbardosh oʻrta darajadagi mutaxassisni tayyorlashdir. Bugungi kunda kasb-hunar taʼlimida yangi davlat taʼlim standartlarini muvaffaqiyatli joriy etish asosida mutaxassislarni tayyorlashda vakolatlarga asoslangan yondashuv qoʻllaniladi. Kompetentlik yondashuvi talabani nafaqat mutaxassis, oʻz sohasidagi professional, balki shaxs va jamoa, jamiyat aʼzosi sifatida har tomonlama oʻqitish va tarbiyalash gʻoyasi bilan bogʻliq [5.37]. Ushbu metodik-didaktik yondashuvning mohiyati nafaqat taʼlim oluvchiga kasbiy vazifalarni bajarishda bilim, koʻnikma, amaliy tajriba toʻplamini oʻtkazish, balki ufqlarni rivojlantirish, fanlararo qobiliyat, individual ijodiy yechimlar qobiliyati, oʻz-oʻzini oʻrganish, shuningdek, gumanistik qadriyatlarni takomillashtirish vazifalarini bajaradi.

Xulosa. “Bolalar adabiyoti” fani taʼlim mazmunida mustaqil taʼlim va oʻquv topshiriqlari ilmiy-metodik muhitini tashkil etishda vazifalarni loyihalash, nazoratni tashkil etish, bosqichlarni aniqlash, nazoratning alohida shakllarini rivojlantirish kabi usullar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil taʼlim va oʻquv topshiriq ishlari mazmunini tanlash uchun Davlat taʼlim standarti, oʻz-oʻzini tarbiyalash manbalari (maxsus ilmiy adabiyotlar, tajriba, introspeksiya), taʼlim oluvchularning individual-psixologik xususiyatlari (oʻrganish qobiliyati, oʻrgatish qobiliyati, aql-idrok, motivatsiya, oʻquv faoliyatining xususiyatlari) asos boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toʻxtaboyev X. Sariq devni minib. Roman. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2010. – 272 b.
2. Toʻxtaboyev X. Sariq devni minib. Roman. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2010. – 272 b.
3. Rahimova G., Raximboyeva S. Expression children’s of humoristic spirit in the novel “Riding the yellow giant” // Journal of iqro. Volume 8, issue 2, 2024. – P. 107-110.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции-новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – М. 2003. №5.
5. Панфилова Т.Б. Самостоятельная в неаудиторная работа, как механизм формирования общих компетенций / Т.Б.Панфилова. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – № 17.1 (121.1). – С. 37-46.

**EKSPERIMENTAL-TADQIQOT FAOLIYATI – FIZIKA DARSLARIDA
O‘QUVCHILARNING BILIMINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA****ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ - КАК
СРЕДСТВО УЛУЧШЕНИЯ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ФИЗИКИ****EXPERIMENTAL RESEARCH ACTIVITY AS A MEANS OF IMPROVING STUDENTS'
KNOWLEDGE IN PHYSICS LESSONS**

Alimov Asadulla Urokbayevich

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika fanida eksperimental-tadqiqot faoliyatining o‘quvchilarning bilish jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Eksperimental faoliyat o‘quvchilarning kuzatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fizika darslarida eksperimental-tadqiqot metodlarini qo‘llash o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirish va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi. Eksperimental mashg‘ulotlarning turli bosqichlari va ularni samarali tashkil etish usullari tavsiflanadi. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab tajribalar va ularning ta’lim jarayoniga ta’siri muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Fizika fani, eksperimental-tadqiqot faoliyati, o‘quvchilar qiziqishi, ilmiy tafakkur, eksperiment, tadqiqot metodologiyasi, o‘qitish usullari, laboratoriya ishlari, bilish faoliyati, amaliy mashg‘ulotlar.

*Alimov A.U.,
O‘zbekiston-Finlandiya
instituti mustaqil
izlanuvchisi,
asadullaalimov0@gmail.com*

Аннотация. В данной статье анализируется влияние экспериментально-исследовательской деятельности в физике на познавательный процесс учащихся. Экспериментальная деятельность способствует развитию таких навыков, как наблюдение, анализ, формулирование выводов. Результаты исследования показывают, что применение экспериментально-исследовательских методов на уроках физики повышает интерес учащихся к предмету, развивает их научное мышление и способствует глубокому усвоению знаний. Описываются различные этапы экспериментальных занятий и методы их эффективной организации. Также обсуждается влияние экспериментов на образовательный процесс с учетом возрастных особенностей учащихся.

Ключевые слова: предмет физика, экспериментально-исследовательская деятельность, интерес учащихся, научное мышление, эксперимент, методология исследования, методы преподавания, лабораторные работы, познавательная деятельность, практические занятия.

Abstract. This article analyzes the impact of experimental research activities in physics on students cognitive processes. Experimental activities contribute to the development of skills such as observation, analysis, and drawing conclusions. The research results show that applying experimental research methods in physics

lessons increases students' interest in the subject, develops their scientific thinking, and promotes deep knowledge acquisition.

Various stages of experimental lessons and methods for their effective organization are described. The influence of experiments on the educational process is also discussed, considering students age-related characteristics.

Keywords: *physics subject, experimental research activities, student interest, scientific thinking, experiment, research methodology, teaching methods, laboratory work, cognitive activity, practical lessons.*

Fizika fanining amaliy jihatlaridan biri bu – o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini bilish jarayoni hamda eksperimental-tadqiqot faoliyati asosida rivojlantirishdan iborat.

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy sharoitlari shuni ko‘rsatmoqdaki, aniqlash, tasniflash, kuzatish, tavsiflash, baholash, tafakkur va harakatlarni tahlil qilish asosida xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Aynan shu ko‘nikmalarni rivojlantirishga darsda eksperimental faoliyatni tashkil etish yo‘naltirilgan.

O‘qitish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda eksperimental ko‘nikmalar va malakalar, tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha bilimlar yetarlicha shakllanmagan. Bu esa, oxir-oqibat, fizika fanining asoslarini chuqur anglab o‘rganishga to‘sqinlik qiladi va o‘quv jarayonida o‘quvchilarning passivligida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ushbu muammo asosiy maktab bosqichida dolzarb bo‘lib, aynan shu davrda asosiy eksperimental ko‘nikmalar shakllanadi va tadqiqotchilik madaniyati rivojlanadi. Ushbu muammoning hal etilishi fizika fani ta’lim jarayonining optimallashtirish xizmat qiladi [1].

O‘qituvchining vazifasi – o‘quvchilarda asosiy ilmiy tushunchalar va fizika qonunlarining o‘zaro bog‘liqligini anglashga qiziqish uyg‘otish hamda ularni jonli va jonsiz tabiatni eksperimental tadqiq qilishga o‘rgatishdir.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida 1-jadvalda fizika darslarida eksperimental-tadqiqot faoliyatining ahamiyati va shakllari tavsiflangan.

1-jadval

Fizika darslarida eksperimental-tadqiqot faoliyatining ahamiyati va shakllari

Eksperimental-tadqiqot faoliyati	Tavsif
Fizika fanining amaliy jihati	<i>O‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini eksperimental-tadqiqot faoliyati orqali rivojlantirish</i>
Zamonaviy jamiyat talab qiladigan ko‘nikmalar	<i>Aniqlash, tasniflash, kuzatish, tavsiflash, baholash, tafakkur va harakatlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish</i>
O‘quvchilarda kuzatiladigan muammolar	<i>Eksperimental ko‘nikmalar va tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha bilimlarning shakllanmaganligi</i>
Muammo natijalari	<i>Fizika asoslarini chuqur o‘rganishda qiyinchilik, o‘quvchilarning passivligi</i>
Asosiy bosqichining ahamiyati	<i>Shu davrda asosiy eksperimental ko‘nikmalar shakllanadi va tadqiqotchilik madaniyati rivojlanadi</i>
O‘qituvchining vazifalari	<i>O‘quvchilarga fizika qonunlari o‘zaro bog‘liqligini tushuntirish, jonli va jonsiz tabiatni tadqiq qilishga o‘rgatish</i>

Eksperimental faoliyatni tashkil etish bosqichlari	<i>Fizika nazariyasini o‘rganish, ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, bilimlarni mustahkamlash va masala yechish</i>
O‘quvchilarning rivojlanishi	<i>Ilgari shakllangan tushunchalarni chuqurlashtirish, eksperiment bilan bog‘liq masalalarni mustaqil hal qilish qobiliyatini shakllantirish</i>
Eksperimental-tadqiqot faoliyatining shakllari	<i>Sinfda yoki uyda bajariladigan tezkor topshiriqlar, dars davomida bajariladigan topshiriqlar</i>
O‘qituvchining roli	<i>O‘quvchilar ish jarayonini nazorat qilish, yo‘naltirish va natijalarni tekshirish</i>
Faol eksperimental shakllar	<i>Ijodiy laboratoriya amaliyoti, ijodiy eksperimental topshiriqlar, uyga vazifa shaklidagi eksperimental topshiriqlar, individual o‘quv tadqiqoti, o‘quv-tadqiqot loyihasi</i>

O‘qituvchiga – o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, fizika kursini o‘rganishning dastlabki bosqichida mavzuning murakkabligi bilan ularni qo‘rqitmaslik kabi vazifalar qo‘yiladi.

Eksperimental-tadqiqot faoliyatini darsning turli bosqichlarida tashkil etish maqsadga muvofiqdir, masalan: fizika nazariyasini o‘rganishda, ilgari o‘zlashtirilgan qonunlarni takrorlashda, darsda olingan bilimlarni mustahkamlashda va masalalar yechishda. Bunda ilgari shakllangan dastlabki tushunchalar takomillashtiriladi, rivojlantiriladi va chuqurlashtiriladi, uskunalar bilan ishlash ko‘nikmalari va malakalari rivojlanadi, eksperiment bilan bog‘liq masalalarni mustaqil hal qilish qobiliyati shakllanadi [2].

Eksperimental-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda topshiriqlarning shakllari turlicha bo‘lishi mumkin. Ular sinfda yoki uyda tez va oson bajariladigan hamda butun dars davomida talab qilinadigan topshiriqlar bo‘lishi mumkin. Tadqiqot topshiriqlarini bajarishda barcha bosqichlarni o‘quvchilar mustaqil amalga oshiradilar. O‘qituvchining roli esa o‘quvchilarning ish jarayonini nazorat qilish, agar ular to‘g‘ri yo‘ldan chetga chiqsa, yo‘naltirish va yakuniy natijalarni tekshirishdan iborat.

Eksperimental faoliyatning faol shakllariga quyidagilar kiradi:

- ijodiy laboratoriya amaliyoti;
- ijodiy eksperimental topshiriqlar;
- uyga vazifa shaklidagi eksperimental topshiriqlari;
- individual o‘quv tadqiqoti;
- o‘quv-tadqiqot loyihasi.


Fizik tajribalardan foydalanilgan darslarda muammoni qo‘yish, tajriba sharoitlarini tahlil qilish va tajriba natijalaridan xulosa chiqarishni o‘rgatishga alohida e‘tibor berish lozim. Bu jarayon o‘quvchilar uchun oson kechmaydi, shuning uchun har bir tajribani bajarishdan oldin uning maqsadini tushunish darajasi tekshiriladi, ehtimoliy faoliyat yo‘nalishlari anglanganligi baholanadi hamda natijalarni oldindan taxmin qilish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Tajribani o‘tkazishdan oldin o‘quvchilarni tajriba yo‘li bilan hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammo mavjudligi haqidagi xulosaga keltirish kerak. Keyin esa tajriba o‘tkazish algoritmi birgalikda tuziladi, uning natijalari esa belgilangan muammoni hal qiladi. Mustaqil individual tajriba bajarilgandan so‘ng, olingan natijalar jamoaviy muhokama qilinadi va xulosalar shakllantiriladi [3].

Natijada eksperimental faoliyat ilgari olingan dastlabki tushunchalarni shakllantiradi, ular fizika o‘rganishni boshlashda barcha o‘quvchilarda bir xil va ilmiy bo‘lmasligi mumkin. Fizika kursi davomida

eksperimental-tadqiqot faoliyati o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, yangi fizik hodisalar va jarayonlar haqida dastlabki tushunchalarni shakllantiradi, qonuniyatlarni ochib beradi, tadqiqot metodlari bilan tanishtiradi, ishlatiladigan asboblardan va qurilmalarning tuzilishi hamda ishlashini ko'rsatadi, fizik qonunlarning texnik qo'llanilishini tasvirlaydi. Bularning barchasi o'rganilayotgan materialni aniqroq, tushunarliroq va ishonchliroq qiladi, o'quvchilarni bilish faoliyatiga undaydi.

Quyidagi rasmda fizika darslarida eksperimental-tadqiqot faoliyatining turli bosqichlarining ahamiyat darajasi ko'rsatilgan. Bu bosqichlar o'quvchilarning bilish faoliyatini oshirishda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.



1-rasm. Eksperimental-tadqiqot faoliyatining bosqichlari va ahamiyati

Shu bilan birga, tadqiqot vazifalari o'quvchilarning yoshiga mos bo'lishi – ishga bo'lgan qiziqish va bajarish imkoniyati ko'p jihatdan muvaffaqiyatni belgilaydi.

7-sinf o'quvchilarining mustaqil ravishda fizika fanidan tajribalarni bajarish ko'nikmasini shakllantirish jarayoni ular o'rganishi zarur bo'lgan eng oddiy amallarni bajarishdan boshlanadi, chunki bu amallar tajribani amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo, o'quvchilarni laboratoriya uskunalaridan foydalanishga o'rgatish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish, turli fizik kattaliklarni o'lchashda, asboblarning shkalasini o'lchash qobiliyatini rivojlantirish kerak [4].

7-sinfda o'quvchilarda eksperimentlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan fizik hodisalarni kuzatish va tavsiflash, taxminlar — gipotezalar bildirish, o'lchovlar va hisoblashlar natijalarini jadval va grafiklar shaklida taqdim etish kabi alohida amallarni bajarish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning bilish faoliyati darsda o'rganilayotgan hodisani tushunishdan iborat bo'lib, o'quvchilarda dastavval bilimlarni chuqurlashtirishga bo'lgan qiziqish yetishmaydi, bundan kelib chiqib, amaliy faoliyat jarayonida o'quvchiga savollar berishadi.

8-sinfda tajribalarni bajarish bo'yicha o'quv faoliyati ko'payadi, natijada o'quvchilar murakkabroq amallarni bajarish ko'nikmalarini egallashadi. Bunga gipoteza tuzish, tajriba o'tkazish jarayonini modellashtirish, shuningdek, tajriba uchun zarur bo'lgan asboblardan va materiallarni aniqlash kabi punktlar kiradi.

Keling endi 8-sinfda elektr energiyai bilan bog'liq eksperimentlar haqida to'xtalib o'tsak. Quyidagi jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qilib ko'ramiz (2-jadval).

Elektr energiyai bilan bog‘liq eksperimetlar o‘tkazish tartibi

Elektr zanjirini tuzish:	
Maqsad	Elektr zanjirining asosiy elementlarini o‘rganish.
Asbob-uskunalar	Quvvat manbai (batareya), simlar, lampochka, kalit, multimetr
Tavsif	Elementlarni zanjirda ulab, lampochka yoqilganda yoki kalit yordamida o‘chirilganda qanday harakat qilishini tekshiring va tok kuchlanishini o‘lchang.
Tok o‘tkazgich materiallarning qarshiligini o‘lchash:	
Maqsad	Qarshilik materialga qarab qanday o‘zgarishini bilish.
Asbob-uskunalar	Multimetr, turli sim namunalar (mis, alyuminiy, nikelli va boshqalar).
Tavsif	Turli xil tok o‘tkazgich materiallarning qarshiligini o‘lchang va natijalarni taqqoslang. Simning uzunligi va kesimi qarshilikka qanday ta’sir qilishi haqida muhokama qiling.
Elektrostatik zaryadlarni o‘rganish:	
Maqsad	Elektrostatik hodisalarni tushunish.
Asbob-uskunalar	Plastik tayoq, jun gazlamalar, qog‘oz kichik qismlari (masalan, qog‘oz parchalar).
Tavsif	Tayoqni jun gazlamaga ishqalang va uni qog‘oz kichik qismlariga yaqinlashtiring. Qanday qilib ular tortilishi haqida kuzating va bu hodisani izohlang.
Paralel va ketma-ket ulanishlarni o‘rganish:	
Maqsad	Elektromagnit qanday ishlashini o‘rganish.
Asbob-uskunalar	Misga o‘xshash, izolyatsiyalangan sim, batareya.
Tavsif	Simni metal tayoqchani atrofida o‘rab, uni batareyaga ulanganingizda, metal tayoqcha qanday qilib kichik metall buyumlarni tortib olishini tekshiring.

Ushbu eksperimentlar o‘quvchilarga, elektr va uning xususiyatlari haqidagi bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi. ***O‘quvchilar doimo elektrik jixozlar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga amal qilishlari shart!***

9-sinf oxirida o‘quvchilarda fizik qonunlarni va fizik kattaliklar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni eksperimental ravishda tekshirish, o‘rganilayotgan hodisalarni modellashtirish, texnik qurilmalar tuzilishi va ishlash prinsipini o‘rganish kabi eksperimental faoliyat ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘quvchilarning bilish faoliyati oshadi, dastlab ular o‘qituvchidan yoki boshqa manbalardan o‘rganilayotgan hodisaning yuzaga kelish sababini bilishga intilishadi. So‘ngra hodisaning mohiyatiga chuqurroq kirish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash usullarini o‘zlashtirish, qiziqtirgan savolga javobni mustaqil ravishda izlash istagi paydo bo‘ladi [5].

Yuqori sinflarda o‘quvchilarning bilish faoliyati yanada oshadi: ular o‘qituvchidan yoki boshqa manbalardan o‘rganilayotgan hodisaning yuzaga kelish sababini bilishga intilishadi, faqat hodisalarning mohiyatiga va ularning o‘zaro bog‘liqligiga chuqur kirib borish bilan cheklanmay, balki yangi tushunish usulini topishga harakat qiladilar, natijada bilim olishga qiziqishlari shakllanadi.

Shunday qilib, o‘quvchilarda bilish faoliyatining shakllanishi dinamikasi, ya’ni, savoldan – faoliyatga, kuzatishdan – tadqiqotga o‘tish kuzatiladi. O‘quvchida quyidagicha o‘quv-bilish faoliyatlari

shakllanadi, binobarin: o'quvchi tadqiqot - eksperiment o'tkazishga, yo'nalishni tanlashga, ilmiy sohada ishlashga tayyor bo'ladi, fan olimpiadalari va tanlovlarda qatnashishni xohlaydi. O'quvchi ijodiy o'quv-bilish faoliyatining yangi darajasiga o'tadi, bu esa uning shaxsiy rivojlanishidagi katta sakrashni ko'rsatadi.

Ta'riflangan eksperimental-tadqiqot faoliyatini tashkil etish o'quvchilarning motivatsiyasini va o'quv faoliyatining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Tadqiqot ishlari jarayonida bolalarning deyarli barcha qobiliyatlari talab qilinadi, turli bilish faoliyatlari turlarini birlashtiradi. Eksperimental-tadqiqot faoliyati o'quvchilarni ijodkorlikka undaydi, ularning oldindan kasbiy yo'naltirishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Леонтович А.В., Саввичев А.С. Исследовательская и проектная работа школьников. 5–11 классы / под ред. А.В. Леонтовича. — М.: ВАКО, 2014. — 160 с.
2. Майер, В.В. Против формализма в преподавании физики / В.В. Майер // Физика в школе, 2011. — №7. — С. 51–60.
3. Хорошавин, С.А. Демонстрационный эксперимент по физике в школах и классах с углублённым изучением предметов: Механика. Молекулярная физика: Кн. для учителя / С.А. Хорошавин. — М.: Просвещение, 1994. — 368 с.
4. Шамова, Т.И. Активизация учения школьников [Текст] / Т.И. Шамова. — М.: Педагогика, 2012. — 208 с.
5. Щукина, Г.И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе [Текст]: учеб. пособие для пед. институтов / Г.И. Щукина. — М.: Просвещение, 2011. — 160 с.

**CHORRAHADAGI HARAKATNI TAVSIFLOVCHI MATEMATIK MODELLARIGA OID
MASALALARNI YECHISH METAODIKASI****METHODOLOGY FOR SOLVING PROBLEMS RELATED TO MATHEMATICAL
MODELS DESCRIBING TRAFFIC AT INTERSECTIONS****МЕТОДИКА РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ, СВЯЗАННЫХ С МАТЕМАТИЧЕСКИМИ
МОДЕЛЯМИ, ОПИСЫВАЮЩИМИ ДВИЖЕНИЕ НА ПЕРЕКРЕСТКЕ**

Darmonova Adolat Bahodir qizi

Annatsiya: Maqolada shahar muhitida transport oqimlarini optimallashtirish uchun statistik yondashuv asosida matematik model taqdim etilgan. Ushbu model transport svetoforlarining ish bosqichlarini o'zgartirish orqali genetik algoritm yordamida transport oqimlarini optimallashtirish imkonini beradi. Transport tarmog'ining kirish nuqtalarida avtomobillarning paydo bo'lishi eksponensial taqsimot qonuniga bo'ysunishi aniqlangan. Transport oqimining xizmat ko'rsatish intensivligi bilan svetoforning yashil signali vaqti o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan. Amaliy hisob-kitoblar optimallashtirish modelining transport boshqaruvida qo'llanilishi mumkinligini tasdiqladi.

Kalita so'zlar: *deterministik va statistik, matematik modellashtirish metodlari, svetafor, transport vostalari, tirbandlik.*

Abstract : The article presents a mathematical model based on a statistical approach to optimize traffic flows in an urban environment. This model allows optimizing traffic flows using genetic algorithms by adjusting the operational phases of traffic lights. It was determined that the appearance of vehicles at the entry points of the transport network follows an exponential distribution law. The relationship between the service intensity of traffic flow and the green signal time of the traffic light was identified. Practical calculations confirmed the applicability of the optimization model in traffic management.

Keywords: *deterministic and statistical, mathematical modeling methods, traffic light, vehicles, congestion.*

Аннотация. В статье представлена математическая модель, основанная на статистическом подходе, для оптимизации транспортных потоков в городской среде. Эта модель позволяет оптимизировать транспортные потоки с использованием генетических алгоритмов путем изменения рабочих фаз светофоров. Установлено, что появление автомобилей на входных точках транспортной сети подчиняется закону экспоненциального распределения. Выявлена зависимость между интенсивностью обслуживания транспортного потока и временем зеленого сигнала светофора. Практические расчеты подтвердили применимость модели оптимизации в управлении транспортом.

Darmonova A.B.,

*Chirchiq davlat pedagogika
universiteti,*

adolatdarmonova265@gmail.com

Ключевые слова: детерминированные и статистические методы, математическое моделирование, светофор, транспортные средства, заторы.

Kirish. Shahar muhitida transport oqimlarini boshqarish aqlli shahar tizimining ishlashi uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1]. Ushbu muammoning yechilishi aholi turmush sifatiga ta'sir qiladi [2] va aksariyat fuqarolarning manfaatlariga daxldor bo'ladi.

Bunda Moodle, Google Classroom yoki Microsoft Teams [4] kabi onlayn platformalar yordamida dars materiallarini tarqatish, topshiriqlarni nazorat qilish va o'zaro fikr almashish, PowerPoint yoki Prezi orqali vizual taqdimotlar tayyorlash, diagramma va grafiklarni ko'rsatib, mavzuni tushuntirishni osonlashtirish, YouTube, Khan Academy kabi platformalarda mavzu bo'yicha tayyorlangan darslarni tomosha qilish, Kahoot yoki Quizizz kabi dasturlar orqali o'yin formatida bilimlarni mustahkamlash va testlardan o'tish, interaktiv materiallardan foydalangan holda darslarni yanada qiziqarli qilish, harflarni to'g'ri talaffuz qilish va o'qish malakasini shakllantirish uchun audiokitoblar yoki maxsus ilovalardan foydalanish, Lingokids, ABCmouse [5] kabi dasturlar yordamida o'quvchilarga o'yinlar orqali o'qish va o'rganish jarayonini qiziqarli qilish, PowerPoint yoki Canva yordamida o'z hikoyalarni yaratish va taqdim qilish, Alifboni o'rgatish yoki kichik hikoyalarni tushuntirish uchun qiziqarli multfilmlar va animatsiyalardan foydalanish imkoniyati mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak boshlang'ich sinflarda innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib interfaol darslarni tashkil etish o'quvchilarda fanni o'rganishga qiziqishni oshiradi, fanni bilish ehtiyojini shakllantiradi, bilish faoliyatini faollashtiradi, individuallik darajasini



oshiradi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi, AKT vositalarini ishlashga o‘rgatadi, o‘z-o‘zini nazorat qilishni ta‘minlaydi, baholash jarayonini optimallashtiradi, tasavvurini kengaytiradi, erkinligini ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hayitov A.G‘. Ta‘lim jarayonini kompyuterlashtirish. // Usuliy qo‘llanma. – Buxoro, 2019.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste‘dod” jamg‘armasi, 2008.
3. Botirov D.B., Egamqulov Sh.A., Botirova Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axborotli madaniyatini shakllantirishning ayrim yo‘llari // «Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalar; muammolar, yechimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Jizzax, 2018.
4. www.pedagog.uz
5. www.Ziyonet.uz

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA PROFESSOR-O'QITUVCHILARNING DARS
MASHG'ULOTLARIDAGI FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA XORIJIY
TAJRIBALAR TAHLILI

АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ОЦЕНКЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОФЕССОРОВ
И ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВО ВРЕМЯ ЗАНЯТИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ
ЗАВЕДЕНИЯХ

ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIENCES IN ASSESSING THE ACTIVITIES OF
PROFESSORS AND TEACHERS DURING CLASSES IN HIGHER EDUCATION
INSTITUTIONS

Urakov Sherzod Raxmanovich, Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li

Anotatsiya. Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotlaridagi faoliyatini baholashga bag'ishlangan. Maqolada ta'lim jarayonida professor-o'qituvchilarning roli, ularning pedagogik metodlari va dars jarayonidagi interaktivlik darajasi tahlil etiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning baholash usullari, talabalarning o'zaro munosabatlari va bilim olish jarayonidagi motivatsiya kabi omillar ham ko'rib chiqiladi. Maqola, zamonaviy ta'lim tizimida sifatli ta'limni ta'minlash uchun professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashning ahamiyatini ta'kidlaydi va tavsiyalar beradi. Bu tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

*Urakov Sh.R.,
Samarqand davlat
universitetining
Kattaqo'rg'on filiali,
Pedagogika fanlari doktori
(DSc), dotsent
usherzod78@gmail.com*

*Faxriddinov M.F.,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
tayanch doktorant (PhD)
fakhriddinvmukhammad0
@gmail.com*

Kalit so'zlar: *Oliy ta'lim, professor-o'qituvchilar, dars mashg'ulotlari, faoliyatni baholash, pedagogik metodlar, interaktiv ta'lim, baholash usullari, yalabalar o'rtasidagi munosabatlar, motivatsiya, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoni, strategiyalar, o'qitish usullari, bilim olish jarayoni, zamonaviy ta'lim tizimi.*

Abstract. This article is dedicated to assessing the activities of professors and teachers during classes in higher education institutions. It analyzes the role of professors in the educational process, their pedagogical methods, and the level of interactivity in the classroom. Additionally, the article examines evaluation methods used by teachers, factors such as student interactions and motivation in the learning process. The article emphasizes the importance of evaluating the activities of professors and teachers to ensure quality education in the modern educational system and provides recommendations. This research aims to assist in developing strategies aimed at improving the quality of education in higher education institutions.

Keywords: *Higher education, professors, class activities, activity assessment, pedagogical methods, interactive education, evaluation methods, student interactions, motivation, quality improvement in education, educational process, strategies, teaching methods, learning process, modern educational system.*

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash, ta'lim sifatini oshirish va o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Baholash jarayoni ta'lim

tizimining asosiy elementlaridan biri bo'lib, u o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashga yordam beradi. Baholashning ilmiy-nazariy asoslari ko'plab tadqiqotlar va metodologiyalar bilan bog'liq. O'qituvchilar faoliyatini baholashda asosiy e'tibor ularning pedagogik mahoratini, ilmiy tadqiqotlar olib borish qobiliyatini va talabalarga taqdim etadigan ta'lim sifatini aniqlashga qaratilgan. Oliy ta'limda baholash jarayoni ko'pincha ko'p o'lehovli yondashuv bilan amalga oshiriladi. Bu yondashuvda o'qituvchilarning faoliyati nafaqat ularning darsdagi faoliyatlari bilan, balki ilmiy ishlar, metodik materiallar tayyorlash, va talabalar bilan ishlash darajasi bilan ham baholanadi.[1] Shuningdek, o'qituvchilarni baholashda talabalar fikr-mulohazalari ham muhim ahamiyatga ega. Talabalar o'qituvchilarning dars berish uslubi, bilim berish darajasi va ularning o'quv jarayonidagi o'rnini baholashda ishtirok etishlari kerak. Bundan tashqari, baholash jarayoni o'qituvchilarning professional rivojlanishini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Ular o'z faoliyatlarini yaxshilash uchun kerakli bilim va ko'nikmalarni egallashga intilishadi. Baholash natijalari asosida o'qituvchilar uchun treninglar va seminarlar o'tkazish, ularning malakasini oshirishga yordam beradi. Ilmiy-nazariy asoslar o'qituvchilarning faoliyatini baholashda yangi metodologiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Masalan, sifatli baholash tizimlari, o'qituvchilarning o'zaro baholash mexanizmlari va zamonaviy "IT" texnologiyalaridan foydalanish orqali baholash jarayonini yanada samarali qilish mumkin. Bunday metodlar o'qituvchilarning professional faoliyatini yaxshilashga, ta'lim sifatini oshirishga, va talabalar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi.[2] Umuman olganda, OTMda professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash ilmiy-nazariy asoslar bilan mustahkamlangan holda, ta'lim tizimining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'qituvchilarning professional rivojlanishini ta'minlaydi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. O'qituvchilarning faoliyatini baholash, nafaqat ularning o'zlariga, balki talabalarga ham foyda keltiradi, bu esa kelajakda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash jarayonini o'rganish uchun bir qancha muhim manbalar mavjud. Shon (2020) o'z asarida pedagogik metodlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ta'kidlaydi va baholash jarayoni bilan bog'liq turli metodlarni ko'rsatadi. Davlatov (2021) esa o'qituvchilarni baholash tizimlarining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilgan. U o'qituvchilar faoliyatini baholashda talabalar fikrlarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Khalilov (2019) innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim sifatiga ta'siri haqida yozadi va baholash jarayonida zamonaviy metodlarni qo'llash zarurligini ifoda etadi. Malikov (2022) Yevropa ta'lim tizimlarida baholash metodikasini o'rganib, muvaffaqiyatli amaliyotlarni ko'rsatadi. Jumaev (2023) esa professor-o'qituvchilarning professional rivojlanishiga e'tibor qaratadi va baholash jarayonining ularning malakasini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Metodlar. Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashda qo'llaniladigan usullar quyidagi asosiy metodlarga bo'linadi:

1. **Peer Observation (Hamkasblar Kuzatuv):** O'qituvchilarning bir-birining darslarini kuzatishi va nazorat qilishga asoslangan. Bu metod Buyuk Britaniyada keng qo'llaniladi va o'qituvchilarga o'z pedagogik uslublarini takomillashtirish imkonini beradi (Petrov, 2021).
2. **Talabalar fikrlarini Yig'ish:** Talabalar tomonidan dars jarayonidagi o'qituvchilarning faoliyatini baholash uchun anonim so'rovlar o'tkaziladi. Germaniyada bu usul samarali hisoblanadi (Schmidt, 2020).

3. **Innovatsion Pedagogik Texnologiyalar:** Zamonaviy texnologiyalar yordamida interaktiv ta'lim platformalarini qo'llash orqali dars jarayonini baholash. Fransiya va Singapurda ushbu yondashuvlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda (Nguyen, 2022).
4. **O'z-o'zini Baholash:** O'qituvchilar o'z faoliyatlarini tahlil qilish va kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shvetsiya va Yaponiyada bu metod keng qo'llaniladi (Andersson, 2022; Tanaka, 2021).
5. **Keng Qamrovli Baholash Tizimi:** Oliy ta'lim muassasalarida dars faoliyatini baholashda keng qamrovli metodlarni qo'llash. Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi bu jarayonni yanada samarali qiladi (Yaponiya, Tanaka, 2021; Janubiy Koreya, Lee, 2020).

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotidagi faoliyati ta'lim sifatining asosiy garovi hisoblanadi. O'qituvchilarning muvaffaqiyatli faoliyati kompetensiyalar bilan bog'liq bo'lib, bu esa ta'lim jarayonida talabalar uchun samarali ta'lim muhitini yaratishga imkon beradi. Kompetensiyalar, o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini ifodalaydi, shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini va o'z fanlariga bo'lgan chuqur bilimlarini aks ettiradi.[3]

- **Pedagogik kompetensiya.** Pedagogik kompetensiya professor-o'qituvchilarning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini anglatadi. Bu kompetensiya o'qituvchining dars rejasini tuzish, dars mazmunini tanlash, pedagogik metodlarni qo'llash va talabalar bilan muloqot qilishda ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. O'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalari o'zgaruvchan ta'lim muhitida talabalar ehtiyojlariga mos keladigan darslarni o'tkazish qobiliyatini ta'minlaydi.

- **Fanni o'zlashtirish kompetensiyasi.** O'qituvchilar o'z fanlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari zarur. Fanni o'zlashtirish kompetensiyasi o'qituvchining o'z fani bo'yicha bilim darajasini va uni talabalarga qanday taqdim etishini belgilaydi. O'qituvchilar yangi ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni o'z fanlariga joriy etish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Bu kompetensiya talabalar uchun muhim bo'lgan ilmiy asoslar va amaliy ko'nikmalarni berish imkonini yaratadi.[4]

- **Kommunikativ kompetensiya.** O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi, talabalarga ma'lumotlarni tushunarli va qiziqarli tarzda etkazish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiya o'qituvchining talabalar bilan samarali muloqot qilish, ularning fikrlarini tinglash va o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalash qobiliyatini belgilaydi. Talabalar bilan o'zaro aloqani mustahkamlash, dars jarayonida ijobiy muhit yaratish va talabalarni faol ishtirok etishga undash kommunikativ kompetensiyaning muhim jihatlaridir.

- **Innovatsion kompetensiya.** Zamonaviy ta'lim muhitida o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu kompetensiya o'qituvchining ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo'llash qobiliyatini anglatadi. Innovatsion yondashuvlar yordamida o'qituvchilar talabalar uchun qiziqarli va samarali darslarni tashkil etishlari mumkin. O'qituvchilarning innovatsion fikrlash qobiliyati, ta'lim jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi.

- **Tahlil va baholash kompetensiyasi.** O'qituvchilarning tahlil va baholash kompetensiyasi, talabalar bilimini, ko'nikmalarini va malakalarini aniqlash va baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiya o'qituvchining baholash metodlarini tanlash, natijalarni tahlil qilish va talabalarga konstruktiv fikr-mulohazalar berish qobiliyatini belgilaydi. O'qituvchilar o'z talabalarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularni rivojlantirishga yordam berishlari kerak.

- **Shaxsiy rivojlanish kompetensiyasi.** O'qituvchilarning shaxsiy rivojlanish kompetensiyasi, o'z bilimlarini va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilashni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar yangi metodikalar, pedagogik yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlar bilan tanishib, o'z malakasini oshirishga

intilishlari zarur. Bu kompetensiya o'qituvchilarning professional rivojlanishini ta'minlaydi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.[5]

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotidagi faoliyatini baholash jarayoni, ta'lim sifatini oshirish va o'qituvchilarning pedagogik malakasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Yevropa davlatlaridagi turli institutlar, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun innovatsion metodikalarni joriy etgan. Ushbu maqolada, bir nechta Yevropa davlatlaridagi tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikalarini tahlil natijalarini keltirdik.

- Buyuk Britaniya: Darslarni kuzatish va baholash. Buyuk Britaniyada, universitetlar professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotlarini kuzatish jarayonida aniq mezonlar va baholash kriteriyalarini joriy etgan. Misol uchun, University College London (UCL) o'qituvchilarni baholashda "Peer Observation" (hamkasblar kuzatuv) tizimini qo'llaydi. Bu tizimda o'qituvchilar bir-birining darslarini kuzatib, baholash mezonlari asosida fikr-mulohaza beradi. Bu jarayon, o'qituvchilarga bir-birlaridan o'rganish, dars berish uslublarini takomillashtirish va o'zaro ko'maklashish imkonini beradi.[6]

- Germaniya: Talabalar Fikrlarini Inobatga Olish. Germaniyada, professor-o'qituvchilarning faoliyatini baholashda talabalar fikrlarini yig'ish muhim ahamiyatga ega. Humboldt University of Berlin o'qituvchilarning darslari bo'yicha talabalar tomonidan anonim so'rovlar o'tkazadi. Bu so'rovlar orqali talabalar o'qituvchilarning pedagogik malakasini, darsning qiziqarli va samarali o'tkazilishini baholaydilar. Olingan natijalar asosida o'qituvchilar o'z faoliyatlarini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan tavsiyalarni oladilar. [7]

- Fransiya: Innovatsion Pedagogik Texnologiyalar. Fransiyada, professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotlarini baholashda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Paris-Sorbonne University o'qituvchilarga zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish uchun imkoniyatlar yaratadi. O'qituvchilar, masalan, interaktiv ta'lim platformalarida darslar o'tkazish orqali dars jarayonini baholanishi mumkin. Ushbu yondashuv, darslarni qiziqarli va samarali o'tkazishga yordam beradi, shuningdek, talabalar bilan aloqani mustahkamlashga xizmat qiladi.[8]

- Shvetsiya: O'z-o'zini Baholash va Rivojlanish. Shvetsiyada, o'qituvchilar faoliyatini baholash jarayonida o'z-o'zini baholash metodikasi qo'llaniladi. Lund University o'qituvchilarga o'z darslarini tahlil qilish imkoniyatini beradi, bunda o'qituvchilar o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradigan savollar asosida ishlaydi. Bu jarayon, o'qituvchilarni o'z pedagogik faoliyatlarini yaxshilashga va o'zaro o'rganishga undaydi.[9]

- Norvegiya: Baholash va Rivojlanish Strategiyalari. Norvegiyada, professor-o'qituvchilarning faoliyatini baholashda "Quality Assurance" (sifatni ta'minlash) tizimi joriy etilgan. University of Oslo o'qituvchilarning faoliyatini baholashda doimiy monitoring va baholash jarayonlarini amalga oshiradi. Olingan natijalar asosida o'qituvchilarga takliflar beriladi va malakalarini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqiladi. Bu jarayon, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga yordam beradi.

Yevropa davlatlaridagi institutlar professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotidagi faoliyatini baholash jarayonida turli xil metodikalarni qo'llamoqda. Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya va Norvegiyadagi tajribalar, baholash mexanizmlarini yanada samarali va ob'ektiv qilishga xizmat qiladi. O'qituvchilarning faoliyatini baholashda talabalar fikrlarini inobatga olish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va o'z-o'zini baholash metodikasini joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu metodikalar ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish va o'qituvchilarning malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqori sifatli ta'limni ta'minlash, professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotidagi faoliyatini baholash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar, <https://journal.uzfi.uz>

o‘zlarining ta’lim tizimlarida innovatsion yondashuvlar va metodikalarni joriy etgan. Bu davlatlardagi institutlarda professor-o‘qituvchilarning faoliyatini baholash bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini qanday tashkil etilishi tahlil qilinadi.

- **Yaponiya: Keng Qamrovli Baholash Tizimi.** Yaponiyada, professor-o‘qituvchilarning dars faoliyatini baholashda keng qamrovli baholash tizimi qo‘llaniladi. **Tokyo University** kabi oliy ta’lim muassasalarida darslar muntazam ravishda kuzatiladi. O‘qituvchilar o‘zaro baholash (peer review) tizimidan foydalanadilar, bu orqali hamkasblar bir-birining darslarini kuzatib, mulohazalar bildiradilar. Bu jarayon, o‘qituvchilarga o‘z pedagogik uslublarini takomillashtirish va zamonaviy ta’lim metodlarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, talabalar tomonidan olingan fikrlar ham baholash jarayonining muhim qismi hisoblanadi.[10]

- **Janubiy Koreya: Talabalar Fikrlarini Inobatga Olish.** Janubiy Koreyada, professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotidagi faoliyatini baholashda talabalar fikrlarini yig‘ish muhim ahamiyatga ega. **Seoul National University** o‘qituvchilari, darslardan keyin talabalar tomonidan o‘tkaziladigan anonim so‘rovlar orqali baholanadi. Bu so‘rovlar, dars jarayonidagi o‘qituvchining faoliyatini baholashga yordam beradi va talabalar o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Olingan natijalar asosida o‘qituvchilarga takliflar beriladi va malakalarni oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqiladi.[11]

- **Singapur: Innovatsion Pedagogik Texnologiyalar.** Singapurda, professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlarini baholash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar joriy etilgan. **National University of Singapore (NUS)** o‘qituvchilarga zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun interaktiv ta’lim platformalaridan foydalanishni taklif etadi. O‘qituvchilar dars jarayonida onlayn baholash mexanizmlaridan foydalanishlari mumkin, bunda talabalar dars davomida o‘z fikrlarini va baholarini berishlari mumkin. Bu yondashuv, darsni yanada qiziqarli va samarali o‘tkazishga yordam beradi, shuningdek, talabalar bilan aloqani mustahkamlashga xizmat qiladi.[12]

- **Yaponiyaning O‘z-o‘zini Baholash Yondashuvi.** Yaponiyada, professor-o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini baholash jarayonida o‘z-o‘zini baholash metodikasini qo‘llaydilar. Bu metodika, o‘qituvchilarga dars davomida o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. O‘qituvchilar o‘z darslarini tahlil qilib, o‘z-o‘zidan fikr yuritishlari va o‘z malakalarini oshirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqishlari mumkin.

- **Janubiy Koreyada Innovatsion Ta’lim Usullari.** Janubiy Koreyada, professor-o‘qituvchilarning faoliyatini baholashda innovatsion ta’lim usullari muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar, dars jarayonida gamifikatsiya va interaktiv yondashuvlar orqali talabalarni jalb qilishadi. Bu usullar, talabalar tomonidan dars jarayonining qiziqarli va samarali o‘tishi haqida ijobiy fikrlar olishga yordam beradi. Talabalarning fikrlarini yig‘ish jarayoni o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi.

- **Singapurda Keng Qamrovli Baholash Tizimi.** Singapurda, professor-o‘qituvchilarning faoliyatini baholashda keng qamrovli baholash tizimi joriy etilgan. **Singapore Management University** o‘qituvchilarning darslarini baholashda bir nechta mezonlarni qo‘llaydi, shu jumladan pedagogik kompetensiya, darsni tashkil etish qobiliyati va talabalar bilan muloqot. Olingan natijalar asosida o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini takomillashtirish va malakalarini oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshiradilar.[13]

Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapurda professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotidagi faoliyatini baholash jarayoni innovatsion yondashuvlar va metodikalar asosida amalga oshiriladi. Har bir davlatda o‘ziga xos baholash tizimlari mavjud bo‘lib, bu tizimlar o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini takomillashtirishga va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Talabalar fikrlarini inobatga

<https://journal.uzfi.uz>

olish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va o'z-o'zini baholash metodikasi, ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat o'qituvchilar, balki talabalar uchun ham sifatli ta'lim muhitini yaratadi.

Xulosa. Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning dars mashg'ulotlaridagi faoliyatini baholash jarayonini tahlil qiladi. Baholash nafaqat o'qituvchilarning pedagogik mahoratini, balki ularning ilmiy tadqiqotlar olib borish qobiliyatini va talabalarga taqdim etilayotgan ta'lim sifatini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida baholash jarayonining ko'p o'lchovli yondashuvi, o'qituvchilarning ilmiy ishlari, talabalar bilan ishlash darajasi va talabalar fikrlarini hisobga olishni o'z ichiga oladi.

Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi tajribalar, o'qituvchilar faoliyatini baholashda innovatsion pedagogik texnologiyalarni, talabalar fikrlarini inobatga olish va o'z-o'zini baholash metodikasini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalarni taklif etadi. Bu yondashuvlar o'qituvchilarning professional rivojlanishini ta'minlaydi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Umuman olganda, professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash jarayoni, nafaqat o'qituvchilarning o'zlariga, balki talabalar uchun ham yuqori sifatli ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Natijada, bu jarayon kelajakda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Shon, M.** *Pedagogik metodlar va ta'lim jarayoni*. Tashkent: Oliy ta'lim nashriyoti. (2020).
2. **Davlatov, A.** *O'qituvchilarni baholash tizimlari: nazariy va amaliy jihatlar*. Journal of Educational Research, 15(3), 45-56. (2021).
3. **Khalilov, I.** *Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim sifatiga ta'siri*. European Journal of Education Studies, 6(4), 23-34. (2019).
4. **Malikov, R.** *Yevropa ta'lim tizimlarida baholash metodikasi*. Berlin: Springer. (2022).
5. **Jumaev, S.** *Oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning professional rivojlanishi*. Tashkent: O'zbekiston ta'limi. (2023).
6. **Petrov, P.** *Peer observation in higher education: a review of practices in the UK*. Higher Education Journal, 10(2), 78-89. (2021).
7. **Schmidt, L.** *Student feedback in teacher evaluation: Evidence from Germany*. Teaching and Teacher Education, 92, 102-110. (2020).
8. **Andersson, E.** *Self-assessment in teaching: Strategies for improvement*. Scandinavian Journal of Educational Research, 66(5), 580-599. (2022).
9. **Huang, Y.** *Innovative assessment methods in higher education: A comparative study*. Journal of Higher Education, 40(1), 15-30. (2023).
10. **Tanaka, K.** *Comprehensive evaluation systems in Japanese higher education*. Asian Journal of Education and Training, 7(3), 25-33. (2021).
11. **Lee, H.** *The role of student evaluations in South Korean universities*. Journal of Educational Administration, 58(6), 731-746. (2020).
12. **Nguyen, T.** *Interactive learning platforms: A case study from Singapore*. International Journal of Educational Technology, 9(1), 45-59. (2022).
13. **Mirzaeva, D.** *Effective teaching practices in higher education: A global perspective*. Journal of Teaching and Learning in Higher Education, 15(2), 200-215. (2023).

INGLIZ TILINI O'QITISHDA KORPUS TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA QO'LLASHNING ZARURATI

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ КОРПУСНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

THE NEED TO APPLY CORPUS TECHNOLOGIES TO THE EDUCATIONAL PROCESS IN TEACHING ENGLISH

G'aprov Zayniddin Abdusalom o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitishda korpus texnologiyalarning ahamiyati til ta'limi sohasida tobora ortib borayotgan qiziqish va tadqiqotlar mavzusi bo'ldi. Og'zaki va yozma til ma'lumotlarining katta to'plami bo'lgan nutq korpusi (speech corpora) til o'rganuvchilar va o'qituvchilar uchun ko'plab imtiyozlarni taklif qiladi. Shuningdek, turli xil ta'lim kontekstlarida ingliz tilini o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun korpus texnologiyalarning to'liq imkoniyatlaridan foydalanish zarurati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: korpus, korpus texnologiyalar, konkordans dastur, COCA, matnlar to'plami, ma'lumotlarga asoslangan til o'rganish (DDL).

Аннотация. В данной статье значение корпусных технологий в преподавании иностранных языков, в частности английского языка, стало предметом повышенного интереса и исследований в области языкового образования. Речевой корпус (speech corpora), который представляет собой большую коллекцию данных устной и письменной речи, предлагает много преимуществ для изучающих язык и преподавателей. Также рассматривается необходимость использования всего потенциала корпусных технологий для удовлетворения потребностей студентов английского языка в различных образовательных контекстах.

Ключевые слова: корпус, корпусные технологии, конкордансная программа, COCA, набор текстов, обучение языкам на основе данных (DDL).

Abstract. In this article, the importance of corpus technologies in teaching foreign languages, in particular English, has become the subject of increasing interest and research in the field of language education. The speech corpus (speech corpora), which is a large collection of oral and written language data, offers many benefits for language learners and teachers. The necessity of using the full potential of corpus technologies to meet the needs of English language students in various educational contexts is also considered.


Keywords: corpus, corpus technologies, concordance software, COCA, text collection, data-driven language learning (DDL).

G'aprov Z.A.,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi,
zayniddingaprov@mail.ru

Hozirgi globallashuv jarayonida chet tilida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish maqsadida yangi texnologiyalarni tatbiq etish yanada dolzarblashib bormoqda. Chet tilini o'qitish ta'limi

texnologiya va lingvistik tadqiqotlar integratsiyasi bilan ajoyib o'zgarishlarga guvoh bo'ldi. Ushbu hodisalardagi muhim yangiliklardan biri ingliz tilini o'qitish va o'rganishda korpus texnologiyadan foydalanish edi. 1987-yilda o'quvchilar uchun birinchi korpus texnologiyaga asoslangan Collins COBUILD English Language Dictionary lug'atining nashr etilishi bilan ko'pchilik ingliz tili o'qituvchilari birinchi marta korpus texnologiyalardan xabardor bo'lishdi. Keyingi yillarda ingliz tilini o'qitishda korpusdan olingan va korpusga asoslangan resurslardan foydalanish bo'yicha muhim ishlar nashr etildi. O'shandan beri til o'qitishni korpusga asoslangan tadqiqotlar yordamida o'rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Bugungi kunda korpus lingvistikasi tilshunoslikka nisbatan yangi yondashuv sifatida tushuniladi. U "haqiqiy hayotda" tildan foydalanishni kompyuterlar va elektron korpuslardan foydalanish orqali empirik o'rganish bilan bog'liq. Korpus lingvistikasi: a) foydalaniladigan til materialining o'ziga xosligi; b) lingvistik tadqiqotlar uchun qo'llanadigan vositalar kabi xususiyatlarga ega bo'lib, "o'ziga xos fan bo'lishga da'vo qilishi" mumkin. "Tilshunoslik tahlili uchun foydalaniladigan ma'lum bir til yoki tilning boshqa kichik to'plam vakili deb taxmin qilingan matnlar to'plami" - bu **korpus** (corpus) atamasi bilan aniqlashtiriladi. *Korpus texnologiyalari* – bu tilshunoslik, kompyuter fanlari va sun'iy intellekt sohalarining kesishgan nuqtasida yaratilgan vositalar va metodologiyalardan biri bo'lib, katta hajmdagi matnlarni tahlil qilish va ularni o'rganish uchun ishlatiladigan vositalar hisoblanadi. Ular til o'rganish va o'qitish jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. "Korpusda ma'lum bir lug'at to'plamidan foydalanish chastotasini tuzadigan dastur muvofiqlashtiruvchi yoki *konkordans dastur* deb ataladi." Zamonaviy amerikancha ingliz tili korpusidan (COCA) "victory" so'ziga muvofiqlashtiruvchi dastur ma'lumotlari 1-rasmda ko'rsatilgan.



The screenshot shows the English-Corpora COCA website interface. The search results for the word "victory" are displayed in a table with columns for year, source, and context. The context column shows various sentences where the word "victory" is used, such as "about engines will make more sense since it's the method to get to that victory", "At that point when we realized it wasn't in there it was a quiet victory", and "He's like an idea factory of how to get more volunteers into a victory center".

Year	Source	Context
2012	BLOG forum.tcgplayer.com	about engines will make more sense since it's the method to get to that victory **32;2064;TOOLONG. # Deck building is a big deal, especially to new pla
2012	BLOG ...esh1027.cbslocal.com	At that point when we realized it wasn't in there it was a quiet victory 3176115 Pages
2012	BLOG ...s.kontentkonsult.com	, and postpone others for the present. # Epictetus # The first and greatest victory is to conquer yourself; to be conquered by yourself is of all things mos
2012	BLOG aintitcool.com	he has not been that successful as his hype might indicate. Again, the victory of hype above all else. # It's like a metaphor of a metaphor
2012	BLOG ...irstread.nbcnews.com	mean four more years of gridlock in Congress. # If Republicans pull off a victory here, Romney staff will point to Portman as a big reason why. He
2012	BLOG ...irstread.nbcnews.com	people. " # Just last week Portman did exactly that during four stops to Victory Centers throughout Northeast Ohio. In Avon Lake, OH, he profusely apolc
2012	BLOG ...irstread.nbcnews.com	" He's like an idea factory of how to get more volunteers into a victory center or how to get an issue in front of the press in a particular
2012	BLOG dadecountylawyer.org	THREE months in jail. (Ibid) The New York Times heralded the NRA victory over the brothers as " A sweeping victory of immense importance ". (Ibid.
2012	BLOG dadecountylawyer.org	The New York Times heralded the NRA victory over the brothers as " A sweeping victory of immense importance ". (Ibid. p 224). A sweeping victory for
2012	BLOG dadecountylawyer.org	sweeping victory of immense importance ". (Ibid. p 224). A sweeping victory for what? Certainly not the Bill of Rights or the individual right to enter
2012	BLOG sayanythingblog.com	# Again, the GOP is attempting to snatch defeat out of the jaws of victory. # http://ndgoon.blogspot.com Goon # It's like they are aiming the guns
2012	BLOG addictedtoquack.com	barrage of late threes to take a 41-20 halftime lead en route to a 71-48 victory in front of over 9,000 raucous fans at Matthew Knight Arena. # " It
2012	BLOG wrdw.com	127 yards and one touchdown to help lead No. 12/11 South Carolina to a 24-7 victory over Wofford on Senior Day Saturday afternoon at Williams-Brice S

1-rasm. "Victory" so'ziga muvofiqlashtiruvchi dastur ma'lumotlari

Foydalanuvchilar muvofiqlik qatoridagi kontekst tugmachasini bosish orqali to'liq kontekstni olishlari mumkin. So'zning qo'llanilish ro'yxati, ma'lum bir so'zning turli iboralarda ishlatilishi, so'zlashuv so'zlari, atamaning ta'riflari, qo'llanish shakllari va so'zlarni taqqoslashning barchasini korpusda topish mumkin. Ba'zi mavjud onlayn korpus texnologiyalarga *Britaniya Milliy Korpusi* <https://journal.uzfi.uz>

(BNC, <http://www.natcorp.ox.ac.uk>), Michigan akademik ogʻzaki ingliz korpusi (MICASE, <http://micase.elicorpora.info>) va Zamonaviy amerikancha ingliz tili korpusi (COCA, <http://www.americancorpus.org>) kiradi. Ushbu korpus texnologiyalardan foydalanish oson va qulay. Masalan, COCA 450 million soʻzli matni, jumladan: ogʻzaki, yozma badiiy adabiyot, mashhur jurnallar, gazetalar va akademik matnlarni oʻz ichiga oladi.

Agar 1960-yillarda birinchi elektron korpuslar paydo boʻlishi bilan ulardan oʻquv va pedagogik tadqiqotlarda foydalanish asosan bilvosita boʻlgan boʻlsa (Corpus-based learning – CBL), oʻqitishda korpusli yondashuvning alohida metodikasi sifatida paydo boʻlishi (*Data-driven Learning (DDL)*) (soʻzma-soʻz elektron maʼlumot bilan faollashtiriladigan yoki ragʻbatlantiriladigan oʻqitish) alohida va mustaqil taʼlimning rivojlanishiga turtki berdi. Quyida ingliz tilini oʻqitishda CBL va DDL metodlari oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlar koʻrsatilgan.

1-jadval

CBL va DDL metodlari oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlar

Korpusli yondashuvlarning xususiyatlari	CBL	DDL
1. Oʻquvchilarga autentik materialni taʼminlashi mumkin	✓	✓
2. Oʻquvchilarni oʻquv jarayoniga faol jalb qilishga koʻmaklashadi	-	✓
3. Talabalarning tadqiqotchilik qobiliyatini ochib beradi, ularning kuzatish va olingan natijalarni tahlil qilish asosida til qoidalarini mustaqil ravishda oʻrganishga imkon beradi	-	✓
4. Korpus qidiruv elementida tez-tez uchraydigan leksik yoki grammatik maʼlumotlardan foydalanishda oʻquvchilarga imkon beradi	-	✓

Korpusli DDL yondashuvi korpus lingvistikasi tomonidan taqdim etilgan texnologiyalar va resurslardan foydalanadi. Ularning amalga oshirilishi korpus lingvistikasi boʻyicha tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish, tegishli texnologiyalar, vositalar, resurslarni yoʻlga qoʻyishga taʼsir qiladi va oʻquv jarayonini ragʻbatlantiradi. Bu yerda “taʼlim texnologiyasi” “... mehnatni ilmiy tashkil etishning eng ratsional usullari majmuyi, eng kam kuch va mablagʻ sarflagan holda oʻrganish boʻyicha qoʻyilgan maqsadga eng qisqa vaqt ichida erishishni taʼminlaydi”, deb qaraladi. Korpusli texnologiyalar esa “grammatik tizimlarning ehtimollik profillarini yaratish” uchun “muhim vosita” hisoblanadi. Yaʼni korpusli texnologiyalar har xil turdagi matnlarni tahlil qilish, qayta ishlash, tanlab olish, tarjima qilish, differentsiyalash va turkumlashtirish vositasi sifatida oʻziga xos tipologik xususiyatiga koʻra yagona elektron tizimga birlashtirilgan.

Maʼlumki, korpus texnologiyalar til oʻrganuvchilarga tillarni oʻrgatish uchun bebaho vositadir, chunki ular autentik, haqiqiy matnlarni tasvirlaydi. Til oʻqitishda korpuslardan foydalanish oʻquvchi va oʻqituvchining rolini oʻzgartirdi. U oʻquvchilarga yoʻnaltirilgan (*learner centered method*) metodologiyani mustahkamladi va oʻqituvchilarning sinfdagi rolini bilim manbai emas, balki yoʻnaltiruvchi va vositachi yoki tadqiqotchi sifatida oʻzgartirdi. Oʻquvchilarga yoʻnaltirilgan bunday metod taʼlimining afzalligi shundaki, oʻquvchilarga autentik tildan foydalanish, maʼlumotlar bazasiga kirish imkoniyati beriladi va umumlashtirish hamda til xatti-harakatlarining qonuniyatlarini kuzatish taklif etiladi. Konkordanslarni oʻrganish ham oʻquvchilarni tildan foydalanish haqida koʻproq xabardor qilishi mumkin. Maʼlumotlarga asoslangan taʼlim (*DDL*) ingliz tilini oʻqitish tarixidagi muhim yutuq sifatida qaraladi, chunki konkordanslar talabalarga haqiqiy materiallarning cheksiz maʼlumotlar bazasiga kirish imkonini beradi.

Tahliliy mashgʻulotlar (korpus texnologiya asosli mashgʻulotlar) taʼlim oluvchilarga matni yaxshiroq qayta ishlashga va bilimlarini tizimlashtirishga yordam beradi. Oʻrganuvchilar tarjima tilida

keng tarqalgan soʻzlarning maʼnolari, qoʻllanilishi va vazifalariga eʼtibor qaratganlarida, til elementlarining keyingi paydo boʻlishlarini payqashlari va mulohaza qilishlari ehtimoli yuqori boʻladi. Bu jarayon tillararo rivojlanishga olib keladi. Gavioli va Aston korpus maʼlumotlarini tahlil qilishni oʻz ichiga olgan oʻquv mashgʻulotlari til oʻrganish nazariyasining hozirgi tamoyillariga mos kelishini taʼkidladilar, yaʼni oʻquvchilar tilni qanday kuzatish va umumlashtirish boʻyicha koʻrsatmalar olganlarida koʻproq mustaqillikka ega boʻladilar.

Korpus texnologiyalari, eng avvalo, oʻquvchilarni tildagi mavjud autentik va xilma-xil maʼlumotlar bilan taʼminlaydi. Turli xil aksentlar, lahjalar va nutq uslublarni ochib berish orqali ushbu korpus oʻquvchilarga maqsadli tilni yanada kengroq tushunishga yordam beradi. Autentik nutq namunalari oʻquvchilarga chet tilida kommunikativ kompetentsiyaga erishish uchun kerak boʻlgan tabiiy tildan foydalanish, jumladan, soʻzlashuv iboralari, intonatsiya va pragmatik xususiyatlar bilan tanishish imkonini beradi.

Ikinchidan, korpus texnologiyalari tinglab tushunish amaliyoti uchun muhim resurslarni taklif etadi. Til oʻrganuvchilar suhbatlar, intervyular, bahslar va taqdimotlar kabi turli kommunikativ vazifalarni bajarish orqali ingliz tili, ona tili boʻlgan soʻzlashuvchilarning audio maʼlumotlaridan foydalana olishi mumkin. Ushbu real hayotdagi oʻzaro muloqotlarni tinglash va tahlil qilish orqali oʻquvchilar tinglash qobiliyatlarini yaxshilashlari, kontekstdan maʼno chiqarish qobiliyatini rivojlantirishlari va umumiy tilni tushunishni yaxshilashlari mumkin.

Uchinchidan, korpus texnologiyalar talaffuz va fonetikani oʻrgatishda yordam beradi. Koʻplab audio maʼlumotlar, jumladan, fonemik transkripsiya va spektrogrammalarni taqdim etish orqali nutq korpusi talabalarga maqsadli tilning tovushlari va prosodiyalarini oʻzlashtirishda yordam beradi. Oʻquvchilar ushbu manbalardan oʻzlarining talaffuzlarini ingliz tilisi birinchi til boʻlgan soʻzlashuvchilarning talaffuzi bilan solishtirish, oʻziga xos artikulyar va akustik xususiyatlarni aniqlash va talaffuzning aniqligi boʻyicha maqsadli fikr-mulohazalarni olish uchun foydalanishlari mumkin.

Bundan tashqari nutq korpusi nutq va pragmatikani oʻrganishni osonlashtiradi. Oʻquvchilar tilning turli kontekstlarda qanday qoʻllanilishini oʻrganishlari va soʻrovlar, kechirim soʻrashlari, takliflar va rad etishlar kabi nutq harakatlarini ifodalashning tegishli usullarini oʻrganishlari mumkin. Autentik nutq maʼlumotlarini tahlil qilish talabalarga tilda oʻrnatilgan ijtimoiy-madaniy meʼyorlar va pragmatik konvensiyalarni ochishga imkon beradi va shu bilan birga ularga real vaziyatlarda yanada samarali va xushmuomalalik bilan muloqot qilishda yordam beradi.

Shu bilan birgalikda, korpus texnologiyalar maʼlumotlarga asoslangan oʻrganish (DDL) va til taʼlimidagi empirik tadqiqotlarni qoʻllab-quvvatlaydi. Oʻqituvchilar va tadqiqotchilar ushbu korpuslardan til hodisalari, oʻzgarishlari va qoʻllanilishining miqdoriy va sifatli tahlillarini oʻtkazish uchun foydalanishlari mumkin, bu esa lingvistik hodisalarni yaxshiroq tushunishga olib keladi va koʻproq dalillarga asoslangan til oʻquv materiallari va metodologiyalarini loyihalashda maʼlumot beradi.

Biroq koʻplab afzalliklarga qaramay, ingliz tilini oʻqitishda nutq korpusidan foydalanish bilan bogʻliq baʼzi mumkin boʻlgan kamchilik va qiyinchiliklarni ham tan olish kerak. Bular yuqori sifatli korpus texnologiyalardan foydalanish, korpus lingvistikasi boʻyicha pedagog kadrlarning tanqisligi, korpus asosidagi faoliyatni til oʻquv dasturlariga samarali integratsiya qilish zaruriyati bilan bogʻliq masalalarni oʻz ichiga oladi.

Korpus texnologiyalar tilni tavsiflash va oʻrganishda katta foyda keltirdi. Korpora va konkordanslar yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bilan oʻrganish va oʻqitish uchun bebaho manbaga aylandi. Soʻnggi bir necha oʻn yilliklarda korpus tadqiqotlari maʼlumotlarga asoslangan til oʻqitish (DDL), konkordanslar va chet tilini oʻqitishda korpusga asoslangan faoliyat bilan birgalikda foydalanilganda mashhurlik kasb etdi. Ingliz tilini oʻqitishda korpus texnologiyaga asoslangan oʻquv

resurslarini joriy etishning afzalliklari ushbu ortib borayotgan qiziqishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Avvalo, konkordanslar soʻz turkumlari, maʼnolari va birikmalari haqida juda koʻp maʼlumotlarni taqdim etadi.

Korpus texnologiyadan bevosita yoki bilvosita foydalanish mumkin. Bilvosita foydalanganda ular oʻquv materiallari va vaqtini tanlash boʻyicha qaror qabul qilishimizni qoʻllab-quvvatlaydi. Ammo ular toʻgʻridan toʻgʻri qoʻllanilganda, oʻqituvchilar va talabalarga tilni kundalik vaziyatlarda qanday qoʻllanilishiga koʻproq oʻrganishga yordam beradi. Korporadan toʻgʻridan-toʻgʻri foydalanish oʻqituvchilar va oʻquvchilarga koʻproq afzalroq boʻlsa-da, korpus texnologiyadan bilvosita foydalanish oʻquv dasturini ishlab chiqish va til resurslariga qaratilgan. Oʻquvchilar sinfda foydalanishi mumkin boʻlgan aniqroq lugʻatlar va kurs materiallarini yaratish uchun korpus maʼlumotlaridan foydalanish bilvosita foydalanishga misol boʻladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, korpus texnologiyalar talabalarga tilda autentik maʼlumotlardan foydalanish, tinglab tushunishni qoʻllab-quvvatlash, toʻgʻri talaffuzni targʻib qilish, diskurs va pragmatikani oʻrganishni osonlashtirish va til taʼlimida empirik tadqiqotlarni rivojlantirish orqali ingliz tilini oʻqitish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatlarini taklif etadi. Korpus texnologiyalarni til oʻrganish muhitiga integratsiyalash orqali oʻqituvchilar oʻquvchilarga til koʻnikmalarini va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi, natijada oʻquvchilar ingliz tilida yanada malakali va ishonchli soʻzlashuvchilarga aylanadi. Korporadagi namunalar koʻpchilik darsliklar va lugʻatlarda uchraydigan soxta va sunʼiy tildan farqli oʻlaroq, tabiiy soʻzlashuvchilar tomonidan gapiriladigan haqiqiy tilni ifodalaydi. Shu sababli, korpus texnologiyalar 20 yildan ortiq vaqt davomida til oʻqitishda pedagogik jihatdan qoʻllaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов Е.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: ИКАР, 2009. – 448 С.
2. Fransis, W.N. (1992). Til Korporasi. J. Svartvik nashriyoti, Directions in Korpus Lingvistikasi yoʻnalishlari (17-34 b), New York: Mouton de Gruyter.
3. Hunston, S. (2002). Amaliy lingvistikada Korpus texnologiyalar. Kembridj: Kembridj Universiteti nashriyoti.
4. Gavioli, L. va Aston, G. (2001). Voqelikni boyitish: til pedagogikasida til korpuslari. ELT jurnali, 55 (3), 238-246.
5. Reppen, R. (2011). Ingliz tilini oʻqitishda korpus texnologiyadan foydalanish. Kembridj: Kembridj universiteti nashriyoti.
6. Simpson, R.C., & Leicher, S. (2006). MICASE boʻyicha qoʻllanma. Ann Arbor, MI: Michigan universiteti nashriyoti.
7. Sinkler, Jon MakH. (2004 c), Yangi dalillar, yangi ustuvorliklar, yangi munosabatlar. In: Sinclair, John McH. (red.) (2004 a), How to Use Corpora in Language Teaching. Amsterdam: Jon Benjamins, 271-299
8. Swales, J.M. (2006). Korpus lingvistikasi va oʻquv maqsadlari uchun ingliz tili. Muayyan maqsadlar uchun moʻljallangan tillarda axborot texnologiyalari Taʼlim lingvistikasi, 7, 19-33.
9. Talai, T., & Fotovatnia, Z. (2012). Maʼlumotlarga asoslangan taʼlim: til oʻrganishda oʻquvchiga yoʻnaltirilgan usul. Tilshunoslik nazariyasi va amaliyoti, 2 (7), 1526-153.
10. Uillis, J. (2011). Kompyutersiz sinfdagi konkordanslar: umumiy soʻzlarning konkordanslarini yigʻish va ulardan foydalanish. Kembridj: Kembridj universiteti nashriyoti.

HOSILANING AYNIYAT VA TENGSIZLIKLARNI ISBOTLASHGA TATBIQI

ПРИМЕНЕНИЕ ПРОИЗВОДНОЙ К ДОКАЗАТЕЛЬСТВУ ТОЖДЕСТВ И
НЕРАВЕНСТВAPPLICATION OF THE DERIVATIVE TO THE PROOF OF IDENTITIES AND
INEQUALITIES*Ibragimov Anvar, Pulatov Oybek*

Annotatsiya. Ushbu maqola hosila tushunchasining matematik tengsizliklar va ayniyatlarni isbotlashdagi ahamiyatini yoritadi. Matematik analizda hosilaning muhim amaliy tatbiqlari keltirilgan bo'lib, ushbu yondashuv yordamida murakkab tengsizliklarning isboti soddalashtiriladi. Xususan, klassik masalalar hosila yordami bilan qayta ko'rib chiqiladi. Maqolada nazariy asoslar bilan bir qatorda amaliy misollar ham keltirilib, hosila vositasida natijalarga qanday erishilishi ko'rsatilgan. Ushbu yondashuv matematika fanida mantiqiy isbotlarni mustahkamlash va tengsizliklarni umumlashtirishda keng qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: *Hosila, tengsizliklar, matematik ayniyatlar.*

Аннотация. В данной статье рассматривается значение понятия производной в доказательстве математических неравенств и тождеств. Приведены важные практические применения производной в математическом анализе, благодаря которым упрощается доказательство сложных неравенств. В частности, классические задачи пересматриваются с использованием производной. В статье представлены как теоретические основы, так и практические примеры, показывающие, как с помощью производной можно достичь результатов. Такой подход широко используется в математике для укрепления логических доказательств и обобщения неравенств.

Ключевые слова: *Производная, неравенства, математические тождества.*

Abstract. This article discusses the importance of the concept of derivative in proving mathematical inequalities and identities. Important practical applications of the derivative in mathematical analysis are presented, which simplify the proof of complex inequalities. In particular, classical problems are revised using the derivative. The article presents both theoretical foundations and practical examples showing how the derivative can be used to achieve results. This approach is widely used in mathematics to strengthen logical proofs and generalize inequalities.

Key words: *Derivative, inequalities, mathematical identities.*

Kirish. Matematika fanida hosila tushunchasi muhim o'rin tutadi va ko'plab matematik masalalarni yechishda qulay vosita sifatida xizmat qiladi. Matematik analizda hosilaning asosiy xossalari va tatbiqlari turli nazariy hamda amaliy masalalarni yechishda qo'llaniladi.

Tengsizliklarni isbotlashda hosilaning ishlatilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'plab klassik va zamonaviy tengsizliklar hosila yordamida soddaroq va tushunarliroq shaklda isbotlanishi mumkin. Bu

Ibragimov A.,
O'zbekisto-Finlandiya
pedagogika instituti,
fizika-matematika fanlari
nomzodi, dotsent
anvaribragimov-
uz@gmail.com

Pulatov O.,
O'zbekisto-Finlandiya
pedagogika instituti,
matematika kafedrası
assistenti
pulatov.sertifikat@gmail.com

yondashuv orqali funksiyalarning o‘shish yoki kamayish xususiyatlari aniqlanib, ular yordamida tegishli tengsizliklar hosil qilinadi. Ushbu maqolada hosila tushunchasining matematik tengsizliklarni isbotlashdagi roli yoritiladi. Bir necha klassik misollar ko‘rib chiqilib, hosila yordamida murakkab tengsizliklarni qanday isbotlash mumkinligi tushuntiriladi. Nazariy asoslar bilan birga amaliy misollar ham keltirilib, bu yondashuvning samaradorligi namoyish etiladi. Maqola natijalari matematik analiz va uning amaliy qo‘llanilishida hosila vositasining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Agar $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar $[a;b]$ oraliqning har bir nuqtasida teng hosilalarga ega bo‘lsa, u holda bu funksiyalarning ayirmasi $[a;b]$ oraliqda o‘zgarmas songa teng bo‘ladi, ya’ni $f'(x) - g'(x) = C$.

Shunday qilib, $[a;b]$ kesmada $f'(x) = g'(x)$ ayniyat o‘rinli ekanligini isbotlash uchun

- a) $[a;b]$ kesmada $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalarning uzluksiz,
- b) $(a;b)$ dan olingan har bir x da $f'(x) = g'(x)$,

$(a;b)$ intervalga tegishli kamida bitta x_0 nuqtada $f(x_0) = g(x_0)$ ekanligini tekshirish kifoya.

Hosiladan foydalanib ayniyat va tengsizliklarni isbotlashni misollarda qaraymiz.

1-misol. $x \geq 1$ da $2 \arctg x + \arcsin \frac{2x}{1+x^2} = \pi$ ayniyatni isbotlang.

Isbot. $f(x) = 2 \arctg x + \arcsin \frac{2x}{1+x^2}$ funksiyani $x \geq 1$ da qaraymiz. $x=1$ bo‘lganda,

$$f(1) = 2 \arctg 1 + \arcsin 1 = 2 \cdot \frac{\pi}{4} + \frac{\pi}{2} = \pi. \quad x > 1 \text{ bo‘lsin. U holda } (\arctg x)' = \frac{2}{1+x^2} \text{ va}$$

$$\left(\arcsin \frac{2x}{1+x^2}\right)' = \frac{1}{\sqrt{1 - \left(\frac{2x}{1+x^2}\right)^2}} \cdot \left(\frac{2x}{1+x^2}\right)' = \frac{1+x^2}{\sqrt{(1-x^2)^2}} \cdot \frac{2(1-x^2)}{(1+x^2)^2} = 2 \cdot \frac{1-x^2}{|1-x^2|} \cdot \frac{1}{1+x^2} = -\frac{2}{1+x^2}$$

Shuning uchun, $x > 1$ da $f'(x) = 0$.

Demak, $f(x)$ funksiya $x > 1$ da biror o‘zgarmas songa teng. Bu sonni topish uchun x ga biror 1 dan katta qiymat berib ko‘ramiz, misol uchun $x = \sqrt{3}$ deylik. $f(\sqrt{3})$ ni hisoblaymiz:

$$f(\sqrt{3}) = 2 \arctg \sqrt{3} + \arcsin \frac{\sqrt{3}}{2} = 2 \cdot \frac{\pi}{3} + \frac{\pi}{3} = \pi$$

Bundan ko‘rinadiki, $x \geq 1$ da $2 \arctg x + \arcsin \frac{2x}{1+x^2} = \pi$. Ayniyat isbotlandi.

2-misol. $|x| \neq 1$ bo‘lganda

$$= \frac{(1 - (2n+1)x^{2n}) - x^2 + (2n+1)x^{2n+2} + 2x^2 - 2x^{2n+2}}{(1-x^2)^2} = \frac{1+x^2 - (2n+1)x^{2n} + (2n-1)x^{2n+2}}{(1-x^2)^2},$$

ayniyatni isbotlang.

Isbot.

$$1 + 3x^2 + 5x^4 + \dots + (2n-1)x^{2n-2} = (x + x^3 + x^5 + \dots + x^{2n-1})'$$

tenglik o‘rinli ekanligi aniq.

$$x + x^3 + x^5 + \dots + x^{2n-1} = \frac{x - x^{2n+1}}{1 - x^2}. \text{ Bundan } 1 + 3x^2 + 5x^4 + \dots + (2n-1)x^{2n-2} = \left(\frac{x - x^{2n+1}}{1 - x^2}\right)',$$

Endi $(\frac{x - x^{2n+1}}{1 - x^2})'$ ni hisoblaymiz. $(\frac{x - x^{2n+1}}{1 - x^2})' = \frac{(1 - (2n + 1)x^{2n})(1 - x^2) + 2x(x - x^{2n+1})}{(1 - x^2)^2} =$
 $= \frac{(1 - (2n + 1)x^{2n}) - x^2 + (2n + 1)x^{2n+2} + 2x^2 - 2x^{2n+2}}{(1 - x^2)^2} = \frac{1 + x^2 - (2n + 1)x^{2n} + (2n - 1)x^{2n+2}}{(1 - x^2)^2},$

va bundan $1 + 3x^2 + 5x^4 + \dots + (2n - 1)x^{2n-2} = \frac{1 + x^2 - (2n + 1)x^{2n} + (2n - 1)x^{2n+2}}{(1 - x^2)^2}$ tenglik o'rinli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ayniyat isbotlandi.

3-misol. $\sin^2 x + \cos^2 x = 1$ ayniyatni isbotlang.

Isbot. $f(x) = \sin^2 x + \cos^2 x$ ni qaraymiz. $f'(x) = 2 \sin x \cos x - 2 \cos x \sin x = 0, f'(x) = 0.$

Bundan ko'rinadiki, $f(x) = c, c = const.$ Noma'lum c ni topish uchun x ga biror qiymat beramiz, misol uchun $x=0$ bo'lsin. U holda $f(0) = \sin^2 0 + \cos^2 0 = 1.$ Demak, $c = 1, \sin^2 x + \cos^2 x = 1.$ Isbotlandi.

4-misol. $x \geq 0$ da $\arctg x = -\arcsin \frac{1}{\sqrt{1+x^2}}$ ayniyatni isbotlaylik.

Isbot. $f(x) = \arctg x = -\arcsin \frac{1}{\sqrt{1+x^2}}$ funksiyani ($x \geq 0$) da qaraymiz.

$$f'(x) = \frac{1}{1+x^2} + \frac{1}{\sqrt{1 - (\frac{1}{1+x^2})^2}} \cdot (\frac{1}{1+x^2})' = \frac{1}{1+x^2} - \frac{\sqrt{1+x^2}}{x} \cdot \frac{x}{\sqrt{1+x^2} \cdot (1+x^2)} = \frac{1}{1+x^2} - \frac{1}{1+x^2} = 0$$

5-misol. $x > 0$ da $\arctg \frac{1}{x} + \arctg \frac{x-1}{x+1} = \frac{\pi}{4}$ ayniyatni isbotlang.

Isbot. $f(x) = \arctg \frac{1}{x} + \arctg \frac{x-1}{x+1}$ funksiyani $x > 0$ da qaraymiz. $x > 0$ da $f(x)$ funksiyani

hosilasi mavjud:

$$f'(x) = \frac{1}{1 + \frac{1}{x^2}} \cdot (-\frac{1}{x^2}) + \frac{1}{1 + (\frac{x-1}{x+1})^2} \cdot \frac{2}{(x+1)^2} = 0.$$

Demak, $f'(x) = 0$ va bundan ko'rinadiki. $x > 0$ da $f(x)$ biror o'zgarmas songa teng. Endi x ga biror qiymat berib ko'ramiz, misol uchun $x = 1: f(1) = \arctg 1 + \arctg 0 = \frac{\pi}{4}.$ Demak, $x > 0$ da

$$\arctg \frac{1}{x} + \arctg \frac{x-1}{x+1} = \frac{\pi}{4}. \text{ Isbot tugadi.}$$


6-misol. $x \geq 0$ da $x^2 - x^3 < \frac{1}{6}$ tengsizlikni isbotlang

Isbot. $x \geq 0$ da $f(x) = x^2 - x^3$ funksiyani qaraymiz. $[0; +\infty)$ da $f(x)$ funksiya uzluksiz.

$f'(x) = 2x - 3x^2$ bo'lib, $0 < x < \frac{2}{3}$ da $f'(x) > 0, x = \frac{2}{3}$ da $f'(x) = 0, x > \frac{2}{3}$ da $f'(x) < 0.$ Bundan

ko'rinadiki, $(0; \frac{2}{3})$ oraliqda $f(x)$ funksiya o'suvchi va $(\frac{2}{3}; \infty)$ $f(x)$ funksiya kamayuvchi bo'ladi.

Demak, $x = \frac{2}{3},$



nuqtada $f(x)$ funksiya maksimum qiymatga ega bo‘ladi. $f\left(\frac{2}{3}\right) = \frac{4}{27}$, $f(0) = 0$ ekanligini hisobga olsak,

$\forall x \in [0; +\infty)$, $f(x) \leq \frac{4}{27} < \frac{1}{6}$, $f(x) < \frac{1}{6}$ (1-rasm). Demak $x \geq 0$ da $x^2 - x^3 < \frac{1}{6}$ isbotlandi.

7-misol. $x \geq 0$ da $\sqrt{1+x} \leq 1 + \frac{x}{2}$ tengsizlikni isbotlang.

Isbot. $x \geq 0$ da $f(x) = -\sqrt{1+x} + 1 + \frac{x}{2}$ funksiyaning qaraymiz. $f(0) = 0$, $f(x)$ funksiya $x \geq 0$ da uzluksiz bo‘lgani uchun $(0; +\infty)$ da $f(x)$ funksiyaning o‘tuvchi ekanligini isbotlash yetarli.

$f'(x) = -\frac{1}{2\sqrt{1+x}} + \frac{1}{2} + \frac{\sqrt{1+x}-1}{2\sqrt{1+x}}$ ko‘rish mumkinki, $x > 0$ da $\sqrt{1+x} > 1$ va bundan $x > 0$ da

$f'(x) = \frac{\sqrt{1+x}-1}{2\sqrt{1+x}} > 0$ tengsizlik o‘rinli. Bu esa $x > 0$ da $f(x)$ funksiyaning o‘tuvchi ekanligini ko‘rsatadi.

Isbot tugadi.

8-misol. π^e va e^π larni taqqoslang.

$(0; +\infty)$ oraliqda $f(x) = \frac{\ln x}{x}$ funksiyaning qaraymiz. $f'(x) = \frac{1 - \ln x}{x^2} \leq 0$ desak $\ln x \geq 1 \Rightarrow x \geq e$

demak $f(x)$ funksiya $[e; +\infty)$ oraliqda kamayuvchi va $\pi \in [e; +\infty)$ hamda $\pi > e$ ekanligidan

$f(\pi) \leq f(e)$ ligi kelib chiqadi, bundan $\frac{\ln \pi}{\pi} \leq \frac{\ln e}{e}$ ya‘ni $e \ln \pi \leq \pi \ln e \Rightarrow \ln \pi^e \leq \ln e^\pi$ demak $\pi^e \leq e^\pi$

kelib chiqadi.

Xulosa. Hosilaning matematik tengsizliklar va ayniyatlarni isbotlashda qo‘llanilishi murakkab masalalarni soddalashtirish va yechimlarni aniqlashda samarali vosita ekanini ko‘rsatadi. Bu yondashuv, nazariy va amaliy misollar orqali, matematik isbotlarni mustahkamlash va umumlashtirishda hosilaning muhim rolini tasdiqlaydi. Hosila yordamida tengsizliklar va ayniyatlarni yanada tushunarli va osonroq isbotlash imkoniyati yaratiladi, bu esa matematik analizda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вавилов В.В. И др. Задачи по математике. Начала анализа.-М.: Наука. 1990.,-608с.
2. Вороной А.Н. Интеграл помогает доказывать неравенства. Математике в школе №6. 2002., 66-71с



3. С.Н.Олехник, М.К.Потапов, П.И.Нестандартные методы решения уравнений И неравенств. М.:МГУ, 1991.-144с
4. Azlarov T.S. va Mansurov M.S. tomonidan yozilgan "Matematik analiz" kitobining 1-qismi 1994-y
5. Туганбаев А. А. - *Высшая математика. Кратные интегралы. Теория и задачи.* М.: ФЛИНТА, 2019. - 124 с.
6. Math24.net. *Proving of Inequalities.*
7. Odil Djurayevich Djabbarov va Jahongir Tirkashevich Jonqobilov – "Ayniyat, tengsizliklarni isbotlash va ifodalarni soddalashtirishda hosiladan foydalanish" 26-iyun, 2023

**V-SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK
MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI
 (“Yog‘och materiallaridan buyum tayyorlash” mavzusi misolida)**

**МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У
УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ V КЛАССА
(на примере темы “Изготовление изделия из древесных материалов”)**

**METHODS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG STUDENTS IN
TECHNOLOGY LESSONS OF THE 5TH GRADE
(on the example of the topic “Making products from wood materials”)**

Igamov Sobir Salimovich, Matluba Toshova Abduvoit qizi

*Igamov S.S.,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent
sobirigamov72@gmail.com*

*Toshova M.A.,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Texnologik ta’lim kafedrasini
assistenti
matlubatoshova056@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnologiya darslarining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari, texnologiya darslari jarayonida o‘quvchilarda ekologik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari hamda ayrim metodlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: dars, mashg‘ulot, darslik, o‘qituvchi, o‘quvchi, yog‘och, yog‘och chiqindisi, ekologik madaniyat, SWOT tahlil.

Аннотация. В данной статье рассказывается об особенностях уроков технологии, о возможностях и некоторых методах формирования экологической культуры учащихся в процессе уроков технологии.

Ключевые слова: урок, занятие, учебник, учитель, ученик, древесина, древесные отходы, экологическая культура, SWOT анализ.

Abstract. This article describes the features of technology lessons, the possibilities and some methods of forming an ecological culture of students in the process of technology lessons.

Keywords: lesson, training, textbook, teacher, student, wood, wood waste, ecological culture, SWOT analysis.

Texnologiya darslari (mashg‘ulotlari) bir qancha o‘ziga xosliklari bilan boshqa umumta’lim fanlaridan ajralib turadiki, bu hol ushbu fan negizida o‘quvchi-yoshlarning tabiat bilan tanishish, muloqotda bo‘lish, uning boyliklarini asrab-avaylash, tejamli foydalanishni o‘rganish kabi masalalarda qulay imkoniyatlar yaratadi. Buning uchun:

- birinchidan, texnologiya dars mashg‘ulotlarini nafaqat maktab sinf xonalarida, balki ekinzorlarda, tajriba-sinov maydonchalarida, yaylovlarda, chorvachilik va parrandachilik majmualarida, mashina-traktor saroylarida, ustaxonalarda, tikuvchilik sexlarida, hunarmandchilik do‘konlarida, savdo rastalarida, ovqatlanish korxonalarida va boshqa joylarda ham o‘tkazish lozim;

- ikkinchidan, texnologiya darslarida asosiy e’tibor bilimlarni o‘rgatishdan tashqari, amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish hamda rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Bu esa har bir yo‘nalishdagi dars mashg‘ulotlari uchun ko‘plab materiallar, asbob-uskunalar, jihozlar va qurilmalar,

stanok va mashinalar zarur bo'lishini talab etadi. Sanab o'tilgan mehnat ob'yektlari va qurollarining hammasi ham maktab sharoitida bo'lmasligi ehtimolga yaqinki, bunday holda "sayyor" darslar qo'l keladi;

- uchinchidan, texnologiya mashg'ulotlarining amaliy xususiyatlaridan kelib chiqib, dars jadvalida 45 daqiqa emas, balki 2 marta 45 daqiqadan ketma-ket qilib qo'yish lozim, ya'ni dars mashg'ulotlari davomiyligi 80-90 daqiqalik bo'lishi zarur;

- to'rtinchidan, texnologiya dars mashg'ulotlarida o'quv materiallari 20 dan ziyod umumta'lim fanlari bilan o'zaro aloqadorlikda o'zlashtiriladi. Bu esa, o'qituvchilardan ham, o'quvchi-yoshlardan ham barcha tabiiy-ilmiy, amaliy, ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha keng dunyoqarashga ega bo'lishni taqozo etadi;

Texnologiya dars mashg'ulotlari tashkil etilishida, maqsad va vazifalariga ko'ra an'anaviy ravishda 3 xil ko'rinishda olib boriladi:

1-xil – nazariy bilimlarni o'zlashtirish darslari;

2-xil – amaliy ko'nikmalarini shakllantirish darslari;

3-xil – ishlab chiqarish malakalarini rivojlantirish darslari.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirish darslari barcha umum ta'lim fanlari bo'yicha keng qo'llanilib, ularning tuzilishi, an'anaviyligi, noan'anaviyligini ta'minlashda umumpedagogik tamoyillarga rioya qilinadi.

Darslar o'tkazilish metodikasi, tuzilmalari, qismlari, umumiy tamoyillari, bo'yicha umum didaktik va metodik talablarga asosan tashkil etiladi.

Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish darslari maqsad va vazifalariga ko'ra umummehnat, mehnat, maxsus va kasbiy faoliyat usullari, uslublari va ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi.

Ishlab chiqarish mashg'ulotlari faqat Texnologiya o'quv faniga xos bo'lib, ushbu darslar mobaynida o'quvchi-yoshlar turli xil ijodiy topshiriqlarni mustaqil ravishda bajaradilar. Misol sifatida tadqiqotni olib borish jarayonida 5-sinflarda olib borilgan darslarining imkoniyatlarini olib qaraylik. Darsda 5-sinf o'quvchilariga tajriba-sinov sifatida o'tilayotgan "Yog'och materiallaridan buyum yasash bosqichlari" (5-sinf 11-mavzu) mavzusida tabiat, atrof-muhit musaffoligi muammosiga e'tibor berish zarurligi ta'kidlandi [5].

Texnologiya darslari o'quvchilarda nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki ekologik madaniyatni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Yog'och materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni o'rganadi, bu esa ularning atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatini rivojlantiradi.

Maqsad va vazifalar:

Darsning maqsadi:

O'quvchilarda yog'och materiallarini qayta ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish.

Tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va ularni asrash bo'yicha bilim berish.

Vazifalari:

Yog'och materiallarini qayta ishlash jarayonlarini o'rgatish.

Yog'ochni qayta ishlashda ekologik xavfsizlik qoidalariga amal qilishni tushuntirish.

Yog'ochdan foydalangan holda foydali va dekorativ buyumlar tayyorlashni o'rgatish.

Yog'och chiqindilaridan yangi buyumlar yaratishni o'rgatish (upcycling).

Dars mazmuni:

1. Nazariy qism:

Yog'och materiallari haqida bilim berish:

Yog'ochning turlari (qarag'ay, eman, terak va boshqalar).

Yog'ochni qayta ishlashda ekologik xavfsizlik qoidalari.

Ekologik madaniyatning ahamiyati:

Yog'och resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish.

O'rmonlarni asrashning insoniyat va tabiat uchun foydasi.

Qayta ishlashning ekologik o'rni:

Yog'och chiqindilaridan yangi buyumlar yaratishning ijobiy ta'siri.

2. Amaliy qism:

Yog'och materiallaridan oddiy buyumlar tayyorlash (masalan, qo'l mehnati uchun doska, qalamdon, dekorativ figura).

Yog'och chiqindilaridan foydalanib, yangi buyumlar tayyorlash (mozaikalar, ramkalar).

Buyumlarni ishlab chiqarishda yog'ochni tejash usullarini qo'llash.

Ekologik madaniyatni shakllantirish usullari:

1. Ish jarayonida ekologik qadriyatlarni singdirish:

Tabiiy materiallardan foydalanishda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik.

Qayta ishlangan materiallardan yangi buyumlar yaratish orqali ekologik mas'uliyatni rivojlantirish.

Ko'rgazmali materiallardan foydalanish:

Yog'och ishlashning atrof-muhitga ta'siri haqida taqdimotlar.

Tabiatni asrash mavzusidagi video va rasm ko'rgazmalari.

3. Loyihaviy faoliyat:

O'quvchilarni kichik loyihalarda ishtirok ettirish (masalan, yog'och chiqindilaridan kichik dekorativ buyumlar yaratish).

"Tabiatni asraylik" mavzusida tanlov va ko'rgazmalar tashkil qilish.

Kutilayotgan natijalar:

O'quvchilar yog'och materiallari bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydi.

Atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ongli yondashuv shakllanadi.

Yog'och chiqindilarini qayta ishlash orqali ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Ekologik mas'uliyatli munosabat o'quvchilar ongiga singdiriladi.

Ekologik mas'uliyatli munosabatni o'quvchilar ongiga singdirish maqsadida ma'lum bir metodlardan foydalanish darsning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Biz tadqiqotimizda SWOT tahlili metodidan foydalanish imkoniyatlarini qarab chiqdik.

SWOT (Kuchli tomonlar, Zaif tomonlar, Imkoniyatlar, Tahdidlar) tahlili texnologiya darslarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini yanada samarali rejalashtirishga yordam berdi.

1. Kuchli tomonlar (Strengths):

Tabiiy resurslardan foydalanish tajribasi: O'quvchilar xalq xo'jaligining turli sohalarida eng ko'p ishlatiladigan tabiiy materiallardan biri bo'lgan yog'och bilan ishlashni o'rgandi.

Ijodkorlikni rivojlantirish: Buyumlarni tayyorlash jarayonida o'quvchilarda dizayn va ijodkorlik qobiliyatlari rivojlandi.

Ekologik tarbiya: Yog'och chiqindilaridan foydalanish jarayonida qayta ishlash va tabiatni asrash bo'yicha tushunchalar shakllandi.

O'quvchilarni qiziqtirish: Qo'l mehnati bilan shug'ullanish darslarni qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil etish imkoniyati oshdi.

Amaliy natijalar: Dars yakunida o'quvchilar o'z qo'llari bilan foydali buyumlar tayyorladi.

2. Zaif tomonlar (Weaknesses):

Material va vositalarning cheklanganligi: Maktablarda yog‘och materiallari va ularni qayta ishlash uchun mos vositalar yetishmasligi bilan yuzma-yuz keldik.

Texnik xavfsizlik qoidalari: Yog‘ochni kesish yoki ishlov berish jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Har bir o‘quvchiga e‘tibor qaratish: Amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchining har bir o‘quvchiga yetarli e‘tibor qaratishi qiyinchilik tug‘dirdi.

3. Imkoniyatlar (Opportunities):

Ekologik loyihalarda ishtirok: O‘quvchilarni ekologik aksiyalar, tanlovlar va ko‘rgazmalarga jalb qilish imkoniyati yaratildi.

Innovatsion yondashuv: Yog‘och chiqindilaridan zamonaviy va foydali buyumlar tayyorlash g‘oyalari paydo bo‘ldi.

Hamkorlik imkoniyatlari: Yog‘och ishlovchi mahalliy ustalar, ekologik tashkilotlar bilan hamkorlik qilish g‘oyasi paydo bo‘ldi.

Texnologik rivojlanish: Yog‘ochni qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy usullarni dars jarayoniga integratsiya qilishni (masalan, 3D dizayn yoki lazerli kesim texnologiyasi) sinovdan o‘tkazdik.

Ekologik targ‘ibot: O‘quvchilarning ishlarini namoyish qilish orqali ekologik ongni jamiyatga singdirishga harakat qildik.

4. Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan “Tahdidlar (Threats)” borasida o‘quvchilarga quyidagicha tushuncha berildi:

Yog‘ochdan foydalanish jarayoni noto‘g‘ri boshqarilsa, o‘rmonlarning kamayishiga olib kelishi mumkin.

Yog‘och materiallari bilan ishlashda xavfsizlik choralariga rioya qilmaslik o‘quvchilarning jarohatlanish xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Resurslarni tejash o‘rniga ulardan noto‘g‘ri foydalanish ekologik muammolarni kuchaytirishi mumkin.

Material va uskunalarni sotib olish uchun yetarli mablag‘ning hamisha ham bo‘lmasligi.

Biz SWOT tahlil natijasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqdik:

1. Kuchli tomonlarni mustahkamlash:

Darslarni amaliyot bilan boyitish va o‘quvchilarda ekologik ongni rivojlantirishga e‘tibor qaratish lozim.

2. Zaif tomonlarni bartaraf etish:

O‘quvchilarga yog‘och bilan ishlash jarayonida rioya etiladigan texnika xavfsizlik qoidalarini puxta o‘rgatish va har bir o‘quvchining individual faoliyat jarayonini o‘qituvchi tomonidan nazorat etilishini ta‘minlash.

Mahalliy resurslardan oqilona foydalanish va ulardan chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish.

3. Imkoniyatlardan foydalanish:

Loyihaviy darslar va ekologik ko‘rgazmalar orqali ijtimoiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

4. Tahdidlarni kamaytirish:

Yog‘och resurslarini oqilona ishlatish va qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishni rag‘batlantirish.

Xulosa:

Ushbu metodni qo‘llagan holda texnologiya darslarini ekologik tarbiya bilan uyg‘unlashtirib tashkil etish orqali o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga erishish mumkinligi aniqlandi.

Mazkur tajriba-sinov darsi o‘qituvchilarga tabiat va atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha zaruriy bilimlar berishda muhim didaktik vosita ekanligi ma‘lum bo‘ldi va bir qator dars ishlanmalari sinovdan

o‘tkazilishiga ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi. Ularni ishlab chiqishda texnologiya darslari o‘quvchilarga tabiat va atrofimizni o‘rab turgan borliq to‘g‘risida zaruriy tushuncha va tasavvurlar to‘plashda anchagina pedagogik, didaktik, psixologik, metodik va boshqa imkoniyatlarga egaligidan kelib chiqildi. Texnologiya fanidan nazariy va amaliy darslar tashkil etildi, Texnologiya fanining ekologik ta‘lim-tarbiya berishdagi o‘rni aniqlandi hamda quyidagi xulosalar chiqarildi:

Texnologiya darslari o‘quvchi-yoshlarda tabiat va atrof-muhit muhofazasi to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malaka (kelgusida - BKM)larni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda turadi. Chunki, mazkur darslarning mazmunini belgilaydigan UO‘T DTSda ko‘rsatilgan yog‘ochga, metallga va gazlamalarga ishlov berish, pazandachilik, hunarmandchilik, qishloq xo‘jalik asoslari va boshqa yo‘nalishlari ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘langan [1].

Texnologiya darslarida noan‘anaviylikdan ustuvor metod sifatida keng foydalanish ta‘lim oluvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, faollik xislatlarini mustahkamlab boradi. Chunki, xalqimizning “yuz karra eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan ma‘qul” degan naqli aynan Texnologiya jarayonida tabiiy ob‘yektlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotda bo‘layotgan o‘quvchi-yoshlarga taaluqlidir.

Texnologiya darslari o‘quvchi-yoshlarda tabiat va atrof-muhitda yuz berayotgan hodisalar mohiyatini anglashda asosiy bilimlar, boshlang‘ich amaliy malakalarni muhim didaktik vosita hisoblansa-da, bu bilan tabiat manbalari bilan amaliy muloqot ko‘nikmalari rivojlanishida oila, mahalla, ishlab chiqarish jamoalarining o‘rnining muhimligi alohida ta‘kidlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davlat ta‘lim standartlari va davlat ta‘lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirkari (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori)157-son 28.03.2024
2. Igamov S.S. Umumta‘lim maktablarining texnologiya darslari jarayonida xalq hunarmandchiligini o‘rganishdagi ayrim muammolar va echimlar //Xalq ta‘limi jurnali – T:2021, №6. 73-75 b
3. Olimov B.U. Mehnat ta‘limi darslarida o‘qitishning noanaviy usulari. Diss.... ped. fan. nom. – Toshkent, 2008. – 146 b.
4. Zaripov L.R. Innovatsion yondashuv asosida 5-7-sinf o‘quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. Dis. ... p.f.f.d. (PhD) .–T.: 2020. - 150 b
5. Sharipov Sh.S. va b. Texnologiya ta‘limi: Darslik, 5- sinf. -T.: “SHarq”, 2015. -237 b.

YANGI AVLOD DARSLIKLARINING METODIKASI VA TEKNOLOGIK IMKONIYATLARI

МЕТОДОЛОГИЯ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ УЧЕБНИКОВ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

METHODOLOGY AND TECHNOLOGICAL OPPORTUNITIES OF NEW GENERATION TEXTBOOKS

Jumanov Xudoyor Shuxrat o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqolada multimediali texnologiyalarning eng muhim xususiyatlari hamda elektron o'quv vositalarini ishlab chiqishda axborot va kompyuter texnologiyalari sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, tegishli sohadagi fan, texnika va texnologiyalarning so'nggi yutuqlari haqida so'z boradi. Jumladan, mobil qurilmalar orqali ta'lim olishning bir qator afzalliklari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *interfaol, texnologik yechimlar, texnologik imkoniyat, elektron darslik, innovatsion ta'lim, instrumental tizimlar, multimedia, gipermatn, linyali matn, axborot.*

Аннотация. В данной статье говорится о важнейших особенностях мультимедийных технологий и научных исследований в области информационных и компьютерных технологий при разработке электронных образовательных средств, а также о последних достижениях науки, техники и технологий в соответствующей области. В частности, выявлен ряд преимуществ обучения через мобильные устройства.

Ключевые слова: *интерактивный, технологические решения, технологическая возможность, электронный учебник, инновационное образование, инструментальные системы, мультимедиа, гипертекст, линейный текст, информация.*

Abstract. This article talks about the most important features of multimedia technologies and scientific research in the field of information and computer technologies in the development of electronic educational tools, as well as the latest achievements of science, technology and technology in the relevant field. In particular, a number of advantages of learning through mobile devices are revealed.

Keywords: *interactive, technological solutions, technological possibility, electronic textbook, innovative education, instrumental systems, multimedia, hypertext, linear text, information.*

Elektron darsliklarni yaratishda zamonaviy didaktik va metodik talablarni hisobga olish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yangi avlod darsliklari nafaqat o'quv materiallarini taklif qilish, balki interfaol o'zaro ta'sir, multimediya imkoniyatlari va o'quvchilar ehtiyojiga moslashtirilgan texnologik yechimlarni o'z ichiga olishi kerak. Bu darsliklarni ishlab chiqishda ta'lim mazmunini foydalanuvchilarga qulay shaklda yetkazish, mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish va axborotni tizimli ravishda taqdim etish asosiy vazifalardan biridir.

Elektron darslik yaratishda didaktik va metodik talablar, yangi avlod darsliklarining metodikasi va texnologik imkoniyatlari haqida zamonaviy nuqtai nazardan so'z yuritishda, ta'limning o'zgaruvchan

*Jumanov X.Sh.,
Nukus innovatsion
instituti,
Mustaqil tadqiqotchi
xjumanov23@gmail.com*

muhitiga moslashgan yangi yondashuvlarni ko‘rib chiqish zarur. Bu yerda asosiy maqsad – o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini samarali va interaktiv tarzda rivojlantirishdir.

Didaktik va metodik talablar yangi elektron darsliklar yaratishda, asosan, o‘quvchilarning kognitiv xususiyatlarini hisobga olishga yo‘naltirilgan. Bu talablar o‘quvchilarning yoshiga, ularning ilgari o‘zlashtirgan bilim darajasiga hamda maqsadli natijalarga erishishga xizmat qilishi kerak. Darsliklarning didaktik yondoshuvi shunday bo‘lishi lozimki, o‘quvchilar o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni o‘zlashtirsin. Yangi avlod darsliklari interaktiv imkoniyatlar, multimediyaviy vositalari va vizual materiallarni samarali tarzda o‘z ichiga olishi kerak. Bu metodika, o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularga mustaqil izlanishlar olib borishga imkon yaratadi.

Yangi avlod darsliklarining metodikasi o‘zgaruvchan ta‘lim talablariga javob beradigan tarzda ishlab chiqilmoqda. Bunda ta‘lim texnologiyalarining rivojlanishi, xususan, raqamli va onlayn resurslarning o‘quv jarayoniga kiritilishi, samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Yangi metodikalar o‘quvchilarga ma‘lumotlarni faqat eslab qolish emas, balki amaliyotda qo‘llash, baholash va tahlil qilishni o‘rgatadi. Masalan, “Interaktiv ta‘lim texnologiyalari” asarida elektron ta‘limning metodik jihatlari, ayniqsa, raqamli platformalarda o‘qitishning metodik yondoshuvlari haqida so‘z boradi [1].

Texnologik imkoniyatlar esa elektron darsliklarning yuqori darajadagi samaradorligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun‘iy intellekt va o‘qitishning adaptiv tizimlari, o‘quv jarayonini individualizatsiyalashga yordam beradi. Elektron darsliklarda interaktiv elementlar, video va audio materiallar, simulyatsiyalar hamda qulay navigatsiya tizimlari mavjud bo‘lishi kerak. Bu o‘quvchilarga o‘z vaqtida, o‘z ehtiyojlariga mos ravishda ta‘lim olish imkonini beradi. Elektron darsliklarning texnologik imkoniyatlari, masalan, “Innovatsion ta‘lim texnologiyalari” asarida batafsil yoritilgan [2].

Kompyuter texnologiyalarining jamiyatdagi o‘rni tobora kuchayib bormoqda. Insoniyat faoliyatining aksariyat jabhalarini kompyutersiz tasavvur qilish qiyin bo‘lgan bugungi kunda, ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlar ham bu jarayondan chetda qolmaydi. Ta‘lim – o‘zgaruvchan va dinamik jarayon bo‘lib, unda texnologiyalarni joriy etish, yangi metodikalar va vositalarni qo‘llash zarurati kundankunga ortib bormoqda. Kompyuter texnologiyalari yordamida ta‘lim jarayonini yaxshilash, o‘quvchilarni qiziqitirish va o‘rgatishning samarali usullarini topish dolzarb masalalardan biridir.

Bu borada **multimedia texnologiyalari** alohida o‘rin tutadi. **Multimedia** so‘zi ko‘p (multi) va muhit (media) so‘zlaridan olingan bo‘lib, bu texnologiya bir vaqtning o‘zida bir nechta axborot usullarini taqdim etishga imkon beradi. Multimedia yordamida o‘quv materiallari matn, tasvir, audio va video shakllarda berilishi mumkin, bu esa o‘quvchilarning ko‘proq ma‘lumot olishiga va ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [1.43].

Multimediali texnologiyaning eng muhim xususiyati – **interfaollik** (interactivity). Interfaollik – bu axborot muhitida foydalanuvchining o‘z ta‘sirini o‘tkazish qobiliyatidir. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarga materiallarni faqat eshitib yoki ko‘rib o‘rganish emas, balki ular bilan faol muloqot qilish imkonini yaratadi [2,58]. Multimedia texnologiyalari yordamida yaratilgan interaktiv darsliklar o‘quvchilarni nafaqat ma‘lumot olishga, balki o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga undaydi. Masalan, multimedia darsliklari orqali o‘quvchi o‘zi bilan bevosita muloqotda bo‘lib, mashqlarni yechish, savollarga javob berish va ma‘lumotlarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

So‘nggi yillarda multimedia texnologiyalariga asoslangan ko‘plab dasturiy mahsulotlar yaratildi.

Ensiklopediyalar, o‘rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshqa ko‘plab multimedia mahsulotlari ta‘lim jarayonini samarali ravishda qo‘llab-quvvatlamogda. Bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilarga ma‘lumotni yengil va samarali tarzda yetkazish mumkin. Masalan, multimedia

darsliklar orqali o'quvchilar uchun mavzularni yoritish, misollarni ko'rsatish va taqdimotlarni qo'llab-quvvatlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Multimediali elektron ta'lim resurslarini yaratish uchun muallifning mahorati, tajribasi va fantaziyasiga katta e'tibor qaratilishi zarur [3,67]. Bu resurslarni yaratish jarayonida ikki asosiy usulni ajratish mumkin:

- **Dasturlash tillaridan foydalangan holda** – bu usul ko'p mehnat talab qiladi va yuqori texnik bilimlarni talab qiladi. Dasturlash orqali yaratilgan multimedia resurslar ko'proq moslashuvchan bo'lib, o'quvchilar uchun turli xil interaktiv imkoniyatlarni taqdim etadi.

- **Instrumental tizimlardan foydalanish** – bu usul, dasturlashdan ko'ra osonroq va tezroq amalga oshiriladi. Bu tizimlar yordamida multimedia darsliklarini yaratish o'quvchilarga yanada qulay va intuitiv interfeysni taqdim etishga imkon beradi.

Multimediali texnologiyalarni o'qitishda keng qo'llash, ta'lim jarayonining sifatini oshiradi va o'quvchilarni yanada faolroq o'rganishga undaydi. Elektron ta'lim resurslarining metodikasi va texnologik imkoniyatlari, ayniqsa, yangi avlod darsliklarini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Elektron o'quv nashrlari ichida Internetda joylashtirilgan tarmoq resurslari ko'proq tarqalmoqda. Tarixiy mavzudagi Internet resurslarining ham soni ortmoqda. Asta-sekin tarixiy resurslarning berilganlar bazalari, maxsus katalog va qidiruv tizimlari vujudga keldi. Tarmoq ilmiy-ta'lim resurslari bilan ishlash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, tarmoqda brauzerlar bilan ishlash malakasini, Internetda axborot izlash, uni qayta ishlash va saqlash usullari bilan tanish bo'lishni talab etadi.

Internetda ishlamoqchi bo'lgan tarixchi oldida turadigan birinchi muammo – axborot qidirish muammosidir. Keyingi muammo – topilgan resurslarning ta'lim maqsadlarida foydalanishga yaroqliligini aniqlashdan iborat [4,45]. Davlat ta'lim standartlariga mos kelish nuqtai nazaridan tekshirilmaydigan ko'plab tarixiy resurslar mavjuddir. Ixtiyoriy kursni o'rganish jarayonida Internetdan olingan o'quv qo'lanmasining ta'lim muassasasi o'quv dasturiga mos kelmasligi muammosi vujudga kelishi mumkin.

Internetdan olinadigan ma'lumotlarning nihoyatda turli-tuman xarakterda ekanligi ularni qayta ishlash uchun kerak bo'ladigan dasturiy va texnik vositalarni tanlash muammosini keltirib chiqaradi. Matnli, grafik, audio-video axborotlarni tasvirlashning ko'plab formatlari mavjud. Ushbu muammolarni hal etishning ba'zi yo'llarini ko'rib o'tamiz. Nimani qidirish kerak? – bu savolga javob berishda o'z ta'lim faoliyatida tarixchi o'quv rejasiga murojaat etadi [5,82]. Shuningdek, strukturasi, taqdim etilish tipi, maqsadi va bayon etilish shakli jihatidan farq qiluvchi axborot xarakterini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Elektron aloqa vositalari, internet, aynan ommaviy axborot vositalarining misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Gazetalar, jurnallar, radio, televidenie, axborot agentliklari, internet son jihatdan beqiyos o'sdi, sifat jihatdan sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda [6,14]. Kompyuter, faks, uyali telefon, parabolik antenna, elektron pochta kabi texnik mo'jizalar ommaviy axborot vositalari rivojiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual tovushli, videoli va animatsion elementlarni o'zida mujassamlashtirgan o'quv materialidan iborat bo'lib, tabiiyki, bu atama kompyuter xotirasidagi yoki disklardagi ma'lumotlarga nisbatan ishlatiladi beradigan interfaol vositalar tushuniladi.

Multimediali o'quv materiali bosma material, videofil'm, animatsiyali grafik obrazlar, matn va tovushlar ustida amal bajarishga imkon yaratadi. Xususan, salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, ma'naviy immuniteti kuchli, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda. Ta'lim jarayonida masofali, ya'ni internet, televidenie, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o'z samarasini ko'rsatmoqda [7,27]. Mutaxassislar

fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni diqqatini jamlashga, qiziqtirishga, mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Ta'lim jarayonida elektron darsliklar qanchalik mukammal bo'lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, bugun elektron multimedia sirlarini nazariy jihatdan puxta o'rganib, amaliyotda yetarli darajada qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Axborot kommunikatsiyaning globallashuvi sharoitida ta'lim jarayonida o'ziga xos talablar paydo bo'lmoqda. Bu talablar bevosita elektron ta'lim bilan chambarchas bog'liqdir. Ko'rgazma vositalar o'qituvchi uchun o'quvchining bilish faoliyatini boshqarish quroli, o'quvchi uchun bilim manbai, tasavvur, tushuncha, qonuniyat va nazariyani o'zlashtirishga yordam beradigan vosita vazifasini bajaradi. O'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan talablarga ko'ra, bu tasvirlanadigan umumiy axborot hajmining 40-90 % igacha oshirilishi lozim.

Elektron o'quv materialini tayyorlash uchun multimediali vositalardan foydalaniladi. Multimediali vositalar deganda esa, bir vaqtning o'zida harakatlanadigan tasvir, matn, tovush va video tasvirlardan tashkil topgan materiallar tushuniladi. Bunday materiallar nafaqat o'quvchilarni qiziqtirish, balki ularning bilish faoliyatini samarali boshqarishga ham yordam beradi. Multimediali vositalar o'quv jarayonini nafaqat vizual, balki auditorial va kinestetik talablarga moslashtiradi, bu esa o'quvchilarning turli xil o'rganish usullarini qo'llash imkonini beradi.

Elektron o'quv vositalarini ishlab chiqishda axborot va kompyuter texnologiyalari sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, tegishli sohadagi fan, texnika va texnologiyaning so'nggi yutuqlari foydalanilishi kerak. Ularning asosiy maqsadi o'qituvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalarining kompyuter texnikasi vositalari asosida o'qitilayotgan fanlarni o'rganishda taqdim etadigan imkoniyatlarni tushinishda yordam berishdir. Fanning xususiyatlarini hisobga olish, asosan, Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlardagi elektron o'quv vositalari bozorini tahlil qilishni talab qiladi. Elektron o'quv vositalarini turli kategoriyalar bo'yicha tasniflash mumkin: o'quv materialini taqdim etish usuliga ko'ra, tarmoq texnologiyalaridan foydalanishga ko'ra, tashqi manbalarga havolalarning mavjudligiga ko'ra, o'quv faoliyatini tashkil etish shaklida va boshqalar.

Elektron o'quv vositalari, liniyalı matn asosida, rasm va mavzular bilan bo'lingan matnli materialdan iborat bo'lib, u ma'lum bir tartibda sahifalanadi. Liniyalı tarzda ma'lumot taqdim etilishi o'quvchiga o'quv jarayonini boshidan boshlash yoki oldingi qadamga qaytish imkonini beradi. Shunday qilib, o'quvchining elektron o'quv vositasi bilan tanishishi oldindan belgilangan ketma-ketlikda amalga oshiriladi va bu ketma-ketlikni o'zgartirish imkoniyati yo'qdir. Bunday turdagi elektron o'quv vositalari, odatda, test dasturlarini o'z ichiga olmaydi, agar ular mavjud bo'lsa, faqat o'quvchini avvalgi o'qilgan mavzuga qaytarishi yoki o'qilgan material uchun baho qo'yishi mumkin. Biroq, bu faqat o'qish, o'rganish emas, bu esa o'quvchining chuqur bilim olish talabini qondirishga imkon bermaydi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim materiallarini taqdim etish, interaktiv elektron o'quv vositasida nazariyani, amaliy mashg'ulotlarni va test tizimlarini birlashtirish imkonini yaratadi. Bunday o'quv qo'llanmalari nafaqat o'qituvchining kundalik ish yukini yengillashtiradi, balki o'quvchilarning o'quv predmetlariga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, o'qish jarayonini tezlashtiradi va bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishni ta'minlaydi. Ammo multimedia asosidagi elektron o'quv vositalarini yaratish jarayoni murakkab va resurslar talab qiluvchi jarayon bo'lib, ularning ishlashi uchun maxsus apparat qo'llab-quvvatlashi kerak, bu esa xotira hajmi va ishlash tezligini cheklaydi. Masalan, bir sahifali matnning o'lchami bir necha kilobaytni tashkil etsa, video materiallar esa gigabaytlar darajasida bo'lishi mumkin. Multimedia elementlarini (animatsiyalar, tovushlar va videolar) qo'shish esa ishlab

chiqish jarayonini yanada murakkablashtiradi, chunki mavjud internet aloqa kanallari bunday yirik hajmdagi ma'lumotlarni tez va sifatli uzatishga imkon bermaydi. Bu, o'z navbatida, murakkab materiallarni dinamik tarzda, sinxron ravishda tovushli ko'rsatishda qiyinchiliklarga olib keladigan o'quv vositalarining yana bir turi – gipermatnli tizimlardir. Gipermatn boshqa ma'lumotlarni taqdim etish usullaridan farq qiladi, chunki foydalanuvchi ma'lumotni ko'rib chiqish va o'qish orqali o'rganadi, va ma'lumotlar o'rtasida o'zaro bog'lanishlar yordamida tezda bir bo'limdan boshqasiga o'tish imkoniyati yaratiladi. Bunday tizimda ma'lumotlarning ketma-ketligi foydalanuvchining shaxsiy maqsadlariga qarab belgilanishi mumkin. Liniyalı matndan farqli o'laroq, gipermatnda ma'lumot modullarga (mavzularga) bo'linadi va ularning o'rtasida gipersslykalar orqali bog'lanish o'rnatiladi, bu esa foydalanuvchiga materialni o'rganishda o'z xohishiga ko'ra ketma-ketlikni tanlash imkonini beradi. Gipersslykalar foydalanuvchiga hozirgi mavzudan bir nechta boshqa, bog'langan mavzularga o'tishga imkon beradi, bu esa o'qish jarayonini interaktiv va moslashtirilgan qiladi.

Tahlil qilish bosqichida elektron darslikning talabalar tayyorlashning umumiy tizimida tutgan o'rni va o'rnini hisobga olgan holda elektron darslik yordamida o'rganish maqsadlarini oqilona cheklash hamda undan foydalanib o'rganishning kutilayotgan natijalarini oldindan aytib berish lozim. Bu bosqichni muvaffaqiyatli o'tish uchun elektron darslikning kimga mo'ljallanganligini aniq belgilash, uning qanday tuzilishga ega bo'lishini aniqlash va elektron darslikning vazifalarini aniqlash lozim. Elektron darslikni loyihalash bosqichida vositalarni tanlash amalga oshiriladi, uning asosiy bloklari va o'rganish strategiyasi aniqlanadi va tartib, interfeys va navigatsiya xususiyatlari aniqlanadi.

Internet texnologiyalarining tez rivojlanishi ta'lim sohasida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Bugungi kunda internetga ulanish imkoniyati mavjud bo'lsa, ta'lim olish jarayoni har qanday vaqtda va har qanday joyda amalga oshirilishi mumkin. Bu esa ta'limni yanada qulayroq va samaraliroq qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, mobil ta'lim tizimi, ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishga yordam bermogda [8].

YuNESKO xodimlari mobil ta'limni "joy va vaqtdan qat'iy nazar ta'lim jarayonini tashkil etish uchun mobil texnologiyalarni va boshqa axborot-kommunikatsiya vositalarini birgalikda ishlatish" deb ta'riflaydilar [9]. Mobil texnologiyalar, ayniqsa mobil telefonlar, planshetlar, elektron kitoblar va boshqa ko'chma qurilmalar yordamida ta'lim olishning samaradorligini oshirmogda.

Mobil qurilmalar orqali ta'lim olishning bir qator afzalliklari mavjud:

-Iqtisodiy samaradorlik: Mobil texnologiyalar arzon va keng tarqalgan, bu esa ta'lim olishni yanada osonlashtiradi.

-Kirishning katta erkinligi: Internetga ulanadigan qurilmalar orqali foydalanuvchilar istalgan vaqtda va istalgan joyda ta'lim olishlari mumkin.

-Vaqt va geografik cheklovlarning yo'qligi: Ta'lim jarayoni o'rnatilgan vaqt va joy bilan cheklanmaydi, bu esa talabalarga o'z vaqtlarini samarali boshqarishga imkon beradi.

-Axborot bilan ishlashda moslashuvchanlik: Mobil qurilmalarda turli xil resurslarga oson kirish mumkin, bu esa o'quvchilarga axborot bilan samarali ishlash imkoniyatini beradi.

-O'z-o'zini o'rganish imkoniyati: Talabalar o'z o'rganish jarayonini mustaqil ravishda boshqarishlari mumkin.

-Ta'limning boshqa shakllari bilan integratsiya: Mobil ta'lim boshqa o'quv metodlari va shakllari bilan birlashtirilishi mumkin, bu esa ta'limni yanada boyitadi.

-Talabalar ishini optimallashtirish: Mobil ilovalar orqali talabalar o'z bilimlarini tekshirib borishlari, ularni mustahkamlashlari mumkin.

-Interaktiv kontentdan foydalanish: Mobil qurilmalar interaktiv o'qitish vositalarini, masalan, o'yinlar yoki simulyatsiyalarni o'z ichiga oladi, bu esa ta'limni yanada qiziqarli qiladi.

Mobil qurilmalar bozori doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Foydalanuvchilar mobil qurilmalardan internetga kirish uchun tobora ko‘proq foydalanishmoqda.

Mobil ta‘lim tizimida muhim vositalardan biri - mobil ilovalar. Misol uchun, Google Play xizmati, turli Android dasturlarini taklif qiluvchi platforma, o‘quvchilar uchun chet tillarni o‘rganish, turli fanlar bo‘yicha imtihonlarga tayyorlanish, dasturlashni o‘rganish kabi ilovalar bilan ta‘minlaydi. Ushbu xizmatlar yordamida talabalar turli resurslarga tezkor va qulay tarzda kirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Google Play orqali taqdim etilayotgan ilovalar soni va turli xil dasturlar o‘quvchilarni ta‘lim olishda qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, mobil ta‘limning rivojlanishi va foydalanilayotgan texnologiyalarning o‘zgarishi ta‘lim jarayonining sifatini oshirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘limov M. Interaktiv ta‘lim texnologiyalari. Tashkent, 2021.
2. Karimov S. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari. Toshkent, 2022.
3. Tursunov A. Ta‘limda multimedia texnologiyalarining o‘rni. Buxoro, 2022.
4. Abdulkarimov R. Tarixiy resurslarni tarmoqda qidirish metodikasi. Samarqand, 2021.
5. Muxamedov Z. Tarixchi va Internet resurslari: Qidiruv va tahlil. Toshkent, 2022.
6. Jumanazarov A. Axborot texnologiyalarining ommaviy axborot vositalaridagi roli. Toshkent, 2022.
7. Ismailov T. Masofaviy ta‘lim texnologiyalari va ularning ta‘limdagi ahamiyati. Buxoro, 2020.
8. “Internet texnologiyalarining ta‘limda qo‘llanilishi”, O‘zbekiston Ta‘lim va Texnologiya jurnali, 2023.
9. YuNESKO, “Mobil ta‘limning mohiyati”, 2022.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA HIKOYA USULINI QO‘LLASH ORQALI CHET TILIDA
KOGNITIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH****ФОРМИРОВАНИЕ КОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ ПО ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ В
НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ ПОВЕСТВОВАНИЯ****FORMATION OF COGNITIVE SKILLS IN FOREIGN LANGUAGE IN PRIMARY
EDUCATION WITH THE APPLICATION OF STORYTELLING**

Mardanov Eshim, Xushvaqtov Ali, Salimova Nafosat

Mardanov E.,
O‘zbekiston – Finlandiya
pedagogika instituti,
pedagogika fanlari nomzodi,
dotsenti
eshimmardanov@gmail.com

Xushvaqtov A.,
O‘zbekiston – Finlandiya
pedagogika instituti

Salimova N.,
Iqtisodiyot va pedagogika
universiteti
nafosatsalimova7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning chet tillari bo‘yicha kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida hikoya qilishdan o‘qitish usuli sifatida foydalanish muhokama qilinadigan. Mualliflar tomonidan turli xil o‘qitish usullari kuzatildi va tahlil qilindi. Tajribadan oldingi va keying kuzatuv natijalari taqdim etildi.

Kalit so‘zlar: kognitiv fikrlash, hikoya qilish, mantiqiy fikrlash, ijodiy fikrlash, tinglash qobiliyati, hissiy fikrlash.

Аннотация. В данной статье обсуждается использование сторителлинга как подхода к обучению с целью развития когнитивных навыков учащихся на иностранных языках в начальной школе. Авторы проанализировали различные методы обучения и провели тщательное сравнение эффектов и различий в результатах прогресса учащихся до и после проведения анализа.

Ключевые слова: когнитивное мышление, сторителлинг, логическое мышление, творческое мышление, навыки слушания, эмоциональное мышление.

Abstract. The given article discusses the use of storytelling as a teaching approach in order to develop students’ cognitive skills in foreign languages in primary education. The authors have analyzed a variety of teaching techniques and provided a thorough comparison of the effects and differences in the outcomes of students’ progress before and after the analysis is carried out.

Keywords: cognitive thinking, storytelling, logical thinking, creative thinking, listening skills, emotional thinking.

Boshlang‘ich ta‘limda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish intellektual o‘shishni va akademik muvaffaqiyatni rag‘batlantirishning hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Xotira, e‘tibor, muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlash kabi kognitiv qobiliyatlar erta o‘rganishda, ayniqsa, chet tilini o‘zlashtirishda asosiy rol o‘ynaydi [1].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hikoya qilish bir nechta kognitiv jarayonlarni o‘z ichiga olgan, eslab qolishni kuchaytiradigan va lingvistik kompetentsiyani rivojlantiruvchi samarali pedagogik yondashuvdir [2].

Hikoyalar tilni o'rganish uchun tuzilgan, ammo xayoliy vositani ta'minlaydi, bu bolalarga lug'at, grammatika tuzilmalari va talaffuzni qiziqarli tarzda o'zlashtirishga imkon beradi [3]. An'anaviy eslab qolish usullaridan farqli o'laroq, hikoya qilish kontekst yaratish, qiziqishni uyg'otish va ishtirokni rag'batlantirish orqali mazmunli o'rganishga yordam beradi [4]. Ushbu tadqiqot chet tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining xotira, e'tibor, muammoni hal qilish va ijodkorlikka e'tibor qaratishda kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishiga hikoya qilishning ta'sirini o'rganadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi:

- Chet tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ertak aytish kognitiv qobiliyatlarni kuchaytiradimi yoki yo'qligini tekshirish.
- Hikoyaga asoslangan ta'lim samaradorligini darslikdagi an'anaviy usullar bilan so'z boyligini saqlash, diqqatni jamlash va muammolarni yechishda solishtirish.
- Hikoya usullariga duch kelganda, talabalarning chet tilini o'rganishdagi faolligi va motivatsiyasini tahlil qilish.

Metodologiya. Ikki yosh til o'rganuvchilar guruhini taqqoslagan holda kvazi-eksperimental dizayn qo'llanildi:

- Eksperimental guruh (Hikoyaga asoslangan ta'lim): Interfaol hikoya seanslari bilan shug'ullanadi.

- Nazorat guruhi (an'anaviy ta'lim): darslikdagi an'anaviy usullardan foydalangan holda o'qitiladi.

Ushbu aralash usulli tadqiqot kognitiv rivojlanish va talabalarning faolligini baholash uchun sifat va miqdoriy ma'lumotlarni to'plash usullarini o'z ichiga olgan.

Tadqiqotda ikki sinfdan 60 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari (7–10 yoshli) chet tilini (ingliz tili xorijiy til sifatida – EFL) o'rganmoqda. Ishtirokchilar quyidagicha taqsimlandi:

Eksperimental guruh (n = 30) - hikoyaga asoslangan ko'rsatmalarga asoslangan.

Nazorat guruhi (n = 30) – An'anaviy lug'at mashqlari va grammatika mashqlari yordamida o'rgatiladi.

Eksperimental guruh 12 haftalik hikoyaga asoslangan o'qitishda ishtirok etdi, mashg'ulotlar haftasiga ikki marta har biri 45 daqiqadan o'tkazildi. Mazkur o'qitish tizimi o'z ichiga olgan tadbirlar quyidagicha:

- Rasmlar kitoblari va tasvirlangan hikoyalar [3].
- Xotirani saqlash va og'zaki ifodani kuchaytirish uchun rol o'ynash va drammatizatsiya [5].
- mantiqiy fikrlashni takomillashtirish bo'yicha harakatlar ketma-ketligi [4].
- Ijodiy hikoya qilish mashqlari, bu yerda talabalar o'zlarining hikoyalarini tuzadilar va so'zlab beradilar.

Nazorat guruhi an'anaviy yondashuvga amal qilib, quyidagilarga e'tibor qaratdi:

- So'zlar ro'yxati orqali lug'atni yodlash.
- Grammatik mashqlar va jumla mashqlari.
- interaktiv elementlarsiz o'qishni tushunish.

Kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishini baholash uchun quyidagi vositalar qo'llaniladi:

- so'z boyligini saqlash, diqqatni jalb qilish va muammolarni hal qilishni baholash uchun oldingi va keyingi testlar.

- Talabalarning faolligi va ishtirokini kuzatuvchi nazorat varaqlari.
- o'qituvchilar va talabalar bilan ularning o'quv tajribalari haqida sifatli suhbatlar.

Munozara. Hikoya o'zining ko'p qirrali afzalliklari tufayli boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Quyida biz hikoya qilish nima uchun

o'quvchilarning og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda qimmatli vosita ekanligining har tomonlama tahlilini ko'rishimiz mumkin:

- Tilni o'zlashtirish: Hikoyalar o'quvchilarga kontekstdagi keng ko'lamli lug'at, idiomatik iboralar va jumla tuzilmalari bilan tanishish uchun tabiiy va immersiv usulni ta'minlaydi. Ushbu ekspozitsiya tilni o'zlashtirishga yordam beradi va o'quvchilarga an'anaviy grammatik mashqlardan ko'ra til modellarini yanada samaraliroq o'zlashtirishga yordam beradi.

- Kontekstni tushunish: Hikoyalar til o'rganish uchun mazmunli kontekstni taklif qiladi, bu esa o'quvchilarga tildan foydalanishning nozik tomonlarini tushunishni osonlashtiradi. Hikoya doirasidagi yangi so'z va iboralarni uchratish orqali o'quvchilar ularni yaxshiroq tushunib, eslab qolishadi.

- Kognitiv rivojlanish: hikoyalar bilan shug'ullanish tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va xulosa chiqarish kabi turli xil kognitiv jarayonlarni rag'batlantiradi. O'quvchilarga hikoyaning turli elementlari o'rtasida aloqa o'rnatish, natijalarni taxmin qilish va xarakter motivlarini tahlil qilish tavsiya etiladi, bularning barchasi ularning umumiy kognitiv rivojlanishiga hissa qo'shadi.

- Hissiy ishtirok: Hikoyalar his-tuyg'ular, hamdardlik va hikoya qilinayotgan qahramonlar va voqealar bilan bog'liqlik hissini uyg'otadi. Bunday hissiy jalb qilish nafaqat o'rganish tajribasini yanada qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarning o'rganilayotgan tilda o'zlarining his-tuyg'ularini ifodalash qobiliyatini oshiradi.

- Madaniy xabardorlik: Hikoyalar ko'pincha madaniy e'tiqodlar, qadriyatlar va amaliyotlarni aks ettiradi, talabalarga ular o'rganayotgan tilning madaniy konteksti haqida tushuncha beradi. Turli madaniyatlarning hikoyalarini o'rganish orqali talabalar kengroq nuqtai nazarni va madaniy xilma-xillikni chuqurroq qadrlashni rivojlantiradilar.

- Tinglash qobiliyatlari: hikoyalarni tinglash o'quvchilarning tinglash qobiliyatini rivojlantiradi, chunki ular hikoyani kuzatib boradilar, dialog almashinuvini tushunadilar va ohang va intonatsiyadan ma'noni aniqlaydilar. Bu amaliyot o'quvchilarning umumiy tinglab tushunish va real hayotiy vaziyatlarda og'zaki nutqni tushunish qobiliyatini oshirish uchun zarurdir.

- Ishonchli gapirish: Hikoya o'quvchilarni hikoyalarni takrorlash, syujet nuqtalarini muhokama qilish yoki hatto o'z hikoyalarni yaratish orqali og'zaki muloqotda faol ishtirok etishga undaydi. Bu jarayon o'quvchilarda qo'llab-quvvatlovchi va ijodiy muhitda nutqiy ishonch, ravonlik va talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

- Xotirani saqlash: Hikoyalar rivoyat tuzilishi, personajlari va syujetli burilishlari tufayli tabiatan esda qolarli. Tilning yangi tushunchalarini esda qolarli hikoya elementlari bilan bog'lash orqali o'quvchilar vaqt o'tishi bilan lug'at va grammatika qoidalarini saqlab qolishlari va eslab qolishlari mumkin.

- Ijodkorlik va tasavvur: Hikoyalar o'quvchilarni sahna ko'rinishlariga, qahramonlarni ixtiro qilishga va o'z hikoyalarni yaratishga taklif qilish orqali ularning ijodi va tasavvurini rivojlantiradi. Ushbu ijodiy mashg'ulot nafaqat til ko'nikmalarini oshiradi, balki o'quvchilarning umumiy kognitiv va tasavvur qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Xotira va saqlashga ta'siri

Xotira chet tilini o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi, chunki o'quvchilar lug'at, grammatika tuzilmalari va talaffuz qoidalarini saqlab qolishlari kerak [1]. Eksperimental guruh nazorat guruhiga qaraganda 25% ga yuqori eslab qolish tezligini ko'rsatdi, bu hikoyalar mazmunli kontekstlarga so'zlarni kiritish orqali uzoq muddatli xotirani shakllantirishga yordam beradi [5].

Diqqat va diqqatni kuchaytirish

E'tibor samarali o'rganish uchun zarurdir, ayniqsa uzoq vaqt diqqatni jamlashda qiynaladigan yosh bolalarda [3]. Hikoya guruhidagi talabalar doimiy ko'z bilan aloqa qilish, faol tinglash va

muhokamalarda ishtirok etish orqali yuqori faollik darajasini namoyish etdilar. Hikoyalarning immersiv tabiati o'quvchilarning e'tiborini o'ziga tortdi va an'anaviy o'rganishga nisbatan chalg'itadigan narsalarni kamaytirdi [4].

Muammolarni yechish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Hikoyalar tabiiy ravishda muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, chunki talabalar xarakter qarorlarini tahlil qilishlari, hikoya natijalarini bashorat qilishlari va muqobil yakunlarni taklif qilishlari kerak [6]. Eksperimental guruh muammoni hal qilishda nazorat guruhidan ustunroq bo'lib, kuchli kognitiv moslashuvchanlikni va analitik fikrlashni namoyish etdi. Bu bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda hikoyalarning rolini ta'kidlaydigan oldingi tadqiqotlarga mos keladi [7].

Ijodkorlik va tasavvurni oshirish

Ijodkorlik bolalarga o'z hikoyalarni yaratishga imkon berish orqali hikoya qilish tarbiyalanadigan asosiy kognitiv mahoratdir. Eksperimental guruh talabalari nazorat guruhiga nisbatan yuqori lingvistik ishonch va xayoliy fikrlashni namoyish qilib, chet tilida ko'proq original va izchil hikoyalar yaratdilar [3].

Talabalarning faolligi va motivatsiyasi

Suhbat va kuzatuv ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, hikoya qilish guruhidagi o'quvchilar chet tilidan foydalanishda faolroq va ishonchliroq bo'lgan. Nazorat guruhidan farqli o'laroq, o'rganish mexanik bo'lib tuyulsa, hikoya qilish til bilan hissiy aloqani yaratib, ichki motivatsiyani kuchaytirdi [5].

Xulosa. Ushbu tadqiqot hikoya usulini qo'llashning samaradorligini ta'kidlaydi. Xotirani saqlash, diqqatni jamlash, muammoni hal qilish va ijodkorlik hikoyalar guruhida sezilarli darajada yuqori bo'lib, hikoyaga asoslangan o'rganish chuqurroq kognitiv ishtirokni rivojlantiradi degan fikrni mustahkamladi [3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chet tili ta'limiga hikoya qilishni kiritish kognitiv ko'nikmalarni oshirishga ko'p qirrali yondashuvni taklif etadi. Hikoya orqali bolalar nafaqat til bilan, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va empatiya bilan ham shug'ullanadilar. Hikoyalar lug'atni o'zlashtirish va grammatik tuzilmalar kontekstga moslashtirilgan, ularni yanada esda qolarli qiladigan immersiv ta'lim muhitini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, hikoyaning interaktiv tabiati tengdoshlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantiradi, til o'rganish uchun zarur bo'lgan muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rag'batlantiradi. Talabalar hikoya qilish, qayta hikoya qilish va o'z hikoyalarni yaratishda muhim kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish bilan birga o'zlarining lingvistik qobiliyatlariga ishonchni kuchaytiradilar.

Oxir oqibat, hikoyani til o'quv dasturlariga integratsiyalashuvi shunchaki pedagogik vosita emas; yaxlit rivojlanish uchun kuchli vositadir. Ushbu yondashuvni qo'llagan holda, o'qituvchilar nafaqat chet tillarini yaxshi biladigan, balki ularga sinfdan tashqarida ham xizmat qiladigan muhim kognitiv ko'nikmalarga ega bo'lgan o'quvchilar avlodini tarbiyalashlari mumkin.

Kelgusi tadqiqotlar hikoya qilishning tilni bilishga bo'ylama ta'sirini o'rganishi va uning ko'p tilli o'quv muhitida qo'llanilishini o'rganishi kerak. Hikoyalarni boshlang'ich ta'limga integratsiyalashgan holda, o'qituvchilar til o'rganishni interfaol va kognitiv jihatdan boyitish tajribasiga aylantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baddeley A. (2003). Ishchi xotira va til: umumiy ko'rinish. //Aloqa buzilishlari jurnali, AQSH, 2003, 36 (3). – 189-208-b.
2. Kameron, L. Yosh o'quvchilarga tillarni o'rgatish. Kembrij universiteti matbuoti, London, 2001.



3. Ellis, G. va Brewster, J. Yana ayting! Boshlang'ich o'qituvchilar uchun yangi hikoyalar qo'llanmasi. Pearson ta'limi matbuoti, AQSH, 2014.
4. Gosvami, U. Kognitiv rivojlanish: o'rganish miyasi. Psixologiya matbuoti, AQSH, 2008.
5. Krashen, S. Ikkinchi tilni o'zlashtirish tamoyillari va amaliyoti. Pergamon matbuoti. AQSH, 1982.
6. Nation, P. Boshqa tilda lug'atni o'rganish, 2-nashr, Kembrij universiteti matbuoti, London, 2013.
7. Swain, M. va Lapkin, S. O'zaro ta'sir va ikkinchi tilni o'rganish: Ikki o'smir fransuz immersion talabalari birgalikda ishlaydi. //Zamonaviy til jurnali, 2005, 89(2), 135–149-b.
8. Rayt, A. Bolalar bilan hikoya qilish. Oksford universiteti matbuoti, London, 1995.

TALABA-YOSHLAR JAMOASI SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA IJTIMOIIY AGENTLAR TA‘SIRINING XUSUSIYATLARI

ХАРАКТЕРИСТИКА ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СТУДЕНЧЕСКОГО И МОЛОДЕЖНОГО СООБЩЕСТВА И ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ АГЕНТОВ

CHARACTERISTICS OF THE HEALTHY LIFESTYLE OF THE STUDENT AND YOUTH COMMUNITY AND THE INFLUENCE OF SOCIAL AGENTS

Mattiyev Ilhom Begmatdulobovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba-yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va mustahkamlash, jamoaviy faoliyat orqali salbiy odatlarga qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning asosiy maydonlari, shuningdek, talabalarning jismoniy va psixologik salomatligi, virtual sport klublarini tashkil etib, talabalarni onlayn musobaqalarda qatnashishga jalb qilish masalalari borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish, cheklanib qolish, ruhiy, ijtimoiy, ekologik sog‘lomlik, interfaol mashg‘ulotlar, amaliy seminarlar, laboratoriya ishlari, rag‘batlantirish uchun seminarlar, treninglar, ma‘ruzalar.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются формирование и укрепление здорового образа жизни среди студентов, борьба с негативными привычками посредством командной деятельности, основные направления формирования культуры здорового образа жизни, а также физического и психологического здоровья студентов, организация виртуальных спортивных кружков и участие студентов, в онлайн-соревнованиях обсуждались вопросы участия.

Ключевые слова: *здоровый образ жизни, правильное питание, воздержание, психическое, социальное, экологическое здоровье, интерактивные занятия, практические занятия, лабораторные работы, мотивационные семинары, тренинги, лекции.*

Abstract. In this article, the formation and strengthening of a healthy lifestyle among students, combating negative habits through team activities, the main areas of developing a healthy lifestyle culture, as well as the physical and psychological health of students, organizing virtual sports clubs and participating students in online competitions issues of participation were discussed.

Keywords: *healthy lifestyle, proper nutrition, abstinence, mental, social, environmental health, interactive activities, hands-on workshops, laboratory work, motivational seminars, trainings, lectures.*

Bugungi kunda sog‘lom turmush tarzi masalalari nafaqat sog‘liqni saqlash tizimida, balki ta‘lim tizimida ham ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Ayniqsa, talaba-yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va mustahkamlash, jamoaviy faoliyat orqali salbiy odatlarga qarshi kurashishning dolzarbligi ortib bormoqda.

Sogʻlom turmush tarzi tushunchasi: Sogʻlom turmush tarzi – bu insonning sogʻligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan kundalik faoliyati, odatlari va xulq-atvorini ifodalovchi tushunchadir. UNESCO tomonidan taʼkidlanganidek, sogʻlom turmush tarzi faqatgina jismoniy mashqlar yoki toʻgʻri ovqatlanish bilan cheklanib qolmay, balki ruhiy, ijtimoiy va ekologik sogʻlomlikni ham oʻz ichiga oladi [1.25-bet].

Talaba-yoshlar orasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda - talaba-yoshlarning kundalik hayotida koʻplab omillar sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga taʼsir koʻrsatadi:

Taʼlim muhitining roli: Oliy taʼlim muassasalari nafaqat bilim berish, balki sogʻlom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishning asosiy maydonlaridan biri hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport: Talabalarning jismoniy tarbiya mashgʻulotlari va sport musobaqalarida faol ishtiroki sogʻliqni saqlash va jamoaviylikni rivojlantirishga xizmat qiladi [2.56-bet].

Sogʻlom ovqatlanish: Talaba-yoshlar uchun oziqlanish masalasi ularning salomatligini taʼminlashda muhim omil hisoblanadi.

Sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda jamoaviy yondashuvlar - jamoaviy faoliyat sogʻlom turmush tarzini shakllantirishning samarali usullaridan biridir. Bu jarayonda quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar: Talabalarni sogʻlom hayotga ragʻbatlantirish uchun seminarlar, treninglar va maʼruzalar tashkil etish.

Interfaol metodlar: Sogʻliqni saqlash boʻyicha interfaol mashgʻulotlar, amaliy seminarlar va laboratoriya ishlarini joriy etish.

Jamoaviy loyiha va tadbirlar: Talabalar oʻrtasida “Sogʻlom hayot uchun 100 kun” kabi aksiyalarni oʻtkazish orqali ularda masʼuliyat hissini oshirish [3.34-bet].

Sogʻlom turmush tarzini shakllantirish - bu talaba-yoshlar salomatligini saqlash va jamiyatning kelajakdagi rivoji uchun mustahkam asos yaratish demakdir. Buning uchun oliy taʼlim muassasalarida sogʻlom hayot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar, jamoaviy tadbirlar va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurdir.

Jismoniy va psixologik barqarorlikning oʻzaro bogʻliqligi shundaki, sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda talabalarning jismoniy va psixologik salomatligi oʻzaro bogʻliq jarayon sifatida qaraladi. Jismoniy faollik stressni kamaytiradi, kayfiyatni koʻtaradi va umumiy psixologik barqarorlikni taʼminlaydi. Shuning uchun sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda psixologik maslahat markazlari faoliyatini kuchaytirish muhimdir. Masalan, universitet qoshidagi psixologik yordam xizmatlari talabalarni stress va depressiyadan himoya qilishi mumkin [4.78-bet].

Zamonaviy texnologiyalar va sogʻlom turmush tarzi esa bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishda muhim vositaga aylanmoqda. Maxsus mobil ilovalar, sogʻliqni kuzatuvchi gadjetlar va onlayn fitnes dasturlari talaba-yoshlarni jismoniy faollikka undaydi.

Mobil ilovalar: Talabalar “Google Fit”, “My Fitness Pal” kabi ilovalar orqali kunlik faoliyatlarini kuzatishi va toʻgʻri ovqatlanish rejalarini tuzishi mumkin.

Virtual sport klublari: Universitetlar virtual sport klublarini tashkil etib, talabalarni onlayn musobaqalarda qatnashishga jalb qilishi lozim [5.45-bet].

Talaba-yoshlar orasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga toʻsiq boʻluvchi omillar:

Notoʻgʻri ovqatlanish odatlari: Fast food va shirin ichimliklarning keng tarqalganligi salomatlikka salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Jismoniy harakatsizlik: Koʻp vaqtni smartfonlar va kompyuter qarshisida oʻtkazish, sport mashgʻulotlariga vaqt ajratmaslik.

Salbiy odatlar: Chekish, alkogol va boshqa zararli moddalar talabalarning sogʻligʻiga jiddiy xavf tugʻdiradi. Yechimlar:

Universitet oshxonalarida sogʻlom ovqatlanish burchaklarini joriy etish.

“Sogʻlom hayot uchun birga!” kabi maxsus dasturlar orqali talabalarning sogʻlom odatlarni shakllantirishini ragʻbatlantirish.

Talabalar sogʻligini saqlash boʻyicha davlat dasturlari:

Oʻzbekistonda talaba-yoshlar orasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish davlat siyosatining muhim qismi sifatida qaraladi.

“Yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish dasturi” (2021-2025-yillar): Ushbu dastur doirasida oliy taʼlim muassasalarida sogʻliqni saqlash boʻyicha maxsus treninglar va sport musobaqalari tashkil etilmoqda [6].

Sportni rivojlantirish strategiyasi: Universitetlar oʻrtasida sportni ommalashtirishga qaratilgan koʻplab loyihalar amalga oshirilmoqda. Sogʻlom turmush tarzi bugungi kunda talaba-yoshlar hayotida muhim oʻrin tutmoqda. Biroq, bu jarayonga ijtimoiy agentlar, yaʼni oilaviy muhit, taʼlim muassasalari, doʻstlar davrasi va ommaviy axborot vositalarining taʼsiri sezilarli darajada katta. Ushbu maqolada talaba-yoshlar jamoasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda ijtimoiy agentlarning roli va bu taʼsirning xususiyatlari koʻrib chiqiladi.

Ijtimoiy agentlarning sogʻlom turmush tarziga taʼsiri:

1. Oila: Oila sogʻlom turmush tarzini shakllantirishdagi birinchi va eng muhim ijtimoiy agent hisoblanadi. Oila aʼzolarining hayotiy odatlari, jismoniy faolligi va ovqatlanish madaniyati bolalarga va talabalarga katta taʼsir koʻrsatadi. Masalan, oilada sogʻlom ovqatlanish madaniyatining mavjudligi bolalarda bu odatni shakllantiradi [7.45-bet].

2. Oliy taʼlim muassasalari: Universitet va kollejlarda talaba-yoshlarni sogʻlom turmush tarziga ragʻbatlantirishda asosiy ijtimoiy institutlardan biridir. Jismoniy tarbiya darslari, sport musobaqalari va maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar talabalarning jismoniy va ruhiy sogʻligʻini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, oʻqituvchilarning individual yondashuvi va universitet miqyosidagi dasturlar ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi [8.67-bet].

3. Doʻstlar davrasi va talabalar jamoasi: Talabalar jamoasi va doʻstlar davrasi sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi. Guruhning bir-biriga taqlid qilish xususiyati tufayli, sogʻlom turmush tarzi targʻibotiga eʼtibor qaratilgan jamoalarda talabalar sogʻlom odatlarni tezroq oʻzlashtiradilar. Masalan, sport toʻgaraklarida birga shugʻullanadigan talabalar oʻzaro raqobat orqali oʻz salomatligini yaxshilashga intiladilar [9.34-bet].

4. Ommaviy axborot vositalari: Ommaviy axborot vositalari orqali sogʻlom turmush tarzi targʻib qilinishi talaba-yoshlar ongiga bevosita taʼsir qiladi. Televideniye, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar sogʻlom hayot tarzi, zararli odatlardan voz kechish va jismoniy faollikni oshirish masalalarida muhim manbalardir. Ammo notoʻgʻri va zararli axborotning oldini olish uchun axborot vositalarini tanqidiy baholash zarur [10.78-bet].

Sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishdagi integratsion yondashuvlar quyidagilardan iborat boʻladi:

Taʼlim va sogʻliqni saqlash tizimi hamkorligi: Universitetlar sogʻliqni saqlash muassasalari bilan birgalikda sogʻliqni saqlash dasturlarini amalga oshirishi lozim.

Koʻngilochar va sport tadbirlari: Talabalarning boʻsh vaqtini samarali tashkil qilish uchun sport musobaqalari va sogʻlom turmush tarzi kunlarini oʻtkazish.

Ota-onalar va talabalarning oʻzaro hamkorligi: Sogʻlom turmush tarziga oid bilimlarni oilalarda mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar tashkil qilish.

Talaba-yoshlar orasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy va ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda oilaning, taʼlim muassasalarining, talabalar jamoasining va ommaviy axborot vositalarining roli juda katta. Ijtimoiy agentlarning birgalikdagi saʼy-harakatlari natijasida sogʻlom, faol va maʼnaviy yetuk yosh avlodni tarbiyalash mumkin.

Jamiyatdagi sogʻlom turmush tarzi targʻibotining dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv davrida sogʻlom turmush tarzi nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki milliy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Davlat dasturlarida aholini sogʻlomlashtirish, sportga boʻlgan qiziqishni oshirish va zararli odatlardan voz kechishga qaratilgan keng koʻlamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oliy taʼlim muassasalarida esa talabalarni ushbu jarayonga faol jalb etish orqali ularning jamiyatdagi ijtimoiy roli kuchaymoqda [11.89-bet].

Ijtimoiy agentlarning integratsion roli quyidagilardan iborat boʻladi:

1. Sport tashkilotlari va klublar: Sport tashkilotlari va universitet ichidagi klublar talabalarni jismoniy faollikka jalb etishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Masalan, talabalar orasida ommaviy yugurish musobaqalari, futbol, basketbol kabi sport turlari boʻyicha musobaqalar oʻtkazilishi jamoaviy ruhni oshiradi va ular orasida sogʻlom raqobat muhitini shakllantiradi [12.55-bet].

2. Sogʻliqni saqlash sohasi vakillari: Talaba-yoshlarni salomatlikka oid xabardorlikni oshirish uchun tibbiyot sohasi vakillari bilan hamkorlik qilish muhimdir. Oliy taʼlim muassasalarida muntazam sogʻliqni saqlash kunlari tashkil etilishi, talabalarga zararli odatlar haqida maʼlumot berish va salomatlikni mustahkamlashga oid treninglar oʻtkazish yaxshi samara beradi [13.112-bet].

3. Axborot texnologiyalari va sogʻlom turmush tarsi: Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali talabalarga sogʻlom turmush tarziga oid dasturlarni keng targʻib qilish mumkin. Mobil ilovalar, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlardagi maʼlumotlar orqali talabalarni jismoniy faollikka undash samarali natijalar beradi. Misol uchun, “Health Tracker” kabi mobil ilovalar orqali talabalar oʻz kundalik jismoniy faolliklarini nazorat qilishi va sogʻlom odatlarni shakllantirishi mumkin [14.76-bet].

Talabalar jamoasida zararli odatlarning oldini olish shundan iborat boʻladiki, talabalar orasida zararli odatlar, masalan, chekish, ichimliklar isteʼmoli va kamharakatlilik muammolarini bartaraf etish uchun ijtimoiy targʻibot tadbirlarini tashkil etish muhimdir. Bu jarayonda nafaqat universitet rahbariyati, balki talabalar orasidan yetakchi va ilgʻor fikrlovchi yoshlarni jalb etish katta ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar davomida sogʻlom turmush tarzi targʻib qilinishi natijasida zararli odatlardan voz kechish darajasi sezilarli darajada oshadi [15.43-bet].

Ijtimoiy agentlar va talaba-yoshlar jamoasining hamkorligi - Ijtimoiy agentlarning talaba-yoshlar hayotiga taʼsirini oshirish uchun ularning oʻzaro hamkorligini mustahkamlash lozim. Masalan:

Universitetlar va mahallalar hamkorligi: Mahallalarda sogʻlom turmush tarzini targʻib qilishda talaba-yoshlarni jalb etish orqali jamiyatda bu boradagi xabardorlikni oshirish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardagi kompaniyalar: Talabalar ishtirokida ijtimoiy tarmoqlarda sogʻlom turmush tarzini targʻib qiluvchi postlar, videolar va aksiyalar oʻtkazish.

Sogʻlom turmush tarzini talaba-yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylantirish uchun barcha ijtimoiy agentlarning oʻzaro hamkorligini kuchaytirish zarur. Buning uchun:

Universitetlarda sogʻlom turmush tarziga oid dasturlarni doimiy ravishda amalga oshirish.

Talabalarni sogʻlom odatlarni targʻib qiluvchi loyihalarga jalb etish.

Ommaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Mahallalarda sogʻlom turmush tarzi boʻyicha jamoaviy tadbirlarni tashkil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO, “Healthy Lifestyles for Youth,” Paris, 2019, 25-bet.
2. Zokirov A., “Sog‘lom hayot asoslari,” Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021, 56-bet.
3. Rahimov Sh., “Sog‘lom turmush tarzi va uning ahamiyati,” Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 2022, 34-bet.
4. Karimova N., “Talaba yoshlar va psixologik salomatlik,” Toshkent: Yangi asr nashriyoti, 2020, 78-bet.
5. Rashidov F., “Texnologiyalar orqali sog‘lom hayotga intilish,” Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2023, 45-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, “Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish dasturi,” Toshkent, 2021.
7. Xolmatov A., “Sog‘lom turmush tarzi asoslari,” Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018, 45-bet.
8. Ismoilova N., “Oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish,” Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2020, 67-bet.
9. Karimov Sh., “Jamoaviy faoliyat va sog‘lom turmush tarzi,” Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2022, 34-bet.
10. Rahmonov D., “Axborot va salomatlik madaniyati,” Toshkent: Fan va texnologiya, 2021, 78-bet.
11. Bozorov R., “Zamonaviy jamiyat va sog‘lom turmush tarzi,” Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022, 89-bet.
12. Ahmadov J., “Sport orqali sog‘lom turmush tarzi,” Farg‘ona: Ilm nashriyoti, 2019, 55-bet.

XXI ASR YOSHLARI HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONINING IJTIMOYIY PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА ДУХОВНО- ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ XXI ВЕКА

SOCIAL PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PROCESS OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN THE LIFE OF YOUTH OF THE 21ST CENTURY

Pardayev Sobit Abdivali o'g'li

Annotatsiya: Maqolada, bugungi kun ya'ni globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir davrda yoshlar ma'naviyatiga taxdid va yoshlarni ma'naviyatiga taxdidlardan oqoxlantiruvchi va ximoya qiluvchi ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonining ijtimoiy pedagogik xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Ma'naviyat va ma'rifat, globallashuv, pedagogik xususiyat, ommaviy madaniyat, Psixologiya, texnologiya.*

Pardayev S.A.,
*O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori
sobitpardayev@70gmail.com*

Аннотация. В современную эпоху нарастания глобализационных процессов в статье освещаются угроза духовности молодежи и социально-педагогические особенности процесса духовно-просветительской работы, предостерегающей и защищающей молодежь от угроз духовности молодежи.

Ключевые слова: *Духовность и просвещение, глобализация, педагогика, массовая культура, психология, технологии.*

Abstract. In today's era of increasing globalization processes, the threat to the spirituality of youth and the socio-pedagogical features of the process of spiritual and educational work that warns and protects youth from threats to the spirituality of youth are highlighted in the article.

Key words: *Spirituality and enlightenment, globalization, pedagogy, mass culture, Psychology, technology.*

Kirish. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat birgina tashkilotning vazifasi emas, balki barcha davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-siyosiy vazifasi etib belgilangan. Ma'naviyat, madaniyat va san'at muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ijtimoiy subyektlari sifatida turli yo'nalishlarda bevosita ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi" – deb aytgan so'zlari yoshlarni diniy ekstremizm va terrorizm balosidan oqoxlantirishimizda bir qator aniq vazifalarni belgilab berdilar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 yanvardagi 3-sonli "2016 yilda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, konfessiyalar va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar Dasturi" va va 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160 sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish talablarini qo'ydi.

Mamlakatimizda ma'naviyatni insonning o'zligini anglashidagi o'rni; ma'naviyatning, insonning jamiyat, davlat kuch-qudratidagi tutgan o'rni, ma'naviyatsiz hech qachon baxt-saodat bo'lmasligi, baxt-

saodatga erishish uchun umumiy, milliy g'oya asosida bizning ko'pmillatli mamlakatimizda mustahkam ma'naviy makonni yaratish zarurligi to'g'risidagi dasturiy fikrlar izchil, bosqichma-bosqich ro'yobga chiqmoqda.

Bunda mahalla, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, oliy ta'lim, madaniyat va san'at muassasalarining g'oyaviy tarbiyaviy hamkorligigiga erishishlari – ijtimoiy faol insonlarni tarbiyalashning muhim shartidir. Bu hamkorlik sub'ektlari faoliyatining maqsad uyg'unligi, tarbiyaviy ta'sir ob'ektining bitta, (umumiy)ligi, ularning vazifalari orasidagi umumiylik va xususiylikning mavjudligidadir.

Albatta, har bir hudud o'ziga xosliklarga ega. Shu sababli har bir hududda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda umumiylik bilan birgalikda faqat o'sha hududga xos bo'lgan xususiylik ham mavjud bo'ladi. Bu har bir hududning viloyat, tuman, shahar Ma'naviyat va ma'rifat kengashlarining ish rejaları mazmuni, maqsadi, shakllari, vositalari, yo'nalishlarida aks etadi.

Masalan, mahalla fuqarolr yig'inlarida "mahalla-fuqaro", "fuqaro-fuqaro", "fuqaro-mahalla" shaklidagi gorizontaal va vertikal ijtimoiy munosabatlar tizimi amalda mavjud. Biroq, masalaning ushbu ijtimoiy-pedagogik jihatini ta'minlashga qaratilgan metodik baza hali to'liq shakllangan emas. Buning uchun har bir mahallada aholining oilaviy muhiti, o'qishi, xulqi, munosabatlari, ta'lim muassasalarida aholining yetakchi qadriyatlarini tizimini o'rganish, ijtimoiy faol, notiqlik qobiliyatiga ega fuqaro, yoshlarni saralab olib, maqsadga yo'naltirib, ularni ma'naviy-ma'rifiy ishlarning faol sub'ektlariga aylantirish zarur. Bunda mahalla ma'naviy muhitini, jamoatchilik fikrini shakllantirish muhim o'rin egallaydi. Chunki bu muhit o'zaro gorizontaal "fuqaro-fuqaro" va vertikal "mahalla-fuqaro" ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo'ladi va muntazam, ob'ektiv ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mahallalarda tegishli komissiyalar ko'magida hayotning dolzarb masalalariga bag'ishlangan davra suhbatlarining mundarijasiga ma'naviy ehtiyojlar, axloqiy me'yorlarning shakllanishi, kiyinish madaniyati, vaqtdan foydalanish madaniyati, to'y-marosimlarni tejamkor o'tkazish, ma'naviy begonolashuvning oldini olish kabi masalalar bo'lishi mumkin. Bunday turdagi masalalarni muhokama qilish odatda aholi, yoshlarni hayotiy jarayonlarni jamoaviy tahlil qilish va baholash jarayoniga qiziqtiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan amalga oshirilgan "Hududlarning ma'naviy-ma'rifiy xaritasi" doirasidagi ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar davomida mahallalarda aholi, yoshlarning aktual ma'naviy ehtiyojlar ierarxiyasi o'rganildi. Olingan natijalar mavjud ma'naviy ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirishga oid qator ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qilishi aniqlandi. Zero, birinchidan, olib borilayotgan turli tarbiyaviy ishlar o'zining qat'iy, ilmiy asoslangan ijtimoiy pedagogik texnologik tizimiga ega emas. Ikkinchidan, yoshlar bilan ma'rifiy ishlarni olib borishda oila, mahalla, ta'lim muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar amaliyoti o'rtasida metodik nomutanosibliklar bor. Bu esa ma'naviy tarbiya uchun zarur bo'lgan izchillik, sistemalilikni hamda targ'ibot ta'sirchanligini susaytiradi. Yoshlar xulq-atvorida "ommaviy madaniyat"ning ta'siri sezilmoqda. Bunga ularning mashaqqatli, qattiq iroda, tirishqoqlik talab qilinadigan ishlarga qo'l urishdan cho'chishlarida, o'z bilimi va mehnati bilan emas, balki ota-onalari sotib olib bergan qimmatbaho buyumlar bilan o'zlarini ko'rsatishni istashlarida namoyon bo'lmoqda. Buning oqibatlari o'laroq, O'zbekiston ijtimoiy tarmoqlarida 2017 yil oxirida trendga aylangan "kuyovchak", yoki Xalqaro press-klubning 2018 yil 19 mart kuni tilga olingan "alfons-kuyov" sindromlarini keltirish mumkin.

Uchinchidan, tuman-shaharlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchan ijtimoiy pedagogik tizim bilan ta'minlangan holda olib borilishi kerak. Aholi, yoshlar hayoti, didi, tuyg'ulariga samarali ta'sir ko'rsatish uchun ularning kundalik hayotini, ularning ma'naviy ehtiyojlarini o'rganib, o'z kuchiga ishonch uyg'otish juda muhimdir. Bundan tashqari aholi, yoshlar uyda ham, mahallada ham, o'quv

yurtlarida ham, yotoqxonada ham, hamma joyda bir xil, sog'lom ma'naviy muhit ta'siri ostida bo'lishi kerak. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy faoliyat sub'ektlari faoliyatini ijtimoiy-pedagogik asosda texnologik muvofiqlashtirishni taqozo qiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishda har bir korxonada, tashkilot va muassasaning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari, mas'ullarining faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur lavozim o'zining qator shaxsiy va kasbiy talablariga ega. U o'zida tashkilotchilik, yuksak milliy mafkuraviy ongillik, tarbiya nazariyasi, uslubiyati, psixologiyasi bilimdoni va amaliyotchi, milliy va mahalliy madaniyat, tarixni yaxshi biluvchi, ijtimoiy faol ustoz va notiq bo'lishi lozim.

Shuningdek, u badiiy tadbirlar, kontsertlarni o'tkazish, gazeta, jurnal, TV materiallaridan tezkor foydalanish, ma'ruzalar, suhbatlar, konferentsiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, diskussiya, disput, matbuot konferentsiyalar, davra suhbatlarini tashkil qilish, ma'rifiy chiqishlarni jamoada tahlil qilish, rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish malakalariga ham ega bo'lmog'i lozim. Ayniqsa yoshlar bilan suhbat, uchrashuvlarni o'tkazish, nazariya bilan amaliyotni uyg'unlashtirish, ko'rgazmali qurollardan, ayniqsa, axborot texnologiyalari, planshetdan foydalanishni bilishi lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar muayyan tamoyillarga tayangandagina o'z samarasini beradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini belgilovchi asosiy tamoyillar sirasiga milliy mafkuraviy yunaltirilganlik, ta'lim va tarbiya birligi, hayotiylilik, yaxlitlik, ong va xulq-atvor birligi; amaliylik, ommaviylik, talabalar tashabbusini rag'batlantirish, ijodiy hamkorlik, o'zaro hurmat, bir-birini rag'batlantirish, "ommaviy madaniyat" ta'siriga qarshi ma'rifiy kurash, uzviylik, g'oyaviy va badiiy tarbiya omillari ta'sirining muvofiqlashganligi kiradi. Ayni vaqtda ayrim ziyolilarimiz, hatto olimlar tomonidan "ommaviy madaniyat" hodisasiga yo befarq, yo liberal munosabatga chorlash holatlari ham paydo bo'lmoqda. Falsafa fanlari doktori V.Alimasovning bir chiqishi [3] bunga misol bo'la oladi. Muallif maqolada "G'arbda qo'llaniladigan "ommaviy madaniyat" (mass culture) bizda ishlatiladigan "xalq madaniyati"ga to'g'ri keladi", deydi. Lekin "ommaviy madaniyat"ni bundan 50 yillar oldin tadqiq qilgan atoqli bolgar olimi Bogomil Raynov o'zining "Ommaviy madaniyat", degan fundamental asarida bu fikrni rad etadi. "Ommaviy madaniyat", deydi olim, "eng avvalo va butun mohiyati bilan madaniyatning xalqchilligini to'la inkor qiladi"[4]

Natijalar. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar davomida kechuvchi ijtimoiy-pedagogik jarayon fuqarolar ijtimoiy hayotini to'g'ri tashkil qilishni, shaxsini jamoada, jamoa orali, jamoa fikri vositasida tarbiyalashni taqozo etadi. Buning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarning shunday shakllarini topish kerakki, ularning yordamida jamiyat va alohida olingan har bir insonga bir vaqtning o'zida va bir xil kuchda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lsin. Bu esa bizni ma'naviy-ma'rifiy ishlarning milliy va xorijiy tajribalarini muttasil o'rganish va samarali foydalanishga undaydi.

Darhaqiqat, bugungi tahlikali davr milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini tinimsiz oshirib borishni talab qilmokda. Zero biz o'zimizning pirovard maqsadimizga erishish uchun zamon qanday tez va shiddat bilan o'zgarayotganini hisobga olgan holda, har qanday nohush harakat va muammolarning oldini olishimiz zarurdir.

Targ'ibot (arab. qiziqtirish, tarqatish) - keng ma'noda, ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarini targ'ib etishdir. Targ'ibot jarayonida fan, san'at, siyosat va mafko'ra yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi. 2) tor ma'noda, mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat. Targ'ibot ilmiylik, konkretlik, ob'ektivlik, ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liqlik tamoyillariga asoslanish, tashkiliy jihatdan uyushgan bo'lishi lozim. Targ'ibot (lot. propaganda - tarqatilishi kerak bo'lgan ma'lumot) - og'zaki yoki ommaviy axborot vositalari orqali muayyan g'oyalarning jamoatchilik ongida ommalashtirishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Tashviqot – (arab. shavq-zavqlantirish), (lot. agitation - harakatga keltirmok) - ma'lum bir ijtimoiy guruh yoki ommani ko'zlangan maqsad sari faollikka undaydigan targ'ibot faoliyatidir. Tashviqotning og'zaki, nashriy va audio, video turlari mavjud bo'lib, u g'oyat ta'sirchan ijtimoiy-siyosiy kurash vositasi hisoblanadi. Barcha zamon na makonlarda ham, o'z xalqi kelajagini o'ylagan har qanday mamlakatda aholi davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat, islohatlar, o'zgarishlardan xabardor qilib borilgan. Bu esa jamiyatni birlashtirish, umummilliy maqsadlar yo'lida safarbarlikni ta'minlab, davlat va jamiyat birligiga erishish maqsadlarga xizmat qiladi. Tashviqot shuningdek, odamlarga ta'sir o'tkazish maqsadida yozma va og'zaki shakllardagi undash, da'vat qilish, shu asosda ularning qalbida zavq-shavq, muhabbat yoki nafrat uyg'otishni o'z ichiga oladi.

Hozir ham diniy ekstremizm, xalqaro terorizm, egotsentrizm, vatansizlik, axloqsizlik g'oyalarini yangi_ XXI asr texnologiyalari bilan qurollangan holda targ'ib etilyapti. Vosita, shakl va maqsadlar o'zgarib borayotgan, turli nomlarda atalayotgan bo'lsa-da, ular zamirida muayyan g'oyalar targ'iboti yotibdi. Shuning uchun boshqalarning tinchligini buzish, barqaror taraqqiyotga xalal berishga yo'naltirilgan hamda milliy manfaatlariga qarshi qaratilgan bunday targ'ibotni vayronkor targ'ibot deymiz.

Muhokama. Zamonaviy targ'ibot texnologiyalarini tanlashda, eng samarali yo'llardan biri — bu multimediali yondashuvdir. Bunda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat jarayonida yangi va an'anaviy texnologiyalardan foydalanib maqsadga erishishni ta'minlash mumkin. Texnologiyalarni tanlashda auditoriyaning intellektual darajasiga, tarbiyaviy faoliyat sohasining o'ziga xos tomonlariga e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlash zarur.

Metodik jihatdan targ'ibotchi va tinglovchilarning o'zaro muloqoti ikki turdagi ta'sirdan iborat bo'ladi. Birinchi tur ta'sir — tadbirning ma'lum bosqichida tinglovchiga shu bosqichdagi masalani tushunishga yordam beruvchi yo'naltiruvchi savollar beriladi. Ikkinchisi - masalani aniqlashtiruvchi fikrlar va harakatlar usuli ko'rsatiladi. Savollar va ko'rsatmalar soni taqdimot materiallarining ishtirokchilar tomonidan o'zlashtirilishiga bog'liq ravishda belgilanadi.

Kontent-xronologiya metodi. Psixologlarning ma'lumotiga tayansak, qatnashchilarning diqqatini dastlabki daqiqa davomidagina jamlab tura olish mumkin. Bu vaqtdan keyin ularda dastlabki paytdagi diqqat tarqala boshlaydi. Shuning uchun olti daqiqa mobaynida qatnashchilar bilan faol muloqot o'rnatib olishga erishish kerak. Ularning diqqatini jamlab tura olish uchun ma'ruzachi ritorikaning qonuniyatlaridan, notiqlik mahorati sirlaridan, xronologik nazorat metodidan xabardor bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Keys metodi. Misollar keltirish uchun auditoriyaga murojaat qilinishi ham qatnashchilarning diqqatini jamlashga hissa qo'shadi. Bunda misol keltirishni savol tariqasida so'rash, iltimos qilish mumkin. Demak, bunday savol-javob bir necha marta takrorlanishi kerak.

Auditoriya keltirgan misollar bilan ma'ruzachi keltirgan misol notiq tomonidan o'zaro taqqoslanishi yaxshi natija beradi. Bu bilan voiz va auditoriyaning fikrlashlari o'zaro bir xil ekanligi tekshiriladi hamda tadbirning shunday zaylda borishi ikki tomonni ham ruhlantiradi.

Xulosa. Bugungi kunda tadbirlarni o'tkazishda debat usulidan ham keng foydalanilmoqda. Bunda ma'ruzachi tinglovchilarni ikki guruhga ajratib, o'rta muammoni tashlaydi va tomonlardan ko'tarilgan muammoning yechimini aniqlashni so'raydi. Voiz har ikki tomonning fikrlarini eshitadi va yakuniy xulosa chiqarib, uni bayon etadi. Bunday usulning afzalligi shundaki, tadbirda har bir qatnashchiga jarayonning faol ishtirokchisiga aylanish imkoni beriladi. O'z fikrini ifoda eta olish har bir ishtirokchida katta taassurot qoldiradi va mavzuning chuqur o'zlashtirilishiga zamin yaratadi.

Rag'batlantirish. Faol ishtirokchilarni rag'batlantirish uchun mukofot tashkil etish yaxshi samara beradi. Bunda qatnashchilarda ijobiy ma'nodagi baxslashish, musobaqalashish ruhi paydo bo'ladi va bu tadbir samaradorligini ortiradi, tinglovchilarda keyingi tadbirlarda ishtirok etish ishtiyokini uyg'otadi.

Adekvat taqdimot metodi. Tadbir nomi qiziqarli, sodda, aniq, o'ziga jalb qiluvchi bo'lishi, qatnashchilarning yoshi, kasbi, manfaatlariga mos, ma'naviy-mafkuraviy, tarbiyaviy ishlardan birining vazifasiga kiruvchi dolzarb masalaga bag'ishlanishi kerak. Tadbirni nomlashda o'ta rasmiylikdan, ilmiylashtirishdan, uzundan uzok; jumladan qochish kerak. Chunki, rasmiyatchilik kishilarni tadbirdan bezdiradi. Mavzuni nomlashda ko'prok kundalik hayotimizda ishlatiladigan so'zlardan foydalanilsa, yaxshi samara beradi. Tadbir nomi kishilarni qiziqtiradigan, ruhlantiradigan bo'lishi kerak. Mavzuni eshitgan, o'qigan kishi tadbirda nimalar to'g'risida mulohazalar yuritish kerakligini anglashi va unda muammoga daxldorlik xissi uyg'onishi kerak. Shuning uchun tadbir haqidagi e'londa eng muhim fikrlardan ishtirokchilarni xabardor qilish zarur.

Auditoriyaga moslashish metodi. Qatnashchilarning yoshi, kasbi tadbir davomida misollar keltirishda inobatga olinishi kerak. Agar qatnashchilarning ko'pchiligi yoshlarni tashkil qilsa, tadbir davomida yaqin o'tmishdan, yoshlar befarq bo'lmagan va tadbirga qatnashayotgan avlod bevosita guvoh bo'lgan voqea va holatlardan misollar keltiriladi. Qatnashchilar o'rta yoshlarda bo'lsa, keltiriladigan misollar o'rta avlod vakillari guvoh, bo'lgan voqeliklar, atrofimizda yuz berayotgan yangiliklardan olinadi. Bunda qatnashchilarning kasbidan kelib chiqib misollar tanlash imkoniyati ham saqlanadi. Tadbir qatnashchilari har kuni ko'radigan misollar tanlanganda muloqot samaradorligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.uza.uz. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017йил 15 июнь куни “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизни софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқидан.

2. Қосимова З.Х. Талаба ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантиришнинг педагогик асослари. (Олий ўқув юртлари маънавий-маърифий ишлари мисолида). Педагогика Фан. номз. илмий дар. олиш учун тайёрланган дисс-я. -Т. 2004. 117-б.

3. Алимасов В. Оммавий маданият ОҒУми?// “Ишонч” газетаси, 2018 йил 19 июнь.

4. Райнов Б. Массовая культура. Перевод с болгарского. – Москва, “Прогресс”, 1979. С.9.

5. Саидов У. Маданият соҳасидаги глобаллашув жараёнлари ва маънавий таҳдидлар. – Тошкент: “Akademiya”, 2011. – 56 б.

YANGI O‘ZBEKISTON HAYOTIDA MA’NAViy-MA’RIFIY ISHLARNI TARG‘IBOT VA QARSHI TARG‘IBOT QILISHNING TEXNOLOGIK DIVERSIFIKASIYASI

ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ ДИВЕРСИФИКАЦИЯ ПРОДВИЖЕНИЯ И КОНТРПРОПАГАНДЫ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В ЖИЗНИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

TECHNOLOGICAL DIVERSIFICATION OF PRODUCTION AND COUNTER-PROPAGANDA OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN NEW UZBEKISTAN

Pardayev Sobit Abdivali o‘g‘li

Annotatsiya: Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yoshlar orasida targ‘ibot va qarshi targ‘ibot ishlarini amalga oshirishda texnologik yondashilgan va qay darajada yoshlar ongida ijobiy ta’sirini asoslab yoritib beradi va O‘zbekistonda kechayotgan yangilanish jarayonlari mohiyatini yoritib; milliy urf-odatlarimiz va an’analarimizga sadoqatni shakllantirish; yuksak ma’naviyat va ma’rifatga doir ijtimoiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish; ijodkorlik, erkin va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish; keksalarga hurmat, kichiklarga izzat, mahallalarda jamoatchilik nazorati madaniyatini targ‘ib qilish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Ma’naviyat-ma’rifat, targ‘ibot, texnologiya, mafkura, G‘oyaviy tarbiya, ommaviy madaniyat, urf-odatlar, an’analar, pedagogika, ta’lim-tarbiya.*

Аннотация. Технологический подход в осуществлении духовно-просветительской деятельности среди молодежи и контрпропагандистской работе, и в какой степени он оказывает положительное влияние на сознание молодежи, и проливает свет на природу процессов обновления, происходящих в Узбекистане; формирование лояльности к нашим национальным обычаям и традициям; формирование социальных навыков и умений, связанных с высокой духовностью и просветительством; обучение творчеству, свободному и независимому мышлению; освещены вопросы уважения к старшим, уважения к младшим, продвижения культуры общественного контроля в микрорайонах.

Ключевые слова: *Духовность-просветительство, пропаганда, технологии, идеология, Идеологическое воспитание, массовая культура, обычаи, традиции, педагогика, образование-воспитание.*

Abstract. Explains the technological approach to the implementation of propaganda and counter-propaganda work among young people and the positive impact on the minds of young people and highlights the essence of the ongoing renewal process in Uzbekistan; formation of devotion to our national customs and traditions; formation of social skills and competencies for high spirituality and enlightenment; teaching creativity, free and independent thinking; issues of respect for the elderly, respect for the young, promotion of a culture of public control in the community.

Keywords: *Spirituality-enlightenment, propaganda, technology, ideology, Ideological education, popular culture, customs, traditions, pedagogy, education.*

*Pardayev S.A.,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori
sobitpardayev@70gmail.com*

KIRISH

Bugungi kunda, joylarda ma'naviyat va ma'rifat bo'lim va bo'linmalari oldida turgan tarbiyaviy vazifalar turkumiga aholi orasida kitobxonlik, ma'naviy o'lkashunoslik ma'rifatini amalga oshirish, mustaqil fikrlash, milliy san'atimiz, osori atiqalarimizga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish; "ommaviy madaniyat"ning asl mohiyati, shakl va ko'rinishlarini tushuntirish; yoshlar ongi va qalbi uchun kurash; ularni yot, buzg'unchi g'oyalaridan himoya qilish; milliy g'oyamiz talablari asosida yashash va ishlashga o'rgatish; O'zbekistonda kechayotgan yangilanish jarayonlari mohiyatini uqtirish; milliy urf-odatlarimiz va an'analarimizga sadoqatni shakllantirish; yuksak ma'naviyat va ma'rifatga doir ijtimoiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish; ijodkorlik, erkin va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish; keksalarga hurmat, kichiklarga izzat, mahallalarda jamoatchilik nazorati madaniyatini targ'ib qilish shular jumlasidandir.

Bunda mahalla, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, oliy ta'lim, madaniyat va san'at muassasalarining ma'naviy donorlar sifatida hamkorlikka erishishlari ijtimoiy faol insonlarni tarbiyalashning muhim shartidir. Bu hamkorlik subyektlari faoliyatining maqsad uyg'unligi, tarbiyaviy ta'sir obyektining umumiyliigi, ularning vazifalari orasidagi umumiylik va xususiylikning mavjudligidadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar hududiy o'ziga xosliklarga ega. Shu sababli har bir hududda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda umumiylik bilan birgalikda faqat o'sha hududga xos bo'lgan xususiylik ham mavjud bo'ladi. Bu har bir hududning viloyat, tuman, shahar Ma'naviyat va ma'rifat kengashlarining ish rejaları mazmuni, maqsadi, shakllari, vositalari, yo'nalishlarida aks etadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar texnologiyasi — oldiga qo'yilgan ijtimoiy tarbiyaviy maqsadlarga erishishni kafolatlovchi, nazariy asoslangan ijtimoiy tarbiya jarayonini amalga oshirishning shakllari, uslub va vositalarining tizimli algoritmidir. Bunda u tegishli ilmiy modellashtirishga (loyihalashtirishga) tayanadi, bu jarayonda ushbu maqsadlar bir xil ma'noda beriladi hamda aholi, guruh, shaxslarning xususiyatlari va sifatlarini rivojlantirishning muayyan bosqichida o'lchash va baholash imkoniyati mavjud.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronovning ta'kidlashicha, tarbiya maqsadi – pedagogikaning, mamlakatning strategik vazifalaridan kelib chiquvchi pedagogik natijani ifodalaydi. Zamonaviy pedagogik, kompyuter texnologiyalari yordamida ushbu maqsadning turli yosh guruhlariga kiruvchi, o'quvchi-yoshlarda qay darajada shakllanganligini aks ettiruvchi parametrlar orqali modellashtirish mumkin. Ya'ni, "G'oyaviy tarbiyada mafkuraviy vaziyatlarni kompyuter vositasida modellashtirish birinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar subyektlarining tarbiya nazariyasi bo'yicha bilimlarini "shartli voqyelik"da sinab ko'rishga o'rgatadi; ikkinchidan, an'naviy tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda turli pedagogik vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur ko'nikma va malakalarini charxlaydi; uchinchidan, kompyuter texnologiyasi vositasida yangi pedagogik vaziyatlarni yaratish va yechishga o'rgatadi [1.101-b]".

Bugungi axborotlashgan jamiyat talablari va mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni modernizatsiyalashtirish, samaradorligini oshirishga qaratilgan talablar bu borada innovasion yondashuvlarni talab qilmoqda. Buning uchun moddiy ishlab chiqarish sohalarida o'z samaradorligini ko'rsatgan intensiv metodlarni aholining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarga joriy qilish taqozo etilmoqda. Ana shunday innovasion yondashuvlardan biri – diversifikasiyadir.

“Diversifikasiya” tushunchasining yana bir talqinida mahsulot ishlab chiqarish assortimentini kengaytirish hisobidan ko‘paytirish va tor, bir yo‘nalishda qotib qolishdan voz kechish [1.168-b]”, sifatida ochib beriladi.

Hozirgi kunda dunyoda barcha sohalar kabi ma‘naviyat va ma‘rifat sohasiga turdosh bo‘lgan ta‘lim-tarbiya, madaniyat, muzey sohalariга diversifikasiya prinsipi keng joriy qilinmoqda.

NATIJALAR

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar jarayonini texnologiya sifatida talqin qilinganida bu faoliyatning vosita, shakllari bilan bir qatorda metodlari alohida xususiyat kasb etadi. Bugungi kunda ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatda kitobxonlik, ommaviy-axborot vositalarini o‘qish, notiq, targ‘ibotchi, siyosiy sharhlovchi, maschit imomining fikrlarini o‘zaro muhokama qilish; slaydlar, o‘quv plakatlari, videofilmlar, kinofilmlar ko‘rsatish; tadbirlarni o‘tkazishda milliy madaniyat, san‘at asarlari, qadriyatlardan foydalanish, teatrlashtirilgan tomoshalar, she‘rlar, Qur‘oni karim va hadislardan iqtiboslar keltirish; suhbatlar; ma‘ruzalar; trening, musobaqa, ustoz-shogirdlik, rag‘batlantirish, tanqid qilish. Bugungi kunda O‘zbekistonda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar texnologiyasining tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi 30 dan ortiq metodlar qo‘llanilayotgani aniqlandi.

Shuningdek, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar shakllaridan ilmiy, amaliy anjumanlar, kitobxonlik, ma‘ruza o‘qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar; jamiyatda obro‘ qozongan, boy hayotiy tajribaga ega nuroniylar va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan shaxslar bilan uchrashuvlar; davra suhbatlari; davlat va jamoat tashkilotlari, mahallalar, ta‘lim muassasalarida aholi bilan uchrashuvlar; ilmiy, ilmiy-ommabop, ma‘naviy-ma‘rifiy mavzularda monografiya, kitob, risola, maqolalar, infografikalar, slaydlar, elektron nashrlar chop qilish va boshqa 20 dan ortiq turlaridan faol foydalanilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ma‘naviy-ma‘rifiy texnologiyalar ham tarbiyaviy texnologiyalar kabi: mo‘ljall olish (ma‘rifiy maqsadni aniqlash); amalga oshirish (targ‘ibot uslublari va vositalarini aniq ketma-ketlikda amalga oshirish); nazorat qilish va tuzatish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Har bir ma‘naviy-ma‘rifiy texnologiyada qo‘yilgan maqsadga erishish uchun uning faoliyat yuritishini kuzatish, nazorat qilish va tuzatish qoidalari tizimidan iborat bo‘lgan boshqarish algoritmidan foydalaniladi. Targ‘ibot maqsadiga erishish uchun targ‘ibotchilar faoliyatini boshqarish algoritmidan foydalaniladi. Bu nafaqat targ‘ibot jarayonining muvaffaqiyatlilikini baholash, balki belgilangan samaradorlikka ega bo‘lgan jarayonlarni oldindan diversifikasion loyihalashtirish imkonini beradi.

MUHOKAMA

Mahalla, qishloq, mehnat jamoasining ma‘rifiy xususiyatlarini yoritish va aniqlash (tashxis) masalasi targ‘ibot texnologiyasining yanada mas‘uliyatli diversifikasion vazifasi hisoblanadi. Biroq, ma‘naviy-ma‘rifiy holatning o‘zini bir qator shart-sharoitlarga muvofiq kelishi nuqtai nazaridan aniqlash (tashxis), izohlab berish (interpretasiya qilish) zarur. Ulardan eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

- muayyan targ‘ibot yo‘nalishining boshqalaridan farqlanishini ta‘minlaydigan bir ma‘noli aniqlik;
- tashhis jarayonida baholanadigan bilimlar darajasi va sifatini aniqlash uchun tegishli metod va vositalarning mavjudligi;
- mezonlarning aholida ma‘naviy-ma‘rifiy bilimlarining ishonchli shakllanganligini aniqlashga yo‘naltirilganligi shular jumlasidandir.

Ma‘naviy ma‘rifiy ishlarni texnologiyalashtirish g‘oyasi ularni boshqariladigan qilish: “biror narsaga nimadir qilib” erishish emas, balki kafolatlangan natijaga erishishdan iborat. Natijada har bir tashkilotchi uning maqsaddan boshlab to natijalarni baholashgacha bo‘lgan hatti-harakatlarini belgilaydigan targ‘ibot algoritmlarini texnologik qayta ishlash asosida mo‘ljaldagi natijalarga erishadi.

Zero ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy xususiyatlari — bu uning yaxlitligi, tizimliliği, davriyligi va texnologiyaviyligidir. Yaxlitlik esa targ'ibot va o'qitish jarayonlari, shuningdek shaxsni ma'naviy rivojlantirish va shakllantirish jarayonlarining ajralmas birligini anglatadi.

Ma'naviy-ma'rifiy texnologiya deganda aholining muayyan tarkibi va guruhini, targ'ibot chora-tadbirlarning g'oyaviy mazmuni, ularni o'tkazish joyi va davomiyligini ochib beradigan pedagogik faoliyatning tashkiliy tomoni tushuniladi. Aslida bu – yuqorida qayd qilinganidek, ijtimoiy tarbiyaviy jarayonning tashqi ko'rinishi bo'lib, targ'ibotning ommaviy, guruhli, yakka, virtual, bosma nashrlar orqali amalga oshiriladigan shakllari sifatida tasniflanishi mumkin.

Shunday qilib, targ'ibot diversifikasiyasining mohiyatini aholi, yoshlar ma'naviyatini milliy g'oyamizning bosh maqsadiga erishishga yo'naltiruvchi yaxlit ijtimoiy pedagogik diversifikasiya sifatida tushunish mumkin. Uning ayrim masalalari hozircha mukammal ishlab chiqilmagan bo'lishiga qaramasdan, uning asosiy tarkibiy qismlari empirik darajada pedagogik amaliyotda qo'llanilmoqda. Bu barcha toifadagi targ'ibotchilar faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirish, targ'ibot jarayonlarini modernizatsiyalashtirish, diversifikatsiyalash va barkamol jamiyat a'zolariga xos shaxsiy fazilatlarni samarali shakllantirishga yordam beradi.

Biz mafkuraviy kurashlar sharoitida yashamoqdamiz. O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyotini ko'ra olmaydigan ayrim siyosiy kuchlar mafkuraviy xurujni davomli va keng ko'lamli, ochiq va maxfiy, bevosita va bilvosita targ'ibot kampaniyalari shaklida olib bormoqda. Ma'lumki, bunda buzg'unchi targ'ibot xizmatlari va tashkilotlarining qo'poruvchilik faoliyati o'zaro muvofiqlashtirilgan. Natijada O'zbekistonda targ'ibot tizimining haqiqiy mafkuraviy poligonlarda, psixologik urush sharoitida ishlashiga to'g'ri kelmoqda. Radio va televizion kanallar, internet mustaqil davlatlarning ichki ishlariga aralashish, mafkuraviy dezinformasiya va dezoriyentasiya quroliga aylantirilmoqda. Buzg'unchi targ'ibot kampaniyalari o'zlarining siyosiy maqsadlariga mos ravishda soxta ma'lumotlarni keng ko'lamda, jadallik bilan tarqatish [3. 165-b.] xos bo'lib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkiliy qismi o'laroq, yot g'oyalarga qarshi targ'ibot o'zining mazmuni, tamoyillari, uslublari va shakllariga ko'ra murakkab hodisa sifatida o'rganildi. O'rganish natijalari ayrim mafkuraviy guruh, shaxslar tomonidan:

- Mustaqil O'zbekistonning hayotiy yutuqlarini dalil-isbotsiz ataylab qoralash uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini, hukumatimizning tashqi va ichki siyosatini soxtalashtirib, buzib ko'rsatish;
- O'zga mamlakatlar turmush tarzi, siyosiy tizimini bir yoqlama ko'kka ko'tarish;
- Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarni, erishgan yutuqlarimizni obro'sizlantirish;
- noxolis axborot, ma'lumotlarni tarqatish, takrorlayverish;
- ko'p millatli O'zbekistonda aholi o'rtasida nizolar keltirib chiqarishga urinish;
- Yoshlar orasida "ommaviy madaniyat"ni izchil targ'ib qilish;
- odamlarning diniy tuyg'ularini junbushga keltirish, diniy ksenofobiyaning paydo qilishga urinishlar qayd qilindi. Misol tariqasida 2020 yilning avgust oyida trollerlarning Gazeta.Uz, Qalampir.Uz, Kun.Uz va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilingan milliy madaniyatimizni obro'sizlantirishga qaratilgan chiqishlarini; O'zbekiston maktablarida bolalarning kiyinishi (maktab formasi) masalasining ataylab buzib talqin qilinishi va buning oqibatida buzg'unchi, fitnachi ayrim blogerlarning tartibga chaqirilganligini keltirish mumkin. Bunday provokasion chiqishlar respublika ziyolilarining "Jaholatga qarshi ma'rifat" shiori ostida bildirgan faol munosabatlari hamda Xalq ta'limi vazirligi va Din ishlari bo'yicha qo'mitaning hamkorlikda bildirgan bayonotlarida o'z adolatli yechimlarini topdi. Bularning barchasi ma'naviy-ma'rifiy ishlar diversifikasiyasining naqadar muhimligini ko'rsatib turadi.

Bundan tashqari O‘zbekiston xalqi, yoshlari milliy madaniyatimizga qarshi qaratilgan “ommaviy madaniyat”ning doimiy xurujiga duch kelayotganiga alohida to‘xtalish joiz.

Yuqoridagi tahdidlarga qarshi targ‘ibot – ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarining alohida, muhim qismi. Qarshi targ‘ibot yot targ‘ibotni ustalik bilan fosh qilish, diniy aqidaparstlikning O‘zbekiston halqi manfaatlariga qarshi qaratilgan mohiyati, siyosatini, mafkurasini ishonarli tarzda ochib berishni taqozo qiladi. Shu sababli ham barcha tarbiyachilar, maktab jamoa tashkilotlari oldiga qarshi targ‘ibotni faoliyatning muhim yo‘nalish deb qarash vazifasi qo‘yiladi.

Qarshi targ‘ibot yo‘nalishidagi tadbirlar oldiga uch asosiy vazifa qo‘yiladi:

1) **tadqiqot-targ‘ibot** (mamlakatimiz, uning ichki va tashqi siyosiy yutuqlarini, dunyo miqyosida tobora osha borayotgan obro‘-e‘tibori, demokratik jarayonlarni, ma‘naviy qadriyatlar va h.k.larning afzalliklarini ilmiy asosda tadqiq qilish, ko‘rsatish, targ‘ibot qilish);

2) **fosh qiluvchi targ‘ibot** (tashqi, yot mafkuralar tahdidi, zararini, ijtimoiy va boshqa illatlarini, mafkuraviy qo‘poruvchiligini va h.k.ni fosh qilishi);

3) **tarbiyaviy targ‘ibot** (aholi, o‘smirlarda ogohlik, hushyorlik, mustaqil fikr, siyosiy baxs ko‘nikmalarini, o‘z e‘tiqodini himoya qilishni, bo‘layotgan voqyealarni milliy manfaatlar nuqtai nazaridan to‘g‘ri baholash, mafkuraviy immunitetni malakalarini shakllantirishga maqsadli yo‘naltirilgan [4.478-b] targ‘ibot yo‘nalishlari o‘ta muhimdir.

Misol tariqasida umumiy o‘rta ta‘lim tizimini ko‘rsatish mumkin. Ko‘pincha, maktablarda tarbiyaviy ish pand-nasihatga berilib, qarshi targ‘ibot uslub, shakl va vositalariga kam ahamiyat beriladi. Bu ham umumta‘lim maktablarida milliy g‘oyani asosiy tushuncha va tamoyillarini shakllantirishda qarshi targ‘ibot ishining mazmuni, uslublari va shakllarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatib turadi. Qarshi targ‘ibot samaradorligining zaruriy shartlaridan biri - uning tezkorligida. Shuningdek, unda muayyan mintaqaviy sharoitlarni, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, maktabdagi mafkuraviy tarbiya resurslar, imkoniyatlarni hisobga olish ko‘zda tutiladi.

Mafkuraviy immunitet nafaqat yutuqlar, balki jamiyat oldidagi muammolarni tushuntirishlar yordamida ham shakllantiriladi. Ya‘ni aholi, yoshlarda O‘zbekistonning nafaqat [5.156-b]. amaldagi haqiqiy yutuqlariga balki qiyinchiliklariga ham baho bera olish qobiliyatlarini bir vaqtning o‘zida shakllantirish zarurdir. Tajribali ma‘naviyat tashkilotchilari, pedagog va yetakchilar o‘smirlarga Buyuk kelajak qurilishi - uzoq jarayon va unda muammo, qiyinchiliklar uchrashi tabiiy. Chunki muammolar - rivojlanish manbaidirlar. Shundan kelib chiqib, targ‘ibotda ijtimoiy rivojlanishning olg‘a qarab borish xususiyatini, “Axborot” informasion dasturidan berilgan tanqidiy materiallar, hal qilinmagan muammolarni ko‘rsatib berish bilan birga ochib berdilar. Bu bilan o‘smirlarning millat, Buyuk kelajak [6.136-b] oldidagi shaxsiy mas‘uliyatini paydo qildilar va unga murojaat qildilar.

Qarshi targ‘ibot texnologiyalarining asosiy vazifasi – aholi, yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdir. Har bir hudud, korxonalar, tuman, shahar, muassasa xodimlarida shakllantiriluvchi mafkuraviy immunitet turli darajalarda namoyon bo‘ladi.

Masalan:

- mafkuraviy bilim - olingan ma‘naviy tushunchalarni fuqaro, o‘quvchi yaxshi, puxta biladi, aytib bera oladi. Lekin uning xulqida bu bilim namoyon bo‘lmaydi. Ba‘zi hollarda bilimning aksi namoyon bo‘ladi.

- mafkuraviy ko‘nikma - ba‘zi hollarda o‘smirda taqlid, ma‘naviy maqsad va vazifalarni hosil qilishi mumkin. Lekin u real hayot bilan bog‘lanmagan bo‘ladi.

- mafkuraviy malaka – g‘oyaviy ideal anglanadi, bilimi, ehtiyoj, ko‘nikma mavjud va u xatti-harakatlarda tez-tez uchraydi.

XULOSA

Shunday qilib, targ'ibot diversifikasiyasining mohiyatini aholi, yoshlar ma'naviyatini milliy g'oyamizning bosh maqsadiga erishishga yo'naltiruvchi yaxlit ijtimoiy pedagogik diversifikasiya sifatida tushunish mumkin. Uning ayrim masalalari hozircha mukammal ishlab chiqilmagan bo'lishiga qaramasdan, uning asosiy tarkibiy qismlari empirik darajada pedagogik amaliyotda qo'llanilmoqda. Bu barcha toifadagi targ'ibotchilarfaoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirish, targ'ibot jarayonlarini modernizasiyalashtirish, diversifikasiyalash va barkamol jamiyat a'zolariga xos shaxsiy fazilatlarni samarali shakllantirishga yordam beradi.

Biz mafkuraviy kurashlar sharoitida yashamoqdamiz. O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyotini ko'ra olmaydigan ayrim siyosiy kuchlar mafkuraviy xurujni davomli va keng ko'lamli, ochiq va maxfiy, [7.140-b] bevosita va bilvosita targ'ibot kompaniyalari shaklida olib bormoqda. Ma'lumki, bunda buzg'unchi targ'ibot xizmatlari va tashkilotlarining qo'poruvchilik faoliyati o'zaro muvofiqlashtirilgan. Natijada O'zbekistonda targ'ibot tizimining haqiqiy mafkuraviy poligonlarda, psixologik urush sharoitida ishlashiga to'g'ri kelmoqda. Radio va televizion kanallar, internet mustaqil davlatlarning ichki ishlariga aralashish, mafkuraviy dezinformasiya va dezoriyentasiya quroliga aylantirilmoqda. Buzg'unchi targ'ibot kompaniyalari o'zlarining siyosiy maqsadlariga mos ravishda soxta ma'lumotlarni keng ko'lamda, jadallik bilan tarqatish xos bo'lib kelmoqda.

Ushbu kompaniyalarni o'tkazish mobaynida barcha ma'lumotlarga auditoriya xususiyatlarini: jinsi, yoshi, ma'lumoti, ijtimoiy holati, moddiy ahvoli, faoliyat turi, qiziqish, did va boshqalarni hisobga olgan holda ishlov beriladi. Bunda mafkuraviy qo'poruvchilik harakatlarining maqsad va vazifalari ularni olib borayotganlarning barchasi uchun yagonadir. Keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot tashkilotlari o'z kompaniyalarini tayyorlash va amalga oshirishda informasiya va dezinformasiya bo'yicha axborot mazmunini o'zaro muvofiqlashtiradilar.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Quronov M. Ogohlik: tarix va zamon ko'zgisida. "Ma'naviyat", 2015, 101-b.
2. Большой толковый словарь русского языка. Современная редакция / под ред. Д.Н. Ушакова. Москва: Дом славянской книги, 2011. - 960 с. С.168.
3. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik.–T.: O'zbekiston, 2013.–165 b.
4. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. – Toshkent, "O'zbekiston" NMK, 2018. – 478 b.
5. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – T., 2009. -156 b.
6. Mahkamov U. Ahloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994.- 136 b.
7. «Milliy g'oya - bizning g'oya». To'plam.– T.: DITAF. - 140 b.

MAKTAB MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNI DIRIJORLIK AMALIYOTIGA O'RGATISH USHLUBLARI

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПРОВЕДЕНИЮ ДИРИЖЕРСКОЙ ПРАКТИКИ В ШКОЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

METHODOLOGY FOR TRAINING STUDENTS IN CONDUCTING PRACTICE IN SCHOOL MUSIC EDUCATION

Qudratov Ismatilla, Xamrokulov Naimjon

Annotatsiya. Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida jamoa bo'lib (xor) qo'shiq kuylash dirijorlik bilan chambarchas bog'liq. Bu jarayonda o'qituvchi xor rahbari va dirijori sifatida namoyon bo'ladi, shu bilan birga o'quvchilarni dirijorlik harakatlarini tushunib kuylashga, ya'ni, dirijorlikning boshlang'ich bilimlari bilan tanishtirib borishi eng muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadiki, maqola mazmunida mazkur vazifalar atroflicha yoritib beriladi

Kalit so'zlar: Umumta'lim maktabi, musiqa madaniyati, jamoviy (xor) ijro, dirijorlik, oddiy, murakkab o'lchovlar, dirijorlik sxemalari, 2/4, 3/4, 4/4, 6/8, nayzalar, chap va o'ng qo'l, auftakt, pauza, mimika.

Qudratov I.,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
pedagogika fanlari
nomzodi, professor
i.qudratov@uzfi.uz

Аннотация. Пение в группе (хоре) на уроках музыкальной культуры общеобразовательных школ тесно связано с дирижированием. В этом процессе педагог выступает руководителем и дирижером хора, и в то же время одной из важнейших педагогических задач является научить учащихся петь с пониманием дирижерских действий, то есть познакомить их с даются базовые знания дирижирования.

Xamrokulov N.,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
katta o'qituvchi
n.xamrakulov@uzfi.uz

Ключевые слова: Общая школа, музыкальная культура, коллективное (хоровое) исполнение, дирижирование, простые, сложные такты, схемы дирижирования, 2/4, 3/4, 4/4, 6/8, ноты, левая и правая рука, ауттакт, пауза, мимика.

Abstract. Singing in a group (choir) in musical culture lessons in secondary schools is closely related to conducting. In this process, the teacher acts as the leader and conductor of the choir, and at the same time, one of the most important pedagogical tasks is to teach students to sing with an understanding of conducting actions, that is, to acquaint them with basic knowledge of conducting.

Key words: General school, musical culture, collective (choral) performance, conducting, simple, complex measures, conducting schemes, 2/4, 3/4, 4/4, 6/8, staves, left and right hands, aftertaste, pause, facial expressions.

Kirish. Umumta'lim maktablarida "Musiqqa madaniyati" darslarini dastur talablariga muvofiq tashkil qilish, o'quvchilarda musiqa san'atining nazariy va amaliy ijrochilik yo'nalishlari bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish musiqa o'qituvchisining malakali pedagog, psixolog, musiqa nazariyotchisi, vokal o'qituvchisi, cholg'u ijrochiligi, xor-dirijori sifatida ish tutishi uning kasbiy kompetentligini belgilovchi omil sanaladi. Maktab musiqa darslarining faoliyatlar negizida tashkil etilishi, uning spetsifik xususiyati bilan ta'riflanadi Mazkur faoliyatlar tarkibida jamoa bo'lib qo'shiq

kuylash muhim o‘rin tutadi va darsning eng ko‘p qismi ushbu faoliyatga yo‘naltiriladiki, bunda o‘quvchilarni dirijorlik qoidalarini bilishi, dirijorlik ishoralarni tushunib kuylashga o‘rgatish, kuylab dirijorlik qilish, dirijorlik qilish chog‘ida o‘lchovlar, dirijorlik sxemalari, auf takt, ijroni boshlash, ijroni tugatish, qollar (o‘ng, chap) harakati, dirijorlik qilishda gavda, bosh, oyoq, yuz (mimika) ifodasi, turli shtrixlar-liga, ligato, stakkatolarni qo‘l harakatlarida ifoda eta bilish, shuningdek, turli mavzu, janr, xarakterdagi asarlarga dirijorlik qila olish malakalariga ega bo‘lishlari fanning standart talablarida belgilangan. Shu tufayli ushbu maqolada maktab musiqa darslari jarayonida o‘quvchilar egalashi lozim bo‘lgan dirijorlik bo‘yicha bilim, qoidalar, ularni o‘zlashtirish uslublari haqida fikr yurutildi.

Adabiyotlar tahlili. Dirijorlik san‘atining asoslari uzoq tarixga ega bo‘lib, uning ildizlari g‘arbiy Yevropa madaniyati bilan, ko‘p ovozli musiqa san‘atining shakllanishi bilan bog‘liq ravishda rivojlangan. Orkestr, opera ijrochiligini taraqqiyoti dirijorlik san‘atiga bo‘lgan tabiiy ehtiyojni vijudga keltirdi. Orkestr ijrosini boshqaruvida polga urilgan zarb tovushi fransuz kompozitori Lyulli tomonidan ijro amaliyotiga kiritilgan. Keyinchalik ijrochi-kompozitorlar o‘z asarlariga dirijorlik qilishlari natijasida dirijorlik o‘lchovlari, sxemalari, qoidalari bir tizimda shakllandi, dirijor musiqa asarini talqin etuvchi ya boshqaruvchi shaxsga aylandi. Dirijorlik texnikasining rivojlanishi va mukammlashuvida yevropa klassik kompozitorlari ijodi benihoya katta rol o‘ynadi. Ta‘lim muassasalarida musiqa o‘qitishni joriy etilishi bu san‘atni musiqa fanlari qatorida o‘rganilishiga sabab bo‘ldi. O‘quv jarayonida jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash faoliyati dirijor boshqaruvisiz bo‘lmazligi tufayli, ta‘limning turli bosqichlari uchun dirijorlikka oid o‘quv-uslubiy manbalar yaratildi. O‘zbekistonda S.A. Valenkov, Q. Mirzayev, R.Ye. Xublarov, B. Umidjanov, A. Hamidov, J. Shukurov, A. Sultonov, Sh. Yormatov kabi xor-dirijorlari xizmatlari alohida e‘tirofga loyiqdir.

O‘zbekistonda yashab ijod qilgan A.M. Pazovskiyning “Dirijorlik qoidalari” kitobida rus va jahon kompozitorlarining dirijorlik san‘ati to‘g‘risidagi fikrlari, nazariy va amaliy ahamiyatga ega ko‘rsatmalari, orkestr, xor bilan dirijorning ishlashdagi vazifalari yoritib berilgan. Sh.Yormatov O‘zbekistonda bolalar xor-ijrochiligi rivojlanishi, bolalar xori bilan ishlash amaliyotiga o‘z ijodi bilan benihoya o‘lkan hissa qo‘shgan jodkor sanaladi.

Havaskor xor jamoalari, oliy ta‘limda dirijorlik fanini o‘qitilishiga bag‘ishlangan J. Shukurovning “Dirijorlik” nomli o‘quv qo‘llanmasida dirijorlik san‘atining tarixiy rivojlanishi, nazariy qoidalari bilan birga dirijorlikning asosiy harakatlariga ta‘rif beriladi, amaliy misollarda korsatiladi. I. Qudratovning “Dirijorlik” nomli o‘quv qo‘llanmasida maktab musiqa ta‘limida xor jamoasini tashkil etish, boshqarish, o‘qituvchining xor rahbari va dirijori sifatida ish tutish uslublari batafsil yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrda “O‘zbek milliy naqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining fan, ta‘lim, madaniy-ma‘rifiy tarbiyaga oid qaror, farmoyishlari, Sharq allomalarining inson kamolotida musiqa san‘atining o‘rni va ahamiyati haqidagi ta‘limotlari, shuningdek, respublikamiz va ilg‘or xorijiy mamlakatlar olimlarining milliy pedagogika va ta‘lim metodikasiga oid ilmiy-uslubiy asarlari, amaliyotga tatbiq etilgan pedagogik va psixologik tavsiyalar hamda konseptual yondashuvlariga tayanildi.

Tahlil va natijalar. Birinchi sinfda jamoa bo‘lib kuylashning birinchi omili bu bolalarni musiqaga mos yurishga odatlantirishdir. Bu o‘quvchilarni kelgusida dirijorlik harakatlarini ritmik (bir tekis) mosligini shakllanishiga katta yordam beradi. Shuni unutmaslik kerakki, musiqaga jor bo‘lish dirijorlik ko‘nikma va malakalarini muhim omillari sirasiga kiradi.

Dirijorlikka o‘rgatish amaliyotini keying bosqichida o‘quvchilarni musiqa asariga mos ravishda qo‘llarni yuqoriga harakatlantirishga o‘rgatish, mashqlar bajarishga kirishiladi. Bunda qo‘llarni erkin,

muayyan hajmda, oldinga, orqaga dirijyorlik pastanovkasiga mos me'yorlarda tepaga, harakatlantirishlariga etibor qaratiladi. So'ngra kuy bolalarni qo'l harakatlariga qarab p-piano, mf-o'rtacha, f-forte-baland, qattiq tovushda kuylashga o'rgatish o'qituvchining dinamik belgilarni aniq ifodalay olish. o'quvchilar esa o'qituvchining qo'l harakatlariga qarab aniq bajarishlari talab qilinadi. Musiqiy faoliyat o'quvchilarni qo'shiqqa (marsh) mos qadam tashlash, bolalar cholg'y asboblarda jo'r bo'lishlariga imkoniyat yaratish, musiqaga mos kayfiyatni yuzaga keltirish xislatlaridir. Dirijyorlik amaliyotida o'quvchilarni musiqa savodi bo'yicha bilimlari, nota cho'zimlari, belgilari, ularning sanalishi, yozilishi, kalitlar, repriza, o'lchov, temp belgilarining qanday bajarilishlarini bilishlari ham muhim rol o'y-nashini unutmazlik lozim [2: 47].

Qo'shiq tempiga sozlanib, o'qituvchining qo'l ishoralariga muvofiq jamoaviy kuylashga erishish lozim.


Ikkinchi sinf darsligining 1-choragida "Dirijyorlik" mavzusi bo'lib, o'quvchilar dirijyorlik bo'yicha bilim oladilar. Bu saboq o'z mazmunida quyidagilarni qamrab oladi:

1. Qo'shiq turli o'lchovda (sanoqda) bo'lishiga qarab qo'l harakati ham turlicha bo'lishini;
2. "Bir", ikki" deb sanaladigan ikki chorakli o'lchov dirijyor qo'llarini pastga-yugoriga harakatlantirishi o'ddiy ko'rsatiladi. O'quvchilar tomonidan bu mashq har darsda kuzatib boriladi;
3. 2/4 o'lchoviga dirijyorlik sxemasini doskaga chizib ko'rsatiladi.

Umumta'lim maktablarining musiqa darslarida jamoa bo'lib qo'shiq kuylash darsning, musiqa ta'limi va tarbiyasining etakchi shakli bo'lganligi bois, bu faoliyatda o'quvchilarni dirijyorlik ishoralarini tushunib kuylashga o'rgatish muhim vazifalardan sanaladi. O'quvchilarni dirijyorlik amaliyotidan zarur tushincha, bilimlarga ega bo'lishlarini ta'minlamasdan har qanday jamoaviy ijro to'g'risida so'z yuritish mumkin emas. Ta'limning dastlabki davrlaridan boshlab, qo'shiq kuylash (maktab musiqa ta'limida bir sinf o'quvchilari bir jamoa, yani, xor jamoasi hisoblanadi va qo'shiq kuylash jamoaviy xor tarzida olib boriladi) faoliyatida o'quvchilarga dirijyorlik harakatlari bo'yicha ilk tushunchalar berib boriladi[3].

Maktab musiqa darslarida o'quvchilarga dirijyorlik bo'yicha beriladigan tushunchalar dastlab o'qituvchining qo'l harakataliriga qarab, musiqiy asarri matni mazmunini his etib, unga qarsak chalib, biror predmet bilan partaga chertib, ritmni berish malakalarini egallashlariga qaratiladi. Bolalarda ma'lum darajada ritm tuyg'usi (ritmni his qilish, musiqiy asarga ritmik jo'r bo'lishi, o'qituvchining qo'l harakataliriga qarab kuylash) shakllangach, ularga dirijyorlikning ilk saboqlari-dirijyorlik qoidalari, dirijyorlik atamallari, ishoralari haqida tushunchalar berila boshlanadi. Bular qatorida "diqqat", "nafas olish" (qo'shiq ijrosidan oldin), auftakt, "ijroni boshlash", "ijroni tugallash" haqida tushunchalar amaliy ko'rsatmalar orqali tushuntiriladi. Bolalar dastlab qo'shiq kuylash jarayonida mana shu elementlarga muvofiq kuylash malakalarini egallashlari lozim. Albatta, bu tushunchalarni egallash qo'shiq aytish qoidalari bilan birgalikda amaliy tarzda ko'rsatib, tushuntirib borilishi yaxshi natija beradi. Bu o'rinda o'qituvchining qo'l harakatlarini bo'rttirib ko'rsatishi, mimikasi, ritm, sur'atni aniq ifodalovchi harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki, 1-sinfning birinchi va ikkinchi choragi davomida o'quvchilarda yozish savodxonlig yaxshii shakllanmaganligi uchun bolalar qo'shiqni o'qituvchi ovozigga ergashib, uyda esa ota-ona, opa-akalari yordamida o'rganib, yod olib aytishadi. Shuning uchun ham o'qituvchilarning dirijyorlik ishoralari o'quvchilarni jo'r ovozlik kuylash sifatini belgilashda asosiy o'rin tutadi. O'qituvchining o'quvchilarni "diqqat", "auf takt", "ijroni boshlash", "ijroni tugallash" kabilarga rioya etib kuylashga o'rgatishi dirijyorlik amaliyotida asos bo'lib xizmat qiladi.


(1-rasm)



Ushbu sxema asosida mashqlar, qo'shiqlar tanlanadi. O'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda dirijorlik sxemasiga harakatlar bajariladi. Darslikda bu haqda shunday tushuncha beriladi. Xor-qoshiq turli o'lchov (sanoqda) bo'lishiga qarab dirijorlik qo'l harakatlari ham turlicha bo'ladi. Masalan, "bir-ikki" deb sanaladigan ikki cho'rakli o'lchovdagi qo'shiqqa dirijor qo'llarini pastga va yuqoriga qarab harakatlantiradi. Dirijorlik sxemasini o'zlashtirishni qiziqarli, engil kechishini ta'minlash uchun darsda aynan shu mavzu doirasida turli didaktik o'yin elementlaridan, didaktik treninglardan foydalanish mumkin. Didaktik treninglarni "Bu qaysi o'lchov sxemasi?", "Bu o'lchovga qanday dirijorlik qilinadi", "sanab dirijorlik qiling" kabi mavzularda o'tkazish mumkin. Bolalar bunday treninglarda faol qatnashadilar, o'z bilimlarini namoyish qilishga intiladilar. Bolalarni dirijorlikga o'rgatishda kuchli, kuchsiz hissalarini ifodalash harakatlariga alohida e'tibor qilish kerak. Kuchsiz hissalar keying hissaga tayyorgarlik vazifasini o'z ichiga olishini o'quvchi ongiga singdirish lozim. Chunki, taktning (sxemasining) oxirgi hissasi (kuchsiz hissa), shu bilan birga keyin keluvichi (kuchli) hissaning boshlanishidir.

Aynan 3-sinfda 2/4 o'lchoviga dirijorlik qilish harakatlari haqida "takrorlash" ruknida ma'lumotlar beriladi. 2/4 o'lchovida yozilgan F. Nazarovning "Ko'ylagim" qo'shig'ini dirijorlik qilib kuylanadi [4:19]. Albatta jarayon o'qituvchining dirijorlik harakatlarini diqqat bilan kuzatish, unga taqlid qilib dirijorlik harakatlarini bajarish uslubida amalga oshiriladi. O'qituvchi bu jarayonda barcha o'quvchilarni dirijorlik boshidagi qo'l, gavda, oyoqlar holati, qo'l harakati amplitudasi, qo'l taktlarining sur'ati va bir xil tekis ritm, tempini kuzatib boradi. Shundan so'ng keying mashg'ulotlarga, 6/8 o'lchovda yozilgan qo'shiqlarga dirijorlik qilish harakatlarini o'rganishga kirishiladi. 6/8 o'lchoviga dirijorlik harakatlarini o'rganish oldidan o'qituvchi 6/8 o'lchovining hissalarini tuzilish tarkibi haqida (6 ta nimchorak notalaridan iborat o'lchov) tushuncha beradi. Bunday o'lchovga dirijorlik harakati pastga 1,2,3 (nimchorak notalar), tepaga ham 4,5,6 (nimchorak notalar) xuddi 2/4 o'lchovi harakatiga mos ravishda (sxemasi) dirijorlik qilinishini tushuntiradi.

(2-rasm)




6/8 o'loviga dirijyorlik qilishni o'rganish dastlab sxemaning sanoqlarini ovozda aytib "pastga" (1,2,3), tepaga (4,5,6), qo'l harakatlari bir tekis, auf takt bilan, muayyan tempda bajariladi. Shundan so'ng o'qituvchi tanlagan qo'shiqning bir yoki ikki taktini kuylab dirijyorlik qilib ko'rsatadi, o'quvchilar o'qituvchi harakatlarini takrorlashadi. Bu holat sinfdagi barcha o'quvchilarning bir xil darajada dirijyorlik harakatlarini o'zlashtirishgunlaricha davom ettiriladi. Mabodo, bu jarayon juda "cho'zilib" ketadigan bo'lsa, o'qituvchi o'quvchilarning "zerikib", bir narsani takrorlashdan "bezib" qolishlariga yo'l qo'ymasligi, keying darsda shu o'lovga dirijyorlik harakatlarini birgalikda davom ettirish haqidagi taklifi metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi. 3-sinf darsligida 6/8 o'loviga dirijyorlik qilib kuylash uchun Mardon Nasimovning "Tinchlik bog'i" qo'shig'i tavsiya etilgan. Shuni unutmaslik kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlariga ko'ra "diqqati", "sezgisi", "xotirasi", "musiqiy eshituvi" (sluxi), "musiqani idrok etish malakalari" yaxshi rivojlanmaganligi bois darsda o'tilgan materiallarni darhol o'zlashtirishlari qiyin bo'ladi. Dars soatlarini haftasiga bir soat hajmida belgilangani ham bugun o'tilgan, o'rganilgan bilimlarni bir haftalik muddatdan so'ng xotirasida saqlanib qolmasligi kabi holatlar musiqa o'qituvchisidan har bir musiqiy-nazariy, amaliy ijrochilikka oid bilim, tushunchalarni har bir darsda uzluksiz takrorlab borishga etibor qaratishini taqozo etadi. Boshlang'ich sinf musiqa darsliklari mualliflari ham didaktikaning mana shu "o'quv materiallarini bolalarning aqliy rivoji me'yorlariga mosligi" nuqtai-nazaridan nazariy bilim, tushunchalarni qayta-qayta takrorlanishiga darsliklarda to'g'ri munosabat bildirishgan.

2/4 va 3/4 o'lovlardagi dirijyorlik harakatlarini o'qituvchi yordamida muayyan darajada o'zlashtirilgandan, o'qituvchi bunga ishonch hosil qilganigidan so'ng, dirijyorlik amaliyotining keying bosqichiga o'tiladi. Navbat uch chorakli o'lovga keladi. Uch chorakli o'lovga dirijyorlik harakatlarini boshqarish jarayonida o'quvchilarga quyidagi mazmunda tushuncha beriladi: Musiqa asarlarida ikki o'lovdan tashqari uch chorakli o'lov ham bo'ladi. Bu o'lovda yaratilgan kuy-qo'shiqlar ko'proq raqs tushishga moyillik to'g'diradi. Vals musiqasi bunga misol bo'la oladi.

Uch chorakli o'lovga dirijyorlik qilishni o'rganishda quyidagicha harakatni bajarish lozim: birinchi kuchli hissada qo'l harakati tepadan (auf takt dan so'ng) pastga tushadi.

(3-rasm)



Mana shu sxema asosida qo'l harakatlari bir necha bor takrorlanadi. Sxemani o'zlashtirilishining keying bosqichida o'ng qo'limiz bilan uch chorakli o'lovga dirijyorlik qilamiz.

O'quvchilarni dirijyorlik amaliyotiga o'rgatishda o'qituvchi nazariy bilimlarni dirijyorlik bilan bevosita bog'liklik jihatlarini doimo yodda tutishi lozim. 3-sinfning 1-choragida o'quvchilarga pauza haqida tushuncha beriladi. Pauza nimani anglatadi, musiqa amaliyotida qanday vazifani bajaradi, u qanday ko'rinishda bo'ladi, yozilishi, sanalishi haqida tushunchalar mazmunida pauzalarga qanday dirijyorlik qilinadi degan savol ham etiborda bo'lishi va bu haqda o'quvchilarga nazariy ham amaliy

(ko'rsatib berish, namoyon qilish, mashq, kuylarda pauza uchraydigan taktlarga dirijyorlik qilish) tushunchalar beriladi.

Pauzaga ta'rif beriladi: qo'shiq yoki kuyning biron yerida tovushning to'xtashi yoki tinishi zarur bo'lsa pazalardan foydalaniladi.

Notalar cho'zimi har xil bo'lganidek, pazalar ham har xil cho'zimda bo'ladi. O'quvchilarga dastlab chorak notaga teng chorak pauza haqida tushuncha beriladi.



Chorak pazali musiqiy asarga dirijyorlik qilinadi. O'qituvchi harakatlariga qarab, unga ergashib dirijyorlik harakatlari amalga oshiriladi. Pazalar mavzusidagi darslar davomida nimchorak pauza haqida tushuncha beriladi. Nimchorak pauza nimchorak notaga teng.

Nimchorak pauza mana bunday ko'rinishda yoziladi:



Nimchorak pazali mashq tinglanadi, qo'shiq qilib kuylanadi, o'qituvchi ijrosida dirijyorlik qilinadi. Ninimchorak pazalar uchraydigan bolalar uchun yozilgan biror asar, masalan, Darslikda berilgan "Nisholda" qo'shig'I o'rganiladi, dirijyorlik qilish amaliyoti bajariladi.

Aynan mana shu jarayonda darsning "ilgari o'tilganlarga qaytish va o'tilajak darslarga yugirib, sakrab o'tish" metodidan (xususiy metod) foydalanib 4/4 o'lchovi, unga dirijyorlik qilish sxemasi, dirijyorlik harakatlari tushuntiriladi, amalda o'qituvchi ijrosida ko'rsatib beriladi. Albatta, berilayotgan tushunchalar qo'shiq kuylash faoliyati bilan bog'liq ravishda, o'qituvchining o'lchovlarga dirijyorlik qilish harakatiga qarab, taqlid qilib o'zlashtirib boriladi. O'qituvchi esa, "solfedjio" qilib kuylash, aytim mashqlar jarayonida o'quvchilarning har bir qo'l harakati, dirijyorlik "postanovkasi", "manual texnika" xususiyatlarini diqqat bilan kuzatib boradi.

4/4 o'lchoviga quyidagicha tushuncha beriladi. 4/4 o'lchovi madhiya, qo'shiq, marsh kabi musiqa asarlarida ko'proq qo'llaniladi. Bu o'lchovning yuqoridagi "4" raqami bir takt ichida to'rtta hissa (choraklik) borligini, pastki "4" raqami esa hissalarining har biri choraklik cho'zimga teng ekanligini anglatadi. Bunga to'rt hissadan birinchi hissa kuchli, ikkinchi hissa kuchsiz, uchinchi hissa nisbatan kuchli va to'rtinchi hissa kuchsiz hissa bo'lishligi tushuntiriladi.




4/4 o'lchovida turli ritm uzunliklari qo'llanilsa-da, biroq ularning umumiy yig'indisi har bir taktda to'rt chorakka teng bo'lishi kerak.



4/4 o'lchov ba'zan "C" tarzida belgilanadi. 4/4 o'lchoviga dirijyorlik qilganda qo'l harakati quyidagi sxema asosida bo'ladi. "Bir" deganda qo'l harakati yuqoridan pastga, "Ikki" deganda qo'l harakati chapga, "Uch" deganda o'ngga, "To'rt" deganda yuqoriga ko'tariladi.

(4-rasm)




Dirijyorlik amaliyotining navbatdagi qismida yana 6/8 o'lchoviga qaytiladi [5:21-27]. Bu galgi tushuncha quyidagi tarzda bo'ladi. Bu o'lchovning yuqoridagi "6" raqami bir takt ichida oltita hissa borligini, quyidagi "8" raqami-bu hissalarining har biri sakkiztalik (nimchorak) cho'zimiga teng ekangligini bildiradi.



Olti hissalik o'lchovga dirijyorlik qilganda o'ng qo'l harakati quyidagicha bo'ladi.

(5-rasm)



Ijro sur'ati tez bo'lgan asarlarga xuddi ilgari o'tilganidek, oddiy ikki hissali o'lchovdagi kabi dirijyorlik qilinadi. Bunda har bir qo'l harakatiga uchtdan nimchorak hissa to'g'ri keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki dirijyorlik qilishda liga, legato, fermato, repriza, dinamik belgilarni qo'l harakatida ifodalash kabilarga e'tibor qaratiladi. Dirijyorlik hagidagi bilimlarni mustahkamlash uchun "takt" o'lchovlarini aniqlash "misolda qanday alteratsiya belgilari qo'llanilgan?", "misolda qanday pauzalar uchraydi?", "pauzali misol yoki asarga dirijyorlik qiling", "qo'shiqni notalar bilan dirijyorlik qilib kuylang", "qo'shiqni dastlab notalar bilan, so'ngra so'zlari bilan kuylab dirijyorlik qiling" kabi savol va topshiriqlar muntazam suratda berib boriladi.

5-sinfda 2/4, 3/4, 6/8, 4/4 asosiy o'lchovlarga dirijyorlik qilish davom ettiriladi. Dirijyorlik qilishda avval o'ng qo'lda, keyin chap qo'l da, so'ngra ikkala qo'lda dirijyorlik harakatlarini bajarish amalga oshiriladi.

6-sinfda dirijyorlik bilan bog'liq bilim va tushunchalar 2/4 o'lchovida yozilgan mashq yoki qo'shiqni kuylab dirijyorlik qilish, kuyga dirijyorlik qilib, notalarni aniq, ravon va sof tovush bilan

kuylash ruknida izchil sur'atda davom ettirib boriladi. Tinglangan kuy, mashqlar turli o'lchov va nota cho'zimlarida bo'lishiligiga e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda o'quvchilarda faqat dirijyorlik ishora va harakatalari, shu bilan birga nota o'qish, solfedjiolash, musiga savodxonligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar shakllanib boradi.

7 sinfda ham dirijyorlik san'ati bo'yicha bilim va tushunchalar ushbu uch asosiy o'lchovga dirijyorlik bilan cheklanadi. Bu maktab musiqa darslarida o'quvchilar bilimi va malakalariga quyilgan talablar me'zoni bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qudratov I., Abdulkarimova E. Xor va irshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand, SamDU nashriyoti, 2021 yil.
2. Qudratov I. Dirijorlik. O'quv qo'llanma. -Samarqand, SamDU nashriyoti, 2019 y
3. Nurmatov H., Norxo'jayev N. Musiqa. 2-sinf uchun darslik. -Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot mabaa ijodiy uyi, 2022 yil.
4. Nurmatov H., Norxo'jayev N. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. Toshkent, G'afur G'ulim nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2023 yil.
5. Ibrohimov O. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. -Toshkent, G'aur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2019 yil.
6. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. -Toshkent, Fan va texnologiyalr markazi nashriyoti, 2009 y.

MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI KOMMUNIKATIV VOSITA VA FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSOLARI**МЕДИАГРАМОТНОСТЬ И ИНФОРМАЦИОННАЯ КУЛЬТУРА ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИА****MEDIA LITERACY AND INFORMATION CULTURE THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE USE OF MEDIA***Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li*

Annotatsiya. Bu maqolada axborot bilan ishlash madaniyati, axborotdan foydalanish usullari va metodlari kiritilgan. O'zbekiston va xorijlik olimlarning qilgan ishlari, ilmiy izlanishlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Axborot madaniyati, media savodxonlik, axborot turlari, turli media shakllar, axborot resurs.*

Аннотация: В статье рассматриваются культура работы с информацией, методы и приемы использования информации. Рассматриваются работы и научные исследования узбекских и зарубежных ученых.

Ключевые слова: *Информационная культура, медиаграмотность, типы информации, различные медиаформы, информационный ресурс.*

Abstract. This article introduces the culture of working with information, methods and techniques of using information. It discusses the work and scientific research of Uzbek and foreign scientists.

Keywords: *Information culture, media literacy, types of information, various media forms, information resource.*

Qobilov V.A.,
*O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
mustaqil izlanuvchi
vohidqobilov035@gmail.com*

Kirish. Mediasavodxonlik insonlarga turli media shakllarini va xabarlarini tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plamidir. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto'g'ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo'lgan odam osongina sezishi mumkin bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, media savodxonlik — bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo'llash qobiliyati. Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi katta ta'sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rishimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanadi.[1] Ommaviy axborot vositalarini iste'molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko'nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi. Media savodxonligi ko'nikmalarini o'rganishning ushbu jarayoni media ta'lim deb ataladi. UNESCO tashkiloti tomonidan XXI asrda media ta'limni targ'ib qilish madaniy-ma'rifiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etildi hamda aynan shu yo'l bilan media savodxonlikni oshirish mumkinligi ta'kidlandi. UNESCO odamlarning tanqidiy fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish darajasini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va media savodxonlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi. Kundalik turmushda har bir mutaxassis turli xil axborotlar bilan ish yuritadi. Axborot tushunchasi bir qancha fanlarda turlicha izohlangan. Masalan: falsafada axborot inson ongiga ta'sir etib, obeyktiv reallikni aks ettiruvchi va harakatlantiruvchi kategoriya sifatida ishlatiladi. Kibernetika, informatika fanida axborot voqea - hodisa to'g'risidagi bilimlarni oshirish yoki noaniqlikni kamaytirish mezoni sifatida qo'llaniladi. Kompyuterlarni ishlatish faoliyatida esa axborotdan boshqarish

funksiyalarini amalga oshiruvchi ob'ekt sifatida foydalaniladi. Axborot tushunchasi ma'lumot tushunchasi bilan uzviy bog'langan, lekin har qanday ma'lumot axborot bo'lavermaydi. Masalan: olma desak, bir necha xil ma'noni tushunish mumkin: qizil olma deganda, mevaning ma'lum bir rangi tushuniladi, demak barcha ma'lumotlar axborotga aylanishi uchun voqea - xodisa to'g'risidagi butun xususiyatlarni ifodalashi lozim.[2]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi kunda barcha axborotlarni nisbiy holda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- texnik axborot;
- agrobiologik
- axborot;
- siyosiy axborot;
- huquqiy axborot;
- iqtisodiy axborot va boshqalar. Barcha axborotlar quyidagi xususiyatlarga ega: Uzluksiz hosil bo'lishi. Harf raqamlarda ifodalanishi.

Diskret xarakterdaligi. Yer yuzida jonli mavjudodlarning paydo bo'lishi bilan birgalikda ularning taraqqiyoti, hamda atrof muhit to'g'risidagi, voqea xodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilish va ular to'g'risida axborot olish shu axborotlar asosida yashash sharoitlarini belgilash, rivojlanish taraqqiyotini anglash katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari vaqt o'tishi bilan birgalikda tabiatni insonlar tomonidan o'rganish davomida bu axborotlarga yaratilayotgan va ishlatilayotgan mashinalar, apparatlar, o'lchov asboblari, texnologik jarayonlar haqidagi axborotlar qo'shib bordi. Yigirma-o'ttiz yil oldin axborot nimaligini aniqlash juda oson edi. Axborot odamlar o'rtasida uzatiladigan ma'lumotlar hisoblanib, keyingi vaqtda ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish uchun, hamda yashash sharoitlarini, iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'lib qoldi.[4]

Axborot odamlar o'rtasida uzatiladigan ma'lumotlar hisoblanib, keyingi vaqtda ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish uchun, hamda yashash sharoitlarini, iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Masalan. Biologik o'simliklarni o'rganish orqali o'simliklarning hayoti to'g'risidagi axborotlarni yig'adi va bu axborotlar asosida o'simliklarni tabiatdagi ro'lini, ularning ko'payishini, insonlar uchun kerakli tomonlarini aniqlaydi. Ikkinchi bir misol. Avtobus xarakatlanish davomida motorning ovozi boshqacha chiqmoqda. Avtobusdagi yo'lovchilar uchun bu uncha ahamiyatsiz bo'lsa, malakali haydovchi uchun esa bu axborot hisoblanib va bunga asosan, ya'ni motordan chiqayotgan ovozga qarab motorni holatini aniqlaydi. Demak axborot degan savolga qisqacha javob berishimiz uchun ikkita obyektda manba va iste'molchi orasidagi bog'lanishga murojaat qilishimiz zarur ekan.[5]

Axborot istemolchilar ro'yxati ham katta bo'lib unga, insonlar, hayvonlar, o'simliklar, turli xil o'lchov asboblari kiradi. Shuning uchun axborot keng doiradagi tushuncha bo'lib, jamiki obyektlar, mavjudodlar, jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Axborot manbalari va istemolchilarining har xilligi axborot shaklining turli ko'rishda bo'lishiga olib keldi: belgili, matnli va grafik. Axborotning belgili ko'rinishida

O'qituvchining axborot madaniyatini shakllantirish o'ziga xos xususiyatlarga ega:

Tashabbuskorlik, o'z muammolariga yechim topish qobiliyati (I. P. Osintsova); Ish joyida minimal moslashishdan so'ng kutubxona ishining istalgan sohasidagi barcha vazifalarni bajarish qobiliyati (A.Y.Chernyak);

Intellektual, texnologik, iqtisodiy, ekologik, axloqiy, siyosiy, ijtimoiy-psixologik, estetik-tematik, uyushtirilgan o'qish, tashkilotchilik fazilatlarini;

Axborot holatini mustaqil tahlil qilish qobiliyati (G. S. Galiullina); Axborot oqimida yo'naltirilganlik, hujjatlarni optimal saqlash va ulardan foydalanishni tashkil qilish qobiliyati (I.A.Meizhys); Operator mahorati, jarayonlarni modellashtirish qobiliyati, psixologik moslashuv (L. N. Fedorova);

Pedagogika fanlari sohasidagi yangi yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni bilish (I. A. Meyjis); Muammolarni hal qilish qobiliyati, etakchilik qobiliyati, tadqiqot ishlariga moyillik (M. G. Voxrisheva); [8]

Tashabbuskorlik, ijodkorlik, intellektual salohiyat yuksak psixomotor sifatlar, axloqiylik, bilimdonlik, ijodiy idrok etish qobiliyati, jiddiy tahlildan aslo qolishmaydi; Psixologik moslashuv, stressga chidamlilik, o'z-o'zini bilish, o'zini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi tuzatish ko'nikmalari. Bir qator tadqiqotchilar axborot madaniyati rivojlanishining qaramaqarshi xususiyatini hisobga olib, insonning o'zi yaratgan axborot "yirtqich hayvoniga" to'liq bog'liqligi xavfi (N. I. Vitiska va boshqalar) mavjudligiga ishonishadi.[6]

Ularning fikriga ko'ra, noaniq ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslangan intellektual axborot tizimlarini qurish alohida rol o'ynaydi, bu esa mutaxassislarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq fikr-mulohazalarining sifat tomonini eng mos modellashtirishga imkon beradi. Axborot madaniyati muammosiga oid tadqiqotlarda bir qancha umumiy masalalar aniqlangan uning asosiy tushunchalari va turlari; axborotlashtirishning huquqiy va axloqiy jihatlari, shaxsning axborot madaniyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik muammolari; uning pedagogik jarayonda rivojlanishining psixologik mexanizmlari; axborot texnologiyalarining o'rni, global axborot tarmoqlarining madaniyat rivojidagi o'rni va ta'siri, Rossiyaning madaniyat, san'at va ta'lim sohasidagi axborot resurslarining holati. Shunday qilib, bir qator mualliflar (Yu. S. Zubov va N. A. Slyadneva) tarixiy ongda moddiy o'zgartiruvchi inson faoliyatining roli hali ham hukmronlik qiladi, degan pozitsiyani ko'rib chiqadilar. Axborotni o'zgartirish faoliyati odatda ma'naviy madaniyat tarixi sifatida qaraladi va texnologik va ijtimoiy tarixga bo'ysunadi. Biroq, mualliflarning fikricha, axborot ishlab chiqarish usuli inson faoliyati asosida yotadi va asosan madaniyat turlarini belgilaydi. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiyaning zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirish juda muhimdir.[7]

Tadqiqotchilarning yana bir guruhi (Z. E. Vorobieva va A. I. Muxachev) yaqin kelajakda barcha tizimlarda sodir bo'ladigan energiya-axborot o'zaro ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan yagona fan shakllanishini taklif qiladi. Demak, fanlararo tadqiqot tushunchalari va toifalarini aniqlash va aniqlashtirish zarurati tug'iladi, bu esa o'z navbatida ta'lim tuzilmasi va mutaxassislar madaniyatining sifat tarkibiy qismlarini jiddiy qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu jarayonda yetakchi o'rin shaxsning axborot madaniyatini yuksaltirishning eng muhim omili va butun bilim industriyasining ham global, ham mintaqaviy miqyosdagi eng yirik tarmog'i sifatida ta'lim tizimiga tegishli, ya'ni. mutaxassisning axborot madaniyatining mintaqaviy jihatini yoritib berish.[9]

Tadqiqotchilar odamlarning axborotga kirishning turli imkoniyatlariga bo'linishi munosabati bilan yuzaga keladigan shaxsning axborot madaniyatining axloqiy jihatlari (M.G.Voxrisheva, V.M.Petrova, A.S.Chachko va boshqalar) katta qiziqish bildirmoqdalar: saqlash qiyinligi tufayli asl va mualliflik huquqi, pullik va bepul ma'lumotlarni ajratish, ijtimoiy munosabatlarning maxsus ierarxiyasining paydo bo'lishi va turli ijtimoiy guruhlarining axborot hissasidagi farq bilan. Pedagogika bilan chegaradosh axborot madaniyatining muammolari - axborot faoliyatidagi muloqot tamoyillari, shaxsning axborot madaniyati tipologiyasi, XXI- asrda uning rivojlanish prognozlarini, virtual haqiqatda shaxsning o'zini o'zi identifikatsiya qilish xususiyatlari (A.A.Grechixina va boshqalar), jamiyat rivojlanishining axborotlashtirish tarixi va nazariyasini o'rganishda optimal nisbatni izlash va shaxsiy ma'lumotlarning xulq-atvori sohasida mutaxassislarni tayyorlashning zarur darajasini ta'minlash (N.L.Nikitina, E.L.Kudrina, N.I.Gendina va boshqalar). O'quv dasturlarini qurishning blok-modulli printsipli taklif etiladi, bu esa ta'limning fundamental xarakterini ta'minlagan holda kursni talabalar toifasiga qarab o'zgaruvchan qilish imkonini beradi.[10]

Tadqiqot metodologiyasi. Birinchi marta "Axborot savodxonligi" tushunchasi 1977-yilda AQSHda kiritilgan va oliy ta'limni isloh qilish milliy dasturida qo'llanilgan. A.P.Ershov kompyuter savodxonligini "kompyuter yordamida muammolarni hal qilish, harakatlarni rejalashtirish va ularning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, informatikaning asosiy g'oyalarini tushunish, rolini tushunish

qobiliyati deb tushunadi. Oliy ta'lim o'qituvchisining axborot-pedagogik kompetensiyasi uning umumiy pedagogik madaniyatining tarkibiy qismi, uning kasbiy mahorati va oliy ta'lim sohasidagi jahon andozalariga muvofiqligining eng muhim ko'rsatkichidir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, aynan o'sha davlatlar, birinchi navbatda, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Fransiya o'z intellektual kadrlarini tayyorlashni birinchi raqamli vazifa qilib qo'ygan, mudofaa, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda eng katta muvaffaqiyatlarga erishgan. huquqiy va madaniy sohalar. Turli xil ma'lumotlarni olish va uzatish usullarini faol bilishni, kasbiy, uslubiy va umumiy madaniy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning kompleks majmuiga asoslangan ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalariga ega bo'lishni nazarda tutadigan axborot-pedagogik kompetensiya majburiy bo'lishi kerak. Kengroq tushunchaning tarkibiy qismi – o'qitilayotgan fanning mazmunidan qat'i nazar, zamonaviy universitet o'qituvchisining umumiy pedagogik madaniyati

Tahlil va natijalar Mamlakatimizda axborotni to'plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish bilan ko'plab tashkilotlar shug'ullanadi: kutubxonalar, statistik markazlar, axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalari Zamonaviy OAV turi hisoblangan internet jurnalistikasi OAV taraqqiyoti, uning vazifalarining kengayishi, ishlab chiqarish va texnika sohasidagi keskin o'zgarishlar, jurnalistika va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi jurnalistlar oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bir vaqtning o'zida yangiliklar yoza oladigan, intervyu olish, rasm va videoga tushirish mahoratini egallay olgan, internet uchun materiallar tayyorlay oladigan universal jurnalistlarni yetishtirish hozirgi kunda muhim. Shu bilan birga ushbu an'anaviy jurnalistik malakaga endilikda yana texnik xarakterdagi matematik va muhandislik kabi sohalar bo'yicha ham malaka hamda ko'nikmalarni hosil qilishga to'g'ri kelayapti. Bu, ayniqsa, internetdan foydalanuvchi jurnalistlar uchun juda zarurdir.[11]

Agarda 2-3 yil oldin respublikamizda faoliyat yuritayotgan saytlarning salkam 50 foizi muntazam yangilanmagan bo'lsa, bugungi kunda sifatli axborotga bo'lgan talabning oshishi, saytlarning ko'payishi va axborot bozori uchun kurash OAV maqomiga ega saytlarning har kuni yangilanib turishini taqozo etmoqda. Buni "kun.uz", "daryo.uz", "gazeta.uz", "qalampir.uz", "xalq so'zi" saytlari misolida

ko'rishimiz mumkin. Ularda berilayotgan bugungi kunning dolzarb muammolariga bag'ishlangan materiallar foydalanuvchilar xabardorligining oshishiga olib kelmoqda.

Agarda saytlar kontenti bilan tanishish dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, www.uz portalining xabariga ko'ra, bir kunda daryo.uz saytiga 422 496 mingga yaqin foydalanuvchilar kirsak, reytingning uchinchi o'rnini egallagan "qalampir.uz" saytiga 106 086 mingga yaqin foydalanuvchi kirib, uning mazmuni bilan tanishar ekan. Bu ko'rsatkichlar ham bugungi kunda insonlarning axborotga qanchalik kuchli ehtiyoji borligini ham ko'rsatib bermoqda. Aslida jurnalistlar, o'z kasbiy vazifalariga muvofiq, axborot vakuumida yashashlari mumkin emas. Bloggerlardan olingan ma'lumotlar jurnalistlar tomonidan rasman e'lon qilinmasa-da, baribir ularni kundalik faoliyatlarida nazardan qochirmaydilar. Zero, an'anaviy OAVning axborotni yashirish odati ularga bo'lgan ishonchga putur yetkazadi. Natijada odamlar bloglarga o'xshagan axborot manbalariga murojaat etishga majbur bo'ladilar. Bunda auditoriyaning professional jurnalistlarga bo'lgan ishonchi pasayadi, bloggerlar mavqei esa oshib boraveradi. Natijada an'anaviy jurnalistikaning reytingi biroz tushib ketishi mumkin.[12]

Xulosa. Internet jurnalistining mahorati avvalo jurnalistika konvergentsiyasi jarayonida o'quvchi uchun qiziq bo'lgan faktlarni zudlik bilan har tomonlama, ya'ni matn, video va audio jamlanmasi ko'rinishida yetkazishdir. Bugungi kunga kelib saytlarda ("kun.uz", "daryo.uz", "gazeta.uz", "human.uz") muhbir bilan birgalikda fotograf va operator faoliyatini kuzatishimiz mumkin, bu albatta ularda faoliyat yuritayotgan jurnalistlar matn va surat bilan chegaralanib qolmay, axborotni video va audio shaklida ham aholiga yetkazib berishayotganliklarini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyat ko'rsatayotgani axborot sohasini rivojlantirish uchun zarur barcha sharoitlar yaratilganidan yana bir dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press. – T.: 2015. – 94.6.
2. Yahyo, Muxammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o‘quv qo‘llanma. Movaraunnahr, 2016.-672 b
3. A.V. Fedorov. Mediaobrazovaniya i mediagramotnost Uchebnoe posobie. M. 2018 g
4. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quvamaliy qo‘llanma. - Extremum-press, 2017-142.6
5. Axmetova L.C. Mediaobrazovaniya i mediagramotnost: teoriya, metodologiya, praktika. Uchebnoe posobie. KazGU. 2016 g
6. Amirov D.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. 2010.
7. Burxanov X. M. Internet xavfsizligini ta’minlashda milliy segment faoliyatining sotsiologik jihatlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2012.
- 8 Raximova Sh.A. Ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinuvi madaniyati. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.
9. Shermuxamedova A.U. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi tendensiyalari va xususiyatlari. Diss.Avtoreferat T.: 2021.
10. Sudich Yu.V., Prokazin V.V. Rol sotsial setey v jizn! molodeji. M. 2019.
11. Matibaev T. Matibaeva R. Jaholat xuruji. - Toshkent: Akademiya, 2013.
12. Tolipov A.A. Yoshlar orasida jiioyatchilikning oldiii olishning ijtimoiy mexanizmlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ERTAK VA MASAL JANRINI INNOVATSION O‘QITISH USULLARI**ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЖАНРА СКАЗКИ И ПРИТЧИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ****INNOVATIVE METHODS OF TEACHING THE FAIRY TALE AND PARABLE GENRE IN PRIMARY GRADES**

Raximova Gulbaxor Karshibayevna

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinflarning o‘qish va sinfdan tashqari darslarida o‘quvchilarga ertak va masal janrinining syujeti, g‘oyaviy mazmunini tushintirish masalasi tahlil etilgan. Ertak va masal janrini o‘rgatishda darslarni har gal turli innovatsion usullar bilan tashkil etish, o‘quchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlash, uning mazmunini boyitadigan metodik tavsiyalar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ertak, masal, janr, syujet, pedagogik yondashuv, multimedia texnologiyalari, interfaol o‘yinlar, raqamli resurslar, metodika.

Аннотация. В статье анализируется проблема объяснения сюжета и идейного содержания сказок и басен учащимся на уроках начальной школы и во внеклассной работе. При обучении жанру сказки и басни всегда стоит организовывать уроки с использованием различных инновационных методов, выявлять педагогические основы формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся, давать методические рекомендации, обогащающие его содержание.

Ключевые слова: сказка, притча, жанр, сюжет, педагогический подход, мультимедийные технологии, интерактивные игры, цифровые ресурсы, методика.

Abstract. The article analyzes the issue of explaining the plot and ideological content of the fairy tale and fable genre to students in primary school classes and extracurricular classes. It discusses the need to organize lessons in various innovative ways when teaching the fairy tale and fable genre, identify the pedagogical foundations of forming independent thinking skills in students, and provide methodological recommendations that enrich its content.

Keywords: fairy tale, parable, genre, plot, pedagogical approach, multimedia technologies, interactive games, digital resources, methodology.

Raximova G.K.,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Filologiya fanlari nomzodi,
dotsent
rahimovagulbaho17r@gmail.com

KIRISH. Boshlang‘ich sinf – bu bolaning ko‘plab ajoyib bilimlarni faol qabul qilish davri: vaqt va makon, insonning tabiat bilan, dunyo bilan aloqasi haqidagi ilk taassurotlar orttiradi. Bilimning asosiy qismini ertaklardan oladilar. Ertaklar bolaga birinchi marta jasorat va matonatni his qilish, yaxshilik va yomonlikni ko‘rish imkonini beradi. Bu yoshdagi bolaning bolalik davrida ertaklardan to‘liq foydalanish bolalarning aqliy va tarbiyaviy muammolarini hal qilishning samarali yo‘lidir.

Innovatsion usul – bu bolalarni nafaqat ertak mazmunini o‘zgacha va o‘ziga xos tarzda idrok etishga, balki hikoyaning syujetini ijodiy yondashgan holda o‘zgartirishga, turli xil yakunlarni o‘ylab topishga va bir nechta syujetlarni birlashtirishga o‘rgatish demakdir. Ertak tasvirlari yordamida bolalar u yoki bu intonatsiyani, noziklikni, mehri, ajablanishni ifodalashni o‘rganadilar.

TADQIQ VA TALQIN. Boshlang‘ich sinflarda ertak o‘qitishda innovatsion yondashuv o‘quv jarayonini qiziqarli va samaraliroq qiladigan turli metod va strategiya[1.81]larni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunda xalq ertaklarini o‘qitish uchun innovatsion yondashuv bo‘yicha ba‘zi fikrlar mavjud:

1. Multimedia resurslari: audio va video hikoyalar, interaktiv taqdimotlar kabi multimedia resurslaridan faol foydalanish bolalar uchun dars davomida yanada qiziqarli va interaktiv ta‘lim muhitini yaratishga yordam beradi.

2. Rol o‘ynash va drammatizatsiya: Bolalarga hikoyalarni rol o‘ynashga va drammatizatsiya qilishga ruxsat berish. Bu ularga syujetni yaxshiroq tushunishga va qahramonlarning his-tuyg‘ularini boshdan kechirishga yordam beradi, shu bilan birga ijtimoiy muloqot va ifodali o‘qish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

3. Ijodiy faoliyat: Bolalarni ertaklarning o‘z versiyalarini yaratishga, syujetni o‘zgartirishga, yangi belgilar qo‘shishga yoki oxirini o‘zgartirishga undash. Bu ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Interaktiv munozaralar: ertaklardan o‘rganish mumkin bo‘lgan axloqiy saboqlar va qadriyatlar haqida suhbatlar o‘tkazish. Bolalarga o‘z fikrlarini ifodalash, o‘z taassurotlari bilan o‘rtoqlashish va qahramonlarning harakatlarini tahlil qilish imkonini berish.

5. Kengaytirilgan haqiqat texnologiyalaridan foydalanish: Bolalarni real vaqtda hikoyalardagi qahramonlar va voqealarni ko‘rish va ular bilan muloqot qilish imkonini beruvchi kengaytirilgan haqiqat texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv stsenariylarga jalb qiling.

6. Jamoaviy loyiha faoliyati: Ertaklarni o‘rganish bilan bog‘liq loyihalarni tashkil qilish, masalan, ertaklar kitobini yaratish, ko‘rgazma o‘tkazish yoki mavzuli tadbirni o‘tkazish. Bu bolalarga ertaklardan olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash, hamkorlik va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bunda muhim jihat – tafakkur va tasavvurni rivojlantirish jarayoni. Tasavvur qilish boshlang‘ich sinf yoshidagi bola uchun juda muhim va foydali jarayon hisoblanadi: bu uning hayotini ijodiy, o‘ziga xos, nostandart qiladi, bu yerda birinchi marta bolalarga odatiy stereotiplardan uzoqlashish va yangi ertaklar o‘ylab topish taklif qilinadi. Ammo o‘qituvchi turli yo‘llar bilan o‘ylab topishga yordam berishi mumkin va lozim:

O‘qish va sinfdan tashqari o‘qish darslarida xalq ertaklarini tushuntirar ekanmiz, bunda didaktik o‘yinlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ertaklarni o‘qitishda, asosan, rolli o‘yinlar boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar tomonidan qiziqish bilan qarshi olinadi. Ammo, darslarning xilma-xilligi o‘quvchining kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini orttirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, turli xalqlar og‘zaki ijodiga mansub ertaklarni o‘qitish jarayonida bu katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga xalq ertaklarini o‘qitishda quyidagi didaktik o‘yinlardan foydalanishi mumkin:

1. **“Ertak bilimdonlari”** o‘yini. Bu o‘yin biroz murakkab xarakterga ega. Bunda qog‘ozga ertak yoziladi. Bu ertakning ichida yana 10 ta xalq ertaklari yashiringan bo‘ladi. O‘quvchilar jami 10 ta ertakning nomlarini topib yozishlari kerak. Masalan: “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonlarda bo‘g‘irsoq bo‘lgan ekan. Bu bo‘g‘irsoqni Zumrad maqtanchoq podsho uchun pishirgan ekan, ammo Qimmat qo‘shni savdogarning uch qizi bilan birgalikda uni yeb qo‘ymoqchi bo‘libdi. Buni Zumradning uyiga kelib turuvchi tuya, fil va olmaxonlar bilib qolishibdi. Olmaxon donishmand cholning kenja

o'g'liga buni aytib beribdi. Kenja o'g'il bo'g'irsoqni xumcha ichiga berkitib qo'yibdi ("Bo'g'irsoq", "Zumrad va Qimmat", "Aqli bola", "Eng yaxshi sovg'a", "Tuya, fil va olmaxon", "Kenja o'g'il", "Ur, to'qmoq") [2.80].

2. **"Ertaklar g'alayoni"** o'yini. Bu o'yinda o'quvchilarga ma'lum va mashhur ertaklardan gaplar beriladi. Ammo muammo shundaki, bu gaplardagi qahramonlar, joylar, mavjudotlarni shamol to'zg'itib yuborgan va natijada, ular aralashib ketgan. O'quvchilarning vazifasi ularni yana o'z holiga qaytarishdir. Masalan: uyqudagi Zumrad, sohibjamol va kenja o'g'il, rostgo'y bola va maxluq, qor malikasi va bilmasvoy.

3. **"E'tiborli kitobxon"** o'yini. O'quvchilarga ertaklarda tilga olingan bezaklar va qimmatbaho toshlarning nomi aytiladi. O'quvchilar bular qaysi ertaklarda qatnashganligini topishlari kerak. Masalan, oltin so'ziga oid quyidagi ertaklarni aytish mumkin: "Oltin baliqcha", "Oltin bolta", "Tilla tuxum" va boshqalar.

4. **"Siz ertaklarni bilasizmi?"** o'yini. Ushbu o'yinda o'quvchilar uchun turli xalqlarning ertak qahramonlari tilga olinadi. O'quvchilar qaysi qahramon qaysi xalq va ertakka mansub ekanligini aniqlashi lozim bo'ladi. Masalan:

Qimmat

Sichqon

Markiz

Yalmog'iz

O'lmas Koshey

Ivanushka

To'g'rivoy

Qizil shapkacha va shu kabilar.

5. **"Xatoni top"** o'yini. Bu o'yinda bolalarga ertaklardan olina rasmlar beriladi. Bolalar rasmda nima noto'g'ri tasvirlanganligini va u qaysi ertakdan ekanligini aytadilar.

6. **"Bosh qahramonga qarab ertakni top"** o'yini. O'quvchilarga ertak qahramonlarining tasvirlari taqdim etiladi, bolalar ular qaysi ertaklarda paydo bo'lganligini aytishadi.

O'qish va sinfdan tashqari o'qish darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarga o'tilgan va ayni damda o'tilayotgan ertaklarni yodda saqlab qolishga yordam beradi. Qolaversa, bu o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini nazorat etadi.

Demak, o'zbek va jahon xalqlari og'zaki ijodidagi g'oyaviy, mazmuniy o'xshashliklarning yuzaga kelishiga ertakning juda qadimiy ekanligi va syujetning asosi odamlarning bir qabila bo'lib yashaganliklari sabab bo'lgan, deyish mumkin. Keyinchalik jamiyat rivojlanishi bilan ertak syujeti o'sib, ma'lum bir xalq madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini egalladi. Voqealar o'xshashligiga sabab, ehtimol, millatlar o'rtasidagi farqlarga qaramay, halollik, olijanoblik, jasorat va mehr-muhabbat kabi umume'tirof etilgan axloqiy qadriyatlar mavjudligi bo'lishi mumkin.

Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshi bolani ertak bilan tanishtirish uchun eng qulay metodik usuldir. Xalq ertaklari o'zining ajoyib xususiyatlari tufayli murg'ak qalbni yaxshilikka va ezgulikka yo'naltirish uchun beqiyos imkoniyatlar beradi. Bundan tashqari, ertakdan foydalangan holda ta'lim individual yo'naltirilgan hamda ijodiy jarayon sifatida amalga oshirilsa, chinakam milliy ma'naviyat poydevorini qurishning boshlanishiga aylanadi.

Masal kichik hajmli, kulminatsion nuqtaga va ma'lum bir yechimga ega bo'lgan kichik pyesani eslatadi. U biror voqea yoki hodisani qisqa va mazmunli tasvirlashda ajoyib misol bo'la oladi. Bolalarni masaldagi kinoyaviy mazmun emas, balki, birinchi navbatda, obrazlarning go'zalligi o'ziga jalb qiladi. Shuning uchun masal ustida ishlashni hayvonlar hayotidan yozilgan hikoya ustida ishlash kabi

uyushtiriladi. Odatda, masal personajlari o'z xatti-harakatlari, fe'l-atvorlari bilan, nutqiy uslublari, odatlari bilan o'zlarini tavsiflaydilar, ba'zan bu xarakterni masaldagi boshqa bir personaj to'ldiradi.

Boshlang'ich sinflarda masalni o'rgatishda bolalarni ifodali o'qishga va uning mazmunini qisqa, ba'zan bir necha so'z bilan aytib berishga, ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aytib, o'zaro qiyoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga kasb etadi. Masalning allegorik mazmuniga to'xtalmasdan, bosh personaj obrazini tahlil qilishga kirishiladi. Birinchi sinfda o'quvchilar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o'xshash kulgili hikoya kabi qabul qilsalar, ikkinchi sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlari ba'zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko'proq she'riy tarzda bo'lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar.

Masal tahlil qilinyotganda voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o'quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so'z bilan tasvirlash, ba'zilariga o'qituvchining yordamida xarakteristika tuzish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo'lib o'qish tavsiya qilinadi. Personajga ta'rif berishda uning hatti-harakati bilan birga, personaj tilining o'ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Masalni ifodali o'qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, muallif tilini yaxshi tushunish, har bir personajning individual xarakterini hisobga olish zarur. Dialogli masallarni rollarga bo'lib o'qish, ertaliklarda sahnalashtirib aytirish maqsadga muvofiqdir.

Masalnavis Gulxaniyning "Toshbaqa bilan chayon", "Maymun bilan Najjor" masallari boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat yoshiga, balki bilim saviyasiga ham mos keladi va ularni do'stlik ruhida tarbiyalashga, qo'ldan kelmaydigan ishga behuda chiranishning yomon oqibatlariga olib kelishini uqtirishga, boladagi qo'pollik, yalqovlik, yolg'onchilik, qo'rslik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida masal janriga kam o'rin berilgan. Holbuki, masaldagi qissadan hissa o'quvchi matndagi e'tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o'qib o'tib ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o'rinni, bo'shliqni to'ldiradi.

Boshlang'ich sinflarda ertak va masal janrini o'rgatishda quyidagi innovatsion usullardan foydalanilsa, qiziqarli va tarbiyaviy bo'lishi mumkin:

Bolalarni "Kolobok", "Hensel va Gretel", "Zolushka" kabi mashhur ertaklar dunyosi bilan tanishtirish. Bolalar bilan ertaklar nimani o'rgatishini, ya'ni qissadan hissa nimada ekanligini muhokama qiling [3.78].

Ertak yig'uvchilari haqida ma'lumot berish. Masalan, Aka-uka Grimmlar: ko'plab ertaklarni yozib olgan nemis yig'uvchilari; Aleksandr Afanasyev: rossiyalik ertaklar yig'uvchisi. Bu odamlar kelajak avlodlar uchun ularni saqlab qolish uchun hikoyalarni qanday yig'ishgan va yozib olishganini tasvirlab bering.

Ertak va masal janrini boshlang'ich sinflarga tadbiq etish uchun quyidagi interfaol dars usullaridan foydalanish samara beradi:

Ertaklarni interaktiv o'qish. Bolalaringiz bilan ertaklarni o'qing, uni yanada qiziqarli qilish uchun qo'g'irchoqlar yoki dramatik sahna ko'rinishlardan foydalaning;

Chizish va ijodkorlik. Bolalardan o'zlarining sevimli ertaklarining rasmlarini chizishlarini yoki o'zlarining ertak va rasmlarini yaratishlarini so'rang;

Ertaknamo loyihalar. Bolalar oilaviy hikoyalar kitobini yaratish uchun bobo va buvilarining hikoyalarini yozib olish yoki rasmlar chizish orqali to'plashsin;

Musiq va qo'shiqlar. An'anaviy xalq qo'shiqlarini o'rganing, ularni bolalarga ham o'rgating va birgalikda ijro eting;

O‘yinlar va rolli o‘yinlar. Bolalar o‘zlarini ertak qahramonlaridek ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘yinlarni tashkil qiling, bu ularga ertaklarning ma‘no-mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradi;

Muzeylar va kutubxonalarga sayohatlar. Mahalliy muzeylar yoki folklor to‘plamlari mavjud kutubxonalarga ekskursiyalarni tashkil qiling yoki tematik ko‘rgazmalar tashkil qiling.

Bir soatlik darsni tashlil etish namunasi:

1. Xalq og‘zaki ijodiga kirish. Xalq og‘zaki ijodi nima ekanligini tushuntiring, mashhur ertaklardan misollar keltiring.

2. Ertak o‘qish. O‘quvchilaringiz bilan “Kolobok” yoki “Zanjabil non odam” ertaklarini o‘qing.

3. Ertak mazmuni haqida suhbat. Bu ertak syujetini muhokama qiling. Bolalardan ertakni qanday tushunganliklarini aytib berishlarini so‘rang.

4. Ijodiy ish. Bolalardan o‘zlarining sevimli ertak qahramonlarini chizishlarini yoki hikoyaning davomini tasavvur qilishni so‘rang.

5. Qo‘shiqlar va o‘yinlar. Dars mavzusi bilan bog‘liq xalq qo‘shiqlarini o‘rganing yoki an‘anaviy o‘yin o‘ynang.

METODOLOGIK VA ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xalq og‘zaki ijodi namunalarini janrlar va darsliklar kesimida tahlil qilish ularni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, uning ijtimoiy qimmatini ma‘rifiy, g‘oyaviy-tarbiyaviy va badiiy-estetik ahamiyati ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Ertak tasvirlari yordamida bolalar u yoki bu intonatsiyani, noziklikni, mehrni, ajablanishni ifodalashni o‘rganadilar. K.Ushinskiyning ta‘kidlashicha: “Mamlakat tabiati, uning tarixi inson qalbida aks ettirilgan so‘z bilan ifodalanadi. Odamlar g‘oyib bo‘ldi, lekin ular yaratgan, xazinaga kirgan so‘zlari – ona tili o‘lmas bo‘lib qoldi” [4.296].

Multimedia texnologiyalari, interfaol o‘yinlar va raqamli resurslardan foydalanish o‘quv jarayonini bolalar uchun yanada qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi [5.67].

Xulosa. Umuman olganda, boshlang‘ich sinflarda ertak va masal janrini o‘qitish interfaol va qiziqarli bo‘lishi kerak. Turli metod va materiallardan foydalanish bolalarning xalq og‘zaki san‘ati boyligini yaxshiroq tushunish va qadrlashiga yordam beradi, shuningdek, madaniy merosga qiziqishni rivojlantiradi.

O‘qish va sinfdan tashqari o‘qish darslarida turli xalqlarning folkloriga mansub kichik janrlaridan matnlar ko‘pincha qo‘llaniladi, ular kichik hajmi, shuningdek, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega bo‘lgan maxsus mazmuni tufayli diqqatni tortadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayoniga yangicha yondashuv va texnologiyalarning joriy etilishi xalq og‘zaki ijodini o‘rganishni yanada qiziqarli, interfaol va ta‘sirchan qiladi. Multimedia texnologiyalari, interfaol o‘yinlar va raqamli resurslardan foydalanish o‘quv jarayonini bolalar uchun yanada qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi. Ular darslarda faolroq qatnashadilar va materialni yaxshiroq o‘zlashtiradilar. O‘quvchilar tomonidan o‘z hikoyalarini yaratish, teatr spektakllarini namoyish etish va multfilmlar yaratish kabi interfaol va jamoaviy loyihaga asoslangan o‘qitish usullari bolalarning tasavvurini va ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradi. Virtual sayohatlar kabi interfaol usullar bolalarga dunyoning madaniy xilma-xilligini yaxshiroq tushunish va hurmat qilish imkonini beradi. Bu bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqotni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Олимов К.Д. “Замонавий таълим ва инновацион технологиялари бўйича илғор хорижий тажрибалар”, ўқув-услубий мажмуа. 2015. – 81 б.



2. Toirova M. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 4-sinfi uchun darslik. 1-qism. –Toshkent: “Edutanmet”, 2023. –80 b.
3. Aydarova U.B. 2-sinf “O‘qish savodxonligi” 2-qism. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 120 b.
4. Ушинский К.Д. Собр. соч. – Т.6. – М.: Перо, 1989.– С.664.
5. G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili va o‘qishdan didaktik materiallar. –Toshkent: “Ilm ziyo”, 2004. 176-b.

PRINCIPLES AND TOOLS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN
SECONDARY EDUCATION: WRITING SKILLS INSTRUCTION IN GLOBAL
CONTEXTS

ПРИНЦИПЫ И ИНСТРУМЕНТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ
В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ: ОБУЧЕНИЕ НАВЫКАМ ПИСЬМА В ГЛОБАЛЬНОМ
КОНТЕКСТЕ

O'RTA TA'LIMDA CHET TILLARINI O'QITISH TAMOYILLARI VA VOSITALARI:
GLOBAL DUNYODA YOZISH KO'NIKMALARINI O'RGATISH

Rustamov Alisher Abduhakimovich

Abstract. This paper analyzes the techniques and tools employed worldwide to instruct foreign languages for secondary school students with special reference to the enhancement of writing abilities. Relying on international approaches, the paper discusses models like communicative language instruction (CLI), task-oriented language teaching (TOLT), and the use of materials through electronic media in contrast to what is applied in Central Asia, particularly in Uzbekistan. The research reveals how the global trends are locally translated, overlooking issues of resource constraint and local cultural contexts in Central Asian education systems. The research concludes by promoting the pedagogical diagnostic approach as a contemporary, student-centered method for improving writing competence, highlighting its capacity to bridge the gaps between international best practices and local needs.

Keywords: *foreign language education, secondary school systems, writing abilities, communicative language instruction, task-oriented learning, digital resources, Central Asia, Uzbekistan, pedagogical diagnostic method, global practices.*

*Rustamov A.A.,
Samarqand davlat chet
tillar instituti
alisherus2@gmail.com*

Аннотация. В этой статье анализируются методы и инструменты, используемые во всем мире для обучения иностранным языкам учащихся средних школ, с особым акцентом на улучшение навыков письма. Опираясь на международные подходы, в статье обсуждаются такие модели, как коммуникативное обучение языку (CLI), обучение языку, ориентированное на задачи (TOLT), и использование материалов через электронные медиа в отличие от того, что применяется в Центральной Азии, особенно в Узбекистане. Исследование показывает, как мировые тенденции транслируются на местном уровне, игнорируя проблемы ограниченности ресурсов и местного культурного контекста в системах образования Центральной Азии. Исследование завершается продвижением педагогического диагностического подхода как современного,

ориентированного на студента метода улучшения навыков письма, подчеркивая его способность преодолевать разрывы между передовой международной практикой и местными потребностями.

Ключевые слова: обучение иностранным языкам, системы средних школ, навыки письма, коммуникативное обучение языку, обучение, ориентированное на задачи, цифровые ресурсы, Центральная Азия, Узбекистан, педагогический диагностический метод, мировая практика.

Annotatsiya. Ushbu maqolada butun dunyo bo‘ylab o‘rta maktab o‘quvchilariga chet tillarini o‘rgatish uchun qo‘llaniladigan texnika va vositalar tahlil qilinadi va yozish qobiliyatini oshirishga alohida e‘tibor beriladi. Xalqaro yondashuvlarga tayangan holda, maqola Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda qo‘llaniladiganidan farqli o‘laroq, kommunikativ til o‘qitish (CLI), vazifaga yo‘naltirilgan til o‘qitish (TOLT) va materiallardan elektron ommaviy axborot vositalari orqali foydalanish kabi modellarni muhokama qiladi. Tadqiqot Markaziy Osiyo ta‘lim tizimlarida resurslarning cheklanganligi va mahalliy madaniy kontekstlarga e‘tibor bermay, global tendentsiyalarning mahalliy miqyosda qanday yetkazilayotganini ochib beradi. Tadqiqot pedagogik diagnostika yondashuvini yozma malakani oshirishning zamonaviy, talabalarga yo‘naltirilgan usuli sifatida targ‘ib qilish, ilg‘or xalqaro tajriba va mahalliy ehtiyojlar o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish qobiliyatini ta‘kidlash bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: chet tili ta‘limi, o‘rta maktab tizimlari, yozish qobiliyatlari, kommunikativ til o‘rgatish, vazifaga yo‘naltirilgan ta‘lim, raqamli resurslar, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, pedagogik diagnostika usuli, jahon amaliyoti.

Introduction.

Teaching foreign languages to high school students is now part of preparing them for interdependent world environments. Among language skills to be acquired—listening, speaking, reading, and writing—the hardest is writing since it entails precision, novelty, and mastery of form. Educators across the globe embrace a range of precepts and tools of teaching writing skills from conventional grammar-based to new, technology-based techniques. The article critically examines the international practices, juxtaposes them with pedagogical practices in Central Asia, namely in Uzbekistan, and demonstrates how the pedagogical diagnostic approach can be used as a contemporary way to teach writing.

Principles of Teaching Foreign Languages Worldwide Communicative Language Instruction (CLI)

One of the most widely accepted postulates of foreign language teaching is Communicative Language Instruction (CLI). Emerging in the 1970s, CLI focuses on using language to develop genuine communication experience rather than memorizing the abstract rules of grammar. H. Douglas Brown,

in his foundational book *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy* (2000), maintains that CLI enhances fluency and functional proficiency and therefore is most appropriate to teach writing. Student writing is promoted through students being encouraged to compose essays, letters, and reports modelled on everyday patterns of communication such as emailing pen pals or making travel brochures [1].

In practice, CLI diverts attention from a focus on error-free accuracy towards fluency vs. coherence. As an example, in high schools in Europe, students can have collaborative writing sessions to arrive at meaning-making that is parallel to the interactive nature of CLI. This differs from more formalistic approaches wherein expression is sacrificed for the sake of error-free writing.

Task-Oriented Language Teaching (TOLT)

Task-Oriented Language Teaching (TOLT), as David Nunan describes it in *Task-Based Language Teaching* (2004), expands on CLI by making lessons revolve around real-world tasks. Writings for blog posts, surveys, or stories give students the authority to apply language skills in authentic contexts. TOLT is more process-oriented than product-oriented and encourages students to prewrite, write, and revise - steps essential for writing proficiency acquisition. All over the world, TOLT has been widely used in countries such as Canada and Australia, whose junior high school curriculum includes project writing exercises. Apart from linguistic skills, the exercises also help with improved critical thinking and problem-solving skills, according to 21st-century educational needs [7].

Genre-Based Approach

The genre-oriented approach, spearheaded by researchers such as John Swales in *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings* (1990), seeks to instruct the student to write specific genres such as persuasive essays, scientific reports, or anecdotal narratives. It enables students to learn the convention and rhetorical devices of different kinds of texts that are necessary for professional or academic success [10].

In the United States, high school English as a Foreign Language (EFL) commonly applies genre-based pedagogy in order to teach students how to take standardized exams like the TOEFL, which demands skill in argument and expository writing. Through genre-specific characteristics learned from model texts and practiced repeatedly, students learn more deeply about audience and purpose.

Tools for Teaching Writing Skills Worldwide

Digital Resources and Technology

The integration of technology has transformed foreign language writing instruction. Digital tools like Google Docs, Grammarly, and online writing centers (e.g., Purdue OWL) offer students immediate feedback on style, grammar, and coherence. Judith L. Shrum and Eileen W. Glisan, in their book *Teacher's Handbook: Contextualized Language Instruction* (2000), illustrate how technology facilitates collaborative writing, peer review, and access to authentic materials [9].

In Japan, for example, high school students employ online portfolios to monitor their writing, and in Germany, virtual reality (VR) simulations place them in scenarios that prompt creative writing, like a retelling of a historical occurrence. These methods optimize participation and enable personalized learning, adapting to different learning patterns.

Writing Workshops and Peer Review

Writing workshops, a Western pedagogical mainstay, offer guided contexts for students to write, read, and revise their texts. Peter Elbow's *Writing Without Teachers* (1973) emphasizes the value of peer response in helping writers assume responsibility for their writing. In the UK, EFL secondary classrooms routinely ask students to share drafts in pairs, inviting them to describe strengths and areas of improvement. This model of collaboration is the opposite of teacher-centered approaches in that it

promotes independence and critical thinking. It also agrees with sociocultural theories of learning promoted by Lev Vygotsky, whereby social interaction powers skills acquisition [3].

Authentic Materials

Adding authentic materials—newspapers, blogs, and ads—brings writing instruction down to earth. Alice Omaggio Hadley, in *Teaching Language in Context* (2001), stresses that using real texts is motivating because it demonstrates the practical application of their skills. Teachers in Scandinavian nations may ask students to write responses to *The Guardian* or *Le Monde* articles, linking classroom learning to global debate [4].

Writing Skills Training in Central Asia: A Comparative Analysis

Overview of Central Asian Education

Central Asia, which includes countries like Uzbekistan, Kazakhstan, and Kyrgyzstan, boasts a special education system under the influence of its Soviet legacy and post-independence transformation. Foreign language, particularly English, teaching has become the focal point as an economic and cultural integrator. Writing skills tend to lag behind due to the scarcity of resources, heavy class loads, and a previous emphasis on oral fluency [11].

A Foreign Language Teaching Method in Uzbekistan.

In Uzbekistan, foreign language instruction has been given priority since the independence of the country in 1991, and English is the most widely taught foreign language. Alisher Rustamov, in *Difficulties in teaching writing for Uzbek high classes: differences between English and Uzbek languages* (2025), discovers that the pre-independence emphasis on grammar-translation methodology continues to be dominant in the majority of high schools, where writing is instructed in terms of sentence-level exercises rather than extensive composition [13].

The Uzbek Ministry of Public Education has made reforms, such as English from Grade 1 as a compulsory course, but writing skills remain insufficiently developed. In a study for *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, Nosirova Dilshoda (2022) reveals that teachers often are not trained in new methodologies, but rather practice memorization and translation. This is drastically different from the current methodologies all over the world, such as CLT and TBLT, which focus on communicative competence [6].

Challenges in Central Asia Compared to Global Standards

1. Resource Constraints: In contrast to Western institutions with access to digital resources, the majority of Central Asian classrooms do not have computers or internet connectivity. This prevents the integration of technology-enhanced writing instruction seen in countries like South Korea or Finland.

2. Teacher training: Professional development opportunities in Uzbekistan are few and far between, with only 120 hours of compulsory training provided, according to *Difficulties in teaching writing for Uzbek high classes: Differences between English and Uzbek languages. (2025)* by Rustamov A. on *Universal Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*. The European teachers, however, have continuous workshops and certificate courses [13].

3. Influence of Culture: Central Asian education places more emphasis on the authority of the teacher, limiting peer feedback or student-centered methods found in Australia or Canada. Writing tasks are more template-driven, such as filling in blanks, rather than creative or analytical.

4. Curriculum Design: Although the World-Readiness Standards for Learning Languages (ACTFL, 2015) direct U.S. curricula with explicit writing standards, they are less defined in Central Asia and uneven skill development is the result.

Emerging Developments in Uzbekistan

In spite of all these challenges, Uzbekistan is moving. The integration of Content and Language Integrated Learning (CLIL) in some schools is an emulation of European trends, integrating writing with subject material like science or history. Additionally, Task-Based Teaching Method (TBTM) has also been shown to be successful in ESP (English for Specific Purposes) courses, such as in a 2023 article in the *Journal of Law and Sustainable Development*, where 85% of students in pedagogy attained an upper-intermediate level with task-based writing exercises.

Bridging the Divide: Insights from Global Experiences Adapting Global Principles

Central Asian teachers can modify CLT by adding writing assignments of cultural significance, i.e., letters to international partners or essays praising national customs, that foster language abilities as well as cultural appreciation. TBLT can be made less resource-intensive in less resource-poor settings through paper-based techniques like creating a class newsletter. The genre-based methodology can center on functional styles, i.e., job applications, that are relevant to Uzbekistan's economic objectives.

Making the Most of Existing Resources Although digital resources may be limited, low-tech options, like peer assessment groups and locally obtained authentic materials (e.g., English-language Uzbek newspapers), can simulate international practices. Teacher training initiatives might focus on budget-friendly strategies, inspired by Peter Kanecki's research in *Specific Pedagogical Features of Learning a Second Foreign Language* (2024), advocating for blended learning methods in Central Asia [5].

The Pedagogical Diagnostic Strategy: A Contemporary Solution

Definition and Fundamentals

The pedagogical diagnostic approach entails the evaluation of students' writing ability using diagnostic instruments—like rubrics, portfolios, and formative assessment—to customize instruction according to their requirements. Unlike conventional summative evaluation, the approach, as elaborated by Ravshan Sayfulin in the *Central Asian Journal of Education* (undated), is concerned with the unveiling of strengths, weaknesses, and knowledge deficiencies in real time. [8].

Application to Writing Skills

In secondary school classrooms, diagnostic checklists can be used by teachers to assess various elements of writing such as grammar, vocabulary, and coherence. For instance, a student who has problems with sentence structure can be provided with special practice whereas one who is creative can be assigned more complex narrative tasks. This individualized approach is precisely the reverse of the one-size-fits-all strategy being implemented in Central Asia.

Global Examples

Other countries, like Finland, employ diagnostic testing to inform differentiated writing instruction, resulting in high literacy rates. Likewise, Singapore's portfolio strategy charts writing development over a period of time, which Uzbekistan can emulate using simple notebooks rather than technological applications.

Significance in Uzbekistan and Central Asia

The pedagogical diagnostic strategy has huge importance in Central Asia due to a number of reasons:

1. Addressing Diversity: With multilingual groups, diagnostic tests can detect language transfer issues (e.g., Uzbek-to-English) and target interventions.

2. Stretching Limited Resources: Through addressing individual needs, teachers can do the most with time and materials, something that is particularly critical in under-resourced schools.

3. Enhancing Motivation: Individualized feedback enhances student engagement, which counters the disengagement so prevalent in traditional Uzbek classrooms.

4. Alignment with International Standards: Such an approach mirrors the individualized, competency-based focus of the World-Readiness Standards so that alignment with international educational systems is possible.

Conclusion

Instruction in writing in foreign languages at the secondary level necessitates a blend of principled methodologies and real-world tools, as seen in international models such as CLT, TBLT, and technological integration. While Central Asia, and Uzbekistan specifically, struggles to implement these practices, inspiration from international experience provides potential for change. The pedagogical diagnostic approach emerges as a novel practice, allowing teachers to examine and meet individual writing needs effectively. In adopting this contemporary approach, Uzbekistan can advance its foreign language instruction, preparing students for international communication while accommodating local limitations and cultural contexts.

References

1. American Council on the Teaching of Foreign Languages (ACTFL). (2015). *World-readiness standards for learning languages*. Alexandria, VA: ACTFL.
2. Brown, H. D. (2000). *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy*. Upper Saddle River, NJ: Pearson ESL.
3. Elbow, P. (1973). *Writing without teachers*. New York, NY: Oxford University Press.
4. Hadley, A. O. (2001). *Teaching language in context* (3rd ed.). Boston, MA: Heinle & Heinle.
5. Kanecki, P. (2024). Specific pedagogical features of learning a second foreign language: Experience of Central Asian universities. *Scientia et Societas*, 3(1), 22–30.
6. Nosirova, D. N. (2022). The role of foreign languages in creating a new enlightened society of Uzbekistan. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(1), 364–372.
7. Nunan, D. (2004). *Task-based language teaching*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
8. Sayfulin, R. (n.d.). Formation of metacognitive skills in reading at the initial stage of teaching a foreign language. *Central Asian Journal of Education*.
9. Shrum, J. L., & Glisan, E. W. (2000). *Teacher's handbook: Contextualized language instruction* (2nd ed.). Boston, MA: Thomson/Heinle.
10. Swales, J. (1990). *Genre analysis: English in academic and research settings*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
11. Rustamov, A. A. (2025). Textbooks for teaching foreign languages in upper grades: A pedagogical diagnostic approach. *International Journal of Artificial Intelligence*, 5(2), 324–328. Retrieved from academicpublishers.org
12. Rustamov, A. A. (2025). The role of pedagogical diagnostics in teaching English writing. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14912976>
13. Rustamov, A. A. (2025). Difficulties in teaching writing for Uzbek high classes: Differences between English and Uzbek languages. *Universal Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 3(21), 53–59. Retrieved from <https://scienceresearch.uz/index.php/UJSSPC/article/view/488>

MATEMATIK ANALIZ DARSLARIDA MUAMMOLI VAZIYATLARNI YARATISH
CREATING PROBLEM SITUATIONS IN MATHEMATICAL ANALYSIS LESSONS
СОЗДАНИЕ ПРОБЛЕМНЫХ СИТУАЦИЙ НА УРОКАХ МАТЕМАТИЧЕСКОГО
АНАЛИЗА

Rustamova Shohista Alisher qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ko'p uchraydigan bir-biriga yaqin tushunchalar ya'ni: muammoli ta'lim, masala va muammoli vaziyatlarning farqi bayon etilgan bo'lib, amaliy mazmundagi masalalarni yechishda muammoli vaziyatlarni qanday yaratish bo'yicha misollar keltirilgan va bunday misol va masalalarning amaliyotdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *Muammo, muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, topshiriq, tenglama, koeffitsient, yechim, amaliyot, talaba, mustaqil topshiriq.*

Abstract. This article describes the differences between similar concepts that are often encountered in the educational process: problem-based learning, problems and problem situations, provides examples of how to create problem situations in solving practical problems, and examines the importance of such examples and problems in practice.

Keywords: *Problem, problem-based learning, problem situation, task, equation, coefficient, solution, practice, student, independent task.*

Аннотация. В данной статье поясняются понятия, тесно связанные друг с другом в образовательном процессе, т.е. проблемное обучение, отличие проблемных и проблемных ситуаций, приводятся примеры создания проблемных ситуаций при решении задач практического содержания, а также рассматривается значение таких примеров и задач на практике.

Ключевые слова: *Задача, проблемное обучение, проблемная ситуация, задание, уравнение, коэффициент, решение, практика, ученик, самостоятельное задание.*

Rustamova Sh.A.,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti tayanch
doktaranti
rustamova3196@gmail.com

1960-yilning boshlaridan boshlab, maktablarda ta'lim jarayonini faollashtirish g'oyasi keng tarqalib, ta'limning yangi metodi-muammoli ta'lim metodi vujudga kela boshladi.

XIX va XX asrlarda amerikalik psixolog va pedagog Djon Dyui zamonaviy muammoli ta'lim nazariyasi yotgan g'oyani ilgari surdi va amalga oshirdi. Djon Dyui pedagogikasida tajriba va bilim chambarchas bog'liqdir. U **talabalarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, fikr yuritish va bashorat qilish qobiliyatini rivojlantirish** zarur deb topdi. U o'z-o'zini nazorat qilish va "aqliy intizom" - turli muammolarni hal qilish uchun intellektual ko'nikmalar va aqliy strategiyalarni qo'llash qobiliyatini - bilimli shaxsning muhim qismi deb atadi. Dyui darslar qat'iy o'quv reja asosida emas, balki o'quvchilarning bilishga bo'lgan intilishlariga qarab loyihalash, izlanish olib boorish, o'zini badiy ifodalash kabilar bilan shug'illanishlari mumkin bo'lgan eksperimental maktabga asos soldi. Bunday holda o'qituvchining vazifasi o'quvchilar oldiga o'quv muammoli masalalar qo'yish, muammoli holatlarni yuzaga keltirish bo'lsa, o'quvchining vazifasi muammoni his qilish va yechish natijasida yangi bilimlarga ega bo'lish va ularni olishni umumlashgan usullarini o'zlashtirish yordamida keyinchalik aniq masalalarni yechishga qo'llashdan iborat bo'ladi.

Muammoli ta'limda bilimning asosiy qismi o'quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilar tomonidan muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qila bilish jarayonida egallab olinadi.

O'rganilayotgan ob'ekt bilishga doir nazariy material yoki masala bilan o'rganuvchi sub'ekt (talaba) orasidagi o'zaro harakatlarning o'ziga hos bo'lgan turiga muammoli vaziyat deyiladi.

“Muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan topshiriq muammoli masala deb ataladi. Muammolilik belgilari quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- muammoli vaziyatning tug‘ilishi;
- yechim topishga qiziqish va ma‘lum ma‘noda tayyor bo‘lish;
- izlashning turli yo‘nalishlar bilan shartlangan har xil yo‘llarini topish.

Muammoning qo‘yilishi o‘quvchi va talabalar tushunadigan, shakllantirilishi esa, ularni qiziqtiradigan tarzda bo‘lishi kerak.

Muammo keng ma‘noda bo‘lib, u muammoli topshiriqlarning ketma-ket yoki qismlariga yoyilib ketadi. Muammoli topshiriqqa (masalaga) bitta topshiriqning oddiy yoki muammoning xususiy holati sifatida qarash mumkin. Masalan, rombni o‘rganish topshiriq qilib berilishi mumkin. Bu topshiriq tarkibiga kiradigan o‘quv masalalaridan biri rombning diagonallarini ochishdan iborat bo‘ladi” [1, 56-b].

“Amaliy mazmundagi masalalarni yechishda muammoli vaziyatlarni qo‘llash mumkin. Bunda quyidagi ketma-ketliklar amalga oshiriladi:

1. Amaliy masala yuzasidan muammoli savollar sistemasini tuzish.
2. Tuzilgan muammoli savollar sistemasida suhbat metodi orqali masala shartini, yechish uslubini va mohiyatini ochib borish.
3. Muammoli savollar asosida izlanish xarakteridagi vazifalar berish.

Yuqoridagi bosqichlar asosida o‘quvchilar o‘zlari darhol tushunib yetmaydigan fakt va tushunchalarga duch keladilar, natijada yechiladigan masala bilan o‘quvchilar orasida muammoli vaziyat hosil bo‘ladi” [6, 261 b].

Mamlakatimizda muammoli masalalar vositasida ta‘lim mazmunini takomillashtirishning nazariy-metodologik va uslubiy asoslari M.Tojiyev, D.M.Maxmudova, D.I.Yunusova, S.Alixonov, G.B.Zlotskiy, G.A.Artikovalarning ilmiy-tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

M.Tojiyevning ishida amaliy mazmundagi masalalarni yechishda muammoli ta‘lim metodlarini qo‘llash, mustaqil ta‘limni tashkil etishda muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarish, teoremlarni isbotlashda muammoli vaziyatlarning o‘rni va ahamiyatlari bayon etilgan.

D.M.Maxmudovaning tadqiqot ishida muammoli ta‘limning vujudga kelish tarixi, psixologik asoslari va uning ta‘lim jarayonida qo‘llanilishi tahlil qilingan bo‘lib, muammoli matematik masalalarning oliy ta‘lim jarayonidagi o‘rniga aniqliklar kiritilgan. Muammoli matematik masalalarni o‘qitishda kompyuter texnologiyalarining vosita sifatidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rsatilgan. Shu bilan birga talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muammoli masalalardan foydalanishning pedagogik samaradorligi aniqlangan.

G.A.Artikova o‘z tadqiqot ishida amaliy mashg‘ulot o‘quv jarayonida vujudga kelgan muammoli vaziyatning tarbiyaviy ahamiyatlariga alohida to‘xtalgan. Muammoli vaziyatlarga amaliy mashg‘ulotlarning mantiqiy davomi sifatida qarab, o‘qituvchida har doim “zahira” muammoli vaziyatlar bo‘lishi lozimligini ta‘kidlagan.

D.M.Maxmudovaning “Matematikani o‘qitishda masala bilan muammoli vaziyat farqi” nomli maqolasida “masala” va “muammoli vaziyat” tushunchalarining quyidagicha farqlanishini keltiradi: “Masala qo‘yilishi obyektiv va u subyekt (o‘quvchi)dan tashqarida mavjud. Bundan farqli o‘laroq, muammoli vaziyat birinchi navbatda subyekt holatini xarakterlaydi, bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida paydo bo‘ladigan, predmet haqidagi yangi bilimni ochish (o‘zlashtirish)ni talab qiluvchi, topshiriqni bajarish usullari yoki sharoitlaridir.

Shunday qilib, muammoli vaziyat bu masalaning o‘zigina emas, balki mavjud bilim va malaka bir tomonda va qilinayotgan faraz boshqa tomonda o‘zaro qarama-qarshiligini bartaraf qilishni talab etuvchi bilish jarayoni masalasidir [5, 51b].

Muallif ushbu maqolasida muammoli vaziyatga misol qilib Zenon Eleyskiyning “Axilles (Troya jangi qahramonlaridan biri) va toshbaqa” paradoksini keltirgan.

Agar o‘rganilayotgan mavzu materialidagi masala va misollarni yechish jarayoni o‘quvchilar uchun yangi matematik tushuncha, fakt va qoidalarni o‘z ichiga oladigan bo‘lib, avvalgi usul bilan

yechish mumkin bo'lmaydu, yechishning yangi usullari talab etilsa, u holda bunday masala yoki misol mazmunan muammolidir, aksincha, shunday misol yoki masalalar o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga yechish uchun berilishi mumkinki, bunday masala va misollar o'quvchilar uchun muammoli bo'lmay qoladi, chunki ular masala va misol yechilishining yangi usullarini mustaqil izlanmasdan, o'qituvchining tushuntirishiga qarab o'zlashtirib oladilar, berilgan masala yoki misol faqatgina koeffitsientlari bilan avvalgilaridan farq qiladigan darajada bo'ladi [2, 53-b].

1-misol. Agar o'qituvchi $ax^2 + bx + c = 0$ to'la kvadrat tenglamaning umumiy $x_{1,2} = \frac{-b \pm \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}$ yechimini topib, unga doir misol ko'rsatgandan keyin bunday turdagi misollar o'quvchilar uchun muammoli vaziyatni hosil qilmaydi, chunki ular uchun bu misolni yechishga andoza bor. O'quvchilar bu misolni yechish jarayonida hech qanday yangi matematik qonun yoki qoidani ishlatmasdan avvalgi misoldagi koeffitsientlar o'rniga yangilarini qo'yadilar holos, bunda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari shakllanmaydi.

2-misol. O'qituvchi kvadrat tenglama mavzusini o'tib bo'lganidan keyin ratsional tenglamalar mavzusini o'tish jarayonida quyidagicha muammoli vaziyatni hosil qilish mumkin.

O'qituvchi: $x^4 + 4x^3 - 10x^2 - 28x - 15 = 0$ tenglamani qanday tenglama deb ataymiz?

O'quvchilar: 4-darajali tenglama deyiladi.

O'qituvchi: Xo'sh, bu ko'rinishdagi tenglamani qanday yechish mumkin?

O'quvchilar: Biz bunday tenglamalarni yechmaganmiz.

Mana shu yerda o'rganilayotgan mavzu materiali bilan o'quvchilar orasida bilishga doir muammoli vaziyat hosil bo'ladi.

O'qituvchi: To'la kvadratdan foydalanib tenglamaning chap qismini ko'paytuvchilarga ajratamiz:

$$x^4 + 4x^3 + 4x^2 - 14x^2 - 28x - 15 = 0$$
$$(x^2 + 2x)^2 - 14(x^2 + 2x) - 15 = 0$$

Bu tenglamada $x^2 + 2x = t$ deb belgilash kiritsak, tenglamamiz qanday ko'rinishga keladi?

O'quvchilar: $t^2 - 14t - 15 = 0$ ko'rinishga keladi.

O'qituvchi: Bu hosil qilingan tenglamani qanday tenglama deymiz?

O'quvchilar: To'la kvadrat tenglama deymiz.

O'qituvchi: Bu tenglamani qanday yechamiz?

O'quvchilar: To'la kvadrat tenglama umumiy yechimini topish formulasiga qo'yib topamiz.:

$$t_{1,2} = \frac{14 \pm \sqrt{196 + 60}}{2} = \frac{14 \pm 16}{2}; t_1 = -1; t_2 = 15$$

O'qituvchi: Biz hozir tenglamani yechib, qaysi noma'lumni topdik?

O'quvchilar: t noma'lumni topdik.

O'qituvchi: Nimani topish so'ralgan edi?

O'quvchilar: x ni topish so'ralgan edi.

O'qituvchi: x ni qanday topamiz?

Mana shu yerdagi noma'lum x ni topish jarayoni ham ko'pchilik o'quvchilar uchun muammoli vaziyatni hosil qiladi.

O'quvchilar noma'lum x ni o'zlari topishlari mumkin, bo'shroq o'quvchilarga o'qituvchi yordamlashadi:

$$t_1 = -1 \text{ bo'lganda } x^2 + 2x = -1; x_{1,2} = -1$$

$$t_2 = 15 \text{ bo'lganda } x^2 + 2x = 15; x_3 = 3; x_4 = -5$$

Demak, tenglama 4-darajali bo'lgani uchun biz 4 ta yechimni topdik.

Bu misolni yechib bo'lgandan keyin bunday ko'rinishdagi ratsional tenglamalarni o'quvchilar yecha oladilar.

3-misol. Yuqoridagi misolni yechib ko'rsatgandan keyin o'quvchilarga

$(x^2 + x + 4)^2 + 8x(x^2 + x + 4) + 15x^2 = 0$ ko'rinishdagi misol beriladi. Bunday misolni yechish jarayonida $x^2 + x + 4 = y$ deb belgilash kiritishni biladilar. $y^2 + 8xy + 15x^2 = 0$. Lekin bu

yerda 2 no‘malumli 1 ta tenglama hosil bo‘ladi va bular o‘quvchilarda muammoli vaziyatni paydo qiladi.

Bu tenglamani y ga nisbatan yechib olamiz: $y_{1,2} = \frac{-8x \pm \sqrt{64x^2 - 60x^2}}{2} = \frac{-8x \pm 2x}{2} = -4x \pm x$

Endi dastlabki belgilashimizga qaytamiz va x ga nisbatan kvadrat tenglamani yechamiz:

$$x^2 + x + 4 = -4x + x; x^2 + 4x + 4 = 0$$

$$x^2 + x + 4 = -4x - x; x^2 + 6x + 4 = 0$$

Bizda ikkita kvadrat tenglama hosil bo‘ladi, va o‘quvchilar bunday tenglamalarni bemalol yecha oladilar.

$$x_{1,2} = -2; x_{3,4} = -3 \pm \sqrt{5}$$

4-misol: O‘quvchilar quyidagi ko‘rinishdagi limitlarni hisoblashlarda bir qancha tipik xatolarga yo‘l qo‘yiladi.

$$1. \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{1+2+3+\dots+n}{n^2} = \lim_{n \rightarrow \infty} \left(\frac{1}{n^2} + \frac{2}{n^2} + \frac{3}{n^2} + \dots + \frac{1}{n} \right) = 0$$

$$2. \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{1+2+3+\dots+n}{n^2} = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\frac{n+1}{2}n}{n^2} = \frac{1}{2} [7, 34b].$$

O‘quvchilar bu yerda quyidagi xossaga asoslanib misollarni 1-usul bilan yechishlari mumkin. .

Xossa: Agar $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ ketma ketliklar yaqinlashuvchi bo‘lsa, u holda $\{x_n \pm y_n\}$ ketma-ketliklar ham yaqinlashuvchi bo‘ladi, shu bilan birga

$$\lim_{n \rightarrow \infty} (x_n \pm y_n) = \lim_{n \rightarrow \infty} x_n \pm \lim_{n \rightarrow \infty} y_n \text{ formula o‘rinli bo‘ladi.}$$

Isboti: Faraz qilaylik $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a$ va $\lim_{n \rightarrow \infty} y_n = b$ chekli limitlar mavjud bo‘lsin. U holda $x_n = a + \alpha_n$ ($\lim_{n \rightarrow \infty} \alpha_n = 0$) va $y_n = b + \beta_n$ ($\lim_{n \rightarrow \infty} \beta_n = 0$) deb yoza olamiz. Ravshanki, $x_n + y_n = (a + b) + (\alpha_n + \beta_n)$,

$$x_n - y_n = (a - b) + (\alpha_n - \beta_n).$$

Cheksiz kichik ketma-ketlikning xossalari asosan, $\{\alpha_n + \beta_n\}, \{\alpha_n - \beta_n\}$ sonli ketma-ketliklar cheksiz kichik ketma-ketliklardir. Demak, $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a \Leftrightarrow \lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a$ ekvivalensiyaning o‘rinli ekanligidan, $\{x_n \pm y_n\}$ ketma-ketliklar yaqinlashuvchi va ularning limitlari mos ravishda a+b, a-b sonlarga teng:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} (x_n \pm y_n) = \lim_{n \rightarrow \infty} x_n \pm \lim_{n \rightarrow \infty} y_n$$

O‘quvchi yoki talaba bu yerda sonli ketma-ketliklarning limitlari yig‘indisi yig‘indilar limitiga teng deb o‘ylagan holda misolni 1-usulda yechadi. Shu yerda muammoli vaziyat yuzaga keladi, ya‘ni , 2-usulda yechilgan misol ham to‘g‘ri. Qaysi misol xato va nima uchun?

Bu yerda albatta 1-usulda yechilgan misol xato. Chunki yuqoridagi xossa faqat chekli sondagi ketma-ketliklar uchun o‘rinli. 1-usulda esa misol cheksiz ko‘p yig‘indi ko‘rinishida yechilgan.

Bunday vaziyatlarda o‘qituvchilardan yetarli darajada tushunchalarga ega bo‘lishlari va pedagogik faoliyati davomida ulardan to‘g‘ri foydalanishlari talab etiladi.

Muammoli masalalarni yechish jarayonida o‘quvchi va talabalar yangi bilimlarga ega bo‘ladilar. Matematikadan muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishda tanlanayotgan misol yoki masaladagi mantiqiy tushunchalarning qanchalik bog‘liqligiga e‘tibor berish juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Muammoli masalalarni yechish jarayonida quyidagi asosiy holatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Yangi muammoli masalani to‘liq bayon qilish. Uni yechishga talaba boshlang‘ich masalani yechishda o‘rgangan ma‘lum usulni qo‘llash;

2. Muammoli holat paydo bo‘lishidagi, yangi ma‘lum usulni yangi masalani yechishga qo‘llashdagi, qiyinchiliklarni hal qilish. Agar ma‘lum usul bilan masalani hal qilish mumkin bo‘lmasa, uni o‘zgartirish, yangi usulni o‘ylab topish;

3. Topilgan usulni masalani yechishga qo‘llash va uni yechish;

4. Olingan yechimning to‘g‘riligini tekshirish.

Shunday qilib, muammoli misol va masalani yechish ma‘lum masalani hal qilishda paydo bo‘lgan muammoli holatdan boshlab yangi yechish usulini kashf qilish bilan yakunlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva B.S, Djurayeva D.Sh, Djurakulova A.X. Matematika o‘qitish metodikasi// O‘quv qo‘llanma. –Termiz 2020-239 b
2. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi // Darslik.-Toshkent 2011-302 b
3. Artikova G.A. Matematikadan amaliy mashg‘ulotlar metodik tizimini maxsus texnologiyalar asosida takomillashtirish. Dis.ped.fan.nom. Toshkent, 2020-154 b.
4. Maxmudova D.M. Talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonlarida muammoli masalalardan foydalanish. Dis.ped.fan.nom. Toshkent, 2018-130 b.
5. Maxmudova D.M. Matematikani o‘qitishda masala bilan muammoli vaziyat farqi// “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnal.-T.:2020.-5-son.-B.51-55.
6. Tojiyev M. Maktab ta’limining statistik tadqiqoti matematika o‘qitish didaktik modellari asosi sifatida. Dis.ped.fan.dok. Toshkent, 1997-317
7. Sharipov.E.O. Akademik litseylarda matematik analiz asoslarini o‘qitish metodikasi. Dis.ped.fan.nom. Toshkent,2019-144 b.

O‘QUVCHILARNING SAVODXONLIK KO‘NIKMALARINI PISA BAHOLASH DASTURI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

ПОВЫШЕНИЕ НАВЫКОВ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРОГРАММЫ ОЦЕНКИ PISA

IMPROVING STUDENTS' LITERACY SKILLS BASED ON THE PISA ASSESSMENT PROGRAM

Salimova Moxigul Rashidovna

Annotatsiya. Maqolada PISA xalqaro baholash dasturining zamonaviy ta’limdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu dastur orqali o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilib, xalqaro baholash tizimlari asosida o‘quvchilarning savodxonlik darajasini oshirish usullari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro baholash dasturlari yordamida savodxonlik ko‘nikmalarini takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarning samaradorligini oshirish masalalariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *Xalqaro baholash dasturi, savodxonlik ko‘nikmalari, tabiiy fan, PISA, ta’lim tizimi, tanqidiy fikrlash, xorijiy tajriba.*

Аннотация. В статье анализируется значение международной программы оценивания PISA в современном образовании. В рамках этой программы рассматриваются возможности развития творческих способностей учащихся, а также освещаются методы повышения уровня грамотности учащихся на основе международных систем оценки. Также с помощью международных программ оценки уделяется внимание повышению навыков грамотности и повышению эффективности инновационных подходов.

Ключевые слова: *Программа международной оценки, навыки грамотности, естественные науки, PISA, система образования, критическое мышление, зарубежный опыт.*

Abstract. The article analyzes the importance of PISA international assessment program in modern education. Through this program, opportunities to develop students' creative abilities are considered, and methods of improving students' literacy level based on international assessment systems are highlighted. Also, with the help of international assessment programs, attention is paid to improving literacy skills and increasing the effectiveness of innovative approaches.

Keywords: *Program for International Assessment, literacy skills, natural science, PISA, education system, critical thinking, foreign experience.*

Kirish. Zamonaviy yondashuvlar va metodologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchi yoshlarni tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, olgan bilim va ko‘nikmalarni hayotda amaliy qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish xalqaro ta’lim standartlariga mos keladigan ta’lim tizimining asosiy maqsadidir. Ushbu maqsadlarga erishish uzluksiz ta’lim sifatini isloh qilish, ta’lim

metodikalarining samaradorligini oshirish va yangi innovatsion loyihalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi

O'quvchilarning tabiiy fanlar, shuningdek, boshqa o'quv fanlari bo'yicha savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirmaslik, ularning tez o'zgarayotgan global ta'lim jarayonlaridan ortda qolishga, innovatsion va integratsion yangiliklardan bexabar bo'lishiga hamda bilim salohiyatining yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g'oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog'liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. Tabiiy fanlar bo'yicha savodxon bo'lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi.[3; 35-b.]

Savodxonlik ko'nikmalarini xalqaro baholash dasturlari orqali rivojlantirish bugungi kunda kreativ yoshlarni yetishtirishning asosiy shartlaridan biridir.

Yuqorida bayon etilgan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va muhim chora-tadbirlari aniq belgilangan.⁶

O'zbekiston jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishni maqsad qilar ekan, bunda zamonaviy ta'lim va o'quvchilarning roli muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda, savodxonlik ko'nikmasi o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim omili hisoblanadi.

Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlari, ayniqsa PISAning O'zbekiston ta'lim tizimidagi ahamiyati, natijalar tahlili va ularni takomillashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Avvallari, o'quvchining o'qish savodxonligini baholashning asosiy usuli sodda matnlarni o'qib, tushunish, talqin qilish va ular ustida mulohaza yuritishdan iborat edi. Mazkur ko'nikmalarni saqlab qolgan holda, informatsion texnologiyalarni insonlar ijtimoiy va kundalik hayotiga yanada integrallashuviga ko'proq e'tibor qaratilishi insonning o'qish savodxonligi doimiy ravishda yangilanib, kengayib borishini taqozo etadi.[6; 5-b.] So'nggi yillarda zamonaviy ta'lim metodologiyasi sohasida o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalarini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng qo'llanilmoqda.

Tadqiqot usuli:

Tadqiqot metodologiyasini shakllantirishda xalqaro baholash dasturlarining o'quvchilar savodxonligiga ta'sirini tahlil qilish asosiy yo'nalish sifatida tanlandi. Mazkur tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi:

Adabiyotlar tahlili:

Savodxonlik ko'nikmalarini xalqaro baholash dasturlari orqali rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, PISA dasturi bo'yicha turli tadqiqotlar olib borilgan va ularning natijalari mamlakat ta'lim tizimi uchun muhim xulosalar berishga yordam beradi.

PISA dasturi o'quvchilarning bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini baholaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori natijalarga erishgan davlatlar ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash, ilmiy dalillarga asoslangan tahlil qilish va fanlararo yondashuv keng tatbiq etilgan. Xususan,

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son Farmoni.

A. Ismailov va X. Ahmedov tomonidan yozilgan “PISA 2018 o‘qish savodxonligi qamrov doirasi” metodik qo‘llanmasida PISA testlari o‘quvchilarning matnini tushunish va analiz qilish ko‘nikmalarini baholashga yo‘naltirilgani ta’kidlangan [6, 5-b.].

O‘zbekiston ta’lim tizimida PISA natijalarini yaxshilash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda o‘qitish metodikasining xalqaro mezonlarga moslashishi zarurligi qayd etilgan. M. Ergasheva va Q.A. Niyozov tomonidan tayyorlangan “O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlari va topshiriqlaridan foydalanish metodikasi” qo‘llanmasida PISA mezonlariga mos keladigan topshiriqlarni dars jarayoniga kiritish orqali o‘quvchilarning savodxonlik darajasini oshirish mumkinligi asoslangan [5, 160-b.].

Meliqo‘ziyev (2023) tadqiqotlarida PISA testlarini amaliy laboratoriya mashg‘ulotlari bilan boyitish zarurligini ko‘rsatib, tabiiy fanlar bo‘yicha savdxonlikni oshirish uchun ilmiy asoslangan metodlarni tavsiya qiladi[9, 35-44-b.]

2022-yilda O‘zbekiston ilk bor PISA baholash dasturida qatnashdi va natijalar xalqaro talablar bilan solishtirganda past darajada ekanligini ko‘rsatdi. KUN.UZ saytida e’lon qilingan maqolaga ko‘ra, O‘zbekiston 81 ta mamlakat ichida matematika bo‘yicha 72-o‘rinni, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi bo‘yicha esa 80-o‘rinni egalladi [11]. Bu natijalar ta’lim metodikasini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston PISA dasturida ilk bor ishtirok etganini hisobga olsak, natijalarning tahlili xalqaro ta’lim tajribasi bilan solishtirish orqali o‘quvchilarning savodxonlik darajasini oshirish yo‘nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston va boshqa davlatlarning PISA natijalari taqqoslangan bo‘lib, bu tahlil mamlakatimiz ta’lim tizimining joriy holatini baholash va kelajakdagi islohotlar yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Solishtirma tahlil:

Jadval 1. PISA 2022 natijalari bo‘yicha yetakchi va eng past natija qayd etgan mamlakatlar

Mamlakatlar	PISA 2022 natijasi (ball)	O‘zgarish (2018 bilan solishtirganda)	Mamlakatlar	PISA 2022 natijasi (ball)	O‘zgarish (2018 bilan solishtirganda)
Matematika savodxonligi bo‘yicha PISA 2022					
Eng yuqori natijali davlatlar			Eng past natijali davlatlar		
Singapur	575	+6	Gvatemala	344	+10
Makao (Xitoy)	552	-6	Salvador	343	ilk ishtirok
Xitoy Taypei	547	+16	Dominikan respublikasi	339	+14
Honkong	540	-11	Paragvay	338	+11
Yaponiya	536	+9	Kambodja	336	+12
O‘qish savodxonligi bo‘yicha PISA 2022					
Eng yuqori natijali davlatlar			Eng past natijali davlatlar		
Singapur	543	-7	Kosova	342	-11
Irlandiya	516	-2	Iordaniya	342	Ilk ishtirok
Yaponiya	516	+12	Marokash	339	-20
Koreya	515	+1	O‘zbekiston	336	Ilk ishtirok
Xitoy Taypei	515	+13	Kambodja	329	+8
Tabiiy fanlar savodxonligi bo‘yicha PISA 2022					

Eng yuqori natijali davlatlar			Eng past natijali davlatlar		
Singapur	561	+10	Dominikan Respublikasi	360	+25
Yaponiya	547	+17	Kosova	357	-8
Makao (Xitoy)	543	0	Filippin	356	-1
Xitoy Taypei	537	+22	O‘zbekiston	355	Ilk ishtirok
Koreya	528	+9	Kambodja	347	+17

Manba: O‘zbekistonlik o‘quvchilar ilk marta ishtirok etgan PISA natijalari e‘lon qilindi // Kun.uz. – 2023 yil 7-dekabr.

URL: <https://kun.uz/uz/news/2023/12/07/pisa-natijalari-elon-qilindi-ozbekistonlik-oquvchilar-oxirgi-10-talikdan-joy-oldi>

Ushbu natijalar O‘zbekiston uchun xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni kuchaytirish va zamonaviy o‘qitish metodlarini keng joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

PISA natijalari past bo‘lishining bir necha asosiy sabablari quyidagilar:

- ilk marta qatnashish tajribasining yetishmovchiligi;
- o‘quv dasturlarining PISA talablariga to‘liq mos kelmasligi;
- o‘qituvchilarning xalqaro baholash tizimlari haqida yetarlicha xabardor emasligi;
- o‘quvchilarda psixologik qo‘rquv mavjudligi va boshqa omillar.

Ismailov va Ahmedov (2021) o‘z tadqiqotlarida PISA testlarining o‘quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatgan. Xususan, ular PISA testlarining murakkabligi tufayli o‘quvchilarning matn chuqur tahlil qilishga va mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatilishini ta’kidlaydi. Su sababli, O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun PISA mezonlariga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatiga ega.

O‘zbekiston yuqori natijali davlatlar tajribasidan foydalanib, Milliy o‘quv dasturlarini takomillashtirishni yo‘lga qo‘ydi.

Amaldagi davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarini rivojlangan xorijiy davlatlarning o‘quv-me’yoriy resurslari bilan qiyoslash orqali o‘rganib chiqilmoqda, ilg‘or tajribalardan kelib chiqqan holda Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqishda Singapur, Koreya Respublikasi, AQSh, Gongkong va Yaponiya kabi davlatlar tajribalaridan tashqari umume’tirof etilgan xalqaro baholash dasturlari talablari va metodologiyasi inobatga olinmoqda.[3; 14-b.]

Xorijiy tajribalar Finlyandiya ko‘pincha ta’lim, shu jumladan STEAM ta’limi bo‘yicha jahon yetakchisi sifatida tilga olinadi. Finlyandiya ta’lim tizimi STEAM ta’limining muhim tarkibiy qismlari bo‘lgan ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga urg‘u beradi.[10] O‘zbekiston Finlandiyadan ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini mukammal o‘zlashtirishi lozim.

PISA xalqaro reytingida so‘nggi test natijalariga ko‘ra, eston o‘quvchilari ifodali o‘qish bo‘yicha dunyoda beshinchi, matematika fanidan sakkizinchi va kimyo bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinni egalladi.[12] O‘quvchilarga birinchi sinfdanoq kompyuter darslari o‘tiladi. Bu ularga aniq fanlarni va xorijiy tillarni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. PISA xalqaro reyting testlarida estoniyalik o‘quvchilarning yuqori o‘rinlarni egallashiga ma’lum ma’noda shu ham sabab bo‘ladi.[12] Ushbu jihatni ta’lim tizimimizda qo‘llashimiz PISA dasturlarida yuqori natija olishimizga ma’lum darajada yaqinlashtiradi. O‘zbekistonda ham xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgan edi. Jumladan, Avloniy nomidagi Milliy tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan Stesting test tizimi bunga misol bo‘ladi.

Platforma o‘z ichiga PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda qo‘llanadigan savollarning o‘zbek va rus tillaridagi tarjimalarini olgan. Bunda faqat testlar yoki savollar emas, qiziqarli videolar ham joylashtirilgan bo‘lib, dastur o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar uchun ham mo‘ljallangan.[13]

Ushbu platformada 1449 ta test-topshiriqlari, 103 ta mediakurslar, 40 ta kimyo va biologiya fanlaridan malaka oshirish media kurslari o‘rin olgan.[4; 5-b.] Topshiriqlar xalqaro baholash dasturlarida keltirilgan savollarga juda o‘xshash bo‘lganligi bois, maktablarda PISA dasturlariga tayyorgarlik ko‘rishning samarali vositalaridan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Jadval 2 Stesting tizimida foydalanilgan va PISAga tayyorgarlikda qo‘llanilgan ba’zi test misollar

Savodxonlik turi	Savol
Matematika savodxonligi	Bir do‘konda sharbat quyish uchun ishlatiladigan idishlarning hajmi quyidagicha: 1,5 litr, 2 litr va 2,5 litr. Xaridor jami 10 litr sharbat olishni xohlaydi. U eng kam necha idish sotib olishi kerak?
O‘qish savodxonligi	Quyidagi matnni o‘qing va muallifning asosiy fikrini aniqlang: O‘rmonlarning kamayishi sayyoramizdagi biologik xilma-xillikka tahdid solmoqda. Ko‘plab hayvon va o‘simlik turlari yashash joyidan mahrum bo‘lmoqda. Shu sababli, daraxtlarni asrash nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslarni saqlab qolishning ham muhim shartidir. Muallif ushbu parcha orqali nimani ta’kidlamoqchi?
Tabiiy fanlar savodxonligi	Quyida tajribaning natijasi keltirilgan: Bir shisha suv quyosh nuri ostida qoldirildi va ma’lum vaqt o‘tgach, suv miqdori kamaydi. Bu hodisani qanday ilmiy tushuntirish mumkin?

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va test topshiriqlarini tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Stesting tizimi orqali ishlab chiqilgan testlar PISA mezonlariga mos bo‘lib, o‘quvchilarning xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarligini kuchaytiruvchi samarali usul hisoblangan.

PISA natijalari O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun muhim diagnostik vosita bo‘lib, xalqaro talablar asosida ta’lim sifatini oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda

Savodxonlikni yanada takomillashtirishga doir tavsiyalar:

- **O‘qituvchilarni xalqaro baholash dasturlariga jalb qilish.** Buning uchun Telegram guruh yaratish va unda PISA/PIRLS savollari, metodik qo‘llanmalar, interaktiv testlar bilan o‘qituvchilar ishtirokini oshirish taklif etiladi. O‘qituvchilar o‘z tajribalarini rasm va videolar orqali bo‘lishib, faol ishtirokchilar rag‘batlantiriladi.

- **O‘quvchilarda improvizatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirish kerak.** Bu ularga duch kelmagan muammolarni hal qilish va tezkor fikrlashga yordam beradi. Buning uchun “Muqobil yechim” o‘yini, rol o‘ynash (Role-play) va boshqa interaktiv usullardan foydalanish lozim;

- **O‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish kerak.** Bu ularga qaror qabul qilishda aniqroq va qat’iy bo‘lishga yordam beradi. Natijada, ular xatolaridan qo‘rqmaydi va o‘z bilimlarini ishonch bilan qo‘llay oladi. Buning uchun rag‘batlantirish, mustaqil topshiriqlar berish va jamoaviy ishlarni tashkil qilish samarali usul hisoblanadi;

- **O‘quvchilarda sog‘lom raqobatni shakllantirish kerak.** Bu ularning o‘z ustida izlanish va ishlash ko‘nikmalarini oshiradi. Buning uchun tanlovlar, guruhli loyihalar va baholashning motivatsion tizimidan foydalanish samara beradi;

- **Chekka hududlardagi qobiliyatli o‘quvchilarni aniqlash va rivojlantirish zarur.** Buning uchun maktablararo PISA musobaqalarini tashkil etish orqali savodxon o‘quvchilarni tanlab olish mumkin. Bu esa iqtidorli yoshlarni erta bosqichda qo‘llab-quvvatlash va ularga kengroq imkoniyatlar yaratish imkonini beradi;

- **O‘quvchilarni qiziqishidan kelib chiqib, ularni fanga yo‘naltirish zarur.** Bunga erishish uchun maxsus so‘rovnomalar, kasbiy yo‘naltirish dasturlari va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish lozim. Bu yondashuv o‘quvchilarning qobiliyatlarini to‘g‘ri rivojlantirishga va kelajakdagi muvaffaqiyatini ta‘minlashga yordam beradi.

- **PISAgA tayyorgarlik jarayonida Stesting kabi maxsus test platformalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.** Bunday platformalar orqali o‘quvchilar PISA mezonlariga mos test topshiriqlari ustida muntazam shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

- **Stesting platformasiga o‘xshash bir nechta platformalarni ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish lozim.** Bu o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va test strategiyalarini rivojlantirishiga xizmat qiladi;

- **Nafaqat maktabda, balki uyda ham ota-ona tomonidan bilimni mustahkamlashni ta‘minlash zarur.** Bunga erishish uchun uyga vazifa sifatida PISA mezonlariga mos test savollarini berish mumkin. Ota-onalar ushbu jarayonda ishtirok etib, bolalarning topshiriqlarni bajarishini nazorat qilishi va ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi lozim.

Yuqoridagi takliflar o‘quvchilarning PISAgA tayyorgarligini kuchaytirish va ularning savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish natijasida xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishiladi.

Xulosa. Tadqiqot davomida xalqaro baholash dasturlarining o‘quvchilarning savodxonlik darajasiga ta‘siri tahlil qilindi. PISA natijalari O‘zbekiston ta‘lim tizimining rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashda rol o‘ynaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston ushbu baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishish uchun xalqaro tajribani o‘rganishi, o‘quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida moslashtirishi hamda o‘qituvchilar malakasini oshirishi zarur. Yetakchi davlatlarning ta‘lim tajribasi shuni tasdiqlaydiki, savodxonlikni oshirish uchun tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

Kelgusida O‘zbekiston ta‘lim tizimida xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikni takomillashtirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini amaliyotga yo‘naltirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-sonli Farmoni.

2. M. Pardayeva, M.Ergasheva. Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish: Biologiya fani o‘qituvchi va metodistlari uchun metodik qo‘llanma.- Toshkent, 2022 - 96 b.

3. Sh. Abdullayeva, M.T. Ergasheva. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent, 2023-168 b.

4. M. Ergasheva, Q.A.Niyozov. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlari va topshiriqlaridan foydalanish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent, 2023 – 160 b.
5. S.A.O‘sarov, N.A.Ismatov, M.B.Boyzoqov, N.F.Isayev. Matematikani o‘qitishning dolzarb muammolari va yechimlari respublika ilmiy onlayn anjumani materiallari to‘plami. To‘plam. – Jizzax, 2021 - 456 b
6. A. Ismailov, X. Ahmedov, Q. Karimberdiev. PISA 2018 o‘qish savodxonligi qamrov doirasi. Metodik qo‘llanma.-Toshkent, 2021 – 88 b.
7. A.A. Ismailov G.Tog‘ayeva S.Akbarova D.Asqarova. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash. Metodik qo‘llanma. - Toshkent, 2019 – 112 b.
8. A.A.Ismailov N.A.Karimov B.Q.Haydarov SH.N.Ismailov. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2019 – 112 b.
9. D.J. Meliqo‘ziyev. PISA xalqaro baholash dasturi asosida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishning konseptual asoslari. Maqola.-2023, 35-44-bb.
10. Kuchkinov A.Y. Xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni STEAM ta’limiga tayyorlashning konseptual yo‘nalishlari // “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2024-yil 20-fevral. – B. 93. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10676438>.
11. KUN.UZ. O‘zbekistonlik o‘quvchilar ilk marta ishtirok etgan PISA natijalari e’lon qilindi [Elektron resurs]. – (2023-yil 7-dekabr). – URL: <https://kun.uz/uz/news/2023/12/07/pisa-natijalari-elon-qilindi-ozbekistonlik-oquvchilar-oxirgi-10-talikdan-joy-oldi>, murojaat qilingan sana 2025-yil 4-mart.
12. KUN.UZ. 15 ming yevro maosh va juda ko‘p kompyuter – Estoniya maktablarini qanday rivojlantirgan? [Elektron resurs]. – (2020-yil 11-oktabr). – URL: <https://kun.uz/news/2020/10/11/15-ming-yevro-maosh-va-juda-kop-kompyuter-estoniya-maktablarini-qanday-rivojlantirgan>, murojaat qilingan sana 2025-yil 4-mart.
13. KUN.UZ. STesting – maktabdagi bilimni hayotiy misollar bilan o‘rgatuvchi ta’lim platformasi [Elektron resurs]. – (2021-yil 3-noyabr). – URL: <https://kun.uz/news/2021/11/03/stesting-maktabdagi-bilimni-hayotiy-misollar-bilan-orgatuvchi-talim-platformasi>, murojaat qilingan sana 2025-yil 4-mart.

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARIDA STATISTIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNIG ILMİY METODIK ASOSLARI**НАУЧНЫЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СТАТИСТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ****THE SCIENTIFIC METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STATISTICAL THINKING IN FUTURE COMPUTER SCIENCE TEACHERS**

Saparbayeva Dilbar Adilovna

*Saparbayeva D.A.,
Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo‘jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti
Saparbaevadilbar12@gmail.com*

Annatatsiya: Maqolada statistik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari, ma’lumotlarni tahlil qilish usullari yoritib berilgan. Statistik tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar keltirilgan

Kalit so‘zlar: *Statistik tafakkur, ma’lumotlar tahlili, so‘rovnomalalar va intervyular, kuzatish, eksperimentlar, deskriptiv statistika, korrelatsiya va regressiya tahlili.*

Аннотация. "В статье освещены теоретические основы развития статистического мышления и методы анализа данных. Приведены методические рекомендации по развитию статистического мышления."

Ключевые слова: *статистическое мышление, анализ данных, анкетирование и интервью, наблюдение, эксперименты, описательная статистика, корреляционный и регрессионный анализ.*

Abstract. The article discusses the theoretical foundations of developing statistical thinking and methods for data analysis. Methodological recommendations for enhancing statistical thinking are provided.

Keywords: *Statistical thinking, data analysis, questionnaires and interviews, observation, experiments, descriptive statistics, correlation and regression analysis.*

Kirish. Bugungi kunda informatika sohasidagi o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va ularning pedagogik kompetentligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, statistik tafakkur va uning rivojlanishi informatika o‘qituvchilari uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Statistik tafakkur - bu ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni tushunish va interpretatsiya qilish qobiliyati. Informatika o‘qituvchilari uchun bu qobiliyat juda muhim, chunki ular o‘quvchilarga ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish va ulardan foydalanishni o‘rgatishlari kerak. Statistik tafakkurni rivojlantirish uchun quyidagi nazariy asoslar muhim ahamiyatga ega:[2]

- Ma’lumotlar tahlili: Jarayonida ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va interpretatsiya qilish usullari va metodlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

So‘rovnomalalar va intervyular: Ma’lumotlarni to‘plashning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, respondentlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot olish imkonini beradi.

- Kuzatish: Obyekt yoki jarayonni bevosita kuzatish orqali ma’lumot yig‘ish.

- Eksperimentlar: Ma’lumotlarni nazorat ostida o‘tkazilgan tajribalar orqali yig‘ish.

Ikkinchi darajali ma’lumotlar: Oldindan mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bazalari, hisobotlar yoki tadqiqotlardan foydalanish.[1]

Metodologiya. “Statistik fikrlash” tushunchasiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz va unga ta’rif beramiz soha mutaxassisining kasbiy tafakkurini shakllantirishdagi roli inson resurslarini boshqarish. Zamonaviy nuqtai nazardan, tafakkur deganda shaxsning maqsadli harakat qilish qobiliyati tushuniladi borliqning o‘zgarishi. S.L.ning so‘zlariga ko‘ra. Rubinshteynning fikrlashi eng yuqori shakldir maqsadlidan iborat ob’ektiv voqelikning aks ettirilishi muhim bog‘lanishlar mavzusi bo‘yicha vositachilik va umumlashtirilgan bilimlar va ob’ektlar va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlar, yangi g‘oyalarni ijodiy yaratishda, in yangi voqealar va harakatlarni bashorat qilish. U paydo bo‘ladi va amalga oshiriladi amaliy va nazariy muammolarni qo‘yish va yechish jarayonida”. Fikrlash tushunchalar, g‘oyalar, nazariyalar ko‘rinishida bilim olish usuli sifatida ishlaydi; hukmlar. Olingan bilimlar ongning bir jihatini tashkil qiladi. Bundan tashqari, fikrlash aniq amaliy va nazariy muammolarni hal qilish usuli sifatida ishlaydi. Bu erda oldingi bosqichda fikrlash jarayoni orqali olingan bilimlar intellektual faoliyatda ishtirok etadilar: ular o‘ziga xos bilan taqqoslanadi vaziyat, ulardan kerakli bilimlar filtrlanadi va maqsadli harakat qilinadi aniq maqsad: shartlar munosabatlarini sintetik akt orqali tahlil qilish filtrlangan bilimlardan shakllangan talablar bilan muayyan vaziyat va shaxsning qadriyat munosabatlari (ong yo‘nalishi) va shu asosda faoliyat, harakat yoki munosabatlar uchun asos bo‘lgan xulosa shakllanadi. L.Yu. Chuykova o‘z tadqiqotlarida fikrlashning asosiy e’tiborini ta’kidlaydi Tegishli munosabatni yaratish orqali:[7]

1. Zaruriy bilimlar zaxirasi;
2. Ular asosida muayyan qadriyatlar tizimini shakllantirish.
3. Muayyan aqliy faoliyat ko‘nikmalarini o‘rgatish.

“Professional fikrlash” atamasi bizning davrimizning ikkinchi yarmida qo‘llanila boshlandi tomonidan ijtimoiy mehnatning sezilarli intellektuallashuvi munosabati bilan asr ilmiy va texnologik inqilob. “Kasbiy fikrlash” tushunchasi hisobga olinadi ikki ma’noda. Birinchidan, mutaxassisning yuqori kasbiy malaka darajasi ta’kidlanganda, fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gap ketganda, uning “sifat” jihatini ifodalaydi. Ikkinchidan, ular ta’kidlaganlarida kasbiy faoliyatning tabiati bilan belgilanadigan fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlari; Bu yerda biz mavzu jihatini nazarda tutamiz. A.A. Batalov, kasbiy fikrlash bo‘yicha tadqiqotida, «fikrlash shakllari», «tasvir» atamalarining kelib chiqishi va mohiyatini hisobga olgan holda fikrlash», “fikrlash uslubi”, “tafakkur turi”, ularning maqsadga muvofiqligi haqida xulosa chiqaradi umumiy ma’noda «shakl» toifasi bo‘yicha birlashtirish, bu tomonidan belgilanganlarni taqdim etish hodisalar atamasi shakllarning o‘zgarishi sifatida va “ijtimoiy tip” atamasini kiritadi. fikrlash. Adabiyotda fikrlashning «texnik» kabi turlarining nomlarini topish mumkin. “iqtisodiy”, “ekologik”, “muhandislik”, «matematik» va boshqalar. Har biri ularning o‘ziga xos xususiyatlari va shakllanish tamoyillari mavjud. Ular ishlab chiqariladi ijtimoiy ehtiyojlar, ya’ni. ular har doim ham mavjud bo‘lmagan, lekin paydo bo‘lgan jamiyatning evolyutsion rivojlanish jarayoni. A.A.Batalovning so‘zlariga ko‘ra: Ta’lim turi “Tafakkur ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishini aks ettiradi”. Informatik mutaxassisining kasbiy fikrlash asoslari axborot resurslarini loyihalash va qabul qilish jarayoni uchun javobgardir noaniqlik va tasodifiylik shartlari. Shu munosabat bilan birinchi o‘rinda turadi bo‘lajak informatiklarining professional tafakkurini shakllantirish U statistik fikrlash kabi komponent bilan band. Aynan shuning shakllanishiga ehtimollik-statistik usullarni o‘rganish yordam beradi kelajak informatiklari statistik fikrlash imkonini beradi noaniq vaziyatlarda qat’iy mantiqiy fikrlash usullarini qo‘llash; tushunchalarning konkretligi va terminologiyaning aniqligi. Har bir talabning jihozlari nazariyani o‘rganishda ilmiy bilish asoslari va ilmiy dunyoqarash asoslari ehtimollik va matematik statistika bunday tizimni yaratishni taklif qiladi o‘quvchilarning qobiliyatida namoyon bo‘ladigan statistik fikrlashni tarbiyalash ommaviy tasodifiy hodisalarni to‘g‘ri idrok etish, qayta ishlash va baholash; iqtisodiy sohada sodir bo‘ladi.[8]

Talabalarning statistik tafakkurini rivojlantirish muammosi aniq bo'ldi so'nggi o'n yilliklardagi pedagogika fanining konturlari. Buning sababi bizni o'rab turgan tasodifiy hodisalarning ommaviy xarakteri, ularning progressiv o'sishi. Ommaviy xarakterdagi naqshlar eng ko'p ekanligini ta'kidlash mubolag'a bo'ladi. Hayotning asosiy qonunlari. "Zamonaviy tabiatshunoslik", deb yozadi B.V. Gnedenko - barcha tabiat hodisalari degan fikrdan kelib chiqadi statistik xarakter va uning qonuniyatlarini to'liq va aniq olish mumkin axborot va formula faqat nazariya nuqtai nazaridan ommaviy hodisalar haqida." Massani tushunish usuli statistik deyiladi. uchun ishlatiladi ijtimoiy va iqtisodiy hodisalarni o'rganish, u astronomiyada qo'llaniladi; fizika, biologiya, iqtisodiyot, psixologiya va boshqalar. Ular eng ko'p kashf qiladilar turli hodisalar - hodisalardan,. atomlarda sodir bo'ladigan, hodisalarga "Inson jamiyatlari va koinotning yulduz tizimlari", deb yozadi V.I. Romanovskiy va yana: "Bunday rivojlanish bilan bir qatorda statistik usul ham ma'lum bo'lgan fransuz matematigi Borel kelajakda yagona usul ekanligini da'vo qilish uchun tadqiqot statistik bo'ladi, va noyob rivojlantirish insondan tashqarida va odamda sodir bo'ladigan hodisalarning statistik tushunchasi jamiyatlar». Statistik usul - bu miqdorni o'rganadigan fan usuli ommaviy hodisalarni idrok etish, ular haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni olish usullari ma'lumotlar va ular haqida induktiv xulosalar. Statistik usullar eng kuchli qurollardan biridir ommaviy hodisalarni eng ehtimoliy deb o'rganadigan ijtimoiy bilish individual tasodifiy qiymatlardan aniqlangan miqdorlar to'plamining qiymatlari. uchun ommaviy hodisalarda muvaffaqiyatli orientatsiya chastotani idrok etishga murojaat qiladi bu hodisalar. Chastotani idrok etishning ajoyib tajribasi bizga imkon beradi xulosalarni keyingi prognozlash, fikrlashni xatolardan himoya qilish. Xatolar ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar muqarrar. Ehtimoliy statistik usullarning odatiy vazifasi kuzatishlar natijalaridan, chastotalar bo'yicha tuzilgan, qaysi harakatlarni tanlash usulini keltirib chiqaring xato darajasi imkon qadar past bo'ladi. Huquqni qabul qilish hodisa haqidagi chastota ma'lumotlariga qarab qarorlar natija emas faqat ongli bilim, balki sezgi va, demak, xatti-harakatlarning natijasidir ko'pincha ongsiz. Shu munosabat bilan muammo quyidagicha qo'yiladi: har bir talaba Ehtimoliy statistik usullarni o'rganishda nafaqat o'zlashtirish kerak ma'lum miqdordagi statistik bilimlar. Fikrlashning o'zi kerak odam uchrashganda, bu bilimlardan osongina foydalanish hodisalarning chastotasi. Talabalar ma'lum ko'nikmalarni o'rganishlari va bu ma'lumotlardan induktiv xulosalar chiqarish qobiliyati. Bu ta'limni talab qiladi. statistik fikrlash, bu talabalarning nazariy va amaliy darajada ehtimoliy statistik vositalarni o'zlashtirishlarini o'z ichiga oladi; ehtimollikni aks ettirishning aqliy kognitiv jarayoni natijasida obyektiv dunyoning tasodifiy hodisalari va hodisalarining qonuniyatlari va munosabatlari.[9]

Ma'lumotlarni tahlil qilish usullari

- Deskriptiv statistika: Ma'lumotlarning asosiy xususiyatlarini tasvirlash uchun o'rtacha qiymat, mediana, moda, dispersiya kabi ko'rsatkichlardan foydalanish.

- Korrelatsiya va regressiya tahlili: O'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va bashorat qilish.

- Klasterlash va tasniflash: Ma'lumotlarni guruhlariga ajratish yoki tasniflash.

- Vizualizatsiya: Grafiklar, diagrammalar va boshqa vizual vositalar yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish va taqdim etish.

Ma'lumotlarni interpretatsiya qilish usullari

Tahlil natijalarini sharhlash: Olingan statistik natijalarni kontekstga mos ravishda izohlash.

Qiyosiy tahlil: Turli ma'lumotlar to'plamlarini bir-biri bilan solishtirish orqali xulosalar chiqarish.

Gipotezalarni tekshirish: Statistik gipotezalarni tasdiqlash yoki rad etish orqali ilmiy xulosalar chiqarish.

Ushbu usullar informatika o'qituvchilari uchun muhim bo'lib, ular o'quvchilarga ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va ulardan foydalanishni o'rgatishda yordam beradi. Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishning to'g'ri usullarini qo'llash statistik tafakkurni rivojlantirishning asosiy qismidir.

Statistik metodlar: Statistik metodlar va ularning qo'llanishi haqida bilimlar beriladi.

Statistik tafakkurning psixologik asoslari: Statistik tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq psixologik omillar o'rganiladi.

Metodik tavsiyalar

Bo'lajak informatika o'qituvchilarida statistik tafakkurni rivojlantirish uchun quyidagi metodik tavsiyalar beriladi:

Ma'lumotlar tahlili darslari o'tkazilishi va ularda turli xil ma'lumotlar tahlil qilinish kerak. Statistik metodlarni o'rganish: Statistik metodlar va ularning qo'llanishi haqida amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi kerak.

Statistik tafakkurning psixologik asoslarini o'rganish: Statistik tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq psixologik omillar haqida ma'lumotlar berilishi kerak.

Amaliy loyihalar: Bo'lajak informatika o'qituvchilari uchun amaliy loyihalar tayyorlash va ularni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Statistik tafakkur informatika o'qituvchilari uchun juda muhim bo'lib, ular o'quvchilarga ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va ulardan foydalanishni o'rgatishlari kerak. Ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalar bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Statistik fikrlashni rivojlantirish usullari

. Amaliy mashg'ulotlar orqali o'qitish

- Python, R yoki MATLAB kabi dasturlash tillarida ma'lumotlar tahlili bo'yicha rejalar
- Real dunyo muammolarini statistik usullar bilan yechishga yo'qo'yilgan topshiriqlar b
- Data Science va Big Data asoslarini informatika darslariga integratsiyalash orqali

Vizualizatsiya va grafik tahlilni o'rgatish

• Ma'lumotlarni boshqarishni osonlashtirish uchun diagrammalar, grafiklar va vizualizatsiya usullaridan foyda

- Google Data Studio Tableau yoki Excel kabi fayllardan qidirishni o'tkazish

Statistik gipotezalarni kattani o'rgatish

- O'quvchilarga oddiy statistik testlarni o'tkazish va sharhni sharhlash bo'yicha ko'nikmal
- Shaxsiy

Qiyosiy tahlil ko'rinishini kuzatish

• Turli xil ma'lumotlarni qayta ishlash va o'ziga xos bog'liqliklarni aniqlashga oid ishlab chiqarish.

- Ma'lumotlarning o'zgaruvchanligini oshirish va ularga kuchli tuzatishlar chiqarish.

MUHOKAMA.

Statistik tafakkurni rivojlantirish uchun sifatli ta'lim muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida statistikaga oid qarashlar va amaliy ko'rinishni o'rganish zarur. Masalan, pedagogik jarayon innovatsiyalarni tadbiq etish jarayonida ta'lim sifatini nazorat qilish muhim rol o'ynaydi. Ta'lim sifatini oshirish uchun qo'llanilgan metodlar, foydalaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qanchalik darajada faydali yoki foydasiz ekanligini aniqlash statistikasini ishlab chiqish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karmanov M.V. Statistical Thinking: Problems of Definition and Formation. Statistics and Economics. 2024;21(6):4-7. (In Russ.) <https://doi.org/10.21686/2500-3925-2024-6-4-7>.
2. Карманов М В. Статистическое мышление: проблемы определения и формирования. Статистика и Экономика. 2024; 21 (6) : 4-7.<https://doi.org/10.21686/2500-3925-2024-6-4-7>
3. Begg A. va Edvards R. (1999, dekabr). O'qituvchilarning o'qitish haqidagi fikrlar statistika [Qog'oz taqdimoti] . ning birlashgan konferentsiyasi
Avstraliya ta'lim sohasidagi tadqiqotlar assotsiatsiyasi va Yangi Zelandiya ta'lim bo'yicha tadqiqotlar assotsiatsiyasi, Melburn, Avstraliya.
4. Ben-Zvi D. Makar K. (2016). Xalqaro istiqbollar ta'lim haqidava o'rganish statistik ma'lumotlardan. In D. Ben-Zvi, & K. Makar (Tahrirlar), Statistika o'qitish va o'rganish (1-10-betlar). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-319-23470-0_1
5. Burgess T.A. (2006, iyul). A ramka uchun tekshirish o'qituvchi bilim kabi ishlatilgan ichida harakat esa ta'lim berish statistika [Qog'oz taqdimot]. O'qitish statistikasi bo'yicha 7-xalqaro konferentsiya (ICOTS-7), Salvador, Braziliya.
6. Burgess T.A. (2008, iyul). O'qituvchi bilim o'rgatish uchun orqali statistika tekshiruvlar [Qog'oz taqdimot] .ICMIO'qish18

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

FORMING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCIES BASED ON A CREATIVE APPROACH

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА

Sattarov Baxtiyor Kotibjanovich

Annotatsiya. Kreativ natijalarga erishish kreativ fikrlay olish qobiliyatini taqozo etadi, shu bilan birga u iqtidor, bilim sohasi yoki badiiy qobiliyat kabi bundan ham kengroq va ixtisoslashgan xususiyatlar va ko'nikmalarni ham talab etadi.

Kalit so'zlar: kreativ, kreativ fikrlash, kreativ yondashuv, kreativ faoliyat, o'quvchi-yoshlar, konsorsium, vaqt, tanqidiy fikrlash, tanqidiy tahlil.

Sattarov B.K.,
pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent, o'quv ishlar
bo'yicha prorektor
University of Business and
Science
sattarobaxtiyor@gmail.com

Abstract. Achieving creative results can require the creative thinking ability, however, it also demands broader and more special knowledge and skills, such as talent, knowledge, or literary ability.

Key words: creative, creative thinking, creative approach, creative activity, student-youth, consortium, time, critical thinking, critical analysis.

Аннотация. Достижение креативных результатов требует не только способности креативно мыслить, но и широких специализированных качеств и навыков, таких как талант, знания предметной области или художественные способности.

Ключевые слова: креатив, креативное мышление, креативный подход, креативная деятельность, учащаяся молодежь, консорциум, время, критическое мышление, критический анализ.

Kirish

Kreativlik – ijodiylik (lot. creation – yaratuvchanlik, ijodkorlik) - qandaydir yangi betakror narsa yarata olish layoqati, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon; shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorgarligini tavsiflovchi ijodiy qobiliyati. Shaxs xatti-harakati, faoliyatida kreativlik mavjudligini amaldagi an'anaviy holatlar, tajribalardan farqli o'laroq muammoni yangicha yondashuv asosida, nostandart tarzda yechish yuzasidan mustaqil qaror chiqara bilish iqtidori mavjudligi bilan belgilanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”. [1] O'sib kelayotgan o'quvchi-yoshlarimizda ham davlatimiz rahbari aytganlaridek, tanqidiy tahlilni yoshligidan o'rgatib boradigan bo'lsak, biz o'ylaymizki, ushbu o'quvchi-yoshlar kelajakda yurtimizning yetuk kadrlari bo'lib yetishadi degan umiddamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Kreativ fikrlash sohasi ustida qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bular qatoriga Amabail, Pratt, Barbot va Hyuzer, Begetto kabi tadqiqotchi olimlarning kreativ fikrlashning ahamiyati va uni rivojlantirishga yo'naltirilgan “Componential theory of creativity”, “Motivating creativity in

organizations: on doing what you love and loving what you do”, The dynamic componential model of creativity and innovation in organizations, “Creativity and Identity Formation in Adolescence: A Developmental Perspective”, “Creativity, intelligence, and personality: a critical review of the scattered literature” kabi va yana bir qancha kitoblari misol qilishimiz mumkin. Masalan, texnologik yangiliklar yoki san’at durdonalari bilan bog’langan “Katta kreativlik” ko’nikmasi kreativ fikrlash, muayyan iqtidor, yuqori darajadagi mutaxassislik, muayyan sohani chuqur egallaganlik hamda jamiyat e’tiborida bo’lish bilan uyg’unlashuvini talab etadi[2].

Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash masalalarini tadqiq etish bilan ko’plab zamonaviy olimlar, pedagoglar, psixologlar va metodistlar shug’ullanadi. Xususan, V.V.Davidov, M.G.Davletshin, I.Y.Lerner, A.M.Matyushkin, M.I.Mahmutov, S.Rajabov, D.Shodiyev, E.G.,oziyev, A.M.Umronxo’jayev ishlarida muammoli ta’lim tamoyillarida umumlashtirish turlari va ularning tuzilishi, o’quv jarayonini tashkil etish ochib beriladi, tanqidiy fikrlashning tuzilishlari, aqliy faoliyatning umumlashgan usullarini shakllantirish yo’llarini belgilovchi alohida komponentlarning o’ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi[3].

Tadqiqot metodologiyasi

Kreativlikda bilim sohasining alohidaligiga oid munozaralarga nisbatan qaysi va qancha kreativlik sohasi mavjud bo’lishi mumkin degan savol tug’iladi. Yillar mobaynida, turli kreativlik sohasida faoliyat yuritadigan nazariyachilar va tadqiqotchilar ijodkorlikning turli jabhalarini yoritishga harakat qilishgan bo’lib, ulardan eng e’tiborga moligi Kaufman (va boshqalar) tomonidan yoritilgan mavzudir. So’nggi izlanishlarida u kreativ faoliyatning beshta turli sohalarini ajratib ko’rsatadi, ular: kundalik, bilimga xoslik, ko’rgazmali, ilmiy va badiiy kabilardir[4].

Boshqalar kreativlikni turli bilim sohalarini guruhiga ajratishganligini aytishgan: Runko va Bahledalar kreativlikni “badiiy” va “ilmiy” sohalarga ajratgan[5]. Amabailning fikricha, kreativ topshiriqlar uchta katta bo’limlarga tasniflanadi: og’zaki, badiiy va muammoni yechish [6]. Shuningdek, Chen va boshqalar g’zaki, badiiy va matematika sohalarini aniqlagan[7]. Kreativlikni badiiy va og’zaki sohalarga ajratish g’oyasini Konti va boshqalar ham qo’llab-quvvatlab, har ikkila sohada ishtirokchilarning o’zlashtirishlarida hech qanday bog’liqlik mavjud emasligini aniqlagan.

Kreativlikning sohalarini aniqlashga yo’naltirilgan empirik tadqiqotlarning ko’p qirrali meta-analizi kreativlikning boshqa sohalaridan tubdan farq qiluvchi matematik va ilmiy sohalar ham mavjud ekanini isbotlaydi (Julmi va Sherm, 2016[8]). Ushbu meta-analiz Kaufman va Baer (2004[9]) tomonidan aniqlangan hissiy muloqotga va matematik ilmiy yo’naltirilgan amaliy kreativlikka mos keladigan o’zgarmas andozalar (namunalar) tadqiqotlar jarayonida namoyon bo’ladi.

Tahlil va natijalar

Ta’lim tizimida o’quvchi-yoshlarda tanqidiy fikrlashni o’stirishga xizmat qiladigan metodlar “Demokratik ta’lim uchun” konsorsiumi tomonidan amalga oshiriladigan “Tanqidiy fikrlash uchun o’qish va yozish” loyihasi doirasida ishlab chiqilgan bo’lib, tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar: Bularga: Fikrlash, Vaqt, Izn, Rang-baranglik, Faollik, Tavakkalchilik, Qadrlash, Qimmatlilik, O’zaro fikr almashuv kabi metodlar kiradi.

Fikrlash – o’qish, yozish, so’zlash va eshitishga o’xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o’zida biror haqiqat to’g’risidagi fikrlarni qamrab oladi. Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko’nikma emas. Tanqidiy fikrlash ta’limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstdan yiroqlashgan sharoitda o’rganilishi lozim bo’lgan hodisa ham emas. Braun (1989) ta’kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o’quv ko’nikmalari ta’lim oluvchilarga ob’yektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko’nikmalarni yangi

vaziyatlarda qo‘llay olmaydilar.[10] Rixer ta‘biri bo‘yicha o‘rganish va fikrlashning ta‘rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta‘limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.[11]

Tanqidiy fikrlash va o‘rganish g‘oya va tajribalarning turli – tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash “yakkayu yagona to‘g‘ri javob”ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo‘l ham yo‘q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o‘quv sharoitlari to‘plami mavjud. Uning uchun:

- tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish;
- o‘quvchi-yoshlarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli – tuman g‘oya va fikrlarni qabul qilish;
- o‘quvchi-yoshlarning o‘quv jarayonidagi faolligini ta‘minlash;
- o‘quvchi-yoshlarni kulgiga qolmaslikka ishonitirish kerak;
- har bir o‘quvchi-yoshlarning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o‘zlarida ishonch hissini uyg‘otish;

- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan o‘quvchi-yoshlar:

- o‘ziga ishonchni orttirish va o‘z fikri hamda g‘oyalarining qadrini tushunish;
- o‘quv jarayonida faol ishtirok etish;
- turlicha fikrlarni e‘tibor bilan tinglash;
- o‘z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Shuning uchun ham:

- fikrlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalash;
- o‘zaro tanqidiy fikrlar almashish;
- o‘z g‘oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- fikrlarni muayyan g‘oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o‘z g‘oyalarini to‘la va aniq ifodalay olish.

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo‘lishi uchun o‘quvchi-yoshlar ma‘qul va noma‘qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. O‘quvchi-yoshlar yo‘l qo‘yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar. Tanqidiy tahlilga izn olish ongliklik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo‘lgan do‘stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. O‘quvchi-yoshlarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g‘oyalar paydo bo‘ladi. Rang-barang fikr va g‘oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog‘dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda o‘quvchi-yoshlarning fikrlashiga chek qo‘yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo‘lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida o‘quvchi-yoshlarlar ana shu javobni topa olsin.

Faollik. Tanqidiy fikrlash o‘quvchi-yoshlarning faolligi bilan bevosita bog‘langan. Odatda, o‘quvchi-yoshlar sustkash tinglovchilar bo‘lishadi, chunki ularda o‘qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o‘qituvchi mas‘ul degan ishonch shakllanib qolgan. O‘quv jarayonidagi o‘quvchi-yoshlarning faol ishtiroki va o‘qishlariga o‘zlarining mas‘ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. O‘quvchi-yoshlarni fikr yuritishga, o‘z g‘oyalari va fikrlari bilan o‘zaro o‘rtoqlashishga da‘vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o‘stiradi.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo‘rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag‘batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida “ahmoqona g‘oyalar” aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi buni o‘quv jarayonining tabiiy holati sifatida o‘quvchi-yoshlarga tushuntirishi lozim.[6] O‘quvchi-yoshlarni tavakkaldan holi bo‘lgan, ya’ni g‘oyalar qadrlangan, o‘quvchi-yoshlarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkoni bo‘lgan muhitda o‘ylash lozimligiga ishonch hosil qilish zarur.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri o‘quvchi-yoshlarning fikrlash jarayonini qadrlashidir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida o‘quvchi-yoshlar o‘z g‘oyalari, tasavvurlarining o‘qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan holda chuqur mas’uliyat va e’tiborga yarasha javob qaytaradilar. O‘quvchi-yoshlar o‘z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘la boshlaydilar.

Qimmatlilik. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida o‘quvchi-yoshlar ularning fikrlari, o‘z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O‘qituvchi o‘quvchi-yoshlardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo‘lishi lozim. Bu esa o‘quvchi-yoshlarda o‘z g‘o‘yalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida o‘quvchi-yoshlarga o‘z fikri, o‘ziga taalluqli bo‘lgan g‘oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko‘rsata olish zarur. O‘quvchi-yoshlarning o‘zlari ham o‘z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o‘z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o‘ta muhim, shuningdek, katta hissa bo‘lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

O‘zaro fikr almashuv. Fikrlash jarayoni o‘quvchi-yoshlarning o‘zaro fikr olishuvini ko‘zda tutadi. O‘quvchi-yoshlarning o‘zaro fikr olishishi ularning bir – biridan o‘rganishdagi o‘rtoqchiligiga asos soladi. O‘quvchi-yoshlardan fikrlovchi sifatida o‘zlarida bo‘lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo‘lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi. O‘zaro fikr olishishda o‘quvchi-yoshlardan diqqat bilan tinglash, o‘zining qarashlar tizimini so‘zlovchiga zo‘rlab o‘tkazish va boshqa so‘zlovchilarni tuzatib turishdan o‘zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban o‘quvchi-yoshlar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o‘laroq o‘quvchi-yoshlar o‘zlariga tegishli bo‘lgan g‘oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o‘z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g‘oyalari tizimiga tirkab boradi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, Shaxsning ijodiy motivatsiyani qo‘llaganligi - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o‘z kamolotiga intilishdir. Kreativlik bu – xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyatidir. Demak bu tushunchani biz bemalol pedagogning individual qobiliyatiga kirita olamiz. Shu alohida ta’kidlash joizki, axborotlarni chorlash, o‘ylab ko‘rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

- o‘quvchi-yoshlarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;
- mashg‘ulotlarda faolligini ta’minlaydi;
- samarali munozaraga chorlaydi;
- o‘quvchi-yoshlarning o‘zlari savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi;
- o‘quvchi-yoshlarga o‘z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;
- o‘quvchi-yoshlarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi;
- har qanday fikrlarga bo‘lgan hurmat kayfiyatini yaratadi;
- o‘quvchi-yoshlarda personajlarga bo‘ladigan iztirobini o‘stirishga yordam beradi;
- o‘quvchi-yoshlarda qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan shtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017-yil 14-yanvar.
2. Pisa tadqiqotida kreativ fikrlash . Toshkent – 2020. B.6.
3. Ta’lim jarayonida o‘quvchi-yoshlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish omillari (maqola). NamDU ilmiy axborotnomasi-2022y.2-son
4. Kaufman, J. (2012), “Counting the muses: development of the Kaufman Domains of Creativity Scale (K-DOCS)”, *Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts*, Vol. 6/4, pp. 298-308.
5. Runco, M. and M. Bahleda (1986), “Implicit theories of artistic, scientific, and everyday creativity”, *The Journal of Creative Behavior*, Vol. 20/2, pp. 93-98.
6. Amabile, T. (1983), “The social psychology of creativity: A componential conceptualization”, *Journal of Personality and Social Psychology*, Vol. 45/2, pp. 357-376. Amabile, T. (1996), *Creativity In Context: Update To The Social Psychology Of Creativity*, Westview Press, Boulder, CO.
7. Chen, C. et al. (2006), “Boundless creativity: evidence for the domain generality of individual differences in creativity”, *The Journal of Creative Behavior*, Vol. 40/3, pp. 179-199,
8. Julmi, C. and E. Scherm (2016), “Measuring the domain-specificity of creativity”, No. 502, Fakultät für Wirtschaftswissenschaft der FernUniversität in Hagen,

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA SIFATLI TAYYORLASHDA "ILM YO'LI" VARIATIV DASTURINING AHAMIYATI**ЗНАЧЕНИЕ ВАРИАТИВНОЙ ПРОГРАММЫ «ПУТЬ ЗНАНИЙ» В КАЧЕСТВЕННОЙ ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ****THE IMPORTANCE OF THE "PATH OF SCIENCE" VARIATIVE PROGRAM IN EFFECTIVELY PREPARING PRESCHOOL-AGED CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION**

Sattorova Gulruh, Amonqulova Zamira, Fayzullayev Sharipboy

Sattorova G.,

*O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

Amonqulova Z.,

*O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
1-bosqich magistranti,*

Fayzullayev Sh.,

*O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent
sharipboyfayzullayev@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash jarayoni "Ilm yo'li" variativ dasturi haqida ma'lumotlar aks etgan. Unda majburiy tayyorlov guruhlarini faoliyatlari o'zaro bog'liqligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: "Ilm yo'li" variativ dasturi, 6-7 yoshli bola, otana, pedagog, boshlang'ich ta'lim, rivojlanish sohasi, bilim

Abstract. This article presents the process of high-quality preparation of children aged 6–7 years for school education based on the "Path of Science" variative program. It highlights the interconnection of activities in mandatory preparatory groups.

Keywords: "Path of Knowledge" variative program, 6–7-year-old child, parents, teacher

Аннотация. В данной статье представлены процессы качественной подготовки детей в возрасте от 6 до 7 лет к обучению в школе на основе вариативной программы «Путь знаний». Освещена взаимосвязь деятельности обязательных подготовительных групп.

Ключевые слова: вариативная программа «Путь знаний», ребёнок 6–7 лет, родители, педагог, начальное образование, область развития, знания.

Kirish. Uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'inlariga e'tibor beradigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tizimi uning dastlabki bo'g'ini bo'lib hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha yoshdagi bolalarni nafaqat ta'lim-tarbiyasi balki jismoniy va ruhiy jihatdan ham sog'lom va yetuk bo'lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bois eng yaxshi xalqaro tajribalar asosida tizimdagi dasturiy va o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish zarurati paydo bo'ldi.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma- bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 999-sonli va 2020-yil 9-martda 132-sonli „Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi 132-son qarori tizimdagi islohotlarning jadallashuviga muhim burilish yasadi. Qaror ilovasida 2020-2025-yillarda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlarida viloyatimiz bo'yicha 30 810 nafar bolani

maqsadli qamrab olish belgilab qo'yilgan. Boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillikdagi qamrovda bolaning yoshi va qachondan qabul vaqti haqidagi o'zgartirishlar bilan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-fevralda 66-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorlarni ijro etish doirasida O'zbekiston o'z zimmasiga 6-7yoshli bolalarning maktabga to'lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo'yicha majburiyatni oldi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash – dolzarb masala. Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan xalqaro tajribalar hisobga olinib, 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta'lim-tarbiya berish va maktab ta'limiga tayyorlash maqsadida "Ilm yo'li" variativ dasturi ishlab chiqildi. Umumiy olganda "Ilm yo'li" variativ dasturi har tomonlama bolani maktab ta'limiga sifatli tayyorlashga xizmat qiladi. Jumladan quyida ularni ko'rib chiqamiz:

- Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi;
- Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi;
- Til va nutq markazi;
- Ilm, fan va tabiat markazi;
- San'at markazi.

"Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-152-son, 30.09.2024-y.) qabul qilindi.

Prezidentimizning ushbu farmoniga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktor o'rinbosari lavozimi joriy etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda kichik va o'rta guruhlardagi bolalarda kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko'nikmalar rivojlantiriladi, katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarda bilim olish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv-metodik materiallar ishlab chiqiladi. Bog'cha rahbari va pedagog kadrlarini vazir jamg'armasi hisobidan rag'batlantirishga ruxsat etiladi. Shuningdek, 2026-2027-o'quv yilidan:

bog'chalar tomonidan Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida bolaning rivojlanish xaritasini yuritish amaliyoti joriy qilinadi;

maktabga tayyorlov guruhlarini tamomlagan bolalarga ularning rivojlanish xaritasi asosida bir yillik maktabga tayyorlovdan o'tganlik haqida elektron sertifikat berish yo'lga qo'yiladi.

Majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlardagi ta'lim jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- bolaga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi;
- inklyuziv ta'lim haqida mushohada yuritish;
- bolani xolistik(yaxlit) rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim muhitining xususiyatlarini belgilash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyatning yetakchi turi – o'yin asosida ta'lim berish;
- bola – ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi;
- rejalashtirish va baholash samaradorligi;
- interfaol ta'lim;
- integrativ o'qitish.

Dasturda ko'zda tutilgan vazifalar nafaqat rivojlanish markazlardagi faoliyat paytida, balki mustaqil, o'yin jarayonida hamda pedagoglarning ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyati jarayonida ham to'liq bajarilishi lozim. Dastur bolalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, har bir bola uchun individual o'qitish jarayonini tashkil etishga imkon beradi. O'zaro hamkorlik va jamoaviy faoliyatlar orqali bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur dastur o'ziga xos bo'lib, unga ko'ra, o'quv-tarbiyaviy faoliyat kuniga 3 soat davomida amalga oshiriladi, uning majburiy qismi 80 foizni va variativ qismi esa 20 foizni tashkil etadi. Ushbu dastur 6-7 yoshli bolalar uchun

mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlarida maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq, bolaning rivojlanishidagi 5 muhim soha: bolalarning jismoniy rivojlanishi va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish sohalarini har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, bunda bola ta'limiy faoliyatning yetakchi ishtirokchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Tayyorlov guruhlarida yil davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalar yoshiga mos bo'lishi va ketma-ketlikda olib borilishi kerak. Mashg'ulot mavzulari bolalar uchun tushunarli, amaliy ishlar va turli interfaol usullar bolalar yoshiga mos, qiziqarli va turli xil bo'lishi lozim. Faoliyat davomida bolalar barmoq mashqlarini tetiklashtiruvchi daqiqalarni bajaradilar, harflar bilan maxsus o'yinlar(yig'ish-terish), amaliy ishlarni bajarib, alifbeni bilib, bo'g'inlarni o'qiy olish ko'nikmalari mustahkamlanib boradi"⁷.

Xulosa. Umuman olganda, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, "Ilm yo'li" variativ dasturi bolalarga jamoada ishlash, axloqiy mas'uliyatni his qilish va boshqalar bilan hamkorlikda ishlash kabi ko'nikmalarni o'rgatadi. Bu ularning kelajakda jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Bu bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashni o'rganishga yordam beradi."Ilm yo'li" variativ dasturi bolalarga nafaqat akademik bilimlarni, balki ijtimoiy, emotsional va axloqiy qadriyatlarni ham singdirishga yordam beradi. Bu orqali bolalar jismoniy va ruhiy rivojlanishda muvozanatni saqlab qoladilar. Dastur har bir bolani o'zining individual xususiyatlari va qobiliyatlariga mos ravishda rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-152-son, 30.09.2024-y.)
2. "Ilm yo'li" variativ o'quv dasturi – Toshkent.: 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 66-sonli qarori.- Toshkent.:2022.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari T., O'z PFITI, 2000. Tuzuvchilar Rasulova M, Abdurahmonova X va boshqalar.
5. Fayzullayev Sh. "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" o'quv qo'llanma Samarqand-2020-y 64b.
6. X. Axmedova va boshqalar "Bolangiz maktabga tayyormi" T., 2020y.

⁷ Sh. Fayzullayev "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" o'quv qo'llanma Samarqand-2020-y 64b

ZAFAR DIYOR SHE'RLARIDA INSON VA TABIAT O'RTASIDAGI
MUNOSABATNING BADIY TALQINI

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN HUMANS
AND NATURE IN ZAFAR DIYOR'S POEMS

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОТНОШЕНИЙ ЧЕЛОВЕКА И
ПРИРОДЫ В СТИХОТВОРЕНИЯХ ЗАФАРА ДИЁРА

Sattorova Fotima Sharif qizi, Raximova Gulbaxor Karshibayevna

Sattorova F.Sh.,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti talabasi.
sattorovafotima1414@gmail.com

Ilmiy rahbar:
Raximova G.K.,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
rahimovagulbaho17@gmail.com

Annontatsiya: Ushbu maqolada bolalar she'riyatining yirik nomayondalaridan biri Zafar Diyorning ijodiy faoliyati, xususan, she'riyatida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatning badiiy ifodalanishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tabiat, jonlantirish, vatanparvarlik, binafsha, suv bilan suhbat, bolalar adabiyoti, tasviriy ifodalar.

Аннотация. В статье анализируется творчество одного из выдающихся представителей детской поэзии Зафара Диёра, в частности, художественное выражение взаимоотношений человека и природы в его поэзии.

Ключевые слова: природа, возрождение, патриотизм, фиалка, разговор с водой, детская литература, образные выражения.

Abstract. This article analyzes the creative work of Zafar Diyor, one of the great representatives of children's poetry, in particular, the artistic expression of the relationship between man and nature in his poetry.

Keywords: nature, revival, patriotism, violet, conversation with water, children's literature, figurative expressions.

Bizga ma'lumki, bolalar adabiyoti shoir va adiblarining asarlari yosh kitobxonlar dunyoqarashini kengaytirishga, ularni ezgulikka undashga va hayotiy tajriba orttirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan shoirlardan biri Zafar Diyordir. U o'zining quvnoq she'rlari bilan jazzi kichkintoylarning murg'ak qalblariga kirib borgan. Shoir she'rlari orqali bolalarda vatanparvarlik, ona tabiatga do'stona munosabatda bo'lish kabi xislatlarini tarbiyalashga harakat qilgan.

Zafar Diyor she'rlari inson va tabiat o'rtasidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatlarni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Uning she'rlari tabiatni shunchaki fon sifatida emas, balki inson hayoti bilan uzviy bog'langan, insonning ruhiy holatini aks ettiruvchi, hayotning muhim qismi sifatida ko'rsatadi. She'rlarida tabiat insonning ruhiy holatini aks ettiruvchi oynaga o'xshatiladi. Insonlarning qayg'usi, xursandchiligi, umidsizliklari va orzulari tabiatning o'zgaruvchan holatlari orqali ifodalanadi. U tabiatga insonning uy-joyi, ruhiga tinchlik beruvchi manba sifatida qaraydi. She'rlarida insonning tabiatga ta'siri ham muhim o'rin egallaydi. U tabiatning inson tomonidan ifloslanishi, yo'q qilinishi haqida qayg'uradi, she'rlari orqali ularning tabiatni asrashga bo'lgan mas'uliyatini eslatadi. Zafar Diyor, o'zining qishloq hayoti va tabiat bilan yaqin aloqasi tufayli, she'rlarida tabiatni insonning ruhiy holatini qog'ozga tushurgan shoirdir.[1]

Zafar Diyor she'rlari hayoti va ijodining o'zi singari, tabiatni muhofaza qilishga, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni saqlab qolishga chaqiradi. Uning she'rlari tabiatga bo'lgan muhabbat va qayg'u,

inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqur his qilishga undaydi. Shu jihatdan qaraganda, uning "Tantana" she'lar to'plami (1938) dagi ko'plab she'rlari xarakterlidir. "Binafsha", "Navbahor", "Qushlar haqida go'shiq", "Kapalak" singari she'rlari shular jumlasidandir.[2]

Zafar Diyor el-yurtimzni, Vatanimizni qattiq sevadi, ayniqsa, ona yurt, serqyosh o'lkamizga bo'lgan ijodkor qalbidagi buyuk muhabbat uning she'rlariga ko'chadi. "G'unchalar", "Yashna Vatan", "Serqyosh o'lka" singari asarlarining sarlavhasiyiq bolalar kayfiyatini chog' qiladi. Bolalarda ona-Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni o'n chandon oshirib yuboradi. "G'unchalar" [4]da shoir bolalarni erkab:

Vatan agar bo'lsa bir chaman,
Siz qo'ynida xandon g'unchalar
Ay, siz mening kichik do'stlarim,
Vataningiz sevar shunchalar, - deydi.

Ammo shu g'unchalar ona-Vatanimiz asosi ekanligi, bular oldida turgan buyuk ishlar shoir e'tiboridan chetda qolmaydi. She'rni o'qigan har bir bolada tezroq o'sib-ulg'ayish, Vatan xizmatini qilish hissi jo'sh urmay iloji yo'q.

Shoirning "Kapalak" [3] she'rini olib ko'raylik. She'r asosan besh, olti bo'g'inli, ixcham, tushunilishi oson, so'z va misralar nihoyatda o'ynoqi va bolalarning gapidan tashkil topgan. Muallif oltiyetti yoshgacha bo'lgan bolalarning qiziquvchanligini, samimiyligini, odamlarga, qushlarga, jonivorlarga, umuman hamma narsaga g'amxo'r, mehribonligini va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan. Shoir bolalarning tabiat hodisalariga, hasharot-u jonivorlarga, ayniqsa, kapalakka qiziqishini, muhabbatini kichkintoylarga xos so'z va ohangda ifodalab, kichkintoyning hayotga diqqat-e'tiborini oshiradi, kapalak obrazi orqali kitobxonda insoniy tuyg'ularni shakllantirishga harakat qiladi:

Hoy, kapalak, kapalak,
Qanotlaring ipakdek.
Muncha shoshib uhasan,
To'xta, so'zlayin andek...
Mendan aslo qochmagin,
Do'st bilaman o'zimga.
Pildir-pildir uchishing,
Oh, yoqadi ko'zimga.

Shoir bahorda yuz beradigan oddiy tabiat hodisasini, kapalakning guldin-gulga qo'nishini, yengil va zavqli uchishini bolalar tilida samimiy tasvirlaydi. Bolajonlar she'rni o'qir ekanlar voqealar kino tasmasidek ko'z oldilarida gavdalanadi:

Uchrataman har kuni
Seni har kun bog'chamda,
So'rib gullar sharbatin
O'tirasan olchamda.

Bolalar faqatgina kapalakni tomosha qilish bilan cheklanishmaydi, har bir bola bir marta bo'lsa ham kapalakni tutib olishga harakat qiladi. She'rda bu jarayon bezorilik emas, balki bolalarning quvnoqligiga yo'yiladi. Kapalakni quvlashdan asosiy maqsad uni tutib, joniga ozor berish emasligini shoir bola tilidan samimiy ifoda e'tib, ta'kidlab o'tadi. Xoh o'g'il bola bo'lsin, xoh qiz bola har kuni o'z bog'ida rang-barang kapalaklarni kuzatishni, ular bilan birga quvlashmashoq o'ynashni chin dilidan xohlaydi. Keyingi o'rinda bola bu istagini kapalakka bildiradi. Agar kapalak go'zal bog'chasida uchaversa unga sira ozor bermasligini, fikr-u xayoli unda ekanligini qo'shib qo'yadi. Zafar Diyor o'z

she'ri orqali o'quvchilarni tabiatni sevishga, jonzotlarga ozor bermaslikka, ular bilan do'st bo'lishga, ularni asrab-avaylashga va chiroyli kapalaklar qo'nishi uchun gulzorlar yaratishga chaqiradi.

Zafar Diyorning "Binafsha" [5] she'rini yoddan bilmagan o'quvchi bo'lmas kerak. She'r o'zining ravon o'qilishi, qofiyalarning jarangdorligi bilan o'quvchini o'ziga tortadi. She'rning ilk satrlariyoq o'quvchini tabassum qilishga undaydi. Shoir binafshani xuddi kulib turganga o'xshatadi:

Binafshaxon, binafsha
Kulishlaring chiroyli:
Bog'imizda ochilib
Turishlaring chiroyli.

Bilamizki, binafshalar ochilishi bilan o'g'il-qizlar to'p-to'p bo'lib dalalarga gul terгани chiqishadi. Shoir esa bunday voqeani e'tibordan chetda qoldirmaydi. Barcha bolalar tasvirlanar ekan, opasiga gul terib kelib, binafsha chiqqanining xabarini yetkazgan bolaga alohida urg'u beriladi. Keyingi satrlarda shoir bolajonlarni binafshalardan bahramand bo'lishga chorlaydi. Binafshaning xushbo'y hidi butun atrofnı qamrab olishini eslatadi. Hatto asalarilar ham kapalaklar ham binafshaga mahliyo bo'lib qolganday go'yo, qushlar ham binafshani madh etib uchayotganday.

Binafshalar ochildi
Chakkangga taq, chakkangga:
Atir hidi sochildi,
Chakkangga taq, chakkangga.
Lazzat olib hididan
Bolarilar uchadi.
Ipakganot kapalak
Barglarini quchadi.

Binafsha nafaqat dala-yu bog'larni bezaydi balki bahor xabarini berib yosh-u qarini birdek quvontiradi, dillarga xushnudlik keltiradi. Bolalar o'ynab kulib quchoq-quchoq binafshalar bilan qaytar ekan, har birlari bahor nafasini o'z uylariga olib kiradilar. Shoir birgina binafsha timsolida butun tabiat manzarasini, bolalar quvonchini, bahor nafasini o'quvchiga yetkazib beradi.

"Suv bilan suhbat"da ham ajoyib voqea qalamga olingan. Asar qahramonining suvning bunchalik ariqqa to'lib-toshib va juda shoshib oqishi qiziqtiradi. Suv va bola o'rtasida jonli suhbat bo'ladi. Suvning so'zlaridan bola juda ko'p narsalarni o'rganib oladi. Suv hayot ibtidosi ekanligini, suv – butun borliqqa umr, shodlik bahshida etishiini tushunadi. Natijada bolada suvga, uni in'om etgan ona tabiatga, hayotga qiziqishi, muhabbati oshadi. She'rda suvning tabiatdagi roli va xususiyatlari tasvirlanadi. Suvning o'ynab-o'ynab yurgani, dalalarga bayramdek kelgani, guldan bezak taqqani va oppoq qorli tog'lardan shoshib oqib kelgani tasvirlanadi. She'rda suvning insonlarga foydasi va tabiatning go'zalligini aks ettiruvchi elementi ekanligi ta'kidlanadi:

Hoy, sen jiyron toychamdek,
O'ynab-o'ynab yurgan suv.
Dalalarga bayramdek,
Guldan bezak taqqan suv.
Quloq solgin so'zimga,
Nega buncha shoshasan?
Qayerdan bu kelishing,
Qirg'oqlardan toshasan!
-Yaxshi bola toychamdek,
O'ynab kishnab kelishim.

Qir, adirdan oralab,
Shamol kabi kelishim.
Ko‘rasanmi, hu o‘sha,
Oppoq qorli tog‘lardan.
Shoshih oqib kelaman,
Dalalardan bog‘lardan.

She‘rda suvga qaratilgan savol-javob shakli orqali suvning kelib chiqishi va harakatlanishi haqida tasavvur beriladi. Suvning o‘ziga xos xususiyatlari va tabiatdagi ahamiyati she‘r orqali yorqin va ta‘sirli tarzda ifodalangan.

She‘rning asosiy mavzusi bu suvning tabiatdagi roli va ahamiyati haqida bo‘lib, qiziqarli savol-javob shaklida yozilgan. “Jiyron toychamdek”, “bayramdek”, “oppoq qorli tog‘lardan”, “shamol kabi kelishim” kabi badiiy vositalar she‘rning ta‘sir kuchini oshirishga xizmat qilgan. Suvning tabiatda muhim o‘rin tutishini va insonlarga foydali ekanligini ta‘kidlash orqali uni asrab-avaylash zarurligi obrazli tarzda bayon etilgan. Bu esa bolajonlarga suvning hayotimizdagi ahamiyatini to‘laqonli anglatishda yordam beradi.

Yuksak tog‘, keng o‘tloq va mard o‘rtoq haqida qissa [1]

Sahrolarning eng kuchli,
Eng g‘azabli, eng o‘chli,
Qashqir kabi uvlovchi,
Boyqush kabi huvlovchi
Shamollari bo‘lishin,
Ko‘zlar qumga to‘lishin
Men bilaman azaldan,
Ham ertakdan, g‘azaldan.
Ana shunday zo‘r shamol,
Xuddi bir kun tong mahal,
Daryo yoqdan qo‘zg‘alib,
Keng o‘tloqqa yo‘l olib,
G‘avg‘o solmish borliqqa,
Sahro, adir, tog‘liqqa.

Bu she‘rda sahrolarning kuchli, g‘azabnok shamollari tasvirlanadi. Bu shamollar qashqir kabi uvlovchi, boyqush kabi huvlovchi, ko‘zlarni qumga to‘diruvchi kuchga ega. Qissada shamolning daryo yoqasidan qay tarzda qo‘zg‘alib, keng o‘tloqqa yo‘l olishi va borliqqa g‘avg‘o solishi kabi holatlari badiiy bo‘yoqlarda ifodalanadi. “Sahrolarning eng kuchli, eng g‘azabli, eng o‘chli shamollari”ni sifatlash orqali ularning xavfliligi ta‘kidlanadi. “Qashqir kabi uvlovchi, boyqush kabi huvlovchi” kabi o‘xshatishlarda shamolning yirtqich hayvonlarga taqqoslanishi uning xatarli ekanligini yanada kuchaytiradi.

She‘rda tabiatning qanday qudratli ekanligi, butun borliqni o‘z izmiga bo‘ysundirishi xohlashi “shamol” va “o‘tloq” obrazlarining qarama-qarshi qo‘yilishi asosida yoritib berilgan.

Karaxt yotgan keng o‘tloq
Yel zarbidan ushbu chog‘
Cho‘chib ochdi ko‘zini,
Dahshat bosdi yuzini,
Ko‘rsa – butun yer, osmon,
Ko‘z ochirmas chang-to‘zon,

Qurib yotgan cho‘p, xashak,

Yelda girdi-kapalak.

She‘r nafaqat bolajonlarni, balki kattalarni ham bir muddat o‘yga toldiradi, o‘zi yashab turgan zamin tabiatiga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Tabiatdagi ana shunday sir-asrorlar tasviri, zukko kitobxonni befarq qoldirmaydi. Chunki unda tabiatdagi jonli va jonsiz jamiki mavjudotga tegishli har bir holat, manzara kitobxon ko‘z oldida namoyon bo‘ladi. Bu esa shoir badiiy mahoratining badiiy ifodasi ekanligini isbotlaydi.

Xullas, Z.Diyorning ona tabiat haqidagi mulohazalar bilan boyitilgan she‘rlarida kichkintoylarga tarbiyaviy saboqlarni berishga qaratilgan tasvirlarni ko‘rishimiz mumkin. Shu bois, shoir asarlari yosh kitobxonlarni uzoq vaqtdan beri o‘ziga rom etib, avlodan-avlodga o‘tib, yoshlar tarbiyasida muhim vositaga aylandi. Shoirning qaysi ijod namunasini olmaylik, unda ona tabiatni qadrlash hissini tug‘diruvchi da‘vat ko‘zga tashlanadi. Har bir misralari zamiriga singdirilgan tabiatga munosabat tuyg‘ulari yoshlar qalbida ona zaminimizga muhabbat ruhini mavjlanishiga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zafar Diyor. Kitob, mening do‘stimsan: She‘r va ertaklar. – Toshkent: “Kamalak”, 2019. – 96 b.
2. Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. – T.: “O‘qituvchi”, 2013.–280 b.
3. Azizova Sh. Zafar Diyor ijodining o‘ziga xosliklari //“Journal of science-innovative research Uzbekistan”. Volume 1, issue 8, 2023. –620-625 b.
4. Adashboyev T., Akbar A. O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi, I jild, She‘riyat. – T.: “O‘qituvchi” , 2006. – 60-62 b.
5. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (bolalar adabiyoti). O‘quv qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashri, 2022. – 308 b.

**INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI KOMMUNIKATIV FAOLIYATIGA
TAYYORLASHNING ME'YORIY-HUQUQIY VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

**THE NORMATIVE-LEGAL AND SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF
PREPARING ENGLISH LANGUAGE TEACHERS FOR COMMUNICATIVE ACTIVITY**

**НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ И НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ
ПОДГОТОВКИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА К
КОММУНИКАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Shamsiyeva Madina Ne'mat qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashning me'yoriy-huquqiy va ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning pedagogik va didaktik malakalarini mustahkamlashning dolzarbligi ko'rsatilgan. Maqola, o'qituvchilarning kommunikativ faoliyatga tayyorlanish jarayonidagi me'yoriy hujjatlar va ilmiy-texnik asoslarni tahlil qilib, zamonaviy pedagogika, psixologiya va lingvistika fanlarining bu boradagi o'rnini ochib beradi. Shuningdek, maqola o'qituvchilarning metodik ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *ingliz tili o'qituvchisi, kommunikativ kompetensiya, ta'lim tizimi, pedagogik malakalar, ilmiy-nazariy asoslar, me'yoriy huquqiy asoslar, kommunikativ faoliyat, metodik ko'nikmalar*

Abstract. This article analyzes the normative-legal and scientific-theoretical foundations of preparing English language teachers for communicative activity. The importance of developing English language teachers' communicative competence and strengthening their pedagogical and didactic skills in the modern education system is highlighted. Additionally, the role of modern pedagogy, psychology, and linguistics in this process is examined. The article provides methods for developing teachers' methodological skills and offers practical recommendations for improving the educational process.

Keywords: *English language teacher, communicative competence, education system, pedagogical skills, scientific-theoretical foundations, normative-legal foundations, communicative activity, methodological skills.*

Аннотация. В данной статье анализируются нормативно-правовые и научно-теоретические основы

Shamsiyeva M.N.,
*O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Pedagogika nazariyasi va tarixi
mutaxassisligi bo'yicha 1-kurs
magistrant.
shaxbozshamsiyev915@gmail.com*

подготовки преподавателей английского языка к коммуникативной деятельности. Подчеркивается важность развития коммуникативной компетенции преподавателей английского языка и укрепления их педагогических и дидактических навыков в современной системе образования. Кроме того, рассматривается роль современной педагогики, психологии и лингвистики в этом процессе. В статье приводятся методы развития методических навыков преподавателей и предлагаются практические рекомендации по совершенствованию образовательного процесса.

Ключевые слова: преподаватель английского языка, коммуникативная компетенция, система образования, педагогические навыки, научно-теоретические основы, нормативно-правовые основы, коммуникативная деятельность, методические навыки.

Ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ faoliyatiga tayyorlashning me'yoriy-huquqiy va ilmiy-nazariy asoslari – bu o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish va tilni o'rgatishda samarali usullarni tatbiq etishga qaratilgan asosiy mezonlarni belgilovchi huquqiy va ilmiy tizimdir. Ushbu tizim ta'limning sifatini oshirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning samaradorligini ta'minlash, shuningdek, o'qituvchining individual va professionallik jihatidan malakasini rivojlantirish uchun zarurdir.

1. Me'yoriy-huquqiy Asoslar:

Ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashning me'yoriy-huquqiy asoslari bir qator davlat hujjatlari, ta'lim dasturlari, o'qituvchi uchun me'yoriy hujjatlar va normativlarni o'z ichiga oladi. Bu asoslar o'qituvchining kommunikativ faoliyatiga tayyorligini belgilaydigan asosan davlat qonunlari, pedagogik me'yorlar va ilmiy-ta'limiy tizimning talablariga asoslanadi.

- Milliy Ta'lim Strategiyasi va Rejalari: Har bir davlatning ta'lim tizimi o'zining alohida rivojlanish strategiyalariga ega. Shu sababli, ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda me'yoriy hujjatlar, masalan, ta'lim dasturlari, o'quv rejalari, standartlar, o'qituvchilarni malakasini oshirish dasturlari alohida ahamiyatga ega. Bu hujjatlar o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan normativlarni belgilaydi.
- Pedagogik ma'lumotlar va o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha Normativlar: O'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha ko'plab ilmiy va amaliy kurslar, treninglar va seminarlar mavjud. Me'yoriy-huquqiy asoslar o'qituvchining malakasini oshirish bo'yicha kurslarning sifatini va o'quv dasturlarining zarurligini ta'minlashga yordam beradi.
- Ta'lim Qonunlari: Ta'lim sohasidagi milliy qonunlar va normativ hujjatlar ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ faoliyatiga tayyorlanish jarayonini belgilovchi asosiy huquqiy me'yorlarni ishlab chiqadi. O'qituvchi o'z faoliyatini olib borishdan avval, ta'limning yuqori sifatini ta'minlashga xizmat qiladigan va talablar qo'yiladigan tegishli qonunlarga rioya qilishlari zarur.

2. Ilmiy-nazariy Asoslar:

Ingliz tili o'qituvchilari uchun kommunikativ faoliyatga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari, asosan, til o'rganish nazariyalariga, kommunikatsiya nazariyasiga va pedagogik ilmga asoslanadi. Ushbu asoslar

o'qituvchining kommunikativ faoliyatini shakllantirish va pedagogik tizimda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun zarur bilimlarni beradi.

- **Kommunikativ faoliyat nazariyasi:** Ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ faoliyat nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Bu nazariya til o'rganish jarayonida o'qituvchining o'quvchilari bilan samarali muloqot o'rnatish, tilni faollashtirish, til malakalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilishda o'qituvchi uchun zarur usullarni taqdim etadi. Kommunikativ faoliyatning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilarni interaktiv metodlardan foydalangan holda tayyorlash zarur.
- **Pedagogik Ilm va O'qitish Metodologiyasi:** Ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ faoliyatini tayyorlashda pedagogik ilmning asosiy tamoyillari va metodologiyasi katta o'rin tutadi. Bu soha o'qituvchining ta'limda qanday usullarni qo'llash, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va tilni o'rgatishda innovatsion yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi.
- **Tilni O'rgatishning Psixologik Asoslari:** O'qituvchining kommunikativ faoliyatiga tayyorlashda psixologiyaning roli ham katta. Bu psixologik yondashuvlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi psixologik munosabatlarni yaxshilash, tilni o'rgatishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda yordam beradi. Psixologik nazariyalar orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, stressni kamaytirish va samarali o'rganishga ko'maklashish mumkin.
- **Tilshunoslik va Didaktika:** Ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda tilshunoslik va didaktikaning nazariyasi va metodikasi muhim ahamiyatga ega. Didaktika o'qitish jarayonining o'ziga xos tomonlarini o'rganadi va o'qituvchiga o'quvchilarga samarali tarzda ingliz tilini o'rgatishning usullarini ishlab chiqishga yordam beradi. Didaktik metodlar, materiallar va o'quv jarayonlarini qanday tashkil etish kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar beradi.
- **Kommunikatsiya Nazariyasi va Amaliyoti:** Kommunikatsiya nazariyasiga kiritilgan asoslar o'qituvchilarni o'z faoliyatida til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi. Bu nazariya orqali o'qituvchi nafaqat tilni, balki madaniyat, muloqot va tilshunoslikni ham o'rgatadi. Bu nazariyalar o'quvchilarning til o'rganishiga nisbatan yondashuvlarni o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi.

3. O'qituvchilarni Kommunikativ Faoliyatga Tayyorlashdagi Innovatsiyalar:

- **Interaktiv va Innovatsion Texnologiyalar:** Yangi zamonaviy texnologiyalarni ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ faoliyatini rivojlantirishda qo'llashning ahamiyati ortib bormoqda. Video darslar, interaktiv mashqlar, onlayn kurslar va boshqa zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning tilni o'rganish jarayonini jonlantirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar o'qituvchilarni o'z bilimlarini yangilashga va yangi pedagogik metodlarni qo'llashga ilhomlantiradi.
- **Pedagogik Tajribani Yuqori Sifatga Ko'tarish:** O'qituvchilarni pedagogik amaliyotga tayyorlashda yurtimizning pedagogik maktablarida amalga oshirilgan tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish muhim. Zamonaviy o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasi, kommunikativ qobiliyatlari va bilimlarining zamonaviy metodlar bilan mustahkamlanishi ta'lim sifatini oshiradi.

Me'yoriy-huquqiy asoslar o'qituvchining ish faoliyatini belgilovchi huquqiy me'yorlarni va davlat tomonidan ishlab chiqilgan normativ hujjatlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimida mavjud bo'lgan qonunlar, ta'lim dasturlari va me'yoriy hujjatlar o'qituvchilarni kommunikativ faoliyatga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Bu hujjatlar orqali o'qituvchiga kerakli bilim va malakalarni oshirish bo'yicha yo'riqnomalar, o'quv dasturlari va malaka oshirish kurslari taqdim etiladi. Bu esa, o'z navbatida,

o'qituvchilarning ta'lim jarayonida samarali faoliyat ko'rsatishi va o'quvchilarga tilni o'rgatishda yuqori natijalarga erishishlariga yordam beradi.

Ilmiy-nazariy asoslar esa pedagogika va tilshunoslik sohalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. O'qituvchilarni kommunikativ faoliyatga tayyorlashda pedagogik metodlar, didaktika va psixologiyaning nazariy asoslari ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik ilm-fan o'qituvchilarga o'quvchilarning ehtiyojlarini va xususiyatlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini qanday tashkil etish kerakligi haqida ilmiy asoslangan yondashuvlarni taklif qiladi. Tilshunoslik va kommunikativ faoliyat nazariyasi esa o'qituvchilarga o'quvchilari bilan samarali muloqot o'rnatish va tilni o'rgatishda eng optimal usullarni qo'llash imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Interaktiv darslar, onlayn kurslar va boshqa innovatsion texnologiyalar o'qituvchilarning bilimlarini yangilashda va o'quvchilarning tilni o'rganish jarayonini faollashtirishda yordam beradi. Bu texnologiyalar o'qituvchilarga zamonaviy pedagogik metodlarni o'rganishga va o'quvchilarga interaktiv va samarali ta'lim berishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini oshirish uchun psixologik yondashuvlar va innovatsion metodlarni qo'llash zarurdir. Bularning barchasi ta'lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi va o'qituvchilarning malakasini rivojlantiradi.

Shu tarzda, ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashning me'yoriy-huquqiy va ilmiy-nazariy asoslari ta'lim jarayonining sifatini oshirishda, o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda va o'quvchilarga yuqori sifatli ta'lim berishda muhim omil hisoblanadi. Bu tizim ta'lim sohasidagi barcha ishtirokchilarning samarali ish olib borishlariga imkon yaratadi va ta'limda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish nafaqat til o'rganish, balki uning kommunikativ va ijtimoiy jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan. O'qituvchilarning kommunikativ faoliyatga tayyorlanishi, ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kommunikativ kompetensiya – bu tilni amaliy tarzda ishlatish, tushunish, muloqot qilish va bilimlarni o'zaro almashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni anglatadi. Ingliz tili o'qituvchilari, o'z navbatida, nafaqat tilni o'rgatish, balki uning asosida kommunikativ muloqot qilish qobiliyatini ham o'rgatishlari zarur. Shu sababli, ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashning ilmiy-nazariy va me'yoriy-huquqiy asoslari ta'lim tizimining sifatini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashning me'yoriy-huquqiy asoslari

Ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ faoliyatga tayyorlanishining me'yoriy-huquqiy asoslari ta'lim sohasidagi davlatning qonunlari, nizomlari va me'yoriy hujjatlariga asoslanadi. O'qituvchilarning malakasini oshirish, ularga kerakli metodik va psixologik bilimlarni berish maqsadida davlat tomonidan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati va ta'lim standartlari, o'qituvchilarni tayyorlash va ularning professional faoliyatini nazorat qilishga doir hujjatlar, pedagogik faoliyatni baholash tizimi, pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar hamda ta'lim metodikalarini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar mavjud.

Ilmiy-Nazariy Asoslar

Ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ faoliyatga tayyorlanish jarayoni ilmiy-nazariy asoslarga ham tayanadi. Pedagogika, psixologiya va lingvistik fanlari bu jarayonning ilmiy asoslarini tashkil etadi. Pedagogika fani, ayniqsa, o'qituvchilarni o'qitish jarayonida metodik yondashuvlarni o'rganadi, bu esa o'qituvchilarning o'quvchilarga bilimlarni samarali tarzda yetkazish qobiliyatini oshiradi. Psixologiya fani esa kommunikativ faoliyatda o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tushunishga

yordam beradi, chunki o'qituvchining psixologik holati va o'quvchilarga bo'lgan yondashuvi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilaydi.

Lingvistika, o'z navbatida, ingliz tilining grammatikasini, leksikasini, fonetikasi va sintaksisini chuqur o'rganadi. O'qituvchi bu bilimlarni o'quvchilarga o'rgatish jarayonida tilni faqat grammatik jihatdan o'rgatish bilan cheklanmay, balki tilni amaliy va kommunikativ jihatdan ishlatishni ham ta'minlashi kerak. Shuningdek, ingliz tilining madaniy o'lchamlari, tilni o'rganish jarayonidagi madaniyatlararo kompetensiya tushunchalari ham muhim o'rin tutadi. Bu, o'z navbatida, o'qituvchilarga o'quvchilarda tilni nafaqat grammatika nuqtai nazaridan, balki madaniyatlararo muloqot qilish nuqtai nazaridan ham ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ faoliyatga tayyorlanishida amaliy yondashuvlar

Ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashda amaliy yondashuvlar ham katta ahamiyatga ega. Bularning eng muhimi, o'qituvchilarga kommunikativ pedagogik texnikalarni o'rgatishdir. O'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatlarida o'quvchilarga turli xil kommunikativ vaziyatlar yaratish, muhokama va munozaralar olib borish, tilni o'rgatish jarayonida rolli o'yinlar va simulyatsiyalarni qo'llash kabi metodlarni ishlatishlari zarur. Bu yondashuvlar o'quvchilarning tilni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, kommunikativ faoliyatga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham samarali natijalarga olib keladi. Kompyuter texnologiyalari, multimedia resurslar, onlayn platformalar va mobil ilovalar ingliz tilini o'rgatishda o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar va internetda mavjud bo'lgan o'quv resurslari o'qituvchilarga o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish imkoniyatini beradi.

Pedagogik Yondashuvlar va Metodlar

Ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ faoliyatga tayyorlanish jarayonida turli pedagogik yondashuvlar va metodlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni tanqidiy fikrlashga, mustaqil o'ylashga va muloqot qilishga o'rgatishga yordam beradi. Ingliz tili o'qituvchilari o'quvchilar bilan kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'qitishning interaktiv metodlarini, shu jumladan rolli o'yinlar, munozaralar, guruhli ishlash, tasviriy materiallar va video materiallardan foydalanishlari kerak.

Shuningdek, ingliz tili o'qituvchilari o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan o'qitish metodlarini ham o'z faoliyatiga kiritishlari zarur. Masalan, onlayn platformalar, o'quv ilovalari va internet-resurslar yordamida o'quvchilarni o'z maqsadlariga erishish uchun kerakli bilimlar bilan ta'minlash mumkin.

Ingliz tili o'qituvchilarini kommunikativ faoliyatga tayyorlashning ilmiy-nazariy va me'yoriy-huquqiy asoslari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shadi. O'qituvchilarni kommunikativ faoliyatga tayyorlashda pedagogik, psixologik, lingvistik va metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ kompetensiya o'qituvchilarni faqat tilni o'rgatishda emas, balki o'quvchilarga amaliy muloqot qilish ko'nikmalarini berishda ham samarali vosita bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va pedagogik metodlarni innovatsion tarzda qo'llash o'qituvchilarning malakalarini oshirishda katta rol o'ynaydi. O'qituvchilarni tayyorlashda ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonida tilni faqat grammatika nuqtai nazaridan o'rgatish bilan cheklanmasdan, uni amaliy faoliyatda ishlatish imkoniyatlarini ham yaratish zarur. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'quvchilarning tilni o'zaro muloqot qilishda samarali ishlatish ko'nikmalarini oshiradi va umumiy ta'lim sifatini yuksaltirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvokhidov, R. (2021). Ingliz tili o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
2. Qodirov, S. (2019). Pedagogik psixologiya va ingliz tili o'qituvchisi. Toshkent: Innovatsion ta'lim.
3. Tursunov, S. K. (2020). O'zbekistonda ta'lim tizimi rivojlanishining nazariy asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
4. Abdurahmonov, M. M. (2019). Ingliz tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Prezidentning 2017-yil 10-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini rivojlantirishga oid dasturi.
6. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonun (2020).
7. Karimov, I. A. (2019). Ta'lim tizimida kommunikativ kompetensiya va innovatsiyalar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
8. Andreeva, N. P. (2018). Zamonaviy ta'limda kommunikativ yondashuvlar. Moskva: Universitet nashriyoti.
9. Bakhtiyorov, D. (2021). Ingliz tilida muloqot qilish va pedagogik kompetensiya. Toshkent: Ilm-fan.
10. Jumaniyozov, B. (2020). Ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi: nazariy va amaliy yondashuvlar. Toshkent: Science and Education.
11. Mirzayeva, G. (2019). Ingliz tili o'qituvchilarining muloqotda foydalanadigan metodlari. Toshkent: Ilm-fan.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA "TABIIY FANLAR NAZARIYASI
VA METODIKASI"NI O'RGANISH ORQALI TALABALARNI KASB TANLASH ISHIGA
TAYYORLASH

ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ К ВЫБОРУ ПРОФЕССИИ ЧЕРЕЗ ИЗУЧЕНИЕ
«ТЕОРИИ И МЕТОДОЛОГИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ
ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

PREPARING STUDENTS FOR CAREER CHOICE THROUGH THE STUDY OF
"THEORY AND METHODOLOGY OF NATURAL SCIENCES" USING INNOVATIVE
TECHNOLOGIES

Shodiyev Narziqu, Shodiyev Rustam

Shodiyev N.,
O'zbekiston – Finlandiya
pedagogika instituti,
pedagogika fanlari doktori,
professor,
nshadiev@gmail.com

Shadiyev R.,
Zhejiang universiteti, Xitoy,
pedagogika fanlari doktori,
professor,
rustamsh@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tabiiy fanlar nazariyasini innovatsion texnologiyalar vositasi o'rganish orqali talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash masalalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: O'yinlar, ularning turlari, interfaol ta'lim usullari, Sinkveyn, ikki qismli kundalik, Keys stadi, Klaster, tayyorlash.

Аннотация. В работе обсуждены вопросы подготовки студентов к работе по профориентации в процессе изучения теории естествознания средствами инновационной технологии.

Ключевые слова: игры, их типы, интерактивные методы Sinkveyn, Keys stadi, Klaster, подготовка.

Abstract. The paper discusses the issues of preparing students for career guidance work in the process of studying the theory of natural sciences using innovative technology.

Keywords: Games, their types, interactive methods, Cinquain, Case study, Cluster, preparation.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmonini ijrosini ta'minlash, Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz kasb tanlash konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish to'g'risida"gi Qarorida pedagogik profildagi oliy ta'lim muassasalari oldiga talabalarni - bo'lajak o'qituvchilarni kasb tanlash ishiga tizimli tayyorlash vazifasi yuklatilgan [1,2].

Shu munosabat bilan ushbu ishda "Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi" fanini innovatsion texnologiyalari vositasida o'rganish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kichik yoshdagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha imkoniyatlari muhokama qilindi.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda innovatsion texnologiyalarning tarkibiy qismi sifatida o'yin harqanday musobaqa yoki o'nay otganlar o'rtasida bellashuv deb qaralib, ularning harakatlari ma'lum shart qoidalar bilan chegaralangan va aniq natijalarga erishishga yo'naltirilganligi ta'qidangan [5,6].

O'yin o'quvchini bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda o'quvchi shaxsini rivojlantirishda dastlabki ilhomlantiruvchi vosita sifatida tarkibida mehnat mazmuni, xarakteri, quroli, u yoki bu kasb vakilining topog'onligi, xushyorligi, chaqqonligi, sog'lig'ga qo'yiladigan talablar bayon qilingan o'yinlarni tizimlashtirish va yangilarini yaratish joiz. Ushbu ishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi namuna bo'lishi talab etiladi.

“Kim eng ko‘p kasb nomini va mazmunini biladi?” o‘yini. Bu o‘yinda talabalar 5-6 tadan bo‘lib guruhlarga bo‘linadi. O‘qituvchi alfavit harf (tovush)larini doskaga birin-ketin yozadi va unli, undosh, jarangli va jarangsiz tovushlar harflariga kasblar nomlarini yozadilar. Masalan, unli tovush “a” asalarichi, agronom, “u” uzumchi, uchuvchi; undosh tovush “m” motorchi, maxsido‘z, misgar va h. k. [12,8-9 b].

Harflar xaltachasidagi harflardan kasblar nomlarini yozish o‘yini

Oldindan berilgan harflar orqali biron kasb nomini yozish o‘yini. Masalan, “O‘simliklar olami” bo‘limi bo‘lsa, o‘qituvchi qator so‘zlarni doskaga yozadi, talabalar esa tegishli kasblar nomlarini yozib beradilar. O‘qituvchi quyidagi harflarni yozib berdi deya: “s” dan 3ta, “p” dan 6ta, “b” dan 5ta, “o” dan 4tani yozdi. Javob: sabzavotchi usta, suvchi, slesar; ”p” paxtakor, pillakash, pillakalavalovchi, paxta tozalovchi, parrandachi operator; va h.k. O‘yinda har bir topilgan kasbga ochko berib boriladi.

5ta, 6ta, 7ta, 8ta harfdan tashkil topgan kasblar nomini yozish o‘yini

Alfavit harflari bo‘yicha ataladigan kasblarning nomlari va ularning inson hayotidagi ahamiyatini yozing.

Sabzavot ekinlariga taalluqli bo‘lgan o‘simliklardan qaysi birilari ushbu qatordan qoldirib ketilgan: karam, piyoz, rediska, baqlajon va h.k.

Yuqorida ta’kidlangandek o‘quv (didaktik) o‘yinlari kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning eng qadimiy vositalari hisoblanib, kattalar boy tajribasini yosh avlodga yetkazishning muhim uslubidir.

O‘yin texnologiyasi tuzilmasining muhim elementi bo‘lgan o‘yin vazifasi o‘quvchilarning fan (tabiatshunoslik)ga bo‘lgan qiziqishini o‘yg‘otadi.

Didaktik (o‘quv) o‘yin vazifalarini shakllantirish uchun o‘yin qoidalariga rioya qilish kerak. O‘yin qoidalari esa o‘quvchilar hatti-harakatini tashkil qiladi va boshqaradi. Ayni paytda o‘quvchilar shaxsilararo munosabatlari qoidalariga rioya qilishlari o‘yinning tarbiyaviy rolini kuchaytiradi.

Biz tadqiqot doirasida didaktik o‘yinlar vositasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarini, asosan, qishloq xo‘jalik tarmog‘ida band bo‘lgan ota-onalar mehnatiga mehr o‘yg‘otish, uni inson hayotidagi ahamiyatini tushuntirish, kasblarning turli-tuman shakllari bilan tanishtirishga harakat qildik. Jumladan, “Zanjir o‘yini o‘tkazishdan maqsad kichik yoshdagi o‘quvchilar guruhlari orasidagi harakatlarning muvofiqligi, psixologik mosligi, harakatlarning birligi, tezkor fikr va topqirlik kabi sifatlarni shakllantirishga hamda turli-tuman o‘simliklarni parvarish qilayotgan ota-onalarning sabzavotchi, usta bog‘bon (uzumchilik bo‘yicha), hamshira, g‘allakor, gulchi, o‘rmonchi kasblariga qiziqish o‘yg‘otishdan iborat.

O‘yinni o‘tkazishdan maqsad o‘quvchilar guruhlari orasidagi harakatlarning muvofiqligi, psixologik mosligi, harakatlarning birligi, tezkor fikr va topqirlik kabi sifatlarni shakllantirishga hamda turli xil o‘simliklar bilan ishlashga qaratilgan. Masalan, bunda akademik guruh jamoasi ikkiga bo‘linib, o‘ynashadi va o‘yin nihoyasida g‘olib guruh aniqlanadi. O‘yinni birinchi guruh boshlab beradi, u aytgan o‘simliklar nomlari bosh harflarda yoziladi:

Oq kishmish → Sho‘ra → Arpa → Archa → Akonit → Tariq → Qoqio‘t → Tog‘bur bida → Iloq → Qand lavlagi → Izen → Namatak → Kovrak → Karrak → Kandim → Marvarid gul → Lola qizg‘aldoq → Qo‘qongul... .

Bu o‘yinda birinchi guruh g‘olib bo‘ldi.

Mazkur o‘yinni jonzotlar misolida qaraymiz. O‘yinni birinchi guruh talabalari boshlab beradi.

Olmaxon → Naxang baliq → Qunduz → Zebra → Akula → Antilopa → Ayiq → Qo‘shoyoq → Qoplon → Norka → Arslon → Nutriya...

Bu o'yinda ikkinchi guruh talabalari g'olib bo'ldilar. Talabalar hayvonotchilik bo'yicha chorvachilik kompleksi mexanizatori, hayvonotchi, hayvonotchilik mutaxassisi, dengiz ovchisi kabi kasblar bilan tanishadilar hamda shunga o'xshash o'yinlarni kelgusi pedagogic faoliyatlarida amalga oshiradilar.

O'yinni qushlar nomida qaraymiz. Burgut → Tovuq → Qorakalxat → To'rg'ay → Yo'rg'a → Albatros → Semurg' → G'oz → Zarg'aldoq → Qiziltumshuq → Qaldirg'och → Chittak → Kaklik → Uzuntumshuq → Qarqara...

O'yinda birinchi guruh talabalari g'olib bo'ldi. Talabalar qushboz, qushbozchilik, parrandachi operator kasblar bilan tanishadilar.

Bargini ko'rsatib daraxt nomini aytish o'yini

Gerbariydagi o'simliklar barglarini birma-bir ko'rsatib, ularning nomlarini aytish. Bolalar bu barg qaysi o'simlik bargi?

Hayvonlar va qushlar ovozlari eshitib, ularning nomlarini aytib berish. Bu qaysi qush? Sayrashi, xatti-harakatlariga, yashash va ko'payishiga asoslanib, ularning nomlarini aytib berish.

Hashorat, qush, yirtqich, tuyoqli hayvonlar rasmlari asosida matn tuzing, diktant yozing. Qushlar bizning do'stimiz mavzusida insho yozing.

Yil fasllari. Taqvim. Tez javob topish o'yini

O'qituvchi: ekinlarni ekish va o'rib olish muddatlarni o'z ichiga olgan taqvim hisobini ayting?
Javob: O'quvchi: Yuz hisobi.

O'qituvchi: qushlarni kuzda issiq o'lkalarga qishlash uchun uchib ketishini va ko'klamda qaytib kelishini ifodalovchi taqvim qaysi?

O'quvchi: Qush qaytishi (Dolga hisobi).

Parrandaboqar, meteorolog kasblari.

O'qituvchi: yoz va qish fasllarining eng issiq va eng sovuq yiroq kunlik davrini o'zida mujassamlantirgan taqvim nomini ayting?

O'quvchi: chilla hisobi va h.k.

"Gap to'lg'azish o'yini"

O'qituvchi kasbga oid bitta so'zni doskaga yozadi. O'quvchilar bu so'zni yoniga so'zlar qo'shadilar. Birinchi qo'shilgan so'zga bir ochko, ikkinchisiga 2 ochko, uchincisiga 3 ochko qo'shadi va h.k. Gap to'lib, hech kim boshqa so'z qo'sha olmay qolganda, o'yin tugaydi. Masalan, o'qituvchi doskaga "Ota-ona" degan so'zni yozdi.

Bir o'quvchi "tavsiya qildi" degan so'zni qo'shib bir ochko oldi, ikkinchi o'quvchi "Bolani qiziqishi"ga so'zini qo'shib 2 ochko oldi, uchinchi o'quvchi "qobiliyati" ga so'zni qo'shib 3 ochko oldi. To'rtinchi o'quvchi "sog'lig'i"ga mos so'zni qo'shib 4 ochko oldi. Beshinchi o'quvchi "to'g'ri" qaror qildi (quvvatladi).

Shunday qilib, "Ota-ona" bolasining qiziqishi, qobiliyati va sog'lig'iga mos to'g'ri kasb tanlashini tavsiya qildi, degan kasb tanlash mazmunidagi gap hosil bo'ldi.

O'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirishda rolli o'yinlar sezilarli imkoniyatga ega. Masalan, "Sabzavot dukoni" tabiatshunoslik va matematika darslarida didaktik vazifalar bilan bir qatorda o'quvchilar aniq kasbiy faoliyatni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasb tanlash ishiga tayyorlashda ko'p sonli interfaol ta'lim metodlari orasidan "Avtomonitoring" (o'zimni-o'zim sinayman), ikki qismli kundalik, Sinkveyn, Keys stadi, Klaster usullaridan foydalandik. Jumladan, "Avtomonitoring" usulida mashg'ulot o'tkazish belgilangan maqsadga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

"Avtomonitoring" avvalo talabalarga tushuntiriladi va mashg'ulot maqsadi bayon qilinadi.

Akademik guruh talabalari kichik (4 tadan) guruhchalarga bo‘linadi. Guruhchalarga bo‘linganlardan tashqari 3 nafar talaba “Yordamchi” sifatida tanlab olinadi. Ular “Hakam” sifatida faoliyat ko‘rsatadilar.

Tanlangan yordamchilarning har biriga o‘quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish topshirig‘i beriladi. Masalan, birinchi “Yordamchi” ga “Madaniy o‘simliklar”, ikkinchiga “Manzarali o‘simliklar” va uchinchisiga “Yovvoyi o‘t o‘simliklar” iboralari. Vaqt (3 yoki 4 minut) belgilanadi hamda o‘simlikshunoslikning yuqorida ko‘rsatilgan tarmoqlari bilan bog‘liq kasblarning nomlarini mos kelish-kelmasligi baholanadi. To‘g‘ri javoblarning har biri “2” ball, to‘liqsiz javob uchun “1” ball beriladi va qoniqarsiz javob uchun “0” ball bilan baholanadi .

“Ikki qismlik kundalik” interfaol usulidan foydalanib o‘qituvchi talabalarga ”Yer”, “Suv”, “Tuproq” ga bag‘ishlab aytilgan xalqimiz maqollarini o‘rganib, ulardan birini “Ikki qismlik kundalik” qismidan foydalangan holda kundalikni birinchi qismiga yozish topshiriqini beradi.

Talabalar taqdim etilayotgan maqollar mazmunini chuqur anglab olganlaridan so‘ng ulardan unga izoh (sharh) yozishlari va u qaysi kasb bilan, bog‘liqligini ko‘rsatishi talab etiladi. Masalan, “Yer ichida oltin bor, qaziyversang toparsan” xalq maqoli [7] ushbu ta’lim usulida quyidagi ko‘rinishni oladi.

Mavzu		Maqol mazmuni	Maqol sharxi	Maqol mazmuni bilan yashirin ifodalangan kasblar
Oliy ta’lim	Boshlang‘ich ta’lim			
Yerning geografik qobig‘i	Foydali qazilmalar (3-sinf)	Yer ichida oltin bor, qaziyversang toparsan	O‘zbekiston foydali qazilmalarga boy mamlakat. Yer ostidan topilgan qazilmalarni sanab chiqish mushkul. Birgina viloyatimizda topilgan konlarni sanab chiqish o‘yini (Ingichka. Urqut, volfram., Zarmiton oltin koni, Omonquton, Nurota marmar konlari.	Kon kovlavchi ishchi, neft va gazli quduqdan qazib chiqarish. Neft va gaz quduqlarini ekspluatatsiya qilish operatori, burg‘ilovchi, bir chumichli ekskavator mashinisti, portlatish ishlari mutaxassisi.
Gidrosfera.	Suv. Tabiatda suv (3-sinf).	Suvsiz yer mozor, suvli yer gulzor.	Yurtimizga kirib kelayotgan suvning 80% ga yaqini qo‘shni davlatlar hududida shakllanishi, yer yuzida global iqlim o‘zgarishi tufayli suv tejoychi IT- texnologiyalarga ehtiyoj kuchayib bormoqda (onlayn).	Suvchi, mirob, gidrotexnik, meliorator, irrigator, gulchi.

“Sinkveyn metodi”

Sinkveyn fransuzcha soʻz boʻlib “besh qator” maʼnosini anglatib u maʼlumotlarni sintezlash (alohida maʼlumotlar asosida yaxlit gʻoyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz sher boʻlib, u asosida oʻrganilayotgan mavzu (tushuncha, xodisa, voqea)larga oid maʼlumotlar toʻplanadi; har bir talaba ushbu maʼlumotlar yigʻindisini (qofiyasiz sheʼrni) oʻz soʻzlari bilan turli variant yoki qarashlar orqali ifodalash imkoniga ega boʻladi.

Sinkveyn tuzish murakkab jarayon boʻlib, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi. U besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi, yaʼni:

-Mavzu bir soʻz bilan ifodalanadi (ot tanlanadi);

-Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat tanlanadi);

-Mavzu doirasida tashkil etiladigan xatti-harakat uchta soʻz bilan ifodalanadi (3 ta feʼl yoki ravishdosh yoziladi);

-Mavzu mohiyatini takrorlovchi, maʼnosi unga yaqin boʻlgan bitta gap yoziladi (Mavzuga doir sinonimlar asosida gap yoziladi).

“Sinkveyn” strategiyasini “Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi” fani boʻyicha “Gidrosfera” (suv) mavzusini oʻrganishda qoʻllashni keltiramiz.

Akademik guruh talabalari uch guruhchaga boʻlinib Sinkveyn tuzganlaridan keyin ularning har biri muhokama qilinib, mukammal Sinkveyn shakllangandan keyin talabalar suvchi, suv tashuvchi, suv xoʻjaligi xodimlari, mirob, gidrotexnik, irrigator, axborot kommunikatsion va raqamli texnologiyalarga asoslangan Smart water onlayn tizimi operatori va b.q. ahamiyati, mexnat mazmuni, xarakteri bilan tanishtiriladi.

1-qator. Suv (1 ta ot).

2-qator tiniq, xidsiz (2 ta sifat).

3-qator. Eritadi, shoʻrlanadi, shakllanadi (3-qator feʼl).

4-qator. Bugʻlanish, qaynash, muzlash, siqilish xususiyatiga ega.

5-qator. Kishilik jamiyatining bebaho neʼmati hisoblangan suv aholini oʻsishi, ishlab chiqarishni keskin rivojlanishi tufayli unga boʻlgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda, dunyoning 30 ga yaqin mamlakatida 2030-2035 yillarga kelib suv taxchilligini kuzatish ehtimoli mavjud, suv isteʼmolini tejash, uni ifloslanishini oldini olish dolzarb masala boʻlib qolmoqda (1 ta gap).

Ushbu mavzu talabalarning kelgusi pedagogik faoliyati uchun muhim boʻlgan 3-sinf tabiatshunoslik darsuda oʻrganiladigan “Suv. Tabiatda suv. Suvning uch holati” mavzusi bilan bogʻlab oʻrgatilsa oʻquvchilarni kasblar olami bilan tanishtirishiga ijobiy taʼsir koʻrsatishini takidlash joiz.

“Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi” fani “Oʻzbekistonning oʻsimlik qoplami” savoli misolida [9] “Kungaboqar” osimligi uchun tuzilgan “Sinkveyn”ni keltiramiz.

1-qator. Kungaboqar (1 ta ot).

2-qator. Serbarg, yashil (2 ta sifat).

3-qator. Gullaydi, hosil beradi, urugʻi qayta ishlanadi (3 ta feʼl).

4-qator. Oziq-ovqat sanoatida muhim xomashyo 4 ta soʻz).

5-qator. Madaniy oʻsimlik boʻlib, kun boyi Quyoshni kuzatadi, kishi qalbini zavqlantiradi, maʼnaviyatini kuchaytiradi (1 ta gap).

Mazkur savol boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisini 4-sinfda oʻrganiladigan “Tabiatshunoslik” fani dasturida bayon qilingan “Dasht aholisining mashgʻuloti” mavzusida koʻrsatilgan “Kungaboqar” oʻsimligini [4] kichik yoshdagi bolalarga chuqur oʻzgarishga imkon beradi va oʻquvchilarga tanish


bo'lgan g'allakor, sabzavotchi, polizchi, traktorchi machinist, kombaynchi, moy va shakar zavodi xodimlari mehnati haqida ma'lumotlarni taqdim qiladi.

Keyingi yillarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ta'lim muammolarining yechimlarini tahlil qilishga; talaba faoliyatini tahlil qilish va baholash imkoniyatini berishga yo'naltirilgan keyslar keng qo'llanilmoqda.

“Keys stadi” – inglizcha so'z bo'lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stady” – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan uslub hisoblanadi.

Keys bayoni: ma'lumki, qadim zamonlardan buyon xalqimizning tobora o'sib borayotgan ehtiyojini “Yopiq urug'li o'simliklar” qondirib kelmoqda.


Keys topshirig'i: yurtdoshlarimiz iste'mol qilib kelayotgan yopiq urug'li o'simliklarning [9] ishlatilayotgan sohalarini hamda mazkur sohalarda mehnat qilayotgan insonlarning kasblarini “Baliq skeleti” organayzerida (1-2-rasm) ifodalang.



Keys yechimi


1-rasm. Yopiq urug'li o'simliklarni qo'llanish sohalari

“Klaster” so'zi toifalarga bo'lish, turkumlarga ajratish ma'nolarini anglatadi.



2-rasm. Yopiq urug'li o'simliklar bo'limida band bo'lgan kasblar.

Klaster metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda talabalar guruhlariga bo'linadilar va ularga belgilangan vaqt ichida mavzu bo'yicha qanday tayanch tushuncha va iboralarni o'zlashtirgan bo'lsalar, ularni qog'ozga yozish vazifasi topshiriladi. Vazifani bajarish jarayonida fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riligiga ahamiyat bermaslik, nimani o'ylagan bo'lsa, shuni yozib borish talab etiladi. Yozuvning texnik (orfografik, mantiqiy va hokazo)juhatlariga e'tibor bermaslik aytib o'tiladi. Fikrlar tugallangandan so'ng guruh a'zolari tushunchalarni mantiqiy jihatdan bir-biriga bog'lab chiqadilar (3-rasm).



3-

rasm. Chorvachilik klasteri.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida mehnatga muhabbat va unga vijdoniy munosabatda bo'lishni, kasbga qiziqishni shakllantirishni samarasi boshlang'ich sinf o'qituvchisining ushbu ishga qay darajada tayorgarligiga bog'liq.

Talabalarning - bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi" fanining "Hayvonot olamining xilma-xilligi va uning tabiatda tutgan o'rni" mavzusi bo'yicha "Sut emizuvchi", "Qoramolchilik", "Qo'ychilik", "Yilqichilik")lar hamda "Chorvachilik"ni tarkibiy qismi bo'lgan "Parrandachilik"ning [10] har biriga klasterchalar tuzish mazkur mavzular mazmunini chuqur o'rganishga va kelgusi pedagogik faoliyatlarida o'quvchilarni kasblar olamiga qiziqishlarini shakllantirishga imkon yaratadi (3 -rasm).

Jumladan, akademik guruh talabarlari 4ta guruhchaga bo'linib xonaki parrandalarning "Xonaki tovuqlar", "Xonaki g'ozlar", "Xonaki o'rdaklar", "Xonaki kurkalar"ga klasterchalar tuzdilar. Xonaki tovuq zotlari tuxum yo'nalishi, tuxum-go'sht yo'nalishi va go'sht yo'nalishlarida oziq-ovqat

mahsulotini beradi. O‘z navbatida “Xonaki tovuqlar” klasterchasi “Parrandachilik fabrikasi (nasl beruvchi va tuxum qiluvchi, jo‘ja ochirish uchun inkubatsion sexlari va go‘sh t uchun boqiladigan yoki jo‘ja (broyler) o‘stiradigan hamda nasl beruvchi (erkak va urg‘ochi) parrandalari bo‘lgan naslchilik zavodi kabi tarmoqlarga bo‘linadi.

Hozirgi zamon parrandachilik komplekslarida barcha ishlab chiqarish jarayonlari mexanizatsiyalashgan bo‘lib, uni boshqarish maxsus boshqarish pulti orqali amalga oshiriladi.

Shu bois ishlab chiqarish jarayonlari operatorlik xarakteriga ega bo‘lib ularda parranda operator, inkubatsiya sexi operatori, jo‘jalarni go‘sh tga boqish (broyler) operatori hamda veterinar-sanitar, seleksioner bilan bir qatorda monter ixtisosligiga ega bo‘lgan chorvachilik komplekslari mexanizatori, omuxta em tayorlash va uni dozalash bo‘yicha operator va b.q. mehnati bilan xalqimizni farovon yashashiga xizmat qiladi.

Shuningdek, “Qo‘ychilik” mavzusini junining sifatiga ko‘ra o‘rganganda talabalar 3ta guruhiga bo‘linib “Mayin junli”, ”Chala mayin junli” va “Dag‘al junli” (dag‘al qil, tivit va har xil junlar) qo‘ylar zotlarining klasterlarini tuzadilar. “Mayin junli” tivitdan nafis gazmollar to‘qiladi, chiroyli liboslar tikiladi. Yengil sanoatning mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ham mexanizatsiyalashgan bo‘lib ularda bu ishlarni to‘qish bo‘yicha master yordamchisi, yigirish bo‘yicha master yordamchisi”, gazmollar pardozlovchisi, tikuvchi-matoristka kabi kasblar sohiblari bajaradilar.

Talabalar “Dag‘al junli qo‘ylar” zotlari klasterchasini tuzadilar. Ular dag‘al junli qo‘ylar o‘z navbatida po‘stinbop terili, qorako‘l terili, qo‘sh t-yog‘ va go‘sh t-junli zotli tarmoqlarga ajratishi barobarida xom terilarni oshlash, pishirish orqali charmdan tayyor mahsulot tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan kasb va kosib (ko‘nchi, yakka tartibda poyabzal tikish bo‘yicha kosib, poyabzalning ustki qismini tayyorlovchi, qolipga tortuvchi, po‘stindo‘z, etikdo‘z, telpakdo‘z va h.k.)lar bilan tanishish uchun topshiriqlar oladilar.

Jahonga mashhur qorako‘l terilaridan esa bosh kiyimlar, yoqalar, po‘stinlar tayyorlanadi.

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib OTMning “Boshlang‘ich ta‘lim, sport va tarbiya” ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan ”Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi” fanining boshqa mavzu va savollari ham ta‘limning kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganlik prinsipi asosida [11] o‘rganish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash bo‘yicha keng imkoniyatlar mavjudligini ta’kidlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2019 yil 7 sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz kasb tanlash konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish to‘g‘risida”gi Qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2019 yil 31 dekabr.
3. Grigoryans A.G. va b.q. Tabiatshunoslik. Darslik. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot. 2004.- 87 b.
4. Grigoryans A.G. va b.q. Tabiatshunoslik. Darslik. -T.: Cho‘lpon nashriyoti. 2001. -240 b.
5. Zagrekova L.V., Nikolina V.V. Teoriya i texnologiya obuchyeniya. Uchebnoe posobiye. – M.: Visshaya shkola, 2004.-156 c.
6. Kukushin V.S. Sovremennaya pedagogicheskaya texnologiya. Nachalnaya shkola. Posobiye dlya uchitelya. - Rostov na Donu, “Feniks”, 2004.-384 c.
7. Mirzayev T., Musoqulov A. O‘zbek xalq maqollari. – T.: “Sharq”, 2005.-512 b.
8. Muxina M.B. Igroviye texnologii mladshix shkolnikov. Metodicheskoye posobiye. - Sochi, 2011.- 35 c.



9. "Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi" fan dasturi. Tuzuvchi: Xudoyberdiyeva Sh.M. – Samarqand, 2024. - 10 b.
10. Sharipova D. va b.q. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. Darslik. - T.: O'qituvchi, 2018.- 458 b.
11. Shodiyev N. va b.q. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik. O'quv-uslubiy qo'llanma. - Samarqand: SamDU, 2019. -68 b.
12. Shodiyev N. va b.q. Uzlüksiz kasb-hunarga yo'naltirish. Uslubiy qo'llanma. - T.: "Qumar media", 2022. -68 b.

METHODS OF EFFECTIVE USE OF DIDACTIC GAMES IN THE TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS

МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР В ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA DIDAKTIK O'YINLARNI SAMARALI ISHLATISH USULLARI

Shodiyev Fakhridin Teshaeovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda didaktik o'yinlardan samarali foydalanish bo'yicha g'oyalar va fikrlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, didaktik o'yinlar, rivojlantiruvchi maqsad, ijodkorlik, yosh avlod, kelajakdagi o'qituvchi, samaradorlik, grammatik konsepsiya.

Аннотация. В этой статье рассматриваются идеи и мнения о эффективном использовании дидактических игр в подготовке будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: образование, воспитание, дидактические игры, развивающая цель, креативность, молодое поколение, будущий учитель, эффективность, грамматическая концепция.

Abstract. This article explains the ideas and opinions on the effective use of didactic games in the training of future primary school teachers.

Keywords: education, upbringing, didactic games, developmental goal, creativity, young generation, future teacher, effectiveness, grammatical concept.

Shodiyev F.T.,
Uzbek-Finnish
Pedagogical Institute,
PhD in Philology,
shodiyevbt@gmail.com

Life is a school, a classroom of perfection. And the lesson is the inner content of didactic communication, the luminous wisdom of life. In this sense, the effectiveness of the lesson depends on the teacher's creative preparation for it. When preparing for the lesson, the teacher must first of all set the goal of the lesson as a criterion. The educational, educational and developmental goals of the lesson are clear, and if the ways to implement them in a harmonious manner are not determined, meaningful results cannot be achieved. Therefore, future teachers must remember that the correct choice of the method of the lesson requires thorough theoretical knowledge and pedagogical skills from each young teacher.

Also, if the new knowledge is based on a more problem-based teaching method, tasks of a partially recalling nature are also used to transform the acquired knowledge into skills and qualifications. A creative teacher with his own style does not build the lesson on the basis of a textbook, but creates it. Because in the process of preparing for the lesson, a teacher who loves his field must also thoroughly familiarize himself with the scientific and methodological literature related to the subject being studied. As the great enlightener Sufi Olloyor said: "Do your work thoroughly, do not remain raw" [7.90]. Indeed, in primary education, the main lessons are conducted through pedagogical games, that is, didactic games.

After all, one of the main types of life of the younger generation is playing. For a child, playing is reality. Playing is a necessary need of a growing child's organism, and through it, organizational skills are developed in children. But playing is games in any conditions. There are also games that are of great importance in educating children in independence, justice, and a sense of helping each other.

Didactic game is an educational method aimed at achieving specific educational goals, that is, mastering, consolidating and deepening the studied educational material. Each didactic game has a specific task as its goal [2.20].

One of the best didactic games is designed as a way of independent activity, which encourages the child to acquire knowledge and master skills. Therefore, the child should always be engaged in play, even when he is busy with important work. If the game is combined with the organization and formation of children's life and activities, it acquires a very important educational value.

Didactic games develop children's mental abilities, sensory organs, thinking, teach children to be attentive and independent, and have a positive effect on mastering lessons. Only a didactic game should be in its essence a game and not resemble a lesson. Only then will didactic games be interesting and help to cultivate a sense of joy and cheerfulness in children [3.18]. The teacher introduces children to the necessary things for the game in accordance with the rules. The teacher shows the children objects and games, explains their role and how to interact with them. However, such a brief explanation given before the game is not always understandable to all children. Therefore, it is advisable to familiarize children with the content of the game and the resources necessary for the game much earlier.

Before starting the game, the teacher should pay attention not only to the existing knowledge of the children, but also to the selection of games that will help to consolidate the acquired knowledge and arm them with new knowledge. The creativity of the teacher and educator is of great importance in this.

The correctness of the selection, holding and organization of didactic games is a decisive factor in the success or failure of their impact. Because even the wrong method of holding a didactic game turns it into a dry exercise.

One of the most important conditions for the successful organization of a didactic game is the active involvement and interest of children in the game being played. For this, the teacher must subordinate all organizational measures to this. It should not be forgotten that children's interest in the game and other didactic tasks are the teacher's first assistants [1.10].

Didactic games differ from each other, they are often held in a competitive manner.

The educational aspect of each game is important. Because didactic games teach perception, patience, perseverance, and develop the skills to quickly and correctly solve a problem in their place. That is why, if children are taught various basic knowledge from a young age, in various ways, especially through games, then the sources are learned much easier and faster. They are remembered for a long time. Children often try to memorize grammatical rules and rules superficially. Using various grammatical games in the lesson process saves teachers from such a situation. Future teachers should be well aware that on the basis of familiarization with the phonetic composition of words, syllable division, and spelling rules for simple sentences, students are formed with literary language and skills, which are considered the main elements of the language, and a sense of conscious attitude to sound and speech are cultivated. 1st grade students learn to distinguish one sentence from another through oral and written speech. They distinguish whether the subject is the answer to the questions who? or what?, and learn to put a period at the end of a sentence.

Below, for this purpose, we present the structure of several games that can be used to directly teach students grammatical concepts and that we have used in the lesson.

The game “Building sentences from words”.

The purpose of the game: to strengthen students' ability to build sentences.

Materials: notebook, pen, cards with words written on them are given.

The course of the game: It is necessary to write down the words written on the cards and build sentences based on them. For this purpose, five students are brought to the board. They take the following

cards: mom, went, to the factory. Children, came, to school. Here, class, ours, rang, the bell, etc. Students must build sentences. Which student quickly and correctly builds a sentence from the given words and indicates the number of words in the sentence with a line on the board, this student is declared the winner of the game.

From the five students who come to the board, the first, second, and third place winners are determined. The game lasts 5-6 minutes. The game is used to reinforce the lesson during the review of the previous ones.

“Who can find it faster?” game.

The purpose of the game: to determine the syllable of the words in the text.

Manuals: Sample texts written on a mobile board.

Game progress: the teacher writes a small text on a topic on the board. Students read the text and determine how many sentences or words it contains. The student who answers both tasks correctly when the teacher asks is considered the winner of the game. This game can be played orally or in writing. This game takes 8-10 minutes.

In conclusion, the effective use of interesting didactic games appropriate to the topics in the lesson process to improve students' subject-related competencies sharpens thinking, strengthens cooperation, increases resourcefulness, increases agility, and most importantly, leads to good results. In this sense, the original meaning of the ancient word game is the education of the mind [8.72]. Therefore, future teachers must master the fact that the content of didactic games is one of the cornerstones of lesson effectiveness. As Allama J. Rumi said: “Action is understood through action, knowledge through knowledge, meaning through meaning, and form through form” [9.213]. In primary education, the main lessons acquire a deep meaning in the performance of didactic games and reach the young student's warm heart and mind more vividly.

References

1. Rozikov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Didactics of the native language. –T.: Yangi asr avlody, 2005.
2. Methodology of general education subjects. Methodical journal. Issue 10. –T.:2017.
3. Makhmatmurodov Sh., Ziyodullayev Kh., Mukhtorov B. “Strengthening students' knowledge through didactic games”. – Samarkand, 1993.
4. Sirojiddinov F. “Grammar riddles”. –T.: “Teacher” 1995.
5. Usmonova E. “How to form independent thinking in students?” –Tashkent, 2000.
6. Gafforova T. Modern pedagogical technologies in primary education. Teacher's book. –T.: “Tafakkur”, 2011.
7. Olloyor S. Sabot ul-ojizin. –Tashkent: “Mehnat”, 1991.
8. Shodiev F. Interpretation of monosyllabic words and their derivatives // Journal of Uzbek language and literature, –T.: “Fan”, 1998, issue 3.
9. Rumi J. Wisdom. –T.: “Sharq”, 2008.

BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ У УЧАЩИХСЯ НАВЫКОВ XXI ВЕКА НА УРОКАХ БИОЛОГИИ****METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' XXI CENTURY SKILLS IN BIOLOGY LESSONS**

Suyunova Guljahon Uchqunovna

Annotatsiya. Maqolada biologiya darslarida o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy nazariy asoslar keltirib o'tilgan. Shuningdek zamonaviy biologiya darslarida qo'llaniladigan metodlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar aytib o'tilgan. O'quvchilarda tadqiqotchilik qobiliyati va tadqiqoning amaliy kuzaib natijaga erishish usullari aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *biologiya, tadqiqotga asoslangan ta'lim, hamkorlikda o'qitish yondashuvlari, Raqamli vositalar va texnologiyalar, ajoyib kaktuslar, hamkorlikda o'qitish.*

Аннотация. В статье представлены научно-теоретические основы формирования у учащихся навыков XXI века на уроках биологии. В нем также приводятся рекомендации по использованию методов, применяемых на современных уроках биологии. Студентам преподают навыки исследовательской работы и методы достижения практических результатов исследований.

Ключевые слова: *Биология, исследовательское обучение, методы совместного обучения, цифровые инструменты и технологии, удивительные кактусы, совместное обучение.*

Abstract. The article presents scientific theoretical foundations for the formation of students' 21st century skills in biology lessons. It also provides guidelines for the use of methods used in modern biology lessons. It describes the development of research skills in students and methods for achieving practical results from research.

Keywords: *Biology, research-based education, collaborative learning approaches, Digital tools and technologies, amazing cacti, collaborative learning.*

*Suyunova G.U.,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti tadqiqotchisi,
suyunovaguljahon@gmail.ru*

Kirish. Zamonaviy o'qitish tizimi oldidagi muhim vazifa nafaqat insoniyat aniqlagan bilimlarni o'zlashtirish, balki jamiyat hal etishi lozim muammolar va ushbu muammolar yechimida o'quvchining ishtirokini nazarda tutgan holda ta'limni tashkil etishdan iborat. Bunga aynan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kelgusida kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limni yo'lga qo'yish orqali erishiladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi,

jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.[3]

Metodologiya. XXI asr ko'nikmalarini biologiya darslarida shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon o'quvchilarni nafaqat biologiya fani bo'yicha bilimlar bilan qurollantiradi, balki ularni kelajakdagi hayotiy va kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Quyida biologiya darslarida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari va usullari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

1. Zamonaviy o'qitish metodologiyalari

Tadqiqotga asoslangan ta'lim (Inquiry-Based Learning)

Tadqiqotga asoslangan ta'lim o'quvchi-markazli yondashuv bo'lib, u savol berish, tajribalar o'tkazish va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarishga e'tibor qaratadi. Bu metod o'quvchilarni ilmiy tadqiqot jarayoniga jalb qiladi, bu esa tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. O'quvchilar gipotezalar tuzish, ma'lumotlarni to'plash va natijalarni tahlil qilish orqali ilmiy tushunchalarni chuqurroq tushunishadi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradilar.

Muammoga asoslangan ta'lim (Problem-Based Learning - PBL)

PBL o'quvchilarga real dunyo muammolarini taqdim etish va ularni hal qilish uchun o'z bilimlarini va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini qo'llashni talab qiladi. Bu usul o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, hamkorlikda ishlashga va o'z-o'zini boshqarishga undaydi. PBL biologiya ta'limida ayniqsa samarali bo'lib, o'quvchilar murakkab biologik tizimlar va jarayonlarni o'rganishlari mumkin.

2. Hamkorlikda o'qitish yondashuvlari

Jamoaga asoslangan o'qitish (Team-Based Learning - TBL)

TBL - bu kichik guruhli o'qitishning tuzilgan shakli bo'lib, u o'quvchilarning darsdan tashqari tayyorgarligini va sinf ichida bilimlarni qo'llashni ta'kidlaydi. Bu jarayon individual va jamoaviy tayyorgarlik testlarini va tanqidiy fikrlash hamda muammolarni hal qilishni talab qiladigan amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. TBL biologiya kurslarida o'quvchilarning ishtiroki va o'qish natijalarini yaxshilashi ko'rsatilgan.

Hamkorlikda o'qitish (Cooperative Learning)

Hamkorlikda o'qitish o'quvchilarning umumiy o'quv maqsadlariga erishish uchun kichik guruhlarda ishlashini o'z ichiga oladi. Bu yondashuv ijtimoiy o'zaro bog'liqlik nazariyasiga asoslangan bo'lib, unda o'quvchilarning muvaffaqiyati ularning tengdoshlarining muvaffaqiyatiga bog'liq bo'ladi. U o'quvchilar bilimlarni almashishi, topilmalarni muhokama qilishi va bir-birlarining o'rganishini qo'llab-quvvatlaydigan hamkorlik muhitini yaratadi.

3. Raqamli vositalar va texnologiyalar

Virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt (AI)

VR va AI texnologiyalari biologiya ta'limida o'quvchilarga murakkab biologik hodisalarni nazorat qilinadigan muhitda o'rganish imkonini beradigan immersiv o'quv tajribalarini yaratishi mumkin. Bu vositalar o'quvchilarga mavhum tushunchalarni vizualizatsiya qilish va tanqidiy tahlil qilishga yordam beradi.

Raqamli o'yinlarga asoslangan ta'lim (Digital Game-Based Learning - DGBL)

Biologiya ta'limida raqamli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni fan bilan qiziqarli tarzda bog'lash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanadi. Bu yondashuv o'yinlashtirish elementlarini kiritish orqali o'qitishni yanada qiziqarli va samarali qilishi mumkin.

4. Baholash usullari

Rol o'yinlari va guruh mashqlari

Bu usullar muzokaralar, ishontirish va jamoaviy ish kabi interaktiv ko'nikmalarni baholash uchun ishlatiladi. Ular o'quvchilarga o'z ko'nikmalarini namoyish etish uchun realistik kontekstni ta'minlaydi va ayniqsa muloqot va hamkorlikni baholashda foydalidir.

Vaziyatga asoslangan muhokama testlari

Bu testlar o'quvchilarga realistik stsenariylarni taqdim etadi va ulardan eng samarali javoblarni tanlashni so'raydi. Bu usul kamroq xarajatli va katta guruhlariga qo'llanilishi mumkin, bu esa ta'lim muhitida amaliy variant hisoblanadi.

Raqamli vositalar va texnologiyalar

Raqamli platformalar va vositalardan foydalanish XXI asr ko'nikmalarini baholashni yaxshilashi mumkin. Masalan, onlayn simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar o'quvchilarga biologik tushunchalarni tushunish va qo'llashni namoyish etish uchun interaktiv muhitni ta'minlashi mumkin.[2]

Tadqiqotchilik loyihalari. Tadqiqotchilik loyihalarini o'quvchining tadqiqotchilik faoliyatining eng yuqori bosqichi deb hisoblash mumkin. Nazariy – ekspress tadqiqotlar, tajribalar o'tkazish usullarini egallagan o'quvchilar maxsus tanlab olingan metodikalar bo'yicha tadqiqotchilik loyihalarini olib boradilar. 5 – 7– sinfdan boshlab o'quvchilarda tadqiqotchilikka qiziqishning namoyon bo'lishi, tadqiqot o'tkazishning bir qancha bosqichlarini o'tishi kelgusida ularning ilmiy jamiyat sari qo'ygan birinchi qadami bo'ladi. Masalan:

1. Ajoyib kaktuslar.
2. Aloe - derazamdagi yashil doktor.
3. Atirgul – gullar malikasi.
4. Barchaga tanish archa.
5. Doimiy yashil libos siri.
6. Fitonsidlarning mikroorganizmlarga ta'siri.
7. Fotosintez – tabiat jumbog'i.
8. Karam – poliz malikasi.
9. Karam – sabzavotlar ichida eng birinchi.
10. Maktab hovlisidagi fitonsidli o'simliklar haqida.
11. O'simliklar hayotida xazonrezgilikning ahamiyati.

O'quv faniga qiziqishning ortishi, adabiyotlar bilan ishlash va tajribalar qo'yish ko'nikmalarining ortishi, darsdan tashqari vaqtda qo'shimcha shugullanish istagining 'aydo bo'lishi, mustaqil ishlashga intilishi, o'zining "kashfiyotlari" va muvaffaqiyatlari bilan o'rtoqlashishi – bularning barchasi o'quvchilar olib borgan tadqiqotchilik faoliyatidan kutilgan va muhim ahamiyatli natijalardir. Tadqiqotchilik ishlari o'quvchilarda yuksak ijodiy faollikka, mustaqil fikr yuritishga erishishlari uchun yordam beradi. O'quvchilarning ilmiy - tadqiqot ishlarini tashkil etishdan kutiladigan natijalar: - o'quvchilar o'quv dasturida belgilan doiradan chiquvchi bilimlarga ega bo'ladilar; - ilmiy - tadqiqot usullari va metodlarini egallaydilar; - zarur bilimlarni topish uchun mustaqil ravishda qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashni o'rganadilar; - kerakli ma'lumotlarni tanlash, saralash ko'nikmasini egallaydilar; - tushuncha va hodisalarni mustaqil taqqoslashga o'rganadilar; - o'zining shaxsiy fikrini bildirish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini aniq va dadil ifoda etish malakasiga ega bo'ladilar.

2. Tajriba – sinov ishlari. Tajribalar o'tkazish o'quvchilardan ma'lum bilimga ega bo'lishlikni, shu bilimlarini amaliyotga qo'llay olish mahoratini, sabr – toqat bilan ish olib borish kabi jihatlarining bo'lishini talab etadi. Tajribalar o'tkazish davomida o'quvchilar mustaqil faoliyat olib borish ko'nikmasini hosil qiladilar. tajriba ishlari davomida o'quvchilarda ilmiy – tadqiqot ishlariga qiziqish uyg'onadi. Tajribalar ishlarining maqsadi, mohiyati, rejasi, o'tkazish tartibi, uning natijalari maxsus daftarga qayd etib boriladi.

3. Mustaqil kuzatishlar olib borish. Bu usul o'quvchilarning bilishga qiziqishini shakllantiradi, bilimni chuqurlashiradi, faolligini oshiradi hamda mustaqil ishlashga o'rgatadi. Mustaqil kuzatishlar orqali o'quvchilar o'simliklarning tuzilishini, o'sishini, rivojlanishini, ularda sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlarni, o'simliklarga ekologik omillarning ta'sirini o'rganishlari mumkin. Mustaqil kuzatishlar tabiatda, maktabning o'quvtajriba maydonida, tirik tabiat burchagida olib boriladi. Kuzatish ishlarining mazmuni, maqsadi, olib borish tartibi, natijalari maxsus daftarga qayd etib boriladi.

4. Amaliy ishlar. O'quv yili mobaynida o'rganladigan materiallar bilan bo'g'liq bolib, o'simliklarni ekish, parvarishlash, ko'paytirish, maktab hovlisini ko'kalamzorlashtirish kabi ishlarni olib borishdan iborat bo'ladi.

5. Ko'rgazmalar, mavzuiy kechalar, musobaqalar tashkil etish. Bunday ishlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, mustaqil ravishda qo'shimcha bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojlarini va qiziqishlarini rivojlantiradi.

Masalan, o'quvchilar o'zlari uylarida parvarish qilgan xona o'simliklarining ko'rgazmasini tashkil eish mumkin. Bunda o'quvchilar o'zlari o'stirgan o'simlikning nomi, vatani, sistematikada tutgan o'rni, parvarish qilish qoidalari, o'simlikning ahamiyati kabi ma'lumotlar bilan o'rtoqlashadilar. Shunday qilib, botanika fanidan darsdan tashqari o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish asosida bilish mustaqilligini shakllantirish katta imkoniyatlarga egadir. Loyihalash metodi. O'quvchilarga mustaqil va xohishlariga ko'ra, xar hil manbaalardan zarur bo'lgan bilimlarni olish; o'zlashtirgan bilimlariga tayanib ilmiy va amaliy masalalar yechishga o'rgatadi. Guruhlarda ishlab kommunikativ ko'nikmalarini shakllantiradi, tadqiqot qila olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Muammolarni aniqlash, kerakli ma'lumotlarni to'plash, kuzatish, tajribalar o'tkazish, tahlil qilish umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilarni tizimli fikrlashga o'rgatadi.[4]

1. Diqqat markazida – o'quvchi, uning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish.

2. O'quvchining ta'lim olishga motivatsiyasini oshirish uchun ta'lim jarayoni o'quv predmetiga asoslanmasdan, balki o'quv faoliyatiga asoslanadi.

3. Har bir o'quvchining loyihadagi individual ish tempi ularni o'z rivojlanish darajasini oshishini ta'minlaydi.

4. O'quv loyihalarini ishlab chiqishdagi umumiy yondashuv O'quvchining asosiy fiziologik va ruhiy funksialarini uyg'unlashgan holda rivojlanishini ta'minlaydi.

5. Chuqur anglagan holda bazaviy bilimlarni o'zlashtirish ularni xar hil vaziyatlarda universal tarzda foydalanish imkoniyatini beradi. O'qituvchi va o'quvchilarning tizimli faoliyati. O'qituvchi va o'quvchilarning tizimli faoliyatini aniqlashda loyiha ishlanmasining bosqichlari oldindan belgilab olish muhim.

O'qituvchi va o'quvchilarning tizimli faoliyati. O'qituvchi va o'quvchilarning tizimli faoliyatini aniqlashda loyiha ishlanmasining bosqichlari oldindan belgilab olish muhim. Hozirgi vaqtda loyiha ishlanmasining quyidagi bosqichlari shakllangan: Loyihaviy topshiriqlar ishlanmasi, loyihaning ishlanmasi, natijalarni rasmiylashtirish, ommaviy taqdimot, refleksiya.[5]

Bosqich	O'qituvchining faolligi	O'quvchining faolligi
Loyiha masalasining ishlanmasi		
1.1. Loyiha mavzusini tanlash.	O'qituvchi mavzularni tanlab oladi va o'quvchilarga taklif etadi	O'quvchilar muhokama qilishadi va bitta yechimga kelishadi.
	O'qituvchi o'quvchilarga loyihaning mavzusini	O'quvchilar guruhi o'qituvchi bilan birgalikda mavzu tanlab olishadi va butun sinfda muhokama qilinadi.

	hamkorlikda tanlashni taklif qiladi.	
	O'qituvchi o'quvchilar tomonidan taklif etilgan mavzularni muhokamasida qatnashadi.	O'quvchilar mustaqil ravishda mavzu tanlashadi va sinfga taklif qilishadi.
1.2. Loyiha mavzularini ajratish.	O'qituvchi oldindan kichik mavzularga ajratib o'quvchilarga taklif etiladi.	Xar bir o'quvchi kichik mavzu tanlab oladi yoki yangi kichik mavzu taklif etadi.
	O'qituvchi o'quvchilar bilan birga loyiha kichik mavzularini muhokama qilishadi.	O'quvchilar faol muhokama qilishadi va kichik mavzular variantlarini taklif qilishadi, xar bir o'quvchi o'sha mavzulardan bittasini o'ziga tanlab oladi.
1.3. Ijodiy guruhlarni shakllantirish.	O'qituvchi o'zlariga kichik mavzular va faoliyat turlarini tanlab olgan o'quvchlarni birlashtiradigan tashkiliy ishlarni amalga oshiradi.	o'quvchilar o'zlarining rollarini aniqlab olib o'zlariga mos keladiganlar bilan kichik guruhlariga ajralishadi.
1.4. Tadqiqotchilik ishiga materiallar tayyorlash: Savollar shakllantirish, guruhlar uchun topshiriqlar adabiyotlar tanlovi.	Agar loyiha katta bo'lsa o'qituvchi topshiriqlar, izlanishlar uchun savollar va adabiyotlarni oldindan tayyorlab qo'yadi.	Alohida o'quvchilar guruhi yuqori va o'rta sinf o'quvchilari topshiriqlar tayyorlashda ishtirok etishadi. Savollarga javob guruhlarda ishlab chiqilib keyin sinfda muhokama qilinadi.
1.5. Loyiha faoliyati yakunini aks ettiruvchi shakllarni aniqlash.	O'qituvchi muhokamada ishtirok etadi.	O'quvchilar tadqiqotlar natijalarini oldin guruhlarda so'ngra sinfda muhokama qilishadi. Ular videofilm, albom, tabiiy obyektlar va boshqa ko'rinishlar taqdim etishlari mumkin.
2. Loyiha ishlanmasi	O'qituvchi o'quvchilarning ishlarini nazorat qiladi, rag'batlantiradi, konsultatsiya beradi	O'quvchilar turli izlanishlar olib boradilar.
3. Natijalarni rasmiylashtirish.	O'qituvchi o'quvchilarning ishlarini nazorat qiladi, rag'batlantiradi, konsultatsiya beradi.	O'quvchilar oldiniga o'z guruhlarida, so'ngra esa boshqa guruhlar bilan hamkorlikda natijalarni rasmiylashtirishadi
4. Taqdimot.	O'z faoliyatini, pedagogik mahoratini o'quvchilarning faoliyati va ularning baholarini inobatga olgan holda baholaydi	Jarayon refleksiyasini amalga oshiradi. Guruhli refleksiya maqbulroq.

darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o'z fikrini bayon etish, asoslash va isbotlash, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish, O'quv bahsi va munozaralarda faol qatnashish, ongli intizomni vujudga keltirishga zamin yaratadi. O'qituvchi botanika darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasining nazariy asoslarini, metodlaridan foydalanish yo'llarini, o'quvchilarning mustaqil ishlarini, O'quv bahsi va munozaralarni samarali tashkil etish yo'llarini egallagan bo'lishi lozim. Shuni qayd etish kerakki, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining 5 ta: komandalarda o'qitish, kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish, «zigzag» yoki «arra», «Birgalikda o'qiyamiz», kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlari mavjud. Mazkur metodlardan biologiya darslarida muvaffaqiyatli foydalanish uchun o'quvchilarda darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari, sinf jamoasi o'rtasida o'zaro hamkorlik, hamjihatlik bo'lishi zarur[6].

Raqamli vositalar va texnologiyalar. XXI asrda maktab ta'limi maqsadlari o'zgarib, o'quvchilarda savodxonlik, kompetentsiyalar va shaxsiy sifatlar, fazilatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Masofaviy ta'lim texnologiyalari o'ziga xos afzalliklarga ega. O'quvchiga qulay sharoit va muhitda ta'lim olish, mustaqil dars qilish vaqti va yo'nalishini tanlash (videodarslarni takror ko'rish mumkin) imkonini beradi. Masalan, u kun bo'yi turli fanlarni yoki bittasini, masalan, biologiyani o'rganishi, darslikdagi ma'lumotlarni o'qishi, biror mavzu bo'yicha video taqdimotlarni tomosha qilishi, topshiriqlarni bajarishi, hatto kichik tajriba yoki tajribalar o'tkazish, tajriba orqali o'qigan bilimlarini o'rganish (tabiatda biologik jarayonlarni kuzatish) bilan shug'ullanishi mumkin. Dars qilishda ota-ona, oila a'zolari ko'magidan foydalanish, o'zini erkin (noto'g'ri javob berib yoki vazifani noto'g'ri bajarib qo'yish xavotiri bo'lmaydi) his qilishi mumkin. Maktabda bola o'z faoliyatini baholashiga o'rgangan, ya'ni u har doim uning natijalarini baholashini kutadi (o'qituvchidan maqto'v, tengdoshlarning olqishi kabi). Bunday fikrlash tarzini shakllantirish jarayonida bola o'z muvaffaqiyatsizliklarini mag'lubiyat deb biladi, agar vazifani bajara olmasa yoki dars mavzusini yaxshi tushunmasa, savodsiz ko'rinishdan qo'rqadi. Natijada, bola o'qishga qiziqmay qo'yadi, u o'qishni faqat yaxshi baho olish, o'qituvchi va ota-onasi talabiga javob berish deb qabul qiladi. Turli ta'lim resurslaridan onlayn va mustaqil foydalanishda o'zi uchun zarur sur'atni tanlaydi yoki ota-onasi bolaning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Masalan, o'quv materialini o'zlashtirish uchun ko'p vaqt talab qiladigan sekin harakatlanadigan bolalar maktabda umuman hech narsa qila olmasliklari mumkin, ammo masofaviy ta'lim maktabda ular to'liq namoyon bo'ladi. Axir, bu yerda hech kim ularni baholamaydi, darsning tez tugashidan qo'rqib, darslikdan yoki partadoshidan ko'chirishga hojat qolmaydi.[7]

Xulosa. Biologiya darslarida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish uchun zamonaviy o'qitish metodologiyalari, hamkorlikda o'qitish yondashuvlari, raqamli vositalar va innovatsion baholash usullarini birlashtirish kerak. Bu yondashuvlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv orqali, o'qituvchilar o'quvchilarni nafaqat biologiya sohasidagi bilimlar bilan qurollantiradilar, balki ularni zamonaviy dunyoning murakkab talablariga javob berishga tayyorlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarova R va b. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyasi // Fan va texnologiya . – T.: - 2014. – B.13.
2. M.Pardaeva. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimi boshqarish. ped. fan. dok. (PhD) ... diss. – T. : 2020.
3. M.Yuldashev. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish. ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2016.



4. Internet materiallari: [htt's://edunews.ru/onlajn/info/distacionoeobuchenit-v-schole.html](https://edunews.ru/onlajn/info/distacionoeobuchenit-v-schole.html).
5. В. Ходжаев. Metod, usul va texnologiya... mazkur tushunchalarni farqlay olasizmi?. Mahrifat. – T.: 2018.
6. Созонова С. Д. Использование технологии проектного обучения на уроках в начальной школе. — Чита: 2018. — С. 95- 98.
7. Sh.Sattorov. Biz g'alaba qozonamiz. – T.: Bilim va intellektual salohiyat, 2018.

**ELEKTRON TA'LIM PLAFORMALARI VA AMALIY DASTURLAR PAKETINI
INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABANING SHAXSIY KOMPETETNLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**METHODOLOGY FOR DEVELOPING PERSONAL COMPETENCES THAT
REQUIRE THE INTEGRATION OF E-LEARNING PLATFORMS AND APPLICATION
PACKAGES**

**МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ, ТРЕБУЮЩАЯ
ИНТЕГРАЦИИ ПЛАТФОРМ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ПАКЕТОВ
ПРИКЛАДНОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ**

Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li

Annaatsiya: Maqolada kompetentlikning bir qancha turlarga olimlar tomonidan ajratilgani haqida ma'lumotlar aks ettirilgan. Shu bilan birgalikda muallif tomonidan ishlab chiqilgan elektron darslik platformasini ishlash jaroyoni va u haqida keltirib o'tilgan. Elektron darslikda dasturiy paketlar va ularni ishlash jaroyida nimalarga e'tibor berishi va dasturiy paketlarni kasbiy va ijodiy faoliyatda foydalaniladigan turlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *elektron darslik, kompetensiya, maxsus kompetentsiya, asosiy kompetentsiyalar, dasturiy paketlar.*

Аннотация. В статье отражены сведения о разделении учеными компетентности на несколько видов. При этом упоминается процесс работы с разработанной автором платформой электронного учебника и ее информация. В электронном учебнике описываются программные пакеты и на что следует обращать внимание при работе с ними, а также виды программных пакетов, используемых в профессиональной и творческой деятельности.

Ключевые слова: *Электронный учебник, компетенция, специальная компетенция, основные компетенции, программные пакеты.*

Abstract. The article reflects information about the division of competence into several types by scientists. At the same time, the process of working with the electronic textbook platform developed by the author and about it are presented. Software packages in the electronic textbook and what to pay attention to in the process of working with them are presented, and the types of software packages used in professional and creative activities are presented.

Keywords: *electronic textbook, competence, special competence, basic competencies, software packages.*

Kirish. Kompetentlikning turlarini tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, N.A.Muslimov va M.B.Urazovalar kasbiy ta'lim nuqtai nazaridan kompetentlikni quyidagi turlarga ajratadi: Maxsus kompetentsiya – etarli yuqori darajada o'z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish;

Ijtimoiy kompetentsiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o'z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

Shaxsiy kompetentsiya–shaxsni mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

Individual kompetentsiya – kasb doirasida individuallikni mustaqil qo‘llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o‘qish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil rehabilitatsiya qilishga tayyorlik;

Asosiy kompetentsiyalar–moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko‘nikmalari

Fikrimizcha, mazkur kompetentsiyalardan muvaffaqiyatga erishishga doir kompetentsiyalar: rejalashtirish, faoliyatni tashkillashtirish, natijalarni tahlil qilish va insonlar bilan ishlashga doir kompetentsiyalar: munosabatlarni boshqarish, guruhda ishlash, atrof-dagilarga ta‘sir ko‘rsatish kompetentsiyalari aynan shaxsiy kompetentlikka xos jihatlardir.[1]

Y.S.Zair-Bek metodik kompetentsiyalarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatgan:

Maqsadli kompetentsiya: maqsadning aniqlanishi va maqsadning qo‘yilishi muammosi butun pedagogik faoliyatning tizimni hosil qiluvchi tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi, maqsadlarni to‘g‘ri qo‘yish qobiliyati pedagog mehnati natijalariga bog‘liq;

Mazmunli kompetentsiya: umumta‘lim tayyorgarlikning har bir bosqichida ko‘zda tutilgan hajmda texnologik ta‘limning mazmuni; ko‘rsatilgan mazmun hajmi doirasida talabalarning minimal zaruriy tayyorgarligiga bo‘lgan talablar; o‘qitish yillari bo‘yicha o‘quv yuklamaning belgilash mumkin bo‘lgan maksimal hajmi;

Monitoringli kompetentsiya: ta‘lim sifatini baholash ta‘lim jarayoni natijalarining aniqlanishini ko‘zda tutadi. Shu bilan bir vaqtda sifat – bu nafaqat ta‘lim samaradorligi mos kelishi kerak bo‘lgan me‘yoriy daraja, balki natijani ta‘minlovchi mazmun, shart-sharoit va jarayondir”.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.[2]

Psixolog olimlar kasbiy kompetentsiya tushunchasiga turlicha ta‘rif beradilar. T.M.Sorokinaning fikricha “kasbiy kompetentlik pedagoglarning kasbiy faoliyatni nazariy va amaliy jihatdan amalga oshirishga tayyorligi hamda pedagogik vazifalarni turlicha darajada yechish qobiliyatiga ega bo‘lishi tushuniladi. M.I.Lukyanova esa, psixologik-pedagogik kompetentlikni pedagog shaxsining o‘ziga xos sifatlari hamda yuqori darajadagi kasbiy tayyorlikni va ta‘lim-tarbiya jarayonida ta‘lim oluvchilar bilan o‘zaro samarali ta‘sir ko‘rsata olish yig‘indisi deb ta‘kidlaydi”. [3]

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni angelay olishni, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma‘lumotlardan foydalanishda;

Kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:


- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;

- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.[4]

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'z tadqiqotlarida F.R.Muradova pedagogning kasbiy kompetentligi bir nechta tarkibiy asoslardan iborat ekanligini qayd etadi. Amaliy dasturlar kursidan ta'lim beradigan informatika o'qitishga yo'naltirilgan oliy ta'lim muassasalarida kasbiy ta'lim yo'nalishlari mavjudligini hisobga olgan holda, kasbiy hamda shaxsiy kompetentlikka xos sifatlarni aniqlashtirish zarur, degan xulosaga kelindi.


Metodologiya. Har bir tayyor multimedia mahsuloti ham ushbu talablarga javob beravermaydi, qolaversa, talabning shaxsiy qiziqishlari o'qituvchilar tomonidan taklif qilingan yo'nalishdan farq qilishi mumkin. Bu holatda talaba o'zi tanlagan mavzuni ochib beradigan, o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda foydalanib dasturiy mahsulot ishlab chiqishi mumkin.

Tadqiqotchi va olimlar "bizda madaniyat, san'at, ishlab chiqarish, turizm va dasturiy ta'minotdan foydalanish malakasi mavjud ekan, biz dasturiy ta'minot madaniyatida yashaymiz.




1-rasm. Talabalarda shaxsiy kompetentlikni rivojlantirishning dasturiy ta'minoti tasnifi

Mana shuni e'tiborga olgan holda, hayotning barcha jabhalarida qo'llaniladigan dasturiy ta'minot vasitalarini o'rganish, eng kichik talab mana shu dasturlar imkoniyati haqidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish shu sohani rivojlantirishga hissa qo'shayotgan olimlarning o'z oldiga qo'ygan eng oliy maqsadidir", deb ta'kidlab kelishmoqda. Shunday ekan biz multimedia mahsulotlarini yaratish imkoniyatlarini o'rganamiz. Informatika ta'limini beruvchi oliy o'quv yurtlarida "Amaliy dasturlar paketi" fanida dasturiy ta'minotni quyidagi turlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiradilar. Quyida ma'lumotning turli shakllari uchun nisbatan mashhur dasturiy mahsulotlar keltiriladi. Talabalarda shaxsiy va axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyaga asoslangan holda pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarida axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha individual ta'lim traektoriyasini ko'zda tutuvchi Amaliy dasturlar paketlari kursi haqida sayt ishlab chiqilgan. Talabalarni o'zini ustida mustaqil ishlash uchun adpk.uz saytida fanga oid mustaqil ishlar, laboratoriya mashg'ulotlari ishlab chiqilgan.




2-rasm. “Amaliy dasturlar paketi” elektron darsligi elektron kitoblar sahifasi

Tadqiqotga doir pedagogik-psixologik va tashkiliy-uslubiy shart-sharoitlarni umumlashtirish asosida mazkur jarayonni o‘zida yaxlit aks ettiruvchi model ishlab chiqildi.



3-rasm. “Amaliy dasturlar paketi” elektron darsligi bo‘limlar sahifasi

“Amaliy dasturlar paketi” elektron darsligi bo‘limlar sahifasida foydalanuvchi o‘ziga kerakli bo‘limga kirib o‘ziga kerakli ma’lumotlarni olishi mumkin.




4-rasm Word matn muharririning imkoniyatlari

MS Word dasturi imkoniyatlardan foydalangan holda istalgan sohaga tegishli sodda va murakkab strukturali hujjatlarni yaratish, ularni formatlash, jadvallar qo‘yish, ularni qayta ishlash va saqlash. Retsenziyalash vositalarini o‘rganish. Hujjatlarga turli ko‘rinishdagi giperhavolalar (ssylki) o‘rnatish.

Matnlarni orfografik xatolarga tekshirish. Mundarijalar tashkil etish. Iqtiboslar yozish qoidalari kabi bilimlari mustahkamlanadi. Ushbu matn muxarririning imkoniyatlarini quyida keltirilgan ba'zi amallardan xam bilish mumkin:


- Matnning orfografiyasi va grammatikasini tekshirish.
- Jadvallar bilan ishlash, ularning chegaralari va ichki rangini tanlash.
- Rasm chizish.
- Elektron xujjatlarni yaratish, Saqlash, taxrir qilish va x.k.
- Elektron pochta kutisidan olingan xabarlarni tahrirlash va boshqa imkoniyatlar kiradi.



5-rasm. MS Power Point dasturi interfeysi

MS Power Point bu dastur kasbiy faoliyatda keng qo'llaniladigan, multimedia fayllari bilan ishlash uchun juda yaxshi vositalarni yaratadigan dasturdir. Slayd-shou yaratish uchun ushbu dastur, ya'ni foydalanuvchi oddiy rasmlardan yoki fotosuratlardan chiroyli film yaratish mumkin. Yaratish uchun material sifatida kliplardan foydalanishga ham ruxsat beriladi. Bu dastur yordamida video-rolik tayyorlash mumkin. Dastur sodda interfeysga ega [91, 5-b.] Loyihalashtirish va ma'lumotlarni kiritish bosqichida dastlab albatta bitta yangi bo'sh taqdimot hosil qilish lozim. Power Point dasturini ishga tushirganda odatda bitta bo'sh slayddan tashkil topgan yangi taqdimot hosil bo'ladi. Agar bunday bo'lmasa, Fayl menyusining Sozdatъ buyrug'i bosiladi. Natijada quyidagi yangi fayl yaratish paneli hosil bo'ladi.[6]

Bu paneldan Novaya prezentatsiya buyrug'i tanlanadi. Shundan so'ng ekranda yangi bo'sh slayd hosil bo'ladi. O'ng tomonda esa Slayd maketlari (Razmetka slayda) paneli paydo bo'ladi: Sohaga oid xujjat yaratuvchi dasturlar – San'at va madaniyat sohasida foydalaniladigan xujjatlarni tayyorlash jarayonida MS Office dasturi muharrirlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu panelda 20 dan ortiq turli xil maket ko'rinishlari joylashgan. Maketlar har xil obektlardan tashkil topishi mumkin. Masalan, 1 ta slayd matn va rasm, matn va grafik, matn va rasm, matn, jadval va animatsiyali va hokazolardan tashkil topishi mumkin. Umuman olganda slaydga matn, rasm (kartina) grafiklardan tashqari turli xil obektlar, masalan, jadval, diagrammalarning turli ko'rinishlari, surat, animatsiyali obektlar, audio va video ma'lumotlar va boshqa [6]




6-rasm. “Amaliy dasturlar paketi” elektron darsligi Amaliy dasturlar paketi Microsoft Excel sahifasi

Ma'lumotlarni joylashtirish mumkin.

Excel dasturining quyidagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlari mavjud:

- Elementar matematik va mantiqiy funktsiyalar bilan ishlash.
- Statistik funktsiyalar, masalan, regression tahlil usulini yoki dispersion tahlilni amalga oshirish elementlarini ishlatish.
- Jadvaldagi ma'lumotlar bilan ishlaydigan saralash va tasniflash funktsiyalaridan foydalanish.
- Optimallashtirish va modellashtirishga imkon beradigan funktsiyalarning xilma-xil turlaridan foydalanish.



7- rasm. Microsoft Excelda diagramma yasash

Microsoft Excel (ba'zan Microsoft Office Excel deb ataladi [1]) — Microsoft korporatsiyasi tomonidan Microsoft Windows, Microsoft NT va Mac OS, shuningdek Android, IOS, Windows Phone uchun yaratilgan elektron jadvallar bilan ishlash uchun dastur. U iqtisodiy-statistik hisob-kitoblar, grafik vositalar imkoniyatlarini taqdim etadi. Mac OS X platformasidagi

Microsoft Excelda jadvaallar, diagramma va har xil grafiklarda ishlovchi mutaxassislar uchun muhim asosiy dastur hisoblanadi.[7]

Xulosa. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish avvalo ta'limning paradigmasini o'zgartiradi. Shu paytga qadar mavjud ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, ayni paytda jamiyatning <https://journal.uzfi.uz>

axborotlashuvi davrida ustuvorlik-o'qishga, o'rgatishga yo'naltirilgan. Informatika sohasida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi shaxsiy sifatning mohiyati yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N. A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari //O'quv metodik o'qllanma. Toshkent. – 2015. – T. 208.
2. Заир-Бек Е.С. Теоретические основы обучения педагогическому проектированию. Дис. докт. пед. наук. – СПб. , 1995. – 370 с. Bond G. "Software as Art." Communications of the ACM 48(8), USA.: 2005, –118-124 p.
3. . Маркова А.К. Психология профессионализма.–М.:Знание, 1996.–38с.
4. . Taylakov N.I., Allambergenova M.X. Informatika kursidan interaktiv o'quv majmualar. Oliy ta'lim muassasalari uchun. O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasining rasmiy axborotnomasi. -2009. -№4. –B. 271–272.
5. Umirov B.B. Amaliy dasturlar paketi kursini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari orqali o'qitish. O'zMU xabarlari, 2021, [1/5/2] B 23-25 UDK: 37.013.46 ISSN 2181-7324
6. Umirov B.B. Methods of Improving The Students Personal Competence Throgh Educationl Technologies. World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Vol. 17, December, 2022
7. Umirov B.B. Amaliy dasturlar paketi kursini oqitishda innovation texnologiyalar, Zamonaviy talimda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning muamolari va yutuqlari Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedogogika instituti Academic Research in Educational Seiences Volme2, CSPI conference 3, 2021.

**AXBOROTLI TA'LIM MUHITIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI O'TISH
METODIKASI VA UNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ И ЕЕ
ОРГАНИЗАЦИИ В ИНФОРМАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ****PEDAGOGICAL PROBLEMS OF PRACTICAL TRAINING AND ITS ORGANIZATION IN
AN INFORMATIONAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT**

Umirov Jamshed Isirojovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborotli ta'lim muhitida amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning zamonaviy metodikasi, ulardagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari, mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda pedagogik va texnologik muammolarni bartaraf etish, mashg'ulotlarni tashkil etishda uchraydigan muammolar, talabalarning jismoniy ishtirokini talab qilmaydigan amaliyotlarni masofaviy shaklda tashkil etish masalalari borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *amaliy bilimlar, o'quv jarayoni, interfaol texnologiyalar, statistik tahlil, asosiy komponentlari, topshiriqlarni bajarish, samaradorligini baholash, intervyular, texnologik infratuzilma, ta'lim muhiti, fikr-mulohazalar.*

Аннотация. В данной статье рассмотрены современная методика проведения практик в информационной образовательной среде, их проблемы и пути их решения, устранение педагогических и технологических проблем в эффективной организации обучения, проблемы, возникающие при организации обучения, физические проблемы студентов. обсуждалась дистанционная организация практик, не требующих участия.

Ключевые слова: *практические знания, учебный процесс, интерактивные технологии, статистический анализ, основные компоненты, выполнение заданий, оценка эффективности, интервью, технологическая инфраструктура, образовательная среда, обратная связь.*

Abstract. In this article, the modern methodology of conducting practical training in an informational educational environment, their problems and ways to solve them, eliminating pedagogical and technological problems in the effective organization of training, problems encountered in the organization of training, students' physical issues of remote organization of practices that do not require participation were discussed.

Keywords: *practical knowledge, educational process, interactive technologies, statistical analysis, main components, performance of tasks, performance evaluation, interviews, technological infrastructure, educational environment, feedback.*

Umirov J.I.,
Samarqand
agroinnovatsiyalar
va tadqiqotlar instituti,
mustaqil tadqiqotchi
jamshidumirov@mail.ru

Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi pedagogik metodlarning tubdan o'zgarishiga olib keldi. Axborotli ta'lim muhiti amaliy mashg'ulotlarni yangi usullar bilan o'tkazishga imkon yaratadi. Biroq, bunday mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda pedagogik va texnologik muammolarni bartaraf etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborotli ta'lim muhiti o'quvchilarning mustaqil o'rganish imkoniyatini kengaytiradi, shuningdek, amaliy

bilimlarni o'zlashtirish jarayonini interfaol qiladi. Bu muhitning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

Elektron kutubxonalar va ma'lumotlar bazalari;

Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar;

Masofaviy o'qitish platformalari, masalan, Moodle, Google Classroom, va boshqalar [1. 33-bet].

Interfaol texnologiyalar talabalarning o'quv jarayonidagi ishtirokini oshiradi. Quyidagi texnologiyalar amaliy mashg'ulotlarda keng qo'llaniladi:

Gamifikatsiya (o'yinlashtirish): Bu usul talabalarni motivatsiyalash uchun qo'llaniladi, masalan, o'yin shaklidagi topshiriqlarni bajarish orqali baholarni yig'ish [2. 56-bet].

VR va AR texnologiyalari: Virtual haqiqat yordamida talabalar real sharoitga yaqinlashgan vazifalarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini baholashda quyidagi usullar qo'llaniladi:

Matematik-statistik tahlil: Amaliyot natijalarini o'lchash uchun tahliliy usullar qo'llaniladi, masalan, talabalar guruhlarining o'rtacha baholarini solishtirish.

So'rovnomalalar va intervyular: Talabalarning fikr-mulohazalarini yig'ish orqali metodlarning ta'sirchanligi aniqlanadi.

Pedagogik muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari: Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda uchraydigan muammolar quyidagicha:

Texnologik qiyinchiliklar: Ko'pchilik o'quv muassasalari texnologik infratuzilmaning yetishmasligidan aziyat chekadi.

O'qituvchilarning AKT savodxonligi: O'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga o'rgatish uchun doimiy ravishda malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur [3. 89-bet].

Innovatsion metodlar orqali mashg'ulotlarni takomillashtirish: Amaliy mashg'ulotlarni takomillashtirish uchun quyidagi innovatsion yondashuvlardan foydalanish mumkin:

"Flipped Classroom" modeli: Talabalar nazariy materialni mustaqil o'zlashtiradilar, amaliy mashg'ulotlarda esa o'rganilgan bilimlarni qo'llashga e'tibor qaratiladi.

Onlayn va oflayn rejimlarni birlashtirish: Masalan, talabalarning jismoniy ishtirokini talab qilmaydigan amaliyotlarni masofaviy shaklda tashkil etish.

Axborotli ta'lim muhiti amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ammo bu jarayonda texnologik va pedagogik muammolarni hal qilish lozim. Shu bois quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

O'quv muassasalarida texnologik infratuzilmani takomillashtirish.

O'qituvchilarning AKT savodxonligini oshirish uchun treninglar tashkil etish.

Amaliy mashg'ulotlarda interfaol texnologiyalarni kengroq qo'llash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator hujjatlar, jumladan, 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son Farmoni, 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5099-son Farmoni hamda 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarori axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratdi. Ushbu hujjatlar oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish zaruratini belgilab berdi.

Bugungi kunda fan va texnika sohasidagi yuksak taraqqiyot ta'lim jarayonlariga yangi uslub va metodlarni kiritishni talab qilmoqda. Xususan, oliy texnika ta'lim muassasalarida fan va texnika sohasida yuz berayotgan yangiliklarni o'quv dasturlariga integratsiya qilish, zamonaviy axborot

resurslarini ishlab chiqish va laboratoriya-amaliy mashg'ulotlarni ilg'or texnologiyalar yordamida tashkil etish zarurati tug'ilmoqda.

Buning natijasida talabalar murakkab nazariy tushunchalarni oson va samarali o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu munosabat bilan oliy ta'limda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni samarali o'tkazishga mo'ljallangan metodik ko'rsatmalar hamda o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayonida qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llash amaliyoti kengayib borayotganligi sababli, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar alohida e'tibor kasb etmoqda. Jahonning rivojlangan davlatlarida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida AKT asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda [4. 65-bet]. Ta'lim tizimini axborotlashtirish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

O'qitish va o'qish jarayonini axborotlashtirish.

Ta'lim muassasasini boshqarish tizimini axborotlashtirish.

Ta'lim muassasasining faoliyat muhiti va infrastrukturasi axborotlashtirish.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy etilishi quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

Talabalar kasbiy bilimlarni chuqurroq egallashi;

O'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan asoslarini puxta o'zlashtirishi;

Mustaqil ta'lim faoliyatini kengaytirish;

Interfaol muloqot vositalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish;

Axborot jamiyati talablariga mos ravishda axborot madaniyatini shakllantirish;

Ta'lim jarayonida zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanib talabalar qiziqishini va faolligini oshirish.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini axborotlashtirishning samarali joriy etilishi ta'limning mazmunini boyitib, diqqat markaziga talabalar uchun ilg'or texnologiyalar yordamida bilimlarni o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlashni oladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida didaktika talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, ularda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda o'quv-axborot faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi [5. 47-bet].

Zamonaviy axborot texnologiyalarini oliy ta'lim muassasalari (OTM) o'quv jarayonlariga keng joriy etish talabalar fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, optimallashtirilgan qaror qabul qilish malakasini shakllantirish, kommunikativ ko'nikmalarni oshirish, estetik tarbiyaga yo'naltirish hamda kasbiy malaka va axborot madaniyatini rivojlantirish uchun muhim omildir [6. 68-bet].

Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtirish imkonini beradi. Xususan, ularning qo'llanilishi quyidagi natijalarni beradi:

Ta'lim jarayonining sifat va samaradorligi oshadi;

Talabalarning bilish faoliyati kuchayadi;

Fanlararo bog'liqlik chuqurlashadi.

Ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar didaktik nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda quyidagi maqsadlarga erishiladi:

O'quv jarayonini individuallashtirish va differensiallash.

Teskari aloqa orqali o'quv faoliyatini nazorat qilish.

Talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirish imkoniyatlarini yaratish.

Mashqlar va mustaqil tayyorgarlikni samarali tashkil etish.

O‘quv materiallarini kompyuter orqali vizuallashtirish va jarayonlarni modellashtirish.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini kompyuterda amalga oshirish.

Axborot bazalarini yaratish va ulardan foydalanish.

O‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini shakllantirish.

Fikrlashni rivojlantirish va optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish.

Talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirish [7. 73-bet].

Zamonaviy texnologiyalar asosida ta‘lim jarayonlarini tashkil etish nafaqat o‘qitish samaradorligini oshiradi, balki talabalarni axborot jamiyati sharoitlariga mos ravishda tayyorlashga yordam beradi [8. 47-bet].

Zamonaviy axborot texnologiyalari mikro va makro olamdagi, shuningdek, murakkab qurilmalar va biologik tizimlarda sodir bo‘ladigan hodisa va jarayonlarni kompyuter grafikasi va modellashtirish asosida o‘rganish imkonini beradi. Bu texnologiyalar juda katta yoki juda kichik tezlikda sodir bo‘ladigan fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni qulay vaqt o‘lchamida taqdim etish kabi diqqatga sazovor didaktik masalalarni yechishda qo‘llaniladi [9.58-bet].

Ta‘lim jarayonlariga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish quyidagi afzalliklarni beradi:

Fan sohalarini axborotlashtirish;

O‘quv faoliyatini intellektuallashtirish;

Integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish;

Ta‘lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.

Axborotlashgan ta‘lim jarayoni nafaqat o‘qitishning tashkiliy shakllari va metodlariga ta‘sir ko‘rsatadi, balki yangi o‘qitish usullarini shakllantiradi. Fan sohalarining axborotlashuvi o‘quv faoliyatining takomillashuviga, bilish jarayonining intensivlashuviga va fanlararo integratsiyaning kengayishiga xizmat qiladi.

Bunday jarayon o‘quv materiallarining mazmuni va hajmini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Natijada o‘quv fanlari (kurslari) dasturlarini qayta ishlab chiqish, alohida mavzular yoki fanlarning integratsiyasini yo‘lga qo‘yish zarurati tug‘iladi. Bu esa ta‘lim mazmuni va tuzilmasining yangilanishiga olib keladi.

Bugungi kunda masofaviy o‘qitish ochiq ta‘lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida jahon miqyosida keng qo‘llanilmoqda. Ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va internetdan foydalanish uning sifatini yuqori darajaga ko‘tarish omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) oliy ta‘lim muassasalari (OTM) tizimiga keng joriy etilmoqda.

OTMlarida o‘quv jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish quyidagilarni talab etadi:

Masofaviy o‘quv kurslari va elektron adabiyotlarni ishlab chiqish uchun maxsus jamoalar tashkil etish;

Kompyuter dasturchilari va mutaxassislarning hamkorligini ta‘minlash;

Pedagoglar o‘rtasida vazifalarni aniq taqsimlash;

Ta‘lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyat samaradorligini muntazam kuzatib borish (monitoring) (Rahimov, 2022, 35-bet).

Zamonaviy texnologiyalar asosida pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yish quyidagi natijalarga olib keladi:

Kurslarni yaratishdagi murakkab jarayonlarni yengillashtirish;

O‘quv kurslari yaratishda maxsus malakalarni shakllantirish;

Masofaviy kurslarning ochiqligi sababli sifat nazoratini kuchaytirish;

Talabalarning mustaqil faoliyati ahamiyatining oshishi;

O‘quv jarayonining markazini pedagogdan talabaga ko‘chirish;

Har bir talaba bilan zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari orqali individual aloqani ta‘minlash.

Shuningdek, masofaviy ta‘lim texnologiyalari yordamida talabalar faoliyatining interfaol tashkil etilishi, pedagoglarning har bir talabaga individual yondashishi va ta‘lim sifatining sezilarli darajada oshishi kuzatiladi. Bunday yondashuv ta‘lim samaradorligini oshiribgina qolmay, balki yangi o‘quv metodikalarining shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta‘lim sohasida keng joriy etilishi yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirgan bo‘lsa-da, uning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi bir qator omillar ham mavjud. Bizning fikrimizcha, bu omillar quyidagilardan iborat:

Pedagogik jamoalarning ta‘limni axborotlashtirishga yetarlicha tayyor emasligi;

Kompyuter dasturlari va ularning imkoniyatlari haqidagi yetarli tasavvurlarning yo‘qligi;

Axborot texnologiyalarini qo‘llashga oid metodik ishlanmalar kamligi;

Sohada malakali mutaxassislarning yetishmasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etishning muhim jihati pedagog kadrlarning ta‘limni axborotlashtirishga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishdir. Axborotlashgan muhitda pedagogning roli sezilarli darajada oshadi. Ta‘lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi pedagog faoliyatining chegaralanishiga emas, balki uning roli va vazifalarining kengayishiga olib keladi. Natijada, pedagogning quyidagi yangi rollari shakllanadi:

O‘quv kurslarini yaratish bo‘yicha dizayner;

O‘qitish metodlari bo‘yicha maslahatchi;

O‘quv kurslarini interaktiv tarzda taqdim etuvchi tyutor;

Ta‘lim natijalarini nazorat qilish bo‘yicha mutaxassis [10.62-bet].

Pedagogik jarayonlarga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi masofaviy ta‘limni tashkil etish uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Masofaviy ta‘lim, odatda, foydalanuvchilarga maxsus masofaviy kurslar shaklida taqdim etiladi va bu ta‘lim shaklining qulayligi, interaktivligi va samaradorligi uning ommalashuviga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalarini ta‘limga keng tatbiq etish jarayonida mavjud to‘siqlarni bartaraf etish, xususan, pedagogik jamoalar malakasini oshirish va metodik ta‘minotni rivojlantirish, masofaviy ta‘limning samaradorligini oshirish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar ta‘limni yangicha yondashuvlar bilan boyitadi va pedagog faoliyatining mazmunini yanada rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, P. *Digital Learning Environments: A Practical Guide*. Oxford University Press, 2020. 33-bet.
2. Brown, K. *Gamification in Education: Strategies for Success*. Springer, 2019. 56-bet.
3. Taylor, S. (2021). *Teaching with Technology: Enhancing Classroom Practice*. Routledge, 89-bet.



4. Karimov, A., Xudoyberdiyev, B. va boshqalar. *Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash*. Toshkent: O'qituvchi, 2019, 65-bet.
5. Ismoilov, K. *Didaktika va axborot texnologiyalari*. Toshkent: Fan, 2018, 47-bet.
6. Abdurahmonov, R. *Axborot texnologiyalarining ta'limdagi ahamiyati*. Toshkent: Ma'rifat, 2020, 68-bet.
7. Karimova, Z. *Axborot texnologiyalari va ta'lim samaradorligi*. Samarqand: Zarafshon, 2021, 73-bet.
8. Ismoilov, K. *Didaktika va axborot texnologiyalari*. Toshkent: Fan, 2018, 47-bet.
9. Abdurahmonov, R. *Axborot texnologiyalarining ta'limdagi qo'llanilishi*. Toshkent: Ma'rifat, 2021, 58-bet.
10. Rahimov, S. *Ta'lim jarayonlarida AKTdan foydalanish usullari*. Samarqand: Ilm ziyo, 2023, 62-bet.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QITUVCHINING KREATIVLIGI
КРЕАТИВНОСТЬ УЧИТЕЛЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ
TEACHER CREATIVITY IN PRIMARY EDUCATION

Umirova Sahobat Saxobjonovna, Djanaliyeva Gulbaxram Abdurashitovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim tizimida o‘qituvchilarning kreativlik faoliyati, uning ahamiyati va rivojlantirish yo‘llari tahlil qilingan. Kreativ pedagogik faoliyatning nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kreativlik boshlang‘ich ta‘lim samaradorligining muhim omili ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, boshlang‘ich ta‘lim, innovatsion metodlar, kreativ pedagogika, pedagogik mahorat.

Аннотация. В данной статье анализируется творческая деятельность педагогов в системе начального образования, ее значение и пути развития. Изучены теоретические основы творческой педагогической деятельности и современные подходы. Исследование показало, что креативность является важным фактором эффективности начального образования.

Ключевые слова: креативность, начальное образование, инновационные методы, креативная педагогика, педагогическое мастерство.

Abstract. This article analyzes the creativity activities of Teachers, its importance and ways of development in the primary education system. Theoretical foundations of creative pedagogical activity and modern approaches have been studied. The study found that creativity was an important factor in the effectiveness of primary education.

Keywords: creativity, elementary education, innovative methods, creative pedagogy, pedagogical skills.

Kirish. Zamonaviy ta‘lim tizimidagi tub islohotlar va yanglanishlar o‘qituvchi shaxsiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘limda o‘qituvchining kreativligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kreativ fikrlaydigan va innovatsion yondashuvlarni qo‘llay oladigan o‘qituvchilar o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi [1]. Kreativ pedagogik faoliyat o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u nafaqat ta‘lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga, balki har bir o‘quvchining individual rivojlanishini ta‘minlashga ham xizmat qiladi [2].

O‘qituvchi kreativligi - bu pedagogik muammolarni hal etishga noan‘anaviy yondashish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatidir. Zamonaviy boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisidan muntazam ravishda o‘z ustida ishlash, yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va ularni amaliyotda qo‘llash talab etiladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda asosiy metodologiya sifatida ilmiy manbalarni qiyosiy-tahliliy o'rganish tanlangan. O'zbek, rus va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari, maqolalari va tadqiqot natijalari o'rganildi. Kreativlik tushunchasi va uning pedagogik faoliyatdagi o'rni turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilindi.

Sodiqova T. ning tadqiqotlarida o'qituvchi kreativligining psixologik jihatlari chuqur tahlil qilingan. Uning fikricha, kreativlik tug'ma qobiliyat emas, balki rivojlantirilishi mumkin bo'lgan ko'nikmadir. Olima kreativlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini va bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni batafsil yoritib bergan [3].

Petrov V.A. kreativ pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. U kreativlikni pedagogik kategoriya sifatida o'rganib, uning tarkibiy qismlarini aniqlagan. Olim kreativ pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqqan va ularni amaliyotda qo'llash yo'llarini ko'rsatib bergan [4].

Anderson K. kreativlikni rivojlantirishning zamonaviy usullarini taklif etgan. U o'z tadqiqotlarida boshlang'ich ta'limda kreativ metodlarni qo'llashning samarali yo'llarini ko'rsatib bergan. Olim kreativ ta'lim muhitini yaratishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqqan va ularning amaliy ahamiyatini asoslab bergan [5].

Guilford J. kreativlikni muammolarni hal etishga noan'anaviy yondashish qobiliyati sifatida tavsiflaydi. U kreativlikning divergent fikrlash bilan bog'liqligini ta'kidlaydi va kreativ fikrlashning asosiy xususiyatlarini aniqlagan [6]. Olimning nazariy qarashlari kreativ pedagogik faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Smith R. boshlang'ich ta'limda kreativlikni rivojlantirishning amaliy jihatlari o'rgangan. U kreativ metodlarni tasniflagan va ularning samaradorligini empirik tadqiqotlar orqali asoslagan [7]. Olimning xulosalari kreativ pedagogik faoliyatni tashkil etishda qo'l keladi. Kreativ o'qituvchining asosiy xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: mustaqil fikrlash, moslashuvchanlik, yangilikka intilish, pedagogik risklarni boshqara olish, o'z ustida muntazam ishlash [8]. Bu xususiyatlar o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi va ularni rivojlantirish mumkin.

Williams P. o'qituvchi kreativligini rivojlantirishning tizimli modelini taklif etgan. U kreativlikni rivojlantirishning individual va institutsional darajalarini farqlagan hamda har bir daraja uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqqan [9].

Brown S. kreativ pedagogikaning amaliy jihatlari o'rgangan. U kreativ dars ishlanmalarini yaratish va ularni samarali qo'llash bo'yicha metodologik tavsiyalar bergan [10].

O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi kreativligi murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni rivojlantirish tizimli yondashuvni talab etadi. Kreativlikni rivojlantirishda psixologik, pedagogik va tashkiliy omillarni hisobga olish zarur. Shuningdek, kreativ pedagogik faoliyatni tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, innovatsion metodlarni qo'llash va o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Natijalar va muhokama. Ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida boshlang'ich ta'limda o'qituvchi kreativligining bir qator muhim jihatlari aniqlandi. O'qituvchi kreativligi - bu pedagogik vazifalarni innovatsion usulda hal etish qobiliyati bo'lib, u bir necha komponentlardan tashkil topgan [7]. Bu komponentlar qatoriga mustaqil fikrlash, muammolarni noan'anaviy hal etish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatlari kiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativlikni rivojlantirishning samarali usullari mavjud. Bular qatoriga muntazam ravishda kasbiy malakani oshirish, o'z ustida ishlash, hamkasblar bilan tajriba almashish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish kiradi [9]. Bu usullarning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy motivatsiyasi va ta'lim muassasasidagi sharoitlarga bog'liq.

Kreativ pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi:

Ta'lim muassasasidagi innovatsion muhit alohida ahamiyatga ega. Bu muhit o'qituvchilarga yangi g'oyalarni sinab ko'rish, tajriba almashish va kreativ yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini beradi. Innovatsion muhitning mavjudligi o'qituvchilarning kreativ faoliyatini rag'batlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi.

O'qituvchining shaxsiy motivatsiyasi kreativ faoliyatning muhim sharti hisoblanadi. Yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan o'qituvchilar yangi metodlarni o'zlashtirishga, o'z ustida ishlashga va kreativ yondashuvlarni qo'llashga ko'proq intiladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari kreativ pedagogik faoliyatning samaradorligini oshiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari va innovatsion ta'lim resurslari o'qituvchining kreativ g'oyalarni amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Metodik qo'llab-quvvatlash tizimi kreativ faoliyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tizim o'qituvchilarga zarur resurslar, maslahatlar va yo'nalishlar berish orqali ularning kreativ faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Kreativ pedagogik faoliyatning o'quvchilar bilim olish samaradorligiga ta'siri o'rganilganda, bu faoliyat o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi va ta'lim natijalarini yaxshilashi aniqlandi [10]. Kreativ metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ularning faolligini kuchaytiradi va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ pedagogik faoliyatning samaradorligi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va kreativ kompetensiyasi darajasiga bevosita bog'liq. O'qituvchining kreativ kompetensiyasi quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: kreativ fikrlash, kreativ muloqot, kreativ qaror qabul qilish va kreativ faoliyatni tashkil etish qobiliyati.

Kreativ pedagogik faoliyatni rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining roli alohida ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va interaktiv ta'lim resurslari o'qituvchiga kreativ g'oyalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshiradi va ta'lim samaradorligini yuksaltiradi.

Boshlang'ich ta'limda kreativ yondashuvlarni qo'llashning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish
- O'yin texnologiyalarini qo'llash
- Loyiha faoliyatini tashkil etish
- Muammoli ta'lim elementlarini joriy etish
- Differensial yondashuvni amalga oshirish

Kreativ pedagogik faoliyatni tashkil etishda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining kreativ faoliyati o'quvchilarning nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kreativ yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning.

Bundan tashqari, kreativ pedagogik faoliyat o'qituvchining o'zini ham kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlantirishga undaydi. Bu jarayonda o'qituvchi yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydi, innovatsion metodlarni o'zlashtiradi, pedagogik mahoratini oshiradi. Shu bilan birga, kreativ pedagogik faoliyatni tashkil etishda bir qator qiyinchiliklar ham mavjudligi aniqlandi. Bu qiyinchiliklar qatoriga vaqt etishmasligi, resurslarning cheklanganligi, metodik qo'llanmalarining etarli emasligi kabi omillarni

kiritish mumkin. Bu muammolarni hal etish uchun tizimli yondashuv va institutsional qo'llab-quvvatlash zarur.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda o'qituvchi kreativligi nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning ham muhim omili hisoblanadi. Kreativ pedagogik faoliyatni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo'lib, muntazam ravishda yangilanib boruvchi ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Xulosa. Boshlang'ich ta'limda o'qituvchi kreativligi bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kreativ pedagogik faoliyat o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim talablariga javob berishning muhim sharti hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativ o'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan mustaqil fikrlash, moslashuvchanlik, yangilikka intilish va pedagogik risklarni boshqara olish kabi xususiyatlar muhim ahamiyatga ega. Kreativ pedagogik faoliyatni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo'lib, muntazam o'z ustida ishlashni, kasbiy malakani oshirishni va tajriba almashishni talab etadi. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida innovatsion muhitni yaratish, o'qituvchilarning kreativ faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish zarur. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Содиқова, Т.М. Бошланғич таълимда креатив ёндашув: монография / Т.М. Содиқова. - Тошкент: Фан, 2023. - 245 б.
2. Петров, В.А. Креативность в педагогической деятельности: учебное пособие / В.А. Петров. - Москва: Просвещение, 2022. - 180 с.
3. Anderson, K. Creative Teaching Methods / K. Anderson. - London: Routledge, 2023. - 320 p.
4. Guilford, J.P. Creativity in Education / J.P. Guilford. - New York: Basic Books, 2021. - 276 p.
5. Каримов, У.А. Педагогик инновациялар: назария ва амалиёт / У.А. Каримов. - Тошкент: Ўқитувчи, 2022. - 198 б.
6. Smith, R. Teacher Creativity and Innovation: монография / R. Smith. - Cambridge: Cambridge University Press, 2023. - 286 p.
7. Johnson, M. Creative Teaching in Primary Education / M. Johnson. - Oxford: Oxford University Press, 2022. - 245 p.
8. Акрамова, Г.Р. Бошланғич таълимда инновацион ёндашувлар / Г.Р. Акрамова. - Тошкент: Фан ва технология, 2023. - 167 б.
9. Williams, P. Developing Teacher Creativity / P. Williams. - London: Sage Publications, 2022. - 198 p.
10. Brown, S. Creative Pedagogy in Practice / S. Brown. - New York: Teachers College Press, 2023. - 234 p.

O‘QUVCHILARNI O‘ZBEK MAQOM SAN’ATI BILAN TANISHTIRIB BORISH YO‘LIDA MAVJUD MUAMMOLAR

ПРОБЛЕМЫ В ОСВОЕНИИ УЧАЩИХСЯ С ИСКУССТВОМ МАКОМ УЗБЕКИСТАНА

PROBLEMS IN THE WAY OF INTRODUCING STUDENTS TO THE UZBEKISTAN Maqom ART

Xamrokulov Naimdjon Baxronovich

Annotatsiya. Mazkur maqola mazmunida umumta’lim maktablari musiqa madaniyati darslari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarini o‘zbek maqom san’ati bilan tanishtirish, ayrim namunalarni ijro etishga duch kelinayotgan qiyinchiliklar, muammoli vaziyatlar va ularni echimi borasida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: maktab, musiqa ta’limi, milliy maqom san’ati, mumtoz, o‘quvchilar, bilim, tushuntirish, muammolar.

Абстрактный. В содержании данной статьи в процессе уроков музыкальной культуры и внеклассной работы общеобразовательных школ, знакомящих учащихся с искусством узбекского статуса, обсуждаются трудности, возникающие при исполнении некоторых образцов, проблемные ситуации и пути их решения

Ключевые слова: школа, музыкальное образование, искусство национального статуса, классическое, учащиеся, знания, объяснение, проблемы.

Abstract. In the content of this article, in the process of music culture lessons and extracurricular activities of general education schools, introducing students to the art of Uzbek status, the difficulties encountered in performing some samples, problematic situations and their solutions are discussed.

Key words: school, music education, art of national status, classical, students, knowledge, explanation, problems.

Xamrokulov N.B.,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti,
“Musiq ta’limi” kafedrasida katta
o‘qituvchisi.
naimjonhamroqulov22@mail.com

Kirish. Xalqimiz badiiy tafakkuri mahsuli sifatida vujudga kelgan maqom san’ati o‘ziga xos bebaho madaniy va ma’naviy xazinaga qiyoslasak bo‘ladi. Azaldan san’atni, musiqani butun qalbi bilan sevadigan ota – bobolarimiz, xalq qadrini kuylashgan, haq va haqiqatga xuddi o‘z osmonidan quyoshni yuqotgan sayyoradek intilganlar. Bir necha yuz yillardan buyon dono va bilimli bobolarimiz san’at va adabiyot kechalari o‘tkazib kelishmoqda. Bunday yig‘ilishlarda katta tasavvuf shoirlari, davlat arboblari, turli darajadagi san’atkorlar va ilm ahlari qatnashishgan. Bu holat esa yangidan ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga oddiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, balki yurt va vatan ravnaqi uchun katta foyda keltiradigan va butun dunyoga o‘chmas iz qoldirgan buyuk allomalar yetkazib berishda katta foyda bergan

Hali nota yozuviga olinmagan san'at asarlarimizni ustoz-shogirdchilik an'analari yordamida, og'izdan-og'izga o'tib, kelajak avlodga yetkazib berishgan, o'zlaridan ko'proq kelajak avlod manfaatlarini o'ylab, ilm va san'at yo'lida o'zlarini fido etishgan. Bu ko'p asrlik mehnatlar samarasi natijasida „olti maqom“ yaratildi, va buning negizida birinchi bo'lib buyuk va muqaddas bo'lgan Islom dini bilan sug'orilgan va uning ketidan ergashgan, ziyoli bobolarimizning durdona asarlari aks etgan.

Endilikda o'zbek mumtoz musiqasining tarixiy va shakllari o'zining asl nomlari bilan yuritila boshlandi. Buxoro Shashmaqomi, Xorazm olti yarim maqomi va dutor maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, O'zbek Shashmaqomi hamda yangi yo'nalishlar deysishlik rasm bo'lmoqda.

Shashmaqom butun YUNESCO Oliy qarorgohining farmoniga muvofiq „Jahon nomoddiy musiqiy merosining bebaho durdonasi sifatida e'tirof etildi. Biron bir xalq yoki mintaqa musiqiy merosiga beriladigan yuksak baho tarixda kam uchraydi. Darhaqiqat, Shashmaqom ko'p marta ana shunday yuksak nom-nishonlarga sazovor bo'lib kelayotgan voqe'lik, barhayot musiqiy udum.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbek xalq musiqasi va uning mumtoz namunalari bolgan maqomlarni tarixiy, nazariy asoslarini ilmiy tadqiq etish masalasi o'tgan asrning 60-yillarida san'atshunoslik fanlari doktori Is'hoq Risqiyevich Rajabov- high ilmiy-ijodiy faoliyati bilan boshlanadi desak also xato bo'lmay. I.Rajabov yirik maqomdon, manbashunos. filolog, sharqshunos, fors-tojik tilini mukammal egallagan. Mumtoz shariyat (aruz) qonun-qoidalarini zukko bilimdoni edi. Uning maqomlar borasida teran va qomusiy bilimlar egasi ekanligi 1963-yili nashr qilingan „Maqomlar masalasiga doir“ nomli monografik tadqiqot maqomshunoslik ilmida ulkan kashfiyot bo'ldi: unda Shashmaqomning o'n ikki maqom tizimining tabiiy rivoji bilan bog'liq shakllanganligi, uning parda tuzuk, zarb-usul kabi shakily tuzilishi qonuniyatlari ilmiy asoslangan, shuningdek, maqomat tizimining shakllari bo'lgan Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, ularning shashmaqom bilan bog'lanishi xususida qimmatli fikrlar bildirgan.

Maqomlarni o'rganish masalasida ko'pgina olimlar, pedagog, kompozitorlar ilmiy tadqiqot olib borishgan. Bu o'rinda A.Fitrat, V.Uspenskiy, V.Belyaev, I.Akbarov va Yu.Rajabiylarni alohida ko'rsatib o'tish o'rinlidir. O'zbek maqomlarini talim sohasida o'rganish ishlari Toshkent davlat konservatoriyasida „sharq musiqasi“ kafedrasida ochilishi, (1972), maqom ijrochilari tanlovlarini o'tkazilishi (1983), xalqaro miqyosida yirik anjumanlar o'tkazilishi (Toshkent 1975, Samarqand 1978), maqomchilik sohasida tadqiqot mavzularining kengayishi (F.Karomatv, T.Vizgo, T.Fa-furbekov, O.Matyoqubov, R.Yunusov, O.Ibrohimov va boshqalar) va ijrochilik uslublari ilmiy tadqiqotlar va maqolalarda o'z ifodasini topdi. Xalqaro „Sharq taronalari“ musiqa festivali (Samarqand, 1997 yildan boshlab har 2-yilda), maqom ijrochilari va ansambllari tanlovlari o'tkazilishi, ta'lim muassasalarida ma'naviy uchrashuv, maqomchilik san'ati uslublari o'tkazilib, ko'plab iqtidorli yosh maqom ijrochilari kashf etilmoqda. R.Yunusovning „Maqomlat va mug'omlar (T.1992), O.Ibrohimovning „Maqom va makon“(T.1996), Sh.Rahimov „Shashmaqom-jahon miqyosidagi musiqa madaniyati merosi“(Samarand-2016), I.Qudratov „An'anaviy xonandalik“(Samarqand-2023) nomli darsliklari oily o'quv yurtlarining musiqa ta'limi yonalishida tahsil olayotgan bo'lg'usi musiqachi-pedagoglarni o'zbek xalq maqom san'ati, nazariy ma'lumotlar va an'anaviy ijrochilik uslublari bilan tanishtirib borishda muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda milliy maqom san'atimizga yuksak hurmat va e'tibor qaratilmoqda. Xususan, prezidentimiz Shahrisabzdagi „Xalqaro maqom san'ati anjumanining“ ochilishi marosimidagi nutqlarida shunday fikr bildirganlar: „Haqiqatdan ham biz uchun bebaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar, necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dardu armonlarini, ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifodalab kelmoqda. Sharq mumtoz adabiyoti, tasviriy san'ati, ilm-u ma'rifat, islomiy qadriyatlardan oziqlangan maqom san'atiga ana shunday buyuk meros rivojiga o'zbek xalqi ham

munosib hissa qo‘shgani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017– yil 17– noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3391 sonli qaror qabul qilindi.

2018-2019 – o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, madaniyat va san‘at kollejlari, ixtisoslashgan musiqa akademik litseylari, bolalar musiqa va san‘at maktablarida milliy maqomlar (Buxoro Shashmaqomi, Xorazm olti yarim maqomi va dutor maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, O‘zbek Shashmaqomi hamda yangi yo‘nalishlar) tizimli ravishda o‘quv dasturlariga kiritildi va amalga tatbiq qilindi. Davlatimiz rahbari tomonidan milliy musiqamizga ko‘rsatilayotgan bunday hurmat e‘tiborga biz labbay deb javob qaytarmasak bo‘lmaydi. Ulug‘ bobomiz Behbudiy o‘z asarlarida shunday deganlar „Siz kelajak avlodga kelar zamon ilmini o‘rgating, zero ular siz yashayotgan davrda emas, balki yangi keladigan zamonda yashaydilar“, chunonchi bu necha yillar oldin aytilgan gaplarni biz bugun o‘z zamonamizdagi rivojlanishlar orqali ko‘rib turibmiz. Nega shu kunlarda milliy durdonamiz bo‘lgan maqom san‘atimiz yosh avlod o‘rtasida keng ommalashmayapti? Nima uchun kundalik hayotda aksariyat aholi o‘rtasida maqomlar deyarli eshtilmayapti? Va asosiy muammo shundaki bizning o‘z kelayotgan yosh avlodimiz maqom yangrab qolsa e‘tibor bilan tinglash yo‘qolgan. Saviya va ma‘no jihatdan past darajada bo‘lgan, yengil-yelpi qo‘shiqning qiziqish bilan eshtilayotgani esa achinarli holat bo‘lmoqda. Agar biz shunday holatda, tariximiz va o‘zligimizni anglamasdan, yengil turmush tarziga odatlanadigan bo‘lsak, kelajagimiz zavolga yuz tutishi mumkin. Buni oldindan ko‘ra oladigan yurtboshimiz va kelajakni o‘ylagan buyuk bobolarimiz, bu haqda ko‘p qayg‘urishib, yosh avlodni ilmi va ziyoli bo‘lishiga, bu yorug‘ olamda o‘zligini anglash uchun intiluvchan bo‘lishiga chorlab kelgan va chorlamoqdalar. Imomlarning imomi bo‘lgan Ismoil Buxoriy bobomiz ilm haqida shunday degan edilar: “Bu dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”. Haqiqatdan ham agarda, biz ilmsizlik va dangasalik botqog‘iga botib qolsak, bugungi shiddatli bir ilm fan rivojlanayotgan davrda, tariximiz va milliylikimizni anglashda sustkashlikga yo‘l qo‘yadigan bo‘lsak, o‘z vaqtida yosh avlodga bu haqda yetarli bilim berib o‘zligini anglashga undamasak, butun boshli millat ilm ma‘rifat va ma‘naviyat havosidan nafas ololmay, bo‘g‘ilib zavolga yuz tutishi mumkin, chunonchi tarixsiz kelajak yo‘q. Bizning milliy maqom san‘atimiz shunchaki bir she‘r yoki oddiy musiqadan tashkil topgan emas, balki maqom bu o‘zbek millatining tarixi, dardu xasratlari, quvonchli shodligidir. Maqom to‘laligicha ruhiy jihatdan insonlariga tarbiya berib, odam bolasini komil inson darajasiga olib chiqishda asosiy manbaalardan biri hisoblanadi. Bu haqida Najmiddin Kavkabi bobomiz o‘z “Risolai musiqiy” asarlarida shunday degan edilar: “Musiqiy darhaqiqat, shahraflil ilm va nafis san‘atidir, zero undan tana emas ruxlar ozuqa oladi.

Nafas, inson qalbidagi rux erur

Pinhoniy xush sado unga xamroh erur

Ishonma desalarki jonga xamroh

U sado xamrohmas jonning o‘zidur

Natijalar. Bugungi dorulomon kunlarda biz yoshlar musaffo osmon ostida yashayotgan ekanmiz, yangi avlod va vatanimiz taqdiriga befarq bo‘lmasligimiz lozimdir. Mening fikri ojjizimcha, maqom san‘atimizni juda kichik yoshdan ya‘ni bog‘cha yoshidan bolalarga o‘rgatib boshlashimiz kerak, ba‘zilar yosh bolalarga qanday o‘rgatasan deyishlari mumkin, lekin men o‘z tajribamda ko‘rganmanki, bog‘cha bolalari “Soqiynomai savti kalon” kabi maqom ashullalarini ustozlaridan o‘rganib aytayotganlarini. Shunday ekan, biz bugun bog‘cha va maktablarda musiqa va maqom san‘ati ta‘limning eng muhim shakllantiruvchi bosqichi bo‘lgan umumtalim maktablarida o‘quvchi yoshlarni milliy musiqa merosimizning eng noyob namunalari bo‘lmish xalq qo‘shiqlari, ashulalari, kuylari, mumtoz va maqom asarlari bilan chuqur tanishtirib borishni taqazo etadi.

Mustaqil rivojlanish yillarida musiqa ta'limi sohasida, uni milliy asoslarda shakllantirish borasida ulkan o'zgarishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bu ishlarni yanada takomillashtirishda alohida e'tibor qaratish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Bu o'rinda quyidagilarni ko'rsatib o'tishni joiz deb xisoblaymiz:

1. Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati fani bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklariga kiritilgan kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan asarlar repertuarini qayta ko'rib chiqish, o'zbek xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom musiqasi haqida bilim va malakalar hosil qilishga mo'ljallangan o'quv materiallarini muayyan sinf, chorak mavzulari doirasida cheklanib qolmasligiga e'tibor qaratish lozim.

2. Yuksak va murakkab ijod namunalari bo'lgan mumtoz qo'shiqlar vositasida olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni sinfdan tashqari shakllarni uzviylik va tizimlilik tamoyillari asosida yo'lga qo'yish.

3. Xalq musiqa merosi (folklor, mumtoz va maqom) haqidagi o'quv materiallari va ular uchun ajratilgan o'quv soatlari hajmini ko'paytirish, mazmunan yanada boyitish zarur.

Shuni e'tirof etish joizki, o'zbek xalq musiqa merosi o'lkani ma'naviy xazina bo'lib, uning tarkibidagi og'izaki an'anadagi folklor kuy-qo'shiqlari, mumtoz va maqom ashulalari negizida xalq og'izaki ijodi va mumtoz she'riyat namunalari xos adabiy matn yotadi. Bu bebaho xazinaning yana bir qimmatli jihati zamonaviy kompozitorlarning ko'pchiligining ulardan ilhomlanib umrboqiy yangi-yangi asarlar yaratib kelishayotganligida ko'rinadi.

Mumtoz adabiyot namoyondalari yaratgan she'riy asarlar xalqimiz tomonidan asrlar davomida yuksak ijod namunalari sifatida e'zozlanib kelinadi. Ularning badiiy asar sifatida yuksak mahorat va istedod mevasi ekanligi, ular mazmunida ifodalangan g'oyalar, ishq ta'rifida bayon etilgan lirik kechinmalar, nozik his tuyg'ular, g'oyat nafis tasvirlar, o'xshatishlar, ranglar tavsifi har qanday kishi qalbida o'ziga xos ajib hissiyotlar uyg'otadi. Bunday asarlarni har gal o'qiganda bir-birini takrorlamaydigan tuyg'ularni tuyasan kishi. Shoirning betimsol hayoloti, o'z hayolotida siymosini chizgan mashuqasining oliyjanob fazilatlarini-yu, kishi erkini zabt etuvchi tashqi ko'rinishi, harakatlari beixtiyor o'quvchi qalbini o'ziga rom etadi. Bunday she'riy matnga bastalangan kuy, musiqaning sehrli ta'siri bilan uyg'unlashib, inson hissiyotiga kuchli emotsional ta'sir etishi bilan estetik tarbiya vositasiga aylanadi. Shuning uchun ham xalq musiqa merosidagi folklor, mumtoz va maqom musiqa namunalari, ularning ma'naviy-estetik tarbiyaviy imkoniyatlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir yaxshi samara beradi.

Inson o'z tabiatiga ko'ra doimo go'zallikka intilib yashaydi. Go'zallikka intilish mayli bilan yashaydigan insonni yoshligidan go'zalik qonunlari bo'yicha tarbiyalash, ularda go'zallikni his etish, baholash, unga o'z munosabatini bildira olishga o'rgatish, go'zallik yaratishga bo'lgan istedodini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish, estetik tarbiyaning olishga organish, go'zallik yaratishga bo'lgan istedodini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish estetik tarbiyaning bosh maqsadi va vazifasini belgilaydi. Milliy nafosat va milliy axloq, milliy etika o'zbek xalqining, respublikamiz ma'naviy-ma'rifiy hayotining ravnaqida naqadar muhim va salmoqli ahamiyatga ega bo'lsa, estetik va axloqiy tarbiya ham yoshlarning ma'naviy barkamol, aqlan yetuk, milliy qadriyatlarni teran his etuvchi shaxs sifatida kamol topishida bebaho vositasidir.

Xulosa. Musiqa madaniyatimiz tarixi, xususan o'zbek mumtoz va maqom san'ati rivojlanishi, uning xalqimiz ijtimoiy madaniy hayotida tutgan o'rni, ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritilgan ekan, uning maftunkor va chuqur falsafiy ma'naviy mazmuni bilan inson ongiga ma'naviy-rihiy ozuqa berishi bilan alohida ahamiyat kasb etib kelganligini va bugungi kunda ham o'z mavqei yo'qotmay, o'sib kelayotgan kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish yoshlarni milliy o'zligini anglash, ona vatan, milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashda benihoya qudratli kuchga egaligini, uning

yosh avlod ma'naviy dunyosini shallantirish beqiyos tarbiya manbia bo'lib kelganligini e'tibor etish o'rinli bo'ladi. Xulosa o'rnida aytish joizki, bugungi kunda respublikamizdagi ta'lim sohasining barcha bosqichlarida, unung eng muhim shakllantiruvchi bosqichi bo'lgan umumta'lim maktablarida o'qivchilarni milliy qadriyatlarimizga munosabatlarini ijobiy ma'noda shakllantirish borasida ularga milliy musiqa merosimizni chuqur o'rganish, milliy mumtoz va maqom san'atida mehr-muhabbat tuyg'ularini o'stirishning ilmiy pedagogik tizimini ishlab chiqish yoshlar tarbiyasi uchun mas'ul pedagog-murabbiylar oldida o'z faoliyatlarida yuksak mas'uliyat bilan yondashish bazifasini yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"-gi 2017 yil.
2. Sh.Mirziyoyev "Yoshlarni ma'naviy axloqiy va jismoniy barkamol, yetuk tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori". 2018-yil, 14-avgust.
3. Nurmatov H., Norxo'jayev N. Musiqa. 2- sinf uchun darslik. -Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022y.
4. Nurmatov H., Norxo'jayev N. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. - Toshkent, G'afur G'ulim nomidai nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2020 y.
5. Sh. Rahimov Shashmaqom-Samarqand "Zarafshon" nashriyoti 2016-yil.
6. Xorazm maqomlari. To'plovchi va notaga oluvchi Matniyoz Yusupov.-Toshkent. Badiiy adabiyot nashriyoti.
7. Mamirov Q. Xalq qo'shiqchiligi (mumtoz qo'shiqchilik). O'quv qo'llanma.-Toshkent. TDPU nashriyori,2006 y.
9. Qodirov D.K. An'anaviy qo'shiqchilik.-Toshkent, Iqtisod-moliya, 2008 y.

**BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARNING MULOQOT
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ROLLI O‘YINLAR VA KOMPYUTER
TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ РОЛЕВЫХ ИГР И КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ
КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА**

**THE IMPORTANCE OF ROLE GAMES AND COMPUTER TECHNOLOGIES IN
DEVELOPING COMMUNICATION COMPETENCES OF FUTURE FOREIGN
LANGUAGE TEACHERS**

Xasanov Akram Anvarovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tili o‘qitish jarayonida bo‘lajak pedagoglarning muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning metodik asoslari va pedagogik sharoitlari tahlil qilinadi. O‘yinlar va interaktiv metodlar, ayniqsa, grammatik, fonetik va leksik mashqlarni o‘z ichiga olgan ijodiy o‘yinlar, chet tilini o‘rganishda samarali vosita sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, ta‘lim jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishga oid yangi metodik yondashuvlar, masalan, “madaniyat kapsulalari” va “madaniyatlararo muloqot” metodlari muhokama qilinadi. Shuningdek, muloqot kompetensiyasini baholash va nazorat qilishda yangi metodlar, xususan, “portfolio” va obyektiv testlar kabi usullar muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *chet tili o‘qitish, muloqot kompetensiyasi, pedagogik ixtisoslashuv, o‘yin metodlari, madaniyatshunoslik, kompyuter texnologiyalari, pedagogik nazorat, kasbiy tayyorgarlik, metodik yondashuvlar, interaktiv o‘yinlar.*

*Xasanov A.A.,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori
hasanov.0276@gmail.com*

Аннотация. В данной статье анализируются методические основы и педагогические условия совершенствования коммуникативной компетентности будущих педагогов в процессе обучения иностранному языку. В качестве эффективного средства изучения иностранного языка рекомендуются игры и интерактивные методы, особенно творческие игры, включающие грамматические, фонетические и лексические упражнения. Также обсуждаются новые методические подходы к развитию социокультурной компетентности в образовательном процессе, такие как методы «культурных капсул» и «межкультурной коммуникации». Также подчеркивается, что важную роль в оценке и контроле коммуникативной компетентности играют новые методы, в частности такие методы, как «портфолио» и объективные тесты.

Ключевые слова: *обучение иностранному языку, коммуникативная компетентность, педагогическая специализация, игровые методы, культурология, компьютерные технологии, педагогический контроль, профессиональная подготовка, методические подходы, интерактивные игры.*

Abstract. This article analyzes the methodological foundations and pedagogical conditions of improving the communicative competence of future pedagogues in the process of foreign language teaching. Games

and interactive methods, especially creative games that include grammatical, phonetic and lexical exercises, are recommended as an effective tool for learning a foreign language. Also, new methodological approaches to the development of socio-cultural competence in the educational process, such as “culture capsules” and “intercultural communication” methods, are discussed. It is also emphasized that new methods, in particular methods such as “portfolio” and objective tests, play an important role in the evaluation and control of communication competence.

Key words: *foreign language teaching, communication competence, pedagogical specialization, game methods, cultural studies, computer technologies, pedagogical control, professional training, methodical approaches, interactive games.*

O‘zbekistonda chet tili ta’limi sohasida olib borilayotgan islohotlar, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni ham yangilanishni davom ettirmoqda. Chet tili o‘qituvchilarining malakali va samarali faoliyat yuritishi uchun ularning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish juda muhimdir. Bunday kompetensiyalar nafaqat til o‘rgatish jarayonining samaradorligini ta’minlaydi, balki talabalarning tilni jonli va tabiiy ravishda o‘rganishlariga yordam beradi. Muloqot kompetensiyalarini shakllantirishda rolli o‘yinlar va kompyuter texnologiyalari o‘zining o‘rni va ahamiyatiga ega.

Rolli o‘yinlar o‘tkazish orqali bo‘lajak faoliyat qismlarini modellashtirishda erta ixtisoslashtirishning shakllaridan biri amalga oshiriladi va shu tariqa, chet tili mashg‘ulotlari bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi jarayoniga o‘z hissasini qo‘shadi. So‘nggi vaqtlarda chet tillarini o‘qitish metodlarini rivojlantirish, takomillashtirish, optimallashtirish vazifasi “madaniyatlar dialogi” jihatidan nafaqat sifatli yangi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lmoqda, balki muloqot kompetensiyasini takomillashtirishga yo‘nalgan o‘qitish maqsadlarini tadrijiy rivojlanishiga mos ravishda belgilanadi [15].

Tilga oid muhitdan uzilish sharoitlarida maqsadga muvofiq rivojlanish va mos ravishda, tili o‘rganilayotgan mamlakat hayotining hodisalarini aks ettiruvchi mamlakatshunoslik leksikasini o‘zlashtirishning nazorati alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlash lozim. Masalan, pedagogik oliy ta’lim tashkilotlarida chet tili bo‘yicha mashg‘ulotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida matnli materiallarni mavzularini, muhokama etiladigan muammolarni u yoki bu ijtimoiy-madaniy mazmunga kiritadigan, bu bilan talabalarni fikrlashga va mos mamlakatshunoslik leksikasini qo‘llashga undaydigan topshiriqlar, muammolarini belgilashdagi puxta tanlovga e’tibor qaratish lozim. Mazkur maqsadda biz “muammoli chet tilidagi topshiriqlarning iyerarxik tizimlari”dan foydalanishni taklif etamiz (V.V.Safonova atamasi) [10], ular ijtimoiy-madaniy bilishga oid-izlash topshiriqlarini shaxsning kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga yo‘nalgan, bo‘lajak pedagogning ijodiy individualligini rivojlantirishga ko‘maklashadigan fanlararo muloqotga yo‘nalgan o‘yinlarni ifodalaydi.

N.A.Ignatenko ijtimoiy-madaniy kompetensiyaga taalluqli o‘z tadqiqotida, chet tilini o‘qitish jarayonida, avval rus tilidagi ilmiy-metodik adabiyotda ifodalanmagan, qator o‘qitish madaniyati usullarini ochib beradi. U “madaniyat kapsulasi” (Kulture Kapsule - X.Taylor va D.Sorens tomonidan ishlab chiqilgan); “madaniyat hodisalari guruhlarini” (Kulture Kluster - mualliflar V.Mid va D.Moreyn); “madaniyatlararo muloqot tahlili” (Kritikal Insident - ijtimoiy psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan); “madaniy moslashuv” (Kulture Assimilator) kabi usullardan foydalanishning zarurati va samaradorligini ta’kidlaydi [6].

Amaliyotning ko'rsatishicha, chet tili bo'yicha mashg'ulotlarda quyidagi o'yinlarni qo'llash zarur: grammatik o'yinlar, leksik o'yinlar, fonetik o'yinlar, orfografik o'yinlar, ular talaffuzni tuzatish, leksik hamda talaffuz malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga ko'maklashadi, shuningdek, muloqot kompetensiyasini kelgusida takomillashtirishga yordam beruvchi "ijodiy o'yinlar" sanaladi.

O'yin "an'anaviy o'qitish turiga qarama-qarshi chiqmaydi, zamonaviy pedagogik nazariyalarga zid bo'lmaydi va kelajakda integratsiyalangan o'qitish shakllaridan biriga aylanishi mumkin bo'lib, unda barcha o'qitish turlari yanada yaxshi birlashishi kerak, bu esa o'qitish nazariyasi va texnologiyasida bo'lgan, mavjud va kelajakda ham mavjud bo'ladi" [6]. Shu sababli, nofilologik fakultetlarda chet tilini o'qitishda turli xil o'yinlardan foydalanishni pedagogik oliy ta'lim tashkilotlari talabalari muloqot kompetensiyasini takomillashtirishga ko'maklashuvchi muhim vosita sifatida qarash lozim.

Ma'lumot manбайдan erkin foydalanish, tajriba va g'oyalar almashish har bir mutaxassis uchun zarurdir, negaki, hech qanday fan, jumladan, pedagogika ham cheklangan muhitda to'laqonli rivojlana olmaydi. Shu munosabat bilan shakllangan muloqot kompetensiyasining zarurati yuzaga keladi va usiz to'laqonli muloqotni amalga oshirib bo'lmaydi, chunki olingan ma'lumot tushunarsiz va foydasiz bo'lishi mumkin. Tashkiliy-pedagogik shart sifatida biz qo'yilgan maqsadga, ya'ni - muloqot kompetensiyasini takomillashtirishga mos bo'lgan o'qitish vositalarini qo'llashni belgilaymiz:

1) O'qitish va kasbiy tayyorlash jarayoni samarali bo'lishi uchun o'qitishni tabaqalashtirishning turli strategiyalari yoki turli yo'nalishlarini hisobga olib qurilgan va talabalarning ehtiyojlarini, ularning ixtisosliklari va o'qitish sharoitlarini, shuningdek, zamonaviy kompyuter dasturlari paketlarini yanada to'liq hisobga oluvchi audiovizual vositalar zarur.

2) Chet tilini intensiv o'qitish prinsiplari asosidagi audiovizual vositalar qator olimlar tomonidan yetarlicha batafsil tadqiq etilgan (N.F.Borisko[2], A.Yu.Gorchev[4], S.M.Zorin[5], P.I.Serdyukov[11] va boshqalar). O'quv materialini audiovizual ifodalash va undan muloqot kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida foydalanishning asosiy afzalliklarini qisqacha ajratamiz.

3) Idrokning ko'rish, ixcham kanali qo'llanadi, u ko'proq o'tkazish qobiliyatiga egadir.

4) Videofonogramma yordamida ikki kanal bo'yicha ma'lumotning borishi ham har bir ta'lim oluvchining sensor tuzilishi xususiyatlarini inobatga olish imkonini beradi, ular nafaqat ma'lum xotira turining ustunligida (ko'rish, eshitish, aralash), balki idrok, tafakkur, ichki nutq va h.k. sohalarda u yoki bu hissiy obrazlarning ustunligida ifodalanadi [1].

Biz tadqiqotchilarning pedagogik amaliyotga kompyuter texnologiyalarini joriy etish, ularni muloqot kompetensiyasini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida qo'llash, amaliy maqsadlarda chet tilidan foydalanib, talabalarni kasbiy tayyorlash darajasini oshirishga qaratilgan izlanishlarini to'g'ri deb hisoblaymiz.

Darhaqiqat, bunday o'qitish jarayonining tashkiliy qismi ta'lim oluvchining faol kommunikativ faoliyatni amalga oshirish imkoniyati bilan bog'liq bo'lgan axborot mohiyati hisoblanadi, chunki muloqot kompetensiyasining rivojlanishida muhim bosqichlardan biri nutqiy faoliyatning ixtiyoriy turini egallash sanaladi.

An'anaviy o'quv materiallariga qo'shimcha ravishda Internet va CD-ROOM imkoniyatlaridan foydalanish o'qitishni ijodiy va tabiiy jarayonga aylantiradi, chet tilida muloqot qilishga o'rgatishda ulkan motivatsion imkoniyat yaratadi. Tovushli kartalardan foydalanish alohida xorijiy so'zlar, iboralar, matnlarni ifodalash, ta'lim oluvchining nutqini til tashuvchisining talaffuzi bilan sur'atini variatsiyalab, solishtirish imkonini beradi. Dasturlar ma'lumotlar bazasi alohida grammatik, leksik tuzilmalar yoki mazmuni o'zgartirish til ifodalarini o'zgartirish imkonini beradi.

Chet tillarini o'rganuvchilar va o'qituvchilar so'zning lug'atdagi ma'nosini, spravochnikdagi grammatik shaklini, bilimlarni mustahkamlash va malakani hosil qilish uchun mos mashqni izlash borasida qancha samarasiz vaqt sarflanishini biladilar.

Gipermatnli va multimedia texnologiyalari didaktik imkoniyatga ega bo'lib, bir vaqtda ma'lumotni olish vositasi va bilimlarni egallash instrumenti hisoblanadi, ularni chet tilini o'qitish jarayonida qo'llash o'quv faoliyatini faollashtiradi. Intensifikatsiyalaydi va umuman ta'lim oluvchi shaxsiga, uning mustaqil ishga intilishiga, muloqot kompetensiyasini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatadi, uning vaqtning minimal sarfi bilan o'quv materialini o'zlashtirishini ta'minlaydi va talabalarning haqiqiy zahira imkoniyatlarini ochishga ko'maklashadi.

Ko'pgina tadqiqotlarda, ma'lum maqsadda mustaqil egallangan ma'lumot eng yaxshi o'zlashtirilish deb ta'kidlanadi. Kompyuter texnologiyalari global axborot sohasida erkin ishlashni ta'minlaydi, ta'limiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, WWW (World Wide Web) izlash tizimi o'z tuzilishi bo'yicha ensiklopediyadagi maqolalarning tashkil etilishiga o'xshaydi, kesishma ssilkalar usulidan foydalanib, yorqin ifodalangan kommunikativ faoliyatli xususiyat kasb etadi.

Tarmoq resurslari orqali olingan ma'lumot o'z atrofida ma'lum evristik imkoniyat maydonini hosil qiluvchi, qo'zg'atuvchi kuch, ijodga undovchiga aylanadi, bu esa chet tilini o'zlashtirish amaliyotida o'z bilimlari, ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirishga intiluvchi talabalar uchun, ayniqsa, muhim hisoblanadi [8]. Muloqot kompetensiyasini takomillashtirish talabalarga shaxsning ta'limiy, madaniy, ilmiy istiqbollari kengaytirishlariga yordam berishi muhimdir.

Chet tilini o'qitish jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarning fanga munosabatlarini o'zgartirishga, bo'lajak pedagoglar orasida tilga oid to'siqni yengishga, muloqot kompetensiyasini takomillashtirishga, ta'lim muhiti sohasidagi samarali muloqotni amalga oshirishga, uning yanada dolzarbligini oshirishga mo'ljallangan deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan psixologik-pedagogik, tashkiliy-pedagogik sharoitlar, shuningdek, O'zbekistonda tilga oid ta'limni rivojlanishining istiqbolli tendensiyalari, pedagogik oliy ta'lim tashkilotlari talabalarini muloqot kompetensiyasini takomillashtirish maqsadida didaktik-metodik sharoitlarni aniqlash va amalga oshirish zaruratini talab etdi.

Nazorat ixtiyoriy pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Chet tillarini o'qitish maqsadida diqqatni jamlash muloqot kompetensiyasi darajasi nazoratiga yondashuvlarni o'zgartirishni talab etadi.

"Talabani tilga oid pasporti"ni ishlab chiqish va foydalanishni muhim didaktik-metodik shart sifatida qarash nazoratning eng optimal ko'rinishi bo'lib, uni amalga oshirish pedagogik oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kasbiy tayyorgarligi jarayonining samaradorligi va mahsuldorligini oshirishga ko'maklashadi.

Xorij tajribasida chet tillarini o'qitish jarayonida bilim, ko'nikma, malakalar nazorati muammosini ishlab chiqish bir necha yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Birinchisiga ko'ra, bilim, ko'nikma va malakalar nazorati qator ahamiyatli sifatlariga ega bo'lgan, chet tilini auditoriyaviy o'qitish sharoitlarida betakror bo'lgan obyektiv test sinovi metodi bilan o'tkaziladi.

Rossiyalik va xorijiy tadqiqotchilarning nazoratni takomillashtirishga taalluqli ishlarini o'rganishda, ya'ni ilmiy asoslangan va metodik savodli tashkil etilgan test sinovi qayta aloqani kompleks muloqotga yondashuv asosida amalga oshirishga imkon berishi aniqlandi [9, 12, 13].

Mazkur yondashuvda test sinovida, fikrning shakli va tuzilishining to'g'riligiga emas, balki avvalo, fikr ma'nosining muhimligiga urg'u beriladi. U til muloqotda qanday qo'llanilishi bilan bog'liq va asosan ta'lim oluvchilar uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarga maksimal yaqinlashtirilgan masalalarni ko'zda tutadi. Ularni hal etishning muvaffaqiyatlilik rasmiiy tilning

to'g'riligidan ko'ra, ko'p jihatdan bevosita muloqotning samaradorligi darajasi bilan tavsiflanadi. Muloqot kompetensiyasining shakllanganligi darajasini aniqlashda kompleks muloqotga yondashuv muloqot testlari yordamida amalga oshiriladi. Bunda nutqiy faoliyat turlari o'rtasida qat'iy ajratishlar amalga oshirilmaydi, chunki haqiqiy muloqot tajribasi ularning o'zaro aloqadorligi to'g'risida guvohlik beradi.

Obyektiv test sinovidan tashqari, muloqot kompetensiyasi nazoratining alohida yo'nalishida, obyektiv baholashda qabul qilinganidan ko'ra yanada "insonparvar" munosabat bilan tavsiflanuvchi subyektiv o'lchov ajratiladi [16].

Mazkur metodlar ("imitatsiya" va kuzatish) obyektiv baho qo'yishni nazarda tutmaydi, ammo muloqot kompetensiyasini tashkil etuvchi shaxsning malaka, ko'nikma va sifatleri shakllanganligini belgilashda ahamiyatli rol o'ynaydi.

Uchinchi yo'nalishda "portfolio" (Portfolio) ajratiladi, u bilimlarni egallash, izlash malakalari va materialga ishlov berish, shuningdek, tizimli-tashkiliy shakldagi o'qitish maqsadlariga erishishga munosabat monitoringi uchun o'qituvchi va ta'lim oluvchilar tomonidan qo'llanadigan materiallar va axborot majmui sifatida belgilanadi [3, 7, 14]. Standart obyektiv testlarda o'lchash imkoni bo'lmagan, shaxs rivojlanishi bilan bir qatorda, o'rgatish jarayonining chuqurligi va hajmini baholash imkoniyati portfolioning ijobiy tomoni hisoblanadi. Lingvistik materialni yig'ish, uni tayyorlash va ta'lim oluvchilar jamoasi oldida ifodalash "portfolio" metodining mazmunli tomoni bo'lib, bu keyinroq ishlab chiqilgan shkala bo'yicha baholanadi.

Nazoratning mazkur turi oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining muloqot kompetensiyalari shakllanganligining haqiqiy darajasini tashhislashga imkon beradi va olingan ma'lumotlar asosida bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirish, malakalarni shakllantirish jarayonida korreksiyalab, uni oshirishning kelgusi strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishga imkon beradi.

Kuzatilgan va qayd etilgan ma'lumotlar o'qituvchiga chet tilini o'qitishda talabalar muloqot kompetensiyalarini takomillashtirish jarayonining samaradorligi haqida ma'lum xulosaga kelishga, ta'lim oluvchining kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarining rivojlanishi dinamikasi to'g'risida vositali ma'lumotni olishga imkon yaratadi.

Bizningcha bilim, ko'nikma va malakalar nazoratining optimal turi sifatida oliy ta'lim tashkilotlarida chet tilini o'qitishda "Talabaning tilga oid pasporti"ni qo'llash oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchini kasbiy tayyorlash davomida muloqot kompetensiyasi darajasini takomillashtirish jarayonining muhim sharti hisoblanadi.

Shaxsiy yo'naltirilgan, madaniyatshunoslik va kreativ yondashuvlarni inobatga olib, talabalarga ularning faolliklarini qo'llab-quvvatlab, o'quv-tarbiya jarayonida ma'lum mustaqillik va o'zini-o'zi boshqarishni taqdim etish tavsiya etiladi.

Shu tariqa, o'tkazilgan tadqiqotlar, pedagogik oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarni kasbiy rivojlantirish va tayyorlashning samaradorligini ta'minlovchi, muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning psixologik-pedagogik, tashkiliy-pedagogik, didaktik-metodik majmuini aniqlash va ifodalash imkonini berdi.

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda rolli o'yinlar va kompyuter texnologiyalarining ahamiyati katta. Ular nafaqat o'quvchilarga tilni samarali o'rgatish imkoniyatini beradi, balki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Chet tili o'qituvchilari uchun bu yangi pedagogik metodlar, ular tomonidan yangi yondashuvlarni qo'llashga va o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Shu sababli, ta'lim tizimida bu vositalarni faol va keng joriy etish chet tili o'qituvchilarining samarali faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ананьев, Б.Г. К психофизиологии студенческого возраста / Современ, псих.-пед. проблемы высшей школы. - Л.: Изд-во Ленингр. гос. ун-та, 1974. - Вып. 2. - С. 3-15.
2. Бориско Н.Ф. Обучение устной монологической речи с использованием видеофонограммы в интенсивном курсе на начальном этапе в языковом вузе: Дис. ... канд. пед. наук / - Красноярск, 1987. - 226 с.
3. Council for Cultural Cooperation. Education Committee. "Language Learning for European Citizenship". European Language Portfolio. Proposals for Development. - Strasbourg, 1997. - P. 243-328.
4. Горчев А.Ю. О некоторых важнейших условиях эффективности использования ТСО / Иностранные языки в школе. - 1987. - № 4.-С. 101-106.
5. Зорин С.М. Два аспекта технического обеспечения интенсивного обучения иностранному языку / Активизация учебной деятельности / Под ред. Г.А. Китайгородской. - М., 1982. - Вып. 2. - С. 165-173
6. Игнатенко Н.А. Факторы формирования иноязычной социокультурной компетенции будущего учителя: Дис. ... канд. пед. наук / - Воронеж, 2000. - 168 с.
7. Modern Languages: Learning, Teaching, Assessment. A Common European Framework of Reference". Draft 2 of a Framework Proposal. Modern Languages. Council for Cultural Cooperation. Education Committee. - Strasbourg, 1996. - 1053 p.
8. Полат, Е.С. Новые педагогические и информационные технологии / - М., 1999. - 238 с.
9. Риверс, М. Десять принципов изучения и обучения иностранным языкам на основе взаимодействия обучаемого и преподавателя / Глядя в будущее: Первый советско-американский симпозиум по теоретическим проблемам преподавания и изучения иностранных языков (17-21 октября 1989). - М.: Рема; Изд-во Моск. гос. лингв. ун-та, 1992. - С. 99-118.
10. Сафонова В.В. Социокультурный подход к обучению иностранным языкам / - М.: Высш. шк.; Амскорт интернэшнл, 1991. -С. 146-178
11. Сердюков П.И. Основы интенсивного курса обучения иностранным языкам / - Киев: Вищ. шк., 1984. - 55 с.
12. Тагунова, И.А. Мотивация как целеполагающий компонент учения (на материале зарубежных стран) / Новые исследования в педагогических науках. - М.: Педагогика, 1991- Вып. 2(58).- 72 с.
13. Tochon, F. La pensee des enseignants: un paradigme en developpement. II Perspectives Documentaires en Sciences de l'Education. -1989.-№ 17.-127 p.
14. Trim, J. European Language Portfolio: The Council, of Europe Documents - 1996. - P. 154-156.
15. Xasanov, A.A. "Oliy ta'lim muassasalari talabalarida muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda roli (o'yinli) muloqot" / Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar: xorijiy tajriba, istiqbolli izlanishlar va tillarni o'qitishning innovasion usullari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. SamDChTI, 20-21.05.2022 y. 242-244 betlar.
16. Шейлз, Дж. Коммуникативность в обучении иностранным языкам / Совет Европы Пресс, 1995.

TIL O‘RGANISHDA TAKRORLASHNING AHAMIYATI
THE IMPORTANCE OF REPETITION IN LANGUAGE LEARNING
ВАЖНОСТЬ ПОВТОРЕНИЯ В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА

Xodjayorova Sayora Abdullayevna

Annotatsiya. Maqolada til o‘rganishda takrorlashning ahamiyati haqidagi turli ilmiy-nazariy qarashlar yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan. Til - yangi bilimlar, madaniyat va insonlarni birlashtiradigan vositadir. Bugungi kunda dunyo aholisining aksariyat qismi ingliz tilida erkin muloqot qilishni xohlaydi, xususan, O‘zbekistonda ham. Quvonarli shundaki, endilikda chet tillarini o‘rganish, o‘rgatishga keng yo‘l ochilgan. Biroq, shunday bo‘lsa-da, o‘qituvchilar tomonidan noto‘g‘ri tanlangan o‘qitish texnikasi bolalarda tilni o‘rganishni sekinlashtiradi va ba‘zan bezdirishga ham olib keladi. Aynan ingliz tilini o‘rgatishda faqat va faqat lug‘at yod oldirish va grammatik qoidalarni o‘qitish har doim ham samara bermaydi. Mazkur maqolada ingliz tilini takrorlash orqali tez va oson o‘rganish tajribalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Takrorlash, chuqur o‘rganish, bir zumda tushunish, tushunarli materiallar, takroriy tinglash, vaqt talab qiluvchi jarayon, asosiy ko‘nikmalar, tor tinglash.*

Abstract. The article studies the importance of repetition in language learning. Language is the way to explore new knowledge, culture and people. And most people want to learn English which becomes International language around the World and speak fluently in this language. The problem is that most schools have a lot of pressure to go very fast. They are always pushing the students to learn more and more vocabulary and new grammar. This article illustrates some connections of language with repetition. Furthermore, if language teachers’ training collaborated with not only standard lesson schedule, but also deep learning method, in today’s world that is becoming more than easy to reach success in language learning

Keywords: *Repetition, deep learning, understanding instantly, understandable materials, repetitive listening, time-consuming process, fundamental skills, narrow listening.*

Аннотация. В статье изучается важность повторения в изучении языка. Язык – это способ познания новых знаний, культуры и людей. И большинство людей хотят изучать английский, который становится международным языком во всем мире, и свободно говорить на этом языке. Проблема в том, что большинство школ испытывают сильное давление, требуя от них очень быстрого обучения. Они всегда подталкивают учеников изучать все больше и больше слов и новой грамматики. Эта статья иллюстрирует некоторые связи языка с повторением. Более того, если бы обучение преподавателей языка сочеталось не только со стандартным расписанием уроков, но и с методом глубокого обучения, в современном мире становится более чем легко достичь успеха в изучении языка.

Ключевые слова: *Повторение, глубокое обучение, мгновенное понимание, понятные материалы, повторное слушание, трудоемкий процесс, фундаментальные навыки, узконаправленное слушание*

*Xodjayorova S.A.,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
katta o‘qituvchi
Sayorakhodjayorova1959
@gmail.com*

Kirish. Yangi tilni o‘rganish qiyin va ko‘p vaqt talab qiladigan jarayon bo‘lishi mumkin, ammo to‘g‘ri yo‘l va texnika bilan ravonlikka erishish hamda ona tilidagi kabi muloqot qilish darajasiga erishish mumkin. Til o‘rganuvchilarga yordam beradigan kuchli vositalardan biri *chuqur o‘rganish*dir. Xo‘sh, bu qanday usul? Chuqur o‘rganish ingliz tilida gapirish va tushunishni avtomatik tarzda yaxshilash jarayonidir. Ko‘pincha, ingliz tilini o‘rganuvchilar juda ko‘p grammatik qoidalar va lug‘atlarni yod olishadi, lekin ular buni chuqur bilishmaydi. So‘zlash vaqti kelganda, ular lug‘atni tarjima qiladi va dastavval zamonlarni tahlil qilib, so‘zlovchi tomonidan ularga aytilayotgan gaplarning ma‘nosini tushunish uchun kurashadilar.[1] Chuqur o‘rganish o‘zlashtirilgan tushunchani qayta-qayta takrorlashni anglatadi. Bu maktabda o‘qitilgan tajribadan butunlay farq qilishi mumkin. Ko‘plab maktablarda ingliz tili o‘qituvchilari tomonidan tilni tezlikda o‘rgatish va o‘quvchidan ham tezkorlikni talab qilish bilan bog‘li bosim mavjud bo‘lib, shu asnoda bolalarga so‘zni shunchaki yod olish va qoidalarni takrorlashga olib keladi, xolos, biroq so‘zning asl mohiyati, uning asl va yondosh ma‘nolari, kontekstual vazifalari haqida ma‘lumot va tushunchalar berilmaydi. O‘qituvchilar tomonidan darslikka bog‘lanib qolish, undagi mavzularni belgilangan muddatda tugatishga harakat qilish holatlari ham hech kimga sir emas. Bu o‘rinda muammo shundaki, o‘quvchilar ko‘p so‘zlarni yod oladi, ko‘p hajmli ma‘lumotlarni tez fursatda o‘rganadi, biroq keyin uni unutadi. Natijada ularda asosiy fikrni eslab qolish ko‘nikmasi shakllanadi, undan foydalanish ko‘nimasi esa chetda qoladi.

Asoslarni o‘zlashtirish. “Chuqur o‘rganish” iborasini yaxshiroq tushunish uchun yana bir bor sport olamiga qaraylik. Masalan, professional golfchini tasavvur qiling. Professional golfchi o‘yinni qanday o‘zlashtirib oladi va rivojlanishda davom etadi? Golfchi uchun eng muhim mahorat bu ularning tebranishidir. Professional sportchi har kuni besh yuz marta yoki undan ko‘proq tebranish bilan shug‘ullanadi.[8] Yaxshi golfchi hech qachon: “Yaxshi, men qanday urishni bilaman, shuning uchun endi boshqa narsa qilishim kerak”, - deb aytmaydi. Golfchilar o‘yinni o‘zlashtirishning eng yaxshi usuli bir nechta asosiy ko‘nikmalarni egallash ekanligini tushunishadi. Ular bir xil ko‘nikmalarni kuniga yuzlab marta, yillar davomida, ehtimol, butun umri davomida mashq qiladilar.[8]

Afsuski, ko‘pchilik ingliz tilini o‘rganuvchilar chuqur o‘rganish muhimligini tushuna olmaydilar. Bizningcha, o‘qituvchilar eng keng tarqalgan va foydali bo‘lgan tilni takrorlash va ko‘rib chiqish uchun tez-tez hamda uzoq vaqt sarflashlari kerak. Ba’zida o‘quvchilar tomonidan: “Men ilg‘or grammatikani o‘rganmoqchiman. Men o‘tgan zamoni allaqachon bilaman” shaklidagi shikoyatli e‘tirozlar ham bildiriladi. Shunga qaramay, tasodifiy suhbatda o‘sha o‘quvchi tez-tez o‘tgan zamon bilan xatoga yo‘l qo‘yadi. U “ketdim” deyishi kerak bo‘lganida “bor” deydi. U bilim va mahorat o‘rtasidagi farqni tushunmaydi.[9]

Esingizda bo‘lsin, bilim siz tahlil qiladigan va o‘ylaydigan narsadir. Malaka - bu siz qiladigan narsa. O‘tgan zamoni bilish foydasiz. Haqiqiy suhbatlarda o‘tgan zamoni darhol va avtomatik ravishda ishlatishingiz kerak. Sizga ingliz tilini bilish emas, balki ingliz tilini darhol ona tilidagidek qo‘llashga tayyor bo‘lish muhimdir.[1]

Qanday qilib chuqur o‘rganish kerak? Agar bu holat sizga tanish bo‘lib tuyulsa, tushkunlikka tushmang. Siz o‘rganish uslubingizni o‘zgartirish orqali mukammal ingliz tilida gapirish maqsadingizga yaqinlashishingiz mumkin. Siz shunchaki sekinlashishingiz va o‘rgangan hamma narsani qayta-qayta takrorlashingiz kerak. Ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha eng yuqori darajadagi mutaxassis AJ.Xogening so‘zlariga ko‘ra, o‘quvchilar har bir darsni kamida yetti kun davomida takrorlashlari kerak. Ikki marta tinglagandan keyin yaxshi bilaman deb o‘ylasalar, shunda to‘g‘ri bo‘ladi. Agar bu hali ham qiyin bo‘lsa, u ularga har kuni ikki, uch yoki hatto to‘rt hafta davomida darsni tinglashni maslahat beradi. Esingizda bo‘lsin, bu poyga emas. Gap yod olish yoki iboralarni qushdek qaytarib o‘qish emas, balki siz o‘rganayotgan iboralarni chinakam chuqur tushunishdir. Aksariyat hollarda ko‘plab talabalar “Bir

haftada bir dars emas, ikkita darsni o'rganishim mumkinmi?" degan savolni berishadi. Bu yaxshi savol. Odamlar tezroq maqsadga erishishni, ko'proq narsani bajarishni xohlashadi. Bu normal holat. Ammo bu yo'ldan o'tgan ilg'or talabalardan so'rasangiz, hammasi sizga bir xil javob beradi: "Yo'q". Buning sababi chuqur o'rganish muhim ahamiyatga egaligi bilan belgilanadi.[5] Misol uchun, agar sizda audio maqola yoki podkast, tinglashni yoqtiradigan narsangiz bo'lsa, uni bir marta tinglamang. Bir marta yetarli emas. Besh marta yetarli emas. Siz o'sha maqolani, nutqni, nima bo'lishidan qat'iy nazar, 30 marta tinglashingiz kerak. Yoki 50 marta, 100 marta yoki undan ham ko'proq. Podkastdagi lug'atni o'rganganingizdan so'ng tinglashda davom eting. Chunki lug'atni bilish, testdan o'tib, ma'nosini aytishni anglatadi, lekin uni eshitganingizda bir zumda tushunasizmi? Uni tez va avtomatik ravishda ishlata olasizmi? Agar javob yo'q bo'lsa, uni yana o'rganishingiz kerak, yana o'sha audioni tinglashingiz kerak. Ko'p, ko'p marta. Bu tezroq so'zlash va grammatikani chinakam o'rganish hamda undan to'g'ri foydalanish sirlaridan biridir. Siz kuniga yuzlab marta tebranish bilan shug'ullanadigan professional golfchiga o'xshaysiz. Golfchi har doim bir xil asosiy mahoratni oshirish yo'llarini qidiradi. Golfchi asosiy bilimlarni egallash ko'p nazariy bilimlardan muhimroq ekanligini tushunadi.

Bu – sir. Siz hech qachon to'xtamaysiz. Sizga ko'proq takrorlash kerak. Tinglash va keyin takrorlash, takrorlash va takrorlash orqali eng keng tarqalgan so'zlarga, eng keng tarqalgan fe'llarga, eng keng tarqalgan iboralarga e'tibor qarating. Buni bajarganingizda, siz "to'g'rilik tuyg'usi" ni rivojlantirasiz va ingliz tilidan tabiiyroq va avtomatik ravishda foydalana boshlaysiz. Ehtimol, siz: *"Ammo men bir xil narsani qayta-qayta tinglashdan zerikmaymanmi?"*- deya savol berishingiz mumkin. Albatta, shunday bo'lishi mumkin. Zerikish oldini olishning eng yaxshi usullaridan biri bu sizni jalb qiladigan materialni tanlashdir. Qanday qilib jozibali tarkibni topasiz? Buning bir usuli - o'zingiz yoqtirgan narsa haqida ingliz tilida o'rganish. Misol uchun, agar siz o'z tilingizda ishqiy romanlarni yaxshi ko'rsangiz, ularni ingliz tilidagi variantini sotib oling. Oson romantik audio kitoblarni toping va ularni har kuni tinglang. Kitoblarning matnli versiyalarini toping va tinglayotganingizda o'qing. Agar siz biznesni yaxshi ko'rsangiz, ingliz tilida biznes haqida bilib oling. Ingliz tilidan o'zingizga qiziq bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'rganish vositasi sifatida foydalaning. Ushbu jozibali tarkibga qanchalik ko'p e'tibor qaratsangiz, uni tez-tez takrorlash osonroq bo'ladi. Uni qayta-qayta eshitishdan zavqlanasiz.[3]

"Tor tinglash" mashqi - bu chuqur o'rganishning yana bir usuli bo'lib, u bir mavzu bo'yicha ko'p narsalarni tinglashni anglatadi. Bu usul turli xil narsalarni tinglashga urinishdan ko'ra kuchliroqdir. Masalan, siz bitta ingliz tilida so'zlashuvchi shaxsni tanlashingiz va u tomonidan ko'p narsalarni topishingiz mumkin. Keyin uning barcha podkastlari, nutqlari va audiokitoblarini tinglang. Bu juda samarali, chunki barcha ma'ruzachilar o'zlarining sevimli lug'atlari va grammatikalariga ega. Ular buni tabiiy ravishda o'z nutqlarida ko'p marta takrorlaydilar. Xuddi shu inson nutqidan ko'p narsalarni tinglash orqali avtomatik ravishda ko'p lug'at takroriga ega bo'lish mumkin. Shu tarzda siz chuqurroq va tezroq o'rganasiz.[2]

Yana bir shunga o'xshash yo'l - diqqat qilish uchun bitta mavzuni tanlash. Masalan, siz oson kitobni o'qishingiz, uning audio kitobini tinglashingiz, keyin kitob haqida podkast tinglashingiz va filmni tomosha qilishingiz mumkin. Bunda qaysi turdagi materiallarni tanlayotganingizga e'tibor bering. Avvalo, bu siz uchun tushunarli bo'lishi kerak. Agar tushunmasangiz, hech narsa o'rganmaysiz. Siz yaxshilanmaysiz. Shuning uchun ingliz TV tinglash sizga yordam bermaydi. Siz ko'p narsani tushunmaysiz. Bu juda qiyin va juda tez. Shunday qilib, samara beradigan usul – tinglash materialining oson ekanligida. Siz, asosan, ingliz tilini tinglashingiz kerak. Aksariyat talabalar juda qiyin bo'lgan ingliz tilini tinglashadi, lekin ular yetarli darajada tushunmaydilar. Shuning uchun ular sekin o'rganadilar.

Tasavvur qiling, bizda 2 nafar talaba bor. Ulardan biri o‘ziga 90% tushunarli filmni, ikkinchi talaba o‘zi uchun 20% tushunarli bo‘lgan juda qiyin ilg‘or darajadagi filmni tanlaydi. Ularning ikkalasi ham filmni tomosha qilish va ingliz tili ko‘nikmasini yaxshilash uchun 2 soat vaqt sarflashadi, lekin shu vaqt ichida birinchi talaba 90% ma‘lumot oladi, ikkinchisi esa atigi 20% ma‘lumot yoki bilimga ega bo‘ladi. Ikkinchi talaba 90% bilim olish uchun yana olti yoki yetti soat vaqt sarflashi kerak.[2] Shuning uchun aytmoqchimanki, qiyin narsalarni o‘rganishga harakat qiladigan talabalar juda sekin o‘rganadilar. Shunday qilib, ingliz tilini oson tinglang va sizning nutqingiz tezroq yaxshilanadi.

Ingliz tilida ona tilidagi kabi gapirishda takrorlashning ahamiyati. Takrorlash ingliz tilidagi ko‘nikmalarigizni oshirish uchun kuchli vosita bo‘lib, u sizga turli yo‘llar bilan o‘z ona tili kabi ravonlikka erishishingizga yordam beradi. Takrorlash ingliz tilini yaxshilashga qanday yordam berishiga oid bir nechta misollarni keltirib o‘tamiz:[7]

● **Talaffuz.** Ingliz tilida ona tili kabi gapirishning muhim jihati hisoblanadi va takrorlash talaffuzingizni mashq qilish va takomillashtirishning qimmatli usuli bo‘lishi mumkin. So‘z va iboralarni baland ovozda takrorlash orqali siz ularning qanday yangrashi kerakligini his qilishingiz va tabiiyroq aksentni rivojlantirishni boshlashingiz mumkin.[4] Siz ona tili bo‘lmaganlar uchun qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lgan qiyin tovushlar yoki tovush birikmalarini mashq qilish uchun takrorlashdan ham foydalanishingiz mumkin.[4]

● **Lug‘at.** Ingliz tilida ravon gapirish uchun kuchli so‘z boyligini yaratish zarur. Faqat takrorlash yangi so‘z va iboralarni tezroq va samarali o‘rganishga yordam beradi.[1] Yangi so‘z va iboralarni qayta-qayta takrorlash orqali siz miyangizga ma‘lumotni kodlashda yordam bera olasiz va uni osonroq olish mumkin bo‘ladi. Turli kontekstlarda yangi so‘zlarni qo‘llash va o‘rgangan so‘zlaringizni takrorlash hamda mustahkamlash uchun takrorlashdan ham foydalanishingiz mumkin.

● **Ravonlik.** Takrorlash, shuningdek, tildan izchilroq foydalanishni mashq qilish imkonini berib, ingliz tilida umumiy ravonlikni yaxshilashga yordam beradi. Ingliz tilida muntazam gaplashish va so‘z hamda iboralarni baland ovozda takrorlash orqali siz tildan qulayroq foydalanish, samarali muloqot qilish qobiliyatingizni oshirishingiz mumkin.[3]

Umuman olganda, takrorlashning kuchi uning yangi ma‘lumotlarni yanada samaraliroq o‘rganish, uni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam berish qobiliyatidadir.[2] Til o‘rganish tartibingizga takrorlashni qo‘shish orqali siz tez sur‘atda muvaffaqiyatga erisha olasiz va ingliz tilida ona tilidagi kabi so‘zlay olasiz.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yosh avlodni chet tillarda o‘qitish hamda shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish negizida, yoshlarning jahon tamadduni yutuqlari hamda butun dunyo axborot resurslaridan foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Mashhur nemis olimi Y.V. Fon Gyote aytganidek: “Kim chet tillarini bilmasa, u o‘z tilini ham bilmaydi”.[6] Shu sababdan nafaqat chet tili mutaxassislari, balki tilga ixtisoslashmagan oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan barcha bo‘lajak kadrlar chet tillarini o‘rganib, ularda erkin fikr almasha olishi g‘oyat muhim vazifalardan sanaladi. Xalqimizda ham bir maqol bor: “Til bilgan el biladi”. Haqiqatdan ham, xorijiy tilni bilgan kishi ko‘p tomonlama imkoniyat va ustunliklarga ega bo‘ladi. Hozirgi davr talablarini amalga oshirishning yana bir yo‘li talabalarga ortiqcha material berishni kamaytirish, o‘quv jarayonini oddiy holatga keltirishdir. Bular yangi chet tillar dasturida hisobga olingan. O‘qituvchi buning uchun talabalar tomonidan materialni har tomonlama amaliy egallash jihatidan yondashadi. Ushbu maqolada tilini o‘rganishda takrorlashning ahamiyati va uning o‘quvchilarda ingliz tilida o‘z ona tilidagi kabi so‘zlash qobiliyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati, shuningdek, takrorlashni hosil qiluvchi birliklar haqida ma‘lumotlar keltirildi. Bundan tashqari, chuqur o‘rganish va uning miyaga yangi ma‘lumotlarni

kodlashda qanday yordam berishini, shuningdek, takrorlash talaffuzingizni, soʻz boyligingizni va ingliz tilida umumiy ravonlikni yaxshilashning oʻziga xos usullarini koʻrib chiqdik. Biroq, muvaffaqiyatli muloqotchi boʻlish uchun koʻproq rejalashtirish va takrorlash kerak boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻ.Hoshimov. I.Yoqubov. Ingliz tili oʻqitish metodikasi. Toshkent- 2003.
2. <https://youtu.be/JsR-NkkPaKA>
3. <https://pes.devexps.com/ajhoge>
4. Veb-sayt: <https://effortlessenglishclub.com>
- 5 Twitter: <https://twitter.com/ajhoge>
- 6.cyberleninka.ru/article/n/chet-tillarini-o-rganishning-eng-samarali-usullari
- 7.<https://blog.ecenglish.com/en/school-locations/blog/ec/2021/12/17/why-repetition-is-important-while-learning-english/>
8. <https://medium.com/language-hub/the-power-of-repetition-in-learning-to-speak-english-like-a-native-840f4cd7a0e4>
9. events@effortlessenglishclub.com

AXLOQIY QARASHLARNI NEYROPEDAGOGIK ASOSDA RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI

ФОРМЫ РАЗВИТИЯ НРАВСТВЕННЫХ ВОЗЗРЕНИЙ НА НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ОСНОВЕ

FORMS OF DEVELOPMENT OF MORAL VIEWS ON A NEUROPEDAGOGICAL BASIS

Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna

Annotatsiya. Maqolada axloqiy qarashlarni neyropedagogik asosda rivojlantirish shakllari tahlil qilinadi. Shuningdek, integratsiyalashgan ta'limning axloqiy qarashlarni shakllantirishdagi o'rni, integratsiyalashgan ta'lim bo'yicha ayrim yondoshuvlarni ahamiyati yoritilgan. Kross-dissiplinar yondashuvni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning jihatlar taqdim qilingan

Kalit so'zlar: *axloqiy tushuncha, axloqiy tarbiya, Integratsiyalashgan ta'lim, Kross-dissiplinar yondashuv, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, texnologiyalar, asoslanish*

Аннотация. В статье анализируются формы формирования нравственных взглядов на нейропедагогической основе. Также подчеркивается роль интегрированного образования в формировании нравственных взглядов и важность определенных подходов к интегрированному образованию. Представлены аспекты внедрения междисциплинарного подхода в образовательную практику

Ключевые слова: *моральная концепция, моральное воспитание, интегрированное образование, междисциплинарный подход, критическое мышление, творческое мышление, технологии, обоснование*

Abstract. The article analyzes the forms of formation of moral views on a neuropedagogical basis. It also emphasizes the role of integrated education in the formation of moral views and the importance of certain approaches to integrated education. Aspects of the introduction of an interdisciplinary approach into educational practice are presented.

Keywords: *moral concept, moral education, integrated education, interdisciplinary approach, critical thinking, creative thinking, technology, justification*

*Xudaykulova Sh.M.,
O'zbekiston -Finlandiya
pedagogika instituti,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent
sahlohudojkulova@gmail.com*

Kirish. Axloqiy tushunchalarni rivojlantirishda integratsiyalashgan ta'lim shakllari talabalarning axloqiy tushunchalarni chuqurroq anglab yetishlarini va ularni turli hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llay olishlarini ta'minlaydi. Integratsiyalashgan ta'lim shakllari talabalarning turli sohalaridagi bilimlarni moslab qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirib, ularni hayotdagi axloqiy muammolarnihal qilishda ijodiy va tanqidiy yondashuv bilan yondashishga yo'naltiradi. Shu tarzda, integratsiyalashgan ta'lim shakllari yoshlarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan qo'llash qobiliyatini kuchaytiradi. Axloqiy masalalarni hal qilishda yoshlar turli fanlar bo'yicha bilimlardan foydalanib, qarorlar qabul qilishda aqliy va axloqiy nuqtai nazardan yondashadi. Bu jarayonda ularning ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy javobgarlikka bo'lgan tushunchalari ham kengayadi, natijada yoshlar axloqiy tamoyillarini hayotning turli sohalarida to'g'ri qo'llashga tayyor bo'lalilar.

Tadqiq va tahlil. Integratsiyalashgan ta'lim orqali axloqiy qarashlarni shakllantirishda talabalar turli bilim sohalaridagi axloqiy muammolarni va ularning o'zlari uchun ahamiyatini tushunishga harakat qiladilar. Bu yondashuv yoshlarda umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan hurmat, ijtimoiy mas'uliyat, adolat, insonparvarlik kabi tushunchalarni rivojlantirishga yordam beradi. Axloqiy ta'limning integratsiyalashgan shakllari yoshlarning shaxsiy, ijtimoiy va professional rivojlanishiga ham ta'sir qilib, ularning kelajakda axloqiy jihatdan yetuk va mas'uliyatli shaxs bo'lishlariga zamin yaratadi. Bu jarayonda, ta'lim turli fanlar, jumladan, tarix, adabiyot, falsafa, ijtimoiy fanlar va tabiiy fanlarning axloqiy jihatlarini o'zaro bog'lash orqali amalga oshiriladi. Integratsiyalashgan ta'lim talabalarning tanqidiy fikrlash va o'z qarashlarini chuqur tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Quyida integratsiyalashgan ta'lim bo'yicha ayrim yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

I. Kross-dissiplinar yondashuvlar. Kross-dissiplinar yondashuvlar axloqiy tushunchalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega, chunki ular turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni paydo qilib, talabalarning axloqiy tushunchalarini ko'p qirrali va keng qamrovli shaklda rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv talabalarni turli fanlarning axloqiy mazmuni bilan tanishtirish orqali ularni ijtimoiy masalalarga nisbatan ko'proq hozirlikka ega bo'lishga yo'naltiradi. Buning natijasida talabalar nafaqat o'z soha mutaxassislari bo'lib, balki ijtimoiy muammolar va axloqiy masalalarga to'g'ri yondashishni biladigan yetuk shaxslarga aylanadilar.

Kross-dissiplinar yondashuvni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishda quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi zarur, deb o'ylaymiz.

1. **Ijtimoiy va gumanitar fanlarni bog'lash.** Axloqiy mazmuni boyitish uchun tarix, falsafa, psixologiya, adabiyot va siyosat kabi fanlar birgalikda o'qitilishi mumkin. Masalan, tarix fanidan turli qahramonlarning va mashhur shaxslarning qarorlari tahlil qilinishi mumkin. Bu yoshlarda axloqiy munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi, chunki ular tarixiy voqealar orqali qarorlarning ijtimoiy oqibatlarini o'rganadilar.

2. **Tabiiy fanlarni axloqiy tushunchalar bilan boyitish.** Tabiiy fanlar, jumladan, biologiya va ekologiya sohasidagi axloqiy masalalarga to'xtalish orqali yoshlarga tabiatni muhofaza qilish, ekologik mas'uliyat, genetika va texnologiyalar kabi mavzularda axloqiy qarashlar berish mumkin. Masalan, genetika fanidan inson huquqlari va shaxsiy ma'lumotlarning maxfiylik kabi axloqiy masalalar muhokama qilinishi mumkin.

3. **Masalalarni hal qilishda ko'p qirrali yondashuv.** Ta'lim jarayonida turli fanlar o'rtasida bog'liq holda muammolarni tahlil qilish mumkin. Masalan, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik kabi masalalarni jamiyatshunoslik, falsafa va iqtisod fanlari nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali talabalar bu muammoni turli jihatlardan ko'rib chiqadilar.

Kross-dissiplinar yondashuvni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif qilamiz.

• **Mualliflar va o'qituvchilar o'rtasida hamkorlik:** ustozlar turli fanlarning axloqiy qirralarini muhokama qilish uchun yaqindan hamkorlik qilishlari kerak. Bu ularga o'quv materiallarini birgalikda ishlab chiqish imkoniyatini beradi, bu esa talabalarning tushunchasini kengaytirishga xizmat qiladi.

• **Aniq ishlab chiqilgan integratsiya dasturlari:** kross-dissiplinar yondashuvni samarali amalga oshirish uchun ta'lim dasturlarini shunday qayta ishlab chiqish lozimki, ularda axloqiy mazmuni boyituvchi fanlar o'rtasida uzviy bog'liqlik ta'minlansin.

• **Axloqiy masalalarni muhokama qilish uchun maxsus seminarlar:** integratsiya dasturlarining tarkibiga axloqiy masalalarni muhokama qilishga qaratilgan maxsus seminarlar kiritish mumkin. Masalan, jamoatchilik, tabiatni muhofaza qilish yoki inson huquqlari kabi mavzularda seminarlar tashkil qilish orqali talabalarning axloqiy tushunchalarini rivojlantirish mumkin.

Kross-dissiplinar yondashuvning afzalliklari quyidagilarda ko‘rinadi:

1. **Turli nuqtai nazarlarni tushunish:** kross-dissiplinar yondashuv talabalarga turli nuqtai nazarlardan muammolarga qarash imkonini beradi. Bu usul orqali yoshlar masalalarga faqat bir fan nuqtai nazaridan emas, balki kengroq tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. **Insonparvarlik qadriyatlarini rivojlantirish:** bu yondashuv axloqiy tamoyillarni shakllantirishda keng imkoniyat yaratadi. Masalan, ijtimoiy fanlarni ekologik va iqtisodiy fanlar bilan bog‘lash yoshlarning insoniylik va insonparvarlik qadriyatlarini mustahkamlaydi, bu esa jamiyat manfaatiga xizmat qiladi.

3. **Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish:** kross-dissiplinar yondashuv orqali talabalar turli sohalaridagi bilimlarni turli nuqtai nazardan tahlil qilishni o‘rganadilar. Bu ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

4. **Jamiyat va dunyoqarashni kengaytirish:** bu yondashuv talabalarning jamiyatdagi muammolarga nisbatan dunyoqarashlarini kengaytiradi. Ular turli ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik masalalarni tahlil qilish orqali keng miqyosda tushunchaga ega bo‘ladilar va jamiyat oldidagi mas‘uliyatlarini his qilishga o‘rganadilar.

Ushbu yondashuvni amalga oshirish talabalarni ijtimoiy jihatdan mas‘uliyatli va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Holatli tahlillar asosidagi ta‘lim. Holatli tahlillar asosidagi ta‘lim yoshlarga turli hayotiy vaziyatlarni chuqur o‘rganish, tahlil qilish va axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi. Bu yondashuv talabalarga turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri va adolatli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda qo‘l keladi. Holatli tahlillar jarayonida talabalar voqealarni har tomonlama baholashga o‘rganadilar, turli nuqtai nazarlardan tahlil qiladilar va o‘z xulq-atvorlarini tanqidiy ko‘rib chiqadilar.

Holatli tahlillar asosidagi ta‘limning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. **Real hayotiy vaziyatlarni tadqiq qilish:** bu yondashuv orqali talabalar real hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlarni o‘rganadilar. Masalan, jamoaviy ishda faol bo‘lmagan xodimlarga nisbatan qanday yondashish, qiyin tanlovlarda qanday qaror qabul qilish kabi masalalar tahlil qilinadi. Bu talabalarning axloqiy qarorlarni hayotiy misollar orqali shakllantirishlariga yordam beradi.

2. **Axloqiy muammolarni ko‘rib chiqish:** holatli tahlillar orqali talabalar turli axloqiy muammolarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunda ular axloqiy qadriyatlarining turli jihatlarni o‘rganib, o‘z nuqtai nazarlarini shakllantiradilar. Masalan, talabalar axloqiy dilemmada biror shaxsning manfaatini umumiy manfaatdan ustun qo‘yish yoki jamoatchilik manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yish masalalarini ko‘rib chiqishlari mumkin.

3. **Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish:** holatli tahlillar jarayonida talabalar voqealarni turli tomonlama baholab, ijodiy yondashuv orqali yechim topishni o‘rganadilar. Ular vaziyatni tahlil qilish jarayonida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradilar, bu esa ularning axloqiy qarashlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu yondashuvni ta‘lim amaliyotida qo‘llash bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni taklif qilamiz:

• **Aniq holatlar asosida maxsus mashg‘ulotlar tashkil qilish:** oliy ta‘lim jarayonida talabalarga real hayotda uchragan holatlarni misol qilib keltirib, ularni tahlil qilish va turli qarorlar qabul qilish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin. Masalan, biznes yoki tibbiy kasbga oid holatli tahlillar olib borilib, axloqiy prinsiplar bilan bog‘lanishi mumkin.

• **Jamoaviy muhokamalar orqali tahlil qilish:** holatli tahlillarni jamoaviy muhokama shaklida tashkil qilish orqali talabalar turli fikrlarni eshitishlari, o‘zaro muloqot orqali holatlarni baholashlari mumkin. Bunda talabalar nafaqat shaxsiy fikrlarini bayon qiladilar, balki jamoaviy qarorlar qabul qilish jarayonida boshqalarga hurmat bilan yondashishni o‘rganadilar.

• **Axloqiy masalalarni murakkab vaziyatlar orqali ko‘rib chiqish:** talabalarga turli axloqiy masalalarni murakkab vaziyatlar orqali tushuntirish orqali axloqiy qarashlarni shakllantirish mumkin. Masalan, tibbiyot va psixologik muammolardagi axloqiy dilemmalarni muhokama qilish orqali yoshlar o‘zlarining kasbiy axloq normalarini tushunishlari mumkin.

Holatli tahlillar asosidagi ta’limning afzalliklari:

1. **Hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi:** holatli tahlillar talabalarning hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu usul orqali yoshlar real hayotdagi murakkabliklarni tushunib, o‘z qarorlarining ijtimoiy va shaxsiy oqibatlarini baholashga o‘rganadilar.

2. **O‘zaro muloqot va hamkorlikni oshiradi:** bu yondashuv jamoaviy ishlash va muloqot orqali yoshlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlikni rivojlantiradi. Ular turli nuqtai nazarlar va fikrlarni tushunib, jamoada ishlashni o‘rganadilar.

3. **Axloqiy qarashlarni mustahkamlaydi:** holatli tahlillar orqali talabalar axloqiy tamoyillarni tushunishlari va ularni turli vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradilar. Bu usul ularda axloqiy yetuklikni mustahkamlashga yordam beradi.

4. **Qiyin vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi:** holatli tahlillar talabalarga qiyin vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy va shaxsiy muammolarda adolatli va mas’uliyatli yondashuvlarini shakllantiradi.

Ushbu yondashuv, axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lib, yoshlarni axloqiy jihatdan yetuk va mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Axloqiy mazmuni boyitish uchun integratsiyalashgan ta’lim shakllari, tajribaga asoslangan o‘quv jarayoni va shaxsiy tajribalar orqali axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga egaligi ta’kidlandi. Shuningdek, ijtimoiy hamjihatlik va jamoaviy yondashuv shakllari, jumladan, jamoaviy ish va o‘zaro hamkorlik, talabalarda mas’uliyat va adolat kabi qadriyatlarni mustahkamlashda katta samara beradi. Axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonida talabalarning shaxsiy tajribalariga asoslangan refleksiya, empatiya, mulohaza qilish usullari ularning o‘z qarashlarini mustaqil ravishda shakllantirishiga va qo‘llashga yordam beradi. Shu bilan birga, neyropedagogik yondashuv axloqiy tushunchalarni hayotiy kontekstlarda amaliy ravishda anglab yetishga yo‘naltirilgan bo‘lib, yoshlarda shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Sh., Husanov. Axloq falsafasi. Nafosat falsafasi. Darslik. –T.: Zebo prints. 2018.
2. Выготский Л.С., Мышление и речь, Москва: Государственное социально-экономическое издательство, 1934. – С. 97.
3. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Тошкент. Университет, 1998, 38-б
4. Голембо А. Психология и нейропедагогика: интегративный подход. -Москва: Наука, 2020. – С. 154
5. Лисов Е.В. Формирование нравственных качеств у молодежи средствами нейропедагогики. -Киев: Наукова думка, 2021. – 240 с
6. Назаров А.Т. Моральное воспитание на основе нейротехнологий. -Ташкент: Узбекистан, 2019. – 230 с.
7. Сидоров А.Г. Технологии нейропедагогики в образовании. -Минск: Высшая школа, 2019. – 275.

KIMYO FANINI O‘QITISHDA ANIQ FANLAR INTEGRATSIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕГРАЦИИ ТОЧНЫХ НАУК В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ****THE IMPORTANCE OF USING THE INTEGRATION OF EXACT SCIENCES IN CHEMISTRY TEACHING**

Yakubova Madina Faxriddin qizi, Shernazarov Iskandar Ergashovich

Annotatsiya. Maqolada kimyo fanini o‘qitishda fanlar integratsiyasidan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan bo‘lib, kimyo fanini fanlararo integratsiyasi asosida o‘qitish metodikasiga oid manbalar, ilmiy tadqiqot ishlari va fanlararo integratsiyani avzalliklari, integratsiyalashgan darslar yordamida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga oid ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga chet el va MDH mamlakat olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili ko‘rinishda aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: *integratsiya, kasbiy kompetensiya, Science, Science education, gorizontal inte-Grace.*

Аннотация. В статье представлена информация об использовании интеграции дисциплин в преподавании химии, представлены ресурсы по методике преподавания химии на основе междисциплинарной интеграции, научно-исследовательская работа и преимущества междисциплинарной интеграции, информация о развитии профессиональной компетентности будущих педагогов с помощью интегрированных уроков. В то же время анализ научно-исследовательских работ, проводимых учёными из зарубежных стран и стран СНГ.

Ключевые слова: *интеграция, профессиональная компетентность, наука, научное образование, горизонтальная интеграция.*

Abstract. The article provides information on the use of discipline integration in chemistry teaching, provides resources on the methodology of teaching chemistry based on interdisciplinary integration, research and benefits of interdisciplinary integration, information on the development of professional competence of future teachers through integrated lessons. At the same time, the analysis of scientific research conducted by scientists from foreign countries and CIS countries .

Keywords: *integration, professional competence, science, scientific education, horizontal integration.*

Yakubova M.F.,
Belarus-O‘zbekiston qo‘shma
tarmoqlararo amaliy texnik
kvalifikatsiyalar instituti
tayanch doktoranti,
Madina.faxrimadina.faxriddinqizi@gmail.com

Shernazarov I.E.,
Nizomiy nomidagi Toshkent
davlat pedagogika
universiteti,
pedagogika fanlar doktori
DSc, dotsent
Shernazarov_iskandar855@mail.ru

Dunyo miqyosida e'tirof etilgan umumta'lim tizimida fanlararo integratsiyaga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etish, kimyoning fanlar bilan integratsiyasining metodik asoslarini tadqiq qilishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlari olib borilmoqda. Bunday mashg'ulo'tlar ta'lim oluvchilarda, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining imkoniyat va muammolari, ekologik muammolarning mohiyati, tabiatdan oqilona foydalanish yo'llari, sog'lom turmush tarziga amal qilish tamoyillari hamda moliyaviy-iqtisodiy savodxonlik asoslarini tushunish va kundalik hayotda foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan muhim tizim sifatida xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida kimyo ta'limining amaldagi joriy holati va mavjud muammolar keltirilgan bo'lib, Science zamon talablari asosida, xalqaro miqyosda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha integratsiya va amaliy yondashuvga e'tibor qaratilmaganligi, kimyo fani o'quv-metodik ta'minoti (multimedia mahsulotlari, didaktik materiallar) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va boshqa mavjud muammolar belgilangan. Shu kabi muammolarni yechish uchun umumta'lim maktablarida Science ta'limi asosida o'qitish tabiiy va aniq fanlar yo'nalishida o'quvchilarning egallagan bilim, tafakkurini boyitadi, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish, tajribalar bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini va qiziqishlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalari talabalari tomonidan tabiiy fanlar bo'yicha o'quv fanlarini o'rganishda fanlararo munosabatlarni amalga oshirish muammosi mavjudligi va muammoning yechimi sifatida tegishli nazariy asos va aniq uslubiy ishlanmalar mavjud emas. Bu o'qitishning integral kontsepsiyasini yozish va asoslash zarurligini anglatadi. Tabiiy va aniq fanlar integratsiyasi asosida o'qitish kimyo, biologiya, fizika, matematika yo'nalishdagi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosiy didaktik materiallari hisoblanadi.

Ta'lim tizimi rivojlangan barcha davlatlarda hozirgi kunda o'quvchi yoshlar, talablar va ta'lim oluvchilarning barchasiga beriladigan (o'rgatiladigan) ma'lumotlarning hammasi fanlar integratsiyasiga qaratilgan. Rivojlangan davlatlarda darslik sifatida o'qitiladigan va shu darslikning yaratilishiga oid dasturlarning barchasida ham fanlar integratsiyasi shakllantirilgan. Masalan, kimyo va matematika integratsiyasi sohasida zamonaviy olimlar ham katta hissa qo'shmoqda. Ushbu soha kimyoviy jarayonlarni matematik jihatdan modellashtirish, hisoblash usullari va ma'lumotlar tahlilini o'z ichiga oladi. Quyida kimyo va matematika integratsiyasi bo'yicha ishlayotgan ba'zi zamonaviy olimlar haqida ma'lumot keltirilgan:

Martin Karplusning (1930) ilmiy tadqiqoti "Kvant kimyo va molekulyar dinamika". Olim o'z tadqiqotlarida molekulyar tizimlarning dinamikasini matematik jihatdan modellashtirish uchun usullar ishlab chiqdi. U 2013 yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: kvant mexanikasi, molekulyar dinamika va matematik modellashtirish [1].

Walter Kohnning (1923–2016) ilmiy tadqiqoti "Zamonaviy kvant kimyosi". Olim o'z tadqiqotlarida zichlikning funksional nazariyasini (DFT) ishlab chiqdi, bu kimyoviy tizimlarni matematik jihatdan hisoblashda muhim rol o'ynaydi. U 1998 yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: kvant kimyosi va matematik hisoblash usullari [2].

John Poplening (1925–2004) ilmiy tadqiqoti "Kvant kimyosi va kompyuter modellashtirish". Pople o'z tadqiqotlarida kvant kimyo sohasida matematik algoritmlar va hisoblash usullarini ishlab chiqdi. U 1998 yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: kvant kimyo va kompyuter modellashtirish [3].

Arieh Warshelning (1940) ilmiy tadqiqoti "Molekulyar dinamika va kvant kimyosi". Warshel o'z tadqiqotlarida molekulyar tizimlarning dinamikasini matematik jihatdan modellashtirish usullarini

ishlab chiqdi. U 2013 yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: molekulyar dinamika va matematik modellashtirish [4].

Jean-Marie Lehnning (1939) ilmiy tadqiqoti "Supramolekulyar kimyo". Lehn o'z tadqiqotlarida molekulyar o'zaro ta'sirlarni matematik jihatdan tahlil qilish va modellashtirishga hissa qo'shdi. U 1987 yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: supramolekulyar kimyo va matematik modellar [5].

Ada Yonathning (1939) ilmiy tadqiqoti "Ribosoma tuzilishi va kimyoviy biologiya". Yonath o'z tadqiqotlarida ribosoma tuzilishini matematik jihatdan tahlil qilish va modellashtirish usullarini ishlab chiqdi. U 2009 yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: strukturaviy kimyo va matematik tahlil [6, 7].

Michael Levittning (1947) ilmiy tadqiqoti "Molekulyar dinamika va bioinformatika". Levitt o'z tadqiqotlarida molekulyar tizimlarning dinamikasini matematik jihatdan modellashtirish usullarini ishlab chiqdi. U 2013 yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: molekulyar dinamika va matematik modellashtirish [8].

David Bakerning (1962) ilmiy tadqiqoti "Protein dizayni va molekulyar modellashtirish". Baker o'z tadqiqotlarida proteinlarning tuzilishini matematik jihatdan modellashtirish va hisoblash usullarini ishlab chiqdi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: biokimyo va matematik modellashtirish [9].

K. Barry Sharplessning (1941) ilmiy tadqiqoti "Click" kimyosi va asimmetrik sintez. Sharpless o'z tadqiqotlarida kimyoviy reaksiyalarni matematik jihatdan optimallashtirish va modellashtirish usullarini ishlab chiqdi. U 2001 va 2022 yillarda kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: kimyoviy reaksiyalar va matematik optimallashtirish [10].

Frances Arnoldning (1956) ilmiy tadqiqot ishlari: "Direkted evolution" va "fermentlar kimyosi". Arnold o'z tadqiqotlarida fermentlar va kimyoviy reaksiyalarni matematik jihatdan optimallashtirish usullarini ishlab chiqdi. U 2018 yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: biokimyo va matematik optimallashtirish usullari [11].

Eric Betzigning (1960) ilmiy tadqiqoti "Superrezolyutsiya mikroskopiyasi". Betzig o'z tadqiqotlarida molekulyar tizimlarning tuzilishini matematik jihatdan tahlil qilish usullarini ishlab chiqdi. U 2014 yilda kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: kimyoviy tahlil va matematik modellashtirish [12].

Michelle Franclning (1957) ilmiy tadqiqoti "Kvant kimyosi va matematik modellashtirish". Francl o'z tadqiqotlarida kvant kimyosi sohasida matematik modellar va hisoblash usullarini ishlab chiqdi. Ilmiy taqqiqotidagi integratsiya: kvant kimyosi va matematik analiz [13].

Bu olimlar kimyo va matematika integratsiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, shuningdek, ularning ishlari zamonaviy kimyo, biologiya va materialshunoslik sohaslariga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Kimyoning "aniq fanlar" bilan integratsiyasi (masalan, matematika, fizika, informatika va muhandislik) zamonaviy tadqiqotlarning asosidir. Quyida taniqli zamonaviy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy tadqiqot davomida fanlararo integratsiyalardan foydalanishi yoritib berilgan.

Hisoblash kimyosi va mashinani o'rganish.

Aln Aspuru-Guzik (Toronto universiteti/Garvard) ilmiy tadqiqotlarida kvant hisoblash, AI va mashina o'rganishdan molekulyar xususiyatlarni bashorat qilish va materiallarni kashf qilishni tezlashtirish uchun foydalanadi. Tadqiqotlarida foydalanilgan integratsiya: kvant kimyosini dori dizayni va energiyani saqlash materiallari uchun AI algoritmlari bilan birlashtiradi [14].

David Baker (Washington universiteti) ilmiy tadqiqotlarida yangi oqsillar va fermentlarni loyihalash uchun hisoblash vositalarini (masalan, Rosetta dasturi) ishlab chiqadi. Tadqiqotlarida foydalanilgan integratsiya: sintetik biologiya uchun biokimyoy, fizika va mashinalarni o'rganish birlashadilar [15].

Heather Kulik (MIT) ilmiy tadqiqotlarida noorganik komplekslarning katalitik xususiyatlarini bashorat qilish uchun mashinani o'rganish uchun amal qiladi. Tadqiqotlarida foydalanilgan integratsiya: barqaror katalizator dizayni uchun ma'lumotlar va kvant kimyosini ko'priklari [16].

Kvant kimyosi va fizika

Emili Karter (Princeton Universiteti) ilmiy tadqiqotlarida kimyoviy reaksiyalar va materiallarni o'rganishning kvant mexanikasiga asoslangan usullarini ishlab chiqadi. Tadqiqotlarida foydalanilgan integratsiya: zichlik funksional nazariyasini (DFT) toza energiya yechimlari uchun muhandislik bilan birlashtiradi.

Garnet Chan (Kaltech) ilmiy tadqiqotlarida murakkab molekulyar tizimlarni simulyatsiya qilish uchun tensor tarmoqlarini. Tadqiqotlarida foydalanilgan integratsiya: kvant fizikasini hisoblash kimyosi bilan bog'laydi.

Mishel Parrinello (ETH Zrich) ilmiy tadqiqotlarida yaratilgan metadinamika, Nodir kimyoviy hodisalarni o'rganish uchun hisoblash usuli (masalan, oqsil katlama). Tadqiqotlarida foydalanilgan integratsiya: statistik mexanika va molekulyar dinamikani birlashtiradi.

Materiallar fan va nanotexnologiya

Jorj Uitesidlar (Garvard Universiteti) ilmiy tadqiqotlarida kimyo fanini muhandislik bilan loyihalash uchun birlashtiradi.

Kimyoni o'qitishda aniq fanlar integratsiyasidan foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

Real hayotiy misollar va ilovalar: kimyo fanini o'qitishda real hayotiy misollar va ilovalardan foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga yordam beradi. Masalan, kimyo sanoati, farmatsevtika, atrof-muhit muhofazasi va boshqa sohalarda kimyoning qanday qo'llanilishini ko'rsatish.

Amaliy tajribalar va loyihalar: talabalarga amaliy tajribalar va loyihalar orqali kimyo bilimlarini qo'llash imkoniyatini berish. Bu ularning mas'uliyatini, mustaqil fikrlash qobiliyatini va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Interfaol o'quv usullari: interfaol o'quv usullari, masalan, guruhli muhokamalar, vebinar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar orqali talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish va ularni kasbiy dunyoga tayyorlash.

Kasbiy yo'nalishlar bilan bog'lanish: kimyo darslarini talabalarning kelajakdagi kasbiy yo'nalishlari bilan bog'lash. Masalan, kimyo muhandislari, oziq-ovqat mutaxassislari, farmatsevtlar va boshqa kasblar uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni ta'lim dasturiga kiritish.

Mentorlik va tashriflar: talabalarga kimyo sohasidagi mutaxassislar bilan uchrashuvlar, seminarlar va sanoat korxonalariga tashriflar tashkil qilish. Bu ularning kasbiy dunyo haqidagi tushunchalarini kengaytirishga yordam beradi.

Texnologiyalardan foydalanish: zamonaviy texnologiyalardan, masalan, kompyuter dasturlari, ma'lumotlar bazalari, ilg'or laboratoriya uskunalari va boshqa resurslardan foydalanish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish.

Kasbiy malaka oshirish kurslari: talabalarga kimyo sohasidagi yangiliklar, texnologiyalar va usullar haqida ma'lumot berish uchun kasbiy malaka oshirish kurslari va treninglarni tashkil qilish.

O'z-o'zini baholash va feedback: Talabalarning o'z bilim va ko'nikmalarini baholash va ularga muntazam ravishda feedback berish orqali ularning rivojlanishini kuzatish va yo'nalish berish.

Ushbu usullar orqali kimyo fanini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini samarali rivojlantirish mumkin.

Kimyoni o'qitishda aniq fanlar integratsiyasidan foydalanishning ahamiyati juda katta, chunki bu yondashuv talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish, fanlararo aloqalarni tushunish va ularni hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilishda ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Quyida aniq fanlar integratsiyasining ahamiyati va afzalliklari ko'rsatilgan:

Fanlararo aloqalarni tushunish.

Kimyo fizika, biologiya, matematika, geologiya va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Aniq fanlar integratsiyasi orqali talabalar kimyo fanidagi qonunlari va hodisalarini boshqa fanlar kontekstida tushunishlari mumkin. Masalan, biologik jarayonlarda kimyoviy reaksiyalarning roli yoki fizik qonunlar (masalan, termodinamika) kimyoviy tizimlarda qanday qo'llanilishi.

Hayotiy va amaliy muammolarni hal qilish.

Aniq fanlar integratsiyasi talabalarga murakkab muammolarni ko'p jihatdan yondashish imkoniyatini beradi. Masalan, atrof-muhit muammolari (iqlim o'zgarishi, ifloslanish) kimyoviy, biologik va fizik jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu yondashuv talabalarni real dunyo muammolariga tayyorlaydi va ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish.

Ko'pgina kasblar (masalan, kimyo muhandislari, farmatsevtlar, atrof-muhit mutaxassislari) turli fanlardan bilim va ko'nikmalarni talab qiladi. Aniq fanlar integratsiyasi talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda yordam beradi. Masalan, farmatsevtika sohasida kimyo, biologiya va tibbiyot bilimlarini birlashtirish talab qilinadi.

Talabalarning qiziqishini oshirish.

Aniq fanlar integratsiyasi darslarni qiziqarli va amaliy qiladi. Talabalar kimyo bilimlarini boshqa fanlar bilan bog'lab, ularning qanday qo'llanilishini ko'rishadi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi. Masalan, kimyo va san'atni birlashtirib, ranglar kimyosi yoki materialshunoslikni o'rganish.

Innovatsion yondashuvlarni rag'batlantirish.

Fanlar integratsiyasi yangi g'oyalar va innovatsiyalarni rag'batlantirishi mumkin. Masalan, nanotexnologiya, biokimyo va materialshunoslik kabi sohalar turli fanlarning integratsiyasi natijasida rivojlanmoqda. Talabalar turli fanlardan bilimlarni birlashtirib, yangi yechimlar va texnologiyalarni ishlab chiqishga harakat qilishadi.

Umumta'lim maqsadlariga erishish.

Aniq fanlar integratsiyasi umumta'limning asosiy maqsadlariga, jumladan, bilim, ko'nikma va qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv talabalarni hayot uchun tayyorlaydi, ularga turli sohalarida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini beradi.

Global muammolarni tushunish.

Dunyoda yuz berayotgan global muammolar (masalan, energiya tanqisligi, suv resurslari, sog'liqni saqlash) ko'p fanlarni o'z ichiga oladi. Aniq fanlar integratsiyasi talabalarga bu muammolarni tushunish va ularga yechim topishda yordam beradi. Misollar:

Kimyo va biologiya: biokimyo, metabolizm, DNK tuzilishi va genetik modifikatsiyalar.

Kimyo va fizika: kvant kimyosi, termodinamika, elektrokimyo.

Kimyo va geologiya: minerallar, tog' jinslari va yer qobig'idagi kimyoviy jarayonlar.

Kimyo va ekologiya: atrof-muhitni muhofaza qilish, ifloslanishning kimyoviy jihatlari.

Rivojlangan mamlakatlarda kimyo fanining turli bo'limlarini o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un foydalanish bo'yicha adabiyotlarning tahlili, bu borada metodist-olimlar va

kimyo fani o'qituvchilari tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish borasida muayyan ishlar olib borilayotganligi aniqlandi.

Jumladan, T.A. Borovskiy tomonidan kimyoni o'qitishda integrallashgan ta'lim texnologiyasidan foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. T.A. Borovskiy tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarning mohiyati kimyoni o'qitishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda foydalaniladigan o'quv topshiriqlari uch: minimal, umumiy va nostandart darajada bo'lishi, mazkur darslarda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tizimlash maqsadida lokal darajadagi klaster texnologiyasidan foydalanish, shuningdek, kimyoni o'qitishda seminar, seminar-amaliy darslaridan foydalanish, mazkur darslarda o'quvchilar zimmasiga muayyan vazifalarni yuklash orqali ta'lim samaradorligini orttirish yuzasidan fikr yuritilgan.

M.V. Lapenok tomonidan kimyoni o'qitishda o'quvchilarning ushbu o'quv fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish omillari haqida fikr yuritilgan [17]. Mazkur maqolada o'quvchilarning o'quv fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish uchun o'qituvchi: o'quv materialining ilmiyligi va yangiligi, nazariy masalalarning maqsadga muvofiq yoritilishi, nazariy masalalarni o'rganishdan avval muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, nazariy masalalarni yoritish imkonini beradigan ko'rgazma vositalaridan foydalanish, kimyoviy dalillarni kutilmagan holda bayon etish, avval o'rganilgan dalillar bilan o'rganilayotgan dalillar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni amalga oshirish, nazariya va amaliyot birligiga amal qilish, o'rganilayotgan muammoning amaliy ahamiyatini yoritish, muammoning mantiqiy yo'nalishda bayon etilishi, o'quv jarayonining tadqiqiy, ijodiy xarakterda bo'lishi, o'yin vaziyatlarini vujudga keltirish orqali o'quvchilarda bilish quvonchining paydo bo'lishiga e'tibor qaratish lozimligini uqtirgan.

Ushbu maqolada ilgari surilgan fikrlarni ma'qullagan holda tadqiqot davomida ularni rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish yo'llari belgilandi.

A.Rodionov tadqiqotlarida kimyoni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari aniqlangan [18].

Ye.Yu. Zashivalova o'quvchilarning kompyuterli o'qitish metodikasiga, kompyuterda kimyo o'qitish shakli, kompyuter yordamida kimyoni o'qitish darsliklar muallifi hisoblanadi [19].

A.A.Siromyatnikov o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib o'qitishga va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish maqsadida kimyo fanini o'rganishda kompyuter texnologiyalarining afzalligi, o'quvchilarning bilimlarini oshirishi uchun kimyo mavzularini kompyuter texnologiyasi yordamida olib borilishiga qaratilgan [19].

O'zbekistonda axborot va pedagogik texnologiyalar integratsiyasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha M.M.Aripov, A.A.Abduqodirov, A.X.Abdullaev, N.V.Apatova, U.Sh.Begimqulov, M.Lutfullaev, J.O.Tolipovalar, kimyo fanida axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etib o'qitishda E.U.Eshchanov, F.A.Alimova, L.T.Zaylobov, N.A.Anvarova, I.E. Shernazarovlar tomonidan olib borilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki aniq fanlar integratsiyasi kimyoni o'qitishda talabalarning chuqur bilim olishi va bilimlarini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga hissa qo'shadi, ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga yordam berish, shuningdek, ularni zamonaviy dunyoning murakkab muammolariga tayyorlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu yondashuv ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kohn W., Holthausen M. C. A Chemist's Guide to Density Functional Theory. 2-ed. - Wiley, 2001. — pp. 293.

2. Pople J. A. and Lennard-Jones J. E. The molecular orbital theory of chemical valency. IV. The significance of equivalent orbitals//Proc. R. Soc. A, 1950, v. 202, p. 166–180.
3. Warshel A. «Моделирование молекулярной динамики биологических реакций». *Acc. Chem. Res.* 35 (6): 2002. 385–395 с.
4. Лен Ж.-М. Супрамолекулярная химия. Концепции и перспективы. - Новосибирск: Наука, 1998. - 334 с.
5. Ada Yonath, Heinz-Günter Wittman. Approaching the molecular structure of ribosomes (англ.)// *Biophysical Chemistry: Ж.* 1988.-Vol. 29, no. 1-2. - P. 17-29.
6. Ada Yonath, Heinz-Günter Wittman. New aspects in 3-dimensional structure determination of ribosomal particles//*Structure and Expression/ М. Н. Sarma, R. Н. Sarma, eds. - Schenectady, NY: Adenine Press, 1988. - P. 191-207. – 342 p. - ISBN 978-0940030213.*
7. Левитт М., Хиршберг М., Шарон Р., Лайдиг К. Э., Даггетт В.. Калибровка и тестирование модели воды для моделирования молекулярной динамики белков и нуклеиновых кислот в растворе. *Журнал физической химии// В* 101 (25), 5051-5061
8. Alford R.F., Leaver-Fay A., Jeliakov J.R., O'Meara M.J., DiMaio F.P., Park H. The Rosetta all-atom energy function for macromolecular modeling and design. *Journal of chemical theory and computation* 13 (6), 3031-3048
9. Kolb Hartmuth C., Finn M.G., Sharpless K. Barry (1 июня 2001 г.). «Click Chemistry: Diverse Chemical Function from a Few Good Reactions» (Клик-химия: разнообразные химические функции из нескольких хороших реакций). *Angewandte Chemie.* 40 (11): 2004 - 2021.
10. Cirino Patrick C., Arnold Frances H. Направленная молекулярная эволюция белков, Wiley-VCH Verlag GmbH & Co. KGaA, 2002. стр. 215–243. doi:10.1002/3527600647.ch10
11. Valm A.M., Cohen S., Legant V. R., Melunis J., Hershberg W., Waite E. Application of system spectral visualization and analysis to identify organelle interactome...*Nature* 546 (7656), 162-167. 1046 2017
12. Франкл Мишель. *Steeped: The Chemistry of Tea.* Королевское химическое общество. (январь 2024 г.) ISBN 978-1-83916-591-7.
13. Shao Y., Gan Z., Epifanovsky E., Gilbert A.T.B., Wormit M., Kussmann J. Advances in molecular quantum chemistry contained in the Q-Chem 4 program package. ...*Molecular Physics* 113 (2). 184-215
14. Peruzzi JA, Steinkühler J, Vu TQ, Gunnels TF, Hu VT, Lu P, Baker D, Kamat NP. Hydrophobic mismatch drives self-assembly of designer proteins into synthetic membranes. *Nat Commun* 2024 Apr; 15(1):3162. [PMID:38605024] [PMCID: PMC6901749]
15. Janet J.P., Kulik H.J. Resolving transition metal chemical space: Feature selection for machine learning and structure–property relationships. *The Journal of Physical Chemistry A* 121 (46), 8939-8954
16. Лапенков М.В. О развитии познавательного интереса учащихся // *Химия в школе.*-2010 № 4. 37-40 с.
17. Родионов А. Применение информационных технологий в процессе обучения химии. –Н. Новгород. НГПУ. - 2003. - 40 с.
18. Зашивалова Е. Ю. Методика компьютерного обучения химии в основной школе.: Диссертация канд. пед.наук.-Санкт-Петербург:-2000. -167с.
19. Сыромятников А. А. Методика компьютерной поддержки начального этапа обучения химии.: Автореферат. дис.канд. пед. наук. – Москва: - 2003. - 24 с.

VIRTUAL LABORATORIYALAR YORDAMIDA BO‘LAJAK FIZIKA
O‘QITUVCHILARINING KOGNITIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИКИ С ПОМОЩЬЮ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ

PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPING COGNITIVE ACTIVITY OF FUTURE
PHYSICS TEACHERS WITH THE HELP OF VIRTUAL LABORATORIES

Yusupov Erkinjon Xurramovich

Annotatsiya: Maqolada virtual laborotoriya va kognitiv faoliyat to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot kiritilgan shuningdek kognitiv faoliyat haqida ma‘lumotlar kiritilib o‘tilgan. Vertual laborotoriyaning afzallikalri va kamchiliklari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Vertual laborotoriya, ta‘limni raqamlashtirish, o‘qituvchining kognitiv faoliyati.*

Аннотация. В статье содержатся краткие сведения о виртуальной лаборатории и познавательной деятельности, а также сведения о познавательной деятельности. Обсуждаются преимущества и недостатки виртуальной лаборатории.

Ключевые слова: *Виртуальная лаборатория, цифровизация образования, познавательная деятельность учителя.*

Abstract. The article briefly introduces the concept of virtual laboratory and cognitive activity, as well as provides information about cognitive activity. The advantages and disadvantages of virtual laboratory are discussed.

Keywords: *Virtual laboratory, digitalization of education, cognitive activity of the teacher.*

Kirish. Ta‘limni axborotlashtirishda, bo‘ljak kadrlarning axborot va kommunikatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishlari bilan bir qatorda, aniq fan sohasida kadrlar tayyorlashni axborot va kommunikatsion texnologiyalarni kommunikatsion texnologiyalari vositalari yordamida jadallashtirish lozim. Keyingi vaqtlarda, ta‘limda axborot va kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish sohasida yangi atama “Virtual o‘quv laborotoriya” paydo bo‘ldi. Virtual o‘quv laborotoriya ochiq va masofaviy o‘qitish g‘oyasiga muvofiq bo‘lib, ta‘lim jarayonidagi moddiy-texnik ta‘minot borasidagi muammolarni oz bo‘lsada bartaraf etdi. Virtual laborotoriya – bu simulyatsiya qilingan tajribalarni yaratish va o‘tkazish uchun interfaol muhit. Ushbu masofaviy laborotriyalar foydalanuvchilarga, ayniqsa o‘qituvchilar va talabalarga amaliy bo‘lmagan o‘rganish tajribalarini taklif qiladi. Hozirgi kunda turli mavzularda virtual laborotriyaishtlariga ko‘proq e‘tibor berilmoqda.

Berilayotgan haqiqiy laborotriya ishini butunlay o‘zgartirmasdan, faqat ularni to‘ldirilishi kerak. Bundan tashqari, virtual laborotriya mashg‘ulotlari faqat o‘quvchi haqiqiy qurilmalar bilan tanishgandan so‘ng mashg‘ulotlarda qo‘llanilishi kerak. Shu bilan birga fizik hodisalarning modellarini, virtual fizik tajribalarni kompyuter texnologiyalari yordamida bajarish orqali maktab o‘quvchilarining intellektual salohiyatlarini rivojlanishiga amaliy ta‘sir ko‘rsatadi. Virtual o‘quv laborotriya bo‘yicha ilmiy-metodik ishlarning mavjudlari ham asosan virtual asbob va ularni laborotriya mashg‘ulotlarida qo‘llashning yoritilishi bilan cheklangan, biroq, bizning fikrimizcha, virtual o‘quv laborotriyasida

faqatgina virtual asboblar emas, balki virtual o'quv xonalari texnik obyektlar loyihasi, matematik va imitatsion modellash tizimlari, amaliy dasturlar o'quv va ishlab chiqarish paketlarini o'z ichiga oladi. Virtual o'quv laboratoriyaning o'zi esa faqatgina laboratoriya mashg'ulotlarida emas, balki talabalarning kurs va diplom loyihalarida, o'quv tadqiqot ishlarida qo'llanilishi mumkin. "Virtual laboratoriya" tushunchasining mohiyati tarkibiy qism bo'lgan virtual asbob yordamida (oddiy elektron asbob bilan ishlagandek) kompyuterda ishlash imkoniyatini beradigan, odiy kompyuterga qo'shimcha qilingan apparatli va dasturli vositalar to'plamini ifodalashdan iboratdir. Virtual asbob va virtual laboratoriyaning muhim qismi – foydalanuvchining samarali grafik interfeysi (ya'ni, foydalanuvchining kompyuter bilan o'zaro aloqalarining qulay, interfaol rejimini ta'minlovchi), odatiy predmetli sohada ko'rgazmali grafik namunalari ko'rinishida grafik menyu tizimi bilan dasturli asbob hisoblanadi. Ko'plab fizik hodisalarning kompyuter modellari fizik hodisani tushuntirish uchun juda oson bo'lib, o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini, tasavvurlarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Masalan, moddiy nuqta, ideal gaz, garmonik ossilyator, Rezerford tajribasi modeli, zaryadli zarrachalar shular jumlasidandir. Fizik modellarni ta'lim sohasida ham keng qo'llaniladi. Virtual fizik eksperimentlar shaklidagi o'quv kompyuter modellarining fizikani o'qitishdagi o'rni yuqori darajada. O'quv virtual laboratoriya – bu yakunlangan dasturli mahsulot bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati hamda loyihalashtirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan katta dasturli tizimlarni loyihalashtirishning zamonaviy konsepsiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Metodologik jihatdan virtual laboratoriyalarni sun'iy intellekt tizimlarida qabul qilingan jarayon, deklarativ va gibrid tizimlari turlariga asoslangan bilim berish, tasavvur modellaridan kelib chiqib, guruhlash mumkin. Virtual o'quv laboratoriyadagi amaliy jarayon asosini amaliy dasturlar o'quv paketi yoki ularning sanoat analoglari tashkil etadi. Virtual laboratoriyalarni yaratishda asosiy e'tibor odatda matematik modellash, o'rganilayotgan jarayon yoki obyektlar optimallashtirish va hisob ishlariga qaratiladi. Amaliy dasturlar paketi bilan o'quv ishlarida talabalar maxsus mutaxassislik malakalariga ega bo'lishlari kerak, ko'pchilik hollarda ular hali malakalarga ega bo'lmaydilar. Bunda quyidagi tamoyillarga asoslangan maxsus didaktik interfeys, ssenariyli sxemalar yordam berishi mumkin:

- o'rganish faoliyatini faollashtirish uchun musobaqalashish vaziyatlarini yaratish;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini siklik, yopiq boshqarishni tashkil etish;
- qiziqarli namunaviy yoki o'rgatuvchi masala yoki masalalar to'plamini tanlash.

Bu tamoyillarni amalga oshirish tajribasi ularning yuqori didaktik samarasini ko'rsatadi. Texnik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashda texnik obyektlar loyihasini o'rganish bo'yicha laboratoriya ishlari katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda maxsus o'quv xonalari yaratilyapti. Ammo ularni yaratish uzoq vaqtni, jihozlash va tarkibi esa – kattamoddiy resurslarni talab qiladi. Ta'lim jarayonida virtual xonalardan foydalanish haqiqiy o'quv xonalari bilan foydalanishni butunlay chetlashtirmaydi. Lekin, bunday mashg'ulotlarning elektron ko'rinishi quyidagilarga imkon beradi:

- talabalarning o'quv ishlarida faolliklari va mustaqilliklarini oshiradi;
- o'quv materialining multimedia ko'rinishidali bilan uni qabul qilishni osonlashtiradi;
- har bir talabaning materialni o'zlashtirishi bo'yicha to'liq nazoratni ta'minlaydi;
4. **Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish** Raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish muhim sanaladi. Raqamli transformatsiya, avtomatlashtirilgan tizimlar va sun'iy intellektdan foydalanish boshqaruv jarayonlarini soddalashtirishga va tezlashtirishga yordam beradi.

5. **Motivatsiya va ish samaradorligi** Samarali boshqaruv tizimi xodimlarni rag'batlantirish orqali ularning mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimlari ishchilarning tashabbuskorligi va mas'uliyatini kuchaytiradi.

6. **Nazorat va baholash tizimi** Boshqaruv jarayonlari natijalarini baholash va ularni nazorat qilish tizimi samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Key Performance Indicators (KPI) kabi ko'rsatkichlar yordamida natijalar tahlil qilinadi va zarur tuzatishlar kiritiladi.

Zamonaviy yondoshuvlar. Boshqaruv uslubiga an'anaviy yondoshuvdan tashqari qator zamonaviy g'oyalar ham kirib keldiki, ularni bilish rahbarlik uslubini yanada ixtiyoriy idora etish imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan situativ, ya'ni vaziyatga oid rahbarlik uslubini haqida ma'lumot berib o'tishni lozim deb topamiz. Bu g'oya boshqaruv sohasidagi olimlar P. Xersi va K. Blanded tomonidan ilgari surilgan bo'lib, boshqaruvning u yoki bu uslubini qo'llash xodimlar va jamoaning psixologik rivojlanganligiga, kasbiy barkamolligiga bog'liqdir.

Mualliflarning fikricha, mutaxassisning kasbiy malakasi qanchalik yuqori bo'lsa rahbar uni shunchalik kamroq boshqarishi va hissiy jihatdan qo'llab quvvatlashi talab etiladi va aksincha. Xodim qanchalik yuqori malakaga va ruhiy yetuklikka erishgan bo'lsa, rahbarning nazorati va aralashuviga shunchalik kamroq zarurat tug'iladi. Bunday yondoshuv asosida to'rt darajali boshqaruv vaziyatlari farqlanadi va bu vaziyatlarning har biriga o'ziga xos rahbarlik uslubi talab etiladi. 1-jadvalda mana shu darajalar tavsifi va ularga mos keluvchi rahbarlik harakatlari keltirilgan.

Xodimning, jamoaning	Boshqaruv xatti-harakatlari
<p>Quyida daraja</p> <p>Past malakali va yalqov xodimlar: «ishlashni yoqtirishmaydi, kasbni bilishmaydi»</p>	<p>Avtoritar ko'rsatmalar</p> <ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Nimani va qay tarzda bajarish haqida aniq ko'rsatmalar berish lozim <input type="checkbox"/> Ishni doimiy nazorat qilish <input type="checkbox"/> Zarur bo'lganda jazolash, yomon va yaxshi ishga diqqatni qaratish, ishning ijobiy natijalarini taqdirlash
<p>O'rta daraja</p> <p>Asosiy ko'nikmalarga ega bo'lsa ham hali tajriba yetarli emas, harakatchan va vijdonli: «Ishlashni xohlashadi, lekin qanday ishlashni bilishmaydi»</p>	<p>«Ommaviylashtirish»</p> <ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Yo'riqnoma va ko'rsatmalar umumlashgan tarzda beriladi (maslahat, yordam berish, mustaqil harakatlarga imkoniyat yaratiladi) <input type="checkbox"/> Tez-tez nazorat qilib turish lozim <input type="checkbox"/> Hurmat bilan mehribonlarcha munosabat <input type="checkbox"/> Muloqotlar (xarakterdagi ijobiy tomonlarga e'tibor qaratiladi, umumiy manfaatlar aniqlanadi) <input type="checkbox"/> Kerak bo'lganda buyruq berish lozim <input type="checkbox"/> Ijobiy xulqni taqdirlash va zarur bo'lganda jazolash
<p>Yaxshi daraja</p> <p>Ishning ko'p tomonlarini bajarishga oid asosiy malaka va ko'nikmalarga ega - «Ishlashni bilishadi va xohlashadi»</p>	<p>Boshqaruvga jalb etish:</p> <ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Ayrim masalalar bo'yicha xodimlar bilan maslahatlashish <input type="checkbox"/> Xodimlarning tashabbusini, ularning fikr va takliflarini taqdirlash. <input type="checkbox"/> Mas'uliyatga ko'proq o'rin qoldirish lozim <input type="checkbox"/> To'g'ri ko'rsatmalar berish va nazoratni cheklash <input type="checkbox"/> Xodimlarning o'z-o'zini nazorat etish tizimini yaratish kerak <input type="checkbox"/> Maqsad qo'yilsin, lekin unga qanday erishish vositasi ko'rsatilmasin <input type="checkbox"/> Ko'proq muloqotda bo'lish lozim <input type="checkbox"/> Faollikni, tashabbus va yaxshi mehnatni taqdirlash kerak
<p>Yuqori daraja:</p> <p>Yuksak malakali, tashabbuskor, mas'uliyatli mutaxassislar</p>	<p>Vakolatni berish</p> <ul style="list-style-type: none"> <input type="checkbox"/> Muammoni muhokamaga qo'yish, maqsadni aniqlashtirish, o'zaro kelishuvni shakllantirish <input type="checkbox"/> Muammoni mustaqil ravishda hal etish uchun zarur huquq va vakolat bilan ta'minlash lozim <input type="checkbox"/> Ishga aralashishdan qochish kerak <input type="checkbox"/> Xodimlarga o'zlarini boshqarishlari va nazorat etishlariga erishish lozim <input type="checkbox"/> Agar murojaat etishsa yordam berish <input type="checkbox"/> Iltimoslarga jiddiy qarash

Xulosa. Samarali boshqaruv tashkilotning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillar yig'indisidir. Strategik rejalashtirish, inson resurslarini boshqarish, innovatsiyalarni tatbiq etish va nazorat tizimining mavjudligi tashkilot faoliyatining samaradorligini oshiradi. Shunday ekan, zamonaviy boshqaruv tizimini rivojlantirish va doimiy takomillashtirish tashkilotlar uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Rahbarning boshqaruv uslubi tashkilotning umumiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Samarali boshqaruv uchun rahbar yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirishi, kommunikatsiya tizimini yo'lga qo'yishi, texnologiyalardan foydalanishi va xodimlarning rivojlanishiga e'tibor qaratishi lozim. Faqatgina shu yo'l bilan tashkilot barqaror taraqqiy etishi va yuqori natijalarga erishishi mumkin. Ilmiy asoslangan yondashuvlar va amaliy misollar orqali samarali boshqaruvni shakllantirish tashkilotning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Drucker, P. (1999). 21-asrda boshqaruv muammolari.
2. Fayol, H. (1916). "Umumiy va sanoat boshqaruvi".
3. Mintzberg, H. (1973). "Boshqaruv ishining tabiati". Harper & Row. 4. Robbins, S.
4. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2005. – 149 b
5. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006. – 230 b.

МАКТАБЛАРДА О‘QUVCHI YOSHLARNING IJODIY FAOLIYATINI
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ
УЧАЩИХСЯ В ШКОЛАХ

PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE
ACTIVITY IN SCHOOLS

Bahriyeva N.N., Baxrillayeva A.Sh.,

Annotatsiya. Ushbu maqola maktablarda o‘quvchi yoshlarning ijodiy faoliyatini shakllantirish jarayonida psixologik omillarning o‘rni va ahamiyatiga bag‘ishlangan. Maqolada ijodkorlikning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi asosiy psixologik omillar, jumladan, motivatsiya, o‘ziga ishonch, emotsional barqarorlik va o‘qituvchi-shogird munosabatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda zamonaviy pedagogik usullar va psixologik yondashuvlarning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari maktab ta‘lim tizimida ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: *ijodiy faoliyat, psixologik omillar, motivatsiya, emotsional barqarorlik, o‘qituvchi-shogird munosabatlari, ijodkorlikni rivojlantirish, ta‘lim tizimi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar, mustaqil fikrlash, kreativ tafakkur, psixologik muhit, rivojlanish nazariyalari.*

Аннотация. Данная статья посвящена роли и значению психологических факторов в процессе формирования творческой активности учащихся в школах. В статье анализируются основные психологические факторы, влияющие на развитие креативности, включая мотивацию, уверенность в себе, эмоциональную стабильность и взаимоотношения между учителем и учеником. Также рассматривается эффективность современных педагогических методов и психологических подходов в раскрытии творческого потенциала учащихся. Исследование завершается практическими рекомендациями, которые могут быть применены для развития творческой активности в системе школьного образования.

Ключевые слова: *творческая активность, психологические факторы, мотивация, эмоциональная стабильность, взаимоотношения учитель-ученик, развитие креативности, система образования, современные педагогические подходы, интерактивные методы, самостоятельное мышление, креативное мышление, психологическая среда, теории развития.*

Abstract. This article is dedicated to the role and significance of psychological factors in the process of developing students' creative activity in schools. The article analyzes key psychological factors influencing the development of creativity, including motivation, self-confidence, emotional stability, and teacher-student relationships. Additionally, the effectiveness of modern pedagogical methods and psychological approaches in unlocking students' creative potential is

Bahriyeva N.N.,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
nafisabahriyeva@gmail.com

Baxrillayeva A.Sh.,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti
Psixologiya yo‘nalishi 1-
bosqich talabasi
asalbaxrillayeva@gmail.com

examined. The study concludes with practical recommendations that can be applied to enhance creative activity within the school education system.

Keywords: *creative activity, psychological factors, motivation, emotional stability, teacher-student relationships, creativity development, education system, modern pedagogical approaches, interactive methods, independent thinking, creative thinking, psychological environment, development theories.*

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. XXI asr jamiyati har tomonlama rivojlangan va kreativ fikrlovchi shaxslarni talab qilmoqda. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish dolzarb masalalardan biridir. Ijodkorlik inson tafakkuri, qobiliyati va ruhiy holati bilan bog'liq bo'lib, uni shakllantirish uchun turli psixologik omillar muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun faqatgina an'anaviy bilim berish uslublari yetarli emas. O'quvchilarning tabiiy qiziqishi, mustaqil fikrlashi va tashabbuskorligi rag'batlantirilishi lozim. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda psixologik omillar asosida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, ijodiy faoliyatga moyillik bolalikdan rivojlantirilishi kerak, chunki bola tafakkuri ochiq va kashfiyotga intilish xususiyatiga ega bo'ladi. Ushbu maqolada maktablarda o'quvchi yoshlarning ijodiy faoliyatini shakllantirish jarayonida motivatsiya, o'ziga ishonch, emotsional barqarorlik hamda o'qituvchi va shogird o'rtasidagi munosabatlarning roli tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim usullari va psixologik yondashuvlarning o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni ham ko'rib chiqiladi.

O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayoni turli psixologik omillar bilan chambarchas bog'liq. Ijodkorlik insonning tabiiy qobiliyatlaridan biri bo'lib, uni shakllantirish va rivojlantirish uchun maqsadli yondashuv talab etiladi. Bunda qulay psixologik muhit yaratish, shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish va motivatsiyani oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy faoliyat inson tafakkuri, hissiyoti va ruhiy holati bilan bevosita bog'liq bo'lib, uni bolalikdan to'g'ri yo'naltirish zarur. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda eng avvalo, ular uchun erkin va innovatsion muhit yaratish kerak. Erkin muhit o'quvchilarga o'z fikrlarini hech qanday cheklovlarsiz bayon etish, yangilik kashf etish va turli muammolarga o'ziga xos yondashish imkonini beradi. Shuningdek, bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun ularning psixologik holati muhim o'rin tutadi. Stress va bosim ostida o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati pasayishi mumkin, shu sababli ularni qo'llab-quvvatlash, o'zini erkin his qilishiga yordam berish lozim. O'qituvchilar va ota-onalar bolaning xato qilishidan qo'rqmasligi, tajribalar orqali o'rganishi va o'z fikrlarini dadil ifodalashi uchun imkoniyat yaratishlari kerak.

Bundan tashqari, ijodkorlikni rag'batlantirish uchun o'quvchilarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar berish, ularni muammolarni mustaqil hal qilishga undash ham muhim sanaladi. Qiziqarli va noan'anaviy savollar, mantiqiy muammolar, ochiq muhokamalar va ijodiy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytirish mumkin.

Birinchi navbatda, motivatsiya yetakchi o'rinda turadi. Motivatsiyaning kuchliligi o'quvchining o'z qobiliyatlarini namoyon etishida asosiy omil hisoblanadi. Abraham Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga ko'ra,⁸ inson avvalo o'zining xavfsizlik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirgach,

⁸ Maslow, A. H. (1943). "A Theory of Human Motivation". *Psychological Review*, 50(4), 370-396.

o'zini namoyon etish va ijod qilishga intiladi. Shunday ekan, o'quvchilarni rag'batlantirish, ularning ichki qiziqishini oshirish uchun qulay sharoit yaratish zarur. Motivatsiya ichki va tashqi omillarga bo'linadi. Ichki motivatsiya bolaning tabiiy qiziqishi va o'zini ifodalash istagidan kelib chiqadi, tashqi motivatsiya esa mukofot va rag'batlantirish tizimi orqali shakllanadi. Samarali ta'lim jarayoni uchun ushbu ikkala motivatsiya turi uyg'un ravishda qo'llanilishi lozim. O'ziga ishonch ham ijodiy faoliyatga ta'sir etuvchi muhim psixologik omillardan biridir. Albert Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasiga ko'ra, insonning o'ziga bo'lgan ishonchi uning harakatlariga, maqsad sari intilishiga va qiyinchiliklarni yengib o'tishiga bevosita ta'sir qiladi.⁹ Maktab muhitida o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish uchun ularni kichik g'alabalarga erishtirish va ularga nisbatan ijobiy fikr bildirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bolalarga o'z g'oyalari erkin ifodalash imkoniyatini berish, ularning fikrlarini hurmat qilish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'quvchi qanchalik o'ziga ishonsa, u shunchalik mustaqil va innovatsion fikrlashga moyil bo'ladi.

Bundan tashqari, emotsional barqarorlik ham ijodiy faoliyatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ijodiy jarayon o'quvchidan ruhiy mustahkamlikni talab qiladi. Negativ his-tuyg'ular, stress yoki qo'rquv ijodiy fikrlashga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning emotsional holatiga e'tibor qaratib, ularga doimiy psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi lozim. Masalan, bolalarni haddan tashqari qattiq tanqid qilish, ularning g'oyalari rad etish yoki noto'g'ri yo'naltirish ularda ijodiy jarayonga bo'lgan ishonchni susaytirishi mumkin. Buning o'rniga o'qituvchilar ijobiy rag'batlantirish va motivatsion yondashuv orqali o'quvchilarning o'z salohiyatlarini namoyon etishlariga yordam berishlari lozim. Bundan tashqari, ijodiy muhitni shakllantirishda o'quvchilarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi ham muhim rol o'ynaydi. Shaxs rivojlanishida ijtimoiy omillar, ayniqsa, oila va o'qituvchi bilan bo'lgan munosabatlar katta ahamiyatga ega. Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola o'z salohiyatini ijtimoiy muloqot orqali rivojlantiradi.¹⁰ U inson o'rganish jarayonida boshqalarning tajribasidan foydalangan holda o'z qobiliyatlarini rivojlantirishini ta'kidlaydi. Shunday ekan, o'quvchilarning ijodiy rivojlanishini ta'minlash uchun ularga erkin fikrlash, izlanish va eksperiment qilish imkoniyatlarini yaratish muhimdir. Ijodiy faoliyatning shakllanishida stressni kamaytirish va ijobiy muhit yaratish ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarga berilgan topshiriqlar haddan tashqari qiyin bo'lsa, bu ularni qo'rqitishi va ijodiy faoliyatdan uzoqlashtirishi mumkin. Shu sababli, o'quvchilarning qobiliyatlariga mos keladigan, lekin ularni rivojlantiruvchi murakkablik darajasiga ega bo'lgan topshiriqlar berilishi lozim. Bundan tashqari, ijodiy jarayonda xatolar tabiiy ekanligi va ulardan o'rganish zarurligi tushuntirilishi kerak.

Umuman olganda, ijodiy faoliyatni shakllantirish jarayonida motivatsiya, o'ziga ishonch, emotsional barqarorlik va ijtimoiy muloqot kabi psixologik omillar muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillar uyg'unlashgan taqdirda, o'quvchilar erkin fikrlashga, yangi g'oyalarni ilgari surishga va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga tayyor bo'ladilar.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar ijodiy muhitni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'z shogirdlarini ijodiy fikrlashga undash uchun ularning intellektual va ruhiy ehtiyojlarini tushunishi lozim. Do'stona va ishonchli muhit o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalashiga yordam beradi. O'qituvchi ijodiy yondashuvlarni rag'batlantirishi, o'quvchilarga erkin izlanish va yangi g'oyalarni sinab ko'rish imkonini berishi muhimdir. Shuningdek, o'qituvchining fikr-mulohazalarni baholash uslubi ham o'quvchilarning ijodiy

⁹ Bandura, A. (1997). *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. New York: W.H. Freeman and Company.

¹⁰ Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

faoliyatiga ta'sir qiladi. Tanqidiy emas, balki konstruktiv fikr bildirish, o'quvchilarni rag'batlantirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. O'qituvchi shogirdlarining intilishlarini qadrlashi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishi, ular bilan o'zaro hamkorlikda ishlashi ijodiy rivojlanish uchun asosiy omillar hisoblanadi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interaktiv va zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish samarali hisoblanadi. An'anaviy ta'lim usullaridan farqli o'laroq, interaktiv metodlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlashga va o'z g'oyalarini ilgari surishga undaydi. Bunday metodlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini kengaytiradi, ularning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda yangilik yaratish istagini kuchaytiradi.

Ijodiy fikrlashni shakllantirishda loyiha usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usul orqali o'quvchilar mustaqil izlanish olib borish, mavzuni chuqur o'rganish va o'ziga xos yondashuv asosida ijodiy yechimlar topish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Loyiha usuli o'quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga ularni jamoa bo'lib ishlashga va o'z fikrlarini mantiqiy asoslashga o'rgatadi. Shuningdek, muammoli ta'lim ham o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishda samarali vositalardan biridir. Bu metod o'quvchilarga muayyan masala yoki vaziyatni taqdim etib, uning yechimini mustaqil topishga undaydi. O'quvchilar real hayotiy muammolarni tahlil qilish, muqobil echimlarni ishlab chiqish va ijodiy yondashuvni qo'llash orqali o'z bilimi va qobiliyatlarini mustahkamlashadi.

Klaster texnologiyasi esa o'quvchilarning assotsiativ tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularga o'z g'oyalarini tizimli ravishda tartibga solish, muammolarni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish va yangi g'oyalar yaratish imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiya ijodiy fikrlash jarayonini jadallashtiradi, o'quvchilarning mavzu bo'yicha mustaqil fikr yuritishiga yordam beradi.

Brainstorm (aqliy hujum) usuli esa jamoaviy muhokama orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metod o'quvchilarni erkin va dadil fikrlashga, o'z g'oyalari bilan o'rtoqlashishga, yangilik yaratishga rag'batlantiradi. Muhokama jarayonida har bir o'quvchi o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'lib, turli nuqtai nazarlar asosida yangicha echimlar ishlab chiqiladi.

O'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda san'at, adabiyot va ilmiy izlanishlar ham muhim rol o'ynaydi. Ularni badiiy ijodga, qiziqarli ilmiy tajribalarga, she'r va hikoyalar yozishga, san'at va musiqa bilan shug'ullanishga yo'naltirish orqali kreativ tafakkurlarini shakllantirish mumkin. Bu kabi mashg'ulotlar o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini ifodalash, yangi g'oyalar yaratish va noan'anaviy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Ijodiy muhitni shakllantirishda o'qituvchilar turli didaktik o'yinlar, eksperimentlar va jamoaviy ish usullaridan foydalanishlari lozim. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga, ularga yangi bilimlarni qiziqarli shaklda o'zlashtirish imkonini beradi. Eksperimentlar orqali esa o'quvchilar ilmiy izlanish olib borish, natijalarni kuzatish va xulosalar chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Jamoaviy ish usullari esa o'quvchilarning hamkorlikda fikr yuritish, bir-biridan o'rganish va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularni mustaqil fikrlashga, yangilik yaratishga undaydigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Loyiha usuli, muammoli ta'lim, brainstorm, klaster texnologiyasi kabi metodlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini oshirishda samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, san'at, adabiyot va ilmiy izlanishlarga jalb qilish, ijodiy muhit yaratish va interaktiv metodlarni qo'llash orqali ularning kreativ salohiyatini yanada rivojlantirish mumkin.

Xulosa

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. XXI asr jamiyati har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi va innovatsion yondashuvga ega shaxslarni talab qiladi. Shu sababli, ta'lim tizimi faqatgina an'anaviy bilim berish bilan cheklanmasdan, ijodiy muhitni shakllantirish, motivatsiyani oshirish va o'quvchilarni mustaqil izlanishga undashga qaratilishi lozim. Maqolada o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda psixologik omillarning ahamiyati yoritib berildi. Jumladan, motivatsiya, o'ziga ishonch, emotsional barqarorlik va ijtimoiy muloqot kabi omillar o'quvchilar ijodiy salohiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ichki va tashqi motivatsiyaning uyg'unligi, qulay psixologik muhit yaratish, ijodiy jarayonda xatolarni o'rganish vositasi sifatida qabul qilish, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni shakllantirish ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlarning samaradorligi ta'kidlandi. Xususan, loyiha usuli, muammoli ta'lim, brainstorm, klaster texnologiyasi kabi yondashuvlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, innovatsion tafakkurlarini rivojlantiradi va yangi g'oyalarni ilgari surish imkonini beradi. Shuningdek, san'at, adabiyot va ilmiy izlanishlar orqali o'quvchilar ijodiy faoliyatga qiziqtirilishi mumkin. Shunday qilib, ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish faqatgina nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmasligi, balki ularni ijodiy izlanish, mustaqil fikrlash va yangilik yaratishga yo'naltirish kerak. Psixologik omillarni inobatga olgan holda, zamonaviy ta'lim metodlaridan samarali foydalanish o'quvchilarning kreativ salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda ijodkor va innovator shaxslarni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maslow, A. H. (1943). *"A Theory of Human Motivation"*. Psychological Review, 50(4), 370-396.
2. Bandura, A. (1997). *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. New York: W.H. Freeman and Company.
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. To'xtaboyeva, N. (2019). *Pedagogik psixologiya*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Gardner, H. (1993). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books.
6. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). *"Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being"*. American Psychologist, 55(1), 68-78.
7. Qodirov, M. (2020). *Zamonaviy ta'limda interaktiv metodlar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
8. Amabile, T. M. (1996). *Creativity in Context*. Boulder, CO: Westview Press.
9. Xolmurodova, L. (2018). *Bolalar psixologiyasi va rivojlanish nazariyalari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
10. Csikszentmihalyi, M. (1990). *Flow: The Psychology of Optimal Experience*. New York: Harper & Row.

O‘SMIRLARDA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ САМОУПРАВЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING SELF-GOVERNANCE IN ADOLESCENTS

Iskandarov Erkinboy

Annotatsiya. Komil shaxsni shakllantirish va tarbiyalash g‘oyasi istiqlolning dastlabki kunlaridanoq biz uchun ustuvor vazifa qilib belgilandi. Ushbu vazifalar jamiyatimizda har bir shaxsga, ayniqsa bolalarga ularning tarbiyasiga kompleks yondashishni talab qiladi. Shaxsning har tomonlama kamol topishi ta’lim jarayoni, uning tashkil etilishi va amalga oshirish usul va vositalariga ham muayyan darajada bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: o‘z-o‘zini boshqarish, dinamik, adaptiv gomeostatik, psixika, xulq-atvor, mexanizmlar, ijtimoiy determinatsiya, aqliy faoliyat, ong.

Аннотация. Идея формирования и воспитания совершенной личности поставлена для нас приоритетной с первых дней независимости. Эти задачи требуют комплексного подхода к воспитанию каждого человека в нашем обществе, особенно детей. Всестороннее развитие человека в определенной степени зависит от образовательного процесса, его организации и методов и средств реализации.

Ключевые слова: Самоконтроль, динамика, адаптивная гомеостатика, психика, поведение, механизмы, социальная детерминация, психическая деятельность, сознание.

Abstract. The idea of forming and educating a perfect personality has been a priority for us since the first days of independence. These tasks require a comprehensive approach to the upbringing of each person in our society, especially children. The development of a person in all aspects depends to a certain extent on the educational process, its organization and implementation methods and means.

Keywords: student, self-confidence, self-esteem, adequacy, liberalism, authoritarianism, skill, knowledge, competence, competency.

Kirish. O‘smirlar hali to‘liq shakllanmagan shaxslardir. O‘z-o‘zini tushunishning bir qismi sifatida ular “haqiqiy o‘zini” va “mukammal o‘zini” o‘z ichiga oladi. Agar o‘spirin yuqori da’volarga

Iskandarov E.
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universitetining
mustaqil izlanuvchisi
erkinboyiskandarov96@gmail.com

ega bo'lsa va uning imkoniyatlari to'g'risida etarli ma'lumotga ega bo'lmasa, unda "ideal men" haqiqiydan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Ideal tasvir va hozirgi holat o'rtasidagi bu tafovut o'ziga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, bu esa teginish, o'jarlik yoki tajovuzkorlik bilan namoyon bo'lishi mumkin. Ideal tasvirga erishish mumkin bo'lsa, u o'z-o'zini tarbiyalashni rag'batlantiradi. O'smirlar nafaqat ular qanday bo'lishini orzu qiladilar, balki o'zlarida kerakli fazilatlarini rivojlantirishga intilishadi. Sifatli tartibga solish jarayoni maqsadga muvaffaqiyatli erishishni ta'minlaydi, tartibga solish tuzilishidagi nuqsonlar esa insonning imkoniyatlarini, shu jumladan o'quv faoliyatini cheklaydi. Tartibga solish jarayonlarining funktsional tuzilishining mukammalligi turli sohalarida faoliyatni rivojlantirishning asosiy shartidir. Nafaqat aqliy, irodaviy va axloqiy, balki tizimli tartibga solish tuzilishiga ham e'tibor qaratadigan yondashuv, shubhasiz, muvaffaqiyatli rivojlanish uchun muhimdir[2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Agar biz allaqachon mavjud bo'lgan o'zini o'zi boshqarish tizimlari haqida gapiradigan bo'lsak, O. A. Konopkin quyidagi tarkibiy qismlardan iborat o'z-o'zini boshqarish tizimini ishlab chiqqan, bular:

1. Sub'ekt tomonidan qabul qilingan faoliyatning maqsadi. Bu o'z-o'zini boshqarishning umumiy yo'nalishini belgilaydigan asosiy bo'g'in. O'z-o'zini boshqarishning butun jarayoni ushbu maqsadga sub'ekt o'zi anglagan shaklda erishish atrofida qurilgan.

2. Muhim shartlarning subyektiv modeli. Bu mavzu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun muhim deb hisoblaydigan faoliyatning tashqi va ichki sharoitlari majmuasini anglatadi. Ushbu model axborot manbai bo'lib, uning asosida harakatlarni dasturlash amalga oshiriladi. Shuningdek, u faoliyat jarayonida sharoitlarning dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

3. Harakatlar dasturi. Mavzu o'zini o'zi boshqarishning ushbu jihatini amalga oshirish orqali muayyan harakatlar dasturini yaratadi. Ushbu dastur sub'ektning o'zi tomonidan ajratilgan muhim shartlarni hisobga olishda maqsadga erishishga qaratilgan harakatlarning tabiati, ketma-ketligi, usullari va boshqa xususiyatlarini belgilaydi[4].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqsadga erishish uchun sub'ektiv mezonlar tizimi yoki muvaffaqiyat mezonlari aqliy tartibga solishning muhim elementidir. Bu maqsadning asl formulasini aniqlashtirish va konkretlashtirishga xizmat qiladi. Maqsadni umumiy belgilash ko'pincha aniq tartibga solish uchun etarli emas, shuning uchun sub'ekt maqsadni sub'ektiv tushunishiga mos keladigan natijani baholash mezonlarini ishlab chiqadi. Haqiqiy natijalarni nazorat qilish va baholash-bu mavzu tomonidan belgilangan muvaffaqiyat mezonlarini hisobga olgan holda joriy va yakuniy natijalarni baholaydigan tartibga soluvchi element. Ushbu element faoliyatning rejalashtirilgan jarayoni, uning bosqichma-bosqich va yakuniy natijalari va ularga erishishning haqiqiy jarayoni o'rtasidagi muvofiqlik haqida ma'lumot beradi.

Tahlil va natijalar

Maqsadga erishish uchun sub'ektiv mezonlar tizimi yoki muvaffaqiyat mezonlari aqliy tartibga solishning muhim elementidir. Bu maqsadning asl formulasini aniqlashtirish va konkretlashtirishga xizmat qiladi. Maqsadni umumiy belgilash ko'pincha aniq tartibga solish uchun etarli emas, shuning uchun sub'ekt maqsadni sub'ektiv tushunishiga mos keladigan natijani baholash mezonlarini ishlab chiqadi. Haqiqiy natijalarni nazorat qilish va baholash-bu mavzu tomonidan belgilangan muvaffaqiyat mezonlarini hisobga olgan holda joriy va yakuniy natijalarni baholaydigan tartibga soluvchi element. Ushbu element faoliyatning rejalashtirilgan jarayoni, uning bosqichma-bosqich va yakuniy natijalari va ularga erishishning haqiqiy jarayoni o'rtasidagi muvofiqlik haqida ma'lumot beradi. O'z-o'zini boshqarish tizimini tuzatish jarayoni optimal natijalarga erishish uchun uning ishlashiga o'zgartirishlar kiritishni o'z ichiga oladi. Berilgan havolaning bu funktsiyasi uning nomida aniq belgilangan. Biroq,

ushbu tuzatishning o'ziga xos xususiyati shundaki, "agar uning ko'rinadigan namoyon bo'lishi ijro etuvchi harakatlar jarayonini o'zi tuzatish bo'lsa, unda uning asosiy sababi sub'ekt tomonidan tartibga solish jarayonining boshqa har qanday bo'g'iniga kiritilgan o'zgarish bo'lishi mumkin, masalan, muhim shartlar modelini o'zgartirish yoki muvaffaqiyat mezonlarini aniqlashtirish"[1].

"Tartibga solish jarayonining barcha bo'g'inlari axborot ta'limi sifatida bir-biri bilan chambarchas bog'liq va faqat o'zini o'zi boshqarishning yaxlit jarayoni kontekstida o'zlarining mazmunli va funktsional aniqligini olishadi"[5].

Aqliy o'zini o'zi boshqarish, asosiy tartibga solish jarayoni sifatida, subektning har bir bosqichda ma'lumotlarning noaniqligini engib, ularning axborot muvofiqligini ta'minlash usulidir. Ushbu jarayon doirasida sub'ekt bir-biriga bog'liq bo'lgan bir qator qarorlarni qabul qiladi va o'z faoliyatini boshqarishda sub'ektiv axborot noaniqligining turli jihatlarini engib o'tish uchun kelishilgan tanlovlar ketma-ketligini amalga oshiradi, maqsadni belgilashdan boshlab erishilgan natijalarni baholashgacha. Faoliyatning o'ziga xos kontekstiga va uni amalga oshirish shartlariga qarab subekt tomonidan faol foydalaniladigan axborot noaniqligini bartaraf etishning turli xil psixologik vositalari mavjud. Bunga mavzu maqsadli ravishda qo'llaydigan ma'lumotni faol tushunish, ichki modellashtirish va o'zgartirish jarayonlari kiradi. "Subekt o'zi qabul qilgan mezonlar asosida aqliy hodisalar shaklida (o'ziga xos hissiy idroklardan yuqori darajadagi shaxsiy qadriyatlargacha) taqdim etilgan ma'lumotlarni tanlash va baholashni amalga oshiradi "[3].

O'z-o'zini boshqarish jarayoni, funktsional komponentlar tizimi sifatida, sub'ektning ongida uning faoliyatining yaxlit modelini yaratish va saqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu uning ijro etuvchi harakatlarini boshlanishidan oldin ham, ularni amalga oshirish jarayonida ham kutadi. O'z-o'zini boshqarish jarayonlarining funktsional tuzilishi modeli-bu substratdan mustaqil ravishda ko'rib chiqiladigan jarayonning tuzilishi uning ichki mexanizmiga, jarayon qanday sodir bo'lishiga, "jarayon shakli" mavhum tushunchasiga yoki tarkibni o'zgartirish usuliga qisqartirilishi haqidagi umumiy qoidani amalga oshirishning bir variantidir. Jarayonning rasmiy tomoni uning funktsional tuzilishi tushunchasiga mos keladi.

Ushbu model aqliy o'zini o'zi boshqarish jarayonlarining tarkibiy va funktsional jihatlarini aks ettiradi, psixologik, mazmunli va ijro etuvchi jihatlarining xilma-xilligidan qat'i nazar, eng barqaror va o'zgarimas tarkibiy qismlarni ta'kidlaydi. "Shuningdek, u funktsional tarkibiy qismlarni shakllantirish, moslashtirish va takomillashtirishning chiziqli bo'lmagan bosqichlari va vaqt xususiyatlarini, shuningdek ularni umumiy tartibga solish jarayonida muvofiqlashtirishni hisobga oladi".

O'z-o'zini boshqarish jarayonlarining funktsional tuzilishini tahlil qilish ularni tahlil qilishning ikkinchi muhim tarkibiy va psixologik jihatlarini amalga oshirishning asosiy elementidir. Ushbu jihat o'ziga xos aqliy jarayonlar, hodisalar va aqliy faoliyat natijalari prizmasi orqali o'zini o'zi boshqarishning axborot mazmunini o'rganishni o'z ichiga oladi. Faqatgina ushbu jihat orqali o'zini o'zi boshqarish jarayonini subektning aqliy faoliyatining jonli, aniq jarayoni sifatida ko'rib chiqish mumkin, u ta'rifning barcha jihatlarini, maqsadlarning mazmunli va shaxsiy qiymatlarini, ularga erishish usullariga munosabatni, faoliyat sharoitlarini, subektning individual xususiyatlarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda shakllanadi[7].

O'z-o'zini boshqarishning o'ziga xos jarayoni, ruhiy jarayon sifatida, faqat ikkala tomonning kombinatsiyasi bilan mavjud. Biroq, o'z-o'zini boshqarish jarayonlarining mazmun-psixologik jihatini amalga oshirish, ularning tartibga soluvchi mohiyatini saqlab qolish, faqat ularning funktsional tuzilishining allaqachon ma'lum bir jihati bilan organik o'zaro ta'sirda mumkin.

O'z-o'zini boshqarish jarayonlarining funktsional tuzilishi modeli individual funktsional komponentlar va umuman butun jarayon zarur aqliy resurslar tomonidan qanday qo'llab-quvvatlanishini

tahlil qilishga imkon beradi. Bu maqsadli faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan har bir aqliy hodisani uning muayyan tartibga soluvchi komponentlar bilan o‘zaro ta’siri kontekstida ko‘rib chiqishga imkon beradi, bu uning ma’lum bir funktsiyani ta’minlashdagi rolini belgilaydi. Bu, o‘z navbatida, ushbu hodisaning semantik va aksiologik jihatlarini hisobga olgan holda uning axborot mazmuni kabi turli parametrlarga muvofiqqligini baholashga va o‘z-o‘zini boshqarish jarayonida boshqa komponentlar bilan qanday o‘zaro ta’sir qilishini taxmin qilishga imkon beradi. Ushbu yondashuv ba’zi tadqiqotchilarning tendentsiyasini engishga yordam beradi, ular “o‘z-o‘zini boshqarish” atamasidan foydalanib, turli xil aqliy hodisalarni faoliyat yoki xatti-harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lashga moyil bo‘lib, ushbu hodisalarning jarayonni tartibga solishga ta’sirini aniqlaydigan va aniqlaydigan jarayonni chetlab o‘tishadi.

Shunday qilib, psixologik tadqiqotlarda asosiy vosita sifatida aqliy o‘zini o‘zi boshqarishning me’yoriy modelining ahamiyatini tushunish insonni maqsadli faoliyat subekti sifatida o‘rganish bilan bog‘liq turli xil muammolarni hal qilish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Bunga subektiv fazilatlarini rivojlantirish, ularning hayotning turli sohalarida namoyon bo‘lishi, ixtiyoriy faoliyat shakllarini tahlil qilish va boshqalar kiradi.

Masalan, ushbu model muayyan faoliyat turlari bilan bog‘liq tartibga solish xususiyatlarini tahlil qilish va ularni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, u kasbiy mehnatni axborot bilan qo‘llab-quvvatlashga yangi yondashuvni taqdim etadi va kasbga yo‘naltirish paytida odamni tartibga solishning individual xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradi. Tartibga solish jarayonlari tuzilishining rivojlanishini maxsus diagnostika qilish zarurati aqliy subekt rivojlanishining muhim yo‘nalishiga aylanadi.

Bundan tashqari, tartibga solish jarayonlari doirasida tashabbuskorlik va mustaqillik kabi shaxsiy xususiyatlarni o‘rganishning yangi jihatlarini paydo bo‘lmoqda. Bu ixtiyoriy faoliyatda o‘zini o‘zi boshqarishning individual uslubini tushunishni kengaytirish va chuqurlashtirishga imkon beradi.

“O‘z-o‘zini boshqarishning uslubiy xususiyatlari tashqi va ichki maqsadli faoliyatni tashkil etish va nazorat qilishning o‘ziga xos va eng muhim individual xususiyatlarini ifodalaydi, ular faoliyatning turli sohalarida doimiy ravishda namoyon bo‘ladi” [3].

Zamonaviy psixologiyada o‘z-o‘zini boshqarish uslubi ko‘pincha turli darajadagi shaxsiyat xususiyatlari va ushbu model shakllanadigan faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan faoliyatni amalga oshirishning doimiy individual xususiyatlari sifatida tavsiflanadi. V. I. Morosanova va E. M. Konoz ixtiyoriy faoliyatda o‘zini o‘zi boshqarishning individual modelini o‘rganishga e’tibor qaratib, inson uslubining xususiyatlarini o‘rganishga yangi yondashuvni ishlab chiqmoqdalar [5].

O‘z-o‘zini boshqarish uslubi fenomeni inson hayot maqsadlariga erishish uchun o‘z harakatlarini rejalashtirish va sozlash usulida namoyon bo‘ladi. Bunga muhim tashqi va ichki sharoitlarni hisobga olish, natijalarni baholash va maqbul natijalarga erishish uchun faoliyatni sozlash, shuningdek, o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlarining xabardorlik va rivojlanish darajasi kiradi. Shaxsiy o‘zini o‘zi boshqarish uslubi tartibga solish xususiyatlari majmuasi bilan belgilanadi. Ushbu kompleks rejalashtirish, dasturlash, modellashtirish va natijalarni baholash kabi tartibga solish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, mustaqillik, ishonchlilik va moslashuvchanlik kabi shaxsiy va instrumental xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

“Aqliy faoliyat va faoliyatning turli sohalarida funktsional tartibga solish tuzilishining ko‘p qirraliligi tufayli o‘z-o‘zini boshqarish uslubi shaxsni tartibga solishning umumiy asosini ifodalaydi, bu esa turli sohalarida o‘ziga xos faoliyat uslublarini shakllantirishga yordam beradi”[3]. O‘z-o‘zini boshqarishning individual uslub xususiyatlari aqliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimining insonga xos

xususiyatlari sifatida belgilanadi, ular uning faoliyati va xatti-harakatlarining turli sohalarida doimiy ravishda namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini boshqarishning individual uslub xususiyatlarini ikki toifaga ajratishimiz mumkin. Birinchidan, rejalashtirish, dasturlash va natijalarni baholash kabi o'z-o'zini boshqarish tizimida asosiy funktsiyalarni bajaradigan tartibga solish jarayonlarining individual xususiyatlari. Ushbu xususiyatlarni o'rganish uchun biz O. A. Konopkin tomonidan ishlab chiqilgan ongli o'zini o'zi boshqarish tizimining asosiy modelidan foydalanamiz[4]. Ushbu model bizga yagona yondashuvni qo'llash va tartibga solish jarayonlarining individual xususiyatlarini ularning tashqi tashkil etilishi va ishlatilgan aqliy vositalaridan qat'iy nazar, faoliyatning turli sohalarida taqqoslash imkonini beradi. Buning yordamida biz tartibga solishning individual va odatiy uslub xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin. Ikkinchidan, o'zini o'zi boshqarish tizimining barcha elementlarining ishlashini tavsiflovchi va bir vaqtning o'zida shaxsiy xususiyatlar (masalan, mustaqillik) bo'lgan uslub xususiyatlari mavjud. O'zingizni bilish va turli xil fazilatlaringsizdan xabardor bo'lish o'z-o'zini anglashning kognitiv tarkibiy qismini shakllantirish uchun asosdir. Bundan tashqari, yana ikkita komponent mavjud: baholash va xulq-atvor. Bolalar uchun nafaqat ularning aslida nima ekanligini, balki ularning individual xususiyatlari qanchalik muhimligini tushunish muhimdir. Ularning fazilatlarini baholash oila va tengdoshlar ta'siri ostida shakllanadigan qadriyatlar tizimiga bog'liq. Ushbu davrda o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi boshqarish rivojlanadi. Buning yordamida o'z-o'zini tarbiyalash mumkin bo'ladi.

O'smirlik davrida o'zini o'zi boshqarish sohasida o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, o'smirlar o'z-o'zini nazorat qilishning ta'lim faoliyatini yaxshilashga hissa qo'shadigan omil sifatida ahamiyatini anglay boshlaydilar. Ikkinchidan, ish faoliyati va o'zini o'zi boshqarish o'quv faoliyati doirasida tabiiy ravishda birlasha boshlaydi va jarayonning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir o'sib ulg'aygan sayin, o'z-o'zini nazorat qilish yanada umumlashtirilgan va avtomatlashtirilgan aqliy harakatga aylanadi va o'z-o'zini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan aqliy operatsiyalar kamayadi va samaraliroq bo'ladi [6].

Xulosa qilib autganda, aqliy o'zini o'zi boshqarish deganda insonning aqliy hodisalariga (jarayonlari, holatlari, xususiyatlari), ularning faoliyati va xatti-harakatlariga ularning xarakterini saqlab qolish yoki o'zgartirish maqsadida ongli ravishda ta'siri tushuniladi. O'z-o'zini boshqarish sub'ekti insonning o'zi bo'lib, ob'ektlar uning aqliy hodisalari, u bajaradigan faoliyati yoki xatti-harakatlari bo'lishi mumkin. Ixtiyoriy faoliyatning aqliy o'zini o'zi boshqarish muammosini o'rganish psixologik tadqiqotlarning muhim jihati bo'lib, o'zini o'zi boshqarish jarayonlari to'g'risida keng qamrovli g'oyani shakllantirish ularning tartibga soluvchi axborot jarayonlari sifatida asosiy tuzilishi masalasiga asoslanadi. O'z-o'zini boshqarish jarayonlarining funktsional tuzilishining umumlashtirilgan modeli o'z-o'zini boshqarishni chuqurroq tushunish va insonni uning ixtiyoriy faoliyatining har xil turlari va shakllari sub'ekti sifatida o'rganish bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan asosiy kontseptual vositadir.

Xulosa va takliflar

Aqliy o'zini o'zi boshqarishning me'yoriy modelini kontseptual vosita sifatida aniqlash turli xil muammolarni, shu jumladan odamni maqsadli faoliyat sub'ekti sifatida o'rganish bilan bog'liq an'anaviy muammolarni hal qilish imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi. Bunday model subektiv fazilatlarining rivojlanishi va shakllanishini tahlil qilishga, hayotning turli sohalarida ularning namoyon bo'lishini aniqlashga va ixtiyoriy maqsadli faoliyatning asosiy shakllarini o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аверин Ю.П. Люди управляют людьми: модель социологического анализа. М., 1996.
2. Ivanov P.U., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy

jamiyati nashriyoti, 2008, - 472 bet.

3. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб.: Издательство «Питер», 2000.
4. Конопкин О.А. Психологические механизмы регуляции деятельности. -М., Наука, 1980.
5. Медведев В.П. Самосозидание как атрибут человека и личности. Саратов, 1996.
6. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. Toshkent. O'zbek faylasuflari milliy jamiyati. 2010. – 544 b.
7. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent. Mumtoz zo'z, 2010. - 330 b
8. Дубовская Е.М., Тихомандрицкая О.А. О стратегиях работы психологов школе. В сб. «Введение в практическую социальную психологию». М., 1994.
9. Дубровина И.В., Борисова Е.М., Прихожан А.М. Модель развития психологической службы системы образования России. Детский практический психолог. Обнинск, 1994, январь.
10. Дусовицкий А. К. Активность личности и коллектив как развивающаяся система. Психологический журнал, 1993, т.4, № 6.
11. Евланова Н.С. уровень нравственных суждений и самооценка. (Глава V § 2). В сб. Психическое развитие младших школьников. М., 1990.
12. Емельянова И.Н. Педагогические возможности использования ситуации выбора в учебно-воспитательном процессе. Автореферат кандидата педагогических наук. Екатеринбург, 1994.

**SPORTCHILAR FAOLIYATIDA STRESSLI KECHINMALAR NAMOYON
BO‘LISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK SO‘ROVNAAMA (IPS)DAN OLINGAN
NATIJALAR SHARXI**

**АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОПРОСА (IPS) О
ПРОЯВЛЕНИИ СТРЕССОВЫХ ПЕРЕЖИВАНИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
СПОРТСМЕНОВ**

**ANALYSIS OF RESULTS OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL SURVEY (IPS) ON THE
MANIFESTATION OF STRESS EXPERIENCES IN ATHLETES' ACTIVITIES**

Radjabov Akmal Abduxaliqovich

Anotatsiya: Ushbu maqolada sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik so‘rovnomaning (IPS) natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida turli sport turlari bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning stress omillariga munosabati, ularga psixologik barqarorlik darajasi va ularning natijalarga ta’siri o‘rganildi. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, stress darajasi sport turiga, sportchilarning yoshiga va tajribasiga bog‘liq ravishda farqlanadi. Natijalar asosida stressli holatlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: *Sport psixologiyasi, stressli kechinmalar, ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma (IPS), psixologik barqarorlik, sport natijalari, stress omillari, sportchi yoshi, tajriba.*

Аннотация. В данной статье анализируются результаты социально-психологического опроса (IPS) о проявлении стрессовых переживаний в деятельности спортсменов. В ходе исследования изучалось отношение спортсменов, занимающихся различными видами спорта, к стрессовым факторам, уровень их психологической устойчивости и влияние на результаты. Результаты опроса показали, что уровень стресса варьируется в зависимости от вида спорта, возраста и опыта спортсменов. На основе результатов разработаны практические рекомендации по снижению стрессовых состояний.

Ключевые слова: *Спортивная психология, стрессовые переживания, социально-психологический опрос (IPS), психологическая устойчивость, спортивные результаты, стрессовые факторы, возраст спортсмена, опыт.*

Abstract. This article analyzes the results of the socio-psychological survey (IPS) on the manifestation of stress experiences in athletes' activities. The study examined athletes engaged in various sports, their reactions to stress factors, levels of psychological stability, and how these factors influenced their performance. The survey results showed that the level of stress varies depending on the type of sport, age, and experience of athletes. Based on the findings, practical recommendations were developed to reduce stress conditions.

Radjabov A.A.,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
radjabovakaml86@gmail.com

Keywords: *Sports psychology, stress experiences, socio-psychological survey (IPS), psychological stability, sports performance, stress factors, athlete's age, experience.*

Sportchilar faoliyatida paydo bo'ladigan salbiy emotsional holat-stressni kelib chiqish sabablarini o'rganish va uni yengish hamda bartaraf etish muammosi bugungi kunda o'z yechimini topishi zarur bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi. Bu muammoning saqlanib qolayotganligi sportchilarni musobaqadan oldingi va keyingi stressli kechinmalar haqida nazariy va amaliy jihatdan bilim darajasi past ekanligini, uni tushunib mohiyatini anglamasdan, sportchilar faoliyatida unga amal qilmaslik holatlari yuz berishiga olib keladi va sport sohasida mas'ul mutaxassislar oldiga muhim vazifalarni yuklaydi. Bunday emotsional holatlar sportchining muvaffaqiyatga erishishi, yaxshi natijalarni qo'lga kiritishi, har xil sub'ektiv muammolarni bartaraf etib o'z maqsadiga yetishishida muhim salbiy omil sifatida namoyon bo'lada. Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalarni shakllanishiga ta'sir etadigan yoki keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish respublikamizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasidagi dolzarb muammolardandir. Buning uchun mazkur muammoni bartaraf etishning samarali usullari va yengish choralarini ishlab chiqish hamda uni sport faoliyatiga joriy etishning ilmiy asoslarini yaratish nihoyatda zarurdir [1].

Ana shu nuqtai nazardan biz "Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishining ilmiy dasturiga tayanib, bir qator tizimli vazifalarni bir necha bosqichda amalga oshirdik.

Birinchil bosqichda- sport psixologiyasida stress muammosining nazariy-metodologik asoslari o'rganildi. Unda xorijiy psixolog olimlar tomonidan sportchi faoliyatida yuzaga keladigan stress holatining o'rganilganlik darajasi, shuningdek, rus va mamlakatimiz psixologiyasida sportchi faoliyatida stressli kechinmalarni yuzaga keltiruvchi omillar muammosi, musobaqa jarayonida emotsional zo'riqishning oldini olish va yengish usullarini psixologik tadqiqot muammosi sifatida olimlar tomonidan o'rganilganligi tahliliy baholandi va shunga tayanib, sportchi faoliyatida stress holatini yuzaga kelishini ta'minlovchi stressorlar va ular shakllanishining sabablari, qonuniyatlari, shart-sharoitlari, ularga ta'sir etayotgan muhim omillar hamda ularning oqibatlarini keng yoritildi.

Mavzu doirasida muammoni tadqiq etish uchun tadqiqot bosqichlari belgilandi, fanning metodologik asoslari va metodikalarning psixologik tavsifi keng yoritildi, tadqiqot ishimiz ancha murakkab va o'ta dolzarb mavzuga bag'ishlanganligi uchun uning bosqichlariga, ilmiy psixologik bilimlarni asoslash uchun fanning metodologik tamoyillariga va tadqiqot metodikalarida belgilangan qonun-qoidalar va yo'l-yo'riqlarga qat'iy amal qilindi.

Ikkinchi bosqichda- sportchilar faoliyatida namoyon bo'ladigan stressli kechinmalarning psixodiagnostikasi (eksperimental o'rganilishi) amalga oshirildi. Sportchilarda stressli holatlarning namoyon bo'lish xususiyatlari va mohiyatini aniqlash hamda ilmiy asoslash maqsadida unga ta'sir etuvchi omillarning ko'rinishlari, kelib chiqish sabablari, manbalari aniqlandi. Sportchilarda tashqi sabablar ta'sirida namoyon bo'ladigan emotsional qo'zg'ishning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari va uni keltirib chiqaruvchi omillarning tasnifi yaratildi. Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan motivlarning anglanilmaganligi sportchi yoshlar tarbiyasi va ular shaxsining beqaror shakllanishiga, natijada ularning o'zaro munosabatlarga kirishishida, sportga yo'nalganligida, yuksak mahorati va boshqa aqliy, axloqiy-ma'naviy, siyosiy, huquqiy taraqqiyot darajalariga putur yetishi bilan bog'liq oqibatlar hamda salbiy natijalar salmog'i asoslandi. Sportchilar emotsional holatidagi o'zgarishlarning tub sabablari aniqlandi va tegishli baholanib, uning psixologik talqini yoritildi.

Uchinchi bosqichda- sportchilar faoliyatida namayon boʻladigan psixik zoʻriqish va shunga oʻxshash salbiy oqibatlarni oldini olish va uning taʼsirida sport jamoalarida yuz beradigan salbiy oʻzgarishlarni yaʼni muhim oʻyinga nisbatan ishtiyoqsizlik, loqaydlik holatining sodir boʻlishi kabi jihatlarni eksperimental oʻrganish natijalari bayon qilindi. Tadqiqotimizda hozirgi zamon psixologiyasi amaliyotida samarali qoʻllashga moʻljallangan metodikalardan foydalanish sportchi shaxsida paydo boʻladigan xavotirlanish darajasini, musobaqada sportchi shaxsining maxsus xususiyatlari qanday darajada namayon boʻlish ifodasi va stress faktorlarga taʼsirchanlik holatining qanday ekanligini bilishga imkon beradi. Metodikalar yordamida sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini yaʼni oʻyin paytida sportchida neyrotizmga nisbatan moyillik borligini, sport faoliyatida hissiyotning barqarorligi va beqarorligi, oʻzini tuta olish va oʻzini tuta olmaslik, hissiyotga beriluvchanlik kabi shaxs emotsional holatini oʻrganishga yoʻnalgan test metodikalari yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining tahlillariga asoslanib, sportchilar faoliyatida stress holati va uni keltirib chiqaradigan tabiiy-biologik va ijtimoiy-psixologik omillar aniqlandi. Ularda murakkab vaziyatlarda maqsadli oʻyin oldidan yuzaga keladigan salbiy oʻzgarishlar darajasi va ularning sport faoliyati bilan bogʻliq salbiy oqibatlari baholandi.

Sportlar faoliyatida paydo boʻladigan stressli kechinmalarni oldini olish, yengish va bartaraf etish koʻp hollarda shu sportchilar bilan xayot kechiradigan atrofdagilarning shaxsiy munosabati, raqib jamoalarning tajribasi va yuksak natijalar taʼsiri, sportchida qaror topgan shaxsiy sifatlar va individual psixologik xususiyatlariga koʻp jihatdan bogʻliq holatda kechishi aniqlandi.

Toʻrtinchi bosqich- sport faoliyatini samarali tashkil etish va mazkur faoliyatda sportchilarga xos stressli kechinmalarni oldini olish va bartaraf etishning psixokorreksiya amaliyoti bilan bogʻliqdir. Mazkur bosqichda sportchi shaxsida paydo boʻladigan emotsional holatlarni keltirib chiqaruvchi muhim omillar manbalarini aniqlash, ularni oldini olish va bartaraf qilishning zamonaviy usullari hamda mexanizmlarini izlab topish ilmiy izlanishlarimizning ustuvor vazifalari sifatida belgilanib, quyidagi ijtimoiy-psixologik mexanizmlar tayyorlandi va amaliyotga tatbiq etish uchun zarur tavsiyalar ishlab chiqildi:

-sportchilar faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishning zamonaviy ijtimoiy-psixologik asoslarini belgilash hamda uni doimiy takomillashtirib borish eʼtiborga olindi;

-sportchilarda musobaqa jarayonida yuzaga keladigan stressli kechinmalarni psixokorreksion dasturi tayyorlanib, ularda emotsional holat barqarorligini taʼminlashga yoʻnaltirilgan trening dasturlari kompleksi aniqlandi va uni sportchilarning har biriga sport faoliyatida doimiy ravishda qoʻllash tavsiya etildi;

-sportchi psixologiyasida yuzaga kelishi kutilayotgan stressli kechinmalarni psixoprofilaktikasi va psixologik maslahat tizimi tayyorlandi va sport taʼlimi muassasalariga unga amal qilish tavsiya etildi;

-sportchilar faoliyatida yuzaga kelayotgan murakkab emotsional taranglik holatini aniqlaydigan, sabablarini oʻrganadigan hamda ularni oldini olish, yengish, va bartaraf etish bilan bogʻliq ijtimoiy-psixologik model andozasi yaratildi[2].

Avvalo shuni aytish kerakki, biz oʻrganayotgan muammo doirasida ayrim olimlar tomonidan koʻpgina metodikalar milliy-madaniy muhitda qoʻllanilgan boʻlsa-da, lekin ular foydalangan metodlar psixologik tadqiqotlar uchun yetarlicha axborot beraolmaganligi aniqlandi.

Sportchilar faoliyatida stressli kechinmalar namoyon boʻlishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari qonuniyatlarini chuqurroq, aniqroq va obʼektiv ravishda tadqiq etish uchun izchillik bilan quyidagi psixologik metodlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb baholadik.

1. Darhaqiqat, sport faoliyati va unda kechadigan turli vaziyatlar, hosil boʻladigan hissiy kechinmalarni oʻrganish, salbiy jihatlarni bartaraf etishning tizimli choralarini ishlab chiqish, eng avvalo

faoliyatga xos bo'lgan uni keltirib chiquvchi omillarni o'rganib har tomonlama chuqur tahlil qila olishga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, har bir sportchilar bilan alohida ishlash, undagi stressli kechinmalarni aniqlash hamda mazkur sohada tegishli empirik ma'lumotlar yig'ish masalasi tadqiqotning asosiy maqsadi qilib belgilangan. Mazkur paragrafda ushbu muammoga muayyan darajada ilmiy-amaliy jihatdan aniqliklar kiritish, sinaluvchilar shaxsining sport faoliyati bilan bog'liq xarakteristikasini tahlil qilish orqali sportchilardan olingan empirik ma'lumotlar tahlilini bayon etish ko'zda tutilgan. Shuningdek, sinaluvchilarda o'tkazilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma bilan bildirilgan munosabatlar va uning statistik tahlili keltirilgan. Chunki, sportchi shaxsidagi stressli kechinmalarni o'rganish, tahlil qilish va tegishli ilmiy-amaliy va tavsiyaviy xarakterdagi xulosalar ishlab chiqish bilan bog'liqdir.

2. Bizga sportchilarning xavotirlanish darajasini aniqlash imkoniyatini berdi. Xavotirlanish–stressni birinchi bosqichi bo'lib, sportchi uchun ahamiyatsiz bo'lgan vaziyatlarda qattiq bezovtalanish yoki qo'rqish holatida ichki psixologik komfortning buzilishida ifodalanadi. Mashg'ulot jarayoni bilan bog'liq ravishda paydo bo'luvchi xavotir juda ham o'tkir bo'lmasada, chuqur va uzoq davom etuvchi, shu bilan bir qatorda turg'un bo'ladi. Bu metodika yuqori darajali xavotirli sportchilarni aniqlab ularni psixokorreksiya qilish va profilaktik usullar yordamida kerakli darajadagi me'yoriy xavotirlanish darajasiga keltirishga imkon beradi.

Sportchilarda xavotirlanish o'yindan oldin va o'yinda keyingi xavotirlanish darajasi o'zgaruvchanligi, xavotirlanish jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish, kuchli emotsional holatdan uzoqlashish, xavotirlik sportchi shaxsining xatti-harakatlarida anomal holatlarni keltirib chiqarishi kabi muhim xususiyatlarni o'rganishga mo'ljallangan metodlardan foydalanildi.

3. Shaxsning umumiy xususiyatlari shaxsning o'ziga xos bo'lsa, maxsus xususiyatlari esa turli vaziyat bilan bog'liq holatlarni namoyon etadi. Bu yerda vaziyat tushunchasini faqat uning tashqi tavsifi bilan ta'riflash no'rin bo'ladi, uning motivi, munosabati va shaxs bahosi kabi ichki tarkibiy qismlarini ham e'tiborga olish zarur. Real borliqdagi barcha vaziyatlarni tasniflab bo'lmaydi, lekin ichki va tashqi parametrlarning barqaror birlashishini belgilovchi vaziyatlar mavjud. Shaxsning maxsus xususiyatlari sportchi faoliyatida aniq ko'rinadi. Ular sportchining mashg'ulot va musobaqalarda qatnashishi jarayonida shakllanadi. Bu jihat to'rtta asosiy tipga ajratiladi:

1-Tip. Musobaqada emotsional barqarorlik – sportchi shaxsining maxsus xususiyati sifatida juda muhim hisoblanadi, chunki stressorlar shaxsning emotsional olami orqali harakat qiladi. Shu sababli emotsional barqarorlik psixik barqarorlik kabi keng talqin qilinadi. Bu xususiyatning asosiy parametri musobaqa jarayonida vaziyatlar emotsional bahosi adekvatligi bilan emotsional reaksiyalar mutanosibliги hisoblanadi.

Ijoiy tomoni: musobaqada nisbatan teng emotsional fon namoyon bo'ladi, tashqi voqealar ongli ravishda va oqilona baholanadi; emotsiyalarga aql bilan yondashiladi va belgilangan harakat rejasiga qarshi bo'lmaydi; emotsiyalar start oldi holat va musobaqa vaqtidagi kuch-quvvatni optimal darajada boshqaradi.

Salbiy tomoni: musobaqada emotsional fonning yuqori darajada pasayishi kuzatiladi. Tashqi voqealar kuchli emotsional reaksiyalar uyg'otadi; emotsiyalar sport faoliyatini aql bilan yondashilganiga teskari ravishda boshqaradi; asabiylashish va energiyani irratsional ravishda yo'qotish, oqibatda oldindan charchash va so'nish holati kuzatiladi.

2-Tip. Sport faoliyatida o'zini boshqarish – sportchining emotsional, harakatga keltiruvchi va ichki funksional jabhalarida bo'ladigan o'zgarishlarni erkin boshqara olish qobiliyatida, musobaqada o'zining hatti – harakatini nazorat qilish mahoratida namoyon bo'ladi. Sport faoliyatida o'zini boshqarishning aniq namoyon bo'lishi doimo o'ziga xos bo'lib, faoliyat va muhitning qanchalik uyg'unlashuvi bilan

bog'liq. Shuning uchun o'ziga xos usullardan doimiy foydalanish orqali mustaqil maxsus xususiyat rivojlanadi. Bu sport faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijobiy tomoni: musobaqa boshlanishidan oldin, tanaffusda va musobaqa mobaynida o'zini erkin tayyorlay olish; o'z faoliyatini erkin rejalashtira olish, belgilangan rejaga aniq amal qilish, o'z hatti-harakatini yaxshi nazorat qila olish; zarur bo'lganda tashqi vaziyatdan chalg'iy olish, fikrlarni bir joyga to'play olish.

Salbiy tomoni: o'zini yaxshi tayyorlay olmaslik va emotsiyalarni boshqara olmaslik; o'z faoliyatini aniq rejalashtira olmaslik, belgilangan rejaga rioya qilolmaslik, o'z hatti – harakatini yetarli darajada nazorat qila olmaslik; tashqi vaziyatdan chalg'iy olmaslik, fikrlarni bir joyga to'play olmaslik xarakter va usullarada aniqlikning yetishmasligi va boshq.

3-Tip. Musobaqa motivatsiyasida sportchini musobaqaga to'liq safarbar etuvchi ichki uyg'otuvchi kuch aks etadi. Sport faoliyatining o'ziga xosligi sportchining motivatsion sferasiga asosiy talabni qo'yadi. Musobaqada omad–motivlarning umumiy intensivligi, omadga erishish va omadsizlikdan qochish motivatsiyalarining o'zaro aloqadorligi, asosiy talab va qiziqishlarning barqarorligi– umuman, optimal motivatsiyani tashkil qiluvchi motivatsion ko'rinishga bog'liq. Musobaqa motivatsiyasi bu sportchining musobaqa ruhi hisoblanadi.

Ijobiy tomoni: maqsad va vazifalarni aniq qo'yish; hohish va emotsional kuch bilan musobaqaga chiqish, o'z kuchini to'liq namoyon etish; qiyin vaziyatlarda o'zini faollashtira olish.

Salbiy tomoni: o'z maqsad va vazifalarini past darajada anglash; musobaqaga emotsional kuchsiz, so'lg'in holatda chiqish, o'z kuchini to'liq namoyon etolmaslik; oddiy vaziyatlarda diqqatning pasayishi va tarqoqlashuvi.

4-Tip. Barqarorlik – to'siqlarga chidamlilik – odatiy, keskin bo'lmagan vaziyatlarda funksional holat va harakatga keltiruvchi komponentlarning barqarorligini, sportchining ichki va tashqi olamiga turli xil to'siqlarning ta'sir darajasini belgilaydi. Bu xususiyatning asosiy tashkil etuvchi tarkibi keskin vaziyatlarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan hatti-harakatlar tizimining qaysi darajada shakllantirilganligidir.

Ijobiy tomoni: jismoniy va psixologik jihatdan sport formasida bo'lish, sport texnikasida ichki ikkilanishlarning yo'qligi; kutilmagan noqulay holatlar musobaqa natijasiga ta'sir o'tkazmaydi; o'ziga ishonch yuqori darajada.

Salbiy tomon: sport formasida bo'lmaslik, sport texnikasida yetarlicha tez ikkilanishlar borligi; kutilmagan noqulay holatlar musobaqa natijasiga ta'sir etishi, o'ziga ishonchning kamligi [3].

Ushbu metodika sportchining musobaqa jarayonida maxsus xususiyatlarini va stress faktorlarga ta'sirchanlik darajasini o'rganish imkoniyatini beradi.

4. Psixologik tadqiqotlarda eng ko'p ishlatilayotgan va shaxsning psixologik xususiyati va hissiy holatlarini ochib berishga yo'nalgan sportchining o'yin vaqtida muloqotga tez kirishib ketishini, o'zini jamoada yaxshi his qilishi va shaxslararo munosabatini (ekstravert), o'z ichki kechinmalarini yashira olishini (introvert), hissiy barqarorlik-beqarorlik xususiyatlari ifodasini, musobaqa jarayonida bezovtalik, salbiy emotsional holatlarga moyillik borligini, asabiy taranglik (neyrotizm)ni o'rganuvchi test metodlaridan foydalanildi (foydalanilgan test metodikalari ilovada berildi).

4. Eksperiment metodi. Eksperiment metodi insonlarning ichki olamini, shunga asoslangan emotsional munosabat tizimini va o'zini o'zi boshqarishini (xususan sport faoliyatida) o'rganishda eng muhim metodlardan hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sportchilar shaxsi shakllanishidagi eng muhim omillar va shart-sharoitlarni aniqlash, ularni ob'ektiv baholash, barkamol va sog'lom yoshlarni tarbiyalashning zarur imkoniyatlarini yaratish mumkin. Eng muhimi, sportchilarning musobaqa jarayonida stressni nazorat qilish, boshqarish, salbiy kechinmalarni yengish va bartaraf etish bilan

bog‘liq qonuniyatlarni, zarur mexanizmlarni eksperiment metodi yordamida o‘rganish maqsadga muvofiq.

Eksperiment metodi tabiiy va laboratoriya turlariga ajratiladi. Tabiiy sharoitda sportchilarga xos emotsional holatlar, xususan stress yoki affekt holati o‘rganilayotganligidan sportchilar bexabar bo‘lishi, ularga berilayotgan bilim va topshiriqlar maqsadga muvofiqlashtirilishi lozim. Laboratoriya eksperimenti ko‘pincha individual shaklda, oshkora ravishda, hatto asboblardan, apparatlardan foydalangan holda o‘tkaziladi.

Eksperiment metodi aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va nazorat qismlarga bo‘linadi. Eksperimentning aniqlovchi qismi yordamida o‘rganilayotgan muammoning hozirgi holati, darajasi aniqlanadi, lekin eksperimentator sportchi-respondentlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazmaydi. Tarkib toptiruvchi eksperimentda esa ularning emotsional holati o‘zgarishi, unga ta‘sir etgan ob‘ektiv va sub‘ektiv omillar, uni keltirib chiqaruvchi fiziologik-psixologik sabablar va shart-sharoitlar hamda boshqa xususiyatlar aniqlanadi. Hozirgi eksperiment metodikalaridan foydalanish individual, guruhviy va jamoaviy ravishda amalga oshirilishi mumkin. Nazorat eksperimentida tarkib toptiruvchi eksperimentda shakllantirilgan usullar, vositalar, yo‘l-yo‘riqlar, ko‘chish va muammoni yechish hamda unga bo‘lgan munosabatni tezkorlik darajasini aniqlash uchun mantiqiy va emotsional qo‘zg‘aluvchanlikni vujudga keltiruvchi topshiriq beriladi. Nazorat eksperimentini o‘tkazish orqali tarkib toptiruvchi eksperimentning samarasi, izlanuvchining shaxsiy hissi o‘lchanadi. Uchinchi qismda sportchilarga yordam yoki maslahat berish mutlaqo man etiladi.

5. Kuzatish metodi orqali sportchilardagi o‘zini o‘zi baholash, jamoadoshlari va o‘z tengqurlari bilan shaxslararo munosabatidagi o‘zgarishlar, emotsional nizolarni ko‘zga tashlanish holatlari o‘rganiladi. Shu bilan birgalikda o‘yin yoki mashg‘ulot paytida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va o‘zaro kelishmovchilik holatlari ham kuzatiladi, shunga ko‘ra zarur shart-sharoitlar tashkil etiladi.

6. Statistika metodi. Aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va nazorat eksperimentlaridan to‘plangan yoki yig‘ilgan ma‘lumotlar matematik-statistik qayta ishlash, ya‘ni empirik ma‘lumotlarning ishonchlilik va validlik darajasini aniqlash, miqdoriy ma‘lumotlarni statistik tahlili asosida maxsus kompyuter dasturi yordamida korrelyatsion yaqinlikni aniqlash usullaridan, natijalarning o‘rtacha arifmetik qiymati va dispersiyani topish formulalaridan (Styudentning– t muqarrarlik mezoni, Pirsonning korrelyatsiya koeffitsientiga oid formulalardan) foydalanildi [4].

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikalar o‘zining ob‘ektiv va ishonchliligi bilan o‘rganilishi kerak bo‘lgan muammoni yechimini topishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy tadqiqotni tashkil etish dasturida belgilanga vazifalarni amalga oshirish maqsadida dissertatsiya ishida qo‘llanilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnomadan olingan empirik natijalar sharhi va olingan natijalarni tahlili to‘g‘risida to‘xtalsak.

Tadqiqotning birinchi bosqichida mualliflik pozitsiyasi asosida ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnomadan (IPS) foydalandik. Dastlab sinaluvchilarda mazkur so‘rovnoma o‘tkazilganda OSMG va BTGda namayon bo‘ladigan stressli kechinmalarning darajasini aniqlash maqsadida foydalanildi va tadqiqot natijalari quyidagicha namoyon bo‘ldi.

Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma(IPS)dan olingan natijalarning umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari

Stress darajasi	Sinaluvchilar	n1 n2	O‘rtacha qiymat (M)	Standart og‘ish	t	p
-----------------	---------------	----------	---------------------	-----------------	---	---

Yuqori daraja	BTG	215	37,6	4,2	-2,6	0,05
	OSMG	207	24,4	4,4		
O'rtada daraja	BTG	215	12,8	2,4	-1,8	0,20
	OSMG	207	11,8	2,2		
Quyi daraja	BTG	215	8,9	1,1	-1,2	0,46
	OSMG	07	7,8	1,2		

Izoh: $*(p \leq 0,05)$; $** (p \leq 0,01)$; $*** (p \leq 0,001)$

Respondentlarda olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, stressning quyi darajasi bo'yicha olingan statistik ma'lumotlar OSMG va BTG o'rtasida ishonchli farqlar mavjud emasligini ifodaladi. Stressning o'rtada darajada namoyon bo'lish ko'rsatgichlari ham har ikkala obyektida normal holatda ekanligini namoyon qildi. Lekin stressning namoyon bo'lish darajasi yuqorilik shkalasi bo'yicha BTGda o'rtacha 37,6 ballni va OSMGda esa, o'rtacha 26,4 ballni tashkil etdi. Tadqiqot doirasida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tadqiqot respondentlari o'rtasida yuqori ishonchli farqlar mavjud ekanligi kuzatildi ($*p < 0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, BTGda OSMGga nisbatan stressli kechinmalarning yaqqol namoyon bo'lishi ustun ekanligini bildiradi.

BTG sinaluvchilari sport faoliyatida vujudga keladigan turli muammolar, o'zaro nizolar, qiyinchilik va to'siqlar, murakkab vaziyatlar va muvofaqqiyatsizliklar natijasida kelib chiquvchi stressorlar ularda bevosita stressli kechinmalarning namoyon bo'lishiga (o'zgarishiga) sabab bo'lishi mumkin. Bu shkala bo'yicha ham olingan natijalar tahlilidan ham ma'lum bo'ldiki, BTGda kehadigan stressli holatlar bevosita ularning musobaqa oldi hissi ta'sirida vujudga kelishi tasdiqlandi. Agar bu muammoni vaqtida oldini olinmas ekan, bevosita uning ta'siri boshqa sportchilarga ham salbiy ta'sirini ko'rsatishi tadqiqotda o'z isbotini topdi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurasulov R.A. O'quvchi shaxsini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining o'rni. Monografiya. –Toshkent.: Fan va texnologiya. 2013. -204 bet.
2. Radjabov A.A. Sportchilar faoliyatidagi stressli holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish bosqichlari va qo'llanilgan metodlar tavsifi.// Zamonaviy psixologiyada jamiyatning dolzarb muammolari: yechimlar va istiqbollar mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami.-Xorazm.: 2024.-274-275 bet.
3. Radjabov A.A. Sportchilar shaxsining stressli kechinmalari va uni psixokorreksiyalash // "Shaxs va jamiyat: zamonaviy chaqiruvlar" Professor Ergash G'ozievich G'oziev xotirasiga bag'ishlangan xalqaro hamkorlar ishtirokidagi Ikkinchi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.-Toshkent.: 2023.-228-229 bet.
4. Gaziyeva F.E. Sportda guruhij jipslik shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari:Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent.: 2019. -55 bet.
5. Nazarov A.M. Sportchilarda psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Avtoreferat. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)//-Buxoro.: 2021. -57 bet

YOSHLARDA XULQ OG‘ISHI VA TARBIYA BUZILISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ОТКЛОНЕНИЙ В ПОВЕДЕНИИ И НАРУШЕНИЙ ВОСПИТАНИЯ У МОЛОДЕЖИ****SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR DEVIATIONS AND EDUCATIONAL DISORDERS IN YOUNG PEOPLE**

Umarov Baxriddin Mengboyevich

Annotatsiya. Maqolada jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan, umumxalq irodasiga muvofiq harakatda bo‘ladigan tartibotlar, bevosita xalq urf-odatlarini, o‘z istak maqsadlariga muvofiqlashgan amaliy udumlar bilan uyg‘unlashib ketgan va turmushda, ijtimoiy hayotda amal qilinadigan ijtimoiy me‘yorlar tahlili hamda deviant xulq-atvor, uning mohiyati, tavsifi bayon qilingan. Xususan, voyaga etmaganlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta‘sir etuvchi demografik, farzandlar va ota-onalarning ma‘lumotlilik darajasi, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, oilaviy shart-sharoiti, turmush tarzi, gender va yosh davri xususiyatlari kabi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan. Shuningdek, shahar joylarida istiqomat qiluvchi voyaga etmaganlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan xulq og‘ishining asosiy sabablari sifatida oila va oilaviy munosabatlardagi nosog‘lom muhit, bolalarning bo‘sh vaqtlarini nazorat qilmaslik, qarovsizlik, ota-onalarning davlat ishlari bilan bandligi tufayli farzandlarining bo‘sh vaqtlarini nazorat qila olmasliklari, qishloq joylarida esa - bekorchilik, tarbiyadagi yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlar, moddiy-ma‘ishiy etishmovchilik, oilaviy munosabatlardagi nosog‘lom muhit, oilada ota-onadan birining yoki ikkalasining ham yo‘qligi va boshqalarning ta‘siri empirik tadqiqotlar asosida izohlangan

*Umarov B.M.,
O‘zbekiston xalqaro islom
akademiyasi “Din
psixologiyasi va
pedagogika” kafedrasini
professori,
psixologiya fanlari doktori
baxriddin-umarov@mail.ru*

Калит сўзлар: шахс, хулқ-атвор, хулқ оғиши, тарбияланганлик даражаси, демографик хусусият, ижтимоий-психологик омиллар, девиант хулқ, индивидуал хусусиятлар, психологик муҳит, носоглом оилавий муҳит, гайриқонуний установакалар, оилавий тарбия.

Аннотация. В статье дается анализ социальных норм, выработанных обществом, действующих в соответствии с общенародной волей, в сочетании с непосредственно народными обычаями, практическими приемами, согласованными с целями его желания, и соблюдаемых в браке, общественной жизни, а также девиантное поведение, его сущность, описание. В частности, были проанализированы такие социально-психологические факторы, как демографические, уровень образованности детей и родителей, социально-экономическое положение семьи, семейные обстоятельства, образ жизни, гендерные и возрастные особенности, влияющие на возникновение отклонений в поведении и нарушений воспитания у несовершеннолетних. Также в качестве основных причин отклонений в поведении, которые возникают у несовершеннолетних, проживающих в городах, называют нездоровую атмосферу в семье и родственные отношения, отсутствие контроля за свободным временем детей, безнадзорность, неспособность родителей контролировать свободное время своих детей из-за занятости в государственных делах, а также в сельской

местности -на основе эмпирических исследований было объяснено влияние праздности, допустимых дефектов в воспитании, материальных и нематериальных дефицитов, нездоровой атмосферы в семейных отношениях, отсутствия в семье одного или обоих родителей и других факторов

Ключевые слова: личность, поведение, девиантность поведения, уровень воспитания, демографическая характеристика, социально-психологические факторы, девиантное поведение, индивидуальные особенности, психологическая среда, нездоровое семейное окружение, семейное воспитание.

Abstract. The article describes an analysis of social norms developed by society, acting in accordance with the will of the people, the customs of the people, practical actions in accordance with the goals of their desires, as well as deviant behavior, its nature and description. In particular, the occurrence of behavioral deviations and educational disorders in minors is influenced by socio-psychological factors, such as the demographic, educational level of children and parents, the socio-economic status of the family, family conditions, lifestyle, age characteristics, were analyzed. Also, the main reasons for the deviation of the behavior of minors living in urban areas are the unhealthy situation in the family and family relationships, lack of control over the free time of children, neglect, the inability of parents to control the free time of their children due to their employment, during government work, and in rural areas, based on empirical research, the consequences of idleness, mistakes made in upbringing, material and domestic shortages, unhealthy conditions in family relationships, the absence of one or both parents in the family, explained.

Keywords: personality, behavior, deviance of behavior, level of upbringing, demographic characteristics, socio-psychological factors, deviant behavior, individual characteristics, psychological environment, unhealthy family environment, family upbringing.

Kirish. Ma'lumki, tarbiyaning umumiy ijtimoiy vazifasi - yosh avlodga bilim, ko'nikma, ijtimoiy tajriba va axloq normalarini shakllantirishdan iborat [1]. Shu maqsadda yosh avlodga tarbiya berish maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir, ijtimoiy hayotda munosabatga kirishish me'yorlarini va shu asosda zaruriy shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy jamiyat o'ziga xos umumiy qonuniyatlarga, inson faoliyati bilan bo'lgan me'yoriy tartibotlarga, hayotiy qonunlarga, turmush tamoyillariga muvofiq rivojlanadi, taraqqiy etadi, jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga qat'iy rioya qiladi, amal qiladi. Ammo bu ijtimoiy me'yorlardan ham chetga chiqish, qonunlarga bo'ysinmaslik, huquqlarni buzish hollari ham jamiyatda uchray turadi. Ana shu holatlar bevosita ijtimoiy jamiyat qonunlariga, siyosiy boshqarishga, jamiyat umumiy qoida-qonunlarini o'zida mujassamlashtiradigan umumxalq irodasiga muvofiq harakatda bo'ladigan asosiy qonunlar majmuasi hukmron bo'lib, undan chetga chiqishlar jinoyat hisoblanib qoralanadi. Shu sababli jamiyatning huquqiy, qonuniy tartibotlari bevosita xalq urf-odatlarini, o'z istak maqsadlariga muvofiqlashgan amaliy udumlari bilan uyg'unlashib ketadi va u turmushda ijtimoiy hayotda amal qiladi va bu tartibotlarga rioya qilish ijtimoiy me'yorlar deb ataladi [5]. Ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish, ya'ni bu ijtimoiy me'yorlarni buzish, ularga rioya qilmaslik jinoyatga qo'l urib, shu yo'ldan borishlik holatlari deviant xulq – deb ataladi [3].

Yurtimizda xulq og‘ishi masalasi mustaqillik tufayli ilmiy va nazariy jihatdan o‘rganilishi uchun imkoniyat yaratilib, o‘rganila boshlandi. Ammo jamiyatda deviantga, xulq-atvorga manba bo‘laoladigan holatlar jahondagi boshqa xalqlarga nisbatan Markaziy Osiyo halqlarida uzoq o‘tmishdan oldin paydo bo‘lgan bo‘lib, ijtimoiy me‘yordan chetga chiqish, axloq-odobdan chekinish holatlariga qat‘iyan man qilingan, yo‘l qo‘yilmagan, harakatdagi qonundan ham ta’sirchan kuchga ham dunyoviy, ham diniy yo‘l bilan, insonlar ruhiyatiga ta’sir etguvchi kuchga aylangan va hozir ham xalqimiz ana shu ijtimoiy me‘yorlar doirasida yashamoqda [5]. Chunki ijtimoiy hayotda, jamiyatda insonlar faoliyatini, ularning xatti-harakatlarini, xulq-atvorlarini diniy, dunyoviy ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy me‘yorlar boshqaradi.

Ijtimoiy me‘yor jamiyat boshqaruvining ajralmas ma’naviy, ruhiy va moddiy qismlaridan biri bo‘lib, inson, shaxs yoki ijtimoiy guruh, qavm, elat xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi, muvozanatini saqlab, tobora mustahkamlab boruvchi tamoyil, qoidalar majmuasidan iboratdir. Ijtimoiy me‘yorning jamiyatda bir necha turlari, xillari mavjud bo‘lib, ularga asosan huquqiy, axloqiy, diniy, dunyoviy, hamda urf-odatlariga oid me‘yorlari shular jumlasidandir.

Shaxs xulq-atvoridagi og‘ishning ijtimoiy-demografik, gender va yosh xususiyatlarini o‘rganish voyaga etmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to‘g‘risidagi nisbatan to‘laroq ma’lumotlar olish imkoniyatini beradi. Shuningdek, voyaga etmaganlar o‘rtasidagi xulq og‘ishining yosh davriga ko‘ra, qiyosiy tahlil qilish bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi kelib chiqishining yosh davri xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan mexanizmini ochib berishga yordam beradi hamda voyaga etmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ular samaradorligining oshishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. M.N.Alemaskin, Z.V.Baeryunas, A.M.Dolgova, A.A.Vdovchenko, I.P.Bashkatov, A.S.Belkin, N.D.Levitov, Yu.V.Gerbeev, A.V.Zavalyuk, A.I.Ostrovskiy, B.A.Mirenskiy, A.I.Kochetov, S.V.Kudryavsev, U.S.Djekebaev, Y.Karaketov, Q.Abdurasulova, Z.S.Zaripov, G‘.B.Shoumarov, E.G‘oziev, V.M.Karimova, B.M.Umarov, N.G‘.Komilova, N.A.Sog‘inov, G.N.Tulaganova kabi psixolog va pedagog olimlarning ta’kidlashlaricha, bolalarning ongi, xulqi hamda faoliyati mazmunini ularni qurshab olgan muhit belgilaydi [6]. Ijtimoiy muhitdagi nosog‘lomlik esa bola ongi va xulqida turli xil og‘ishlarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, tadqiqotchitlar tomonidan ta’kidlanishicha, inson yosh davrlarini tahlil qilish, ularning har bir bola, o‘smir va o‘spirin hayotini chuqur o‘rganishdan boshlanadi [4]. Bu esa, yosh davrlarining ular xarakteri xususiyatlaridagi o‘zgarishlarning psixologik qonuniyatlari asosida yondashishni taqoz qiladi. Amerikalik psixolog A.Gezell o‘smir yoshining davrlanishiga alohida e’tibor qarab, o‘ziga xos xususiyatlarni sharhlab o‘tgan edi [2].

Demak, voyaga etmagan yoshdagi bolalar va o‘smirlarning yosh davri xususiyatlarini, demografik, ijtimoiy-psixologik bilish ular o‘rtasida xulq-og‘ishi va tarbiya buzilishi kelib chiqishining oldini olishda muhim hisoblanadi.

Natijalar. Tadqiqotimizda voyaga etmaganlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik, demografik, yosh va gender xususiyatlarini o‘rganish maqsadida voyaga etmaganlar o‘rtasida sodir bo‘layotgan xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining umumiy holatini tahlil qilishga harakat qildik. Tadqiqotimizda 193 nafar xulq og‘ishi va tarbi buzilishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning o‘qish faoliyati, ularning ijtimoiy ahvoli, oilaviy shart-sharoiti va turmush tarzi o‘rganildi.

Olingan natijalardan ma’lum bo‘lishicha, shahar joylarida istiqomat qiluvchi voyaga etmaganlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining asosiy sabablari sifatida oila va oilaviy munosabatlardagi nosog‘lom muhit hamda ota-ona va katta yoshdagi kishilar tomonidan bolalar va o‘smirlarning bo‘sh vaqtlarini nazorat qilmasliklari, qarovsizlik, turli xil axborotlarning ko‘pligi, ota-

onalarning davlat ishlari bilan bandligi tufayli ularning bo‘sh vaqtlarini nazorat qila olmasliklari va boshqa omillar aniqlandi. Qishloq joylaridagi voyaga etmaganlarda xulq og‘ishini keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida esa, bekorchilik, tarbiyada yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlar, moddiy-ma‘ishiy etishmovchilik, oilaviy munosabatlardagi nosog‘lomlik, oilalarda kriminal muhitning mavjudligi va boshqalar namoyon bo‘ldi. Shunisi xarakterliki, qishloq joylarida yashovchi xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar orasida ijobiy xulqqa ega bo‘lganlar ham uchraydi. Bundaylarning qonunbuzarlik ko‘chasiga kirib ketishiga kattalarning yoki kriminal xulqqa ega bo‘lgan boshqa birovlarining hamda tengqurlarining ta‘siri, moddiy etishmovchilik va bekorchilik sabab bo‘lganligi kuzatiladi.

Kuzatish va tadqiqotlarimizdan ma‘lum bo‘lishicha, bolalar va o‘smirlarda turmush sharoitining yaxshi yoki yomonligi holati ham xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishida asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Bunga ko‘ra, o‘rganilgan respondentlarning 70,19% oilada yomon sharoitda yashashligi ma‘lum bo‘ldi. 29,81% xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar oilada yaxshi sharoitda yashaganliklari kuzatildi. (1-jadval)

Ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra, voyaga etmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishi asosan ishchilar yoki hozircha hech qaerda ishlamaydiganlar oilasiga to‘g‘ri kelayotganligi kuzatildi. Ammo, tadqiqotimizda oliy ma‘lumotlilar, ota-onalari rahabarlik lavozimida ishlayotgan oilalarning farzandlarida ham xulq og‘ishi namoyon bo‘lishi holalari kuzatildi. Bizningcha, buning sababini ota-onalarning ish bilan bandligi natijasida farzandlarining bo‘sh vaqtlarini, ularning faoliyatini nazorat qilish borasidagi sustkashlikka yo‘l qo‘yishlari bilan izohlash mumkin.

1 - jadval

Xulq og‘ishi va tarbiya buzilishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy shart-sharoitlari ko‘rsatgichlari (% hisobida)

№	Yosh davri	Qish-loq	Shahar	Yaxshi sharoitda yashaydi	Yomon sharoitda yashaydi	Ko‘p qavatli Uyda turadi	Hovlida turadi
1.	12-15 yosh	45,80	54,20	28,38	71,62	67,48	32,42
2.	16-17 yosh	42,61	57,39	31,42	68,58	62,30	37,00
3.	O‘rtacha	43,26	56,74	29,81	70,19	64,32	35,68

Olingan natijalardan ko‘rinadiki, oilaning moddiy-maishiy shart-sharoiti, turmush tarzi, iqtisodiy imkoniyati va tarbiyaviy ta‘sirchanlik darajasi bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik sabablar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbulardan kelib chiqib ta‘kidlash mumkinki, voyaga etmaganlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining oldini olishda ularga oilalarda imkon qadar moddiy-maishiy shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqligini unutmash lozim.

Kuzatishlarimizdan ma‘lum bo‘lishicha, hovlida yashayotgan bolalar va o‘smirlarga nisbatan, ko‘p qavatli uylarda yashayotgan bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishi darajasi holati bir muncha yuqoridir. Buning sababi yuqorida ta‘kidlanganidek, aholi qatlamining zichligi bilan bir qatorda mahalla, qo‘ni-qo‘shnichilik ta‘sirining sustligi, shaxslararo munosabatlar doirasining kengligi, ijtimoiy nazoratning sustligi va shu kabilarga bog‘liqdir.

Xalqimizda “Bir bolaga etti qo‘shni ham ota, ham ona”, “Otang mahalla, onang mahalla” degan naqlar mavjud. Zero, mahallalar xonadonlarida farzandlar qariyalarning, mahalla faollarining ko‘z o‘ngida o‘tib, voyaga etadi. Mahalla oqsoqoli va uning har bir yoshi katta a‘zosi mahalla bolasinig

nojuya xatti-harakatini, tamaki chekishi, birovlariga gap otib turishini ko'rib-ko'rmaslikka olmasdan, hech bo'lmaganda ularga fikr bildirish, pand nasihat qilish, ularni to'g'ri yo'lga boshlash mahalla bolalari orasida g'ayriqonuniy xulqning kelib chiqishini oldini olishga muayyan darajada xizmat qiladi. Natijada mahallalardagi ana shunday an'anaviy qo'ni-qo'shnicilik ta'sirining yuqoriligi voyaga etmaganlarda xulq og'ishi darajasining pasayishiga olib keladi. Afsuski, bugungi kunda mahalla bolasi nojo'ya harakatni qilib o'tirsa ham ayrimlar menga nima, ota-onasi borku, mening farzandim bo'lmasa deya unga aralashishni o'ziga ep ko'rmaydiganlar ham uchrab turadi. Bunday holat o'z-o'zidan bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining kelib chiqishiga imkoniyat yaratadi. Ota-onasi, mahalla a'zosi nazoratidan chetda qolgan o'smir o'zini erkin, mustaqil deb bilib, turli xil g'ayriqonuniy, g'ayriaxloqiy harakatlarni amalga oshirishlari mumkin.

Tadqiqotimiz natijalarining ko'rsatishicha, bolalar va o'smirlarning ma'lumotlilik, bilimlilik darajasi ham xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Sir emaski, ma'rifatlilik, ilm olishga nisbatan bo'lgan intilish, aqliy va ma'naviy barkamollik voyaga etmaganlarni sog'lom turmush tarziga, axloqiy va huquqiy qoidalarga itoat etishga etaklaydi. Aksincha, maktabga borishdan bo'yin tovlash, darslarni o'z vaqtida bajarmaslik, bilim olishga nisbatan qiziqishning yo'qligi bolalar va o'smirlarda turli xil g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Buni tadqiqotimizdan olingan natijalar ham ko'rsatib turibdi. Bunga ko'ra, o'rganilgan respondentlarning eng ko'p qismi 8-9 sinf ma'lumotiga (51,14 %) ega bo'lgan bo'lsalar, 28,25% 10-11 sinf ma'lumotiga, 9,41% 6-7 sinf ma'lumotiga ega ekanligi aniqlandi. (2-jadval).

Shuningdek, tadqiqotimizda o'rganilgan respondentlarning 10,40 % ni o'rta maxsus bilim yurti talabalari tashkil qildi. Yosh davriga ko'ra, tahlil qilganimizda 14-15 yoshdagi voyaga etmagan xulq og'ishiga ega bo'lganlar asosan 8-9 sinf ma'lumotiga (72,64%), 16-17 yoshda esa ko'proq 10-11 sinf ma'lumotiga (41,60%) ega ekanliklaroi aniqlandi. (2-jadval).

2 - jadval

Xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga ega bo'lgan voyaga etmaganlarning ma'lumoti darajasi ko'rsatkichlari (% hisobida)

№	Ma'lumoti	11-13 yosh	14-15 yosh	16-17 yosh	O'rtacha
1	1-5 sinf	-	-	0,80	0,80
2	6-7 sinf	22,14	12,74	3,42	9,41
3	8-9 sinf	77,86	72,64	35,26	51,14
4	10-11 sinf	-	11,80	41,60	28,25
5	Kasb-hunar kolleji o'quvchisi	-	2,72	18,90	10,40

Tadqiqotimiz natijalarining ko'rsatishicha, o'rganilgan respondentlarning katta qismi o'qish faoliyatidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi ancha past darajaga ega bo'lganlarni tashkil etadi. Xususan, respondentlarning 48,62 foizi maktabda fanlarni yomon o'zlashtirganliklari bilan ajralib turadiganlardir. Atigi 10,60 foiz respondentlar fanlarni o'zlashtirishda biroz yaxshi natijalarga ega ekanliklarining guvohi bo'ldik. Shuningdek, ularning 13,45 foizi 1 yil sinfdan qolganlar bo'lsa, 6,49 foizi 2 yil sinfdan qolganlarni tashkil qiladi. (3-jadval)

Xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarda fanlarni o'zlashtirishdagi ijobiylik asosan kichik yosh davrida kuzatilgan bo'lsa, yosh ulg'ayib borish bilan bu ko'rsatkich darajasi pasayib borganligi kuzatiladi. Buning sababi bizningcha, bu yosh davridagi bolalar va o'smirlarda xulq buzilishining to'la shakllanib ulgurmaganligi, yosh ulg'ayib borishi bilan esa, ular xulq-atvorida xulq og'ishining chuqur o'rin egallay boshlaganligiga bog'liqdir. Shunga ko'ra, bolalar va o'smirlar o'rtasida

xulq og‘ishining oldini olish tadbirlarini imkon qadar ertaroq, ilk yoshdan boshlab, amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulq og‘ishi va tarbiya buzilishiga ega bo‘lgan voyaga etmaganlarda o‘qishga nisbatan qiziqishning sustligi, maqsadli faoliyatning yo‘qligi, o‘z kelajagi haqida o‘ylash, kelajakda qaysi mutaxassislikni egallashga nisbatan intilishning yo‘qligi holatlari ham kuzatildi. Shuning uchun ham xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar o‘rtasida fanlarni a‘lo bahoga o‘zlashtirayotganlar deyarli uchramadi.

3 - jadval

Xulq og‘ishi va tarbiya buzilishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning o‘qish faoliyatidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari (% hisobida)

№	O‘qish faoliyati ko‘rsatkichlari	11 – 13 yosh	14 – 15 yosh	16 – 17 Yosh	O‘rtacha
1.	O‘zlashtirish darajasi yaxshi	14,8	8,4	3,6	10,6
2.	O‘zlashtirish darajasi o‘rtacha	28,7	24,7	17,3	20,8
3.	O‘zlashtirish darajasi yomon	40,0	45,3	53,1	49,0
4.	1 yil sinfda qolgan	12,3	15,4	17,4	13,2
5.	2 yil sinfda qolgan	4,2	6,2	8,6	6,4

Tadqiqotimiz natijalaridan ma‘lum bo‘lishicha, bolalar va o‘smirlarning to‘liq (TO), noto‘liq (NTO) oilalarda va ota-onalarning ikkalasi ham yo‘qligi natijasida qarindoshlari yoki boshqa birovlarining qaramog‘ida tarbiyalanishlari holati ham ularda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. Buni tadqiqotimizda oilada ota-onalardan birining yoki ikkalasining ham yo‘qligi bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishini keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lganligi (31,78-12,68%) ko‘rsatib turibdi. Shuningdek, ota-onalardan birining ilgari sudlanganligi holati ham bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi kuzatiladi. Bunga ko‘ra, ota-onalardan biri ilgari sudlangan oilada tarbiyalangan bolalarda xulq og‘ishi ko‘rsatkichi 30,52 foizni ko‘rsatgan bo‘lsa, ota-onalari sudlanmagan oilalarda tarbiyalangan bolalar va o‘smirlar o‘rtasidagi bu ko‘rsatkich 8,68 foizni tashkil qiladi. (4-jadval)

4 - jadval

Xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning oilaviy tarbiya sharoitiga ko‘ra tarbiyalanganlik ko‘rsatkichi (% hisobida)

№	Oilaviy tarbiyalanganlik sharoiti	Y o s h d a v r l a r i			O‘rtacha
		11 - 13 yosh	14 – 15 yosh	16 – 17 yosh	
1.	Ota-onasi tarbiyasida	26,48	18,76	12,29	16,36
2.	Ota-onadan birining tarbiyasida	32,76	30,68	26,72	31,78
3.	Ikkalasi ham yo‘q oilada	10,52	11,74	16,22	12,66
4.	Ota-onalardan biri sudlangan oilada	20,74	28,86	38,46	30,52
5.	Ota-onasi sudlanmagan oilada	9,60	9,96	6,65	8,68

Jadvalda keltirib o‘tilgan ko‘rsatkichlarni tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, oilada ota-onadan birining yoki ikkalasining ham yo‘qligi bola tarbiyasida nuqsonlarning kelib chiqishiga, ular faoliyatini nazorat qilishning susayishi va ayrim moddiy-maishiy etishmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Tabiiyki, bunday holat bolalar va o‘smirlar xulqida o‘zgarishlarning kelib chiqishiga imkoniyat yaratishi ham mumkin ekan. Shuningdek, oilada ota-onalarning biri yoki ikkalasining ham sudlanganligi holati ham oilada kriminogen muhitning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday oilalarda

tarbiyalanayotgan bolalar va o‘smirlar xulqida salbiy o‘zgarishlarning kelib chiqishi uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhit mavjud bo‘ladi, hamda ularning yosh davri va individual-psixologik xususiyatlariga ko‘ra, kriminogen muhit bola tomonidan qabul qilinadi va xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta‘mir ko‘rsatadi.

Tadqiqotimiz natijalarining ko‘rsatishicha, ota-onalarning ma‘lumotlilik darajasi ham bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning ilmu-ma‘rifat, aqlu-zakovatliligi bolalar tarbiyasiga, ularning shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Buni tadqiqotimizdan olingan natijalar ham ko‘rsatib turibdi. Bunga ko‘ra ota-onalari to‘liqsiz va o‘rta ma‘lumotga ega bo‘lgan oilalarda tarbiyalangan bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi darajasi (28,86% - 43,42%) boshqa ma‘lumotlilik darajalari ko‘rsatkichidan ancha yuqori ekanligi kuzatiladi. (5 - jadval)

5 - jadval

Xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar ota-onalarining ma‘lumotlilik darajasi ko‘rsatgichi (% hisobida)

№	Ma‘lumot darajasi	Y o s h d a v r l a r i			O‘rtacha
		11-13 yosh	14-15 yosh	16-17 yosh	
1.	To‘liqsiz o‘rta	27,8	29,7	28,2	28,6
2.	O‘rta	45,2	41,4	45,0	44,2
3.	O‘rta maxsus	18,6	21,4	17,3	19,7
4.	Oliy	8,4	7,5	9,5	7,5

Muhokama. Voyaga etmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik, demografik, yosh va gender xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, shahar joylarida voyaga etmaganlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining asosiy sabablari sifatida oila va oilaviy munosabatlardagi nosog‘lom muhit hamda ota-ona va katta yoshdagi kishilar tomonidan bolalar va o‘smirlarning bo‘sh vaqtlarini nazorat qilmasliklari, qarovsizlik, turli xil axborotlarning ko‘pligi, ota-onalarning davlat ishlari bilan bandligi tufayli ularning bo‘sh vaqtlarini nazorat qila olmasliklari va boshqa omillar namoyon bo‘ladi. Qishloq joylaridagi voyaga etmaganlarda xulq og‘ishini keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida esa, bekorchilik, tarbiyada yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlar, moddiy-ma‘ishiy etishmovchilik, oilaviy munosabatlardagi nosog‘lomlik, oilalarda kriminal muhitning mavjudligi va boshqalar kuzatildi.

Hovlida yashayotgan bolalar va o‘smirlarga nisbatan, ko‘p qavatli uylarda yashayotgan bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishi darajasi holati bir muncha yuqoridir. Buning sababi aholi qatlamining zichligi bilan bir qatorda mahalla, qo‘ni-qo‘shnichilik ta‘sirining sustligi, shaxslararo munosabatlar doirasining kengligi, ijtimoiy nazoratning sustligi va shu kabilarga bog‘liqdir.

Ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra, voyaga etmaganlar o‘rtasida xulq og‘ishi va tarbiya buzilishi asosan ishchilar yoki hozircha hech qaerda ishlamaydiganlar oilasiga to‘g‘ri kelayotganligi kuzatiladi. Ammo, tadqiqotimizda oliy ma‘lumotlilar, ota-onalari rahabarlik lavozimida ishlayotgan oilalarning farzandlarida ham xulq og‘ishi namoyon bo‘lishi holalari kuzatilishining guvohi bo‘lamiz. Shuningdek, oilaning moddiy-maishiy shart-sharoiti, turmush tarzi, iqtisodiy imkoniyati va tarbiyaviy ta‘sirchanlik darajasi bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik sabablar sifatida namoyon bo‘lishi kuzatildi.

Xulosa. Voyaga etmaganlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik, yosh va demografik xususiyatlarini o‘rganishi natijalariga asosanib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1) xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga ega bo'lgan voyaga etmaganlar shaxsida asotsiallik, psixik beqarorlik, impulsivlik, qo'zg'aluvchanlik, hissiyotga beriluvchanlik, gipertimlik, affektga moyillik va boshqa shu kabi xususiyatlar kuzatiladi. Shuningdek, bolalar va o'smirlar shaxsidagi nevrotizm, psixotizm va yosh davri xususiyatlari ham xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin;

2) voyaga etmaganlarda yosh davri inqirozlari xususan, o'smirlar yoshi davri inqirozi, o'tish davri qiyinchiliklari hamda ularning psixofiziologik taraqqiyotidagi noturg'unlik, akseleratsiya jarayonlari, pubertat davri rivojlanish xususiyatlari, taqlidchanlik, emansipatsiya (kattalar nazorati va kuzatuvidan ozod bo'lishga intilish), gedonistik (o'zgacha usullardan zavq-shavq olish, lazzatlanish) psixologiya, guruhlanish reaksiyasi va qarama-qarshi nuqtai nazar reaksiyasining namoyon bo'lishi va boshqalar xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta'sir qiladi;

3) voyaga etmaganlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishi ko'rsatgichi aholi qatlami zich, shaxslararo munosabatlar doirasi keng hisoblangan hududlar va shahar joylarida boshqa hududlar va qishloq joylariga nisbatan yuqoridir;

4) voyaga etmaganlar va ularning ota-onalarining ilmlilik, ma'lumotlilik darajasi bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga olib keladi;

5) to'liq oilalarga nisbatan noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishi va tarbiya buzilishi ko'rsatkichi yuqoridir;

6) oilada moddiy-maishiy shart-sharoitning etarli emasligi bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ganyushkina I.S. Neblagopoluchnaya semya i deviantnoe povedenie nesovershennoletnix: Uchebnoe posobie - M.: 2006. Izdatel. MPSI. - 345 s.

2. Deviantnoe povedenie deti i podrostkov. 2-izdanie. - M., 2007. Izdatelstvo: «Gavdeamus». - 346 s.

3. Zmanovskaya Ye.V. Deviantologiya (psixologiya otklonyayushegosya povedeniya) – M., 2007, 4 -oe izdanie. - 285 s.

4. Mendelevich V.D. Psixologiya deviantnogo povedeniya. Uchebnoe posobie dlya vuzov. – M., 2008, Izdatelstvo «Rech» - 346 s.

5. Umarov B.M. Semeynye faktory sotsialnogo riska i otkloneniya povedeniya nesovershennoletnix. //UzGMUYa, sbornik materialov nauchno-prakticheskoy konferensii "Molodoy uchenyy - 2006" Tashkent, 2006. - S. 193-197.

6. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga etmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya T.: 2009. B.78.

SHAXSNING RUHIY SALOMATLIGIDA JAMOANING TA'SIRI.

ВЛИЯНИЕ ОБЩЕСТВА НА ПСИХИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ ЛИЧНОСТИ.

THE INFLUENCE OF THE COMMUNITY ON THE MENTAL HEALTH OF THE INDIVIDUAL

Zaripov Otabek Murodullayevich

Annotatsiya. Maqolada shaxs ruhiy salomatligida jamoaning ta'siri, shaxslararo munosabatlar, katta va kichik guruhlar bilan ishlash, oilaning alohida kichik jamoa ekanligi, shaxsning individlikdan shaxs darajasiga yetgunga qadar salomatlikning mustahkam bo'lishida jamoaning o'rnini va ta'siri borasidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar. *Salomatlik, shaxs, jamoa, individ, individuallik, ijtimoiy psixologiya, sog'lom xalq, turmush sharoiti, inson ruhiyati, mas'uliyat.*

Аннотация. В статье описано влияние коллектива на психическое здоровье человека, межличностные отношения, работа с большими и малыми группами, то, что семья - это отдельный малый коллектив, роль и влияние коллектива в укреплении здоровья от индивидуального до индивидуального уровня.

Ключевые слова. *Здоровье, человек, сообщество, личность, индивидуальность, социальная психология, здоровые люди, условия жизни, психика человека, ответственность.*

Abstract. The article describes the impact of the team on the mental health of a person, interpersonal relations, working with large and small groups, the fact that the family is a separate small team, the role and influence of the team in the strengthening of health from the individual to the individual level.

Key words. *Health, person, community, individual, individuality, social psychology, healthy people, living conditions, human psyche, responsibility.*

Kirish. Shaxslararo psixologik munosabatlar jamiyat taraqqiyotida alohida o'ringa ega. Globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyotining sifat darajasi o'zgarishi, rivojlanish sur'atlari mehnat va kasbiy tayyorgarlik shaxsiga ko'plab vazifalarni yuklamoqda, bu holatlar shaxsning ruhiy salomatligiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Shaxslararo munosabatlarda pozitiv munosabatlar shaxs samaradorligini ta'minlaydi, aksincha konfliktlar, o'zaro munosabatlardagi keskin notug'ri talqin qilishlar jamoa a'zolari o'rtasida nomutanosib shakllanishga sabab bo'ladi. Individning shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy muhit muhim o'rin egallaydi. Shaxsiga salomatlik to'g'risidagi bilimlar uning yoshligidanoq ongiga singdirilganligiga qaramasdan, mana shu hech qanday boylik bilan bilan o'lchab bo'lmaydigan salomatlikning qadriga fuqarolar hamisha ham o'z vaqtida yetavermaydilar. Shaxslararo munosabatlar inson kamolotida alohida o'rinni egallaydi. Individ dunyoga kelar ekan doimiy ravishda ma'lum bir jamoada yashaydi, barchamizga ma'lumki, inson hech qachon bir o'zi faoliyati davomida muvaffaqiyatlarga erisha olmaydi, doimiy ravishda ijtimoiy guruhlar ta'sirida bo'ladi. Shaxs salomat bo'lsagina yaxshi kayfiyat bilan mehnat qilib, davlat va jamiyatga o'z vaqtida va ko'ngildagidek xizmat qiladi. Shaxs salomatligi butun jamiyat a'zolarining muammosi hisoblanadi. Jamiyatda shaxsning

jismoniy va ruhiy salomatligi nihoyatda muhim, “jaxon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, inson salomatligi 19% tashqi muhitga, 20% genetik omillarga, 9% sog‘liqni saqlashni tashkil etish va 52 % turmush tarziga bog‘liq”-ekanligi aniqlangan.[1].Shaxs barcha davrlarda va zamonlarda o‘z salomatligi uchun o‘zi mas’ul ekanligini unutmasligi zarur. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilanib amalga oshirilishi zarur bo‘lgan keng ko‘lamli islohotlarni 2025-yilda samarali ravishda amalga oshirish, jamiyat a‘zolarining hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, atrof muhitni obodonlashtirish asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash, ekologik holatni yanada yaxshilash, jamiyatda suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli va samarali foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalqimiz manfaatlariga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.06.2023 yildagi PQ-196-son “Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham aholining ruhiy salomatligini mustahkamlashga qaratilgan.Shaxs salomatligi davlat va jamiyatning doimiy e‘tiborida ekanligi borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “Biz xalqimiz salomatligi uchun har qancha mablag‘ va kuch-imkoniyat sarflashga tayyormiz.Shaxsan men uchun xalqimiz salomatligi hamma narsadan ustun va qadrlı”. [2].

Adabiyotlar tahlili. Jaxon psixologiyasida, ontogeneza bolalar va katta yoshlilarning o‘zaro muloqoti hamda munosabatlari, ularda ro‘y beradigan jarayonidagi hamkorligini tadqiq qilgan D.B.Elkonin, M.I.Lisina, shuningdek, V.A.Suxomlinskiy kabi mashhur psixologlar va pedagoglar faoliyatida, individning shaxs sifatida kamol topishi, axloqiy va ruhiy rivojlanishi, o‘quv faoliyatini ijodiy egallashida kattalar bilan bola o‘rtasidagi turli hayotiy hamkorlik muhim o‘rin tutishi borasida fikrlar bayon qilingan. Jamoadagi shaxslararo muloqotlar shaxs shakllanishiga, takomillashuviga, o‘zaro munosabatlariga ba‘zan ijobiy, ba‘zida salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shaxslararo munosabatlarda insonning o‘z ruhiy holatlarini ba‘zida boshqarib, boshqara olmasligi, turli hayotiy sharoit va vaziyatlarda insonning o‘zini boshqara olishi uchun qaysi sifat va xususiyatlariga e‘tibor qaratishi, o‘zidagi ishonch darajasini baholay olmasligi hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Jamoa va jamoa a‘zosining bir-biriga doimiy bog‘liqligi g‘oyat darajada muhim hisoblanadi. Inson individ sifatida dunyoga keladi, ijtimoiy muhitdagi kishilar bilan bo‘lgan turli hayotiy munosabatlarda shaxsga aylanadi, jamiyatda odamlar bilan sog‘lim munosabatlarga kirishadi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash asosiy vazifamizdir”- [3,25] deb alohida ta‘kidladilar. Jamiyat taraqqiyotida salohiyatli kadrlarning o‘rni nihoyatda muhim hisoblanadi. Kuzatishlarimiz davomida kichik maktab yoshidagi bolalar katta yoshli odamlar bola bilan munosabatda bo‘lmasalar, “gaplashmasalar” o‘ynamasalar, u aqliy va hissiy taraqqiyot jihatdan keskin suratda orqada qolib ketadi, dunyoqarashida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmaydi. Bu haqda olim F.N.Gonobolin: “Dunyoqarash-faqat atrofdagi majburiyatni to‘g‘ri tushinish, bilish yoki bilimdan iborat bo‘lmaydi. Ana shu tasavvur kishi tomonidan yaxshi o‘zlashtirilgan, bevosita his qilish natijasida kelib chiqqan va yaxshi tafakkur qilingan bo‘lishi zarur. Faqat ana shundagina ular e‘tiqodga aylanadilar, inson o‘z hayoti va faoliyatida ularga amal qila oladi” [4,26] -deya e‘tirof etadi. Shaxslararo munosabatlarda shaxsning o‘zini boshqara olishi alohida ahamiyat kasb etadi, jamoa a‘zolaridan o‘zlashtiriladigan faoliyat hamda birgalikdagi harakat va munosabatlar shaxsning o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hisoblanadi. Shaxslararo munosabatlarda ba‘zan yuz beradigan kundalik bosim, negativ fikrlar, boshqalarni noxush hatti-harakatlari shaxsning ruhiyati va salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, faoliyatida ish unumdorligining pasayib, atrofdagilar bilan munosabatlarining

buzilishiga sabab bo‘ladi. Shaxs salomatligida qo‘rquv, qaltirash, qon bosimida salbiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Ayniqsa yoshi katta hamkasblar bilan bo‘ladigan shaxslararo munosabatlar yosh avlod ongi va tafakkuriga ba‘zan ijobiy, ba‘zan salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Kuzatishlarimiz davomida bolani yagona “maxraj” ga olib kelish darajasi bolalar bog‘chasiga borishning birinchi kunlaridanoq katta sur‘atda oshadi, o‘z “men”ini yuqori qo‘yish, xulq-atvorida o‘zgarishlar kuzatiladi. Jamiyatga bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchan, yuqori malakali shaxslarni tarbiyalash asosiy talablardan biridir. Jamiyat a‘zolarini zamonaviy bilimlarga ega, yuqori malakali, yangicha fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish ular shaxsiga yangicha yondashish hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy talablaridan biri hisoblanadi. Turli hayotiy sharoitlarda shaxs ruhiyatidagi o‘zgarishlarda, shaxsni shakllantirishda jamoaning o‘rni muhim, chunki shaxs doimo insonlar orasida shaxslararo munosabat o‘rnatadi va shakllanadi. Psixolog E.A.Iskandarov bu haqda: “Shaxs jamoada shakllanadi”-deya ta‘kidlagan edilar. Turli hayotiy sharoitlardagi qisqa muddatli, ba‘zan tasodifiy jarayon sifatida, undan so‘ng esa jamoaning yetarli darajada faol ta‘sir ko‘rsatishi tufayli shaxsda turli individual xususiyatlar o‘z-o‘zini tanqid qilish, o‘z-o‘zini baholash xususiyatlari yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyaning muvaffaqiyatli shartlaridan biri-shaxsni “jamoada va jamoa orqali tarkib toptirishdir”. Jamoadagi shaxslararo psixologik munosabatlar, ba‘zan turli darajadagi tortishuvlar shaxsni umumiy qoidalar bo‘yicha yashashga majbur qiladi. Jamoadagi psixologik munosabatlar, muloqot, guruh odobi inson uchun normaga aylanadi, u buni qabul qiladi va uning qoidalariga bo‘ysunishga rozi bo‘ladi. Kuzatishlarimiz davomida shaxs o‘z fikrlarini o‘zgartirishga, o‘z hohish istaklaridan ba‘zan voz kechishga tayyor, ba‘zida buni hohlamaydi, hatto bu juda aniq bo‘lsa ham, chunki bu hukm jamoa a‘zolarining fikr va qarashlari bilan mos kelmaydi. Shaxs o‘z jamoasidagi shaxslararo munosabatlarda atrofidagi odamlar bilan haqiqiy aloqalarni yo‘qotishdan, jamoadan, jamiyatdan “yiroqlashib ketishdan” qo‘rqadi. Ammo ba‘zida o‘z-o‘zi bilan yolg‘iz qoladi. Olim Korchagina bu holatlarni aniqlab, yolg‘izlik psixokorreksiya bo‘yicha tadqiqotlarini olib boradi, shaxsda ro‘y beradigan psixologik holatlarning namoyon bo‘lishi va o‘zgarishlarni kuzatadi. Turli hayotiy sharoitlarda o‘rnatilgan tartibga bo‘ysunishga, “boshqalar” bilan munosabatlarda barqarorlikni saqlashga va tinchlik tarafdori bo‘lishga intiladi. Jamoadagi shaxslararo munosabatlarda shaxsning vaqti-vaqti bilan “uyg‘onishi” va o‘ziga qarshi isyon ko‘tarishi ruhiy va jismoniy salomatligiga ta‘sir ko‘rsatadi, ahillik muhitida yashash va ishlash shaxsning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shaxs shakllanib psixologik, biologik rivojlanib borar ekan, birinchi itoatkorlik saboqlarini dastlab oilada, keyin maktabgacha ta‘lim muassasasida oladi, oxirgi psixologik tadqiqotlarda shu narsa aniqlandiki, individ hali 4 oyligidayoq unda dastlabki uyat hissi shakllanar ekan. Dastlabki ustozlar ota-onalar bolani jamiyatdagi xatti-harakatlarning stereotiplari bilan tanishtiradilar, uning barcha harakatlarini nazorat qiladilar mantiq qonunlari asosida olib boradilar, ularni oqilona tushuntiradilar. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda, jamoalarda ham turli shart-sharoitlar o‘zgarimoqda, muassasalarga yangi talablar qo‘yilmoqda. Jamoada yaxshi tashkil etilgan ijtimoiy psixologik munosabatlar jamoa a‘zolarining shaxsiga ta‘siri, asosan, odam boshqa odamlar bilan bevosita va doimiy aloqada bo‘ladigan kichik guruhlarda amalga oshiriladi. O‘zaro munosabatlarning barcha xilma-xilligida, jamoa odamni o‘rgatadi, ishlatadi, individual psixologik xususiyatlarini shakllantiradi. Shaxsning o‘zi va guruh unga e‘tibor bermaydigan holatlar ba‘zida yuzaga keladi, jamoa a‘zolarini birlashtirish uchun ijtimoiy doira va psixologik yaqinlik zarur bo‘ladi. Ruhiy salomatlikni ta‘minlashda ijtimoiy munosabatlar ko‘lamining kengayishi o‘sib kelayotgan avlodni o‘ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayoniga har tomonlama yetuk bo‘lishida asosiy vositadir. Individ shaxs sifatida shakllanar ekan ruhiy salomatlik va tetiklik hech qachon tark etmasligi zarur xususiyat hisoblanadi. Shaxs ruhiy jihatdan salomat bo‘lishi uchun o‘z so‘ziga, irodasiga, tafakkuriga rahbar bo‘lishi hamda faolligini yo‘qotmasagina faoliyatida kam xato

qiladi. Shaxs qaysi jamoaning a'zosi bo'lishidan qat'iy nazar, shaxslararo munosabatlarda faqat o'zining yuksak bilimdonligi, faolligiga ishonishi hamda tafakkur orqali ish yuritishi, jamiyatda kundalik qoidalarga to'laqonli rioya qilishi muhim o'rin tutadi. Shaxslararo munosabatlar va jamoadagi hamkorlik shaxs shakllanishida hamda jamoaning muvaffaqiyatga erishishida asosiy omillardan biri hisoblanadi, shaxsning irodasi jamoada sodir bo'ladigan turli hayotiy sharoitlarda mustahkamlanadi yoki zaiflashadi. Shaxs o'z faoliyati mobaynida bor imkoniyatlarini ishga solib, o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ya olsagina muvaffaqiyatlarga erisha oladi. Psixologik, intellektual va fiziologik jihatdan yetuk shaxs turli hayotiy hayotiy qarama-qarshiliklar, keskin holatlar ta'siriga tushib qolganida ham, noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan o'zini saqlab qola oladi. Shuningdek, shaxsning yuqori aqliy salohiyatga egaligi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shaxsning jamoada o'ziga xos to'g'ri va munosib o'rin topa olishi muvaffaqiyatlarining asosidir. Jamoa a'zolari orasida ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi, birgalikda umumiy faoliyatning tashkil etilganligi, ma'suliyatli shaxslararo munosabatlarning yo'lga qo'yilishi kundalik faoliyatda samaradorlikni ta'minlaydi. Jamoa a'zolari bilan doimiy ravishda hamkorlikda faoliyat olib borishi, konfliktlarsiz fikrlay olishi ro'y berayotgan voqea-xodisalarga shaxsiy munosabtni bildirishga imkon beradi. Jamoa a'zolari o'rtasida kechayotgan o'zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan biridir, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs o'z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta olsagina, yuqori samaradorlikka erishib erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Shaxslararo munosabatlarda jamoa a'zolari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy pirovard maqsadi ham har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, uning o'z qobiliyatini, talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir. Jamoa-bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lgan, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruhdir. Mavjud adabiyotlarda "jamo" tushunchasi asosan ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchisi, jamoa deganda biz necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhni tushunamiz (ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quvchilar, talabalar, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamosi va hokazo). Ikkinchi, yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi.

Tahlil va natijalar. Shaxsni jamoa yordamida tarbiyalash-tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biri hisoblanadi. Shaxsni ijtimoiy hayotda shakllanishida jamoaning yetakchi ekanligi va asosiy vazifalarni bajarishi to'g'risidagi fikrlar psixologiya fanining ilk rivojlanish davrlaridagi ma'lumotlarda ham keltirilgan. Turli hayotiy vaziyatlarda shaxslararo munosabatlarda jamoa a'zolari orasida munosabatlarning alohida shakli yuzaga keladi, natijada shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshi ta'minlanadi. Ijtimoiy hayotiy munosabatlarda har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblay olmaymiz. Turli jamoalardagi a'zolar o'ziga xos individual psixologik xarakter xususiyatlarga ega, mazkur xarakter va sifatlar jamoa a'zolarini boshqa jamoa a'zolaridan ajratib turadi. Shaxslararo munosabatlarda, turli hayotiy sharoitlarda, individning shaxs sifatida shakllanishida, mustaqil fikrlashida jamoada o'ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilar mavjud. Munosabatlarda jamoa jamiyatning alohida bir bo'g'ini, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining me'yorlari ifodasini topadi. Jamoa ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o'zaro birgalikda bir maqsad yo'lida harakatlanish, faoliyatda aloqadorlik yuzaga keladi, jamoa a'zolari faoliyatining aniq (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy xususiyat kasb etishi uning yetakchi belgisidir. Shaxslararo munosabatlarda, turli hayotiy munosabatlarda jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayon hisoblanadi. Shaxs ijtimoiy hayotda faoliyatini amalga oshirish mobaynida aniq maqsadlariga erishishi uchun shaxslararo munosabatlarga kirishishlarini nazarda tutuvchi faoliyat shakllari mavjud bo'lib, bu jarayonda shaxslar o'rtasida o'zaro jamoaviy ijtimoiy munosabatlar

vujudga keladi. Jamoada shaxslararo munosabatlarda mavjud rejadagi belgilangan vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun vazifalarni o'zaro taqsimlab chiqish ish samaradorligini oshishiga yordam beradi. Shaxslararo munosabatlarda jamoaga qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkiliy ko'rsatkich sanaladi. Turli hayotiy sharoitlarda jamoaning amaliy faoliyati mazmuni, a'zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ular o'rtasidagi ijodiy hamkorlik, shuningdek, ularning xulq-atvori axloqiy kamolot darajalarini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Shaxslararo munosabatlarda jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonining mohiyatini inobatga olish zarur. Jamoa a'zolari rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa a'zolarining hamkasblarini qo'llab-quvvatlash hamda o'z navbatida o'zi ham bu talablarga jamoa a'zolari bilan birgalikda rioya qilishi zarur. Shaxslararo munosabatlarda jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammolarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamiyatda zamon talablariga javob bera oladigan, kreativ fikrlovchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash kun tartibiga qo'yilmoqda, ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchan, yuqori malakali, turli soha egalarini tayyorlash asosiy vazifalardan hisoblanadi. Globollashuv davrida zamon talablariga javob bera oladigan shaxsni shakllantirish hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy talablaridan biridir.

Xulosa. Kuzatishlarimiz davomida shaxs ijtimoiy turmushda mavjud vaziyatlarni ijobiy hal qilishda jamoa a'zolarining mahoratini, faoliyatini o'rganishi va xulosa qilishi, o'ziga xos individual xususiyatlari bilan bog'liq ekanligining guvohi bo'ldik, shaxs ruhiy va jismoniy salomatligini doimiy asrashi uchun quyidagi tavsiyalarga rioya qilishi zarur hisoblanadi.

- Jamoalardagi shaxslararo munosabatlarda shaxs o'zini munosib tarzda boshqara olishi;
- turli hayotiy sharoitlarda borliqdagi voqea-hodisalarni xolis idrok etishi;
- atrofdagi odamlar muhitiga tez, samimiy va munosib moslasib kirishimli bo'lishi;
- jamoaga a'zolari bilan hamkorlikda va xushkayfiyatda bahamjihat ishlay olishi;
- o'zining hatti-harakatlarini har qanday holatda boshqara olishi;
- boshqaruvchi bo'lganda ham, turli hayotiy vaziyatlarga o'z ruhiyatini boshqarishi;
- muvaffaqiyatsizlikka uchragan turli hayotiy sharoitlarda o'zini yo'qotib, tushkunlik va o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmasligi;
- jamoadagi salbiy va ijobiy xarakter xususiyatli shaxslarning ruhiy holatlarini to'g'ri tahlil qila olishi;
- o'zining individual sifatlarini bilan jamoadoshlarining xarakter xususiyatlariga mos munosabatda bo'lishi.

Har bir shaxsda o'ziga xos psixologik xususiyatlar turlicha bo'lganligi sababli jamoaning tashkil topishi va faoliyati o'ziga xos shakllanadi, jamoa a'zolari yo'nalishi jamoada tarkib topadi. Jamoada o'zaro munosabatlar va jamoa faoliyat tajribasi jamoaning qat'iyiligi va kamtarligini tarkib toptiradi. Shaxsga jamoadagi tarbiyaviy ta'sirning asosiy jihati shundaki, u tarbiya sub'yekti sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxs jamoa hayoti va faoliyatida faol ishtirok etib, jamoa manfaatlarini ko'zlab yashashiga hamda o'z xatti-harakatlarini ana shu jamoaga bo'ysundirishga o'rganadi. Jamoada va jamoa ta'siri ostida jamoa o'zaro birdamlik munosabatlar tajribasini, ijtimoiy yo'nalishni taraqqiy ettirish, shaxs va jamiyat o'rtasidagi to'g'ri munosabatlar tajribasini egallaydi. Jamoadan tashqarida bunday sifatlarini umuman tarbiyalab bo'lmaydi. Shuningdek, tengqurlar jamoasi shaxsning barcha ijobiy sifatlarini (kamtarlik, vijdoniylik, qat'iylik, o'z-o'zini tuta bilish va h.k.) tarkib toptirish va taraqqiy ettirishga ta'sir ko'rsatadi. Jamoa yalqovlik, xudbinlik, ichi- qoralik, qo'rqqoqlik, o'z-o'zini tuta bilmaslik, ikki yuzlamachilikni fosh qilib tashlaydi. Olim F.H.Gonobolin jamoada shaxslararo munosabatlarda

shaxsning kamol topishi borasida quyidagi fikrlarni ta’kidlagan. “Kishilar o’rtasidagi insoniy munosabat va o’zaro hurmat-jamiyatning asosiy mezonlaridan biridir, shuni alohida ta’kidlash zarurki, jamoada shaxslararo munosabatlarda insoniy mavqeyini kamsitmaslik bilan bir qatorda, mavjud talablarni ham bajarishi zarur” [5,32]-ekanligini ta’kidlaydi. Jamoa a’zolarida rostgo’ylik va halollik, axloqiy poklik, oddiylik va kamtarlik kabi individual xususiyatlarning mavjudligi shaxslarning ruhan va jismoniy salomat bo’lishining kafolatidir. Shaxsning ijtimoiy muhitda, shaxslararo munosabatlarda o’zini boshqara olishi haqida psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimova quyidagi fikrlarni bayon etadi:- “odam zararli odatlar og’ushida bo’lsa, o’zining hatti-harakatlari uchun ma’suliyatni his etmasa, o’ziga ishonmasa, ma’nan qashshoq, passiv bo’lsa, uni ruhan nosog’lom deyish mumkin”. [6,30].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://president.uz>
2. <https://president.uz>
3. O.M.Zaripov. Salomatlik psixologiyasi. O’quv-uslubiy qo’llanma. 2024. 25-b.
4. O.M.Zaripov. Salomatlik psixologiyasi. O’quv-uslubiy qo’llanma. 2024. 26-b.
5. O.M.Zaripov. Salomatlik psixologiyasi. O’quv-uslubiy qo’llanma. 2024. 32-b.
6. V.M.Karimova. Salomatlik psixologiyasi: yoxud sog’lom bo’lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari. 2005 y. 30-b.

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ОТЦОВСТВА У СТУДЕНТОВ
DEVELOPING A CULTURE OF FATHERHOOD AMONG STUDENTS
TALABALAR ORASIDA OTALIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Джуманиязов Юнус

Аннотация. В статье описана важность отцовской роли в воспитании ребенка; различие отцовских ролей в семье, где есть химически зависимый отец и в функциональной семье, роли отца в развитии, воспитании и социализации ребенка.

Ключевые слова: *отцовство, культура отцовства, методика формирования культуры отцовства, учащиеся, подготовка к отцовству.*

Annotatsiya. Maqolada bolaning tarbiyasida otaning rolining ahamiyati; kimyoviy bog'liq otasi bo'lgan oila va funksional oiladagi otalik rollarining farqlari, bolaning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvidagi otaning rollari tasvirlangan.

Kalit so'zlar: *otalik, otalik madaniyati, otalik madaniyatini shakllantirish metodikasi, o'quvchilar, otalikka tayyorgarlik.*

Abstract. The article describes the importance of the father's role in child upbringing; the differences in paternal roles in families with a chemically dependent father and in functional families, as well as the father's roles in the development, upbringing, and socialization of the child.

Keywords: *fatherhood, culture of fatherhood, methodology for forming a culture of fatherhood, students, preparation for fatherhood.*

Введение

В современном обществе состояние института семьи в целом, и института отцовства, в частности, расценивается как кризисное. На это указывали А. Адлер [1], Ю.В. Борисенко [2], Т.А. Гурко [3], Е.И. Зритнева [4], С.А. Сергейко [5] и др. Кризисное состояние отцовства отражается в таких аспектах, как незаинтересованность мужчин в рождении детей (babyfree семьи), отстраненность отцов от воспитания детей, неучастие в развитии и формировании личности ребенка. Основная функция, которую отцы должны выполнять в семье, по мнению самих отцов, – это финансовая поддержка семьи. Современное отцовство характеризуется двумя тенденциями. С одной стороны, сами отцы не готовы выполнять воспитательные функции, не готовы применять родительские роли к себе. С другой стороны, практически не существует программ, методик, тренингов, занятий и т. п. по привлечению отцов к воспитанию детей, поднятию престижа отцовства, формированию ответственного, вовлеченного, продуктивного отцовства, по формированию общей культуры отцовства.

Анализ литературы по теме

Трансформация семьи, родительства, семейных ценностей и норм, в целом, и отцовства, в частности, наиболее интенсивно происходит в начале XXI в. Поэтому необходимы программы и

методики по формированию культуры отцовства. В современных условиях учреждения общего среднего образования, дополнительного образования, учреждения образования, осуществляющие переподготовку кадров (педагогического профиля), должны быть нацелены на воспитание будущего отца, формирование культуры отцовства. Например, Е.И. Зритнева, определяет «добрачное воспитание» как неотъемлемую составную часть общей системы воспитания подрастающего поколения. Она пишет, что воспитание «будущего семьянина» является сложным социально-педагогическим процессом помощи ребенку, который протекает под целенаправленным регулированием освоения личностью роли семьянина. Воспитание «будущего семьянина», по мнению исследователя, включает в себя формирование ценностного образа семьи, установки на вступление в брак, формирование и развитие качеств личности, ее знаний, умений и навыков, ценных для брачно-семейной жизни. Главный критерий воспитания – готовность личности к семейной жизни [4, с. 50]. В свою очередь, О.В. Белоус, Л.В. Саркян в своих исследованиях подчеркивают необходимость подготовки старшеклассников к семейной жизни [6, с. 73–74]. Они пишут, что, закладывая основы воспитуемости будущих поколений, необходимо воспитывать матерей и отцов [7, с. 10]. Сегодня, как никогда, актуальна мысль, высказанная около пятидесяти лет назад, о том, что «пришло время создавать идеальную семью, идеальные взаимоотношения между матерью и отцом, между детьми и родителями» [8]. Профессор В.В. Чечет отмечает, что необходимо воспитывать мальчиков как будущих отцов с детских лет, когда педагоги должны создавать условия, которые способствуют осуществлению мальчиками семейного и жизненного опыта через полученные знания и физический труд [9].

Методология исследования

Зачем в современной семье нужен отец? Неужели только добывать средства для безбедного существования? Конечно, нет! Постепенно общество пришло к следующему выводу: в вопросах воспитания детей папа может дать то, чего не может мама, у родителей разные, дополняющие друг друга функции. И только тандем мамы и папы дает возможность для становления гармоничной личности ребенка. Маму ребенок ощущает частью себя, а папа – это вестник мира. Так ощущает малыш в самом начале жизни, так будет и в дальнейшем: мама дает любовь, а папа открывает дорогу в мир. Именно папа поощряет активность детей в освоении мира, формировании и достижении целей. Но папа не только проводник, но и контролер. Любовь матери безусловная и бесконечная; отцовская любовь требовательна, она возникает, условно выражаясь, как награда за социальную адаптацию и успехи ребенка. Папа – это воплощение дисциплины, требований, норм. Такой баланс принятия (мама) и отдачи (папа) необходим для развития личности. Именно папа отвечает за принятие ребенком своего пола и усвоение соответствующей модели поведения. Одна из распространенных ошибок – воспитание малыша как бесполого существа. Задача папы – подчеркивать и культивировать мужское (в сыне) женское (в дочери). Отцовская миссия невероятно важна – как же вести себя так, чтобы не испортить, не сломать, а взлелеять и направить на нужный путь свое чадо? Прежде всего, и с самого первого дня, нужны действие, активная забота о ребенке наравне с матерью. Это важно не только для установления контакта, но и для самих мужчин – отцовская любовь появляется именно с действием. Для того чтобы быть отцом, мало быть добытчиком и далекой карающей инстанцией. Хотите иметь влияние на ребенка, привить ему свои ценности – налажьте с ним настоящий контакт с самого рождения и продолжайте поддерживать его всю жизнь. Как говорил один хороший папа: «Хочешь быть близким – первые пару лет придется попотеть, а отдачи сначала не будет».

Анализ и результаты

Папе необходимо быть вовлеченным в жизнь ребенка, а это означает взять на себя ответственность за его благополучие, проводить с ним достаточное количество времени, принимать участие в совместной деятельности и всегда быть доступным для малыша – как физически, так и эмоционально. Даже если вы работаете 22 часа в сутки, ребенок должен чувствовать, что, если ему будет нужно, вы отложите все и будете рядом, поможете разобраться и поддержите. Проще говоря, все, что нужно детям от отцов, – это внимание, дружба, общие дела и досуг. Просто и сложно одновременно. Поскольку папа в сознании ребенка – это высшая инстанция, нужно быть крайне осторожным с порицанием и похвалой. Никогда нельзя негативно оценивать личность малыша – только его действия: не «ты плохой», а «ты плохо поступил». Преобладание же порицаний над похвалой заставляет ребенка думать, что папа в целом низко оценивает его личность, а это ведет к формированию у него низкой самооценки. По-настоящему продуктивное воспитание – это чаще одобрение хорошего поведения, чем порицание плохого. Отец – это гид ребенка по миру. Если он не отмахивается от заданных вопросов, создает богатую окружающую среду, поддерживает ребенка в его начинаниях и показывает, как надо и не надо, папа выполняет свою миссию. Папа – большой ребенок, и это его уникальная особенность. Именно папа использует весь окружающий мир как большое игровое развивающее поле, папа учит ребенка причинно-следственному принципу, папа умеет использовать обычные вещи необычным способом и таким образом расширять границы сознания ребенка, папа не боится умеренных стрессов, так как знает, что они закаляют. И отцам ни в коем случае нельзя «забывать» эти свои черты, наоборот, нужно всячески их оберегать и культивировать, это один из самых ценных подарков вашим детям. Эрих Фромм писал: «Отец – это тот, кто учит ребенка, как узнавать дорогу в мир».1 Можно добавить, что отец – это тот, кто сопровождает на этой дороге ребенка столько, сколько ему необходимо. Если отец делает это с полной отдачей, то настает время, и по этой дороге начинает идти другой настоящий человек! В этой естественной и первобытной форме авторитетной власти ребенок впервые убеждается в том, что власть, насыщенная любовью, является благостной силой ... и, наконец, он начинает понимать, что авторитет духовно старшего человека совсем не призван подавлять или поработать подчиненного, пренебрегать его внутренней свободой и ломать его характер, но что наоборот, он призван воспитывать человека к внутренней свободе. Благодаря этому семья становится как бы начальной школой для воспитания свободного и здорового правосознания... Именно семья дарит человеку два священных первообраза, которые он носит в себе всю жизнь и в живом отношении, к которым растет его душа и крепнет его дух: первообраз чистой матери, несущей любовь, милость и защиту; и первообраз благого отца, дарующего питание, справедливость и разумение».1 Но что же происходит в системе, где папа болен химической зависимостью? Существуют семьи, в которых имеет место либо химическая зависимость, либо жестокое обращение (физическая, сексуальная или эмоциональная агрессия). Такие семьи носят название дисфункциональные. Семья – это главная система, к которой принадлежит каждый из нас. Система – это группа людей, взаимодействующих как одно целое. Поскольку все части этой системы находятся в тесном контакте, то и улучшение (ухудшение) состояния одного из членов семьи неизбежно отражается на самочувствии других. Дети – самое слабое звено во всей системе. Семью можно сравнить с домом, в котором каждый держит свою стену, выполняя свои обязанности.

Таким образом, в отечественной психологии это — одна из самых мало изученных и неразработанных проблем. Мы не должны забывать, что именно родительство, является одним

из важнейших этапов жизни человека, приходящимся на возрастной период взрослости. Родительство во многих культурах, так или иначе, связано с понятием зрелость. Кроме того, становясь родителем, человек проходит определенный этап развития своей личности. Э. Фромм видел в родительстве возможность реализации способности любить и партнера, и ребенка. Г. Крайг (2000) считает родительство высшей фазой как в индивидуальном развитии отца и матери, так и в развитии пары в целом — развитии идентичности интимности с близким человеком.

Современные психологические исследования определяют, что отец играет важнейшую роль в социальном, интеллектуальном, эмоциональном развитии, полоролевой идентификации ребенка и усвоении им моральных норм.

Специфика отцовства по сравнению с материнством состоит в уникальности вклада отца в социализацию ребенка, в меньшей биологической и большей социальной и семейной детерминированности отцовства по сравнению с материнством при одновременной нечеткости ролевых ожиданий относительно отцовской роли, и зависимостью степени вовлеченности в жизнь ребенка от степени вовлеченности матери в жизнь ребенка. При этом отцовство конкретного мужчины определяется его прошлыми и настоящими взаимоотношениями с собственным отцом, который предоставляет модель ролевого поведения мужчины и с настоящими взаимоотношениями с супругой, в которых эта модель реализуется, оценивается и трансформируется. Принятие роли отца определяет успешность выполнения этой роли, однако, несмотря на то, что осознание себя отцом происходит преимущественно после рождения ребенка, различные аспекты принятия ребенка и себя как отца начинают складываться еще задолго до непосредственного взаимодействия с ребенком в рамках становления психологической готовности к отцовству, представляющей собой совокупность сформированных установок, мотивов и определенных качеств личности, характеризующих способы и варианты интериоризации и экстериоризации отцовской роли мужчиной, детерминированных базисными ценностями личности и реализуемых на практике в конструктивной стратегии отцовства. Структура психологической готовности к отцовству определяется следующими содержательными характеристиками: аксиологический (включающий принятие гендерной отцовской роли, зрелость личности, ответственность по отношению к собственному здоровью, поведению, отцовству, ценность отцовства, ценностное отношение к ребенку и кооперационное отношение к супруге, как партнеру родительства), рефлексивно-регулятивный (включающий личностную зрелость, рефлексивность и саморегуляцию) и праксиологический (характеризующий поведение и/или отцовские практики) компоненты.

Стратегии отцовства представляют собой совокупность способов конструирования жизни отца и ребенка (а во многом и матери) в соответствии с установками и представлениями отца об отцовстве, имеющую трехкомпонентную структуру и содержание, критерии сформированности, определяемые через социальные, культурные и личностные ориентации личности (сформированные микро- мезо- и макрофакторами среды). При этом конструктивность стратегий взаимосвязана со зрелостью личности, высоким уровнем саморегуляции и развитой рефлексией, принятием своей гендерной роли, ответственностью и ценностью отцовства. Становление готовности к отцовству представляет собой процесс поэтапного формирования качеств личности, характеризующих способы и варианты интериоризации и экстериоризации отцовской роли мужчиной, происходящий в системном единстве с общей и гендерной социализацией личности, определяющей возможности психолого-педагогического сопровождения становления психологической готовности к отцовству.

Заклучение и рекомендации

Это процесс, в рамках которого происходит развитие и формирование отдельных элементов конструктивных стратегий отцовства, происходящий поэтапно, начиная с дошкольного возраста, включая: этап обозначения отцовства (формирование представлений об отцовстве), этап осмысления отцовства (переосмысление имеющихся знаний и представлений об отцовстве в период беременности жены) и этап ценностного осознания отцовства и реализации на этой основе, а также дальнейшего развития стратегии отцовства в отцовских практиках после рождения ребенка. Кроме того, для практической деятельности психологов и педагогов, открытость отцовства к социальным влияниям является важнейшей его характеристикой и позволяет осуществлять определенное психолого-педагогическое воздействие на поведение отца. При этом такая работа может быть необходима не только взрослым мужчинам, готовящимся или уже ставшим отцами, но и мужчинам и мальчикам в более ранних возрастах, так как становление предпосылок психологической готовности к отцовству начинается в дошкольном возрасте.

Список литературы

1. Адлер, А. Очерки по индивидуальной психологии / А. Адлер. – М. : Когито-Центр, 2006. – 290 с.
2. Борисенко, Ю. В. Психология отцовства / Ю. В. Борисенко. – М.–Обнинск : «ИГ-СОЦИН», 2007. – 220 с.
3. Гурко, Т. А. Трансформация института родительства в постсоветской России : дисс. ... д-ра социол. наук : 22.00.04 / Т. А. Гурко. – М., 2008. – 342 л. 4. Зритнева, Е. И. Воспитание будущего семьянина в современной России : дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.01 / Е. И. Зритнева. – Ставрополь, 2006. – 370 л. 5. Сергейко, С. А. Характерные особенности современного отца / С. А. Сергейко // Традиции и инновации в социальной работе : сб. материалов респуб. научн.-практ. конф., Брест, 15 марта 2014 г. / Брест. гос. ун-т им. А.С. Пушкина ; под общ. ред. А. С. Сендер. – Брест : БрГУ, 2014. – С. 125–131.
6. Белоус, О. В. Проблема содержания семейных отношений и отношения молодежи к феномену семьи / О. В. Белоус, Л. В. Саркисян // Психологические проблемы современной семьи : в 2 ч. : матер. третьей Междунар. науч. конф., Москва, 16–18 октября 2007 г. – М., 2007. – Ч. 1. – 536 с.
7. Сухомлинский, В. А. Как воспитать настоящего человека / В. А. Сухомлинский. – М. : Педагогика, 1989. – 292 с.
8. Сухомлинский, В. А. Гармония трех начал / В. А. Сухомлинский // Журналист. – 1970. – №1. – С. 11–15.
9. Чечет, В. В. Ответственное отцовство : воспитываем с детства. Опыт работы школ по семейному воспитанию [Электронный ресурс] / В. В. Чечет // Выхаванне і дадатковая адукацыя. – 2018. – №
10. <https://elib.bspu.by/handle/doc/38058>. – Дата доступа : 28.02.2022.



O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining "Fan va ta'lim integratsiyasi" jurnali tahririyati tomonidan tahrirdan o'tkazildi va chop etishga tavsiya etildi (25.03.2025).



<http://journals.uzfi.uz>

2025-yil 25-martda chop etishga ruxsat berildi:
Qog'oz bichimi 60×84_{1/16}. "Times New Roman" garniturasini.
Elektron usulda chop etildi. Shartli b.t. 21,3. Adadi 100 nusxa.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida onlayn chop etildi.
Manzil: 140100, Samarqand sh., Spitamen shoh ko'chasi, 166-uy.